The evaluation stage of the research was based on a multi-criteria assessment system designed to provide a comprehensive measurement of students' linguistic modelling competence. This system ensured an objective and systematic analysis of learners' cognitive, practical, and creative achievements. In particular, it allowed for the identification of different levels of grammatical knowledge formation through clearly

defined indicators. The main criteria and their pedagogical significance are presented in the table below.

Stage	Description	Educational Impact
Evaluation stage	A multi-criteria assessment system developed in this stage enabled a comprehensive evaluation of students' linguistic modelling skills.	Provided an objective determination of the level of grammatical knowledge formation through a structured and holistic approach.
Cognitive criteria	Assessment criteria covered cognitive activities.	Helped identify students' understanding, analytical thinking, and conceptual grasp of grammatical knowledge.
Practical criteria	Assessment included practical application of linguistic knowledge.	Evaluated students' ability to apply grammatical rules in real tasks and language use.
Creative criteria	Assessment also focused on creative activity.	Enabled identification of higher-order competencies such as model creation, adaptation, and innovation in linguistic tasks.
Overall significance	The criteria included model creation, practical application, and development of new models.	Played a key role in determining students' advanced competency levels in linguistic modelling.

DISCUSSION

The results of the discussion show that interactive methods further enhance the effectiveness of linguistic modelling. In particular, the use of INSERT and KWL technologies helped students analyze their own knowledge, engage in self-assessment, and consciously acquire new information. These methods not only developed reflective

thinking but also increased students' active participation in the learning process. Therefore, the integration of linguistic modelling with modern pedagogical technologies is considered one of the key factors in improving educational effectiveness.

CONCLUSION

Based on the results of the conducted research, the following scientific conclusions were reached:

First, linguistic modelling is an effective didactic tool for forming grammatical concepts in primary school mother tongue education. Through modelling, students understand the internal logic of language phenomena, systematize them, and acquire the ability to apply them independently in practice.

Second, the improved model, consisting of cognitive, practical, and creative components, provides integrated development of students' linguistic competencies. This model ensures step-by-step acquisition of grammatical knowledge and develops learners' logical and creative thinking.

Third, the methodological model of linguistic concept formation, which includes diagnostic, preparatory, organizational, and evaluation stages, enables systematic organization of the learning process. The use of interactive methods such as INSERT and KWL significantly contributes to the development of students' reflective activity, self-assessment, and independent learning skills.

Fourth, integrating linguistic modelling with digital educational platforms further enhances the quality of primary education. Interactive models present grammatical concepts in a visual, structured, and engaging form for students.

References

1. Carroll, G., & Park, S. (2026). Towards expansive model-based teaching: A systematic synthesis of modelling pedagogies in science education literature. *Studies in Science Education*, *62*(1), 1–39. https://doi.org/10.1080/03057267.2024.2417157

2. Baynazarova D.D., Toirova M.E. *Mother Tongue. Grade 4. Part IV: Textbook for General Secondary Schools.* – Tashkent: Novda Edutainment, 2023. – 88 p.

3. Su F., Zou D. A comparative review of technology-assisted and non-technology concept mapping-based language learning // *International Journal of Educational Research Open*. – 2024. – Vol. 6. – Article 100319. – DOI: 10.1016/j.ijedro.2024.100319

4. Van Rijt, J., de Swart, P., & Coppen, P. A. (2019). Linguistic concepts in L1 grammar education: a systematic literature review. *Research Papers in Education*, *34*(5), 621–648. https://doi.org/10.1080/02671522.2018.1493742

UDK: 796.011.3:378-055.2

GUMANITAR TA'LIM YO'NALISHLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABA QIZLARNING KASBIY FAOLIYATIGA XOS JISMONIY VA PSIXOFIZIOLOGIK TALABLAR

G'ulomjonov G'ofurjon G'ulomjon o'g'li
Namangan davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi
E-mail: gulomjonovgofurjon1991@gmail.com Telefon: +998 93 408 73 27
ORCID: 0009-0004-8132-0141

Annotatsiya: *Maqolaning maqsadi gumanitar ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talaba qizlarning bo'lajak kasbiy faoliyatiga xos jismoniy va psixofiziologik talablarni professiografik yondashuv asosida tizimlashtirish hamda kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlikning ustuvor yo'nalishlarini asoslashdan iborat. Tadqiqot nazariy-tahliliy dizaynda bajarildi. Manbalarni bibliografik izlash, mazmuniy tahlil, qiyosiy tahlil, professiografik modellashtirish, tasniflash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Dastlabki 38 ta noyob manba ko'rib chiqilib, mavzuga bevosita aloqador 30 ta ilmiy manba yakuniy tahlilga kiritildi. Natijalar gumanitar kasbiy faoliyat uzoq davom etadigan o'tirish va tik turish, kompyuter hamda hujjatlar bilan ishlash, auditoriya oldida nutq so'zlash, yuqori kommunikativ zichlik, emotsional zo'riqish va barqaror diqqatni talab qilishini ko'rsatdi. Ushbu sharoitlarga mos yetakchi jismoniy sifatlar sifatida umumiy, statik va kuch chidamliligi, egiluvchanlik, koordinatsiya hamda muvozanat; psixofiziologik sifatlar sifatida diqqat barqarorligi, stressga chidamlilik, emotsional o'zini boshqarish, nutq-nafas boshqaruvi va sensor-motor muvofiqlik ajratildi. Xulosada kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik sog'lomlashtiruvchi, profilaktik-korreksion, funksional va psixofiziologik bloklar integratsiyasida tashkil etilishi zarurligi asoslandi. Taklif etilgan tizim oliy ta'limdagi jismoniy tarbiya mazmunini kasb talablariga moslashtirish uchun metodik asos yaratadi.*

Kalit so'zlar: *kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik, talaba qizlar, gumanitar ta'lim, professiografik tahlil, statik chidamlilik, qomat, stressga chidamlilik, nutq-nafas boshqaruvi, ishchanlik, sensor-motor muvofiqlik.*

ФИЗИЧЕСКИЕ И ПСИХОФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОК ГУМАНИТАРНЫХ НАПРАВЛЕНИЙ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: *Цель статьи — систематизировать на основе профессиографического подхода физические и психофизиологические требования, характерные для будущей профессиональной деятельности студенток гуманитарных направлений, и обосновать приоритеты профессионально-прикладной физической подготовки. Исследование выполнено в теоретико-аналитическом дизайне. Применялись библиографический поиск, контент-анализ,*

сравнительный анализ, профессиографическое моделирование, классификация и обобщение. Из первоначального массива в 38 уникальных источников в итоговый анализ были включены 30 работ, непосредственно соответствующих теме. Результаты показали, что гуманитарная профессиональная деятельность связана с продолжительным сидением и стоянием, работой за компьютером и с документами, публичной речью, высокой коммуникативной плотностью, эмоциональным напряжением и необходимостью устойчивого внимания. В качестве ведущих физических качеств выделены общая, статическая и силовая выносливость, гибкость, координация и равновесие; к психофизиологическим качествам отнесены устойчивость внимания, стрессоустойчивость, эмоциональная саморегуляция, рече-дыхательное управление и сенсомоторная согласованность. Обосновано, что содержание профессионально-прикладной физической подготовки должно строиться на интеграции оздоровительного, профилактико-коррекционного, функционального и психофизиологического блоков, ориентированных не на спортивный результат, а на сохранение работоспособности и профилактику профессионально обусловленного утомления. Предложенная система может служить методической основой для профессиональной направленности занятий физическим воспитанием в высшей школе.

Ключевые слова: *профессионально-прикладная физическая подготовка, студентки, гуманитарное образование, профессиографический анализ, статическая выносливость, осанка, стрессоустойчивость, рече-дыхательное управление, работоспособность, сенсомоторная координация.*

PHYSICAL AND PSYCHOPHYSIOLOGICAL REQUIREMENTS OF THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF FEMALE STUDENTS IN HUMANITIES EDUCATION

Abstract: *The purpose of this article was to systematize, through a job-analysis approach, the physical and psychophysiological requirements associated with the future professional activity of female students in humanities education and to substantiate priorities for professionally applied physical training. A theoretical-analytical design was used. The methods included bibliographic searching, content analysis, comparative analysis, job-demand modelling, classification, and synthesis. An initial set of 38 unique sources was reviewed, and 30 publications directly relevant to the topic were included in the final analysis. The findings indicate that humanities-related occupations commonly involve prolonged sitting and standing, computer and document work, public speaking, intensive interpersonal communication, emotional strain, and sustained attention. The leading physical qualities were identified as general, static, and strength endurance, flexibility, coordination, and balance. The principal psychophysiological qualities included attentional stability, stress tolerance, emotional self-regulation, speech-breath control, and sensorimotor coordination. The analysis supports an integrated structure of professionally applied physical training that combines health-promoting, preventive-corrective, functional, and psychophysiological components. Such training should be oriented not toward sports performance but toward maintaining*

occupational work capacity, preserving posture and respiratory efficiency, reducing musculoskeletal strain, and preventing fatigue under the specific conditions of future professional activity.

Keywords: *professionally applied physical training, female students, humanities education, job analysis, static endurance, posture, stress tolerance, speech-breath control, work capacity, sensorimotor coordination.*

KIRISH

Zamonaviy oliy ta’limda mutaxassis tayyorlash jarayoni faqat kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish bilan cheklanmaydi. Bo‘lajak mutaxassisning sog‘lig‘i, funksional imkoniyatlari, uzoq muddatli ishchanligi va kasbiy muhitga moslashuvchanligi ham ta’lim natijasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ayniqsa pedagogika, filologiya, psixologiya, tarix, boshlang‘ich ta’lim, maktabgacha ta’lim, ijtimoiy ish va boshqa gumanitar yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talaba qizlarning kelajak faoliyati inson bilan ishlash, axborotni qabul qilish va qayta ishlash, dars yoki taqdimot o‘tkazish, hujjatlar tayyorlash, muloqotni boshqarish hamda emotsional vaziyatlarda o‘zini nazorat qilish bilan tavsiflanadi. Mazkur faoliyat tashqi tomondan katta jismoniy kuch sarfini talab qilmaydigandek ko‘rinsa-da, uning tarkibida uzoq davom etadigan statik holat, aqliy zo‘riqish, nutq yuklamasi, yuqori mas’uliyat va kommunikativ bosim mavjud.

Gumanitar yo‘nalishlarda o‘quv va kasbiy faoliyatning sezilarli qismi o‘tirgan holda amalga oshiriladi. Ma’ruza tinglash, matn o‘qish, kompyuterda ishlash, yozma topshiriqlar bajarish va hujjatlarni tahlil qilish jarayonida bo‘yin-yelka, bel-orqa va gavda markazi mushaklariga uzoq muddatli statik yuklama tushadi. Uzoq o‘tirishning salomatlikka ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar bunday xulq-atvor mushak-skelet noqulayligi, funksional charchoq va umumiy ishchanlikning pasayishi bilan bog‘lanishi mumkinligini ko‘rsatadi (Owen et al., 2010; Daneshmandi et al., 2017; Baker et al., 2018). Shuning uchun talaba qizlarning jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari umumiy harakat faolligini ta’minlashdan tashqari, bo‘lajak kasbning statik va psixofiziologik omillarini kompensatsiyalashi lozim.

Kasbiy-pedagogik faoliyatda kommunikativ madaniyat, o‘zini boshqarish, diqqat, mas’uliyat va emotsional barqarorlik mutaxassis kompetentligining muhim unsurlari sifatida talqin qilinadi (Muslimov et al., 2015; Rean et al., 2000). E.A. Klimovning kasblar tasnifida gumanitar yo‘nalishlarning katta qismi “inson–inson” va qisman “inson–belgilar tizimi” tiplariga mansub bo‘lib, ularda muloqot, axborotni qayta ishlash, qaror qabul qilish va kasbiy vaziyatlarga moslashish yetakchi o‘rin egallaydi (Klimov, 1996). Demak, talaba qizlarning kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligi faqat kuch, tezkorlik yoki sport natijalarini oshirishga emas, balki qomatni saqlash, charchoqqa bardosh berish, nutq-nafas faoliyatini boshqarish, stress ta’sirini kamaytirish va uzoq muddatli ishchanlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilishi kerak.

Mavjud ilmiy adabiyotlarda sedentarlik, o‘qituvchi stressi, qomat va ovoz o‘rtasidagi bog‘liqlik, jismoniy sifatlarni rivojlantirish hamda emotsional boshqaruv alohida yo‘nalishlarda yetarlicha yoritilgan. Biroq gumanitar ta’lim yo‘nalishlaridagi talaba qizlarning real kasbiy vaziyatlari, ularga mos jismoniy sifatlar, psixofiziologik talablar va tavsiya etiladigan jismoniy tarbiya vositalarini yagona professiografik tizimda birlashtirish masalasi to‘liq shakllantirilmagan. Natijada mashg‘ulot mazmuni ko‘pincha umumiy jismoniy tayyorgarlik doirasida qolib, kelajak kasbiy faoliyatining xususiy yuklamalari bilan yetarli darajada bog‘lanmaydi.

Shu munosabat bilan tadqiqotning maqsadi gumanitar ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talaba qizlarning bo‘lajak kasbiy faoliyatiga xos jismoniy va psixofiziologik talablarni professiografik yondashuv asosida tizimlashtirish hamda kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlikning ustuvor tarkibiy qismlarini asoslashdan iborat. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: gumanitar kasbiy faoliyatning asosiy ish vaziyatlarini tavsiflash; mazkur vaziyatlarda yuzaga keladigan funksional va psixofiziologik yuklamalarni aniqlash; zarur jismoniy va psixofiziologik sifatlarni tasniflash; ularni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashq vositalari va pedagogik bloklarni

ishlab chiqish; nazariy natijalarni kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik mazmuni bilan bog‘lash.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlikning mazmunini belgilashda kasb talablarini tahlil qilish birlamchi metodik shart hisoblanadi. Professiografiya kasbiy faoliyat vazifalari, mehnat sharoiti, ish holati, harakat rejimi, aqliy va emotsional zo‘riqish hamda faoliyat samaradorligini ta’minlovchi shaxs sifatlarini o‘zaro bog‘liq holda o‘rganadi. V.D. Shadrikov kasbiy faoliyatning tizimli shakllanishini faoliyat maqsadi, vazifalari, psixik jarayonlar, kasbiy muhim sifatlar va ish sharoitlarining birligi sifatida ko‘rsatadi (Shadrikov, 1982). A.K. Markova esa professionalizmni faqat bilim va malaka bilan emas, balki shaxsiy, psixologik va funksional tayyorgarlik bilan ham bog‘laydi (Markova, 1996). Mazkur yondashuvlar jismoniy tarbiya mazmunini bo‘lajak mutaxassisning real mehnat sharoitlariga moslashtirish zarurligini asoslaydi.

Gumanitar mutaxassislar faoliyatida pedagogik, kommunikativ, intellektual va tashkiliy vazifalar bir-birini to‘ldiradi. Pedagogik faoliyat darsni rejalashtirish, tushuntirish, auditoriya e’tiborini boshqarish va tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishni talab qiladi. Kommunikativ faoliyat suhbat, savol-javob, bahs va jamoaviy munosabatlarda nutq ravonligi hamda emotsional nazoratga tayanadi. Intellektual faoliyat uzoq vaqt diqqatni saqlash, matn va belgilar bilan ishlash, ma’lumotni tahlil qilish va qaror qabul qilishni qamrab oladi. Tashkiliy faoliyat esa guruhni boshqarish, tadbirlarni muvofiqlashtirish va o‘zgaruvchan vaziyatlarda tezkor harakat qilishni talab etadi. Fleishman va Quaintance (1984) inson faoliyati qobiliyatlarini kognitiv, psixomotor, jismoniy va sensor guruhlarga ajratishi kasbiy tayyorgarlikda ushbu komponentlarni birgalikda hisobga olish lozimligini ko‘rsatadi.

Uzoq davom etadigan o‘tirish va kompyuter bilan ishlash gumanitar yo‘nalishlar uchun eng xos ish vaziyatlaridan biridir. Sedentar xulq-atvor uyg‘oq holatda o‘tirish, yotish yoki yonboshlash bilan kechadigan past energiya sarfli faoliyat sifatida izohlanadi

(Tremblay et al., 2017). Kompyuter bilan ishlashda noto‘g‘ri ergonomik holat, monitor balandligi, gavdaning oldinga egilishi va takroriy qo‘l harakatlari bo‘yin, yelka, bel hamda bilak sohalarida noqulaylikni kuchaytirishi mumkin (Jacobs et al., 2009). Ikki soatlik uzluksiz o‘tirish bo‘yicha tajribaviy ma’lumotlar tana noqulayligining ortishi va ayrim kognitiv ko‘rsatkichlarning yomonlashishi ehtimolini ko‘rsatgan (Baker et al., 2018). Bu dalillar qomat mushaklari chidamliligi, gavda markazi barqarorligi, bo‘g‘imlar harakatchanligi va faol tanaffus ko‘nikmalarini kasbiy-amaliy tayyorgarlikning muhim yo‘nalishlari sifatida belgilashga imkon beradi.

Gumanitar kasblarda nutq va nafas boshqaruvi alohida o‘rin tutadi. O‘qituvchi, tarbiyachi, psixolog yoki filologning kasbiy samaradorligi fikrni aniq va ta’sirchan ifodalash, ovozni uzoq vaqt barqaror saqlash va auditoriya bilan muloqotda emotsional ohangni boshqarishga bog‘liq. Nutq texnikasi nafas olish, ovoz hosil qilish, diksiya va artikulyatsiyaning birligi sifatida qaraladi (Mahmudov, 2007; Savostyanov, 2006). Qomat va ovoz holati o‘rtasidagi aloqalar bo‘yicha tizimli sharh to‘g‘ri gavda holati ovoz hosil bo‘lishining muhim shartlaridan biri ekanini ko‘rsatadi (Cardoso et al., 2019). Gavda markazini mustahkamlovchi mashqlar nafas ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi ham qayd etilgan (Cavaggioni et al., 2015).

Psixofiziologik nuqtayi nazardan gumanitar faoliyat barqaror diqqat, ishchi xotira, o‘zini nazorat qilish va kognitiv moslashuvchanlikni talab qiladi. Diamond (2013) ushbu jarayonlarni ijro funksiyalarining asosiy tarkibi sifatida tavsiflaydi. Kasbiy stress esa shaxsning vaziyatni baholashi, resurslari va moslashuv strategiyalariga bog‘liq murakkab jarayon bo‘lib, uzoq davom etganda organizmning funksional tizimlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin (McEwen, 2007). O‘qituvchi faoliyatiga oid tadqiqotlar kommunikativ zichlik, vaqt bosimi va mas’uliyat stressning muhim manbalari ekanini ko‘rsatadi (Kyriacou, 2001). Emotsional o‘zini boshqarish insonning emotsional reaksiyalarini vaziyatga mos ravishda tartibga solish qobiliyati bo‘lib, kasbiy muloqot samaradorligi uchun zarurdir (Gross, 2015). Nafas amaliyotlari stress va xavotirni

kamaytirish hamda o‘zini boshqarishni yaxshilash vositasi sifatida qo‘llanishi mumkin (Bentley et al., 2023).

Jismoniy sifatlar nuqtayi nazaridan umumiy chidamlilik uzoq davom etadigan faoliyatda ishchanlikni saqlashga, statik chidamlilik esa o‘tirish yoki tik turishda gavda holatini barqaror ushlab turishga xizmat qiladi. Kuch chidamliligi bel-orqa, qorin, bo‘yin-yelka va qo‘l mushaklarining uzoq muddat samarali ishlashini ta’minlaydi. Egiluvchanlik mushaklarning ortiqcha tarangligini kamaytirish va bo‘g‘im harakatchanligini saqlashga yordam beradi (Alter, 2004). Koordinatsiya va muvozanat tana holatini boshqarish, harakatlarni aniq tashkil etish va sensor-motor jarayonlarni muvofiqlashtirish uchun zarur (Lyakh, 2006; Shumway-Cook & Woollacott, 2017). Shunday qilib, mavjud adabiyotlar kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlikni ko‘p komponentli tizim sifatida tashkil etish uchun yetarli nazariy asos yaratadi, biroq bu komponentlarni gumanitar yo‘nalish talaba qizlarining aniq kasbiy vaziyatlari bilan bog‘laydigan yaxlit model zarur.

Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, empirik aralashuv yoki ishtirokchilar bilan tajriba o‘tkazishni nazarda tutmadi. Manbaviy baza kasbiy pedagogika, kasb psixologiyasi, mehnat gigiyenasi, jismoniy tarbiya nazariyasi, sedentarlik, mushak-skelet salomatligi, nutq-nafas faoliyati, stress va emotsional boshqaruvga oid o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi ilmiy adabiyotlardan shakllantirildi. Taqdim etilgan bibliografik majmuadagi 38 ta noyob manba dastlabki ko‘rib chiqishdan o‘tkazildi. Mavzuga bevosita aloqadorlik, ilmiy mazmunning yetarliligi va kasbiy talablarni izohlash imkoniyati mezonlari bo‘yicha 30 ta manba yakuniy tahlilga kiritildi.

Tahlil besh bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda gumanitar yo‘nalishlarga xos kasbiy vazifalar pedagogik, kommunikativ, intellektual va tashkiliy guruhlarga ajratildi. Ikkinchi bosqichda har bir vazifa bilan bog‘liq ish holati, harakat rejimi, statik yuklama, nutq yuklamasi, diqqat talabi va emotsional zo‘riqish tavsiflandi. Uchinchi bosqichda aniqlangan yuklamalar jismoniy sifatlar va psixofiziologik

imkoniyatlar bilan moslashtirildi. To‘rtinchi bosqichda har bir talab uchun maqsadga muvofiq jismoniy mashq vositalari tanlandi. Beshinchi bosqichda olingan natijalar sog‘lomlashtiruvchi, profilaktik-korreksion, funksional va psixofiziologik bloklardan iborat konseptual model ko‘rinishida umumlashtirildi.

Asosiy metodlar sifatida mazmuniy tahlil, qiyosiy tahlil, tasniflash, professiografik modellashtirish va nazariy umumlashtirish qo‘llandi. Mazmuniy tahlil manbalarda takroran uchraydigan kasbiy yuklama va sifatlarni aniqlashga xizmat qildi. Qiyosiy tahlil mahalliy, rus va xorijiy ilmiy yondashuvlarning umumiy hamda farqli jihatlarini ochib berdi. Professiografik modellashtirish “kasbiy vaziyat – funksional xavf – zarur sifat – mashq vositasi” mantiqiy zanjiri asosida bajarildi. Natijalarni talqin qilishda sabab-oqibat bog‘liqligini empirik isbotlangan fakt sifatida emas, balki mavjud ilmiy dalillarga tayangan nazariy asoslash sifatida ifodalash tamoyiliga rioya qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Gumanitar kasbiy faoliyatning professiografik tavsifi

Professiografik tahlil gumanitar yo‘nalishlarda bo‘lajak kasbiy faoliyatning yettita takrorlanuvchi vaziyatini ajratishga imkon berdi: uzoq vaqt o‘tirib o‘qish va ishlash; auditoriya oldida tik turib dars berish; muloqot va nutq faoliyati; kompyuter hamda hujjatlar bilan ishlash; stressli vaziyatlarda qaror qabul qilish; o‘quvchilar yoki jamoa bilan faol ishlash; uzoq davom etadigan aqliy mehnat. Ushbu vaziyatlarning har biri alohida emas, ko‘pincha bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘ladi. Masalan, dars berishda tik turish, nutq yuklamasi, auditoriyani kuzatish, emotsional nazorat va tezkor qaror qabul qilish birlashadi. Shu sababli kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik ham bitta jismoniy sifatni emas, o‘zaro bog‘langan sifatlar majmuasini rivojlantirishi lozim.

1-jadval. Gumanitar kasbiy vaziyatlar, funksional talablar va tavsiya etiladigan mashq vositalari

Kasbiy vaziyat	Asosiy funksional va psixofiziologik talab	Rivojlantiriladigan sifatlar va mashq vositalari

Uzoq vaqt o‘tirib o‘qish va ishlash	Gavda holatini uzoq saqlash; bel, bo‘yin va yelka mushaklarida statik zo‘riqish; harakat faolligining pasayishi	Statik va kuch chidamliligi; gavda markazi mashqlari, qomat gimnastikasi, faol tanaffus, yengil yurish
Auditoriya oldida tik turib dars berish	Umumiy ishchanlik, qomat barqarorligi, nafas chiqarish davomiyligi va ovozning tejamkorligi	Umumiy chidamlilik, muvozanat, diafragmal nafas, ko‘krak qafasi mobilizatsiyasi, qomat mashqlari
Muloqot va nutq faoliyati	Emotsional nazorat, nutq ritmi, nafas va ovozni muvofiqlashtirish	Nutq-nafas boshqaruvi, relaksatsiya, ritmik mashqlar, nazoratli nafas chiqarish
Kompyuter va hujjatlar bilan ishlash	Ko‘z-harakat koordinatsiyasi, mayda motorika, bilak-yelka va bo‘yin mushaklarining lokal chidamliligi	Sensor-motor koordinatsiya, bilak va yelka mobilizatsiyasi, ko‘z uchun faol tanaffuslar, rezina tasma mashqlari
Stressli vaziyatlarda qaror qabul qilish	Barqaror diqqat, psixofiziologik turg‘unlik, tez tiklanish va o‘zini boshqarish	Koordinatsion topshiriqlar, nafas-relaksatsiya, past va o‘rta shiddatli aerob mashqlar
O‘quvchilar yoki jamoa bilan faol ishlash	Harakatlarni tez moslashtirish, fazoviy yo‘nalish, kommunikativ faollik	Koordinatsiya, muvozanat, yengil estafeta va hamkorlikka asoslangan harakatli topshiriqlar
Uzoq davom etadigan aqliy mehnat	Diqqatni saqlash, charchoqqa bardoshlilik, funksional tiklanish	Umumiy chidamlilik, ritmik yurish, siklik mashqlar, qisqa faol tanaffus va cho‘zilish

Yetakchi jismoniy va psixofiziologik sifatlar

1-jadval ma'lumotlari gumanitar kasbiy faoliyatda jismoniy yuklama kamligi emas, balki uning boshqa shaklda — uzoq statik zo'riqish, past harakat faolligi, lokal mushak tarangligi va psixofiziologik bosim ko'rinishida namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Bu holat jismoniy tarbiya mazmunini yuqori shiddatli sport mashqlari bilan to'ldirishning o'zi yetarli emasligini anglatadi. Mashqlar kasbiy xavf omiliga mos, dozalangan va muntazam bo'lishi kerak.

Yetakchi jismoniy sifatlar ichida umumiy chidamlilik bazaviy o'rin egallaydi. U yurak-qon tomir va nafas tizimlarining uzoq muddatli faoliyatga moslashuvini qo'llab-quvvatlab, aqliy va kommunikativ ish davomida tez charchashni kamaytirishga xizmat qiladi. Biroq gumanitar yo'nalishlar uchun chidamlilik faqat yugurish natijasi bilan baholanmasligi kerak. Uning kasbiy ahamiyati ish kunining oxirigacha faollikni saqlash, dars yoki mashg'ulot vaqtida ovoz va gavda holatini boshqarish hamda faoliyatlar almashinuvida tiklanish qobiliyati bilan belgilanadi.

Statik va kuch chidamliligi qomatni saqlashning funksional asosidir. Uzoq o'tirish yoki tik turishda gavda markazi, orqa, qorin va bo'yin-yelka mushaklari past intensivlikda, ammo uzluksiz ishlaydi. Ushbu mushak guruhlari yetarli tayyorlanmaganda kompensator holatlar, lokal taranglik va noqulaylik paydo bo'lishi mumkin. Shu bois plankning soddalashtirilgan variantlari, "bird-dog", ko'prik, devorga suyangan holda statik ushlash, rezina tasma bilan tortish va qomatni nazorat qiluvchi mashqlar maqsadga muvofiq. Mashqlar bajarilishida texnik aniqlik, nafasni ushlab qolmaslik va bosqichma-bosqich yuklama tamoyili ustuvor bo'lishi kerak.

Egiluvchanlik va harakatchanlik uzoq statik holatning kompensator vositasidir. Bo'yin, ko'krak qafasi, yelka kamari, son bukuvchi mushaklari va boldir orqa guruhining harakatchanligini saqlash o'tirish bilan bog'liq taranglikni kamaytirishga yordam beradi. Bunda keskin va og'riqli cho'zishdan ko'ra, dinamik mobilizatsiya, nazoratli cho'zilish va faol tanaffus shakllari afzal. Koordinatsiya va muvozanat mashqlari esa gavda holatini

anglash, fazoviy nazorat, sensor-motor moslashuv va diqqatni bir vaqtning o‘zida faollashtiradi.

Psixofiziologik sifatlar orasida diqqat barqarorligi, emotsional o‘zini boshqarish va stressga chidamlilik kasbiy faoliyatning barcha turlariga taalluqlidir. Koordinatsion ketma-ketliklar, ritmik harakatlar, qaror talab qiluvchi o‘yin topshiriqlari va muvozanat mashqlari diqqatni harakat bilan integratsiyalash imkonini beradi. Nafasni sekinlashtirish, nafas chiqarishni uzaytirish va mushaklarni navbatma-navbat bo‘shashtirish usullari esa emotsional zo‘riqishni kamaytirishga yordam beruvchi qisqa amaliy vosita bo‘lishi mumkin. Bunday mashqlar klinik davolash o‘rnini bosmaydi, ammo jismoniy tarbiya doirasida o‘zini boshqarish ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Nutq-nafas boshqaruvi gumanitar yo‘nalishlar uchun maxsus kasbiy-amaliy komponentdir. Auditoriyada uzoq gapirish nafas chiqarish davomiyligi, ko‘krak qafasi harakatchanligi, to‘g‘ri qomat va ovoz apparatining tejamkor ishlashini talab qiladi. Diafragmal nafas, nazoratli nafas chiqarish, yelka va ko‘krak qafasini ochuvchi mobilizatsiya, qomatni tiklovchi mashqlar hamda qisqa nutqiy topshiriqlarni harakat bilan uyg‘unlashtirish bu komponentni rivojlantirishi mumkin. Bunda ovozni majburan kuchaytirish emas, nafas, qomat va artikulyatsiya uyg‘unligi maqsad qilinadi.

2-jadval. Kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlikning integrallashgan tarkibi

Tarkibiy blok	**Asosiy maqsad**	**Ustuvor vositalar va kutiladigan kasbiy-amaliy samara**
Sog‘lomlashtiruvchi	Umumiy harakat faolligi va funksional zaxirani oshirish	Yurish, yengil yugurish, aerob va ritmik mashqlar; uzoq faoliyatda ishchanlikni saqlash va tiklanishni tezlashtirish
Profilaktik-korreksion	Statik yuklama va mushak-skelet	Gavda markazi, bel-orqa, bo‘yin-yelka mashqlari, mobilizatsiya va

	noqulayligining oldini olish	cho‘zilish; qomatni saqlash va lokal taranglikni kamaytirish
Funksional	Kasbiy vaziyatlarga mos chidamlilik, muvozanat va koordinatsiyani rivojlantirish	Aylana usuli, statik-dinamik kuch mashqlari, muvozanat va koordinatsion topshiriqlar; harakatlarni tejamkor boshqarish
Psixofiziologik	Diqqat, stressga chidamlilik, emotsional va nutq-nafas boshqaruvini shakllantirish	Nafas-relaksatsiya, ritmik va sensor-motor mashqlar, qaror talab qiluvchi topshiriqlar; o‘zini boshqarish va kommunikativ barqarorlik

Natijalarning ilmiy va amaliy talqini

Taklif etilgan to‘rt blok bir-biridan ajralgan mashg‘ulot qismlari emas, balki yagona dars yoki mikrosikl tarkibida integratsiyalashadigan yo‘nalishlardir. Masalan, 45–60 daqiqalik mashg‘ulotda 8–10 daqiqa dinamik faollashtirish va mobilizatsiyaga, 15–20 daqiqa umumiy hamda kuch chidamliligiga, 10–12 daqiqa qomat va koordinatsiya mashqlariga, 5–8 daqiqa nafas-relaksatsion yakunlovchi qismga ajratilishi mumkin. Bu nisbat qat’iy standart emas; talabalarning tayyorgarlik darajasi, sog‘liq holati va dars sharoitiga ko‘ra moslashtiriladi.

Natijalarni mavjud tadqiqotlar bilan qiyoslash ularning mantiqiy mosligini ko‘rsatadi. Sedentarlik va uzoq o‘tirish bo‘yicha ishlar faol tanaffus, qomat mushaklarini mustahkamlash va ergonomik odatlarning ahamiyatini asoslaydi (Owen et al., 2010; Baker et al., 2018). Ovoz va qomat bo‘yicha ma’lumotlar nutq faoliyatini jismoniy tayyorgarlikdan ajratmaslik kerakligini ko‘rsatadi (Cardoso et al., 2019). Stress va emotsional boshqaruvga oid yondashuvlar esa nafas va relaksatsion mashqlarni psixofiziologik tayyorgarlik vositasi sifatida qo‘llash imkoniyatini ochadi (Gross, 2015; Bentley et al., 2023). Shu bilan birga, mazkur maqola ushbu yo‘nalishlarni aynan

gumanitar ta'limdagi talaba qizlarning kasbiy vaziyatlari bilan bog'lab, kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik uchun integral model taklif qilishi bilan farqlanadi.

Modelning amaliy ahamiyati shundaki, u jismoniy tarbiya o'qituvchisiga mashqlarni "umumiy foydali" tamoyili bo'yicha emas, aniq kasbiy talabga qarab tanlash imkonini beradi. Masalan, uzoq o'tirishga qarshi faqat yurish yoki yugurish emas, balki gavda markazi chidamliligi va faol tanaffus ko'nikmalari; auditoriya oldida ishlash uchun esa umumiy chidamlilik bilan birga qomat, nafas va emotsional nazorat mashqlari tanlanadi. Natijada mashg'ulotning kasbiy yo'naltirilganligi talaba uchun tushunarli bo'ladi va mashqlarni kelajak ish faoliyatida mustaqil qo'llash ehtimoli ortadi.

Tadqiqotning cheklovi uning nazariy-tahliliy xarakterga egaligidir. Taklif etilgan bog'lanishlar va model empirik tajriba orqali tekshirilmagan. Keyingi tadqiqotlarda talaba qizlarning qomat barqarorligi, statik chidamliligi, umumiy ishchanligi, diqqat, stress holati, nafas ko'rsatkichlari va mushak-skelet noqulayligi bo'yicha boshlang'ich diagnostika o'tkazish, so'ngra 12–16 haftalik integrallashgan dastur samaradorligini nazorat guruhi bilan baholash maqsadga muvofiq. Bunda jismoniy va psixofiziologik natijalarni birgalikda o'lchash modelning amaliy qiymatini aniqroq ko'rsatadi.

XULOSA

Gumanitar ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talaba qizlarning bo'lajak kasbiy faoliyati kam jismoniy zo'riqishli faoliyat sifatida emas, balki uzoq davom etadigan statik, aqliy, kommunikativ va emotsional yuklamalar majmuasi sifatida baholanishi lozim. Uzoq o'tirish va tik turish, kompyuter hamda hujjatlar bilan ishlash, auditoriya oldida nutq so'zlash, doimiy muloqot va mas'uliyatli qaror qabul qilish organizmning turli funksional tizimlariga o'ziga xos talablar qo'yadi.

Professiografik tahlil asosida talaba qizlar uchun umumiy chidamlilik, statik chidamlilik, kuch chidamliligi, egiluvchanlik, koordinatsiya va muvozanat yetakchi jismoniy sifatlar sifatida ajratildi. Diqqat barqarorligi, stressga chidamlilik, emotsional

o‘zini boshqarish, nutq-nafas boshqaruvi, ishchanlik va sensor-motor muvofiqlik esa kasbiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi asosiy psixofiziologik sifatlar sifatida belgilandi.

Kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik mazmuni sog‘lomlashtiruvchi, profilaktik-korreksion, funksional va psixofiziologik bloklar integratsiyasida tashkil etilishi kerak. Ushbu tizimning maqsadi sport natijasini maksimal oshirish emas, balki qomatni saqlash, mushak-skelet zo‘riqishini kamaytirish, nafas va ovoz faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, charchoqqa bardoshlilikni kuchaytirish hamda kasbiy vaziyatlarda o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Taklif etilgan “kasbiy vaziyat – funksional xavf – zarur sifat – mashq vositasi” modeli jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini kasb talablariga moslashtirish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Modelni oliy ta’lim amaliyotiga joriy etishdan oldin uning samaradorligini pedagogik tajriba, funksional testlar va psixofiziologik baholashlar orqali tekshirish zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari : o‘quv-metodik qo‘llanma. – Toshkent : Nizomiy, 2015. – 120 b. (Fundamentals of pedagogical competence and creativity).
2. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения : учебное пособие для студентов вузов. – Ростов-на-Дону : Феникс, 1996. – 512 с. (Psychology of professional self-determination).
3. Owen N., Healy G.N., Matthews C.E., Dunstan D.W. Too Much Sitting: The Population Health Science of Sedentary Behavior // Exercise and Sport Sciences Reviews. – 2010. – Vol. 38, № 3. – P. 105–113.
4. G‘oziyev E.G‘., Mamedov K.Q. Kasb psixologiyasi : o‘quv qo‘llanma. – Toshkent : O‘zMU, 2003. – 156 b.
5. Шадриков В.Д. Проблемы системогенеза профессиональной деятельности / отв. ред. К.А. Абульханова-Славская. – Москва : Наука, 1982. – 185 с. (Problems of the systemogenesis of professional activity).
6. Маркова А.К. Психология профессионализма. – Москва : Международный гуманитарный фонд «Знание», 1996. – 312 с. (Psychology of professionalism).
7. Fleishman E.A., Quaintance M.K. Taxonomies of Human Performance: The Description of Human Tasks. – Orlando, FL : Academic Press, 1984. – 514 p.

8. Hasanboyev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O. Pedagogika : o‘quv qo‘llanma. – Toshkent : Fan, 2006. – 284 b. (Pedagogy).

9. Реан А.А., Бордовская Н.В., Розум С.И. Психология и педагогика : учебное пособие для вузов. – Санкт-Петербург : Питер, 2000. – 432 с. (Psychology and pedagogy).

10. Ананьев Б.Г. О проблемах современного человекознания. – Москва : Наука, 1977. – 379 с. (On the problems of modern human science).

11. Kyriacou C. Teacher Stress: Directions for Future Research // Educational Review. – 2001. – Vol. 53, № 1. – P. 27–35.

12. Измеров Н.Ф., Кириллов В.Ф. Гигиена труда : учебник. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва : ГЭОТАР-Медиа, 2016. – 125 с. (Occupational hygiene).

13. Jacobs K., Hudak S., McGiffert J. Computer-related posture and musculoskeletal discomfort in middle school students // Work. – 2009. – Vol. 32, № 3. – P. 275–283.

14. Tremblay M.S., Aubert S., Barnes J.D., Saunders T.J., Carson V., Latimer-Cheung A.E. et al. Sedentary Behavior Research Network (SBRN) – Terminology Consensus Project process and outcome // International Journal of Behavioral Nutrition and Physical Activity. – 2017. – Vol. 14. – Article 75. – DOI: 10.1186/s12966-017-0525-8.

15. Baker R., Coenen P., Howie E., Williamson A., Straker L. The Short Term Musculoskeletal and Cognitive Effects of Prolonged Sitting During Office Computer Work // International Journal of Environmental Research and Public Health. – 2018. – Vol. 15, № 8. – Article 1678. – DOI: 10.3390/ijerph15081678.

16. Daneshmandi H., Choobineh A., Ghaem H., Karimi M. Adverse Effects of Prolonged Sitting Behavior on the General Health of Office Workers // Journal of Lifestyle Medicine. – 2017. – Vol. 7, № 2. – P. 69–75.

PEDAGOGLARNING KASBIY FAOLIYATIDA STRESSNI BOSHQARISH VA KASBIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Abdusamiyev Dilmurod Abdug'ani o'g'li
Turan International University dotsenti,
pedagogika fanlari doktori (DSc)
https://orcid.org/0009-0000-0934-5783
email: abdusamiyev1993@bk.ru
Tel: +(94) 152 58 68

Annotatsiya: *mazkur maqolada pedagoglarning kasbiy faoliyatida uchraydigan stress omillari, ularning ta'lim sifati va pedagogik samaradorlikka ta'siri hamda kasbiy barqarorlikni ta'minlashning pedagogik mexanizmlari tahlil qilingan. Maqolada zamonaviy oliy va umumiy o'rta ta'lim tizimida pedagoglar faoliyatiga ta'sir etuvchi tashkiliy, psixologik va pedagogik omillar tizimli yondashuv asosida o'rganildi. Stressni boshqarishda refleksiv faoliyat, emotsional intellekt, o'zini o'zi boshqarish strategiyalari, kasbiy motivatsiyani qo'llab-quvvatlash, hamkorlikka asoslangan professional muhit hamda raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanishning didaktik imkoniyatlari asoslab berildi. Tadqiqot natijasida pedagoglarning kasbiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi motivatsion, refleksiv, kommunikativ, tashkiliy va profilaktik komponentlarni o'z ichiga olgan pedagogik mexanizm ishlab chiqildi.*

Kalit so'zlar: *kasbiy stress, kasbiy barqarorlik, emotsional intellekt, refleksiv faoliyat, pedagogik qo'llab-quvvatlash, kasbiy motivatsiya, professional farovonlik, rezilyentlik, burn-out, ta'lim sifati.*

PEDAGOGICAL MECHANISMS OF STRESS MANAGEMENT AND PROVIDING PROFESSIONAL STABILITY IN THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF TEACHERS

Annotation: *this article analyzes the stress factors encountered in the professional activities of teachers, their impact on the quality of education and pedagogical effectiveness, and pedagogical mechanisms for ensuring professional stability. The article studies the organizational, psychological, and pedagogical factors affecting the activities of teachers in the modern higher and general secondary education systems based on a systematic approach. The didactic possibilities of reflexive activity, emotional intelligence, self-management strategies, support for professional motivation, a collaborative professional environment, and the rational use of digital technologies in stress management are substantiated. As a result of the study, a pedagogical mechanism was developed that includes motivational, reflexive, communicative, organizational, and preventive components that serve to ensure the professional stability of teachers.*

Keywords: *occupational stress, occupational stability, emotional intelligence, reflexive activity, pedagogical support, professional motivation, professional well-being, resilience, burnout, quality of education.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ СТРЕССОМ И ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ СТАБИЛЬНОСТИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация: *в данной статье анализируются стрессовые факторы, встречающиеся в профессиональной деятельности учителей, их влияние на качество образования и педагогическую эффективность, а также педагогические механизмы обеспечения профессиональной стабильности. В статье на системном подходе изучаются организационно-психологические и педагогические факторы, влияющие на деятельность учителей в современных системах высшего и общего среднего образования. Обосновываются дидактические возможности рефлексивной деятельности, эмоционального интеллекта, стратегий самоорганизации, поддержки профессиональной мотивации, профессиональной среды сотрудничества и рационального использования цифровых технологий в управлении стрессом. В результате исследования разработан педагогический механизм, включающий мотивационные, рефлексивные, коммуникативные, организационные и профилактические компоненты, служащие обеспечению профессиональной стабильности учителей.*

Ключевые слова*: профессиональный стресс, профессиональная стабильность, эмоциональный интеллект, рефлексивная деятельность, педагогическая поддержка, профессиональная мотивация, профессиональное благополучие, стрессоустойчивость, выгорание, качество образования.*

INTRODUCTION

Ta’lim tizimining transformatsiyalashuvi, pedagog kasbiga qo‘yilayotgan professional talablarning ortishi hamda raqamli ta’lim muhitining jadal rivojlanishi pedagoglarning kasbiy faoliyatini murakkab va ko‘p omilli jarayonga aylantirmoqda. Zamonaviy pedagog nafaqat ta’lim beruvchi, balki ta’lim jarayonini loyihalashtiruvchi, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etuvchi, raqamli texnologiyalarni qo‘llovchi, innovatsiyalarni joriy etuvchi hamda o‘quvchilarning individual rivojlanishini boshqaruvchi mutaxassis sifatida faoliyat yuritadi. Bunday ko‘p funksiyali faoliyat yuqori intellektual va emotsional yuklamalarni yuzaga keltirib, kasbiy stressning ortishiga sabab bo‘lmoqda.

Pedagogik faoliyatdagi stress nafaqat pedagogning psixologik holatiga, balki ta’lim sifati, o‘quvchilar bilan muloqot samaradorligi, pedagogik qarorlar sifati hamda kasbiy

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

motivatsiyaga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Uzoq davom etuvchi stress emotsional zo‘riqish, kasbiy charchash (burnout), ish unumdorligining pasayishi, innovatsion faoliyatga qiziqishning susayishi va kasbni tark etish xavfini oshiruvchi omillardan biri sifatida qaralmoqda. Shu bois pedagoglarning kasbiy farovonligini ta’minlash va stressni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zamonaviy pedagogika va ta’lim menejmentining ustuvor ilmiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Xalqaro tadqiqotlarda pedagoglarning kasbiy stressi asosan ish yuklamasi, vaqt bosimi, tashkiliy o‘zgarishlar, ma’muriy talablarning ortishi, sinfdagi murakkab pedagogik vaziyatlar, raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish zarurati hamda kasbiy-ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetarli emasligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, tadqiqotchilar stressning salbiy oqibatlarini kamaytirishda emotsional intellekt, refleksiv faoliyat, rezilyentlik (resilience), ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va sog‘lom tashkiliy muhitning muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydilar.

So‘nggi yillarda pedagoglarning kasbiy farovonligi (teacher well-being), kasbiy barqarorligi (teacher resilience) va stressni boshqarish strategiyalari bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, ularning aksariyatida mazkur masalalar psixologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Pedagogik tadqiqotlarda esa stressni boshqarishning didaktik, tashkiliy va refleksiv mexanizmlarini yagona pedagogik tizim sifatida asoslash hamda ularning o‘zaro funksional bog‘liqligini ochib berishga qaratilgan izlanishlar nisbatan kam uchraydi. Ayniqsa, raqamli transformatsiya sharoitida pedagoglarning kasbiy barqarorligini ta’minlovchi pedagogik mexanizmlarni kompleks yondashuv asosida ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy ehtiyojdan kelib chiqib, pedagoglarning kasbiy faoliyatida stressni boshqarish va kasbiy barqarorlikni ta’minlashning pedagogik mexanizmlarini aniqlash hamda ularni yagona konseptual tizim sifatida asoslashga yo‘naltirilgan.

Tadqiqotning maqsadi pedagoglarning kasbiy faoliyatida stressni yuzaga keltiruvchi omillarni pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilish, stressni boshqarish hamda kasbiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlarni aniqlash va ularning amaliy qo‘llanilishiga doir ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun stress omillarining pedagogik xususiyatlarini aniqlash, kasbiy barqarorlikning tarkibiy komponentlarini tavsiflash, stressni boshqarishning pedagogik mexanizmlarini tizimlashtirish hamda ularning o‘zaro bog‘liqligini aks ettiruvchi konseptual modelni ishlab chiqish vazifalari belgilandi.

LITERATURE REVIEW

Pedagoglarning kasbiy faoliyatida stressni boshqarish va kasbiy barqarorlikni ta’minlash masalalari so‘nggi yillarda pedagogika, psixologiya hamda ta’lim menejmenti sohalarining kesishgan nuqtasida shakllanayotgan muhim ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Ta’lim tizimidagi institutsional o‘zgarishlar, raqamli transformatsiya, pedagog faoliyatining ko‘p funksiyali tus olishi va kasbiy mas’uliyatning ortishi pedagogik faoliyatda stress omillarini kuchaytirayotganligi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilmoqda. Shu sababli zamonaviy ilmiy adabiyotlarda kasbiy stressni kamaytirish, pedagoglarning psixologik farovonligini ta’minlash hamda kasbiy barqarorligini rivojlantirishning nazariy va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kasbiy stressni izohlashda Job Demands–Resources (JD–R) modeli eng ko‘p qo‘llaniladigan nazariy yondashuvlardan biri hisoblanadi. Mazkur modelga ko‘ra, pedagog faoliyatidagi yuqori ish yuklamasi, vaqt tanqisligi, emotsional zo‘riqish, ma’muriy talablar va tashkiliy bosimlar kasbiy stressning asosiy manbalari hisoblanadi. Aksincha, rahbariyat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, kasbiy avtonomiya, hamkasblar bilan hamkorlik, malaka oshirish imkoniyatlari va qulay ta’lim muhiti pedagogning ichki resurslarini kuchaytirib, stressning salbiy ta’sirini kamaytiradi. Ushbu model pedagogik faoliyatni faqat

yuklamalar tizimi sifatida emas, balki talablar va resurslar o‘rtasidagi dinamik muvozanat sifatida baholash imkonini beradi.

Kasbiy stressning uzoq muddatli oqibatlarini tushuntirishda Maslach Burnout konsepsiyasi alohida o‘rin tutadi. Ushbu yondashuv kasbiy charchashni emotsional holdan toyish, kasbiy faoliyatga befarqlik (depersonalizatsiya) hamda shaxsiy kasbiy yutuqlarni past baholash kabi uch asosiy komponent orqali izohlaydi. Mazkur model pedagogik faoliyat samaradorligi pasayishining sabablarini aniqlashda keng qo‘llanilib, stressni boshqarish bo‘yicha profilaktik choralarni ishlab chiqishda nazariy asos vazifasini bajaradi.

So‘nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarda pedagoglarning kasbiy rezilyentligi (Teacher Resilience) konsepsiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu yondashuvga ko‘ra, kasbiy barqarorlik tug‘ma sifat emas, balki pedagogning kasbiy tajribasi, refleksiv faoliyati, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi va uzluksiz o‘rganish jarayonida shakllanadigan dinamik kompetensiyadir. Rezilyent pedagog murakkab pedagogik vaziyatlarga moslasha oladi, kasbiy motivatsiyasini saqlab qoladi, innovatsion faoliyatga ochiq bo‘ladi hamda salbiy omillar ta’sirida ham pedagogik samaradorligini barqaror darajada ushlab turadi.

Pedagoglarning kasbiy farovonligini ta’minlash masalalari PERMA modeli doirasida ham keng tadqiq etilgan. Ushbu model ijobiy emotsiyalar, kasbiy faoliyatga chuqur jalb etilganlik, ijtimoiy munosabatlar sifati, kasbiy faoliyatning mazmunliligi hamda erishilgan natijalarni anglash kabi omillar pedagogning psixologik farovonligini belgilashini asoslaydi. Pedagogik nuqtai nazardan mazkur komponentlar kasbiy stressga qarshi himoya omillari sifatida namoyon bo‘ladi.

Stressni boshqarishning individual mexanizmlarini tushuntirishda Stress va moslashishning transaksion modeli (Transactional Model of Stress and Coping) muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Mazkur modelga ko‘ra, stressning salbiy ta’siri tashqi omillarning o‘zidan ko‘ra, shaxsning ularni qanday baholashi va ularga qanday



moslashish strategiyalarini tanlashiga ko‘proq bog‘liq. Shu sababli pedagoglarning refleksiv fikrlashi, emotsional intellekti, o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalari va konstruktiv muammoni hal etish strategiyalarini rivojlantirish stressni boshqarishning muhim pedagogik vositalari sifatida qaraladi.

Respublikamiz olimlarining tadqiqotlarida pedagoglarning kasbiy faoliyatini takomillashtirish, pedagogik mahoratini rivojlantirish hamda kasbiy kompetentligini shakllantirish masalalari keng tadqiq etilgan. Xususan, N.A.Muslimov pedagogning kasbiy shakllanishini uzluksiz pedagogik jarayon sifatida talqin qilib, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari, pedagogik mahorat va kreativlikning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqqan. Olimning fikricha, pedagogning kasbiy samaradorligi kasbiy bilim, amaliy ko‘nikma, refleksiv faoliyat va o‘zini-o‘zi rivojlantirishga tayyorlikning uyg‘unligi bilan belgilanadi.

J.G‘.Yo‘ldoshevning ilmiy ishlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, pedagogning metodik mahoratini rivojlantirish va innovatsion ta'lim muhitini yaratish masalalari yoritilgan. Muallif pedagogning kasbiy muvaffaqiyati zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini samarali qo‘llash, ta'lim jarayonini loyihalash hamda pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borish bilan bog‘liqligini ta'kidlaydi.

R.H.Jo‘rayev kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish, ta'lim jarayonining innovatsion modelini yaratish hamda pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalarini tadqiq etgan. Uning ilmiy qarashlarida pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishda qulay tashkiliy muhit, metodik ta'minot va uzluksiz kasbiy rivojlanish muhim omillar sifatida e'tirof etiladi.

B.X.Xodjayev pedagogika nazariyasi va amaliyotiga oid tadqiqotlarida pedagog shaxsining kasbiy rivojlanishi, pedagogik kompetentlik va ta'lim sifatini ta'minlashning metodologik asoslarini yoritadi. Olim pedagogning kasbiy faoliyatini takomillashtirish



uzluksiz ta'lim, o‘zini-o‘zi rivojlantirish hamda refleksiv yondashuv bilan uzviy bog‘liqligini qayd etadi.

Olimlarning ilmiy qarashlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning tadqiqotlarida pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, pedagogik mahoratni takomillashtirish va innovatsion faoliyatni tashkil etish masalalari yetarlicha yoritilgan. Biroq pedagogik faoliyatda stressni boshqarish hamda kasbiy barqarorlikni ta'minlashning yaxlit pedagogik mexanizmlari, ularning motivatsion, refleksiv, kommunikativ va tashkiliy komponentlari o‘zaro bog‘liqlikda alohida tadqiq etilmagan. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

METHODS

Mazkur tadqiqot pedagoglarning kasbiy faoliyatida stressni boshqarish va kasbiy barqarorlikni ta’minlashning pedagogik mexanizmlarini aniqlash hamda ularni nazariy jihatdan asoslashga qaratilgan sifatli (qualitative) tadqiqot sifatida tashkil etildi. Tadqiqot jarayonida kasbiy stressni yuzaga keltiruvchi omillar, stressni boshqarish strategiyalari va kasbiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlar tizimli ravishda tahlil qilindi.

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv hamda refleksiv yondashuv tashkil etdi. Tizimli yondashuv pedagogik faoliyatda stressni boshqarish jarayonini o‘zaro bog‘liq komponentlardan iborat yaxlit tizim sifatida o‘rganish imkonini berdi. Kompetensiyaviy yondashuv pedagoglarning stressni boshqarish kompetensiyasi, emotsional intellekti, kommunikativ madaniyati va kasbiy moslashuvchanligini kasbiy barqarorlikning muhim tarkibiy qismlari sifatida baholashga xizmat qildi. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv kasbiy stressning pedagogik faoliyat jarayonida namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlash imkonini bersa, refleksiv yondashuv pedagoglarning o‘z kasbiy faoliyatini tahlil qilishi, stress omillarini anglash va ularga nisbatan konstruktiv boshqaruv strategiyalarini shakllantirishning ilmiy asoslarini ochib berdi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Tadqiqot davomida ilmiy-pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-komparativ tahlil, kontent tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish hamda konseptual modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish orqali pedagogik stress va kasbiy barqarorlikning nazariy asoslari, ularning rivojlanish tendensiyalari hamda zamonaviy ilmiy yondashuvlar o‘rganildi. Qiyosiy-komparativ tahlil asosida mahalliy va xorijiy tadqiqotlar o‘rtasidagi umumiy va farqli jihatlar aniqlanib, pedagoglarning kasbiy faoliyatida stressni boshqarishga oid ilg‘or tajribalar tizimlashtirildi.

Kontent tahlil yordamida ilmiy maqolalar, monografiyalar, normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro tashkilotlarning hisobotlarida pedagogik stress, kasbiy barqarorlik, rezilyentlik, emotsional intellekt va professional farovonlikka oid ilmiy qarashlar tahlil qilindi. Tizimlashtirish va umumlashtirish metodlari asosida stressni boshqarishning pedagogik mexanizmlari funksional jihatdan guruhlashtirildi hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi aniqlandi.

Konseptual modellashtirish metodi tadqiqotning asosiy ilmiy natijasini shakllantirishda muhim o‘rin egalladi. Mazkur metod asosida pedagoglarning kasbiy faoliyatida stressni boshqarish va kasbiy barqarorlikni ta’minlashning motivatsion, diagnostik, refleksiv, kommunikativ, tashkiliy va rivojlantiruvchi komponentlarini o‘z ichiga olgan pedagogik mexanizm ishlab chiqildi. Modelning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi funksional aloqalar aniqlanib, ularning kasbiy faoliyat samaradorligiga ta’siri nazariy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi mahalliy va xorijiy ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish, zamonaviy pedagogik konsepsiyalarga tayanish, ilmiy umumlashtirish tamoyillariga rioya qilish hamda olingan xulosalarning mavjud ilmiy qarashlar bilan o‘zaro muvofiqligini tekshirish orqali ta’minlandi.

RESULTS

Nazariy manbalar, mahalliy va xorijiy tadqiqotlarning qiyosiy tahlili hamda zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini umumlashtirish natijasida pedagoglarning kasbiy faoliyatida stressni boshqarish va kasbiy barqarorlikni ta'minlashning pedagogik mexanizmi ishlab chiqildi. Mazkur mexanizm pedagogik stressning oldini olish, stressni konstruktiv boshqarish hamda pedagogning kasbiy samaradorligini uzoq muddat davomida barqaror saqlashga xizmat qiluvchi o'zaro bog'liq komponentlardan iborat yaxlit pedagogik tizim sifatida tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalari pedagogik faoliyatda stressni boshqarishning samaradorligi alohida psixologik usullar bilan emas, balki motivatsion, diagnostik, refleksiv, kommunikativ, tashkiliy, texnologik va rivojlantiruvchi komponentlarning uzviy integratsiyasi orqali ta'minlanishini ko'rsatdi(1-jadvalga qarang).

1-jadval

Pedagogik faoliyatda stressni boshqarish va kasbiy barqarorlikni ta'minlash mexanizmining tarkibiy komponentlari

Komponent	Mazmuni	Kutilayotgan natija
Motivatsion	Kasbiy qadriyatlarni mustahkamlash, ichki motivatsiyani qo'llab-quvvatlash	Kasbiy faoliyatga ijobiy munosabat shakllanadi
Diagnostik	Stress omillari va ularning intensivligini muntazam aniqlash	Stress xavfi o'z vaqtida baholanadi
Refleksiv	Kasbiy faoliyatni tahlil qilish va o'zini baholash	O'zini boshqarish ko'nikmalari rivojlanadi
Kommunikativ	Hamkasblar va rahbariyat bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yish	Psixologik qo'llab-quvvatlash kuchayadi
Tashkiliy	Qulay ish muhiti va mehnatni oqilona tashkil etish	Kasbiy zo'riqish kamayadi

Texnologik	Raqamli vositalar va sun'iy intellekt texnologiyalaridan oqilona foydalanish	Mehnat unumdorligi ortadi
Rivojlantiruvchi	Uzluksiz kasbiy rivojlanish va rezilyentlikni shakllantirish	Kasbiy barqarorlik ta'minlanadi

Jadvalda keltirilgan komponentlar o'zaro funksional bog'liqlik asosida faoliyat yuritadi. Ularning har biri alohida vazifani bajarsa-da, kompleks qo'llanilgandagina pedagogik stressni samarali boshqarish hamda kasbiy barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi.

1. Motivatsion komponent. Tahlillar pedagogning kasbiy qadriyatlari, o'z kasbidan qoniqishi hamda o'zini kasbiy rivojlantirishga bo'lgan ichki ehtiyoji stressga bardoshlilikning muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Ichki motivatsiyasi yuqori bo'lgan pedagoglar murakkab pedagogik vaziyatlarda konstruktiv qarorlar qabul qilishga moyil bo'lib, kasbiy qiyinchiliklarni rivojlanish imkoniyati sifatida qabul qiladilar.

2. Diagnostik komponent. Stressni boshqarish jarayonining samaradorligi uning manbalarini o'z vaqtida aniqlashga bog'liq. Shu sababli pedagoglarning emotsional holati, ish yuklamasi, kasbiy qoniqish darajasi hamda psixologik farovonligini muntazam monitoring qilish stress profilaktikasining muhim sharti sifatida qaraladi.

3. Refleksiv komponent. Refleksiv faoliyat pedagogga o'z kasbiy tajribasini tahlil qilish, stressni keltirib chiqaruvchi omillarni anglash hamda ularga nisbatan individual boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Refleksiya asosida pedagog kasbiy xatti-harakatlarini takomillashtirib boradi va emotsional zo'riqishning salbiy oqibatlarini kamaytiradi.

4. Kommunikativ komponent. Kasbiy stressning kamayishida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash muhim omillardan biridir. Hamkasblar bilan hamkorlik, mentorlik, tajriba

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

almashish va konstruktiv muloqot pedagogning psixologik resurslarini mustahkamlaydi hamda kasbiy yolg‘izlanishning oldini oladi.

5. Tashkiliy komponent.Ta’lim muassasasida qulay psixologik muhitni yaratish, mehnat yuklamasini oqilona taqsimlash, pedagogik faoliyatni rejalashtirish va rahbariyat tomonidan qo‘llab-quvvatlash stressni kamaytiruvchi institutsional omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

6. Texnologik komponent. Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalaridan oqilona foydalanish hujjatlar bilan ishlashni optimallashtiradi, o‘quv materiallarini tayyorlashga sarflanadigan vaqtni qisqartiradi hamda pedagogning kognitiv yuklamasini kamaytiradi. Natijada kasbiy faoliyat samaradorligi ortib, stress darajasi pasayadi.

7. Rivojlantiruvchi komponent. Kasbiy barqarorlik pedagogning doimiy o‘rganishi, yangi kompetensiyalarni egallashi, moslashuvchan fikrlashi va rezilyentlik sifatlarini rivojlantirishi orqali shakllanadi. Uzluksiz kasbiy rivojlanish pedagogning tashqi o‘zgarishlarga tez moslashishiga, kasbiy motivatsiyasini saqlab qolishiga hamda uzoq muddatli kasbiy samaradorligini ta’minlashiga xizmat qiladi.

Olib borilgan tahlillar asosida pedagogik faoliyatda stressni boshqarish va kasbiy barqarorlikni ta’minlash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

Stress omillarini aniqlash → Diagnostik baholash → Refleksiv tahlil → Pedagogik va psixologik qo‘llab-quvvatlash → Raqamli hamda tashkiliy optimallashtirish → Kasbiy rivojlanish → Kasbiy barqarorlikni mustahkamlash.

Mazkur mexanizm pedagoglarning kasbiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, stressni boshqarish va professional farovonligini ta’minlashga yo‘naltirilgan uzluksiz pedagogik jarayonni ifodalaydi.

DISCUSSION

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Tadqiqot natijalari pedagogik faoliyatda stressni boshqarish va kasbiy barqarorlikni ta’minlash alohida psixologik tadbirlar orqali emas, balki motivatsion, diagnostik, refleksiv, kommunikativ, tashkiliy, texnologik va rivojlantiruvchi komponentlarning o‘zaro uyg‘unlashgan pedagogik tizimi orqali amalga oshirilishini ko‘rsatdi. Mazkur natija pedagogik faoliyatning murakkab va ko‘p omilli xususiyatidan kelib chiqib, stressni boshqarish jarayonini kompleks yondashuv asosida tashkil etish zarurligini tasdiqlaydi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili pedagoglarning kasbiy stressini o‘rganishda psixologik yondashuvlar ustunlik qilishini ko‘rsatadi. Mavjud tadqiqotlarda stressning yuzaga kelish sabablari, emotsional zo‘riqish, kasbiy charchash va psixologik moslashuv mexanizmlari keng yoritilgan bo‘lsa-da, stressni boshqarishning pedagogik jihatlari, xususan, ta’lim jarayonini tashkil etish, kasbiy rivojlanish, refleksiv faoliyat va institutsional qo‘llab-quvvatlashning o‘zaro bog‘liqligi yetarli darajada ochib berilmagan.

Mazkur tadqiqotda taklif etilgan pedagogik mexanizm ana shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi. Unda kasbiy stressni kamaytirishning asosiy sharti sifatida pedagogning shaxsiy sifatlari bilan bir qatorda ta’lim muassasasining pedagogik muhiti, boshqaruv madaniyati, hamkorlik tamoyillari, uzluksiz kasbiy rivojlanish imkoniyatlari va raqamli infratuzilmasi ham hisobga olindi. Bu esa kasbiy barqarorlikni individual emas, balki pedagogik tizim mahsuli sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida refleksiv faoliyat pedagogik mexanizmning markaziy komponentlaridan biri ekanligi aniqlandi. Refleksiya pedagogga kasbiy faoliyatini tanqidiy tahlil qilish, stressni keltirib chiqarayotgan omillarni aniqlash, ularning sabablarini baholash hamda mos boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Shu jihatdan refleksiv kompetensiyaning rivojlanganligi pedagogning kasbiy moslashuvchanligi va barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalaridan oqilona foydalanish pedagogik stressni kamaytirishda muhim didaktik imkoniyatlarga ega ekanligini koʻrsatdi. Oʻquv materiallarini tayyorlash, baholash jarayonlarini avtomatlashtirish, ta'lim resurslarini boshqarish va ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyatlarining kengayishi pedagogning vaqt resurslarini tejaydi hamda ortiqcha kognitiv yuklamani kamaytiradi. Biroq raqamli texnologiyalar faqat pedagogning raqamli kompetensiyasi yetarli darajada shakllangandagina stressni kamaytiruvchi omilga aylanishi mumkin.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati pedagogik faoliyatda stressni boshqarish va kasbiy barqarorlikni ta'minlashning pedagogik mexanizmini nazariy jihatdan asoslash hamda uning tarkibiy komponentlari oʻrtasidagi funksional bogʻliqlikni aniqlash bilan belgilanadi. Amaliy ahamiyati esa ishlab chiqilgan mexanizmdan pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirishda, ta'lim muassasalarida psixologik-pedagogik qoʻllab-quvvatlash tizimini rivojlantirishda hamda kasbiy stress profilaktikasiga yoʻnaltirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

CONCLUSION

Olib borilgan nazariy tahlillar va ilmiy umumlashtirishlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, pedagogik faoliyatdagi kasbiy stress ta'lim sifati, pedagogning kasbiy samaradorligi va psixologik farovonligiga bevosita ta'sir koʻrsatuvchi koʻp omilli pedagogik hodisa hisoblanadi. Uni samarali boshqarish individual psixologik choralar bilan cheklanmay, pedagogik tizimning barcha tarkibiy elementlarini qamrab olishi zarur.

Ikkinchidan, pedagoglarning kasbiy barqarorligi motivatsion, refleksiv, kommunikativ, tashkiliy, texnologik va rivojlantiruvchi omillarning oʻzaro uygʻunligi asosida shakllanadi. Mazkur omillarning tizimli qoʻllanilishi pedagoglarning kasbiy

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

moslashuvchanligini oshiradi va emotsional zo‘riqishlarning salbiy oqibatlarini kamaytiradi.

Uchinchidan, pedagogik faoliyatda stressni boshqarishning ishlab chiqilgan mexanizmi kasbiy stressni aniqlash, baholash, profilaktika qilish va pedagogning kasbiy salohiyatini rivojlantirish jarayonlarini yagona pedagogik tizim sifatida tashkil etish imkonini beradi.

To‘rtinchidan, ta'lim muassasalarida refleksiv faoliyatni rivojlantirish, mentorlik tizimini takomillashtirish, hamkorlikka asoslangan kasbiy muhitni shakllantirish hamda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish pedagoglarning kasbiy barqarorligini ta'minlashning ustuvor pedagogik yo‘nalishlari hisoblanadi.

Kelgusida mazkur pedagogik mexanizmning samaradorligini turli tipdagi ta'lim muassasalarida tajriba-sinov asosida tekshirish, kasbiy stress va pedagogik natijadorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni empirik ma'lumotlar asosida aniqlash hamda stressni boshqarishga yo‘naltirilgan diagnostik vositalarni ishlab chiqish istiqbolli ilmiy tadqiqot yo‘nalishlari sifatida e'tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Bakker A.B., Demerouti E. Job demands–resources theory: Taking stock and looking forward // Journal of Occupational Health Psychology. – 2023. – Vol. 28(1). – P. 1–15.
2. Maslach C., Leiter M.P. Understanding burnout: New models and interventions // Annual Review of Organizational Psychology and Organizational Behavior. – 2022. – Vol. 9. – P. 397–422.
3. Mansfield C.F., Beltman S. Promoting teacher resilience: Implications for teacher education // Teaching and Teacher Education. – 2021. – Vol. 105. – P. 103–415.
4. Folkman S. Stress, coping, and hope // Psycho-Oncology. – 2020. – Vol. 29(6). – P. 901–908.
5. Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш: монография. – Тошкент: Фан, 2004.
6. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
7. Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М.Ҳ. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Тошкент: Фан, 2006.
8. Xodjayev B.X. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sharq, 2020.

SHASHMAQOM STRUKTURASIDA TASAVVUFIY G‘OYALAR VA STRUKTURAVIY QONUNIYATLARNING INTEGRATSIYASI

Narzullayeva Durdona Panji qizi
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa sanati instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Shashmaqom tizimining musiqiy-strukturaviy qonuniyatlari hamda ularning tasavvuf ta’limoti g‘oyalari bilan o‘zaro integratsiyasi tahlil qilingan. Mushkilot va Nasr bo‘limlarining ichki tuzilishi, kuy mavzusining rivojlanish tamoyillari, Saraxbor, namud, avj va boshqa maqom unsurlarining falsafiy-semantik mazmuni yoritilgan. Shuningdek, maqom shakllarining ruhiy kamolot, vajd va ma’naviy yuksalish bosqichlari bilan bog‘liqligi tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Shashmaqom, tasavvuf, maqom, Mushkilot, Nasr, Saraxbor, namud, avj, maqom tuzilishi, musiqiy semantika, musiqiy shakl, ma’naviy kamolot.*

ИНТЕГРАЦИЯ СУФИЧЕСКИХ ИДЕЙ И СТРУКТУРНЫХ ЗАКОНОВ В СТРУКТУРЕ ШАШМАКОМА

Аннотация*. В данной статье анализируются музыкально-структурные законы системы «Шашмаком» и их взаимная интеграция с идеями суфийской доктрины. Выделена внутренняя структура разделов «Мушкилот» и «Проза», принципы развития мелодической темы, философское и смысловое содержание «Сарахбора», «намуда», «авджа» и других элементов макома. Также анализируется связь форм макома со стадиями духовного совершенства, экстаза и духовного восхождения.*

Ключевые слова: *Шашмаком, суфизм, маком, Мушкилот, Проза, Сарахбор, «намуд», «авдж», структура макома, музыкальная семантика, музыкальная форма, духовное совершенство.*

INTEGRATION OF SUFICIAL IDEAS AND STRUCTURAL LAWS IN THE STRUCTURE OF SHASHMAKOM

Annotation. *This article analyzes the musical-structural laws of the Shashmaqom system and their mutual integration with the ideas of Sufi doctrine. The internal structure of the Mushkilot and Prose sections, the principles of development of the melodic theme, the philosophical and semantic content of Sarakhbor, namud, avj and other maqom elements are highlighted. The relationship of maqom forms with the stages of spiritual perfection, ecstasy and spiritual ascension is also analyzed.*

Keywords*: Shashmaqom, Sufism, maqom, Mushkilot, Prose, Sarakhbor, namud, avj, maqom structure, musical semantics, musical form, spiritual perfection.*

KIRISH

Ulug‘ ajdodlarimizdan bizga ma’naviy meros sifatida yetib kelgan Shashmaqom bugungi kunda jahon hamjamiyati e’tiborini va yuksak e’tirofini qozonib kelayotgan nodir durdonadir[1]. Ushbu holat, shubhasiz, o‘ziga xos fundamental asoslarga ega, chunki teran falsafiy hikmatlar ummoni bo‘lmish mazkur mumtoz san’at nafaqat o‘zbek va tojik madaniyatlari erishgan yuksak cho‘qqi, balki Osiyo qit’asi xalqlari san’atidagi favqulodda ahamiyatga molik hodisadir. Shu bilan birga, u butun bashariyat ahlining musiqiy mohiyatni anglash borasida qo‘lga kiritgan ulkan tarixiy yutug‘i sifatida ham namoyon bo‘ladi. Mazkur betakror san’at durdonasi tarkibida jilolanadigan barcha tarkibiy borliq, ya’ni birlamchi ohang tuzilmalaridan tortib, to turlicha hajmdagi qismlar va ularning uzviy turkum ko‘rinishlarining barchasi o‘zining sermazmunligi hamda o‘zaro ichki mantiqiy izchilligi bilan insonni hayratga soladi. Bu tizim odamzod ruhiyatining istalgan oziqasi sifatida uning ma’naviy-ruhiy jihatdan koinot cho‘qqisiga qadar yuksalishi uchun zaruriy quvvat manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Shashmaqomning bunday sirli va sururli sifatlari undagi boshqa go‘zal omillar qatorida tasavvuf ta’limoti g‘oyalarining chuqur tajassum etilganligi bilan izohlanadi. Bunga maqom tarkibida keladigan ko‘plab maxsus istilohlar, xususan, maqom, samo, tasnif, gardun, xona, bozg‘uy, talqin, qalandar, samandar, soqiynoma va boshqalar hamda asosiy aytimlarida qo‘llanilib kelinayotgan botiniy g‘alaliyot ya’ni Hazrat Tabriziy, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy va Alisher Navoiy kabi aziz mutafakkirlarning ijodiy namunalari yaqqol ishora etadi. Ushbu maqolada biz Shashmaqom tarkibidagi kuy va aytimlarning ichki tuzilish shakllarini hamda ularning ma’no ifodalarida o‘ziga xos tarzda ufurib turgan go‘zal ta’limot hikmatlariga bir nazar tashlashni maqsad qildik.

METODOLOGIYA

Bu borada eng avvalo har bir maqomning bosh ma’nosini ixcham shaklda va nisbiy tugallangan holatdagi bayoni bo‘lgan boshlang‘ich kuy tuzilmalari e’tiborni o‘ziga

tortadi. Mazkur musiqiy tuzilmalar nola va qochirim kabi an'anaviy ijroviy usullarning samarali qo'llanishi natijasida "musiqiy mavzu" tushunchasining beqiyos namunalari sifatida jonlanadiki, bunda buyuk ishq dardi ila yongan qalblarning taftini va zavqli iztiroblarini dastlabki darajada his etish imkoniyati tug'iladi. Bunday holat ularning tarixiy kelib chiqish manbalaridan qat'iy nazar yuzaga keladi. Vaholanki, mazkur mavzular orasida ildizlari turli davrlarga mansub bo'lgan, masalan, qadimiy "biramchi tuzilma", "darakchi ohang", kam sonli tayanch ohang qurilmalari va boshqalar kabi namunalar ham mavjuddir.

MUHOKAMA

Ma'lumki, tasavvuf ta'limoti odam va tabiat, odam va olam kabi barcha yaralgan borliqlarni o'zaro aloqadorlik va birlik g'oyasi o'laroq uyg'un tarzda idrok etadi. Ushbu keng qamrovli dunyoqarash san'atda, xususan, musiqada o'ziga xos badiiy tafakkurning qaror topishiga bosh omil bo'lgan edi. Shunga ko'ra, turlicha usluban va musiqiy tuzilmalar maqom matnida tubdan qayta ifoda etilib, o'zining yangi sifatlarini kashf eta boshlaydi. Endilikda ularning har biri yangi ma'nolari bilan sug'orilgan holda inson ruhiyatini yuksak maqsadga, ya'ni vajd holatiga yetaklovchi ma'naviy quvvatlarga ham ega bo'ladi. Bu borada musiqiy rivojlanishning umumiy ta'rifi shunday: maqom mavzusi dastlab quyi pardalarda bayon etilib, o'rta pardalar asosida izchil taraqqiy etadi hamda o'zining yuqori avj darajalariga intiladi va unga erishgach, dastlabki tayanch nuqtaga qaytib yakun topadi. Demak, maqom falsafasi va uning ohanglariga singdirilgan har bir ma'no qatlami dastlab hissiyotlar vositasida tuyuladi, so'ngra kuy oqimi va xotima orqali asarning asl mohiyati ongda to'liq shakllanadi. Ushbu pinhona go'zallik Mushkilot va Nasr bo'limlarida o'ziga xos takrorlanmas jilolar kasb etadi.

Mushkilot bo'limida Tasnifning kuy mavzusi maqom bosqichlariga tayangan holda o'zining o'rta va yuqori avj pardalariga intiladi, rivoj topgani sari uning ichki, botiniy jihatlari yuzaga chiqa boshlaydi. Kuy mavzusining tug'ilishidan tortib to ulug'vor avjiga qadar kechadigan yo'lni "kichik doiradan keng olamga" chiqish deb

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

atash mumkin. Bu yo‘lda musiqiy g‘oya to‘lqinsimon aylanma harakatlar sehrida to‘lib-toshadi, xonalar tuzilishi asnosida tobora qudrat kasb etib, o‘zining mahobatli gulyajrog‘ini namoyon etadi. Ayni vaqtda, uning botiniy mazmunidagi teran vazminlik, ulug‘vorlik va mushohadaviylik holati tobora kuchayib boradi. Mushkilotning Tasniflaridan so‘ng namoyon bo‘ladigan o‘rta-yakuniy bo‘tinlari esa boshlang‘ich unsurlar bilan uzviy bog‘liqlikda yuzaga keladi. Bunda Tasnifning kuy-mavzusi turkum miqyosida yangi sinov mushkilotlaridan o‘tadi hamda taraqqiyot ifodasi bo‘lgan ohang va o‘lchov-ritm o‘zgarishlariga uchraydi.


Tarje nomli kuylarda boshlang‘ich doira usuli takrorlangani holda, mavzu modifikatsiyasi asosan ichki imkoniyatlar doirasida, ohang-ritm qurilmalarining o‘zgarishi bilan bog‘liq holda yuzaga keladi hamda xona-bozg‘uy nisbatlari vositasida rivoj topadi. Natijada unda yangi musiqiy sifatlar kashf etiladi. Lekin bunga asoslanib mutloq yangi mavzu bayoni xususida hukm chiqarmaslik kerak. Chunki Gardunda qo‘llanilgan kuy tuzilmasi aslida Tasnifda ilk bor bayon etilgan mavzuning turkum miqyosida yashayotgan yangi sifat bosqichidir. Gardunlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularda avvalgi qismlarda erishilgan tovush-bosqichlari nisbatan erkin qo‘llaniladi. Natijada kuyning ravon va pog‘onama-pog‘ona harakat jarayoniga ko‘plab ohang sakramalari qo‘shiladi.

Muhammas va Saqil kuylarda esa mavzuning salobati va davomiyligi ortib boradi. Ularning zarb-usullari murakkablashib, katta doira shaklini zabt etadi. Ayni vaqtda, ularda avvalgi qismlarda namoyon bo‘lgan muhim jihatlar umumlashtiriladi va bosib o‘tilgan mushkilot yo‘liga yakun yasaladi. Mushkilotlarning botin mazmuni bo‘lgan mushohadaviylik holati Saqillarda o‘zining avjiga qadar yuksaladi. Bunda go‘yo vaqt o‘z oqimini to‘xtatadi, tashqi dunyoning shiddatli harakatlari o‘z ta’sirini yo‘qotib, mutlaq sukunat qaror topadi. Turkum yakunidagi qismlarning ijro sur’ati g‘oyatda salobatli va vazmin tus olishi ana shu ruhiy holatning musiqiy ifodasidir. Masalan,

Buzruk maqomi Mushkilotidagi o‘lchovlar va raqamlar ushbu jozibali tamoyilning yorqin isbotidir[1:27].

Maqomot gulshanining aytim yo‘llarida bo‘y ko‘rsatgan ma’nolar jilosi cholg‘u kuylari qatiga yashiringan ruhoniy yuksalish va qalb kamoloti g‘oyalari bilan garchand egizak bo‘lsa-da, xonish asnosida tamoman yangicha joziba kasb etadi. Soz sadosidan sadoqat topgan ilk mavzu, inson ovozining sehrli qudrati ila qayta tug‘ilib, tinglovchi ko‘z o‘ngida yanada kengroq, teranroq va sirliroq ma’nolar olamini namoyon etadi.

Ohang bag‘riga so‘z va nola nafasi kirib kelishi bilan kuy o‘zining dastlabki qiyofasini saqlagan holda, mislsiz sifatlar bilan bezaladi. Ushbu muhtasham musiqiy silsilada, dastlabki qadam poydevor bo‘lmish Saraxborlarning bosqichma-bosqich yuksalib boruvchi shakliy tarhi butun boshli maqom turkumining rivojlanish yo‘lida oltin mezon va o‘zgacha yo‘l ko‘rsatuvchi mayoq bo‘lib xizmat qiladi.



Saraxborlarning shakliy tuzilmalari

Shakl tuzilmalarining hikmatlarini anglash borasida ularning lug‘aviy ma’nolari ham ahamiyatlidir.

Chunonchi, “muqaddima” so‘zi “nutqda asosiy maqsadga ko‘chishdan oldin aytiladigan so‘zlar”, “biror so‘zning boshi” singari ma’nolarni anglatadi[2]. Odatda, muqaddimalar maqom aytim yo‘llarining boshida keladigan cholg‘u kirish qismlaridan iborat bo‘lik, ular asosiy mavzu holatini bildiradi. “Daromad” atamasining lug‘aviy negizida esa harakat jarayoniga oid serjihat ma’nunlar anglashiladi. Ular asosida tariqat yo‘liga kirish, uning “eshigini” ochish, “yo‘lning boshlanishi” kabi ma’nolarni keltirib

chiqarish mumkin. Unda asosiy mavzu bayoni quyi va o‘rta tabaqa pardalariga pog‘onama-pog‘ona tayanib, maqom-tamoyili asosida rivojlanadi. Miyonparda hisoblangan fors-tojikcha o‘rta parda shakliy bo‘linmasida esa mavzu o‘rta pardalarni tayanch sifatida o‘zlashtirib, yuqori tabaqaga qadar taraqqiy etadi. Dunasr – mavzuning yuqori tabaqa pardalarini zabt etish jarayonini anglatib, bunda odatda, dastlabki bosh pardaga nisbatan oktava yuqoriligida joylashgan tovush tayanch pardasi sifatida egallanadi. Shu bilan birga, dunasr atamasining botiniy ma’nosida tariqat yo‘li yakunlanib, Haqiqat darajasi boshlanganligini fahmlash mumkin. Bunda dunasrdagi “du” – ikki, “nasr” – g‘alaba, ya’ni mavzuning birinchi zafar yo‘li maqom bosqichlari egallanishi bilan hosil bo‘lganligi va ayni vaqtda, asosan 2- va 3-oktavalar oralig‘idagi tovushlarni qamragan ikkinchi zafar yo‘li boshlanganligi anglashiladi.

Bu davrga kelib mavzu rivoj topgan holda takomillashib, o‘zining cho‘qqisi bo‘lgan avj darajalarini namoyon eta boshlaydi[3:9]. Ikkinchi g‘alaba yo‘li namudlar kelishi bilan ham izohlanadi. Namud – “ayrim sho‘balarning boshlanish qismidagi kuy jumlalarini boshqa sho‘balarning yuqori registrlarida avj sifatida namoyon bo‘lishidir”[4]. Maqomlardagi avjlarni so‘fiylarning vajd kechinmasi bo‘lgan hol jarayoniga qiyoslash mumkin. Hol – “so‘fiylarning tariqat yo‘lini muvaffaqiyatli o‘tganlari evaziga Haq Taolo tomonidan in’om etilgan zavq-shavq lahzasidir”. Namudlarni hol yanglig‘ ahamiyat kasb etishini quvvatlovchi bilvosita dalillar sifatida bir qator qiyosiy kuzatuvlarni keltirish mumkin. Xususan, tasavvuf ilmida 10 ta asosiy hol tasnif etilgan bo‘lib[5], ularning har biri o‘zining maxsus atama-nomlariga ega: 1. Muraqaba, 2. Qurb, 3. Xavf, 4. Rajo, 5. Muhabba, 6. Shavq, 7. Uns, 8. Itmonina, 9. Mushohada, 10. Yaqin.

Bunga qiyosan aytish mumkinki, maqom san’atida ham o‘z nomlariga ega 10 ta asosiy namud (8 ta namud va namud vazifasida keluvchi 2 ta avjlar bilan birga) qo‘llanishi ma’lumdir[6:14]. Ular quyidagicha nomlanadi: 1. Uzzol namudi, 2. Muhayyari Chorgoh, 3. Navo namudi, 4. Bayot namudi, 5. Ushshoq namudi, 6. Oraz

namudi, 7. Segoh namudi, 8. Nasrulloyi namudi, 9. Zebo Pari avji, 10. Turk avji. Yana bir o‘rinli muqoyasa shundan iboratki, “hol” holatlari birin-ketin kelishi mumkin. Ayniqsa, ikki holni bir-biriga ulanib kelishi ko‘proq qayd etilgan[5]. Ma’lumki, namudlarning qo‘llanishida ham shunga o‘xshashlik bor. Masalan, Uzzol namudidan so‘ng ko‘pincha Muhayyari Chorgoh namudi keladi, yoki Bayot namudiga ulanib Navo namudi hozir bo‘ladi va hokazo [7:173]. Shuningdek, namudlarning soni bundan-da ortib kelishi mumkinki, bunday vaziyat hol jarayonida ham kuzatiladi. Aslida bu kabi qiyoslar bejiz emas, chunki har ikki holatda ham ruhda ilhom sodir bo‘lishi hodisasi hal etuvchi o‘rin tutadi.

Avj pardalarida ilhom zavqini surayotgan hofiz uchta va, hatto to‘rttagacha namudlar guruhini namoyon etishi musiqiy amaliyotdan ma’lumdir. Binobarin, maqom avjlari ham mohiyatan, ham shaklan aytim yo‘lining markaziy va salmoqli qismini tashkil etadi. Ularda, jumladan, kuy rivojining maqomlar doirasidagi eng oliy darajali usuli qo‘llaniladi. Namudlar bilan bevosita bog‘liq bu rivoj usulini “sifat usuli” deb tavsiflash mumkin. Shunga ko‘ra, Saraxbor bosh mavzui ilk bor quyi tabaqa-pardalarida sadolanar ekan, u o‘zining keyingi rivojini o‘rta va yuqori tabaqa pardalarida davom ettiradi, unda taraqqiyot ifodasi bo‘lgan ohang-ritm va shakl-hajm o‘zgarishlari sodir bo‘ladi va, nihoyat, avjlarida namudlarning kelishi unga tubdan yeni sifat bag‘ishlaydi. Biroq bu holatni musiqaning rivoj omillaridan bo‘lgan tazodli muqoyasa usuliga tenglashtirib bo‘lmaydi. Chunki namudlarning kelishi – asar jarayonida dastlabki kuy mavzuining mantiqan eng oliy darajadagi rivoji, erishgan sifat cho‘qqisidir. Erishilgan ushbu sifat darajasi nafaqat Saraxbor qismi uchun, balki sho‘balarning uzviy turkumlanishida ham ahamiyatlidir.

Ma’lumki, Saraxborlarda kelgan namudlarni odatga ko‘ra, Nasr va Talqin sho‘balaridan olingan boshlang‘ich kuy tuzilmalari sifatida ta’riflaymiz. Ushbu masalani sharh etishda o‘zgacha yondashish ham mumkin ko‘rinadi. Saraxborlar bosh xabar, bosh mavzu sifatida Talqin va Nasr sho‘balaridan avval ijro etiladi, samo vaziyati esa ijod

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

etiladi. Shu asosdan kelib chiqqan holda namud va unga mos keluvchi sho‘ba manbalariga qo‘yilgan urg‘ularni o‘zaro almashtirish mumkin. Agar shu tarzda yondashilsa, nazarimizda, sho‘balarning turkumlanish qonuniyatlari va ayniqsa, namudlarga ko‘proq aloqador bo‘lgan Nasr nomli sho‘balarning turkumda nufuzi bir qadar oydinlashgan bo‘ladi. Bunda “nasr” atamasini Saraxborlardagi “du-nasr”dan keltirib chiqarish barobarida yana Nasrlarni Saraxborlarda erishilgan g‘alabaning turkum darajasidagi in’ikosi yanglig‘ tavsiflash imkoni vujudga keladi. Bu fikrning e’tirofi esa, ayni choqda, maqom sho‘balarining turkumlanish qonuniyatlari ham yagona g‘oya asosida yuzaga kelganligiga dalolat etadi.

Tavsiflanayotgan ushbu oliy tartib turkumi ravshan etish istagida Buzruk maqomining aytim yo‘liga e’tibor qaratamiz. Oliy tartib turkumlari muayyan sho‘balar turkumi bilan-da cheklanmaydi. Bu darajadagi bog‘lanmalar turli maqomlar aro ham yuzaga keladi. Masalan, Saraxbori Buzruk sho‘basi avjlarida Uzzol va Muhayyari Chorgoh namudlari kelgan boshqa aytim yo‘llari bilan ham oliy tartib darajasida bog‘lanadi. Shu singari bog‘lanmalar esa Shashmaqomdagi qariyb barcha aytim yo‘llari nisbatan namoyon bo‘lib, buning natijasida umumtizim miqyosida oliy tartib turkumlariga erishiladi.

XULOSA

Demak, Shashmaqom aytim yo‘llarining Nasr deb atalishi bejiz emas ekan. Chunki zafar g‘oyasi ularning nafaqat alohida olingan har bir sho‘basi misolida, balki sho‘balar turkumi bo‘lgan Nasr aytim yo‘llari darajasida ham asosiy, markaziy o‘rin tutmoqda. Maqom yo‘llarining turkumlanishi darajasida esa boshlang‘ichlarda bayon etilgan kuy mavzusi qismdan-qismga qarab tobora murakkablashib boruvchi zarb-usullari asosida yeni sifat namunalarini oshkor etadi, hamda shu asno tik chiziq bo‘ylab rivojlanish tamoyilini yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rajabiy Y. Shashmaqom. I jild. Buzruk. – T., F. G‘ulom nomidagi Badiiy Adabiyot nashriyoti, 27-43-betlar.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. M., 1981, 487 b.
3. Rahmonov V. O‘zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug‘at. – T., O‘qituvchi, 1983.
4. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. T., 1963
5. Islam. Ensiklopedicheskiy slovar. M.: Nauka, 1991, s. 266.
6. Rajabov I. Maqom asoslari. T., 1992, 14-21-betlar.
7. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. T., 1963, 173-174-betlar.

ADABIY TA'LIMDA GAYMIFIKATSIYA ORQALI BADIIY MATN USTIDA ISHLASH METODIKASI

Abdujabborova Nilufar Rustamjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
Email: abdujabborovanilufar1214@gmail.com
Tel:+998952430398

Annotatsiya*:Adabiy ta'limda o'quvchilarning badiiy matnni chuqur idrok etishi va estetik his etish qobiliyatini rivojlantirish uchun innovatsion metodlardan foydalanish zarurati tobora ortib bormoqda. Gaymifikatsiya - o'yin elementlarini o'quv jarayoniga tatbiq etish - ta'lim texnologiyalarida keng qo'llanilayotgan bo'lsa-da, uning badiiy matn ustida ishlash metodikasida qo'llanilishi yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ushbu tadqiqot gaymifikatsiyaning adabiy ta'limda badiiy matn tushunish, o'quvchi motivatsiyasi, tanqidiy fikrlash va estetik munosabat bildirish ko'nikmalariga ta'sirini o'rganadi hamda badiiy matn ustida ishlashning gaymifikatsiyaga asoslangan metodikasini taklif etadi.*

Kalit so'zlar: *gaymifikatsiya, adabiy ta'lim, badiiy matn tahlili, o'qish tushunishi, motivatsiya, o'yin asosidagi o'qitish, narrativ ta'lim.*

METHODOLOGY OF WORKING ON ARTISTIC TEXT THROUGH GAMICIFICATION IN LITERARY EDUCATION

Abstract*: In literary education, there is a growing need to utilize innovative methods to enhance students' deep perception and aesthetic appreciation of literary texts. Although gamification the integration of game elements into the educational process is widely used in educational technology, its application in working with literary texts has not been sufficiently researched. This study explores the impact of gamification on literary text comprehension, student motivation, critical thinking, and aesthetic response in literary education, and proposes a gamification-based methodology for working with literary texts.*

Keywords*: gamification, literary education, literary text analysis, reading comprehension, motivation, game-based learning, narrative education.*

МЕТОДОЛОГИЯ РАБОТЫ С ХУДОЖЕСТВЕННЫМ ТЕКСТОМ ПОСРЕДСТВОМ ИГРИФИКАЦИИ В ЛИТЕРАТУРНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: *В литературном образовании возрастает необходимость использования инновационных методов для развития у учащихся способности к глубокому восприятию и эстетическому осмыслению художественного текста. Хотя геймификация - внедрение игровых элементов в учебный процесс - широко применяется в образовательных технологиях, её использование в методике работы с художественным текстом изучено недостаточно.*

Данное исследование изучает влияние геймификации на понимание художественного текста, мотивацию учащихся, критическое мышление и формирование эстетического отношения в литературном образовании, а также предлагает основанную на геймификации методику работы с художественным текстом.

Ключевые слова: *геймификация, литературное образование, анализ художественного текста, понимание прочитанного, мотивация, игровое обучение, нарративное обучение.*

KIRISH

XXI asrda raqamli texnologiyalar va interaktiv o‘qitish metodlarining rivojlanishi adabiy ta‘‘limga yangi imkoniyatlar va muammolar olib keldi. Bir tomondan, o‘quvchilarning badiiy adabiyotga qiziqishi pasayib bormoqda; boshqa tomondan, zamonaviy pedagogika o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiruvchi innovatsion metodlarni joriy etishni talab qilmoqda. Shu vaziyatda gaymifikatsiya - o‘yin mexanizmlari va elementlarini o‘quv jarayoniga tatbiq etish - butun dunyo ta’lim tizimlarida keng e’tiborga sazovor bo‘lmoqdi.

Gaymifikatsiya tushunchasi olim S.Deterding va boshqalar tomonidan “o‘yindan tashqari kontekstlarda o‘yin dizayn elementlaridan foydalanish” sifatida ta‘riflangan. Ta’limda gaymifikatsiya o‘quvchilarning motivatsiyasi, jalb etilishi va o‘quv natijalarini oshirish maqsadida ball, nishon, pog‘ona, taraqqiyot paneli, narrativ vazifalar kabi o‘yin elementlarini o‘quv faoliyatiga kiritishni anglatadi.

Adabiy ta’limda esa gaymifikatsiya o‘ziga xos imkoniyatlarni taqdim etadi: badiiy matn murakkab narrativ tuzilmalarga ega bo‘lgani uchun, o‘yin elementlari matnni tahlil qilish, tushunish va unga munosabat bildirish jarayonini nafaqat qiziqarliroq, balki chuqurroq qilishi mumkin. Biroq adabiy ta’limda gaymifikatsiyaning badiiy matn ustida ishlash metodikasiga tatbiq etilishi hali yetarlicha tizimli o‘rganilmagan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi - gaymifikatsiyaning adabiy ta’limda badiiy matn ustida ishlashga ta’sirini empirik manbalar asosida tahlil qilish, uning samaradorligini aniqlash va badiiy matn ustida ishlashning gaymifikatsiyaga asoslangan metodologik modelini taklif etishdan iborat.

Tadqiqot quyidagi savollarga javob beradi: Gaymifikatsiya adabiy ta'limda badiiy matn tushunishiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Gaymifikatsiyaning o'quvchi motivatsiyasi va jalb etilishiga ta'siri qanday? Badiiy matn ustida ishlashda gaymifikatsiyani samarali qo''llashning metodologik tamoyillari qanday?

Gaymifikatsiyaning nazariy asosi bir nechta pedagogik nazariyalarga tayangan. Xulq-atvor nazariyasi nuqtai nazaridan, ball va nishon kabi tashqi mukofotlar o'quvchining kerakli xulq-atvorini (topshiriqni bajarish, matnni o'qish, tahlil qilish) mustahkamlaydi. Konstruktivizm nuqtai nazaridan, o'yinlashtirilgan vazifalar o'quvchini faol bilim yaratuvchiga aylantiradi - Vygotskiyning eng yaqin rivojlanish zonasi tamoyili asosida, o'qituvchi qurilma sifatida gaymifikatsiya vositalari orqali o'quvchini yangi bilish darajasiga olib boradi.

Gaymifikatsiyaning ta'limdagi asosiy elementlari quyidagilardan iborat: ballar - topshiriqlarni bajarish uchun mukofot; nishonlar - yutuqlarning ko'rinadigan ramzi; pog'onalar - raqobat va ijtimoiy motivatsiya; taraqqiyot paneli - o'quvchining o'z rivojlanishini ko'rishi; narrativ vazifalar - hikoya doirasida berilgan topshiriqlar; va darajalar - murakkablikning bosqichma-bosqich oshishi. Adabiy ta'limda ushbu elementlar badiiy matnning o'ziga xos tuzilmasi bilan organik birlashtirilishi mumkin.

Wang va boshqalar tomonidan 2020–2024 yillarda nashr etilgan 15 ta empirik tadqiqotni qamrab olgan tizimli sharh shuni ko'rsatadiki, o'qish ta'limida gaymifikatsiya o'quv motivatsiyasini, matn tushunishini va o'quvchilarning o'quv jarayoniga ishtiroqini oshirishda izchil ijobiy natijalarga erishadi. Ushbu sharh, shu bilan birga, mazkur sohada nazariy asoslar va uzoq muddatli ta'sir bo'yicha empirik tadqiqotlar hali yetarli emasligini qayd etadi.

Adabiy ta'limda gaymifikatsiyadan foydalanish o'ziga xos imkoniyatlar ochadi. Birinchidan, badiiy matnning o'zi narrativ tuzilmaga ega - bu o'yin narrativlari bilan tabiiy uyg'unlik hosil qiladi. Qahramonning sayohati, to'siqlarni yengish, maqsadga

erishish kabi badiiy elementlar o‘yin strukturalari bilan parallel kechadi, bu esa o‘quvchini matn bilan chuqurroq muloqotga kirishishga undaydi.

Ikkinchidan, gaymifikatsiya badiiy matnning turli tahlil darajalarini (so‘zlik-uslubiy, kompozitsion, mavzuiy, g‘oyaviy) alohida topshiriqlar, darajalar yoki vazifalar shaklida strukturalashtirish imkonini beradi - bu an’anaviy metodikada ko‘pincha bir darsda barchasi bir vaqtda ko‘rib chiqiladigan, shu bois chuqur o‘zlashtirilmaydigan muammoni hal etadi.

Biroq adabiy ta’limda gaymifikatsiyani qo‘llashda muhim muammolar ham mavjud. Dominguez va boshqalar ta’kidlaganidek, o‘yin va pedagogik komponent o‘rtasidagi muvozanat saqlanmasa, raqobat o‘rganishni siqib chiqarishi mumkin. Bu, ayniqsa, adabiy ta’limda muhim: badiiy matn ustida ishlash o‘quvchining shaxsiy estetik munosabatini talab qiladi va ortiqcha raqobat bu jarayonni mexaniklashtirib qo‘yishi mumkin.

Q. Husanboyeva adabiyot o‘qitishning asosiy maqsadi ko‘ngil tarbiyasi va estetik kamolot ekanini ta’kidlaydi. Bu nuqtai nazardan gaymifikatsiya vositalariga yondashilganda, ularni faqat motivatsiya oshirish uchun emas, balki badiiy matnning g‘oyaviy-estetik qatlamlarini kashf etishni osonlashtiradigan vosita sifatida ko‘rish kerak. B. To‘xliyev ta’kidlaganidek, badiiy asarni o‘rganishda o‘quvchi passiv tinglovchi bo‘lmasdan, uni faol tadqiqotchi, kashfiyotchi sifatida jalb etish zarur - bu maqsad gaymifikatsiyaning “izlanish” va “kashfiyot” elementlari bilan to‘liq mos keladi.

METODLAR

Ushbu tadqiqot ko‘p tadqiqotli sintez dizaynini qo‘llaydi. Adabiy ta’limda gaymifikatsiyaning badiiy matn ustida ishlashga ta’sirini o‘rganuvchi mustaqil empirik tadqiqotlar tizimli ravishda tanlab olindi, tahlil qilindi va yagona metodologik modelga birlashtirildi. Bu dizayn tadqiqotning maqsadiga mos: birlamchi eksperiment o‘tkazish o‘rniga, mavjud, ammo tarqoq empirik dalillarni adabiy ta’lim metodikasini takomillashtirish uchun izchil doirada jamlash ko‘zda tutilgan.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Birlamchi tadqiqotlar quyidagi mezonlar asosida tanlandi: bevosita aloqadorlik - tadqiqot gaymifikatsiya va adabiy yoki badiiy matn bilan ishlash natijalarini o‘‘rganishi lozim; metodologik shaffoflik - miqdoriy tadqiqotlar namunaviy hajm, statistik test va ahamiyat darajalarini ko‘rsatishi shart; tekshirilishi - barcha tadqiqotlar ommaviy ravishda mavjud manbaga ega bo‘‘lishi kerak; vaqt dolzarbligi - 2020 yildan keyingi tadqiqotlarga ustuvorlik berildi.

To‘rtta birlamchi manba barcha mezonlarga javob berdi. Azmi, F.U., Navarathnaraja, K., Mohd Ali, S.M. va Hanim Ismail, H. “Gaymifikatsiya va ESL ta’limi: adabiy mavzudagi qochish xonasi faoliyati orqali til ko‘nikmalarini rivojlantirish”. Kvazi-eksperimental, Malayziya. “Til va Adabiyot fanida gaymifikatsiya va o‘qish tushunishi” Minerva, Matyakhan va boshq. (2024). “O‘qish jalb etilishini gaymifikatsiya orqali kuchaytirish” LEARN Journal, 17. Kvazi-eksperimental, Indoneziya. 4-manba: Wang va boshqa. “O‘qish ta’limini gaymifikatsiya orqali kuchaytirish: tizimli sharh”

Sintez uch bosqichda amalga oshirildi. 1-bosqichda har bir tadqiqot quyidagilarni ajratib olish uchun tahlil qilindi: bo‘liq o‘zgaruvchi (badiiy matn tushunish, motivatsiya, estetik munosabat), mustaqil o‘zgaruvchi (gaymifikatsiya mexanizmi), statistik natijalar (test, ahamiyat darajasi, ta’sir kuchi), cheklovlar. 2-bosqichda tadqiqotlar bo‘ylab takrorlanadigan tarkibiy xususiyatlar aniqlandi - xususan, qaysi o‘yin elementlari (narrativ, raqobat, mukofot, kashfiyot) adabiy matn tahlilida eng samarali ishlaydi. 3-bosqichda ushbu xususiyatlar to‘rt komponentli metodologik modelga abstraktlashtirildi.

NATIJALAR

Azmi va boshqalar xulq-atvorchi, konstruktivist va jalb etish nazariyalariga tayanib, Malayziyaning Form 5 o‘quvchilari bilan to‘rt haftalik kvazi-eksperimental tadqiqot o‘tkazdi. Intervensiyada “qochish xonasi” formatidagi gaymifikatsiya qo‘llandi: o‘quvchilar bir adabiy asarni tahlil qilish uchun ketma-ket “qulflar” ni ochishlari - ya’ni

badiiy tahlilning turli bosqichlari (personaj tavsifi, voqealar tahlili, g‘oya, uslub) ni o‘yin vazifasi sifatida bajarishlari - kerak bo‘ldi.

Oldindan/keyindan test va reflektiv yozuv tematik tahlili natijalariga ko‘ra, badiiy tushunishda katta ta’sir kuchiga ega statistik jihatdan muhim o‘sish qayd etildi. Bu ta’sir kuchi o‘lchami “kata” deb baholanadigan d>0,8 mezonidan ancha yuqori, bu gaymifikatsiyalashtirilgan qochish xonasi formatining badiiy matn tushunishi uchun ayniqsa samarali ekanini ko‘‘rsatadi. Sifatiy dalillar o‘quvchilarning motivatsiya, hamkorlik, tanqidiy fikrlash va metaling vistik tushunishining oshganini ham tasdiqladi.

Ispaniya tadqiqotida Til va Adabiyot fanida 60 nafar 8-sinf o‘quvchisi (eksperimental va nazorat guruhlari) ishtirokida Educaplay va Genially raqamli gaymifikatsiya platformalari qo‘llanildi. PROLECSE-SE va CLP tasdiqlangan o‘lchov asboblari yordamida oldindan/keyindan diagnostik testlar, so‘‘rovnomalar va bevosita sinf kuzatuvi amalga oshirildi.

Natijalar sezilarli ijobiy o‘sishni ko‘rsatdi: umumiy ko‘rsatkich o‘rtacha ballari 15 ballik shkalada 7,02 dan 10,45 gacha ko‘tarildi. Ayniqsa inferensial (matndan kelib chiqadigan xulosalar) va tanqidiy darajalar ko‘rsatkichlarida o‘sish kuzatildi - bu adabiy matn tahlilida eng yuqori kognitiv darajalar hisoblanadi. Tadqiqot xulosasida gaymifikatsiya o‘qish tushunishini mustahkamlovchi, ta’limni jonlantiradigan va interaktiv, o‘quvchi markazli ta’lim muhitini yarativchi samarali strategiya sifatida tavsiflanadi.

Matyakhan va boshqalar Indoneziyada mahalliy badiiy matnlar (hikoyalar) asosida gaymifikatsiya vositalaridan foydalangan holda o‘qish jalb etilishini va tushunishini o‘rganuvchi kvazi-eksperimental tadqiqot o‘tkazdi. Tadqiqot milliy adabiy meros namunalarida gaymifikatsiyadan foydalanish imkoniyatlarini ko‘‘rsatish jihatidan ayniqsa ahamiyatlidir.

Juftlashtirilgan test natijalari bo‘yicha o‘qish ko‘nikmalarida statistik jihatdan muhim yaxshilanish aniqlandi. O‘rtacha ballar 69,97 dan 79,95 (keyindan test) gacha

ko‘tarildi. Tadqiqot, shu bilan birga, gaymifikatsiyaning nafaqat til ko‘nikmalarini, balki madaniy tushunish va estetik his etish qobiliyatini ham rivojlantirishga hissa qo‘shishini ko‘rsatdi - bu adabiy ta’lim uchun muhim topilma.

Wang va boshqalar 2020–2024 yillarda o‘tkazilgan 15 ta empirik tadqiqotni qamrab olgan tizimli sharh o‘qish ta’limida gaymifikatsiyaning to‘rtta asosiy natijasini aniqladi. Birinchisi, o‘qish motivatsiyasi: barcha ko‘rib chiqilgan tadqiqotlarda gaymifikatsiya o‘quvchilarning badiiy matnga qiziqishini va o‘z ixtiyori bilan o‘qish faolligini oshirdi. Ikkinchisi, matn tushunish: gaymifikatsiyalashtirilgan o‘qish faoliyatlari matn tushunishning inferensial va tanqidiy darajalarida an’anaviy metodlarga qaraganda sezilarli ustunlik ko‘rsatdi. Uchinchisi, jalb etilish va faollik: o‘yin elementlari o‘quvchilarning darsda faol ishtirokini va sinfda hamkorligini kuchaytirdi. To‘rtinchisi, chegaralar va cheklovlar: tizimli sharh shu bilan birga gaymifikatsiya tadqiqotlarida uzoq muddatli ta’sirning yetarli o‘rganilmaganligini va pedagogik hamda o‘yin komponenti o‘rtasidagi muvozanat masalasining hal etilmagan muammo bo‘lib qolayotganini qayd etdi.

To‘rtta manbaning tizimli taqqoslovi gaymifikatsiyani adabiy ta’limda badiiy matn ustida ishlashga tatbiq etishning to‘rt komponentli modelini belgilash imkonini beradi.

Komponent	**Gaymifikatsiya elementi**	**Badiiy matn bilan bog‘liqligi**	**Empirik asosi**
Narrativ-kashfiyot	Vazifalar (quests), “qochish xonasi”, sir yechish	Syujet, fabula, voqealar ketma-ketligini tahlil qilish	Azmi va boshq.,
Kognitiv-raqobat	Ball, pog‘ona, darajalar	Badiiy tahlil bosqichlari (personaj,	Minerva, 2025

		uslub, g‘oya) ni strukturalashtirish	
Ijodiy-mukofot	Nishonlar, taraqqiyot paneli	Badiiy ijod (insho, esse, ijodiy yozuv) ni rag‘batlantirish	Wang va boshq., 2024
Madaniy-hamkorlik	Jamoa o‘yinlari, raqobat	Milliy adabiy meros matnlarini birgalikda tahlil qilish	Matyakhan va boshq., 2024

1-jadval. Badiiy matn ustida ishlashning gaymifikatsiyaga asoslangan to‘rt komponentli modeli

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari qiziqarli nazariy muammoni ko‘taradi: gaymifikatsiya o‘quvchini tashqi mukofot orqali motivatsiyalaydi, holbuki adabiy ta’limning bosh maqsadi - ko‘ngil tarbiyasi va ichki estetik his - ichki motivatsiyaga tayanadi. Bu ziddiyat muhokamani talab qiladi. Azmi va boshqalar tomonidan qayd etilganidek, “qochish xonasi” formatida o‘quvchilar raqobat uchun emas, balki muammoni yechish va badiiy matnni tushunish jarayonidan lazzat olish uchun ishlashgan - bu tashqi o‘yin strukturasi ichki estetik jalb etilishga “ko‘prik” bo‘la olganligi dalolatidir.

Bu topilma Deterding va boshqalar modelida qayd etilgan “ma’noli gaymifikatsiya” tushunchasi bilan mos keladi: o‘yin elementlari faqat mexanik mukofot sifatida emas, balki o‘quvchini chuqurroq kognitiv va estetik tajribaga olib boruvchi vosita sifatida ishlasa, ular ta’lim jarayonini boyitadi. Adabiy ta’limda bu tamoyilni amalda qo‘llash uchun vazifalar va darajalar badiiy asarning struktural elementlari (voqealar, personaj rivojlanishi, g‘oyaviy kulminatsiya) bilan uyg‘unlashtirilishi zarur.

Xulosa qilsak, gaymifikatsiyaning adabiy ta’limdagi samaradorligi ko‘p jihatdan pedagogik maqsad va o‘yin dizayni o‘rtasidagi muvozanatga bog‘liq. Ortiqcha raqobat unsuri o‘quvchilarda badiiy matnni chuqur o‘qish o‘rniga tezkor, yuzaki javob berishga moyillik uyg‘otishi mumkin. Bu xavfni bartaraf etish uchun quyidagi tamoyillar zarur:

ball va nishonlar faqat to‘g‘ri javob uchun emas, balki badiiy tahlil sifati uchun ham berilishi; pog‘ona raqobat emas, o‘z rivojlanishini kuzatish uchun ishlatilishi; narrativ vazifalar (quests) badiiy asarning o‘zi syujeti bilan organik bog‘lanishi.

O‘zbek adabiyoti darslarida badiiy asarning murakkab mavzularini — masalan, Qodiriyning “O‘tkan kunlar”idagi tarixiy-madaniy qavatlarni yoki Navoiy g‘azallaridagi tasavvufiy ramzlarni - o‘yin doirasida kashf etish uchun qo‘llanilishi mumkin. Bu Q. Yo‘ldoshevning adabiy ta’limdagi “mustaqil estetik kashfiyot” tamoyili bilan to‘liq uyg‘undir.

XULOSA

Ushbu tadqiqot uchta mustaqil empirik tadqiqot va 15 ta empirik tadqiqotni qamrab olgan tizimli sharhning sintezi asosida gaymifikatsiyaning adabiy ta’‘limda badiiy matn ustida ishlashda samarali metodologik yondashuv ekanini isbotladi. Gaymifikatsiya qo’‘llanilgan barcha tadqiqotlarda badiiy matn tushunishi, o’‘quvchi motivatsiyasi va jalb etilishida statistik jihatdan muhim yaxshilanishlar qayd etildi:

Taklif etilgan to‘rt komponentli model - narrativ-kashfiyot, kognitiv-raqobat, ijodiy-mukofot va madaniy-hamkorlik - gaymifikatsiyani adabiy ta’limning o‘ziga xos maqsadlari bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Modelning samarali amalga oshirilishi uchun pedagogik maqsad va o‘yin dizayni o‘rtasidagi muvozanat saqlanishi, gaymifikatsiya elementlari badiiy asarning tuzilmaviy elementlari bilan organik bog‘lanishi va o‘qituvchi metodologik tayyorgarligining yuqori bo‘lishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. (2020). Adabiyot o‘qitish metodikasi. — Toshkent: Shafoat nur fayz. — 352 b.
Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, me’yoriy-huquqiy hujjatlar va o‘quv-metodik manbalar o‘rganildi hamda tadqiqotning nazariy asoslari shakllantirildi. Ikkinchi bosqichda empirik ma’lumotlar yig‘ildi. Uchinchi bosqichda olingan natijalar tahlil qilinib, umumlashtirildi va ilmiy xulosalar ishlab chiqildi. Empirik tadqiqotda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan 20 nafar tarbiyachi ishtirok etdi. Respondentlar mehnat tarbiyasi jarayonini bevosita tashkil etuvchi mutaxassislar sifatida tanlandi. So‘rovnoma 5 ta asosiy savoldan iborat bo‘lib, unda bolalarda mehnatsevarlik fazilatini shakllantirishga ta’sir etuvchi omillar, qo‘llanilayotgan pedagogik usullar, mehnat faoliyatining samarali shakllari hamda amaliyotda uchraydigan muammolar aniqlashtirildi. Tadqiqotda pedagogik kuzatish usuli ham qo‘llanildi. Kuzatish jarayonida bolalarning o‘z-o‘ziga xizmat qilish faoliyati, navbatchilik vazifalarini bajarishi, o‘yinchoqlar va o‘quv vositalarini tartibga keltirishi, tabiat burchagidagi o‘simliklarni parvarish qilishi hamda jamoaviy mehnat topshiriqlaridagi ishtiroki tahlil qilindi [2]. Mehnatsevarlik fazilatini baholashda bir qator mezonlardan foydalanildi. Jumladan, topshiriqni mustaqil bajarish darajasi, boshlangan ishni yakunlashga intilish, mehnat faoliyatiga qiziqish, jamoa bilan hamkorlikda ishlash hamda topshiriqlarga mas’uliyat bilan yondashish ko‘rsatkichlari asosiy mezon sifatida qabul qilindi. Ushbu mezonlar orqali bolalarda mehnatsevarlik fazilatining namoyon bo‘lish darajasi baholandi.

NATIJALAR

Olingan ma’lumotlar miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilindi. So‘rovnoma natijalari foiz ko‘rsatkichlari asosida qayta ishlanib, jadval ko‘rinishida umumlashtirildi. Tahlil natijalari mehnatsevarlik fazilatining shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni

aniqlash hamda ularning pedagogik ahamiyatini baholash imkonini berdi. Tadqiqotning dastlabki bosqichida tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatsevarlik fazilatining mazmuni va uning namoyon bo‘lish shakllari haqidagi fikrlari o‘rganildi. Shuningdek, mehnatsevarlik fazilatining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar, bolalarning mustaqil faoliyat darajasi, samarali mehnat faoliyatlari hamda amaliyotda uchraydigan muammolar yuzasidan ma’lumotlar to‘plandi. Olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

NATIJALAR

Tadqiqot doirasida Namangan viloyati Mingbuloq tumani maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan 20 nafar tarbiyachi ishtirokida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma bolalarda mehnatsevarlik fazilatini shakllantirishga doir tarbiyachilarning fikr-mulohazalarini aniqlashga qaratildi. Olingan natijalar quyidagi jadvallarda keltirildi va tahlil qilindi.

1-jadval

Tarbiyachilarning bolalarda mehnatsevarlik fazilatini shakllantirishga oid fikrlari (n=20)

Ko'rsatkichlar	Respondentlar soni (nafar)	Ulushi (%)
1. Mehnatsevarlikning asosiy namoyon bo'lish shakli		
Topshiriqni oxirigacha bajarish	7	35
Jamoada hamkorlik qilish	6	30
Mehnatga qiziqish bildirish	4	20
Mustaqil ishlash	3	15
2. Mehnatsevarlik fazilatiga ta'sir etuvchi omillar	**Respondentlar soni (nafar)**	**Ulushi (%)**
Oila	7	35
Maktabgacha ta'lim muhiti	6	30
Tarbiyachi	4	20
Ommaviy axborot vositalari (OAV)	3	15
3. Bolalarning topshiriqlarni mustaqil bajarish darajasi	**Respondentlar soni (nafar)**	**Ulushi (%)**
Yuqori daraja	8	40
O'rta daraja	8	40
Past daraja	4	20
4. Mehnatsevarlikni shakllantirishda samarali faoliyat turlari	**Respondentlar soni (nafar)**	**Ulushi (%)**
Jamoaviy mehnat topshiriqlari	7	35
O'simliklarni parvarishlash	6	30
Stol tayyorlash	4	20
Navbatchilik	3	15
5. Mehnatsevarlikni shakllantirishda uchraydigan muammolar	**Respondentlar soni (nafar)**	**Ulushi (%)**
Ota-onalar e'tiborining sustligi	8	40
Individual yondashuvning yetishmasligi	8	40
Bolalarda qiziqishning yetarli emasligi	4	20

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, tarbiyachilarning fikricha mehnatsevarlik fazilati eng avvalo topshiriqni oxirigacha bajarish (35%) va jamoada hamkorlik qilish (30%) orqali namoyon bo'ladi. Mehnatga qiziqish bildirish 20 %, mustaqil ishlash esa 15 % respondentlar tomonidan asosiy ko'rsatkich sifatida e'tirof etilgan. Mehnatsevarlik fazilatiga ta'sir etuvchi omillar orasida oila (35%) va maktabgacha ta'lim muhiti (30%) yetakchi o'rinni egalladi. Tarbiyachi ta'siri 20 %, OAV ta'siri 15 % deb baholandi. Bolalarning topshiriqlarni mustaqil bajarish darajasi bo'yicha 40 % yuqori, 40 % o'rta, 20 % past darajada ekani aniqlandi. Mehnatsevarlikni shakllantirishda eng samarali faoliyat turlari sifatida jamoaviy mehnat topshiriqlari (35%) va o'simliklarni parvarishlash (30%) ko'rsatildi. Asosiy muammolar sifatida esa ota-onalar e'tiborining sustligi (40%) va individual yondashuvning yetishmasligi (40%) qayd etildi.

1-jadval ma’lumotlari tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatsevarlik fazilatining mazmuni va uni shakllantirish omillari haqidagi qarashlarini aniqlash imkonini berdi. Natijalarga ko‘ra, respondentlarning 35 foizi mehnatsevarlikning asosiy belgisi sifatida topshiriqni oxirigacha bajarishni qayd etgan.

Bu holat bolalarda boshlangan ishni yakunlash ko‘nikmasi mehnatsevarlikning muhim tarkibiy qismi sifatida baholanishini ko‘rsatadi. Shuningdek, tarbiyachilarning 30 foizi jamoada hamkorlik qilishni asosiy ko‘rsatkich deb hisoblagan. Mazkur natija mehnat faoliyati jarayonida ijtimoiy munosabatlar va hamkorlik ko‘nikmalarining ahamiyati yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Mehnatga qiziqish bildirish (20%) va mustaqil ishlash (15%) ko‘rsatkichlari ham mehnatsevarlik fazilatining muhim elementlari sifatida e’tirof etildi [3]. Mehnatsevarlik fazilatining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar orasida oila yetakchi o‘rinni egallab, respondentlarning 35 foizi ushbu omilni eng muhim deb baholagan. Maktabgacha ta’lim muhiti 30 foiz bilan ikkinchi o‘rinni egalladi. Tarbiyachi faoliyati 20 foizni tashkil etgan bo‘lsa, ommaviy axborot vositalarining ta’siri 15 foiz deb qayd etildi. Olingan natijalar bolalarda mehnatsevarlik fazilatining rivojlanishi, avvalo, oiladagi tarbiya va kundalik faoliyat namunalariga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, maktabgacha ta’lim tashkilotida yaratilgan tarbiyaviy muhit ham ushbu sifatning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi .

Bolalarning topshiriqlarni mustaqil bajarish darajasi bo‘yicha olingan ma’lumotlar respondentlarning 40 foizi ushbu ko‘rsatkichni yuqori, 40 foizi o‘rta, 20 foizi esa past darajada deb baholaganini ko‘rsatdi. Mazkur natijalar bolalarning aksariyatida mustaqil faoliyat ko‘nikmalari shakllanayotganini, biroq ayrim hollarda ularga qo‘shimcha pedagogik yordam va rag‘batlantirish zarurligini anglatadi. Mehnatsevarlikni shakllantirishda eng samarali faoliyat turi sifatida jamoaviy mehnat topshiriqlari (35%) hamda o‘simliklarni parvarishlash (30%) qayd etildi. Respondentlarning fikricha, mazkur faoliyat turlari bolalarda mas’uliyat hissi, tartiblilik, sabr-toqat va mehnat natijasiga nisbatan qiziqishni rivojlantiradi. Stol tayyorlash (20%) va navbatchilik faoliyati (15%) ham amaliy ahamiyatga ega vositalar sifatida baholandi [5]. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, bolalarda mehnatsevarlik fazilatini shakllantirish jarayonida ota-onalar e’tiborining sustligi (40%) hamda individual yondashuvning yetishmasligi (40%) asosiy muammolar sifatida qayd etildi. Shuningdek,

respondentlarning 20 foizi bolalarda mehnat faoliyatiga qiziqishning yetarli emasligini muhim muammo deb hisoblagan. Ushbu natijalar maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligini yanada kuchaytirish, bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik faoliyatni tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatsevarlik fazilatining shakllanishi ko'plab omillar ta'sirida yuz berishini ko'rsatdi. Respondentlar oilaning tarbiyaviy ta'sirini birinchi o'ringa qo'ygan bo'lsalar, maktabgacha ta'lim muhiti va tarbiyachi faoliyatining ham muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etdilar. Shuningdek, bolalarda mehnatsevarlikni rivojlantirishda jamoaviy mehnat topshiriqlari hamda tabiat bilan bog'liq amaliy faoliyatlar samarali vosita sifatida e'tirof etildi. Olingan natijalar maktabgacha ta'lim jarayonida mehnat tarbiyasini tizimli tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatsevarlik fazilatining shakllanishi, avvalo, oila va ta'lim muassasasi hamkorligiga bog'liqligini ko'rsatdi. Respondentlarning 35 foizi oilani asosiy omil sifatida baholagan. Ushbu natija F.R. Qodirovaning bolada dastlabki mehnat ko'nikmalari va ijtimoiy xulq-atvor namunalarining shakllanishida oilaning ustuvor o'rni mavjudligi haqidagi ilmiy qarashlari bilan mos keladi [3]. Biroq tadqiqotda maktabgacha ta'lim muhiti ham 30 foiz ko'rsatkich bilan yuqori natija qayd etgani zamonaviy sharoitda mehnat tarbiyasi faqat oilaviy ta'sir doirasida emas, balki ta'lim muassasasida tashkil etiladigan maqsadli pedagogik faoliyat orqali ham rivojlanishini ko'rsatadi. Demak, mehnatsevarlik fazilatining shakllanishi oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining o'zaro hamkorligi natijasida yuzaga keladigan murakkab pedagogik jarayon hisoblanadi. Bizning tadqiqotimizda mehnatsevarlikning asosiy belgisi sifatida topshiriqni oxirigacha bajarish 35 foiz natija bilan birinchi o'rinni egalladi. Mazkur holat bolalarda mas'uliyatlilik va qat'iyatlilik sifatlari mehnatsevarlikning muhim tarkibiy qismi sifatida

shakllanayotganini ko‘rsatadi. Pedagogik tadqiqotlarda ham mehnatsevarlik shaxsning mehnat faoliyatida ishtirok etishi bilangina emas, balki boshlangan ishni sifatli va to‘liq yakunlay olish qobiliyati bilan baholanishi ta’kidlanadi [5]. Shu jihatdan qaraganda, olingan natijalar mehnatsevarlikning mazmun-mohiyatini ochib beruvchi nazariy qarashlarni tasdiqlaydi. Jamoada hamkorlik qilishning 30 foiz ko‘rsatkich bilan ikkinchi o‘rinni egallashi alohida e’tiborga loyiqdir. L.S. Vygotskiy bolaning rivojlanishi ijtimoiy hamkorlik jarayonida sodir bo‘lishini ta’kidlaydi [6]. Bizning tadqiqotimiz natijalari ham ushbu nazariy qarashlarni amaliy jihatdan tasdiqladi. Chunki jamoaviy faoliyat davomida bolalar bir-biriga yordam berish, vazifalarni taqsimlash va umumiy natija uchun mas’uliyat his qilishni o‘rganadilar. Natijada mehnatsevarlik nafaqat individual, balki ijtimoiy ahamiyatga ega fazilat sifatida rivojlanadi.

Tadqiqotda jamoaviy mehnat topshiriqlari (35%) hamda o‘simliklarni parvarish qilish (30%) bolalarda mehnatsevarlikni rivojlantirishning eng samarali shakllari sifatida baholandi. Ushbu natija tasodifiy emas. Chunki amaliy faoliyat jarayonida bola o‘z mehnatining natijasini bevosita kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Xususan, o‘simliklarni muntazam parvarish qilish jarayonida sabr-toqat, mas’uliyat va mehnat natijasiga hurmat hissi rivojlanadi. Poddyakovning fikricha, maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatga qiziqish real natija bilan bog‘liq faoliyatlarda kuchliroq namoyon bo‘ladi [7]. Bizning natijalarimiz ham mazkur ilmiy xulosani tasdiqlaydi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, ota-onalar e’tiborining sustligi va individual yondashuvning yetishmasligi 40 foizdan asosiy muammo sifatida qayd etildi. E’tiborli jihati shundaki, respondentlar bir tomondan oilani mehnatsevarlikni shakllantirishdagi eng muhim omil sifatida baholagan bo‘lsalar, ikkinchi tomondan aynan oilaviy tarbiyadagi ayrim kamchiliklarni asosiy muammo sifatida ko‘rsatganlar. Bu holat mehnatsevarlik fazilatining shakllanishida oilaning o‘rni yuqori bo‘lishi bilan birga, mazkur jarayonning sifati ham muhim ekanligini anglatadi. Agar bola oilada muntazam

ravishda mehnat faoliyatiga jalb etilmasa yoki unga mustaqil vazifalar topshirilmasa, mehnatsevarlik sifatining rivojlanishi sekinlashishi mumkin.

XULOSA

Tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatsevarlik fazilatining shakllanishi murakkab pedagogik jarayon bo‘lib, u oila, maktabgacha ta’lim tashkiloti va tarbiyachi faoliyatining o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liqligini ko‘rsatdi. O‘tkazilgan so‘rovnoma va tahlillar asosida eng muhim omil sifatida oila (35%) yetakchi o‘rinni egalladi. Bu holat bolaning dastlabki mehnat ko‘nikmalari va ijtimoiy xulq-atvori, avvalo, oilaviy muhitda shakllanishi bilan izohlanadi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim muhiti (30%) va tarbiyachi faoliyati (20%) ham bolalarda mehnatsevarlikni rivojlantirishda muhim o‘rin tutishi aniqlandi. Bu esa ta’lim jarayonida tashkil etiladigan amaliy faoliyatlar, jumladan navbatchilik, o‘yinchoqlarni yig‘ishtirish, tabiat burchagidagi ishlar va jamoaviy topshiriqlarning ahamiyatini yanada oshiradi. Tadqiqot davomida mehnatsevarlikning asosiy namoyon bo‘lish shakli sifatida topshiriqni oxirigacha bajarish va jamoada hamkorlik qilish ustun ekanligi qayd etildi. Bu esa bolalarda mas’uliyatlilik, qat’iyatlilik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarning shakllanayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tadqiqotda ota-onalar e’tiborining sustligi va individual yondashuv yetishmasligi asosiy muammolar sifatida aniqlandi. Bu holat maktabgacha ta’lim tizimida oila bilan hamkorlikni kuchaytirish va har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan pedagogik yondashuvni rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, mehnatsevarlik fazilatini shakllantirishda oila va ta’lim muassasasining hamkorligi, tarbiyachining kasbiy mahorati hamda amaliy mehnat faoliyatlarining tizimli tashkil etilishi muhim pedagogik shart hisoblanadi. Tadqiqot natijalari ushbu yo‘nalishda olib boriladigan ishlarni takomillashtirishga ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qodirova F.R. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur, 2019.

2. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., A'zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2013.
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – Toshkent, 2022.
4. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Harvard University Press, 1978.
5. Ushinskiy K.D. Pedagogical Works. – Moscow: Pedagogika, 1990.
6. Poddyakov N.N. Trudovoe vospitanie doshkolnikov. – Moscow: Prosveshchenie, 1985.

PARALIMPIYA SPORT TURI BILAN SHUG'ULLANUVCHI TALABALARNING KUCH SIFATINI TAKOMLLASHTIRISHDA ELEKTRON TA'LIM DASTURINING O'RNI

Mahmudjonov Asilbek Abduvoxid o'g'li
Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
Email: asilbekmahmudjonov19981126@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada paralimpiya sport turlari bilan shug'ullanuvchi talabalarning jismoniy tayyorgarligini, xususan, kuch sifatini rivojlantirishda elektron ta'lim dasturidan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot jarayonida elektron platformalar yordamida mashg'ulotlarni tashkil etish, individual yondashuvni ta'minlash va mashqlar samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilindi. Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, elektron ta'lim vositalari kuch sifatlarini rivojlantirishda yuqori motivatsiya va mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Maqolada paralimpiya sportchilari uchun raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi, ularning jismoniy reabilitatsiya va sport tayyorgarligi jarayoniga ijobiy ta'siri ilmiy asosda bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Paralimpiya sporti, kuch sifati, elektron ta'lim, raqamli texnologiya, jismoniy tayyorgarlik, motivatsiya, reabilitatsiya.*

РОЛЬ ЭЛЕКТРОННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПРОГРАММЫ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ СИЛОВЫХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ, ЗАНИМАЮЩИХСЯ ПАРАЛИМПИЙСКИМИ ВИДАМИ СПОРТА

Аннотация: *В данной статье рассматривается значение использования электронной образовательной программы в развитии физической подготовки, в частности силы, у студентов, занимающихся паралимпийскими видами спорта. В ходе исследования были проанализированы возможности организации тренировочного процесса с помощью электронных платформ, индивидуального подхода и повышения эффективности упражнений. Результаты эксперимента показали, что использование электронных образовательных средств способствует развитию силы, повышает мотивацию и формирует навыки самостоятельной работы. В статье научно обосновано влияние цифровых технологий на процесс физической реабилитации и спортивной подготовки паралимпийцев.*

Ключевые слова: *Паралимпийский спорт, сила, электронное обучение, цифровые технологии, физическая подготовка, мотивация, реабилитация.*

THE ROLE OF AN ELECTRONIC LEARNING PROGRAM IN IMPROVING THE STRENGTH QUALITIES OF STUDENTS ENGAGED IN PARALYMPIC SPORTS

Annotation: *This article examines the importance of using an electronic educational program to develop physical fitness, particularly strength, among students engaged in Paralympic sports. The study analyzes the effectiveness of organizing training sessions through electronic platforms, ensuring an individualized approach, and improving exercise efficiency. Experimental results indicate that the use of digital learning tools enhances strength development, increases motivation, and fosters independent learning skills. The paper provides a scientific justification for the positive impact of digital technologies on the physical rehabilitation and training process of Paralympic athletes.*

Keywords: *Paralympic sport, strength, electronic education, digital technology, physical fitness, motivation, rehabilitation.*

KIRISH

Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport tizimida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, shu jumladan elektron ta’lim dasturlaridan foydalanish jarayoni tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan talabalar, jumladan, paralimpiya sport turlari bilan shug‘ullanuvchi yoshlar uchun elektron ta’lim vositalarini joriy etish ularning sport tayyorgarligini individuallashtirish, mustaqil o‘qish va mashg‘ulot olib borish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2020-yil 24-yanvardagi PF–5924-son “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni**da ham jismoniy tarbiya va sport tizimini innovatsion asosda rivojlantirish, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun sport bilan shug‘ullanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda raqamli ta’lim texnologiyalarini joriy etish vazifalari belgilab berilgan. Ushbu hujjat paralimpiya sporti sohasida elektron ta’lim vositalarini samarali qo‘llash uchun muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi [1].

Paralimpiya sport turlari bilan shug‘ullanuvchi talabalarda kuch sifatini rivojlantirish - nafaqat jismoniy imkoniyatlarni kengaytirish, balki ularning ruhiy barqarorligi, o‘ziga ishonchi va sport natijalarini yaxshilashning asosiy omillaridan biridir. Elektron ta’lim dasturlari yordamida kuch mashqlarini nazariy va amaliy jihatdan o‘zlashtirish, individual yuklama miqdorini aniqlash, mashg‘ulot samaradorligini monitoring qilish imkoniyatlari yaratiladi.

Shu boisdan, paralimpiya sport turi bilan shug‘ullanuvchi talabalarning kuch sifatlarini takomillashtirishda elektron ta’lim dasturining o‘rni va ahamiyatini o‘rganish, uning pedagogik mexanizmlarini aniqlash hamda sport mashg‘ulotlari jarayoniga tatbiq etish bugungi kunda ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayoni Namangan davlat pedagogika institutining jismoniy madaniyat fakultetida tahsil olayotgan, paralimpiya sport turlari bilan shug‘ullanayotgan 18 nafar talaba ishtirokida olib borildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi - elektron ta’lim dasturidan foydalanish orqali talabalar kuch sifatini takomillashtirish samaradorligini aniqlashdan iborat bo‘ldi [2].

Tadqiqot ikki bosqichda amalga oshirildi: birinchi bosqichda (diagnostik bosqich) talabalarning boshlang‘ich jismoniy tayyorgarlik darajasi maxsus testlar yordamida baholandi. Bunda qo‘l, oyoq va bel mushaklarining kuch ko‘rsatkichlari, shuningdek, umumiy chidamlilik testlari o‘tkazildi. Ikkinchi bosqichda esa elektron ta’lim dasturi asosida mashg‘ulot jarayoni tashkil etilib, unda video darslar, interaktiv topshiriqlar, virtual mashqlar va o‘zini baholash modullari qo‘llanildi [4].

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Kuzatish metodi – talabalarning mashg‘ulotlarga bo‘lgan munosabati, faolligi va motivatsiyasini aniqlash uchun;

Eksperimental metod – elektron ta’lim dasturining samaradorligini amaliy tajribada sinovdan o‘tkazish uchun;

Statistik tahlil – olingan natijalarni matematik jihatdan qayta ishlash va tahlil qilish uchun;

So‘rovnoma va suhbat – talabalar va murabbiylarning elektron ta’lim tizimiga munosabatini aniqlash uchun.

Mashg‘ulotlar davomida “Google Classroom” va “Moodle” platformalaridan, shuningdek, maxsus ishlab chiqilgan video mashqlar to‘plamidan foydalanildi.

O‘quvchilar haftasiga 3 marta onlayn mashg‘ulotlarda ishtirok etdilar va natijalar elektron jurnal orqali qayd etib borildi [5].

Tadqiqot yakunida eksperimental va nazorat guruhlari natijalari o‘zaro solishtirilib, elektron ta’lim dasturi kuch sifatlarini rivojlantirishda sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatgani aniqlandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot davomida elektron ta’lim dasturining paralimpiya sport turi bilan shug‘ullanuvchi talabalarning kuch sifatlarini rivojlantirishdagi samaradorligi eksperimental tarzda aniqlab berildi. Tajriba jarayonida 18 nafar talaba ikki guruhga - **nazorat guruhi (9 nafar)** va eksperimental guruhi (9 nafar)ga ajratildi.

Nazorat guruhi an’anaviy mashg‘ulot uslublarida shug‘ullandi, eksperimental guruh esa elektron ta’lim dasturi asosida tayyorlangan mashg‘ulotlar kompleksidan foydalandi. Ushbu dasturda interaktiv mashqlar, virtual ko‘rsatmalar, videodarslar va mustaqil baholash modullari qo‘llanildi.

Tajriba 8 hafta davom etdi. Dastur yakunida talabalarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari maxsus kuch testlari yordamida qayta o‘lchandi. Quyidagi jadvalda tajriba oldi va keyingi natijalar keltirilgan:

atijalar tahliliga ko‘ra, elektron ta’lim dasturi asosida shug‘ullangan talabalar kuch sifatida an’anaviy mashg‘ulot olib borganlarga nisbatan yuqori natijalarga erishgan. Xususan, qo‘l va bel mushaklari kuchida **18–20% gacha,** oyoq mushaklarida esa **19.8%** ijobiy o‘sish kuzatildi. Bu esa elektron ta’lim dasturi kuch sifatlarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatadi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, elektron ta’lim dasturi paralimpiya sport turi bilan shug‘ullanuvchi talabalarning kuch sifatlarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Eksperimental guruhda qayd etilgan sezilarli o‘sishlar — bu dastur asosida mashg‘ulotlarni tashkil etishning tizimli, interaktiv va individual yondashuvlarga asoslanganligi bilan izohlanadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Elektron ta’lim dasturining afzalliklaridan biri shundaki, u har bir talabaga o‘z imkoniyatiga mos yuklamani tanlash, mashg‘ulotlarni istalgan vaqtda mustaqil bajarish, shuningdek, video va audio ko‘rsatmalar orqali harakatlarni to‘g‘ri bajarishni o‘rganish imkonini beradi. Natijada, mashqlar sifati yaxshilanadi, mushaklarning faol ishtiroki ortadi va kuch ko‘rsatkichlari bosqichma-bosqich o‘sib boradi.

Mazkur natijalar ilgari o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar (Masalan, A. Karimov, 2021; N. Ismoilova, 2022) bilan hamohang bo‘lib, elektron ta’lim vositalarining sport tayyorgarligi jarayonida motivatsiyani oshirish va mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni ilmiy jihatdan tasdiqlangan. Shu bilan birga, elektron ta’lim platformalari orqali murabbiy va talaba o‘rtasidagi onlayn aloqa mashg‘ulotlar monitoringini soddalashtiradi, mashqlar natijalarini tezkor baholash va tahlil qilish imkonini beradi [5,6].

Paralimpiya sportchilari uchun elektron ta’lim vositalaridan foydalanish nafaqat kuch sifatlarini takomillashtiradi, balki ularning ruhiy barqarorligi, o‘z-o‘zini baholash va ijtimoiy faolligini oshiradi. Bu holat ularning sport natijalarini yaxshilash, reabilitatsiya jarayonlarini tezlashtirish hamda jamiyatda faol integratsiyasiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari elektron ta’lim dasturini paralimpiya sportchilarining kuch sifatlarini rivojlantirish jarayonida innovatsion pedagogik yondashuv sifatida joriy etish zarurligini tasdiqlaydi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, paralimpiya sport turi bilan shug‘ullanuvchi talabalarning kuch sifatlarini takomillashtirishda elektron ta’lim dasturidan foydalanish yuqori samaradorlikka ega pedagogik yondashuvdir. Elektron platformalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning jismoniy imkoniyatlarini chuqur o‘rganish, individual yuklamani to‘g‘ri taqsimlash va mashqlarni nazariy hamda amaliy jihatdan mukammal o‘zlashtirish imkonini yaratdi.

Eksperimental tadqiqotda elektron ta’lim dasturi asosida shug‘ullangan talabalar kuch sifatlarining barcha ko‘rsatkichlari bo‘yicha (qo‘l, bel, oyoq mushaklari kuchi) an’anaviy mashg‘ulot olib borganlarga nisbatan 18–20% yuqori natijalarga erishdilar. Bu esa elektron ta’lim vositalarining interaktivlik, qulaylik va motivatsiya berish imkoniyatlari kuch mashqlarining samaradorligini oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Shuningdek, elektron ta’lim dasturi nogironligi bo‘lgan talabalar uchun o‘z imkoniyatlariga mos mashqlarni tanlash, mustaqil ravishda shug‘ullanish va o‘z natijalarini kuzatish imkonini berdi. Bu jarayon talabalarning sportga bo‘lgan ishtiyoqini oshirdi, psixologik barqarorlik va o‘ziga ishonchni kuchaytirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF–5924-son Farmonida belgilanganidek, jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, elektron ta’lim dasturlari paralimpiya sportchilari tayyorgarligini zamonaviy bosqichga olib chiqishda, ularning jismoniy reabilitatsiyasi va ijtimoiy integratsiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu boisdan, elektron ta’lim dasturini sport ta’limi tizimiga keng joriy etish, murabbiylar uchun raqamli metodik qo‘llanmalar yaratish va platformalarni doimiy yangilab borish — kelgusidagi tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF–5924-son “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Azizov, S. V. (2024). YOSH SPRINTERLARNI SARALAB OLISHNING O’ZIGA HOS JIHATLARI. Экономика и социум, (2-1 (117)), 126-129.
3. Азизов, С. В. (2024). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЧАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ ТЕХНИКИ ИГРЫ ГАНДБОЛИСТОВ. Экономика и социум, (6-2 (121)), 831-836.
4. Azizov, S. V., Azizova, R. I., Mahmudjonov, A., & Tuxtaboyeva, N. (2024). SPORTCHILARDA O ‘YIN JARAYONINI YUQORI DARAJADA IDROK QILISH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH INTELLEKTUAL TAYYORGARLIKNING ASOSIY VAZIFASI. Экономика и социум, (9 (124)), 82-86.

5. Jo'rayev, T. T., Mahmudjonov, A. A., & Shamsitdinova, M. F. (2024). THE EFFECTIVENESS OF USING NATIONAL ACTION GAMES IN DEVELOPING SPORTS ELEMENTS. MASTERS, 2, 29-33.
6. Makhmudovich, G. A. (2024). THE IMPORTANCE OF SPECIAL METHODS IN INCREASING THE EFFICIENCY OF SPORTS EXERCISES. INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY, 730-734.
7. Makhmudovich, G. A. (2024). METHODS OF MONITORING THE PHYSICAL DEVELOPMENT OF HIGH SCHOOL STUDENTS THROUGH GYMNASTICS. INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY, 735-739.
8. Mahmudjonov, A. A., Izatullayev, A. M., & Ergashaliyev, D. N. (2024). THE IMPORTANCE OF GENERAL PHYSICAL FITNESS IN INCREASING THE EFFICIENCY OF SPORTS TRAINING IN PRIVATE SCHOOLS. INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY, 755-759.
9. Makhmudovich, G. A. (2024). MOVEMENT SKILLS OF YOUNG GYMNASTS AND THE LAWS OF ITS FORMATION. INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY,751-754.
10. Satiyev, S., & Azizov, S. V. (2020). BEGINNINGS OF THE RELATIONSHIP OF TEMPERAMENT TYPES TO EMOTIONAL STRESS AND THE DEGREE OF STRESS RESISTANCE OF FOOTBALL PLAYERS. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(6), 378-385.
11. Shamsitdinova, M. F. (2022). UMUMTA'LIM MAKTABLARI O 'QUVCHILARINING JISMONIY TAYYORGARLIGIGA BASKETBOL SPORT TO 'GARAKLARINING TA'SIRI. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(9), 208-212.
12. G'ofirjonova, A. I. (2022). MILIY HARAKATLI O 'YINLARNI SPORT ELEMENTLARINI O'ZLASHTIRISHDA QO'LLASHNING SAMARADORLIGI. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(9), 171-176.
13. Костикова, О. В., Азизов, С. В., Болтобаев, С. А., Азизова, Р. И., & Махмуджонов, А. А. (2025). РАЗВИТИЕ У ЮНЫХ БАСКЕТБОЛИСТОВ СКОРОСТИ И ТОЧНОСТИ БРОСКА. Физическая культура, спорт-наука и практика, 2, 109-114.
14. Luqmonov, I. B. (2022). KARATE SPORT TO 'GARAKLARINING UMUMTA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARINING JISMONIY TAYYORGARLIGIGA TA'SIRI. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(9), 166-170.

UDK 37.02:811.111

METHODOLOGICAL ASPECTS AND CHALLENGES OF FOREIGN LANGUAGE TRAINING FOR INTERNATIONAL MEDICAL STUDENTS IN UZBEKISTAN

Sharipova Feruza Ibragimovna
email: sharipova.feruza19@gmail.com PhD, Associate Professor
Tashkent State Medical University

Abstract. *This article examines the theoretical and methodological foundations and practical challenges of implementing English for Medical Purposes (EMP) programs in the context of the internationalization of higher medical education in Uzbekistan. Particular attention is paid to analyzing international students' motivation to study professional English based on the classical model developed by Hutchinson and Waters. Based on empirical data, the article identifies a mismatch between traditional general English (EGP) instruction and the actual clinical and communicative requirements of the students' future medical careers. It proposes ways to modernize curricula by integrating modules on intercultural and communicative competencies.*

Keywords: *Medical English (EMP), internationalization, interest analysis, communicative competence, international students, higher medical education, intercultural interaction*

O'ZBEKISTONDA XALQARO TIBBIYOT TALABALARI UCHUN CHET TILINI O'QITISHNING METODOLOGIK JIHATLARI VA MUAMMOLARI

Sharipova Feruza Ibragimovna
email: sharipova.feruza19@gmail.com PhD, dotsent
Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqola O'zbekistonda oliy tibbiy ta'limni xalqaro qilish kontekstida Tibbiy maqsadlarda ingliz tili (English for Medical Purposes, EMP) dasturlarini joriy etishning nazariy va metodologik asoslari hamda amaliy muammolarini tahlil qiladi. Xususan, Xutchinson va Uoters taklif qilgan klassik modelga asoslanib, xalqaro talabalarning professional ingliz tilini o'rganish motivatsiyasini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Empirik ma'lumotlarga asoslanib, an'anaviy umumiy ingliz tili (EGP) o'qitish bilan talabalarning kelajakdagi tibbiy faoliyatidagi klinik va kommunikativ talablar o'rtasida nomuvofiqlik aniqlandi. Madaniyatlararo va kommunikativ kompetentsiyalar bo'yicha modullarni integratsiya qilish orqali o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish usullari taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *Tibbiy ingliz tili (EMP), xalqaro hamkorlik, qiziqishlar tahlili, kommunikativ kompetentsiya, chet eldagi talabalar, oliy tibbiy ta'lim, madaniyatlararo muloqot*

МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ И ПРОБЛЕМЫ ИНОЯЗЫЧНОЙ ПОДГОТОВКИ ИНОСТРАННЫХ СТУДЕНТОВ-МЕДИКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Шарипова Феруза Ибрагимовна
эл. почта: sharipova.feruza19@gmail.com
кандидат педагогических наук (PhD), доцент
Ташкентский государственный медицинский университет

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретико-методологические основы и практические проблемы внедрения программ английского языка для медицинских целей (EMP) в контексте интернационализации высшего медицинского образования в Узбекистане. Особое внимание уделяется анализу интересов к изучению профессионального английского языка студентов-иностранцев на основе классической модели Хатчинсона и Уотерса. На основе эмпирических данных выявляется несоответствие между традиционным обучением общему английскому языку (EGP) и реальными клинико-коммуникативными требованиями будущей медицинской карьеры студентов. Предложены пути модернизации учебных планов через интеграцию модулей межкультурной и коммуникативной компетенций.*

Ключевые слова: *медицинский английский (EMP), интернационализация, анализ интересов, коммуникативная компетенция, студенты-иностранцы, высшее медицинское образование, межкультурное взаимодействие*

INTRODUCTION

In the era of globalization and the internationalization of higher education, the English language has firmly established itself as the global lingua franca (ELF). In medical education, this process is reflected in a sharp increase in the number of English-language study programs and a rise in academic mobility [3]. According to official statistics, Uzbekistan has seen a steady influx of international students into medical universities (an increase of approximately 250,000 students during the 2023–2024 period) [2,6]. The transition from teaching general English (EFL/EGP) to teaching English for medical purposes (EMP) has been recognized as a key strategic priority. However, despite its declared importance, the actual state of EMP implementation in Uzbekistan remains insufficiently formalized and standardized. Most courses continue to focus on formal

lexical and grammatical aspects, overlooking a crucial component—the clinical-communicative and intercultural competence of future physicians.

Main Section

Conceptual Features of EMP Medical English (EMP) has distinct characteristics that set it apart from other areas of ESP (English for Specific Purposes). It integrates three key components: academic, which involves writing articles, abstracts, and navigating the academic writing process for medical researchers [5]; professional-communicative (taking medical histories, conducting consultations) and clinical (working with medical records). Proponents of EMP emphasize that proficiency in this discipline provides access to 90% of the world's scientific publications and databases (Scopus, PubMed). At the same time, opponents point to the risks of cognitive overload for students with a low level of basic language proficiency and a shortage of qualified "dually competent" instructors (who are proficient in both medicine and language teaching methodology) [1,3].2. Needs Analysis Based on the Hutchinson and Waters Model To develop an effective "English in Medicine" course, a thorough assessment of the target audience's requirements is necessary. According to the concept developed by T. Hutchinson and A. Waters, an analysis of the target situation includes a triad of parameters: needs, lacks, and wants: Needs (Situational Context): These are determined by the demands of real-world clinical practice—reading specialized literature, maintaining medical records, and communicating directly with English-speaking patients [4]. Gaps (Learning Objectives): These identify the gap between the student's current language skills and the demands of the target situation. In Uzbekistan, this gap is significant due to the predominance of grammar-translation methods at the expense of conversational practice. Student Interests: students' personal motivation, their cultural background, and their individual learning styles. 3. Specifics of teaching communication skills in Uzbekistan. While in international practice (for example, at universities in the United Kingdom) the assessment of international students' communication skills is strictly regulated, in the

context of domestic medical education this process has not yet become a mandatory standard. International students (for example, from India or South Korea) undergoing clinical rotations in Uzbekistan's hospitals use English as the only available means of communication with faculty and colleagues. Universal principles of communication (empathy, active listening) should be supplemented with specialized modules on intercultural adaptation to prevent professional and ethical errors.

METHODS AND MATERIALS

The purpose of this study is to examine the process of teaching Medical English to international students at Tashkent State Medical University, as well as to develop and modernize a professionally oriented language training program. The Department of Uzbek and Foreign Languages No. 2 is implementing an updated curriculum for the course "Medical English" for international students. This program is primarily aimed at students from India and is designed to integrate professional English with basic theoretical medical disciplines, such as human anatomy, pathological anatomy, and biochemistry. Interactive technologies, including role-playing games (e.g., "At the Doctor's Office," "Dialogue Between Doctor and Patient"), have been actively incorporated into the educational process.

The program is currently undergoing continuous optimization to accommodate the varying levels of prior language proficiency among international students. To maintain high-quality instruction, the department's faculty members undergo international certification every two years to confirm their proficiency in English at the C1 level.

The department's primary objective is to make effective use of human resources and educational and methodological potential. This is achieved through the exchange of experience, the development of teaching and learning materials, the compilation of specialized dictionaries, the conduct of joint practical classes, and the development of international students' ability to understand various regional dialects and accents. An

important step in this direction was the organization of research and practical seminars with the participation of international colleagues, in particular the Director of the Regional English Language Office for Central Asia (RELO), Giuseppe Carlo Chiaramonte. To identify needs, gaps, and challenges in teaching the "Medical English" course, a quick survey consisting of five open-ended and closed-ended questions was conducted among the 1st year foreign students of the Department of Uzbek and Foreign Languages No. 2. Data collection and processing were carried out using descriptive statistical methods, followed by a qualitative analysis of the results.

Picture 1. English lesson for foreign medical students (Tashkent State Medical University)



Following the survey, general discussions were held with each group of the 1st year foreign students to review the results. Based on the data collected, a plan was developed for ongoing scientific and methodological inclusions in the educative process

of teaching Medical English for the department's students. The inclusions focus on boosting future doctors' professional confidence, developing practical recommendations, and integrating digital and interactive educational technologies into the learning of medical English [8]. As part of international academic mobility programs, master classes featuring leading foreign experts are planned. In addition, the department's long-term plan includes initiatives to provide methodological support to instructors of related disciplines (the interdisciplinary module "Uzbek," "Latin," and "Russian") who teach international students in English as a medium of instruction.

Below are five questions for a survey of first-year international students in the Department of Uzbek and Foreign Languages No. 2 at TSMU, developed using the Hutchinson and Waters methodology (Needs, Lacks, Wants).

1. What are the main difficulties you face when studying "Medical English" and integrating it with clinical subjects (anatomy, biochemistry, etc.)? Objective: to identify "deficits" — Lacks).

2. 2. How comfortable do you feel when listening to instructors speak and during oral communication in class? Does the difference in accents affect your understanding of the material? (Objective: to identify "communication barriers"—Communicative Analysis).

3. Which interactive teaching methods (doctor-patient role-plays, clinical case simulations, small-group work) do you consider most useful for your future career? (Goal: identifying professional "wants"—Wants).

4. Are you satisfied with the current quality and structure of the instructional materials and medical dictionaries provided by the department? What materials do you feel are missing? (Objective: to assess "instrumental needs").


5. Do you think it is necessary to increase the number of academic hours allocated to the "Medical English" course, or is the current amount of time sufficient for mastering the terminology? (Objective: to assess "time budget" and program intensity).

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

RESULTS OF RESEARCH

A survey of international students from India studying "Medical English" revealed that 75% of respondents consider the gap between their general language proficiency and the requirements of medical terminology to be the main problem, while 100% cited communication barriers. To improve the curriculum, 90% of students cited the need for teacher certification and also suggested increasing the number of class hours, introducing state exams (75%), and strengthening the practical clinical focus. Based on the student survey, recommendations were developed to modernize the professional English program.

The results of the Department of Uzbek and Foreign Languages No. 2 at TSMU' survey are summarized in diagram 1.



Note: MF 101, MF 102, MF 103 are numbers of 1st year foreign medical students at the Department of Uzbek and Foreign Languages No. 2 TSMU

Diagram 1. Survey results of the Uzbek and Foreign Languages No. 2 department's foreign students

An analysis of the results of a survey conducted among international students from India enrolled in the "Medical English" program at the Department of Uzbek and

Foreign Languages No. 2 at the Tashkent State Medical University revealed the students' key academic needs, gaps, and subjective difficulties. Responses to the first set of questions revealed significant heterogeneity within the sample. The majority of the foreign students surveyed (75%) identified as the main barrier the sharp gap between their basic level of general English proficiency (EGP) and the high demands for mastering highly specialized medical terminology at the intersection with fundamental disciplines (anatomy, pathological anatomy, and biochemistry). The remaining 25% of respondents indicated that their greatest difficulty stemmed from adapting to the academic discourse of their instructors. At the same time, 100% of international students confirmed the presence of mutual communication difficulties during the initial stage of their studies. This factor stems from the fact that neither the students nor the instructors are native speakers, and English functions exclusively as a lingua franca. As a result, students sometimes find it difficult to accurately express their thoughts when analyzing complex clinical cases, while instructors struggle to quickly identify and distinguish phonetic and lexical errors specific to Indian regional dialects.

When analyzing responses to the question about the need for international certification of instructors, the overwhelming majority of international students (90%) expressed the view that instructors of specialized English must hold international certifications (at the C1/C2 level). Students associate this not merely with formal confirmation of language proficiency, but with the need for instructors to implement modern, interactive teaching methods from abroad that can increase student engagement. Only 10% of students noted that they considered it sufficient for instructors to have a traditional command of medical vocabulary at the academic minimum level (B2). However, it was precisely in groups using a traditional approach that students most often demonstrated a decline in intrinsic motivation and passivity during practical sessions. A significant number of problems came to light during the evaluation of the course's teaching and methodological support. Most international students reported a

severe shortage of adapted educational resources tailored to the specifics of their future integration into the international healthcare system. Students identified the difficulty of comprehending unadapted text materials as the most challenging aspect. A quarter of the respondents (25%) emphasized that the textbooks used rarely contain relevant cross-references to current international treatment protocols and databases. A survey of students' opinions regarding the allocation of class time revealed that the overwhelming majority consider the number of hours allocated to the "Medical English" course to be insufficient. To maximize the effectiveness of instruction, international students proposed a set of measures:

- 25% of respondents favored extending the course into the upper (clinical) years;
- 75% supported the initiative to introduce a mandatory final state exam in medical English;
- 25% pointed out the need to integrate language classes directly with clinical practice at hospitals and simulation centers.

The results of the student survey were summarized descriptively and used in conjunction with data from a survey of faculty members to comprehensively modernize the course curriculum. As the study showed, international students have a pressing need to transition from rote memorization of vocabulary to the development of real clinical communication competence. Students expressed a strong need for free access to foreign-language literature (25%) and the creation of specialized interactive glossaries (75%) that take into account the characteristics of their native language background. The quantitative indicators and distribution of students' responses according to key indicators of needs are clearly organized and presented in the diagram 1.

CONCLUSION

An empirical study of the foreign language training process for international medical students conducted by the Department of Uzbek and Foreign Languages No. 2 allows us to draw the following key conclusions: The need to transition from EGP to

EMP: The traditional system of teaching general English (EGP) does not fully meet the professional needs of international students. The identified gap between students' basic language skills and the requirements for mastering highly specialized medical terminology (reported by 75% of respondents) necessitates the comprehensive integration of the "Medical English" course with fundamental disciplines (anatomy, pathological anatomy, and biochemistry). Overcoming Communication Barriers (Lingua Franca): In a context where English serves exclusively as a lingua franca, 100% of participants in the educational process face interference and dialect-related barriers. To address this issue, specialized glossaries (supported by 75% of participants) and teaching materials that take into account regional phonetic and lexical characteristics as well as the linguistic background of students from India must be developed. Faculty Qualifications and Modernization of Teaching Methods: The successful internationalization of medical education directly depends on the continuous professional development of faculty members. The overwhelming majority of students (90%) want to work with instructors who hold international C1/C2-level certifications, driven by the need to incorporate cutting-edge interactive technologies (such as "doctor-patient" role-playing and clinical case simulations), which directly enhance academic motivation. Reforming the allocation of instructional time and assessment of knowledge: Students consider the current number of academic hours insufficient for developing sustainable clinical and communication competencies. The optimal solution is to extend the course into upper-level years (25%), move some practical sessions directly to clinics and hospitals (25%), and strengthen quality control of knowledge by introducing a final state exam in medical English (75%). Thus, the modernization of the professionally oriented language training program for international students should be comprehensive in nature, integrating the linguistic, methodological, clinical, and intercultural components of higher medical education. The introduction of EMP into the higher medical education system of the Republic of Uzbekistan is a crucial step toward enhancing the global competitiveness of

local universities. The theoretical and methodological analysis conducted shows that effective training of foreign specialists is impossible without moving away from traditional reproductive methods of language teaching (EGP). It is necessary to introduce flexible teaching models (for example, Content and Language Integrated Learning—CLIL) and to mandatorily include modules on clinical communication and intercultural ethics in the structure of medical English courses.

REFERENCES

1. Bakiyeva, G. A. (2024). Praktika klinicheskogo obshcheniya v mezhdunarodnom obrazovatelnom prostranstve [The practice of clinical communication in the international educational space]. Vestnik TGPU [TDPU Herald], (4), 12-18.
2. Buranova, D. D. (2023). Prakticheskiy podkhod k obucheniyu inostrannykh studentov v meditsinskikh vuzakh [A practical approach to teaching international students in medical universities]. Uzbekistanda xorijiy tillar [Foreign Languages in Uzbekistan], (3), 88-94.
3. Crystal, D. (2003). English as a Global Language. Cambridge University Press.
4. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). English for Specific Purposes: A learning-centered approach. Cambridge University Press.
5. Ibragimovna, S. F. (2024). Challenges of academic writing process for medical researchers. Science and Innovation, 3(B2), 297-303.
6. Karimova, O. A. (2024). Osobennosti vnedreniya ESP v meditsinskikh vuzakh Uzbekistana [Features of ESP implementation in medical universities of Uzbekistan]. Pedagogicheskie issledovaniya [Pedagogical Studies], (2), 45-51.
11. Портнов Ю.М. Основы управления тренировочно-соревновательным процессом в спортивных играх. – М.: [б. и.], 1996. – 300 с.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

12. Железняк Ю.Д., Портнов Ю.М. Спортивные игры: техника, тактика, методика обучения: учебник. – М.: Академия, 2012. – 520 с.
13. Bompa T.O., Buzzichelli C. Periodization: Theory and Methodology of Training. – 6th ed. – Champaign, IL: Human Kinetics, 2019. – 424 p.
14. Balyi I., Way R., Higgs C. Long-Term Athlete Development. – Champaign, IL: Human Kinetics, 2013. – 288 p.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

BADIIY GIMNASTIKACHILARDA EGILUVCHANLIKNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

N.Sh.Allaberganova
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport univeriteti,
Chirchiq shahri, O'zbekiston
Allaberganovanozima17@gmail.com
https://orcid.org/0009-0005-5639-6328

Annotatsiya. *Ushbu maqolada badiiy gimnastikachilarda egiluvchanlik jismoniy sifatini rivojlantirishning samarali usullari o'rganilgan. Tadqiqotda 12 nafar yosh badiiy gimnastikachi qiz ishtirok etdi. Pedagogik tajriba 3 oy davomida olib borildi. Tadqiqot jarayonida egiluvchanlik holatini baholash uchun kompleks testlardan foydalanildi. Tajriba boshida va yakunida olingan natijalar matematik-statistik usullar yordamida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari maxsus yo'naltirilgan egiluvchanlik mashqlaridan muntazam foydalanish badiiy gimnastikachilarning egiluvchanlik ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilashga yordam berishini ko'rsatdi.*

Kalit so'zlar: *badiiy gimnastika, egiluvchanlik, yosh gimnastikachilar, jismoniy sifatlar, maxsus mashqlar, kompleks test, pedagogik tajriba.*

ЭФФ ЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ГИБКОСТИ У ГИМНАСТОК-ХУДОЖНИЦ

Аннотация. *В статье изучены эффективные методы развития гибкости у художественных гимнасток. В исследовании приняли участие 12 юных гимнасток. Педагогический эксперимент проводился в течение 3 месяцев. Для оценки уровня гибкости использовался комплексный тест. Результаты, полученные в начале и в конце эксперимента, были обработаны с использованием математико-статистических методов. Полученные данные показали, что систематическое применение специально направленных упражнений способствует значительному улучшению показателей гибкости у художественных гимнасток.*

Ключевые слова: *художественная гимнастика, гибкость, юные гимнастки, физические качества, специальные упражнения, комплексный тест, педагогический эксперимент.*

EFFECTIVE METHODS OF DEVELOPING FLEXIBILITY IN RHYTHMIC GYMNASTS

Abstract. *This article examines effective methods for developing flexibility in rhythmic gymnasts. Twelve young female rhythmic gymnasts participated in the study. The pedagogical experiment was conducted over a period of three months. A comprehensive flexibility test was used to assess the participants' flexibility. The results obtained before and after the experiment were analyzed using mathematical and statistical methods. The findings demonstrated that the systematic application of specially selected flexibility exercises contributed to a significant improvement in flexibility among rhythmic gymnasts.*

Keywords: *rhythmic gymnastics, flexibility, young gymnasts, physical qualities, special exercises, comprehensive test, pedagogical experiment.*

KIRISH

Bugungi kunda badiiy gimnastika sportchilardan yuqori darajadagi jismoniy, texnik, koordinatsion va psixologik tayyorgarlikni talab qiladigan sport turlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yosh gimnastikachilarning mashqlarni yuqori texnik va estetik darajada bajarishida egiluvchanlik muhim jismoniy sifat sifatida namoyon bo‘ladi. Egiluvchanlikning yetarli darajada rivojlanganligi turli amplitudali harakatlarni erkin bajarish, murakkab elementlarni o‘zlashtirish hamda mashqlarni texnik jihatdan to‘g‘ri bajarish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Badiiy gimnastikada gavdaning oldinga va orqaga egilishi, oyoqlarning keng ochilishi, turli xil aylanishlar, sakrashlar va muvozanat mashqlarini bajarishda bo‘g‘imlarning harakatchanligi hamda mushaklarning elastikligi katta ahamiyatga ega. Shu sababli yosh gimnastikachilarni tayyorlash jarayonida egiluvchanlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlarni muntazam va maqsadli qo‘llash muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa yosh gimnastikachilar bolaning jismoniy rivojlanishi va harakat imkoniyatlarini takomillashtirish uchun muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda mashqlarni to‘g‘ri tanlash, yuklamani individual xususiyatlarga moslashtirish va egiluvchanlikni bosqichma-bosqich rivojlantirish kelgusidagi sport natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, badiiy gimnastikachilarda egiluvchanlikni rivojlantirishning samarali usullarini aniqlash va amaliyotda qo‘llash dolzarb ilmiy-pedagogik masalalardan biridir. O‘zbekistonda yosh avlodni jismoniy jihatdan barkamol etib tarbiyalash, sport bilan muntazam shug‘ullanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish hamda yuqori malakali sportchilarni tayyorlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son Farmonida jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish hamda ommalashtirishga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur vazifalar yosh sportchilar, jumladan badiiy gimnastikachilarning

jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borishning dolzarbligini belgilaydi.

Badiiy gimnastikachilarda egiluvchanlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus mashqlar majmuasining samaradorligini aniqlash.

METODOLOGIYA

Tadqiqot davomida pedagogik kuzatuv, pedagogik tajriba, test sinovlari hamda matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotda 12 nafar badiiy gimnastikachi qiz ishtirok etdi. Tadqiqot 3 oy davomida tashkil etildi. Tajribada alohida nazorat guruhi shakllantirilmadi. Bitta tajriba guruhining natijalari tajriba boshlanishidan oldin va 3 oylik mashg‘ulotlardan so‘ng qayta baholandi. Egiluvchanlik darajasini aniqlash maqsadida kompleks egiluvchanlik testi qo‘llanildi. Test natijalari umumlashtirilib, yagona ballik ko‘rsatkich orqali baholandi. Baholash jarayonida gimnastikachilarning gavda, oyoq va son-bo‘g‘imlari harakatchanligi bilan bog‘liq asosiy egiluvchanlik imkoniyatlari hisobga olindi. Tajriba davomida mashg‘ulotlarga tik turgan holda oldinga va orqaga egilish, oyoqlarni keng ochish (shpagat), son-bo‘g‘imlari harakatchanligini oshirish, umurtqa pog‘onasi egiluvchanligini rivojlantirish, dinamik va statik cho‘zilish mashqlari kiritildi. Mashqlar bajarilishida yuklamaning bosqichma-bosqich oshirilishi, harakat amplitudasining nazorat qilinishi va mashqlarni to‘g‘ri texnikada bajarishga alohida e’tibor berildi. Shug‘ullanuvchilar quyidagi jadval asosida mashg’ulotlar olib borishdi.

	Foydalanilgan mashq turlari	Baholash mezoni	Maksimal ball
1.	Ko‘prik hosil qilish	Qo‘l va oyoq orasidagi sm	10
2.	Tik turgan holda oldinga egilish	Gavda va oyoq holati	10
3.	Shpagat (oldinga)	Mat ustida kerilganligi	10
4.	Shpagat (o‘ng oyoq)	Mat ustida kerilganligi	10

5.	Shpagat (chap oyoq)	Mat ustida kerilganligi	10

10–12 yoshli badiiy gimnastikachilarning kompleks egiluvchanlik testi bo‘yicha individual natijalari

	Shug‘ullanuvchilar	**Tajriba boshidagi ball**	**Tajriba yakunidagi ball**	**O‘sish bali**
1.	A.M	26	38	12
2.	E.K	24	39	15
3.	R.A	26	40	14
4.	R.N	28	42	14
5.	K.B	27	39	12
6.	M.L	24	38	14
7.	A.N	25	41	16
8.	D.I	25	38	13
9.	U.A	27	42	15
10.	S.X	24	40	16
11.	A.B	28	42	14
12.	K.M	27	40	13
	O‘rtacha	25.92	39.92	14.00

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMASI

Tadqiqot jarayonida shug‘ullanuvchilarning dastlabki va yakuniy natijalari o‘rtasida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Dastlabki bosqichda shug‘ullanuvchilarning natijalari 24–28 ball oralig‘ida bo‘lgan bo‘lsa, 3 oylik mashg‘ulotlardan so‘ng ushbu ko‘rsatkichlar 38–42 ball oralig‘iga yetdi. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, barcha 12 nafar shug‘ullanuvchilarning

egiluvchanlik sifatida ijobiy o‘sish qayd etilgan. Eng yuqori o‘sish A.N. va S.X. shug‘ullanuvchilarda 16 ball, eng past o‘sish esa A.M. va K.B. shug‘ullanuvchilarda 12 ballni tashkil etdi. Bu holat tajriba davomida qo‘llanilgan mashg‘ulotlar barcha shug‘ullanuvchilarning natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatganligini ko‘rsatadi. Tajriba boshida guruhning o‘rtacha natijasi 25,92 ball bo‘lgan bo‘lsa, yakuniy bosqichda 39,92 ballga ko‘tarildi. Shunday qilib, o‘rtacha natija 14 ballga yoki 54,02 % ga oshgan. Ayniqsa, yakuniy natijalarning 38–42 ball oralig‘ida jamlanishi shug‘ullanuvchilarning natijalari nafaqat oshganini, balki ma’lum darajada barqarorlashganini ham ko‘rsatadi. 3 oylik maxsus mashg‘ulotlardan so‘ng ushbu ko‘rsatkich **29,67 ball**gacha oshdi. Demak, o‘rtacha natija **6,67 ballga**, nisbiy jihatdan esa **28,99 % ga** yaxshilangan. Bu esa qo‘llanilgan maxsus mashqlar majmuasining egiluvchanlikni rivojlantirishda ijobiy samaraga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalarining statistik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Tajriba boshida	Tajriba yakunida	t	p
M± σ	25.92±1.51	39.92±1.56	35.97	<0.001

Izoh: M — o‘rtacha arifmetik qiymat; σ — standart og‘ish; t — Styudent mezoni; p — ishonchlilik darajasi.

Statistik tahlil

Tadqiqotda 12 nafar shug‘ullanuvchining tajriba boshidagi va yakunidagi natijalari qiyosiy tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, tajriba boshida o‘rtacha natija 25,92 ± 1,51 ball, tajriba yakunida esa 39,92 ± 1,56 ballni tashkil etdi. Natijalar o‘rtasidagi o‘rtacha farq 14,0 ballni tashkil qilib, bu 54,02 % o‘sishga mos keladi.

Tajriba boshidagi va yakunidagi individual natijalar juftlangan Styudent t-mezoni yordamida statistik jihatdan baholandi. Hisoblash natijasida $t = 35,97$; $p < 0,001$ qiymati aniqlandi. Ushbu natija tajriba boshidagi va yakunidagi ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq statistik jihatdan yuqori darajada ishonchli ekanligini ko‘rsatadi. Bu natija 3 oy davomida qo‘llanilgan maxsus egiluvchanlik mashqlari kompleksining badiiy gimnastikachilarning egiluvchanlik ko‘rsatkichlarini yaxshilashga ijobiy ta’sir ko‘rsatganligini tasdiqlaydi. Tadqiqotda nazorat guruhining mavjud emasligi natijalarni talqin qilishda muhim metodologik jihat hisoblanadi. Shu sababli aniqlangan ijobiy o‘zgarishlarni aynan tajriba dasturining yagona sababi sifatida emas, balki ushbu mashg‘ulotlar majmuasi bilan bog‘liq ijobiy dinamika sifatida baholash lozim.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, badiiy gimnastikachilarni tayyorlash jarayonida egiluvchanlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish sportchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishning muhim shartlaridan biridir. Badiiy gimnastika mashqlarining o‘ziga xosligi, harakatlarning katta amplitudada, nafis, aniq va estetik jihatdan mukammal bajarilishini talab qilishi sababli egiluvchanlik ushbu sport turidagi asosiy jismoniy sifatlar qatorida namoyon bo‘ladi. Egiluvchanlikni majburiy ravishda yoki haddan tashqari yuklama bilan rivojlantirish o‘rniga, mashqlarni muntazam, nazorat ostida va individual imkoniyatlarga mos ravishda bajarish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqotda qo‘llanilgan kompleks yondashuv egiluvchanlikning alohida bir yo‘nalishini emas, balki gimnastikachining umumiy harakat amplitudasini rivojlantirishga imkon beradi. Dinamik va statik cho‘zilish mashqlarini, faol va sust egiluvchanlikni rivojlantiruvchi mashqlarni, shuningdek, badiiy gimnastika elementlariga yaqin bo‘lgan maxsus tayyorlov mashqlarini mashg‘ulot jarayoniga kiritish sportchilarning harakat sifatlarini yanada samarali shakllantirishga yordam beradi. Egiluvchanlikni rivojlantirish faqat alohida jismoniy sifatni takomillashtirish bilan cheklanmaydi. U badiiy

gimnastikachilarning texnik tayyorgarligi bilan ham bevosita bog‘liq. Yetarli darajada rivojlangan egiluvchanlik oyoq va gavda harakatlarini katta amplitudada bajarish, muvozanat va aylanish elementlarini to‘g‘ri egallash, sakrashlarning sifatini oshirish hamda gimnastik kompozitsiyalarning estetik ifodaliligini ta’minlashga yordam beradi. Shu sababli egiluvchanlikni rivojlantirish mashg‘ulotning alohida qismi sifatida emas, balki texnik tayyorgarlik bilan uzviy bog‘langan holda tashkil etilishi zarur. Shu asosda, badiiy gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil etishda egiluvchanlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan kompleks mashqlarni muntazam qo‘llash, ularning mazmunini sportchilarning yosh va individual xususiyatlariga moslashtirish, mashqlar yuklamasini bosqichma-bosqich oshirish hamda muntazam test nazoratini yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi. Bunday yondashuv yosh gimnastikachilarning kelgusidagi texnik va jismoniy tayyorgarligi uchun mustahkam asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Eshtayeva V.B., Hasanova N.R. — “Badiiy gimnastika”. Toshkent, 2017. O‘quv-uslubiy qo‘llanma, 132 bet.
2. Eshtayev A., Karabayeva D., Xasanova N. — “Badiiy gimnastikada buyumsiz bajariladigan mashqlarni o‘rgatish uslubi”. Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. — 256/257 bet. ISBN: 978-9943-10-971-1.
3. Niyazbekova A.A. — “Tanlangan sport turi nazariyasi va uslubiyati (Badiiy gimnastika)”. Toshkent: O‘ZKITOBSAVDONASHRIYOTI NMIU, 2023. — 216 bet.
4. Xasanova N.R., Xaytmetov I.S., Fetxullova N.X. — “Sport pedagogik mahoratini oshirish (badiiy gimnastika)”. Toshkent: Ilmiy texnika axboroti-press, 2018.
5. Xasanova N.R. — “Sport pedagogik mahoratini oshirish (Badiiy gimnastika)”. Toshkent: Ilmiy texnika axboroti-press, 2018. — 172 bet. ISBN: 978-9943-5067-9-4.
6. Ашмарин Б.А. Теория и методика педагогических исследований в физическом воспитании. — М.: Физкультура и спорт, 1978.
7. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. — М.: Спорт, 2008.
8. Лях В.И. Координационные способности: диагностика и развитие. — М.: ТВТ Дивизион, 2006.
9. Верхошанский Ю.В. Основы специальной физической подготовки спортсменов. — М.: Физкультура и спорт, 1988.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

BOSHLANG`ICH 4-SINF O‘QUVCHILARINI SPORT MASHG'ULOTLARIDA JISMONIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TURLARI VA METODLARI

Asqarov Ahliddin Alisher o‘g‘li
University of Business and Science Maktabgacha-boshlang‘ich ta’lim va sport faoliyati kafedrasi professori v.b.
ahliddinasqarov@gmail.com.
Anvarbekova Iroda Abrorbek qizi
Filalogiya tilarni o’qitish ingliz tili 3-kurs tabasi
irodaanvarbekova0@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarini sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda jismoniy qobiliyatlarini shakllantirishning pedagogik mazmuni va va hususiyatlari yoritilgan bo‘lib bunda, mashqlar ketma-ketligini tanlashda, o‘quvchilarning yoshga doir hususiyatlari hisobga olingan.*

Kalit so‘zlar. *Harakatchanlik, potensial imkoniyat, intensive, Aylanma mashg’ulot, uchish,* chastota, *komponent, biomexanik o‘zgarish, modda almashinuvi, gimnastika, kurash, yengil etletika.*

TYPES AND METHODS OF INCREASING THE EFFICIENCY OF FORMING PHYSICAL ABILITIES OF 4TH GRADE PRIMARY STUDENTS IN SPORTS TRAINING

Abstract. *This article highlights the pedagogical content and characteristics of developing physical abilities in primary 4th-grade students through extracurricular activities. In this process, the age-related characteristics of the students were taken into account when selecting the sequence of exercises.*

Keywords. *Motor skills, potential ability, intensity, circuit training, flight, frequency, component, biomechanical changes, metabolism, gymnastics, wrestling, track and field.*

ТИПЫ И МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ФИЗИЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧЕНИКОВ 4-ГО КЛАССА В СПОРТИВНОЙ ПОДГОТОВКЕ

Аннотация*. В данной статье рассматриваются педагогическое содержание и особенности формирования физических способностей учащихся 4-го класса во внеклассных мероприятиях с учетом возрастных особенностей учащихся при выборе последовательности упражнений.*

Ключевые слова. *Мобильность, потенциал, интенсивный, круговая тренировка, полет, частота, компонент, биомеханические изменения, метаболизм, гимнастика, борьба, легкая атлетика.*

KIRISH

Maktab yoshi barcha harakatchanlik qobiliyatlarining rivojlanishida serunum davr hisoblanadi. Harakatchanlik imkoniyatlarining rivojlanishida tezlikkuch qobiliyatlari asosiy o‘rin egallaydi, hamda ular rivojlanishining yuqori darajasi qiyin va mahalliy kasblarni unumli egallash bilan birga ko‘pgina sport turlarida yuqori natijalarga erishishda katta rol o‘ynaydi.

Maktab yoshi tezlik-kuch qobiliyatlarining shakllanishi uchun qulay shart-sharoit yaratib turganda, bu jismoniy qobiliyatlarni balog‘at yoshida rivojlantirishga urinish qiyin va kamsamarali vazifadir. Agar harakat qobiliyatlarini shakllantirish uchun qulay bo‘lgan davr qo‘ldan chiqarilsa, keyinchalik yo‘qotilgan potensial imkoniyat o‘rnini to‘ldirishning uddasidan chiqish qiyin bo‘ladi [4].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Harakat qobiliyatlarini shakllanishida maktab davri ichidan kichik maktab yoshi yanada unumdor va samarali hisoblanadi. V.K. Balsevich [1], O.V.Goncharova, F.G. Kazaryan va boshqa ko‘pgina olimlar kichik maktab yoshini harakat qobiliyatlari, avvalo tezlik-kuch qobiliyatlari va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish uchun muhim yosh hisoblashadi. A.A.Gujalovskiyning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, rivojlanishning yuqori sur’ati, barcha ko‘nikma, malaka, qobiliyat, sifatlarning bir butunlikda rivojlanishi kichik maktab yoshida ayniqsa ko‘proq kuzatiladi. [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ko’pincha, o’qituvchining minimal vaqt ichida ko’proq o’quv materiallarini qamrab olish istagi, aslida, o’quv jarayonining past sifatiga olib keladi. Unda fanning ayrim bo’limlarini o’zlashtirish uchun ajratilgan o’quv soatlari sonining yetishmasligi va talabalarga o’zlashtirish uchun taklif qilingan o’quv materiallarining ko’pligi o’rtasida ma’lum bir qarama-qarshilik yuzaga keladi. Bizning fikrimizcha, mavjud muammoni, aylanma mashg’ulot uslubi samarali hal qilishga yordam beradi.

So'nggi yillarda ushbu uslub o'quvchi yoshlarni jismoniy tarbiyalash bo'yicha o'quv jarayonida tobora ko'proq qo'llanilmoqda. Aylanma mashg'ulot uslubi – uzluksiz yoki intensiv ish turi bo'yicha turli mushak guruhlari va funksional tizimlarga ta'sir ko'rsatadigan maxsus tanlangan mashqlarni ketma-ket bajarish hisoblanadi. Aylanma mashg'ulot bir necha turdagi jismoniy mashqlarni seriyalar orasidagi dam olish oraliqlari bilan ketma-ket bajarishdan iborat.

Umumta'lim maktablari jismoniy tarbiya darslarida aylanma mashg'ulot uslubidan foydalanishning asosiy vazifasi – cheklangan vaqt ichida sarflangan vositalarning qat'iy belgilangan miqdori bilan jismoniy sifatlarni, harakat malakalari va ko'nikmalarini samarali rivojlantirishdan iboratdir. [4].

Aylanma mashg'ulot har bir o'quvchiga alohida yondashuvni ta'minlaydi, vaqtdan maksimal darajada samarali foydalanishga imkon beradi. Sh munasabat bilan, kichik maktab yoshidagi bolalarda sensitiv davrda tezlikkuch qobiliyatlarini aylanma mashg'ulot uslubida rivojlantirish muammosi keng miqyosdagi ilmiy tadqiqotlar olib borishni talab qiladi.

Barcha hodisa va jarayonlarga o'xshash jismoniy mashqlar o'zining mazmuni va shakliga ega. Jismoniy mashqni bajarishda sodir bo'ladigan mexanik, biologik, psixologik jarayonlarning to'plami jismoniy mashqlarning mazmunini vujudga keltiradi, ularning ta'siridan harakat faoliyati uchun qobiliyat rivojlanadi. Shuningdek mashq mazmuniga uning bo'laklarini to'plami, masalan, uzunlikka sakrashda tanaga tezlik berish, depsinish havoda uchish, erga tushish zvenolari hamda mashqni bajarishda hal qilinadigan vazifalar, shuningdek mashqni bajarishdan organizmda sodir bo'ladigan funksional o'zgarishlar haqidagi nazariy bilim va amaliy harakat malakalari kiradi. Bu elementlarning barchasi jismoniy mashqning umumiy mazmunini vujudga keltiradi.

Biologik, mexanik, psixologik va boshqa jarayonlarning mashq bajarishda birini biri bilan aloqasi, o'zaro kelishilganligi yugurish mashqlarida boshqacha bo'lsa, shtanga ko'tarishda boshqacha, ya'ni ichki struktura turlicha bo'ladi. Mashqning tashqi shakli,

tashqi strukturasi esa o‘sha mashqning tashqi ko‘rinishi,harakatni bajarish paytiga ketgan vaqt yoki kuch sarflash meyori va harakat intensivligini ko‘rinishi bilan xarakterlanadi.

Jismoniy mashqlar shakli va mazmuni o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bir-birini taqazo etadi. Mazmunning o‘zgarishi shaklni o‘zgarishiga olib keladi. Mazmun shaklga nisbatan asosiy rolni o‘ynaydi. Masalan, har-xil masofada tezlik sifatining namoyon bo‘lishi yugurish texnikasining ham turlicha bo‘lishiga sababchi bo‘ladi (qadamning kattaligi, chastotasi, tananing holati va hokazo). Shakl mazmunga ta’sir ko‘rsatadi [3].

Jismoniy tarbiya darsining mazmuni tarkibiga kiruvchi jihatlardan yana biri uning tayyorlov, asosiy, yakunlov qismlarida o’quv materiali sifatida foydalanish uchun rejalashtirilgan jismoniy mashqlardir. Aynan shu mashqlarni darsda bajarish orqali o’quvchilar organizmida funktsional, ruhiy, pedagogik va boshqa qator o’zgarishlar yuzaga keladi. Bu jismoniy tarbiya darsi mazmunining ikkinchi komponentidir.

Dars mazmunini ifodalovchi navbatdagi komponentlar darsni olib borayotgan o’qituvchi hamda darsda ishtirok etayotgan o’quvchilarning faoliyatl bo’lib, dars mazmuniga oid bu jihatlarga o’qituvchining nazariy bilimlar berishi, o’quvchilarda amaliy harakat malakalarini shakllantirish uchun ularni darsdagi faoliyatini tashkillashi, ta’lim jarayoni uchun tanlangan o’qitishning uslublari ham mujassamlashadi[3].

Darsning tarkibiga kiritilgan jismoniy mashqlar, dars mazmunining eng yirik xarakterli jihatlaridir. Lekin bunday tushuncha bir tomonlama bo’lib, tarbiyalash, sog’lomlashtirish, bilim berish vazifalarini hal qilishda o’quvchilar uchun dars davomida faoliyat predmeti bo’lib xizmat qiladi.

Darsda o’quv - tarbiya jarayonining vositasi sifatida foydalaniladigan mashqlar darsning umumlashtirilgan predmeti mazmunining bir bo’lagi xolos, boshqachasiga, dars mazmunining bir qirrasidir. Darsning har bir qismi uchun qo’yilgan vazifalarga qarab mashqlar turlicha bo’lishi tabiiy.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Tayyorlov qismidagi diqqat uchun mashqlar, saf mashqlari, qaddi - qomat uchun mashqlar, jismlarsiz va jismlar bilan bajariladigan umumiy rivojlantiruvchi mashqlar, tayyorlov, yo'llanma beruvchi mashqlar, darsning asosiy qismida o'qitiladigan jismoniy tarbiya dasturining gimnastika, yengil atletika, sport o'yinlari (voleybol, basketbol, gandbol, futbol), suzish, kurash bo'limlarining mashqlari, darsning yakuni qismlari tarkibidagi organizmni funktsional holatini tinchlantiruvchi, darsning boshlanishidan oldingi holatiga yaqinlashtiruvchi mashqlardan foydalaniladi. Ularning ta'sir doirasi organizmning funktsional holatiga qarab turlicha bo'lishi mumkin ***[4].***


Ilmiy yangilik:

Jismoniy rivojlanganligi ko'rsatgichlari, jismoniy tayyorgarligidagi o'zgarishlarning bosh sababchisi darsning o'quv tarbiyaviy vazifalarini nazarda tutib, dars uchun rejalashtirilgan jismoniy mashqlar bo'lishi jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyotida o'z isbotini topgan. Darsning tayyorlov, asosiy, yakunlov qismlari uchun tavsiya qilingan mashqlarning bajarish bilan bog'lik bo'lgan o'quvchilarning darsdagi faoliyati dars mazmunining navbatdagi yirik komponentlaridan biridir. Bu komponent shug'ullanuvchini turli ko'rinishdagi, intellectual va jismoniy faoliyatidan iboradir. O'quvchilarning dars vazifasini hal qilish bo'yicha harakat faoliyatlarining barchasi dars mazmunining asosini tashkil qiladi (darsda o'quvchilar faoliyatini tashkillash uslubiyatlariga oid materiallarni keyingi mavzuda alohida kengroq yoritamiz).

O'qituvchining faoliyati dars mazmunining navbatdagi jihati bo'lib, uni dars davomidagi barcha kasbiy faoliyati: uyga vazifa berish va uni tushuntirish, darsning aniq vazifasini bayon qila bilish va uni hal qilishni tashkillash, shug'ullanuvchilarni doimiy nazoratda ushlash, ularni faoliyatini tahlil qilish, shuningdek, shug'ullanuvchilarning faoliyatini lozim bo'lgan yo'lga burish, ular orasidagi munosabatlarni o'zining diqqat markazida ushlash va o'quvchilarning faoliyatlarini dars vazifalarini samarali hal qilish

uchun yo'naltirish, boshqarish, nazorat qilish, o'zlashtirishni baholashdek ta'lim - tarbiya jarayoning nazariy, amaliy tomonlarini va boshqa asosiy holatlarni o'z ichiga oladi.

Shug'ullanuvchilar organizmida dars tarkibiga kiritilgan mashqlarni bajarish orqali sodir bo'ladigan fiziologik, psixologik, biomexanik va boshqa funktsional o'zgarishlar dars mazmunining navbatdagi yirik xarakterli komponentlaridan biri hisoblanib, harakatlar, mashqlar davomida nafas, asab qon aylanish tizimi, modda almashinuvi, harakat sifatlari va ularga oid bilimlardir. Ularsiz jismoniy tarbiya darsi uchun qo'yilgan vazifalarni hal qilish qiyin [4].



XULOSA

Ayniqsa, jismoniy mashqlarni o'zlashtirish, malakalarining shakllanishi: mexanizmiga oid bilimlar, harakatlarni organizmga jismoniy, ruhiy ta'siri, biomexanikaga oid ma'lumotlar darsning mazmunini boyitadi, uning qoniqarliligini orttiradi va bularning barchasi jismoniy madaniyat darsining mazmunini to'rtinchi jihati sanaladi. Bunda o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining samarasi yashiringan bo'ladi.

Rejalashtirilgan o'quv - tarbiyaviy ishlar amalga oshmoqdami yoki yo'qligi joriy nazorat qilinib, pedagogik faoliyat keyinchalik qanday davom ettirilishiga oid tuzatishlar qilinadi, o'qituvchi tomonidan lozim bo'lgan yo'riqnomalar tayyorlanadi. Umumiy ta'lim maktablarining o'quvchilari jismoniy tarbiyasi dasturiga kiritilgan sport pedagogikasi fanlari (gimnastika, yengil atletika, harakatli va sport o'yinlari, suzish, kurash)ni dars mazmunida va uning tuzilmasida qayd qilingan sport fanlarining xususiy tomonlarini hisobga olgan holda tashkillanishi maqsadga muvofiq. Lekin darslarning mazmuni o'zining predmetga xos jihatlari bilan nisbatan farqlanishi tabiiy. Chizmada darsning mazmunini ifodalovchi jihatlari ifodalangan [3].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Balsevich V.K., Lubisheva L.I. Noviye texnologii formirovaniya fizicheskoy kulturi shkolnikov // Problemi sovershenstvovaniya fizicheskogo vospitaniya uchashixsya obsheobrazovatelnix shkol: Sb. rabot uchastnikov Mejdunarod. seminara /Pod obsh. red. V.I. Lyaxa i L.B. Kofmana. M., 1993. - S. 42-50
2. Gujalovskiy A.A. Etapnost razvitiya fizicheskix (dvigatelnix) kachestv i problema optimizatsii fizicheskoy podgotovki detey shkolnogo vozrasta: Avtoref. dis... dokt. ped. nauk. - M., 1979. - 26 s.
3. A.A.Asqarov. Jismoniy tarbiya va sport. Darslik. Namangan 2024. 198-200-betlar.
4. Alisher o'g'li A. A. et al. BOLALAR JISMONIY TARBIYASIDA QO'LLANILADIGAN METODLARNING NAZARIY ASOSLARI //Miasto Przyszłości. – 2024. – T. 44. – C. 584-586.
5. Tursunboevich, A. T. (2024). TASKS FOR THE FORMATION OF EDUCATIONAL ACTIVITY IN PRIMARY CLASSES. *Miasto Przyszłości*, *54*, 6-9.
6. Tashkhonov, A. T. (2021). GENERAL DIDACTIC BASIS OF AN INTEGRATED APPROACH TO THE ORGANIZATION OF TEACHING IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONSGENERAL DIDACTIC BASIS OF AN INTEGRATED APPROACH TO THE ORGANIZATION OF TEACHING IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka*, *1*(2).

UO'K: 37.016:53

VIRTUAL LABORATORIYA TEXNOLOGIYALARINING "O'ZGARMAS TOK" BO'LIMINI O'QITISHDAGI SAMARADORLIGI

Abbosova Nozima Baxtiyor qizi
Andijon davlat universiteti, Umumiy fizika kafedrasi o'qituvchisi
e–mail: *Abbosovanozima1994@gmail.com* *Tel: 940013356*
https://orcid.org/0009-0004-8932-864X

Annotatsiya: *Ushbu maqolada umumiy fizika kursida "O'zgarmas tok" bo'limini o'qitishda virtual laboratoriyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari o'rganilgan. "Tok manbaining EYuK va ichki qarshiligini aniqlash" virtual laboratoriya qurilmasi misolida bunday vositalar talabalarning eksperimental ko'nikmalarini, tahliliy fikrlashini hamda ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni asoslangan. Shuningdek, virtual tajribalarni real laboratoriya ishlari bilan integratsiyalash metodikasi tavsiya etiladi. Real va virtual laboratoriyalar qiyosiy tahlil qilinib, ularning kuchli va zaif tomonlari jadval hamda diagrammalar ko'rinishida taqdim etilgan. Maqolada, shuningdek, mavzuni o'qitish jarayonidagi asosiy pedagogik muammolar va ularni hal etishda virtual laboratoriyalarning samaradorligi yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *virtual laboratoriya, EYuK, ichki qarshilik, ilmiy-tadqiqot kompetensiyasi, fizika ta'limi, raqamli texnologiyalar, real va virtual tajriba qiyosiy tahlili.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ТЕХНОЛОГИЙ ВИРТУАЛЬНОЙ ЛАБОРАТОРИИ В ОБУЧЕНИИ НА ОТДЕЛЕ «ДОПОЛНИТЕЛЬНЫЕ МАТЕРИАЛЫ»

Аннотация: *В данной статье исследуются педагогические возможности использования виртуальных лабораторий при изучении раздела «Постоянный ток» в курсе физики общего среднего образования. На примере виртуальной лабораторной установки «Определение ЭДС источника тока и его внутреннего сопротивления» обосновывается роль таких средств в развитии экспериментальных умений обучающихся, аналитического мышления и научно-исследовательских компетенций.*

Также предлагается методика интеграции виртуальных экспериментов с реальными лабораторными работами. Проведён сравнительный анализ реальных и виртуальных лабораторий, их сильные и слабые стороны представлены в виде таблиц и диаграмм.

В статье также освещаются основные педагогические проблемы, возникающие в процессе преподавания данной темы, и эффективность использования виртуальных лабораторий в их решении.

Ключевые слова: *виртуальная лаборатория, ЭДС, внутреннее сопротивление, научно-исследовательская компетенция, обучение физике, цифровые технологии, сравнительный анализ реальных и виртуальных экспериментов.*

EFFECTIVENESS OF VIRTUAL LABORATORY TECHNOLOGIES IN TEACHING THE "ACCESSORY" DEPARTMENT

Abstract: *This article explores the pedagogical potential of using virtual laboratories in teaching the "Direct Current" section of the general secondary school physics curriculum. Using the example of the virtual laboratory setup "Determination of the EMF and internal resistance of a power source," the role of such tools in developing students' experimental skills, analytical thinking, and scientific research competencies is substantiated.*

In addition, a methodology for integrating virtual experiments with traditional laboratory work is proposed. A comparative analysis of real and virtual laboratories is presented, with their strengths and weaknesses summarized in tables and diagrams.

The article also addresses the main pedagogical challenges encountered in teaching this topic and the effectiveness of virtual laboratories in solving them.

Keywords: *virtual laboratory, EMF, internal resistance, scientific research competency, physics education, digital technologies, comparative analysis of real and virtual experiments.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori [1] asosida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar dasturi bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitish sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy o'qitish uslublarini joriy etish, malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda sohaga oid mavjud muammolarga yechim topishga qaratilgan.

Mazkur qaror fizika fanining o'qitishga alohida e'tibor qaratishni talab etadi. Ta'lim tizimining raqamlashtirilishi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, fizika fanini o'qitishda virtual laboratoriyalar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash, murakkab fizik jarayonlarni vizuallashtirish hamda talabalarning mustaqil tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Elektr hodisalari bo'limida talabalar uchun eng murakkab mavzulardan biri tok manbaining elektr yurituvchi kuchi va ichki qarshiligi tushunchalarini o'zlashtirish hisoblanadi. Ushbu kattaliklar ko'pincha abstrakt fizik tushunchalar sifatida qabul

qilinadi. Natijada talabalar formulalarni yodlab olsalar ham, ularning fizik mohiyatini chuqur anglay olmaydilar.

Mazkur muammoni hal etishda virtual laboratoriyalar katta imkoniyatlarga ega. Virtual muhitda talaba elektr zanjirining parametrlarini mustaqil ravishda o‘zgartirishi, natijalarni kuzatishi va fizik qonuniyatlarni eksperimental ma’lumotlar asosida tahlil qilishi mumkin.

Ushbu tadqiqotning maqsadi “O‘zgarmas tok” bo‘limi mavzusini o‘qitishda virtual laboratoriya texnologiyalarining pedagogik samaradorligini aniqlashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

So‘nggi yillarda virtual laboratoriyalarni ishlab chiqish va ularni ta’lim jarayoniga joriy etish masalalari bir qator ilmiy tadqiqotlarning markaziy mavzusiga aylandi. Ushbu adabiyotlar tahlilida mavzuning dolzarbligi, asosiy yo‘nalishlari va mavjud muammolar yoritiladi.

Virtual laboratoriyalar (VL) an’anaviy laboratoriya mashg‘ulotlariga qulay va tejamkor muqobil sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda. Bir qator tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, VL ta’lim muassasalariga xarajatlarni kamaytirish, xavfsizlikni ta’minlash va talabalarga 24/7 rejimda tajriba o‘tkazish imkoniyatini yaratish kabi afzalliklarni taqdim etadi [2,3]. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida virtual laboratoriyalarga bo‘lgan ehtiyoj keskin ortgani turli manbalarda qayd etilgan [3,4]. Tadqiqotlar VL dan foydalanish talabalarning o‘quv natijalarini yaxshilashi, ularning qiziqishini oshirishi va murakkab nazariy tushunchalarni tushunishiga yordam berishi mumkinligini ko‘rsatmoqda [4,5].

Virtual laboratoriyalar fizika, kimyo, biologiya va muhandislik kabi STEM fanlarida keng qo‘llanilmoqda. Xususan, fizika ta’limida VL dan foydalanish samaradorligi bo‘yicha bir qator tadqiqotlar mavjud [6,5]. Masalan, Sharifov tomonidan Ozarbayjon litseyi o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan tadqiqot virtual laboratoriyalarning elektromagnetizm mavzusini chuqurroq o‘zlashtirishga ta’sirini tahlil qilgan [6]. Mustari

va boshqalar esa fizika o'lchov laboratoriyasi uchun MOOCs asosidagi virtual modulni ishlab chiqish va baholashga bag'ishlangan tadqiqotida virtual laboratoriyalarning ta'limdagi samaradorligini tasdiqlagan [7,8].

Tadqiqot davomida pedagogik kuzatish, qiyosiy tahlil, eksperimental sinov, statistik ishlov berish va natijalarni grafik tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Tajriba-sinov ishlari oliy ta'lim muassasasini fizika yo'nalishida tahsil olayotgan 49 nafar talaba ishtirokida tashkil etdi.

Talabalar ikki guruhga ajratildi:

– nazorat guruhi – 25 nafar;

– tajriba guruhi – 24 nafar.

Nazorat guruhida mavzu an'anaviy laboratoriya mashg'ulotlari asosida o'qitildi. Tajriba guruhida esa virtual laboratoriya stansiyasi va an'anaviy laboratoriya mashg'ulotlari integratsiyalashgan holda tashkil qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Quyidagi 1-jadvalda "Tok manbaining EYuK va ichki qarshiligini aniqlash" mavzusini o'qitishda uchraydigan asosiy pedagogik muammolar va ularning virtual laboratoriya yordamida qanday hal qilinishi ko'rsatilgan.

1-jadval

Muammo	**Muammoning mohiyati**	**Virtual laboratoriya qanday yordam beradi**
Laboratoriya asboblarining yetishmasligi	Frontal tarzda ish bajarish uchun kerakli jihozlar yetarli emas	Har bir talaba "cheksiz sonli" manbalarga ega bo'ladi
Vaqt cheklanganligi	Bir darsda barcha talabalar tajribani bir necha marta takrorlash imkoniga ega emas	Talabalar uyda ham takrorlab, mustahkamlashi mumkin. Darsda esa asosiy tushunchalarga e'tibor qaratiladi

Talabalarning tayyorgarlik darajasi turlicha	Ba'zi talabalar formulani tez o'zlashtiradi, boshqalari vaqt talab qiladi	Har bir talaba o'z qadamida ishlaydi, kam tayyorgarlikli talaba qayta-qayta sinab ko'rishi mumkin
Talabalarning qiziqishi past	An'anaviy laboratoriya ishlari ba'zi talabalar uchun "quruq" va "zerikarli" tuyuladi	Interaktiv, visual muhit ko'pchilik talabalarda, ayniqsa raqamli avlod vakillarida qiziqish uyg'otadi
Nazariya va amaliyot orasidagi bog'liqlik sust	Talabalar formulalarni yodlaydi, lekin ularning ma'nosini tushunmaydi	Virtual muhitda formula va o'lchash natijalari bir vaqtda ko'rinadi, bog'liqlik aniq namoyon bo'ladi
Xatoliklarni tahlil qilish imkoni cheklangan	Real tajribada xatolik yuzaga kelganda sababini topish vaqt talab qiladi	Virtual muhitda turli xatoliklarni maxsus kiritish va uning natijaga ta'sirini kuzatish mumkin.
Xavfsizlik muammosi	Qisqa tutashuv rejimida batareya qizib ketishi, ba'zi hollarda yorilishi xavfi bor	Virtual muhitda hech qanday xavf yo'q, talaba qisqa tutashuv rejimida ham bemalol tajriba o'tkaza oladi

Elektromagnetizm fanining "O'zgarmas tok" bo'limini o'qitish davomida talabalarga mavzuning asosiy qonuniyatlarini tushunarli va tizimli tarzda yetkazish, shuningdek, ularning mustaqil ishlash va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan mualliflik dasturi yaratilgan [9]. Ushbu dasturning umumiy ko'rinishi, asosiy menyulari va ishchi oynasi 1-rasmda aks ettirilgan.

Talaba beshta manbadan birini tanlab (1-rasmda 3-manba tanlangan), uning EYuK va ichki qarshiligini hisoblashi mumkin.

To'la zanjir uchun Om qonuni:

$$I = \frac{\mathcal{E}}{R + r}$$

bu yerdan:

$$\varepsilon = U + Ir$$

Manbaning ichki qarshiligi esa:


$$r = \frac{\varepsilon - U}{I}$$

Virtual stansiya talabaga turli manbalarni sinab ko‘rish, ulardagi U va I ni o‘lchash, so‘ngra E va r ni hisoblash imkonini beradi. Buning natijasida talaba:

– EYuK va ichki qarshilikning fizik ma’nosini chuqurroq tushunadi;

– turli manbalarning xarakteristikalarini taqqoslash ko‘nikmasini rivojlantiradi;

– Om qonunining amaliy tatbiqini mustaqil ravishda o‘zlashtiradi.



1–rasm.

Virtual laboratoriyadagi har bir tugma, ko‘rsatkich va boshqaruv elementining ortida qanday pedagogik g‘oya yotganini birma-bir ko‘rib chiqamiz.

Voltmetr ko‘rsatkichi bir qarashda bu oddiy raqamdek tuyuladi. Lekin aslida, bu qiymat talaba uchun juda muhim, u manba klemmalaridagi kuchlanishni aniq va xatosiz ko‘rsatadi. Real laboratoriyada voltmetr shkalasidan o‘qishning o‘zi muammoli bo‘lishi mumkin. Talabalar ba’zan bo‘linmalarni noto‘g‘ri hisoblaydi, ba’zan esa parallaks

xatolikka yo‘l qo‘yadi. Virtual stansiyada esa bunday xatolar yo‘q. Talaba diqqatini asbobni o‘qishga emas, balki fizik ma’noni tushunishga qaratadi.

Ampermetr zanjirdagi tok kuchini bildiradi. Talaba voltmetr va ampermetr ko‘rsatkichlarini bir vaqtda kuzatishi mumkin. Reostatni siljitgan sari, ikkala raqam ham bir vaqtda o‘zgaradi. Shu harakat orqali talaba o‘z-o‘zidan savol tug‘diradi: “Qarshilik ortsa, tok kamayadi, kuchlanish esa qanday o‘zgaradi?” Shu tarzda, u nazariyani amaliyot bilan bog‘laydi.

Reostat – stansiyaning eng interaktiv elementi. Talaba uni siljitadi, zanjirdagi qarshilik o‘zgaradi, bu voltmetr va ampermetr ko‘rsatkichlarida darhol aks etadi. Shu yerda talaba sabab-natija munosabatini bevosita kuzatadi:

qarshilik ortadi → tok kamayadi → kuchlanish qanday o‘zgaradi?

qarshilik kamayadi → tok ortadi → kuchlanish qanday o‘zgaradi?

Mazkur savollarga javobni talaba o‘zi topadi.

Talaba turli manbalarni tanlab, ularning EYuK va ichki qarshiligini hisoblab ko‘radi. U bir manbaning EYuK katta, ikkinchisinikining esa kichik ekanligini o‘z ko‘zi bilan ko‘radi. U “ichki qarshilik” degan mavhum tushunchani endi “batareyaning ichidagi qarshilik” sifatida emas, balki o‘lchay oladigan, hisoblay oladigan aniq kattalik sifatida qabul qiladi.

Virtual laboratoriyadan foydalanishning bir qator muhim afzalliklari mavjud:

Birinchidan, xatolik va xavfsizlik masalasi butunlay yo‘qoladi. Talaba “qisqa tutashuv” rejimida tajriba o‘tkazsa ham, hech qanday batareya qizib yorilmaydi, sinfda vahima bo‘lmaydi. Bu o‘qituvchi uchun katta yengillik. Talaba kerakli rejimlarni qo‘rqmasdan sinab ko‘ra oladi.

Ikkinchidan, parametrlarni bir zumda o‘zgartirish va takrorlash imkoni. Reallikda batareyani almashtirish, qarshilikni o‘zgartirish bir necha daqiqa vaqt oladi. Virtual stansiyada esa bir sekundda turli manbalarni tanlash, kuchlanish va tokni o‘zgartirish – hammasi bir tugma bosish bilan amalga oshadi. Shu tariqa, bir dars mobaynida talaba


10-15 xil konfiguratsiyani sinab ko‘rishi mumkin. Reallikda esa bu imkoniyat juda cheklangan.

Uchinchidan, har bir talaba o‘z tezligida ishlay oladi. Real laboratoriyada 3-4 kishi bir qurilma atrofida to‘planadi. Kimdir tez ishlaydi, kimdir sekin. Kimdir ulashda xato qilsa, hamma kutadi. Virtual stansiyada har bir talaba shaxsan o‘z tajribasini o‘tkazadi, o‘z xatosini o‘zi ko‘radi, o‘z xulosasini chiqaradi. Bu individual yondashuv imkoniyatini yaratadi.

To‘rtinchidan, masofaviy va mustaqil ta’lim uchun qulay. Talaba laboratoriyadan tashqarida ham dasturni ishga tushirib, tajriba o‘tkazshi mumkin. Bu, ayniqsa, masofaviy ta’lim sharoitida o‘qituvchining eng katta muammolaridan birini – “laboratoriya ishlarini qanday o‘tkazamiz?” – degan muammoni hal etadi.

Beshinchidan, nazariyani amaliyot bilan bevosita bog‘laydi. Formuladagi $r = (\varepsilon - U)/I$ nimani anglatadi? Talaba buni faqat eslab qolmay, balki virtual stendda o‘zi bir necha marta hisoblab, turli manbalarda r har xil ekanligini, EYuK o‘zgarmas ekanligini ko‘z oldida ko‘radi.

Virtual va real laboratoriya mashg‘ulotlarining samaradorligi turli mezonlar bo‘yicha taqqoslangan holda 1-diagrammada keltirilgan.



1-diagramma. Virtual va real laboratoriyaning dars maqsadlariga erishish darajasi. (5 balli tizimda)

Ushbu diagrammada virtual va real laboratoriya mashg‘ulotlarining turli mezonlar bo‘yicha samaradorligi 5 balli tizimda qiyosiy tahlil qilingan. Taqqoslash quyidagi omillar asosida amalga oshirilgan: takrorlash imkoniyati, xavfsizlik, xarajat tejamkorligi, masofaviy foydalanish, asbob ko‘nikmasi, o‘lchash madaniyati va guruhli ishlash.

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, virtual laboratoriya takrorlash imkoniyati (4.9), xavfsizlik (4.9), xarajat tejamkorligi (4.0) va masofaviy foydalanish (5.0) kabi mezonlar bo‘yicha real laboratoriyadan ustunlikka ega. Ayniqsa, masofaviy ta’lim sharoitida virtual laboratoriyaning ahamiyati beqiyosdir.

Shu bilan birga, real laboratoriya asbob ko‘nikmasi (5.0), o‘lchash madaniyati (4.0) va guruhli ishlash (4.0) kabi amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda virtual laboratoriyaga nisbatan yuqori natijalarni ko‘rsatmoqda. Bu esa real laboratoriya mashg‘ulotlarining talabalarda amaliy tajriba va jamoaviy ish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rnini ko‘rsatadi.


Pedagogik tajriba-sinov ishlari davomida talabalarning bilim darajasi va amaliy ko‘nikmalarining o‘zgarishini kuzatish maqsadida nazorat va tajriba guruhlarida boshlang‘ich hamda yakuniy testlar o‘tkazildi. Natijalar 2-jadvalda keltirilgan

2-jadval. Tajriba va nazorat guruhlari natijalari


Ko‘rsatkich	Nazorat guruhi (%)	Tajriba guruhi (%)
Boshlang‘ich test	53.8	54.6
Yakuniy test	71.4	86.9
O‘sish ko‘rsatkichi	17.6	32.3
Laboratoriya topshirig‘ini bajarish sifati	74.2	91.8
Mustaqil xulosa chiqarish darajasi	68.5	89.1

Jadval ma’lumotlari tahliliga ko‘ra, tajriba guruhi barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha nazorat guruhidan yuqori natijalarni qayd etgan. Xususan, yakuniy test natijalari

bo‘yicha tajriba guruhidagi o‘sish ko‘rsatkichi (32.3%) nazorat guruhidagi o‘sishdan (17.6%) sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Laboratoriya topshirig‘ini bajarish sifatida tajriba guruhi (91.8%) nazorat guruhiga (74.2%) nisbatan ancha yaxshi natijaga erishgan. Mustaqil xulosa chiqarish darajasi ham tajriba guruhida (89.1%) nazorat guruhiga (68.5%) nisbatan yuqori ekanligi kuzatilgan.



2–diagramma. Laboratoriya topshirig‘ini bajarish sifati



3–diagramma. Talabalar bilim darajasining o‘zgarishi (%)

2-diagrammada nazorat va tajriba guruhlarining laboratoriya topshirig‘ini bajarish sifati ko‘rsatkichlari taqqoslangan. Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhida laboratoriya topshirig‘ini bajarish sifati 96% ni tashkil etgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 76% ni tashkil qilgan. Tajriba guruhining 20% ga yuqori natijasi, qo‘llanilgan metodikaning amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdagi samaradorligini ko‘rsatadi. Bu hol, ayniqsa, talabalarning laboratoriya ishlarini bajarishdagi mustaqilligi, o‘lchash aniqligi va natijalarni tahlil qilish ko‘nikmalarining yuqori darajada shakllanganligini ifodalaydi.

3-diagrammada nazorat va tajriba guruhlarining boshlang‘ich hamda yakuniy test natijalari asosida bilim darajasining o‘zgarishi keltirilgan. Undagi ma’lumotlarga ko‘ra, ikkala guruhda ham bilim darajasi oshgan, biroq tajriba guruhidagi o‘sish (28%) nazorat

guruhidagi o‘sishdan (21%) 7% ga yuqori bo‘lgan. Boshlang‘ich ko‘rsatkichlardagi 5% lik farqga qaramay, yakuniy natijalarda tajriba guruhi 12% ga ustunlik qilgan.

Bu natijalar tajriba guruhida qo‘llanilgan metodikaning samaradorligini isbotlaydi hamda tanlangan yondashuvning ta’lim sifatini oshirishdagi ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Virtual laboratoriyadan mavzuni o‘rganishning boshlang‘ich bosqichida foydalanish maqsadga muvofiq.
2. Virtual va real laboratoriya mashg‘ulotlarini integratsiyalash zarur.
3. Talabalarga turli parametrli manbalarni solishtirish topshiriqlari berilishi lozim.
4. Eksperimental ma’lumotlarni grafik tahlil qilish topshiriqlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

XULOSA

Virtual laboratoriya mavhum fizik tushunchalarni o‘zlashtirishda samarali didaktik vosita hisoblanadi. U o‘quv jarayonida vaqtni tejash, xavfsiz muhitni ta’minlash hamda talabalarning individual tezlikda bilim olishiga sharoit yaratadi. Shu jihatdan virtual laboratoriyalar real laboratoriya ishlariga tayyorgarlik va bilimlarni mustahkamlash bosqichida muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tok manbaining elektr yurituvchi kuchi va ichki qarshiligini aniqlash mavzusini o‘qitishda virtual laboratoriya texnologiyalaridan foydalanish yuqori didaktik samaradorlikka ega. Virtual muhitda talabalar parametrlarning o‘zgarishini kuzatish orqali EYuK, tashqi kuchlanish va tok kuchi o‘rtasidagi bog‘liqlikni amaliy tarzda anglab yetadilar, natijada ichki qarshilik tushunchasini samarali o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Virtual laboratoriyalar: nazariy bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi; eksperimental faoliyat samaradorligini oshiradi; talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi; ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantiradi; raqamli ta’lim muhitini boyitadi.

Shu bilan birga, virtual laboratoriyalar real tajribalarni to‘liq almashtirmaydi, balki ularni to‘ldiruvchi va o‘quv samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida qo‘llanilishi lozim. Virtual va real laboratoriya mashg‘ulotlarining integratsiyasi fizika ta’limi sifatini oshirishning muhim pedagogik mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 2021-yil 19-mart, PQ–5032-son. URL: https://lex.uz (Murojaat sanasi: 17.03.2026)

2. Kurtz, M., Benabbou, A., Pons, C., & Broisin, J. (2025). Collaboration in virtual and remote laboratories for education: A systematic literature review. *International Journal of Computer-Supported Collaborative Learning*, 20(4), 549-603. https://doi.org/10.1007/s11412-025-09454-7

3. Dodevska, M., Zdravevski, E., Chorbev, I., Kostoska, M., Branco, F., Coelho, P. J., Pires, I. M., & Lameski, P. (2025). Virtual reality as a learning tool: Evaluating the use and effectiveness of simulation laboratories in educational settings. *Social Sciences & Humanities Open, 11*, 101742. https://doi.org/10.1016/j.ssaho.2025.101742

4. Safaeipour, R., Aalaa, M., Mojtahedzadeh, R., Mohammadi, A., Asadzandi, S., & Mousavi, A. (2025). Virtual or blended laboratories for healthcare students education: A systematized review. *BMC Medical Education, 25*, Article 1352. https://doi.org/10.1186/s12909-025-07937-7

5. Kushekkaliyev, A. N., & Anesova, G. K. (2025). Fizikany oqytu prosesinde cifrlyq bilim beru resurstaryn qoldanu [Using digital educational resources in the process of teaching physics]. PEDS, 78(3), Article 027. https://doi.org/10.48371/PEDS.2025.78.3.027

6. Sharifov, G. M. (2020). The effectiveness of using a virtual laboratory in the teaching of electromagnetism in the lyceum. *Physics Education, 55*(4), Article 045011. https://doi.org/10.1088/1361-6552/ab8b3e

7. Mustari, M., Hartono, H., Nugroho, S. E., & Sugianto, S. (2025). Enhancing physics education through MOOCs-based virtual laboratory modules: Development, validation, and future directions. *Journal of Educators Online, 22*(2), 1-18.

8. Muxtarov, E. K. (2022). *“Phet interactive simulations” dasturida fizika fanidan virtual laboratoriya ishlarini bajarish*. Usmon Nosir Media.

9. Dawson, M. (2010). *Python programming for the absolute beginner* (3rd ed.). Course Technology, Cengage Learning.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

INGLIZ IDIOMALARINI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI

Anvarbekova Iroda Abrorbek qizi
University of Business and Science
irodaanvarbekova0@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ingliz tilidagi idiomalarni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan lingvopragmatik va lingvomadaniy muammolar tadqiq etilgan. Tadqiqotda idiomalarning semantik yaxlitligi, milliy-madaniy xususiyatlari hamda kommunikativ vazifalari tahlil qilinib, ularni tarjima qilishda qo‘llaniladigan asosiy strategiyalar aniqlangan. Xususan, frazeologik ekvivalent, tavsifiy tarjima, modulyatsiya, adaptatsiya va kompensatsiya usullarining tarjima samaradorligiga ta’siri ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *idioma, frazeologik birlik, tarjima transformatsiyasi, lingvopragmatika, lingvomadaniyat, ekvivalentlik, pragmatik adekvatlik, kommunikativ samaradorlik.*

PROBLEMS OF TRANSLATING ENGLISH IDIOMS INTO UZBEKISTAN AND THEIR SOLUTIONS

Любовь в этом произведении, таким образом, выступает критерием внутренней зрелости. Способность любить оказывается связанной со способностью видеть другого человека, принимать ответственность и выходить за пределы собственного эгоцентрического восприятия. В данном отношении любовный мотив взаимодействует с чеховской критикой пошлости. Пошлость проявляется не только в бытовом поведении, но и в неспособности воспринимать чувство как событие, требующее нравственного ответа.

Важнейшим семантическим партнёром любовного мотива в прозе Чехова становится одиночество. На первый взгляд любовь должна преодолевать изоляцию человека, однако в чеховском художественном мире она часто, напротив, обнаруживает глубину одиночества.

В «Даме с собачкой» именно любовь позволяет Гурову осознать степень собственного отчуждения. До встречи с Анной Сергеевной его существование

кажется относительно благополучным, но любовное переживание заставляет его увидеть внутреннюю пустоту привычной жизни.

Семантическая связь любви и одиночества особенно важна потому, что чеховские герои часто не обладают языком, позволяющим непосредственно выразить своё состояние. Они говорят о повседневном, но между репликами возникает иной смысл. Именно поэтому любовный диалог у А.П. Чехова часто оказывается неполным. Герои могут понимать друг друга, не произнося главного, или, наоборот, произносить слова, которые не соответствуют их действительному состоянию.

Такая организация речи формирует особую семантику недосказанности. Любовь оказывается тем чувством, которое наиболее ярко демонстрирует ограниченность языка и одновременно раскрывает возможности художественного подтекста.

Особую смысловую функцию любовь получает тогда, когда становится причиной внутреннего изменения героя. Однако А.П. Чехов избегает изображения окончательного и гарантированного преображения.

Э.А. Полоцкая связывает чеховскую поэтику с особым характером художественного мышления, которое не сводит сложное жизненное явление к однозначной формуле [6]. Именно этим объясняется незавершённость любовного конфликта.

Любовь оказывается не финальной точкой, а процессом осознания. Она создаёт возможность изменения, но не гарантирует его осуществления. В этом отношении любовь приобретает экзистенциальный смысл. Она ставит человека перед необходимостью признать собственную внутреннюю правду. Гуров уже не способен полностью вернуться к прежнему существованию, поскольку пережитое чувство изменило его представление о себе.

Рассказ «О любви» занимает особое место в системе чеховской любовной прозы, поскольку в нём сама возможность определения любви становится предметом художественного исследования.

Алехин пытается объяснить произошедшее, но каждое объяснение оказывается недостаточным. Он может рассуждать о различиях между людьми, об обстоятельствах, о семейной ситуации, но ни одна рациональная схема не исчерпывает смысла пережитого.

Именно здесь проявляется скептическая сторона чеховского мышления. В.Я. Линков отмечает принципиальную сложность чеховского отношения к окончательным мировоззренческим формулам [2]. Любовь в этом смысле не может быть сведена к одной универсальной модели. Чеховская любовь почти никогда не существует вне социального контекста. Семья, сословие, профессия, общественная репутация, материальное положение и привычный образ жизни непосредственно влияют на возможность любовного выбора.

В «Трёх годах» любовные отношения Лаптева и Юлии Фёдоровны развиваются в тесной связи с семейным и социальным пространством. Важным становится не только вопрос о наличии чувства, но и проблема его формирования в течение совместной жизни.

В отличие от традиционного любовного сюжета, где кульминацией становится соединение героев, А.П. Чехов переносит внимание на последующее существование. Любовь здесь не дана как готовое состояние. Она должна возникнуть в процессе совместной жизни, преодоления отчуждения и постепенного узнавания другого человека. Это существенно расширяет семантику любовного мотива. Любовь перестаёт быть исключительно эмоциональным событием и становится формой длительного человеческого взаимодействия.

А.П. Чехов показывает два противоположных варианта любовного отношения. В одном случае чувство возникает внезапно и требует решения, как в

«Даме с собачкой» или «О любви». В другом случае оно формируется постепенно, через совместное существование, как в «Трёх годах».

Обе модели объединяет одно: любовь не является готовой гарантией счастья. Её подлинность проверяется отношением человека к другому и собственной жизни.

В «О любви» важнейшим художественным приёмом становится ретроспективное повествование. История уже произошла, однако смысл её продолжает формироваться в сознании рассказчика. Тем самым прошлое оказывается незавершённым в психологическом отношении.

Подтекст позволяет А.П. Чехову избежать прямой декларации. Читатель оказывается включён в процесс интерпретации и должен самостоятельно установить связь между событием и внутренним состоянием героя. Обобщение рассмотренных произведений позволяет установить, что любовный мотив в прозе А.П. Чехова непосредственно связан с проблемой подлинности человеческого существования. Любовь становится значимой в тот момент, когда персонаж сталкивается с несоответствием между своей внешней жизнью и внутренними потребностями. Именно поэтому любовная тема у А.П. Чехова часто появляется в произведениях, посвящённых кризису личности.

В «Даме с собачкой» чувство разрушает иллюзию благополучной жизни Гурова. В «О любви» оно обнаруживает несостоятельность рациональных объяснений и заставляет героя осознать собственную нерешительность. В «Попрыгунье» любовная линия разоблачает поверхностность героини. В «Трёх годах» она становится процессом постепенного преодоления отчуждения.

Любовь выполняет диагностическую функцию. Она позволяет увидеть то, что в обычной жизни остаётся скрытым. В этом отношении любовная семантика А.П. Чехова связана с более общей художественной проблематикой его творчества. Исследователи отмечают, что писатель последовательно обращается к проблеме

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

внутренней несостоятельности человека, его зависимости от среды и необходимости нравственного выбора [1; 3]. При этом Чехов не превращает любовь в универсальный рецепт спасения. Чувство может оказаться разрушительным, несвоевременным, неразделённым или нереализованным. Но даже в этих случаях оно выполняет важную художественную функцию, поскольку заставляет персонажа столкнуться с самим собой.

ОБСУЖДЕНИЕ

Проведённый анализ позволяет определить несколько основных семантических моделей любви в прозе А. П. Чехова.

Первая модель – любовь как пробуждение. В этом случае чувство разрушает привычное состояние личности и заставляет героя осознать внутреннюю неудовлетворённость. Наиболее ярко такая модель реализована в «Даме с собачкой».

Вторая модель – любовь как несостоявшийся выбор. Герой осознаёт значимость чувства, однако оказывается неспособным преобразовать осознание в действие. Эта модель характерна прежде всего для рассказа «О любви».

Третья модель – любовь как разоблачение личности. Чувство выявляет нравственные качества героя и показывает степень его способности к эмпатии и ответственности. Так организована любовная линия в «Попрыгунье».

Четвёртая модель – любовь как процесс формирования близости. В этом случае чувство не является мгновенным событием, а развивается постепенно в пространстве совместной жизни. Данная модель особенно существенна для «Трёх лет».

Пятая модель – любовь как форма преодоления одиночества, которая, однако, не всегда приводит к окончательному соединению героев. Именно здесь проявляется принципиальная незавершённость чеховского художественного мира.

Эти модели нельзя воспринимать как изолированные. В одном произведении они могут взаимодействовать. Так, в «Даме с собачкой» любовь одновременно является пробуждением, формой преодоления одиночества и испытанием свободы.

Существенно и то, что А.П. Чехов практически не использует прямую авторскую оценку любовного поведения персонажей. Его позиция формируется через композицию, систему контрастов, детали и речевые характеристики. Такая художественная стратегия соответствует общей специфике чеховской поэтики, основанной на сложности соотношения авторского и персонажного сознания [7].

Любовь поэтому не получает единственного определения. Она существует в поле противоречий между желанием и обязанностью, чувством и привычкой, свободой и социальными нормами, близостью и одиночеством.

Особенно важным представляется соотношение любви и времени. Чехов показывает, что значение чувства может становиться очевидным лишь после того, как возможность действия уже утрачена. В этом проявляется трагическая сторона его любовной прозы. Герой способен понять истину собственной жизни, но понимание не всегда возвращает ему возможность изменить прошлое.

Семантика любви оказывается, таким образом, связана с чеховским представлением о человеческой жизни как о процессе, в котором важнейшие решения часто принимаются слишком поздно.

Это наблюдение позволяет уточнить место любовного мотива в художественной системе писателя. Любовь не является отдельной тематической линией, существующей рядом с другими проблемами. Она пересекается с основными категориями чеховского художественного мира: жизнью и смертью, свободой и зависимостью, правдой и самообманом, одиночеством и общением, обыденностью и духовным пробуждением.

Такое понимание согласуется с исследовательской традицией, рассматривающей творчество А.П. Чехова как целостную художественную систему [3; 7]. Любовный мотив становится одним из способов организации этой системы.

Важным является и отсутствие однозначного счастливого финала. Даже там, где любовь оказывается взаимной, А.П. Чехов не завершает историю окончательным утверждением гармонии. Финал «Дамы с собачкой» остаётся открытым, а судьба героев переносится в пространство будущего.

Именно открытость позволяет сохранить художественную многозначность. Любовь становится не результатом, а проблемой, требующей дальнейшего решения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Проведённое исследование позволяет сделать вывод о том, что любовь в прозе А.П. Чехова представляет собой сложный художественно-семантический комплекс, значительно выходящий за пределы традиционного любовного сюжета.

Установлено, что любовный мотив выполняет в чеховской прозе несколько взаимосвязанных функций. Он раскрывает внутреннее состояние личности, обнаруживает противоречие между внешним и внутренним существованием, выявляет зависимость человека от социальных норм и одновременно создаёт возможность нравственного пробуждения.

Характерной особенностью чеховской модели любви является её незавершённость. Писатель не предлагает готовой формулы счастливой или несчастливой любви. Одно и то же чувство может одновременно восприниматься как источник счастья, страдания, свободы и зависимости.

Особое значение имеет связь любви с одиночеством. Встреча с другим человеком не уничтожает автоматически внутреннюю изоляцию героя, однако позволяет осознать её. Именно поэтому любовное переживание часто становится моментом обнаружения подлинного состояния личности.

Выявлено также, что семантика *любви* непосредственно связана с проблемой нравственного выбора. Подлинное чувство требует от персонажа способности выйти за пределы привычного существования, однако герои Чехова не всегда оказываются готовыми к такому шагу. Отсюда возникает один из важнейших трагических парадоксов его прозы: человек может понять ценность *любви*, но не суметь своевременно реализовать её.

Существенную роль в создании *любовной* семантики играют подтекст, психологическая деталь, ретроспективное повествование, речевая недосказанность и открытая композиция. Благодаря этим средствам Чехов избегает прямого авторского морализаторства и передаёт читателю значительную часть интерпретационной работы.

Художественная семантика *любви* в прозе А. П. Чехова может быть представлена как *движение* от эмоционального переживания к проблеме подлинности человеческого существования. *Любовь* становится своеобразным испытанием *личности*, в котором обнаруживаются её способность к свободе, ответственности, *близости* и внутреннему изменению.

Научная новизна исследования заключается в систематизации основных семантических функций *любовного* мотива в прозе А. П. Чехова и в рассмотрении *любви* не только как тематического компонента, но и как механизма раскрытия структуры чеховского персонажа. Перспективным направлением дальнейшего исследования является сопоставление семантики *любви* в прозе и драматургии Чехова, а также изучение *лексико-семантических* средств репрезентации *любовного* чувства в оригинальном тексте.

Список использованной литературы:

1. Родионова В.М. Нравственные и художественные искания А.П. Чехова 90-х и начала 900-х годов. М.: Прометей, 1994. 277 с.
2. *Линков* В.Я. Скептицизм и вера Чехова. М.: Издательство Московского университета, 1995. 80 с.

3. Катаев В.Б. Чехов плюс… Предшественники, современники, преемники. М.: Языки славянской культуры, 2004. 392 с.
4. Долженков П.Н. Чехов и позитивизм. 2-е изд., испр. и доп. М.: Скорпион, 2003. 218 с.
5. Собенников А.С. Между «есть Бог» и «нет Бога» О религиозно-философских традициях в творчестве А.П. Чехова. Иркутск: Издательство Иркутского университета, 1997. 222 с.
6. Полоцкая Э.А. О поэтике А.П. Чехова. М.: Наследие, 2001.
7. Сухих И.Н. Проблемы поэтики А.П. Чехова. 2-е изд., доп. СПб.: Издательство Санкт-Петербургского университета, 2007.
8. Кубасов А.В. Проза А.П. Чехова искусство стилизации. Екатеринбург: Уральский государственный педагогический университет, 1998. 399 с.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

KASBIY-INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISHDA INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Abdualiyev Hamidulla Toxirjonovich
Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti
Til va tarjima fakulteti dekan o'rinbosari
E-mail: hamidullaabdualiyev1985@gmail.com
ORCID: 0009-0000-8767-9885

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirishda interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi yoritilgan. Muallif tomonidan "kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorgarlik" tushunchasining mazmuni va tarkibiy komponentlari (motivatsion-qadriyatli, kognitiv, operatsional-faoliyatli, refleksiv-kreativ) aniqlashtirilgan, an'anaviy o'qitish amaliyotida ushbu tayyorgarlikni shakllantirishga to'sqinlik qilayotgan omillar tahlil qilingan. Keys-stadi, loyiha metodi, muammoli o'qitish, ishbilarmonlik o'yinlari, "aqliy hujum" hamda raqamli interfaol platformalarni bosqichma-bosqich qo'llashga asoslangan metodika taklif etilgan va uning samaradorligi pedagogik tajriba-sinov natijalari asosida statistik jihatdan asoslangan. Tadqiqot natijalari interfaol texnologiyalarning tizimli qo'llanilishi talabalarning innovatsion faollik va kasbiy tayyorgarlik darajasini sezilarli oshirishini tasdiqlaydi.*

Kalit so'zlar: *kasbiy-innovatsion faoliyat, tayyorgarlik, interfaol ta'lim texnologiyalari, keys-stadi, loyiha metodi, muammoli o'qitish, raqamli platformalar, innovatsion kompetensiya, oliy ta'lim.*

МЕТОДОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ УЛУЧШЕНИЯ ПОДГОТОВКИ К ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. *В данной статье освещается методика использования интерактивных образовательных технологий в совершенствовании готовности студентов высших учебных заведений к профессионально-инновационной деятельности. Автором уточнены содержание и структурные компоненты понятия «готовность к профессионально-инновационной деятельности» (мотивационно-ценностный, когнитивный, операционально-деятельностный, рефлексивно-креативный), проанализированы факторы, препятствующие формированию данной готовности в традиционной практике обучения. Предложена методика, основанная на поэтапном применении кейс-стади, метода проектов, проблемного обучения, деловых игр, «мозгового штурма» и цифровых интерактивных платформ, а её эффективность статистически обоснована по результатам педагогического эксперимента. Результаты исследования подтверждают, что системное применение интерактивных технологий*

существенно повышает уровень инновационной активности и профессиональной готовности студентов.

Ключевые слова: *профессионально-инновационная деятельность, готовность, интерактивные образовательные технологии, кейс-стади, метод проектов, проблемное обучение, цифровые платформы, инновационная компетенция, высшее образование.*

METHODOLOGY OF USING INTERACTIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING PREPARATION FOR PROFESSIONAL-INNOVATIVE ACTIVITY

Abstract. *This article covers the methodology of using interactive educational technologies in improving the readiness of higher education students for professional-innovative activity. The author clarifies the content and structural components of the concept of "readiness for professional-innovative activity" (motivational-value, cognitive, operational-activity, reflexive-creative) and analyzes the factors hindering the formation of this readiness in traditional teaching practice. A methodology based on the step-by-step application of case study, project method, problem-based learning, business games, brainstorming and digital interactive platforms is proposed, and its effectiveness is statistically substantiated by the results of a pedagogical experiment. The results of the study confirm that the systematic use of interactive technologies significantly increases the level of innovative activity and professional readiness of students.*

Key words: *professional-innovative activity, readiness, interactive educational technologies, case study, project method, problem-based learning, digital platforms, innovative competence, higher education.*

KIRISH

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti innovatsiyalar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yangilikni yarata oladigan, uni amaliyotga tatbiq eta oladigan va o‘zgarishlarga tez moslasha oladigan mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Shu bois oliy ta’limning muhim vazifalaridan biri talabalarni nafaqat tayyor bilimlar bilan qurollantirish, balki ularda kasbiy faoliyatni ijodiy, innovatsion asosda tashkil etish qobiliyatini - kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorgarlikni shakllantirishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni [1], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” [2] hamda “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida [3] ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik va raqamli

texnologiyalarni joriy etish, yoshlarning intellektual salohiyati va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni innovatsion faoliyatga keng jalb qilish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Mazkur vazifalar o‘qitish jarayonini talabaning faol sub’ektlik pozitsiyasini ta’minlaydigan interfaol ta’lim texnologiyalari asosida qayta qurishni taqozo etadi.

Ayni paytda amaliyot tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, oliy ta’lim muassasalarida mashg‘ulotlarning salmoqli qismi hanuz axborot uzatishga yo‘naltirilgan reproduktiv shakllarda o‘tkazilmoqda. Bunday yondashuvda talaba tayyor bilimlarning passiv qabul qiluvchisiga aylanadi, uning tashabbuskorligi, muammoni mustaqil qo‘yish va yechish, g‘oya ilgari surish, tavakkal qilish kabi innovatsion faoliyat uchun zarur sifatlari rivojlanmay qoladi. Interfaol texnologiyalar esa ko‘p hollarda tizimsiz, epizodik tarzda, ularning didaktik imkoniyatlari to‘liq hisobga olinmagan holda qo‘llanilmoqda. Bu esa interfaol ta’lim texnologiyalaridan kasbiy-innovatsion tayyorgarlikni shakllantirish maqsadida foydalanishning ilmiy asoslangan metodikasini ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

Mazkur maqolaning maqsadi - talabalarning kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirishda interfaol ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning metodik tizimini asoslash, uni amalga oshirish bosqichlari va shart-sharoitlarini aniqlash hamda ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini tajriba-sinov asosida baholashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Pedagogik innovatika va mutaxassisning innovatsion faoliyatga tayyorgarligi muammolari bir qator fundamental tadqiqotlarda o‘rganilgan. V.A.Slastyonin va L.S.Podimova innovatsion faoliyatni pedagogning kasbiy faoliyatining alohida turi sifatida asoslab, unga tayyorgarlikning motivatsion, kreativ, texnologik va refleksiv komponentlarini ajratib ko‘rsatadilar [6]. E.M.Rojersning innovatsiyalar diffuziyasi nazariyasi yangiliklarning ijtimoiy tizimlarda tarqalish qonuniyatlarini ochib beradi va innovatsion xulq-atvorni tushunishning metodologik asosi bo‘lib xizmat qiladi [11].

E.F.Zeer kasbiy rivojlanish psixologiyasi doirasida mutaxassisning innovatsion salohiyatini uning kasbiy o‘sishining muhim sharti sifatida talqin etadi [5].

Interfaol o‘qitish nazariyasi va texnologiyalari M.V.Klarin [7], G.K.Selevko [8] kabi olimlarning ishlarida tizimli yoritilgan: ularda o‘quv jarayonini o‘yin, muhokama, trening shakllarida tashkil etish modellari, pedagogik texnologiyalarning tasnifi va loyihalash tamoyillari ishlab chiqilgan. D.Jonson va R.Jonsonlarning hamkorlikda o‘qitish (cooperative learning) konsepsiyasi kichik guruhlardagi o‘zaro ta’sirning ta’limiy samaradorligini eksperimental asoslagan [9]. D.Kolbning tajribaviy ta’lim (experiential learning) modeli esa bilimlarning bevosita tajriba, refleksiya, konseptuallashtirish va amaliy sinov sikli orqali o‘zlashtirilishini ko‘rsatib beradi [10]. A.A.Verbitskiyning kontekstli ta’lim nazariyasida o‘quv faoliyatini kasbiy faoliyat konteksti bilan uyg‘unlashtirishda faol metodlarning o‘rni asoslangan [12].

O‘zbekistonlik olimlardan O‘.Q.Tolipov va M.Usmonboyeva pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslarini ishlab chiqib, interfaol metodlarning didaktik imkoniyatlarini ochib berganlar [4]. N.A.Muslimov va hammualliflarning ishlarida innovatsion ta’lim texnologiyalari, ularni kasbiy ta’lim jarayoniga joriy etish metodikasi yoritilgan [13]. L.V.Golish zamonaviy ta’lim texnologiyalarini loyihalash va amalga oshirishning amaliy jihatlarini tadqiq etgan [14].

Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili interfaol ta’lim texnologiyalarining ko‘pchilik tadqiqotlarda umumdidaktik vosita sifatida o‘rganilganligini, ularni aynan kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorgarlikni maqsadli shakllantirish vositasi sifatida tizimlashtirilgan, bosqichli metodika ko‘rinishida qo‘llash masalasi esa yetarli darajada ishlab chiqilmaganligini ko‘rsatdi. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy muammosini belgilab berdi.

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqotda nazariy va empirik metodlar majmuasidan foydalanildi. Nazariy metodlar: muammoga oid psixologik-pedagogik, metodik adabiyotlarni hamda

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, qiyoslash, tizimlashtirish, pedagogik modellashtirish va umumlashtirish. Empirik metodlar: pedagogik kuzatish, anketa so'rovi, suhbat, testlash, ekspert baholash, talabalar ijodiy ishlari va loyihalarini tahlil qilish, pedagogik tajriba-sinov. Miqdoriy ma'lumotlar matematik-statistik metodlar (o'rtacha qiymatlar, foiz taqsimoti, Styudentning t-mezoni) yordamida qayta ishlandi.

Tajriba-sinov ishlari 2024-2026-yillarda Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institutining Til va tarjima fakultetida uch bosqichda (konstatatsiyalovchi, shakllantiruvchi, yakuniy) olib borildi. Tadqiqotda jami 108 nafar talaba (tajriba guruhi - 54 nafar, nazorat guruhi - 54 nafar) hamda 22 nafar professor-o'qituvchi ishtirok etdi. Nazorat guruhida mashg'ulotlar an'anaviy metodika asosida, tajriba guruhida esa ishlab chiqilgan interfaol texnologiyalarga asoslangan metodika bo'yicha tashkil etildi. Talabalarning kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorgarlik darajasi motivatsion-qadriyatli, kognitiv, operatsional-faoliyatli va refleksiv-kreativ mezonlar asosida tashxis etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning nazariy bosqichida "kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorgarlik" tushunchasi aniqlashtirildi. Uni biz shaxsning kasbiy faoliyatda yangilikni izlash, yaratish, o'zlashtirish va amaliyotga tatbiq etishga yo'naltirilgan motivlari, bilimlari, ko'nikmalari hamda shaxsiy-kasbiy sifatlarining yaxlit birligi sifatida talqin etamiz. Uning tarkibida quyidagi o'zaro bog'liq komponentlar ajratildi: motivatsion-qadriyatli (innovatsion faoliyatga qiziqish, yangilikka intilish, muvaffaqiyatga yo'nalganlik); kognitiv (innovatika asoslari, innovatsion jarayonning bosqichlari, sohadagi ilg'or tajribalar haqidagi bilimlar); operatsional-faoliyatli (muammoni aniqlash, g'oyalarni generatsiya qilish, loyihalash, jamoada ishlash, natijani baholash ko'nikmalari); refleksiv-kreativ (o'z faoliyatini tanqidiy tahlil etish, ijodiy tafakkur, nostandart yechimlar topish qobiliyati).

Konstatatsiyalovchi bosqich natijalari mavjud amaliyotdagi muammolarni aniqlash imkonini berdi. So‘rovda ishtirok etgan talabalarning 64,8 foizi mashg‘ulotlarda asosan tayyor axborotni o‘zlashtirish bilan cheklanishini, 59,3 foizi o‘quv jarayonida mustaqil g‘oya ilgari surish va uni himoya qilish tajribasiga ega emasligini qayd etdi. Professor-o‘qituvchilarning 72,7 foizi interfaol metodlarni muntazam qo‘llamasligini, buning asosiy sabablari sifatida vaqt taqchilligi, metodik ishlanmalar yetishmasligi va texnologiyalarni tanlash mezonlarining noaniqligini ko‘rsatdi. Shuningdek, tahlil interfaol texnologiyalarning qo‘llanilishida bosqichlilik va uzviylik tamoyillariga rioya etilmasligi, ularning kasbiy-innovatsion tayyorgarlik komponentlariga maqsadli yo‘naltirilmaganligini ko‘rsatdi.

Shakllantiruvchi bosqichda interfaol ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning bosqichli metodikasi ishlab chiqildi. Metodika uch bosqichni qamrab oladi. Birinchi - motivatsion-tayyorlov bosqichida talabalarni innovatsion faoliyatga psixologik jihatdan tayyorlash maqsadida “aqliy hujum”, “klaster”, “davra suhbati”, munozara va rolli o‘yin texnologiyalari qo‘llanilib, ularda yangilikka ochiqlik va ijodiy muhitga moslashish ta’minlandi. Ikkinchi - faoliyatli-rivojlantiruvchi bosqichda keys-stadi, muammoli o‘qitish, ishbilarmonlik o‘yinlari hamda kichik guruhlarda hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarda kasbiy muammolarni tahlil etish, yechim variantlarini ishlab chiqish va asoslash ko‘nikmalari rivojlantirildi. Uchinchi - ijodiy-innovatsion bosqichda loyiha metodi asosida talabalar fanlararo mazmundagi innovatsion loyihalarni (jumladan, startap g‘oyalar, ta’limiy mahsulotlar, raqamli kontent) mustaqil ishlab chiqdilar va himoya qildilar.

Metodikada raqamli interfaol vositalar - Moodle platformasidagi interfaol topshiriqlar, Kahoot, Quizizz, Padlet, Mentimeter kabi xizmatlar - an’anaviy interfaol metodlar bilan uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llanildi, bu esa mashg‘ulotlarning jadalligini oshirish, tezkor qayta aloqa o‘rnatish va har bir talabaning faolligini kuzatib borish imkonini berdi. Metodikaning samarali amalga oshishini ta’minlovchi pedagogik shart-

sharoitlar sifatida quyidagilar belgilandi: texnologiyalarni tayyorgarlik komponentlariga muvofiq maqsadli tanlash; topshiriqlar mazmunining kasbiy faoliyat konteksti bilan bog‘lanishi; hamkorlik va ijodiy erkinlik muhitini yaratish; talabalar faoliyatini mezonli baholash va muntazam refleksiya.

Tajriba-sinov yakunida talabalarning kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorgarlik darajasi yuqori, o‘rta va past darajalar bo‘yicha qayta tashxis etildi. Umumlashtirilgan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Talabalarning kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorgarlik darajasi dinamikasi (foizda)

Darajalar	Tajriba guruhi (boshida)	Tajriba guruhi (yakunida)	Nazorat guruhi (boshida)	Nazorat guruhi (yakunida)
Yuqori	11,1	29,6	11,1	14,8
O‘rta	46,3	53,7	46,3	50,0
Past	42,6	16,7	42,6	35,2

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhida yuqori darajali talabalar ulushi 11,1 foizdan 29,6 foizga oshgan, past darajadagilar esa 42,6 foizdan 16,7 foizga kamaygan; nazorat guruhidagi o‘zgarishlar esa ancha kichik bo‘lgan. Farqlarning statistik ishonchliligi Styudentning t-mezoni bo‘yicha tekshirilib, hisoblangan qiymatning jadval qiymatidan kattaligi ($p<0,05$) aniqlandi. Bu tajriba guruhidagi ijobiy dinamika joriy etilgan metodika ta’sirida yuz berganligini tasdiqlaydi.

Sifat tahlili ham metodikaning samaradorligini tasdiqladi: tajriba guruhi talabalarida g‘oyalarni erkin ilgari surish, jamoaviy loyihalarda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, nostandart yechimlar taklif etish, o‘z faoliyatini tanqidiy baholash ko‘nikmalari yaqqol namoyon bo‘ldi. Talabalar tomonidan tayyorlangan innovatsion loyihalarning bir qismi institut miqyosidagi tanlov va ilmiy-amaliy anjumanlarda taqdim

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

etildi. Ekspertlar interfaol mashg‘ulotlar talabalar o‘rtasidagi hamkorlik madaniyati va o‘quv motivatsiyasining o‘sishiga xizmat qilganini qayd etdilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi. Birinchidan, kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorgarlik motivatsion-qadriyatli, kognitiv, operatsional-faoliyatli va refleksiv-kreativ komponentlarning yaxlit birligi bo‘lib, uni shakllantirish talabaning faol, sub’ektlik pozitsiyasini ta’minlaydigan o‘qitish texnologiyalarini taqozo etadi. Ikkinchidan, interfaol ta’lim texnologiyalari faqat tizimli, bosqichli va tayyorgarlik komponentlariga maqsadli yo‘naltirilgan holda qo‘llanilgandagina kutilgan samarani beradi; ularning epizodik qo‘llanilishi barqaror natija bermaydi. Uchinchidan, motivatsion-tayyorlov, faoliyatli-rivojlantiruvchi va ijodiy-innovatsion bosqichlarni qamrab olgan, an’anaviy interfaol metodlarni raqamli vositalar bilan uyg‘unlashtirgan metodika talabalarning kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorgarlik darajasini statistik jihatdan ishonchli tarzda oshiradi.

Olingan natijalar asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi: oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislik fanlari dasturlariga interfaol texnologiyalar asosidagi amaliy modullarni kiritish; professor-o‘qituvchilar uchun interfaol mashg‘ulotlarni loyihalash va raqamli interfaol vositalardan foydalanish bo‘yicha doimiy metodik seminarlar tashkil etish; talabalarning innovatsion loyiha faoliyatini rag‘batlantiruvchi tanlovlar, startap-maydonchalar va ilmiy to‘garaklar tizimini kengaytirish; kasbiy-innovatsion tayyorgarlikni tashxis etuvchi mezonlar va baholash vositalari fondini yaratish hamda ulardan joriy nazorat jarayonida foydalanish. Mazkur takliflarning amalga oshirilishi bitiruvchilarning innovatsion iqtisodiyot sharoitidagi raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. - Toshkent, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. - Toshkent, 2019.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. - Toshkent, 2023.
4. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - Toshkent: Fan, 2006. - 261 b.
5. Зеер Э.Ф. Психология профессионального образования. - Москва: Академия, 2009. - 384 с.
6. Сластёнин В.А., Подымова Л.С. Педагогика: инновационная деятельность. - Москва: Магистр, 1997. - 224 с.
7. Кларин М.В. Инновации в мировой педагогике: обучение на основе исследования, игры и дискуссии. - Рига: Эксперимент, 1995. - 176 с.
8. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. - Москва: Народное образование, 1998. - 256 с.
9. Johnson D.W., Johnson R.T. Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning. - Boston: Allyn & Bacon, 1999. - 260 p.
10. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. - Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984. - 256 p.
11. Rogers E.M. Diffusion of Innovations. 5th ed. - New York: Free Press, 2003. - 576 p.
12. Вербицкий А.А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход. - Москва: Высшая школа, 1991. - 207 с.
13. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. - Toshkent: Sano-standart, 2015. – 208 b.
14. Голиш Л.В. Современные технологии обучения: содержание, проектирование и реализация. - Ташкент: TASIS, 2001. – 59 с.

KICHIK GURUH FAOLIYATINI NEMIS TILI DARSIDA PADLET PLATFORMASIDA TASHKIL ETISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI

Tolipova Shaxloxon Baxromjon qizi
Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti
https://orcid.org/0009-0002-6829-3818
shaxloxontolipova1998@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nemis tili darslarida kichik guruh faoliyatini Padlet platformasi asosida tashkil etishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Kommunikativ yondashuv, konstruktivistik ta'lim, kooperativ o'qitish va raqamli pedagogika tamoyillarining integratsiyasi yoritilgan. Padlet platformasining kollaborativ ta'limdagi didaktik imkoniyatlari hamda uning talabalarning kommunikativ kompetensiyasi, hamkorlik va reflektiv fikrlashini rivojlantirishdagi o'rni asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari nemis va boshqa xorijiy tillarni o'qitish amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Padlet platformasi, kichik guruh faoliyati, nemis tili, kollaborativ ta'lim, kommunikativ kompetensiya, raqamli pedagogika, kooperativ o'qitish.*

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МАЛЫХ ГРУПП НА ПЛАТФОРМЕ PADLET НА ЗАНЯТИЯХ ПО НЕМЕЦКОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация. *В статье проанализированы теоретико-методологические основы организации деятельности малых групп на платформе Padlet при обучении немецкому языку. Раскрыта интеграция коммуникативного подхода, конструктивистской теории обучения, кооперативного обучения и принципов цифровой педагогики. Обоснованы дидактические возможности Padlet в организации коллаборативного обучения и его влияние на развитие коммуникативной компетенции, навыков сотрудничества и рефлексивного мышления студентов. Результаты исследования могут быть использованы для совершенствования практики преподавания немецкого и других иностранных языков.*

Ключевые слова: *платформа Padlet, деятельность малых групп, немецкий язык, коллаборативное обучение, коммуникативная компетенция, цифровая педагогика, кооперативное обучение.*

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR ORGANIZING SMALL GROUP ACTIVITIES ON THE PADLET PLATFORM IN GERMAN LANGUAGE CLASSES

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Abstract. *This article examines the theoretical and methodological foundations of organizing small-group activities through the Padlet platform in German language teaching. It highlights the integration of the communicative approach, constructivist learning theory, cooperative learning, and digital pedagogy. The study substantiates Padlet's didactic potential for collaborative learning and its contribution to developing students' communicative competence, collaboration skills, and reflective thinking. The findings provide methodological guidance for improving the teaching of German and other foreign languages through digital technologies.*

Keywords: *Padlet platform, small group activities, German language, collaborative learning, communicative competence, digital pedagogy, cooperative learning.*

KIRISH

Raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga jadal integratsiyalashuvi xorijiy tillarni o'qitish metodikasining mazmuni va shakliga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda an'anaviy auditoriya mashg'ulotlari bilan bir qatorda onlayn hamkorlik platformalari va interaktiv ta'lim muhitlaridan foydalanish ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Mazkur tendensiya, ayniqsa, chet tillarini o'qitishda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, ularning mustaqil ta'lim faoliyatini rag'batlantirish hamda hamkorlikka asoslangan o'quv jarayonini tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan, Padlet platformasi matn, tasvir, audio, video va gipermurojaatlarni yagona virtual makonda birlashtirish, shuningdek, foydalanuvchilarning real vaqt yoki asinxron rejimda birgalikda faoliyat yuritishini ta'minlaydigan zamonaviy raqamli ta'lim muhiti sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Nemis tili ta'limida ushbu platformadan foydalanish o'quv materiallarini taqdim etish, kichik guruhlar doirasida hamkorlikni yo'lga qo'yish, o'zaro fikr almashish va reflektiv tahlilni rivojlantirish uchun ham keng metodik imkoniyatlarni yaratadi. Padlet platformasi hamkorlikka asoslangan ta'limni tashkil etish uchun qulay raqamli muhit yaratadi. U foydalanuvchilarga umumiy virtual doskada bir vaqtda ishlash, fikr almashish, multimedia resurslarini joylashtirish va o'zaro muloqot qilish imkonini beradi. Natijada kichik guruh faoliyati auditoriyadan tashqarida ham davom etib,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

talabalarning kommunikativ kompetensiyasi, hamkorlik ko‘nikmalari, reflektiv fikrlashi va raqamli savodxonligini rivojlantiradi.

Xorijiy tillarni o‘qitishda Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams, Quizlet va Kahoot kabi platformalar keng tadqiq etilgan. Padlet platformasi ham o‘rganilgan, ammo mavjud ishlarda asosan uning umumiy funksiyalari yoki individual ta’limdagi qo‘llanilishi yoritilgan. Nemis tili darslarida Padlet asosida kichik guruh faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodologik asoslari esa yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Amaliyotda Padlet ko‘proq o‘quv materiallarini ulashish vositasi sifatida qo‘llanilib, uning kollaborativ ta’limni tashkil etish va o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni boshqarish imkoniyatlari to‘liq foydalanilmayapti. Shuningdek, Padletni kommunikativ, kooperativ va konstruktivistik yondashuvlar bilan integratsiyalovchi metodologik model hamda samaradorlikni baholash mezonlari mavjud emas. Shu bois tadqiqotning ilmiy bo‘shlig‘i kichik guruh faoliyatini Padlet platformasi asosida tashkil etishning yagona nazariy-metodologik modelini ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi nemis tili darslarida Padlet platformasi asosida kichik guruh faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish va uning samaradorligini belgilovchi pedagogik omillarni asoslashdan iborat. Gipotezaga ko‘ra, Padletning kollaborativ imkoniyatlarini kommunikativ va konstruktivistik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish talabalarning kommunikativ kompetensiyasi, hamkorlik ko‘nikmalari, reflektiv tafakkuri va raqamli savodxonligini an’anaviy metodlarga nisbatan samaraliroq rivojlantiradi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi Padletni kichik guruh faoliyatini boshqaruvchi didaktik muhit sifatida talqin etish, integratsiyalashgan nazariy-metodologik model va samaradorlikni baholash mezonlarini taklif etishdan iborat. Olingan natijalar nemis va boshqa xorijiy tillarni o‘qitishda raqamli kollaborativ ta’limni takomillashtirish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli texnologiyalarning ta’lim tizimiga jadal integratsiyalashuvi xorijiy tillarni o‘qitish metodikasida yangi pedagogik yondashuvlarning shakllanishiga olib keldi. Ayniqsa, hamkorlikka asoslangan ta’lim, kichik guruhlarda ishlash va veb-platformalardan foydalanish masalalari zamonaviy lingvodidaktikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. So‘nggi yillarda Padlet, Google Classroom, Moodle kabi platformalar o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, refleksiv faoliyatni tashkil etish hamda hamkorlikdagi bilim qurilishini qo‘llab-quvvatlash vositasi sifatida keng o‘rganilmoqda.

Xorijiy tillarni o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash masalalarini tizimli o‘rgangan olimlardan biri M.Warschauer kompyuter vositasida tashkil etilgan muloqotni til o‘rganish jarayonini faollashtirishini, ayniqsa, hamkorlikka asoslangan virtual muhit talabalarning muloqotga kirishish chastotasini oshirishini ta’kidlaydi. Olimning fikriga ko‘ra, raqamli platformalar o‘quvchilarga autentik kommunikativ vaziyatlar yaratib beradi hamda bilimni ijtimoiy konstruktivizm tamoyillari asosida shakllantirishga xizmat qiladi, shunga qaramay, tadqiqotlarda aynan Padlet platformasida kichik guruh faoliyatini tashkil etish mexanizmlari yetarlicha ochib berilmagan. C.Chapelle esa til o‘rganishni axborot kommunikatsiya texnologiyalari nazariyasini rivojlantirib, elektron muhitda til o‘qitish samaradorligini belgilovchi mezonlarni ishlab chiqqan. U raqamli ta’lim vositalarining lingvistik, pedagogik va texnologik komponentlari uyg‘unlashgandagina o‘quv natijalari yuqori bo‘lishini asoslaydi. C.Chapelle talabalarning interaktiv faoliyati, qayta sharh olish imkoniyati va avtonom o‘rganish ko‘nikmalariga alohida e’tibor qaratganini kuzatdik. Shunga qaramasdan, olim tadqiqotlarida ijtimoiy shakllarda tashkil etilgan kichik guruhlarning onlayn faoliyatiga oid metodik model taklif etilmagan. Hamkorlikdagi ta’limning nazariy asoslari D.Johnson va R.Johnson tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ular kooperativ ta’limning besh asosiy komponentini, ya’ni ijobiy o‘zaro bog‘liqlik, individual

mas'uliyat, yuzma-yuz muloqot, ijtimoiy ko'nikmalar va guruh refleksiyasini ajratib ko'rsatadilar. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, kichik guruhlarda tashkil etilgan ta'lim talabalarning akademik natijalari, motivatsiyasi va kommunikativ kompetensiyasini sezilarli darajada oshiradi. Mazkur nazariy yondashuv Padlet platformasida hamkorlikni tashkil etish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

MDH mamlakatlari olimlari orasida raqamli ta'lim muhitlari va xorijiy tillarni o'qitish metodikasiga oid tadqiqotlar sezilarli o'rin egallaydi. E.S. Polat masofaviy ta'lim va telekommunikatsiya texnologiyalarining didaktik imkoniyatlarini tadqiq qilgan. Olim loyiha metodi, hamkorlikda o'qitish va internet-resurslardan foydalanishning nazariy asoslarini ishlab chiqqan. E.S.Polatning fikriga ko'ra, elektron muhit o'quvchilarning mustaqil faoliyatini rag'batlantirish bilan birga, o'zaro muloqotni ham faollashtiradi. Mazkur tadqiqotlarda aynan Padlet singari zamonaviy veb-xizmatlardan foydalanish masalalari cheklangan. Rus olimi M.N. Yevstigneyev axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida chet tillarini o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. U elektron resurslarning motivatsion va interaktiv salohiyatini yuqori baholaydi hamda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda ularning ahamiyatini asoslaydi.

O'zbekiston olimlari tomonidan ham xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalalari keng tadqiq etilgan. J.J. Jalolov xorijiy tillarni o'qitish metodikasining nazariy asoslarini ishlab chiqib, kommunikativ yondashuvni zamonaviy ta'limning asosiy tamoyillaridan biri sifatida e'tirof etadi. Olimning fikricha, o'quv jarayoni muloqotga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. U.N. Yusupov zamonaviy pedagogik texnologiyalarni xorijiy tillarni o'qitish jarayoniga integratsiya qilish masalalarini o'rganib, innovatsion yondashuvlar talabalarning kommunikativ faolligini oshirishini asoslaydi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, xorijiy, MDH va o'zbek olimlarining aksariyati hamkorlikdagi ta'lim, kommunikativ yondashuv va raqamli

texnologiyalarni qo‘llash ta’lim samaradorligini oshirishini e’tirof etadilar. Barcha tadqiqotlarda o‘quvchi faoliyatining markaziy o‘ringa qo‘yilishi, interaktivlik, refleksiya va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish umumiy jihat sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, ayrim farqlar ham mavjud. Xorijiy olimlar (M.Warschauer, C.Chapelle va boshqalar) ko‘proq raqamli muhitning nazariy asoslari hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari konsepsiyasiga e’tibor qaratgan bo‘lsalar, MDH olimlari asosan masofaviy ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv masalalarini tadqiq qilganlar. O‘zbek olimlari esa innovatsion pedagogik texnologiyalar va kommunikativ metodikani milliy ta’lim tizimiga moslashtirishga ko‘proq urg‘u berganlar, ammo mavjud tadqiqotlarning aksariyatida Padlet platformasining aynan nemis tili darslarida kichik guruh faoliyatini tashkil etishdagi didaktik imkoniyatlari, guruh ichidagi hamkorlik mexanizmlari, tengdoshlararo o‘qitish texnologiyasi hamda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga ta’siri kompleks tarzda o‘rganilmagan. Hamkorlikdagi ta’lim, raqamli texnologiyalar va xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha salmoqli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa ham, nemis tili darslarida Padlet platformasi asosida kichik guruh faoliyatini tashkil etishning yaxlit nazariy-metodologik modeli ishlab chiqilmagan. Jumladan:

1. Padlet platformasida kichik guruh faoliyatini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari yetarli darajada aniqlanmagan;
2. Nemis tili darslarida Padletdan foydalanishning metodik mexanizmlari tizimlashtirilmagan;
3. Tengdoshlararo hamkorlik va kommunikativ faoliyatni shakllantirishning konseptual modeli ishlab chiqilmagan;
4. Padlet asosidagi kichik guruh faoliyatining kommunikativ kompetensiyaga ta’siri empirik jihatdan yetarlicha asoslanmagan;
5. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari sharoitiga moslashtirilgan metodik tavsiyalar mavjud emas.

Shunday qilib, ushbu tadqiqotning ilmiy bo‘shlig‘i kichik guruh faoliyatini nemis tili darsida Padlet platformasida tashkil etishning nazariy-metodologik asoslarini yagona konseptual model sifatida ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi.


METOD

Mazkur tadqiqot aralash metod yondashuvi asosida tashkil etilib, ushbu yondashuv miqdoriy va sifatw tadqiqot usullarini o‘zaro integratsiyalash orqali tadqiq etilayotgan hodisani har tomonlama o‘rganish imkonini beradi. Aralash metodni tanlashdan maqsad Padlet platformasida tashkil etilgan kichik guruh faoliyatining nemis tili darslarida talabalarning kommunikativ kompetensiyasi, hamkorlik ko‘nikmalari va o‘quv motivatsiyasiga ta’sirini nafaqat statistik jihatdan baholash, balki ushbu o‘zgarishlarning sabablarini ham sifat ma’lumotlari asosida izohlashdan iborat bo‘ldi. Tadqiqot doiradsida konvergent parallel dizayn qo‘llanildi. Mazkur dizaynda miqdoriy va sifat ma’lumotlari bir vaqtning o‘zida yig‘ildi, alohida tahlil qilindi hamda yakuniy bosqichda o‘zaro integratsiyalash orqali umumiy xulosalar chiqarildi. Bunday yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot O‘zbekiston Respublikasidagi oliy ta’lim muassasasining nemis tili yo‘nalishida tahsil olayotgan 30 nafar 2–3-bosqich talabalari ishtirokida amalga oshirildi. Ishtirokchilar maqsadli tanlash usuli asosida saralandi. Ularning barchasi nemis tilini CEFR bo‘yicha B1–B2 darajasida egallagan hamda raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish bo‘yicha boshlang‘ich tajribaga ega edi. Tadqiqot boshlanishidan oldin talabalar uchun Padlet platformasidan foydalanish va kichik guruhlarda hamkorlikni tashkil etishga oid qisqa trening o‘tkazildi. Tadqiqotda aralash metodologiya qo‘llanildi. Miqdoriy ma’lumotlar eksperimentdan oldin va keyin o‘tkazilgan pre-test hamda post-test so‘rovnomalari orqali yig‘ildi. So‘rovnoma kommunikativ kompetensiya, hamkorlik ko‘nikmalari, raqamli ta’limga jalb etilganlik va o‘quv motivatsiyasini baholashga qaratildi. Sifat ma’lumotlari dars kuzatuvlari, yarim tuzilgan intervyular, refleksiv kundaliklar hamda Padlet platformasida yaratilgan postlar, izohlar va guruh ishlari

tahlili asosida olindi. Eksperimental mashg‘ulotlar 8 hafta davom etdi. Bu davrda talabalar Padlet platformasida brainstorming, loyiha ishlari, hamkorlikda matn yaratish, muammoli vaziyatlarni hal etish, rolli o‘yinlar, lug‘at xaritalari tuzish va tengdoshlararo baholash kabi faoliyatlarni bajardilar. Tadqiqot instrumentlari sifatida 24 savoldan iborat 5 ballik Likert shkalasidagi so‘rovnoma, kommunikativ kompetensiya testi, kuzatuv varaqasi, intervyu savollari, refleksiv kundalik, Padlet faoliyatini baholash mezonlari hamda tengdoshlararo baholash varaqasidan foydalanildi. Padlet platformasi asosida tashkil etilgan kichik guruh faoliyati, bog‘liq o‘zgaruvchilar sifatida esa kommunikativ kompetensiya, hamkorlik ko‘nikmalari va o‘quv motivatsiyasi belgilandi. Talabalarning kursi, til darajasi, o‘quv materiallari, mashg‘ulot davomiyligi va o‘qitish maqsadlari nazorat o‘zgaruvchilari sifatida bir xil saqlandi. Instrumentlarning ishonchliligi IBM SPSS Statistics 29 dasturida Cronbach’s Alpha koeffitsienti yordamida baholandi. Umumiy ko‘rsatkich α = 0,89, alohida o‘lchovlar bo‘yicha esa α = 0,81–0,91 oralig‘ida bo‘lib, instrumentlarning yuqori ichki mosligini tasdiqladi. Asosiy tadqiqotdan avval 10 nafar talaba ishtirokida pilot sinov o‘tkazilib, uning natijalari asosida ayrim savollar takomillashtirildi. Tadqiqotda mazmuniy va konstrukt validligi hamda metodologik triangulyatsiya qo‘llanildi. Miqdoriy ma’lumotlar tavsifiy statistika, Paired Samples *t*-test va Pearson korrelyatsiya tahlili yordamida ($p < 0,05$) qayta ishlanib, sifat ma’lumotlari tematik tahlil asosida umumlashtirildi. Yakuniy bosqichda miqdoriy va sifat natijalari integratsiyalanib, Padlet platformasi asosida tashkil etilgan kichik guruh faoliyatining nemis tili darslaridagi nazariy-metodologik asoslari hamda amaliy samaradorligi yuzasidan kompleks ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Aralash metod asosida mualliflik modelini ishlab chiqdik va ushbu modelga tayanib mazkur tadqiqotni olib bordik.



1-rasm. Kichik guruh faoliyatini padlet platformasida tashkil etishning mualliflik konseptual modeli.

Mazkur konseptual model nemis tili darslarida kichik guruh faoliyatini Padlet platformasi asosida tashkil etishning nazariy va amaliy tuzilmasini ifodalaydi. Model kommunikativ yondashuv, kooperativ ta'lim, konstruktivistik pedagogika va raqamli ta'lim tamoyillariga tayanadi. Unda o'quv jarayoni maqsadni belgilash, hamkorlikdagi faoliyatni rejalashtirish, Padlet vositalari orqali o'quv topshiriqlarini bajarish, baholash hamda natijalarni tahlil qilish bosqichlari asosida tashkil etilgan. Modelni qo'llash natijasida talabalarning kommunikativ kompetensiyasi, hamkorlik ko'nikmalari, reflektiv fikrlashi, raqamli savodxonligi va o'quv motivatsiyasini rivojlantirish ko'zda tutiladi. Model oliy ta'lim muassasalarida nemis tili mashg'ulotlarini raqamli muhitda samarali tashkil etish uchun metodik asos vazifasini bajaradi.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida Padlet platformasi asosida tashkil etilgan kichik guruh faoliyatining nemis tili darslarida talabalarning kommunikativ kompetensiyasiga ta'siri tajriba va nazorat guruhlari kesimida tahlil qilindi. Eksperimental tadqiqotda jami 30

nafar respondent ishtirok etdi. Ulardan 15 nafari tajriba guruhini, 15 nafari nazorat guruhini tashkil etdi. Tajriba boshlanishidan oldin ikkala guruhning boshlang‘ich bilim va ko‘nikmalari pre-test orqali baholandi. Natijalar tajriba guruhi ko‘rsatkichi 42%, nazorat guruhi esa 44% ni tashkil etganini ko‘rsatdi. Bu esa tajriba boshlanishida ikki guruh o‘rtasida sezilarli farq mavjud emasligini va ularning deyarli teng boshlang‘ich darajaga ega ekanligini tasdiqlaydi. Sakkiz haftalik tajriba-sinov ishlari yakunlangandan so‘ng post-test o‘tkazildi. Natijalarga ko‘ra, tajriba guruhining o‘rtacha ko‘rsatkichi 54% ga yetdi, nazorat guruhida esa ushbu ko‘rsatkich 50% ni tashkil etdi. Tajriba-sinovi doirasida tajriba guruhida o‘zlashtirish darajasi 12 foizga, nazorat guruhida esa 6 foizga oshgan.

1-jadval.

Padlet platformasi asosida tashkil etilgan kichik guruh faoliyatining samaradorligi (%)

Guruh	Respondentlar soni	Boshlang‘ich (%)	Yakuniy (%)	O‘zgarish
Tajriba guruhi	15	42	54	+12
Nazorat guruhi	15	44	50	+6

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, tajriba va nazorat guruhlari natijalarini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Boshlang‘ich bosqichda guruhlar natijalari bir-biriga yaqin bo‘lgan bo‘lsa, tajriba yakunida Padlet platformasi asosida kichik guruh faoliyati tashkil etilgan tajriba guruhida o‘sish sur’ati nazorat guruhiga nisbatan ikki baravar yuqori kuzatildi. Bu esa Padlet platformasining hamkorlikdagi ta’limni tashkil etishdagi ijobiy pedagogik salohiyatini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi Padlet platformasi asosida tashkil etilgan kichik guruh faoliyatining nemis tili darslarida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlashdan iborat edi. Tajriba yakunida tajriba guruhi 54 %, nazorat guruhi esa 50 % natijani qayd etdi. Boshlang‘ich ko‘rsatkichlarga nisbatan tajriba guruhida 12 %, nazorat guruhida esa 6 % o‘sish kuzatildi. Ushbu natijalar Padlet platformasi asosida tashkil etilgan hamkorlikdagi ta’lim talabalarning muloqot faolligi, o‘zaro hamkorligi va ta’lim jarayonidagi ishtirokini sezilarli darajada oshirganligini ko‘rsatadi. Tahlillar Padlet platformasi nafaqat o‘quv jarayonini raqamlashtirish vositasi, balki ijtimoiy konstruktivistik ta’lim muhitini shakllantiruvchi samarali didaktik vosita ekanligini tasdiqladi. Platforma talabalarga fikr almashish, muammolarni hamkorlikda hal etish, o‘zaro fikr-mulohaza bildirish va tengdoshlar tavsiyalari asosida bilimlarini takomillashtirish imkonini yaratdi. Aynan shu jarayon kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Olingan natijalar xorijiy tadqiqotchilar qarashlari bilan hamohangdir. M. Warschauer kompyuter texnologiyalari asosidagi muloqot chet tilini o‘rganishda kommunikativ faollikni oshirishini ta’kidlagan bo‘lsa, ushbu tadqiqot ham Padlet platformasi talabalarning muloqot intensivligini kuchaytirishini tasdiqladi. C. Chapelle tomonidan ilgari surilgan interaktivlik, tezkor qayta aloqa va faol ishtirok tamoyillari Padletdagi guruh muhokamalari hamda o‘zaro baholash jarayonida o‘z tasdig‘ini topdi. Shuningdek, D. Johnson va R. Johnsonning kooperativ ta’lim nazariyasida qayd etilgan ijobiy o‘zaro bog‘liqlik va individual mas’uliyat tamoyillari ham tadqiqot natijalarida namoyon bo‘ldi. Tadqiqot raqamli pedagogika, kooperativ ta’lim va ijtimoiy konstruktivizm yondashuvlarini integratsiyalash orqali Padlet platformasida kichik guruh faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodologik modelini empirik jihatdan asoslab berdi. Ishlab chiqilgan yondashuv oliy ta’lim muassasalarida nemis tilini o‘qitishda hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish, talabalarning faolligini oshirish, tengdoshlararo baholashni yo‘lga qo‘yish va kommunikativ topshiriqlarni raqamli muhitda amalga oshirish uchun

metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Tadqiqot 30 nafar talaba ishtirokida, bitta oliy ta’lim muassasasida va sakkiz hafta davomida amalga oshirilgani sababli natijalarni umumlashtirishda ehtiyotkorlik talab etiladi. Shuningdek, talabalarning raqamli kompetensiyasi, motivatsiyasi va texnik sharoitlari natijalarga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi mumkin.

Kelgusidagi tadqiqotlarda respondentlar sonini ko‘paytirish, bir nechta oliy ta’lim muassasalari ishtirokida ko‘p markazli eksperimentlar o‘tkazish hamda Padlet platformasini sun’iy intellekt, gamifikatsiya va adaptiv ta’lim texnologiyalari bilan integratsiyalash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ushbu metodikani boshqa xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida qo‘llash va uning uzoq muddatli ta’sirini o‘rganish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Tadqiqot natijalari Padlet platformasi asosida tashkil etilgan kichik guruh faoliyati nemis tili darslarida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini tasdiqlaydi hamda raqamli hamkorlikka asoslangan ta’limning zamonaviy xorijiy til ta’limidagi ahamiyatini yana bir bor ko‘rsatadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi nemis tili darslarida Padlet platformasi asosida kichik guruh faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish hamda uning talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga ta’sirini aniqlashdan iborat edi. Tadqiqot aralash metod yondashuvi asosida tashkil etilib, miqdoriy va sifat ma’lumotlarini integratsiyalash orqali tadqiqot muammosiga kompleks yondashildi. Tadqiqot natijalari Padlet platformasidan foydalanish talabalarning hamkorlikdagi o‘quv faoliyati, muloqot faolligi va o‘quv jarayonidagi ishtirokini faollashtirganligini ko‘rsatdi. Tajriba guruhi yakuniy ko‘rsatkichi 54% ni, nazorat guruhi esa 50% ni tashkil etdi. Shuningdek, tajriba guruhida o‘zlashtirish darajasi boshlang‘ich natijaga nisbatan 12% ga, nazorat guruhida esa 6 % ga oshgani Padlet platformasida tashkil etilgan kichik guruh faoliyatining ijobiy pedagogik ta’sirini namoyon etdi. Sifat

tahlili natijalari ham talabalar o‘rtasida hamkorlik, refleksiya, tengdoshlararo o‘qitish va kommunikativ faollikning kuchayganligini tasdiqladi. Gipotezani tekshirish natijalari Padlet platformasi asosida tashkil etilgan kichik guruh faoliyati kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda ijobiy tendensiyani yuzaga keltirishini ko‘rsatdi. Biroq tanlangan respondentlar hajmining cheklanganligi va statistik farqning yetarli darajada katta emasligi sababli ushbu gipoteza amaliy jihatdan qo‘llab-quvvatlangan bo‘lsa ham, statistik nuqtai nazardan qo‘shimcha tadqiqotlar bilan mustahkamlanishi zarur. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, unda ijtimoiy konstruktivizm, hamkorlikdagi ta’lim, axborot kommunikatsiya texnologiyalari konsepsiyalari integratsiyalashgan holda Padlet platformasida kichik guruh faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodologik modeli taklif etildi. Mazkur model raqamli ta’lim muhitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning ilmiy asoslarini boyitadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan metodik yondashuvning oliy ta’lim muassasalarida nemis tilini o‘qitish jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Padlet platformasi asosida tashkil etilgan kichik guruh faoliyati o‘qituvchilarga hamkorlikdagi topshiriqlarni samarali boshqarish, talabalar faolligini oshirish, o‘zaro baholashni tashkil etish va raqamli ta’lim texnologiyalaridan maqsadli foydalanish imkonini beradi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda respondentlar sonini ko‘paytirish, tajribani turli oliy ta’lim muassasalarida amalga oshirish, kuzatuv muddatini uzaytirish hamda Padlet platformasini sun’iy intellekt, gamifikatsiya va boshqa raqamli vositalar bilan integratsiyalashgan holda o‘rganish tavsiya etiladi. Shuningdek, ushbu metodik yondashuvning boshqa xorijiy tillarni o‘qitish jarayonidagi samaradorligini qiyosiy tahlil qilish ham istiqbolli ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Chapelle C.A. Computer Applications in Second Language Acquisition: Foundations for Teaching, Testing and Research. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 213 p.
2. Creswell J.W., Plano Clark V.L. Designing and Conducting Mixed Methods Research. – 3rd ed. – Thousand Oaks: Sage Publications, 2018. – 492 p.

3. Dillenbourg P. What do you mean by collaborative learning? // Collaborative Learning: Cognitive and Computational Approaches / Ed. P. Dillenbourg. – Oxford: Elsevier, 1999. – P. 1–19.

4. Galskova N.D., Gez N.I. Teoriya obucheniya inostrannym yazykam. Lingvodidaktika i metodika. – 6-e izd. – Moskva: Akademiya, 2009. – 336 s.

5. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 432 b.

6. Johnson D.W., Johnson R.T. Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning. – 5th ed. – Boston: Allyn & Bacon, 1999. – 464 p.

7. Mahkamova M.X. Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ingliz tilini o‘qitish. – Toshkent: Fan, 2010. – 256 b.

8. Polat E.S. Teoriya i praktika distantsionnogo obucheniya. – Moskva: Akademiya, 2004. – 416 s.

9. Saidahmedov S.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. – 172 b.

10. Sysoyev P.V. Informatsionnye i kommunikatsionnye tekhnologii v obuchenii inostrannomu yazyku // Yazyk i kultura. – 2012. – № 4 (20). – S. 120–133.

AVIATSIYA TALABALARI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI CHATBOTLAR YORDAMIDA RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI

Ergashaliyeva Dilshoda Baxromjon Qizi
Mustaqil tadqiqotchi
ergashaliyevadilshoda8@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada aviatsiya talabalari kommunikativ kompetensiyasini sun'iy intellekt asosidagi chatbotlar yordamida rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari tahlil qilingan. Kommunikativ kompetensiya, sun'iy intellekt texnologiyalari hamda chatbotlardan ta'lim jarayonida foydalanishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, aviatsiya ingliz tilini o'qitishda chatbotlardan foydalanishning didaktik tamoyillari, metodik yondashuvlari va ularning kasbiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni asoslangan. Tadqiqot natijasida ushbu yo'nalishda qo'llash mumkin bo'lgan nazariy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar*: sun'iy intellekt, chatbot, aviatsiya talabalari, kommunikativ kompetensiya, Aviation English, metodika, raqamli ta'lim, til o'qitish.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ АВИАЦИОННЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ С ПОМОЩЬЮ ЧАТ-БОТОВ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Аннотация*. В статье рассматриваются теоретико-методические основы развития коммуникативной компетентности студентов авиационных специальностей с использованием чат-ботов на основе искусственного интеллекта. Проанализированы педагогические возможности применения искусственного интеллекта в образовательном процессе, раскрыты дидактические принципы и методические подходы использования чат-ботов при обучении авиационному английскому языку. Обоснована роль искусственного интеллекта в совершенствовании профессиональных коммуникативных навыков будущих специалистов авиационной отрасли, а также предложены теоретико-методические рекомендации.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, чат-бот, студенты авиации, коммуникативная компетентность, авиационный английский язык, методика, цифровое образование, обучение языку.*

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE OF AVIATION STUDENTS WITH THE HELP OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE-BASED CHATBOTS

Abstract. *This article examines the theoretical and methodological foundations of developing aviation students' communicative competence through artificial intelligence-based chatbots. It analyzes the pedagogical potential of AI technologies in language education and discusses the didactic principles and methodological approaches to integrating chatbots into Aviation English instruction. The study highlights the role of AI-powered chatbots in improving learners' professional communication skills and proposes theoretical and methodological recommendations for their effective implementation in aviation language education.*

Keywords*: artificial intelligence, chatbot, aviation students, communicative competence, Aviation English, methodology, digital education, language teaching.*

KIRISH

So‘nggi yillarda sun‘iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi, chet tillarini o‘qitish metodikasiga yangicha yondashuv olib kirdi. So‘nggi tadqiqotlar sun’iy intellekt asosidagi chatbotlar individual o‘qitishni qo‘llab-quvvatlash, tezkor fikr-mulohaza taqdim etish va muloqotga asoslangan mashg‘ulotlarni tashkil etishda samarali ekanligini ko‘rsatmoqda. An’anaviy elektron ta’lim vositalaridan farqli ravishda, sun‘iy intellekt asosidagi chatbotlar foydalanuvchi bilan ikki tomonlama muloqot olib borish, til xatolarini aniqlash, tavsiyalar berish hamda o‘quv jarayonini individuallashtirish imkonini beradi. Shu bois sun’iy intellekt asosidagi chatbotlar til o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim raqamli vositalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.Til ta'limi bo‘yicha olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar chatbotlardan foydalanish talabalarning og‘zaki nutq ravonligini, kommunikativ faolligini, lug‘at boyligini va chet tilida erkin muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Biroq, mazkur tadqiqotlarning aksariyati umumiy ingliz tili yoki akademik ingliz tilini o‘qitishga qaratilgan bo‘lib, kasbiy yo‘naltirilgan til ta’limi, xususan Aviation English yo‘nalishida chatbotlardan foydalanish masalasi hali yetarli darajada o‘rganilmagan. Aviatsiya sohasida xavfsiz parvozlarni ta’minlash ko‘p jihatdan samarali muloqotga bog‘liq. Shu bois ICAO uchuvchilar va aviadispetcherlardan standart hamda favqulodda vaziyatlarda ingliz tilida aniq va tushunarli muloqot qila olishni talab qiladi. Mazkur talab aviatsiya talabalarining kommunikativ

kompetensiyasini rivojlantirish zaruratini yanada kuchaytiradi. Bundan tashqari, mavjud ilmiy ishlarda chatbotlarning Aviation English ta'limiga integratsiyasi bo'yicha alohida natijalar mavjud bo'lsa-da, ularni kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish nazariyasi bilan uzviy bog'laydigan metodik model, pedagogik shart-sharoitlari ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari sharoitida aviatsiya talabalari kommunikativ kompetensiyasini sun'iy intellekt asosidagi chatbotlar yordamida rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarning deyarli mavjud emasligi ushbu yo'nalishda yangi ilmiy yondashuv ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Mazkur ilmiy bo'shliq tadqiqotning konseptual asosini tashkil etadi hamda uning dolzarbligini belgilaydi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda aviatsiya talabalari kommunikativ kompetensiyasining lingvistik, sotsiolingvistik va strategik komponentlarini sun'iy intellekt asosidagi chatbotlar vositasida kompleks rivojlantirish mexanizmlari yetarli darajada yoritilmagan. Xususan, Aviation English kurslarida chatbotlardan foydalanishning konseptual modeli, metodik tamoyillari, pedagogik shart-sharoitlari hamda ularning ICAO talablariga muvofiqligini baholash mezonlari bo'yicha yagona ilmiy yondashuv mavjud emas. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy noaniqlikni bartaraf etishga qaratilgan. Mazkur tadqiqotda quyidagi vazifalarni hal etish ko'zda tutilgan. Tadqiqot davomida avvalo mavzuga oid ilmiy manbalar o'rganildi. Shundan so'ng aviatsiya ta'limida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari tahlil qilindi. Keyingi bosqichda sun'iy intellekt asosidagi chatbotlarning Aviation English darslarida qo'llanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Olingan natijalar asosida chatbotlardan foydalanishga mo'ljallangan metodik model ishlab chiqildi hamda uning kasbiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni baholandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi aviatsiya talabalari kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda sun'iy intellekt asosidagi chatbotlardan foydalanishga oid yaxlit metodik yondashuvni taklif etishida namoyon bo'ladi. Taklif etilgan yondashuv aviatsiya oliy

ta'lim muassasalarida Aviation English darslarini tashkil etishda chatbotlardan samarali foydalanish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi. Shuningdek, u sun’iy intellekt vositalaridan kasbiy yo‘naltirilgan chet tilini o‘qitishda foydalanish bo‘yicha keyingi tadqiqotlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur masala yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni shartli ravishda bir necha guruhlarga ajratish mumkin.

Xorijiy tadqiqotlarda sun’iy intellekt asosidagi chatbotlarning til ta’limidagi o‘rni turli nuqtai nazardan o‘rganilgan. Tadqiqotlarning asosiy qismi chatbotlarning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, o‘quv jarayonini individuallashtirish hamda generativ sun‘iy intellektning pedagogik imkoniyatlarini baholashga qaratilgan. Bu yo‘nalishda Huang, Hew va Fryer, va hammualliflari hamda Polakova va Klimovaning ishlari alohida e’tiborga loyiq. Huang, Hew va Fryer til ta’limida chatbotlardan foydalanishga oid empirik tadqiqotlarni tahlil qilgan. Mualliflar chatbotlar o‘quvchilarning og‘zaki nutq faolligini oshirishi, chet tilida muloqot qilishga bo‘lgan ishonchini kuchaytirishi va mustaqil ta’limni qo‘llab-quvvatlashini ko‘rsatadi. Shuningdek, chatbotlarning istalgan vaqtda muloqot qilish hamda individual fikr-mulohaza berish imkoniyati ularning muhim afzalliklaridan biri sifatida baholanadi. Biroq mualliflar mavjud tadqiqotlarning aksariyati kichik tanlanmada o‘tkazilganini va chatbotlarning murakkab kommunikativ vaziyatlardagi samaradorligi hali to‘liq isbotlanmaganini ham qayd etadi. Bu esa mazkur yo‘nalishda yanada kengroq empirik tadqiqotlarga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi. Polakova va Klimova chatbotlardan chet tilini o‘qitishda foydalanish samaradorligini pilot tadqiqot asosida baholagan. Natijalar chatbotlardan foydalangan talabalar darslarda faolroq qatnashganini, o‘qishga qiziqishi ortganini va og‘zaki muloqotda o‘ziga bo‘lgan ishonchi kuchayganini ko‘rsatadi. Mualliflar chatbotlarni mustaqil ta’limni tashkil etish hamda muntazam kommunikativ mashqlarni yo‘lga qo‘yishda foydali vosita deb hisoblaydi. Biroq tadqiqot kichik

guruhda o‘tkazilgani sababli natijalarni boshqa ta’lim yo‘nalishlariga umumlashtirishda ehtiyotkorlik zarurligi ta’kidlanadi. Xorijiy olimlarning qarashlari o‘xshash jihatlarga ega. Ularning barchasi chatbotlar kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tan oladi. Farqi shundaki, Huang, Hew va Fryer mavjud tadqiqotlarni tizimli tahlil qilish orqali umumiy xulosalar chiqargan. Polakova va Klimova esa chatbotlarning amaliy samaradorligini tajriba asosida baholagan. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarning aksariyati umumiy yoki akademik ingliz tilini o‘qitishga bag‘ishlangan. Aviatsiya ta'limida, ayniqsa ICAO talablari asosida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda chatbotlardan foydalanish masalasi esa hali kam o‘rganilgan. Shuningdek, Aviation English kurslari uchun maxsus metodik model va uning samaradorligini baholash mezonlari ham yetarlicha ishlab chiqilmagan. Shu sababli ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni davom ettirish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. MDH mamlakatlari olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar sun’iy intellektni chet tillarini o‘qitishda qo‘llash, chatbotlardan foydalanish hamda ularning kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga bag‘ishlangan. Bu borada P.V. Sysoyev, E.M. Filatov va D.O. Sorokinning ishlari e’tiborga loyiq. Sysoyev va Filatov chatbotlardan foydalanish orqali talabalarning xorijiy tilda muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini taklif qiladi. Mualliflar chatbotlar o‘quvchilarga ko‘proq dialoglarda qatnashish, xatolarini mustaqil tahlil qilish va og‘zaki nutqni muntazam mashq qilish imkonini berishini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari bunday yondashuv kommunikativ faollik va nutq ravonligini oshirishini tasdiqlaydi. Biroq chatbotlardan foydalanish o‘qituvchining metodik rahbarligi bilan uyg‘unlashgandagina samarali natija berishi ta’kidlanadi. Bu jihat chatbotlarni mustaqil o‘qituvchi emas, balki o‘quv jarayonini qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida baholash imkonini beradi. Sysoyev, Filatov va Sorokin chatbotlar bo‘yicha mavjud ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirib, ularning rivojlanish yo‘nalishlarini tahlil qiladi. Mualliflar chatbotlar og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish hamda mustaqil ta'limni qo‘llab-quvvatlashda

foydali ekanini ko‘rsatadi. Biroq hozirgacha o‘tkazilgan tadqiqotlarning aksariyati qisqa muddatli tajribalarga asoslanganligi sababli chatbotlarning uzoq muddatli samaradorligi hali yetarli dalillar bilan tasdiqlanmaganini qayd etadi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, MDH olimlarining ishlari asosan umumiy chet tilini o‘qitishga qaratilgan. Aviatsiya ta’limida, ayniqsa ICAO talablari asosida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda chatbotlardan foydalanish masalasi esa deyarli yoritilmagan. Shuningdek, Aviation English uchun metodik model va uni amaliyotda baholash mezonlari ham yetarlicha ishlab chiqilmagan. Shu sababli ushbu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar mavjud ilmiy qarashlarni to‘ldirish bilan birga, aviatsiya ta’limi uchun yangi metodik yechimlarni taklif etishi mumkin.

TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqot aviatsiya talabalarining kommunikativ kompetensiyasini sun’iy intellekt asosidagi chatbotlardan foydalanish orqali rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida aralash metod yondashuvi asosida tashkil etildi. Ushbu yondashuv miqdoriy va sifat ma'lumotlarini birgalikda tahlil qilish orqali tadqiqot natijalarini yanada ishonchli baholash imkonini beradi. Miqdoriy ma’lumotlar chatbotlardan foydalanish samaradorligini statistik jihatdan aniqlashga xizmat qilgan bo‘lsa, sifat ma’lumotlari talabalarning o‘quv jarayoni haqidagi fikr-mulohazalari va tajribalarini chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi.Tadqiqot oldi tadqiqot keyin nazorat guruhli eksperimental dizayn asosida olib borildi. Tajriba boshlanishidan oldin har ikki guruhning kommunikativ kompetensiyasi dastlabki baholash orqali aniqlandi. Shundan so‘ng tajriba guruhi bilan Aviation English mashg‘ulotlarida sun‘iy intellekt asosidagi chatbotlardan muntazam foydalanildi, nazorat guruhi esa an’anaviy o‘qitish usullari asosida ta’limni davom ettirdi. Tajriba yakunida ikkala guruhda ham yakuniy baholash o‘tkazilib, olingan natijalar o‘zaro taqqoslandi.

Tadqiqotda jami 20 nafar aviatsiya talabasi ishtirok etdi. Ishtirokchilar maqsadli tanlash usuli asosida tanlandi. Respondentlarning 10 nafari tajriba guruhiga, 10 nafari

esa nazorat guruhiga ajratildi. Tadqiqotda Aviation English fanini o‘rganayotgan 2–3-bosqich talabalari ishtirok etdi. Guruhlarni shakllantirishda talabalarning ingliz tilini bilish darajasi va o‘quv tayyorgarligi o‘xshash bo‘lishiga e’tibor qaratildi. Tadqiqotda qatnashish ixtiyoriy bo‘lib, barcha ishtirokchilardan oldindan rozilik olindi.

Jadval 1. Tadqiqot ishtirokchilari

Respondentlar guruhi	Soni	Ta'lim yo'nalishi	Kurs	O'qitish usuli
Tajriba guruhi	10	Aviatsiya	2–3	AI chatbotlardan foydalanildi
Nazorat guruhi	10	Aviatsiya	2–3	An’anaviy ta’lim
Jami	20	Aviatsiya	2-3	An’anaviy Ta’lim

Ma’lumotlar bir nechta usullar yordamida yig‘ildi. Tadqiqot boshida va oxirida kommunikativ kompetensiyani aniqlash uchun pre-test va post-test o‘tkazildi. Bundan tashqari, talabalarning chatbotlardan foydalanishga munosabati, o‘quv motivatsiyasi hamda o‘zini baholashi haqida ma'lumot olish maqsadida 5 ballik Likert shkalasi asosidagi so‘rovnoma qo‘llanildi. Tajriba davomida mashg‘ulotlar kuzatildi hamda ayrim talabalar bilan yarim tuzilgan intervyular o‘tkazildi. Bu usullar chatbotlardan foydalanish jarayonida yuz bergan o‘zgarishlarni batafsil tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqotda kommunikativ kompetensiyani baholash testi, so‘rovnoma, kuzatuv varaqasi va yarim tuzilgan intervyu savollaridan foydalanildi. Tajriba guruhi mashg‘ulotlarida ChatGPT va shunga o‘xshash sun’iy intellekt asosidagi chatbotlar dialoglar tuzish, kasbiy vaziyatlarni modellashtirish hamda tezkor fikr-mulohaza olish vositasi sifatida qo‘llanildi. Tadqiqotning mustaqil o‘zgaruvchisi sifatida sun’iy intellekt asosidagi chatbotlardan foydalanish belgilandi. Bog‘liq o‘zgaruvchi esa aviatsiya

talabalarining kommunikativ kompetensiyasi bo‘lib, u og‘zaki muloqot olib borish, kasbiy terminlardan foydalanish, nutq ravonligi, grammatik aniqlik hamda muloqotdagi ishonch ko‘rsatkichlari orqali baholandi. So‘rovnomaning ichki ishonchliligini aniqlash uchun Cronbach's Alpha ko‘rsatkichi hisoblandi. Tahlil natijasida $\alpha = 0{,}84$ qiymati olindi. Mazkur natija so‘rovnoma bandlari o‘rtasida yetarli darajada ichki moslik mavjudligini va instrumentdan tadqiqot maqsadlarida foydalanish mumkinligini ko‘rsatdi. Mazmuniy validlikni ta’minlash maqsadida tadqiqot instrumentlari Aviation English hamda chet tillarini o‘qitish metodikasi bo‘yicha mutaxassislar tomonidan ko‘rib chiqildi. Mutaxassislarning tavsiyalari asosida ayrim savollar aniqlashtirildi va yakuniy variant shakllantirildi. Bu jarayon instrumentning tadqiqot maqsadiga mosligini ta’minlashga xizmat qildi. Yig‘ilgan ma'lumotlar IBM SPSS Statistics 29 dasturida qayta ishlandi. Dastlab tavsifiy statistika yordamida o‘rtacha qiymatlar, standart og‘ish va foiz ko‘rsatkichlari hisoblandi. xulosalar chiqarildi.

NATIJALAR

O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari sun’iy intellekt asosidagi chatbotlardan foydalanish aviatsiya talabalarining kommunikativ kompetensiyasiga qanday ta'sir ko‘rsatishini baholash imkonini berdi. Tadqiqotda jami 20 nafar talaba ishtirok etdi. Ulardan 10 nafari tajriba guruhi, 10 nafari nazorat guruhi tarkibiga kiritildi. Har ikkala guruhda tadqiqot boshida boshlang‘ich baholash, tajriba yakunida esa yakuniy baholash o‘tkazildi. Boshlang‘ich baholash natijalari tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasida sezilarli farq mavjud emasligini ko‘rsatdi. Tajriba guruhining o‘rtacha ko‘rsatkichi 52%, nazorat guruhiniki esa 54% ni tashkil etdi. Bu ikki guruhning tajriba boshlanishidan oldin deyarli bir xil tayyorgarlik darajasiga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Tajriba davomida tajriba guruhi talabalari Aviation English mashg‘ulotlarida sun’iy intellekt asosidagi chatbotlardan foydalandi. Chatbotlar yordamida dialoglar yaratish, kasbiy vaziyatlarni modellashtirish, tezkor fikr-mulohaza olish va mustaqil mashqlar bajarish imkoniyati yaratildi. Nazorat guruhi esa odatdagi o‘qitish usullari asosida ta'limni davom ettirdi.

Yakuniy baholash natijalari guruhlar o‘rtasida sezilarli farq yuzaga kelganini ko‘rsatdi. Tajriba guruhi ko‘rsatkichi 84% ga yetgan bo‘lsa, nazorat guruhi 61% natijani qayd etdi. Shunday qilib, tajriba guruhida o‘zlashtirish darajasi 32 foiz punktga, nazorat guruhida esa 7 foiz punktga oshgani aniqlandi.



1-rasmda tajriba va nazorat guruhlarining boshlang‘ich hamda yakuniy natijalari taqqoslangan

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, tajriba boshlanishida har ikki guruhning ko‘rsatkichlari bir-biriga yaqin bo‘lgan (52% va 54%). Tajriba yakunida esa tajriba guruhi 84% natijaga erishgan bo‘lsa, nazorat guruhi 61% ko‘rsatkichni qayd etdi. Natijada tajriba guruhida 32 foiz punkt, nazorat guruhida esa 7 foiz punkt o‘sish kuzatildi. Ushbu natijalar chatbotlardan foydalanish kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda ijobiy ta'sir ko‘rsatganini tasdiqlaydi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar sun‘iy intellekt asosidagi chatbotlardan maqsadli va metodik asosda foydalanish aviatsiya talabalarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Tadqiqot gipotezasi tajriba natijalari bilan qo‘llab-quvvatlanadi.

Olingan natijalar sun'iy intellekt asosidagi chatbotlardan foydalanish aviatsiya talabalarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga ijobiy ta'sir qilganini ko'rsatdi. Tajriba guruhi yakuniy baholashda 84% natijaga erishgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 61% ni tashkil etdi. Tajriba boshida ikkala guruhning boshlang'ich darajasi deyarli bir xil bo'lganligi sababli, yakunda kuzatilgan farq chatbotlardan foydalanish bilan bog'liq ekanini ko'rish mumkin. Ayniqsa, talabalarning ingliz tilida erkinroq muloqot qilishi, kasbiy terminlardan foydalanishi va javoblarni tezroq shakllantira olishi sezildi.

Bu natijalar Huang, Hew va Fryer (2022) xulosalari bilan mos keladi. Mualliflar chatbotlar talabalarga ko'proq muloqot qilish imkonini yaratishi, mustaqil ishlashni rag'batlantirishi va kommunikativ faollikni oshirishini qayd etgan. Bizning kuzatuvlarimiz ham shunga yaqin natijalarni ko'rsatdi. Aviation English darslarida chatbotlardan foydalanish talabalar uchun qo'shimcha mashq maydonini yaratdi va ular darsdan tashqari vaqtda ham ingliz tilida ishlashni davom ettirdi. Shu bilan birga, tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Tajribada atigi 20 nafar talaba ishtirok etdi va kuzatuv qisqa muddat davom etdi. Bundan tashqari, tadqiqot faqat bitta oliy ta'lim muassasasida o'tkazildi. Shu sababli olingan natijalarni barcha aviatsiya talabalari uchun umumlashtirishda ehtiyotkorlik zarur. Kelgusida ko'proq respondentlar ishtirokida va uzoqroq muddat davom etadigan tadqiqotlar o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umuman olganda, chatbotlardan o'quv jarayonida to'g'ri va reja asosida foydalanish Aviation English darslarini yanada interaktiv tashkil etishga yordam beradi. Ayniqsa, kasbiy dialoglarni mashq qilish, muntazam fikr-mulohaza olish va mustaqil ishlash imkoniyatlari aviatsiya talabalarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda foydali vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

XULOSA

Tadqiqot davomida sun'iy intellekt asosidagi chatbotlardan foydalanish aviatsiya talabalarining kommunikativ kompetensiyasiga qanday ta'sir ko'rsatishi o'rganildi.

Olingan natijalar chatbotlardan maqsadli foydalanish talabalarning kasbiy ingliz tilida muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berishini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalari sun‘iy intellekt texnologiyalarini Aviation English faniga integratsiya qilish bo‘yicha mavjud ilmiy qarashlarni to‘ldiradi. Amaliy jihatdan esa chatbotlardan auditoriya mashg‘ulotlari va mustaqil ta'limda foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo‘la oladi.

Shu bilan birga, respondentlar sonining kamligi va tajriba muddatining qisqaligi tadqiqotning ayrim cheklovlari hisoblanadi. Kelgusida ko‘proq ishtirokchilarni qamrab olgan hamda turli chatbot platformalarini taqqoslaydigan tadqiqotlar ushbu yo‘nalish bo‘yicha yanada ishonchli xulosalar chiqarishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Kasneci, E., Sessler, K., Küchemann, S., Bannert, M., Dementieva, D., Fischer, F., Gasser, U., Groh, G., Günnemann, S., Hüllermeier, E., Krusche, S., Kutyniok, G., Michaeli, T., Nerdel, C., Pfeiffer, F., Poquet, O., Sailer, M., Schmidt, A., Seidel, T., & Kasneci, G. (2023). ChatGPT for good? On opportunities and challenges of large language models for education. Learning and Individual Differences, 103, 102274. https://doi.org/10.1016/j.lindif.2023.102274

2.Poláková, P., & Klímová, B. (2024). Implementation of AI-driven technology into education: A pilot study on the use of chatbots in foreign language learning. Cogent Education, 11(1), 2355385. https://doi.org/10.1080/2331186X.2024.2355385

3. Huang, X., Hew, K. F., & Fryer, L. K. (2022). Chatbots for language learning: A systematic review. Education and Information Technologies, 27(9), 12505–12542. https://doi.org/10.1007/s10639-022-10984-5

4.Poláková, P., & Klímová, B. (2024). *Exploring the potential of AI chatbots in foreign language education: A pilot study*. **Education Sciences, 14**(2), 196. https://doi.org/10.3390/educsci14020196

5.Sysoyev, P. V., & Filatov, E. M. (2023). *Chatbots in teaching a foreign language: Advantages and controversial issues.* **Tambov University Review. Series: Humanities, 28**(1), 66–72. https://doi.org/10.20310/1810-0201-2023-28-1-66-72

6.Filatov, E. M., & Sysoyev, P. V. (2024). Generative Artificial Intelligence in Foreign Language Education: Opportunities and Challenges. Foreign Languages at School, (1), 18–31.

UDK: 378.091.12:37.013.83:005.336.2

KORPORATIV OLIY TA'LIM SHAROITIDA RAHBAR-KADRLARNING SOFT-KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ANDRAGOGIK MEXANIZMLARI

Axrorova Umida Xamidullayevna
University of Business and Science dotsenti
Email:umiaxrorhamid@gmail.com
Tel:(94) *309 08 08*
ORCID:0009-0008-9086-4879

Annotatsiya: *mazkur maqolada korporativ oliy ta'lim sharoitida rahbar-kadrlarning soft-kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi andragogik mexanizmlar ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Rahbarlarning kommunikativlik, liderlik, jamoada ishlash, nizolarni boshqarish, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish, emotsional intellekt va o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini takomillashtirish imkoniyatlari yoritilgan. Kattalar ta'limining mustaqillik, tajribaga tayanish, amaliy yo'naltirilganlik va refleksivlik tamoyillari asosida mentorlik, kouching, keys-stadi, interfaol trening hamda loyiha asosida o'qitishning samaradorligi asoslangan. Shuningdek, soft-kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonining tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari va natijadorligini baholash mezonlari belgilangan.*

Kalit so'zlar: *korporativ oliy ta'lim, rahbar-kadrlar, soft-kompetensiyalar, andragogik yondashuv, liderlik, kommunikativ kompetensiya, emotsional intellekt, mentorlik, kouching, refleksiya, kasbiy rivojlanish.*

АНДРАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ГИБКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ В УСЛОВИЯХ КОРПОРАТИВНОГО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *в статье с научно-педагогической точки зрения проанализированы андрагогические механизмы, способствующие развитию гибких компетенций руководящих кадров в условиях корпоративного высшего образования. Раскрыты возможности совершенствования у руководителей таких компетенций, как коммуникабельность, лидерство, командная работа, управление конфликтами, принятие решений в проблемных ситуациях, эмоциональный интеллект и саморазвитие. Обоснована эффективность менторства, коучинга, метода кейсов, интерактивных тренингов и проектного обучения, основанных на принципах самостоятельности, опоры на опыт, практической направленности и рефлексивности обучения взрослых. Также определены организационно-педагогические условия и критерии оценки результативности процесса развития гибких компетенций.*

Ключевые слова: *корпоративное высшее образование, руководящие кадры, гибкие компетенции, андрагогический подход, лидерство, коммуникативная компетентность, эмоциональный интеллект, менторство, коучинг, рефлексия, профессиональное развитие.*

ANDRAGOGICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING THE SOFT COMPETENCIES OF MANAGERIAL PERSONNEL IN CORPORATE HIGHER EDUCATION

Abstract: *this article provides a scientific and pedagogical analysis of the andragogical mechanisms that facilitate the development of managerial personnel's soft competencies in corporate higher education. It explores opportunities for enhancing managers' communication, leadership, teamwork, conflict management, problem-solving and decision-making, emotional intelligence, and self-development competencies. The effectiveness of mentoring, coaching, case studies, interactive training, and project-based learning is substantiated based on the adult-learning principles of autonomy, experiential learning, practical orientation, and reflection. The article also identifies the organizational and pedagogical conditions and criteria for evaluating the effectiveness of soft competency development.*

Keywords: *corporate higher education, managerial personnel, soft competencies, andragogical approach, leadership, communicative competence, emotional intelligence, mentoring, coaching, reflection, professional development.*

KIRISH

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligi rahbar-kadrlarning nafaqat kasbiy bilim va ma'muriy tajribasiga, balki insonlar bilan samarali muloqot qilish, jamoani boshqarish, nizolarni konstruktiv hal etish, o'zgarishlarga moslashish hamda murakkab vaziyatlarda asoslangan qaror qabul qilish qobiliyatiga ham bog'liq. Shu sababli kommunikativlik, liderlik, jamoaviy hamkorlik, tanqidiy fikrlash, emotsional intellekt, kreativlik va moslashuvchanlik kabi soft-kompetensiyalar rahbarning kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biriga aylanmoqda (1).

Korporativ oliy ta'lim muhitida boshqaruv jarayonlarining murakkablashuvi, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi, ta'lim xizmatlari bozoridagi raqobat va manfaatdor tomonlar talablarining ortishi rahbar-kadrlardan yangi boshqaruv kompetensiyalarini talab qilmoqda. Bunday sharoitda an'anaviy malaka oshirish shakllari rahbarlarning individual tajribasi, kasbiy ehtiyojlari va boshqaruv faoliyatida

yuzaga keladigan real muammolarni har doim ham to‘liq qamrab olmaydi. Natijada rahbar-kadrlarni rivojlantirish jarayoniga kattalar ta’limining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi andragogik yondashuvni tatbiq etish zarurati yuzaga keladi (2).

Andragogik yondashuv katta yoshdagi ta’lim oluvchining mustaqilligi, to‘plangan kasbiy va hayotiy tajribasi, muammoni hal etishga yo‘naltirilganligi, ta’lim mazmunini amaliy faoliyat bilan bog‘lash ehtiyoji hamda ichki motivatsiyasiga asoslanadi. M. Knowles tomonidan ishlab chiqilgan andragogik konsepsiyaga ko‘ra, kattalar o‘z kasbiy faoliyatida bevosita qo‘llashi mumkin bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni egallashga yuqori darajada motivatsiyalangan bo‘ladi (3). Shuning uchun rahbar-kadrlarning soft-kompetensiyalarini rivojlantirishda interfaol trening, keys-stadi, kouching, mentorlik, loyiha asosida o‘qitish, refleksiv tahlil va tajriba almashish kabi faol metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Soft-kompetensiyalar o‘zaro bog‘langan kognitiv, kommunikativ, emotsional-irodaviy va ijtimoiy xususiyatlar majmuasi bo‘lib, rahbarning jamoa bilan munosabatlarini samarali tashkil etishi, xodimlarni umumiy maqsad sari yo‘naltirishi va o‘zgaruvchan vaziyatlarda maqbul boshqaruv qarorlarini qabul qilishini ta’minlaydi (4). Mazkur kompetensiyalar qisqa muddatli nazariy mashg‘ulotlar orqali emas, balki muntazam amaliy faoliyat, ijtimoiy hamkorlik, o‘z tajribasini refleksiv baholash va konstruktiv qayta aloqa asosida rivojlanadi. Shu jihatdan andragogik mexanizmlar rahbar-kadrlarning mavjud tajribasini ta’lim resursiga aylantirish, individual rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash va o‘rganilgan bilimlarni boshqaruv amaliyotiga tatbiq etishga imkon beradi (5).

Ilmiy adabiyotlarda kattalar ta’limi, boshqaruv kompetensiyalari, liderlik va soft skillsni rivojlantirish masalalari alohida yo‘nalishlarda keng o‘rganilgan. Biroq korporativ oliy ta’limning institutsional xususiyatlarini hisobga olgan holda rahbar-kadrlar soft-kompetensiyalarini rivojlantirishning andragogik mexanizmlari yetarlicha tizimlashtirilmagan. Xususan, ta’lim mazmunini rahbarlarning kasbiy ehtiyojlariga moslashtirish, tajribaga asoslangan o‘qitishni tashkil etish, individual rivojlanish

yo‘nalishlarini belgilash hamda natijalarni diagnostika qilish bilan bog‘liq metodik masalalar qo‘shimcha tadqiqotlarni talab etadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi korporativ oliy ta’lim sharoitida rahbar-kadrlarning soft-kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi andragogik mexanizmlarni aniqlash va ularni samarali amalga oshirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga muvofiq rahbar-kadrlar faoliyatida zarur bo‘lgan soft-kompetensiyalar tarkibini aniqlash, ularni rivojlantirishga yo‘naltirilgan andragogik tamoyil va metodlarni tizimlashtirish, rivojlanish jarayonining mezon va ko‘rsatkichlarini belgilash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish nazarda tutiladi. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati rahbar-kadrlarning soft-kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoniga andragogik, kompetensiyaviy va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlarning o‘zaro integratsiyasi asosida qaralishi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari korporativ oliy ta’lim muassasalarida rahbar-kadrlarni qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish va uzluksiz kasbiy rivojlanish dasturlarini takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Rahbar-kadrlarning soft-kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi pedagogika, andragogika, boshqaruv psixologiyasi va inson resurslarini rivojlantirish yo‘nalishlarining kesishgan nuqtasida shakllangan kompleks ilmiy muammo hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda soft-kompetensiyalar shaxsning kasbiy bilimlarini amaliy faoliyatda samarali qo‘llashini ta’minlovchi kommunikativ, ijtimoiy, emotsional va boshqaruvga oid qobiliyatlar majmuasi sifatida talqin qilinadi (6). Ushbu kompetensiyalar rahbarning jamoa bilan o‘zaro munosabatlarini tashkil etish, xodimlarni rag‘batlantirish, nizolarni boshqarish va o‘zgaruvchan sharoitlarda samarali qaror qabul qilishida muhim o‘rin tutadi. D. Goleman tadqiqotlarida rahbarlik samaradorligining muhim omillaridan biri sifatida emotsional intellekt ko‘rsatiladi. Muallifning fikricha, o‘z hissiyotlarini anglash va boshqarish, empatiya, ijtimoiy faollik hamda boshqalarning emotsional holatini tushunish rahbarning jamoaga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlarini

kengaytiradi (7). Emotsional intellektning rivojlanganligi rahbar-kadrlarga murakkab boshqaruv vaziyatlarida vazminlikni saqlash, xodimlar bilan ishonchli munosabat o‘rnatish va konstruktiv muloqotni ta’minlash imkonini beradi. R. Boyatzis kompetensiyaga asoslangan yondashuv doirasida rahbar faoliyatining samaradorligini ta’minlovchi individual xususiyatlar, motivlar, qadriyatlar va xulq-atvor ko‘rsatkichlarini o‘rgangan. Uning tadqiqotlarida kompetensiyalarni rivojlantirish faqat bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmasligi, balki shaxsning o‘z xatti-harakatlarini anglash, baholash va takomillashtirish jarayonini ham qamrab olishi ta’kidlangan (8). Mazkur yondashuv rahbar-kadrlarning individual rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Kattalar ta’limining nazariy asoslari M. Knowles tomonidan tizimlashtirilgan bo‘lib, unda katta yoshdagi ta’lim oluvchining mustaqilligi, hayotiy va kasbiy tajribasi, ta’lim olishga tayyorligi, muammolarni hal etishga yo‘naltirilganligi hamda ichki motivatsiyasi asosiy andragogik tamoyillar sifatida belgilangan (9). Ushbu tamoyillarga ko‘ra, rahbar-kadrlar ta’lim jarayonining passiv ishtirokchisi emas, balki o‘z ehtiyojlarini anglaydigan, maqsadlarini belgilaydigan va egallangan bilimlarni boshqaruv amaliyotiga tatbiq etadigan faol subyekt hisoblanadi. D. Kolbning tajribaga asoslangan ta’lim konsepsiyasida o‘rganish jarayoni aniq tajriba, refleksiv kuzatish, nazariy umumlashtirish va faol tajriba bosqichlarining uzluksiz almashinuvi sifatida tushuntiriladi (10). Mazkur model rahbar-kadrlarning soft-kompetensiyalarini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Chunki kommunikativlik, jamoada ishlash, nizolarni boshqarish va qaror qabul qilish kabi kompetensiyalar real yoki modellashtirilgan boshqaruv vaziyatlarida faol ishtirok etish orqali samarali shakllanadi. J. Mezirowning transformativ ta’lim nazariyasida katta yoshdagi shaxsning mavjud qarashlari va kasbiy tajribasini tanqidiy tahlil qilishi natijasida yangi fikrlash modeli shakllanishi asoslangan (11). Refleksiv tahlil rahbarning boshqaruv uslubini qayta ko‘rib chiqishi, faoliyatidagi kuchli va zaif jihatlarni aniqlashi hamda yangi xulq-atvor

strategiyalarini egallashiga yordam beradi. Shu sababli refleksiya rahbar-kadrlar soft-kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim andragogik mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi.

Ilmiy manbalar tahlili mentorlik, kouching, interfaol trening, keys-stadi, ishbilarmonlik o‘yinlari va loyiha asosida o‘qitish kattalar auditoriyasida samarali natija berishini ko‘rsatadi (12). Mentorlik tajribali mutaxassisning kasbiy ko‘magi orqali rahbarning individual rivojlanishini ta’minlasa, kouching uning ichki imkoniyatlarini aniqlash, mustaqil maqsad belgilash va natijaga erishishiga ko‘maklashadi. Keys-stadi va ishbilarmonlik o‘yinlari esa murakkab boshqaruv vaziyatlarini tahlil qilish, muqobil yechimlarni ishlab chiqish va qarorlarning ehtimoliy natijalarini baholash imkonini beradi. Mavjud ilmiy tadqiqotlarda soft-kompetensiyalarning mazmuni va tarkibi keng yoritilgan bo‘lsa-da, ularni korporativ oliy ta’lim muhitida rahbar-kadrlarning ehtiyojlariga muvofiq rivojlantirish mexanizmlari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ayniqsa, andragogik tamoyillar, tajribaga asoslangan ta’lim, individual rivojlanish trayektoriyasi, refleksiv faoliyat va natijalarni baholash mexanizmlarini yagona pedagogik jarayonga integratsiyalash masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Mazkur holat tadqiqotning ilmiy yo‘nalishi va metodlarini belgilashga asos bo‘ldi.

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqotda korporativ oliy ta’lim sharoitida rahbar-kadrlarning soft-kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini o‘rganish uchun nazariy va empirik metodlar majmuasidan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasini andragogik, kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatga yo‘naltirilgan va refleksiv yondashuvlar tashkil etdi. Nazariy bosqichda andragogika, ta’lim menejmenti, boshqaruv psixologiyasi, liderlik va soft-kompetensiyalarni rivojlantirishga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil orqali mavjud yondashuvlarning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi. Tizimlashtirish hamda umumlashtirish metodlari yordamida rahbar-kadrlar uchun muhim bo‘lgan soft-kompetensiyalarning tarkibi belgilandi.

Empirik tadqiqot doirasida quyidagi metodlardan foydalanish nazarda tutildi:

- rahbar-kadrlarning soft-kompetensiyalarga bo‘lgan ehtiyojlarini aniqlashga qaratilgan so‘rovnoma;
- kommunikativlik, liderlik, jamoaviy hamkorlik, emotsional intellekt va refleksivlik darajasini baholash uchun diagnostik testlar;
- rahbarlarning boshqaruv faoliyati va trening jarayonidagi ishtirokini o‘rganishga yo‘naltirilgan pedagogik kuzatuv;
- boshqaruv muammolari va kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash uchun yarim tuzilmaviy suhbat;
- rahbarlarning amaliy vaziyatlardagi xulq-atvorini baholashga qaratilgan keys-topshiriqlar;
- o‘zini o‘zi baholash, ekspert baholashi va “360 daraja” qayta aloqa metodi.

Soft-kompetensiyalarni rivojlantirish darajasini aniqlashda motivatsion-qadriyatli, kognitiv, kommunikativ-faoliyatli va refleksiv-baholash mezonlaridan foydalanildi. Har bir mezon bo‘yicha tegishli ko‘rsatkichlar belgilandi va natijalar yuqori, o‘rta hamda past darajalarda baholandi. Tadqiqot jarayonida mentorlik, kouching, interfaol trening, muammoli vaziyatlarni modellashtirish, keys-stadi, loyiha asosida o‘qitish va refleksiv muhokama kabi andragogik metodlardan foydalanish ko‘zda tutildi. Mazkur metodlar rahbar-kadrlarning mavjud kasbiy tajribasini faollashtirish, mustaqil qaror qabul qilishini qo‘llab-quvvatlash va egallangan ko‘nikmalarni bevosita boshqaruv faoliyatiga tatbiq etishga yo‘naltirildi. Olingan ma’lumotlarni qayta ishlashda miqdoriy va sifat tahlili, foiz ko‘rsatkichlarini aniqlash, natijalarni taqqoslash, umumlashtirish hamda ekspert xulosalarini tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Ushbu metodlar majmuasi rahbar-kadrlarning soft-kompetensiyalarida yuz bergan o‘zgarishlarni aniqlash va qo‘llanilgan andragogik mexanizmlarning samaradorligini baholash imkonini berdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Tadqiqot natijalari korporativ oliy ta'lim sharoitida rahbar-kadrlarning soft-kompetensiyalarini rivojlantirish uzluksiz, amaliy faoliyatga yo'naltirilgan va individual ehtiyojlarni hisobga oluvchi jarayon sifatida tashkil etilishi zarurligini ko'rsatdi. Nazariy manbalar, diagnostik yondashuvlar va boshqaruv faoliyatiga qo'yiladigan zamonaviy talablarni umumlashtirish asosida rahbar-kadrlar uchun ustuvor soft-kompetensiyalar tarkibi aniqlandi.

Ular quyidagi o'zaro bog'langan komponentlarni qamrab oladi:

- samarali muloqot va faol tinglash;
- liderlik va jamoani maqsad sari yo'naltirish;
- jamoaviy hamkorlikni tashkil etish;
- nizolarni konstruktiv boshqarish;
- muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish;
- tanqidiy va kreativ fikrlash;
- emotsional intellekt va empatiya;
- o'zgarishlarga moslashuvchanlik;
- vaqt va shaxsiy resurslarni boshqarish;
- refleksiya va uzluksiz o'zini rivojlantirish.

Mazkur kompetensiyalar alohida ko'nikmalar yig'indisi emas, balki rahbarning kasbiy faoliyatida o'zaro uyg'un namoyon bo'ladigan yaxlit kompetensiyaviy tuzilma hisoblanadi. Jumladan, samarali qaror qabul qilish tanqidiy fikrlash, emotsional barqarorlik, muloqot va mas'uliyat bilan bevosita bog'liq. Liderlik esa jamoani boshqarish, xodimlarni rag'batlantirish, empatiya va nizolarni hal etish ko'nikmalarining integratsiyasini talab qiladi (13). Tahlil natijasida rahbar-kadrlarning soft-kompetensiyalarini rivojlantiruvchi andragogik mexanizmlar to'rtta asosiy guruhga ajratildi: motivatsion-maqsadli, mazmuniy-faoliyatli, refleksiv-rivojlantiruvchi va diagnostik-baholovchi mexanizmlar. Motivatsion-maqsadli mexanizm rahbarning kasbiy rivojlanishga bo'lgan ichki ehtiyojini shakllantirish, individual ta'lim

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

maqsadlarini belgilash va o‘z kompetensiyalarini takomillashtirishga tayyorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Katta yoshdagi ta’lim oluvchi o‘rganilayotgan bilim va ko‘nikmalarning amaliy ahamiyatini anglaganida ta’lim jarayonidagi faolligi ortadi (14). Shu sababli dastlabki diagnostika asosida rahbarning mavjud kompetensiyalari, kasbiy ehtiyojlari va rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash muhim hisoblanadi. Mazmuniy-faoliyatli mexanizm ta’lim mazmunini real boshqaruv vaziyatlari bilan bog‘lashni nazarda tutadi. Keys-stadi, ishbilarmonlik o‘yinlari, loyiha topshiriqlari, muammoli vaziyatlarni modellashtirish va guruhli munozaralar rahbar-kadrlarga nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda sinab ko‘rish imkonini beradi. Mazkur metodlar orqali ishtirokchilar vaziyatni tahlil qilish, muqobil yechimlarni ishlab chiqish, jamoaviy qaror qabul qilish va o‘z pozitsiyasini asoslash tajribasini egallaydi. Bu esa tajribaga asoslangan ta’lim siklining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi (15). Refleksiv-rivojlantiruvchi mexanizm rahbarning o‘z boshqaruv faoliyati, xulq-atvori va qabul qilgan qarorlarini tanqidiy baholashiga yo‘naltiriladi. Refleksiv kundalik, individual rivojlanish xaritasi, guruhli tahlil, mentorlik suhbati va kouching sessiyalari rahbarning kuchli hamda rivojlantirilishi zarur bo‘lgan jihatlarini aniqlashga yordam beradi. Refleksiya natijasida rahbar mavjud tajribani qayta anglaydi va kelgusi faoliyat uchun yangi xulq-atvor strategiyalarini shakllantiradi (16). Diagnostik-baholovchi mexanizm rivojlanish jarayonidagi o‘zgarishlarni muntazam aniqlash va individual ta’lim trayektoriyasini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Bunda o‘zini o‘zi baholash, ekspert baholashi, kuzatuv, kompetensiyaviy topshiriqlar va “360 daraja” qayta aloqa usulini uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq. Bir nechta baholash manbalaridan foydalanish rahbarning o‘z faoliyatiga bergan bahosi bilan jamoa a’zolari va ekspertlarning baholarini taqqoslash imkonini yaratadi (17).

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, rahbar-kadrlarning soft-kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi quyidagi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarga bog‘liq:

1. ta’lim mazmunining rahbarlarning real kasbiy ehtiyojlariga moslashtirilishi;

2. ta'lim jarayonida rahbarning mavjud tajribasidan asosiy o'quv resursi sifatida foydalanilishi;

3. nazariy bilimlarning amaliy boshqaruv vaziyatlari bilan integratsiyalashuvi;

4. individual va jamoaviy ta'lim shakllarining uyg'unlashtirilishi;

5. psixologik jihatdan xavfsiz va ochiq muloqot muhitining yaratilishi;

6. mentorlik, kouching va konstruktiv qayta aloqaning tizimli yo'lga qo'yilishi;

7. natijalarning muntazam diagnostikasi va individual rivojlanish trayektoriyasining monitoring qilinishi;

8. korporativ boshqaruv tomonidan uzluksiz kasbiy rivojlanishning qo'llab-quvvatlanishi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy ma'ruza va seminarlar rahbar-kadrlarning bilim doirasini kengaytirishi mumkin, biroq soft-kompetensiyalarning barqaror rivojlanishi uchun yetarli emas. Chunki bunday kompetensiyalar amaliy harakat, ijtimoiy muloqot, tajriba almashish, qayta aloqa va refleksiya jarayonida shakllanadi. Shuning uchun korporativ ta'lim dasturlarida nazariy mashg'ulotlardan ko'ra faol, muammoli va tajribaga asoslangan metodlarning ulushi yuqori bo'lishi lozim. Mentorlik va kouching mexanizmlari o'zaro yaqin bo'lsa-da, ularning funksional vazifalari farqlanadi. Mentor o'zining kasbiy tajribasi asosida rahbarga yo'l-yo'riq va tavsiyalar beradi. Kouch esa tayyor yechimni taklif qilmaydi, balki maqsadli savollar yordamida ishtirokchining muammoni mustaqil anglashiga va individual yechim ishlab chiqishiga ko'maklashadi. Ularning birgalikda qo'llanishi tajriba uzatish va mustaqil rivojlanish imkoniyatlarini uyg'unlashtiradi (18).

Tadqiqot doirasida rahbar-kadrlar soft-kompetensiyalarini rivojlantirishning quyidagi bosqichli modeli asoslandi:

diagnostika → individual maqsadni belgilash → faol andragogik ta'lim → amaliyotda qo'llash → refleksiya va qayta aloqa → natijalarni baholash → rivojlanish trayektoriyasini yangilash.

Taklif etilgan model chiziqli emas, balki siklik xususiyatga ega. Yakuniy baholash natijalari yangi kasbiy ehtiyojlarni aniqlash va navbatdagi rivojlanish maqsadlarini belgilash uchun asos bo‘ladi. Shu tariqa soft-kompetensiyalarni rivojlantirish bir martalik malaka oshirish tadbiri sifatida emas, balki rahbarning uzluksiz kasbiy va shaxsiy rivojlanish jarayoni sifatida tashkil etiladi. Umuman olganda, olingan natijalar andragogik yondashuv korporativ oliy ta’limda rahbar-kadrlarning tajribasi, mustaqilligi va kasbiy ehtiyojlarini ta’lim jarayonining markaziga olib chiqishini ko‘rsatadi. Ushbu yondashuvga asoslangan mexanizmlar rahbarlarning kommunikativligi, liderlik salohiyati, emotsional barqarorligi, jamoaviy hamkorligi va refleksiv faoliyatini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada rahbarning individual boshqaruv samaradorligi bilan bir qatorda, oliy ta’lim tashkilotida hamkorlik, ishonch va uzluksiz rivojlanishga asoslangan korporativ madaniyatning mustahkamlanishiga erishiladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari korporativ oliy ta’lim sharoitida rahbar-kadrlarning boshqaruv samaradorligi ularning kasbiy bilimlari bilan bir qatorda kommunikativlik, liderlik, jamoaviy hamkorlik, nizolarni boshqarish, tanqidiy fikrlash, emotsional intellekt, moslashuvchanlik va refleksivlik kabi soft-kompetensiyalarining rivojlanganlik darajasiga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi.

Rahbar-kadrlarning soft-kompetensiyalarini rivojlantirishda andragogik yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv rahbarning mavjud kasbiy va hayotiy tajribasidan ta’lim resursi sifatida foydalanish, uning individual ehtiyojlarini aniqlash, mustaqil ta’lim olish faolligini qo‘llab-quvvatlash hamda o‘rganilgan bilim va ko‘nikmalarni real boshqaruv faoliyatiga tatbiq etish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida soft-kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi motivatsion-maqsadli, mazmuniy-faoliyatli, refleksiv-rivojlantiruvchi va diagnostik-baholovchi andragogik mexanizmlar tizimlashtirildi. Mentorlik, kouching, keys-stadi,

interfaol trening, loyiha asosida o‘qitish, muammoli vaziyatlarni modellashtirish va refleksiv tahlil ushbu mexanizmlarni amalga oshirishning samarali metodlari sifatida belgilandi.

Rahbar-kadrlarning soft-kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni dastlabki diagnostika, individual maqsadlarni belgilash, faol andragogik ta’lim, bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llash, refleksiya, qayta aloqa hamda natijalarni baholash bosqichlarining uzviy birligi asosida tashkil etilishi lozim. Mazkur jarayon bir martalik malaka oshirish tadbiri bilan cheklanmasdan, uzluksiz va siklik xususiyatga ega bo‘lishi zarur.

Shuningdek, ta’lim mazmunining rahbarlarning real kasbiy ehtiyojlariga mosligi, nazariya va amaliyot integratsiyasi, ochiq muloqot hamda psixologik xavfsizlik muhitining mavjudligi, mentorlik va kouching tizimining yo‘lga qo‘yilishi, muntazam diagnostika va korporativ boshqaruvning qo‘llab-quvvatlashi soft-kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim tashkiliy-pedagogik shartlari hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, andragogik mexanizmlarni korporativ oliy ta’lim tizimiga izchil tatbiq etish rahbar-kadrlarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlash, boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish hamda oliy ta’lim muassasasida hamkorlik, ishonch, innovatsion fikrlash va uzluksiz rivojlanishga asoslangan korporativ madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. World Economic Forum. *The Future of Jobs Report 2025*. Geneva: World Economic Forum, 2025.
2. Merriam S.B., Bierema L.L. *Adult Learning: Linking Theory and Practice*. San Francisco: Jossey-Bass, 2014. 320 p.
3. Knowles M.S., Holton E.F. III, Swanson R.A., Robinson P.A. *The Adult Learner: The Definitive Classic in Adult Education and Human Resource Development*. 9th ed. London–New York: Routledge, 2020. 392 p. ISBN: 978-0-367-41765-9.
4. Robles M.M. Executive Perceptions of the Top 10 Soft Skills Needed in Today’s Workplace // *Business Communication Quarterly*. 2012. Vol. 75, No. 4. P. 453–465. DOI: 10.1177/1080569912460400.

5. Noe R.A. *Employee Training and Development*. 8th ed. New York: McGraw-Hill Education, 2020.

6. Cimatti B. Definition, Development, Assessment of Soft Skills and Their Role for the Quality of Organizations and Enterprises // *International Journal for Quality Research*. 2016. Vol. 10, No. 1. P. 97–130. DOI: 10.18421/IJQR10.01-05.

7. Goleman D. *Working with Emotional Intelligence*. New York: Bantam Books, 1998. 383 p.

8. Boyatzis R.E. *The Competent Manager: A Model for Effective Performance*. New York: John Wiley & Sons, 1982. 308 p. ISBN: 978-0-471-09031-1.

9. Knowles M.S. *Andragogy in Action: Applying Modern Principles of Adult Learning*. San Francisco: Jossey-Bass, 1984. 444 p.

10. Kolb D.A. *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. 2nd ed. Upper Saddle River, NJ: Pearson Education, 2015. 390 p. ISBN: 978-0-13-389240-6.

11. Mezirow J. *Transformative Dimensions of Adult Learning*. San Francisco: Jossey-Bass, 1991. 247 p.

12. Salas E., Tannenbaum S.I., Kraiger K., Smith-Jentsch K.A. The Science of Training and Development in Organizations: What Matters in Practice // *Psychological Science in the Public Interest*. 2012. Vol. 13, No. 2. P. 74–101. DOI: 10.1177/1529100612436661.

13. Mumford M.D., Zaccaro S.J., Harding F.D., Jacobs T.O., Fleishman E.A. Leadership Skills for a Changing World: Solving Complex Social Problems // *The Leadership Quarterly*. 2000. Vol. 11, No. 1. P. 11–35. DOI: 10.1016/S1048-9843(99)00041-7.

14. Wlodkowski R.J. *Enhancing Adult Motivation to Learn: A Comprehensive Guide for Teaching All Adults*. 3rd ed. San Francisco: Jossey-Bass, 2008. 528 p.

15. Kolb A.Y., Kolb D.A. Learning Styles and Learning Spaces: Enhancing Experiential Learning in Higher Education // *Academy of Management Learning & Education*. 2005. Vol. 4, No. 2. P. 193–212. DOI: 10.5465/AMLE.2005.17268566.

16. Schön D.A. *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*. New York: Basic Books, 1983. 374 p.

17. Bracken D.W., Timmreck C.W., Church A.H. (Eds.). *The Handbook of Multisource Feedback: The Comprehensive Resource for Designing and Implementing MSF Processes*. San Francisco: Jossey-Bass, 2001. 608 p.

18. Connor M., Pokora J. *Coaching and Mentoring at Work: Developing Effective Practice*. 3rd ed. London: Open University Press, 2017. 296 p.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

MALAKALI GANDBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI KOMPLEKS MASHQLAR ORQALI OSHIRISHDAGI MUAMMOLAR

Zaribboyev Zafarbek Farxod o'g'li
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
"Gandbol, regbi, chim ustida xokkey nazariyasi va uslubiyati kafedrasi" o'qituvchisi
Chirchiq shahri, O'zbekiston
G-mail: zaribboyevzafarbek444@gmail.com
Tel: +998930977246
https://orcid.org/0009-0003-6118-910X

Annotatsiaya: *Tadqiqot maqsadi: malakali gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini kompleks mashqlar orqali oshirish jarayonida mavjud muammolarni aniqlash, ularning mashg'ulot samaradorligiga ta'sirini tahlil qilish va jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlarni asoslashdan iborat. Tadqiqot metodlari: ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv va so'rovnoma usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari: kompleks mashqlarni tanlash va ularni sportchilarning individual xususiyatlariga moslashtirish, yuklama hajmi va intensivligini belgilash, mashqlar ketma-ketligini tashkil etish hamda umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalari nisbatini optimallashtirishda muammolar mavjudligi aniqlandi. Xulosa: kompleks mashqlarni ilmiy asoslangan mezonlar asosida tanlash, yuklamalarni tizimli boshqarish va mashg'ulot mazmunini musobaqa faoliyatiga moslashtirish malakali gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv tezlik, kuch, tezkor-kuch, chaqqonlik, koordinatsiya va maxsus chidamlilik sifatlarini uyg'un rivojlantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *malakali gandbolchilar, jismoniy tayyorgarlik, kompleks mashqlar, jismoniy sifatlar, chaqqonlik.*

ПРОБЛЕМЫ ПОВЫШЕНИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ ГАНДБОЛИСТОВ С ПОМОЩЬЮ КОМПЛЕКСНЫХ УПРАЖНЕНИЙ

Аннотация: *Цель исследования заключается в выявлении существующих проблем в процессе повышения физической подготовленности квалифицированных гандболистов посредством комплексных упражнений, анализе их влияния на эффективность тренировочного процесса и обосновании методических подходов, направленных на развитие физических качеств. В исследовании использовались методы анализа научно-методической литературы, педагогического наблюдения и анкетирования. В результате исследования выявлены проблемы при выборе комплексных упражнений и их адаптации к индивидуальным особенностям спортсменов, определении объёма и интенсивности нагрузки, организации последовательности упражнений, а*

также оптимизации соотношения средств общей и специальной физической подготовки. Сделан вывод, что выбор комплексных упражнений на основе научно обоснованных критериев, системное управление нагрузками и соответствие содержания тренировок соревновательной деятельности позволяют эффективно развивать физическую подготовленность квалифицированных гандболистов. Такой подход способствует комплексному развитию быстроты, силы, скоростно-силовых способностей, ловкости, координации и специальной выносливости.

Ключевые слова: *квалифицированные гандболисты, физическая подготовленность, комплексные упражнения, физические качества, ловкость.*

PROBLEMS OF IMPROVING THE PHYSICAL FITNESS OF SKILLED HANDBALL PLAYERS THROUGH COMPLEX EXERCISES

Annotation: *The purpose of the study is to identify existing problems in improving the physical fitness of skilled handball players through complex exercises, analyze their impact on training effectiveness, and substantiate methodological approaches aimed at developing physical qualities. The study used scientific and methodological literature analysis, pedagogical observation, and questionnaire methods. The results revealed problems in selecting complex exercises and adapting them to athletes' individual characteristics, determining training load volume and intensity, organizing the sequence of exercises, and optimizing the ratio of general and special physical training means. It was concluded that selecting complex exercises based on scientifically grounded criteria, systematically managing training loads, and adapting training content to competitive activity can effectively improve the physical fitness of skilled handball players. This approach contributes to the comprehensive development of speed, strength, speed-strength abilities, agility, coordination, and special endurance.*

Keywords: *skilled handball players, physical fitness, complex exercises, physical qualities, agility.*

KIRISH

Zamonaviy gandbolda yuqori sport natijasiga erishish faqat texnik-taktik mahoratning yuqori darajada shakllanganligi bilan emas, balki sportchining musobaqa faoliyatida yuzaga keladigan yuqori intensivlikdagi jismoniy yuklamalarni samarali bajarish qobiliyati bilan ham belgilanadi. Gandbol o'zining dinamikligi, tez-tez yo'nalish o'zgartirish, qisqa masofalarga maksimal tezlanish, sakrash, to'xtash, keskin burilish, kurash va to'p otish kabi harakatlarning takroriyligi bilan ajralib turadi. Shu sababli malakali gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish masalasi sport mashg'ulotlari nazariyasi va amaliyotining dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib

qolmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda yuqori malakali gandbolchilarning musobaqa faoliyati davomida sezilarli masofani bosib o‘tishi, yuqori tezlikdagi yugurishlar, tezlanish va tormozlanishlar hamda pozitsiyaga bog‘liq yuqori intensivlikdagi harakatlarni muntazam bajarishi ko‘rsatilgan.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODLAR

Dolzarblikning yana bir muhim jihati shundaki, zamonaviy gandbolda mashg‘ulot va musobaqa yuklamalarining yuqoriligi sportchining jismoniy imkoniyatlarini muntazam monitoring qilishni talab etmoqda. García-Sánchez va hammualliflar [1] elite gandbolchilarning musobaqa faoliyatini tahlil qilib, o‘yin davomida yuqori intensivlikdagi yugurish, tezlanish, tormozlanish va yo‘nalish o‘zgarishlari kabi harakatlarning yuqori ulushga ega ekanligini ko‘rsatgan. Shu bilan birga, Font va hammualliflar [6] elite erkak gandbolchilarda tashqi yuklamaning o‘yin pozitsiyasiga qarab sezilarli darajada farqlanishini aniqlab, mashg‘ulot yuklamalarini individual va pozitsion xususiyatlar asosida boshqarish zarurligini ta’kidlagan. Mazkur yondashuv Henze va hammualliflarning [3] professional ayol va erkak gandbol jamoalarida sportchi monitoringi amaliyotini o‘rgangan tadqiqotida ham o‘z tasdig‘ini topadi. Mualliflar tashqi va ichki yuklama, sportchining umumiy holati, mashg‘ulotga tayyorgarligi hamda tiklanish jarayonlarini muntazam kuzatish mashg‘ulot va musobaqa jarayonini samarali boshqarishning muhim tarkibiy qismi ekanligini ko‘rsatgan.

Kompleks mashqlarni qo‘llashning ilmiy asoslanganligi kuch va tezkor-kuch tayyorgarligiga oid tadqiqotlarda ham ko‘rinadi. Bragazzi, Rouissi, Hermassi va hammualliflar [2] tomonidan o‘tkazilgan sistematik sharh va meta-tahlilda qarshilik bilan bajariladigan mashg‘ulotlarning gandbolchilarda maksimal va izometrik kuch, mushak quvvati hamda to‘p otish tezligiga ijobiy ta’siri aniqlangan. Biroq mazkur tadqiqotda turli mashg‘ulot protokollari o‘rtasidagi farqlar mashqlar mazmuni, yuklama parametrlari va mashg‘ulot sharoitlarini yanada aniqroq standartlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Akbar va hammualliflar [4] tomonidan 2024-yilda amalga oshirilgan

sistematik sharhda ham gandbolchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligiga ta’sir ko‘rsatuvchi turli mashg‘ulot strategiyalari umumlashtirilib, qo‘llanilayotgan mashqlar mazmuni va metodik yondashuvlarning xilma-xilligi qayd etilgan. Bu esa kompleks mashqlarni yagona metodik tizim asosida tashkil etish masalasining hanuz dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Muammoning asosiy ilmiy jihati shundan iboratki, gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan ko‘plab tadqiqotlarda alohida vositalar — kuch mashqlari, pliometrik mashqlar, yuqori intensivlikdagi intervalli mashqlar, kor mashqlari yoki tezlik mashqlarining samaradorligi mustaqil ravishda o‘rganilgan. Masalan, Hammami va hammualliflar [7] yuqori intensivlikdagi intervalli va pliometrik mashqlarni qo‘llash orqali gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish imkoniyatlarini asoslagan bo‘lsa, Jakšić va hammualliflar [8] qo‘shimcha pliometrik mashg‘ulotlarning elite erkak gandbolchilarning sakrovchanlik ko‘rsatkichlariga ta’sirini sistematik tahlil qilgan. Shuningdek, Bauer va Muehlbauer [9] kor mushaklarini kuchaytirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarning jismoniy va sport ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rgangan. Ushbu tadqiqotlar muayyan mashg‘ulot vositalarining samaradorligini tasdiqlasa-da, ularni musobaqa faoliyatining real tuzilmasidan kelib chiqib yagona kompleks tizimga birlashtirish, mashqlar o‘rtasidagi optimal nisbatni aniqlash va yuklama parametrlarini monitoring natijalari asosida muntazam tuzatib borish masalasi yetarlicha tizimlashtirilmagan.

Bundan tashqari, malakali gandbolchilarning mashg‘ulot va musobaqa faoliyatida yuklamaning yuqoriligi jismoniy tayyorgarlikni oshirish bilan bir qatorda, ortiqcha yuklanish va jarohatlanish xavfini ham hisobga olishni talab qiladi. Bjørndal va hammualliflar [5] yosh elite gandbolchilarning bir mavsumlik faoliyatini o‘rganib, mashg‘ulot va musobaqa yuklamalarining yuqoriligi hamda sog‘liq bilan bog‘liq muammolarni qayd etgan. García-Sánchez va hammualliflar [1] tomonidan aniqlangan.

Mazkur tadqiqotning metodologik yo‘nalishi malakali gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini kompleks mashqlar orqali oshirish jarayonida mavjud bo‘lgan muammolarni aniqlash, ularning kelib chiqish omillarini tizimlashtirish va mashg‘ulot jarayonini takomillashtirish uchun zarur metodik yo‘nalishlarni belgilashga qaratildi. Tadqiqotda muammoni bir tomonlama baholashdan qochish maqsadida o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi uchta asosiy metod - **ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv va so‘rovnoma** usullaridan foydalanildi. Mazkur metodlarning birgalikda qo‘llanilishi kompleks mashqlardan foydalanishning nazariy asoslari, real mashg‘ulot jarayonidagi holati hamda murabbiylarning amaliy qarashlarini o‘zaro taqqoslash imkonini berdi.

Muammolarni umumlashtirishda quyidagi mezonlar asos qilib olindi: **1) muammoning mashg‘ulot jarayonida uchrash darajasi; 2) uning jismoniy tayyorgarlik samaradorligiga ta’siri; 3) muammoning kompleks mashqlarni tashkil etish bilan bog‘liqligi; 4) uni metodik jihatdan bartaraf etish imkoniyati.**

Shu asosda malakali gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini kompleks mashqlar orqali oshirishda aniqlangan asosiy muammolar quyidagi guruhlarga tizimlashtirildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Malakali gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini kompleks mashqlar orqali oshirishdagi asosiy muammolar

T/r	Aniqlangan muammo	Muammoning mazmuni	Mashg‘ulot jarayonidagi oqibati	Takomillashtirish yo‘nalishi
1	Kompleks mashqlarni tanlashning aniq mezonlari yetarli emasligi	Mashqlar ko‘pincha umumiy jismoniy tayyorgarlik vositalari sifatida tanlanadi, gandbolning maxsus	Mashqlarning musobaqa faoliyatiga ko‘chish	Mashqlarni gandbolning real harakat faoliyati va pozitsion

		harakat tuzilmasi yetarlicha hisobga olinmaydi	samarasi pasayadi	talablariga mos tanlash
2	Jismoniy sifatlarning o‘zaro uyg‘unligi yetarli ta’minlanmasligi	Kuch, tezlik, chaqqonlik, sakrovchanlik va chidamlilik ayrim hollarda bir-biridan ajratilgan holda rivojlantiriladi	Kompleks harakat faoliyatida jismoniy sifatlarni birgalikda namoyon qilish qiyinlashadi	Bir mashq yoki mashqlar majmuasida bir nechta jismoniy sifatni maqsadli uyg‘unlashtirish
3	Yuklama parametrlarini individual belgilashning cheklanganligi	Mashqlar hajmi va intensivligi sportchilarning individual tayyorgarlik darajasiga qarab yetarlicha differensiallashtirilmaydi	Ayrim sportchilarda ortiqcha, boshqalarida esa yetarli bo‘lmagan yuklama yuzaga keladi	Yuklamani individual tayyorgarlik darajasi asosida differensiallashtirish
4	Mashqlar ketma-ketligining ilmiy asoslanmaganligi	Kuch, tezlik, koordinatsiya va maxsus chidamlilik mashqlarining joylashuvi har doim ham mashg‘ulot	Jismoniy va texnik harakatlar sifati pasayishi mumkin	Mashqlar ketma-ketligini mashg‘ulot maqsadi va funksional yuklamaga

		maqsadiga mos kelmaydi		muvofiq rejalashtirish
5	Kompleks mashqlarni musobaqa faoliyati bilan bog‘lashning sustligi	Mashqlar bajarilishida real o‘yin vaziyatlari, yo‘nalish o‘zgarishi, tezlanish, to‘xtash va kurash elementlari yetarli darajada uyg‘unlashtirilmaydi	Tayyorlangan jismoniy sifatlarning o‘yin faoliyatiga transferi cheklanadi	Jismoniy mashqlarni texnik-taktik harakatlar va o‘yin vaziyatlari bilan integratsiyalash
6	O‘yin ampluasining yetarlicha hisobga olinmasligi	Qanot, markaziy va orqa chiziq o‘yinchilariga bir xil kompleks mashqlar qo‘llanishi mumkin	Pozitsiyaga xos jismoniy talablar to‘liq rivojlanmaydi	Mashqlar mazmunini o‘yin pozitsiyasiga qarab differensiallashtirish
7	Yuklamani monitoring qilishning yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi	Mashg‘ulot yuklamasi va sportchining javob reaksiyasi muntazam ravishda kompleks baholanmaydi	Yuklamani o‘z vaqtida tuzatish imkoniyati kamayadi	Joriy va mashg‘ulotlararo monitoring mexanizmlarini joriy etish
8	Mashqlar murakkabligini bosqichma-bosqich oshirish mexanizmining	Mashqlar hajmi yoki takrorlar soni oshiriladi, biroq harakat murakkabligi va o‘yin sharoitining	Moslashuv jarayoni bir tomonlama kechadi	Yuklamani hajm, intensivlik, tezlik, yo‘nalish va harakat kombinatsiyasi

	yetarli ishlab chiqilmaganligi	o‘zgarishi yetarlicha hisobga olinmaydi		orqali bosqichma-bosqich oshirish
9	Tiklanish va yuklama nisbatining individual boshqarilmasligi	Kompleks mashqlardan keyingi dam olish va tiklanish vaqti barcha sportchilar uchun bir xil belgilanadi	Charchoqning to‘planishi yoki mashg‘ulot ta’sirining pasayishi yuzaga kelishi mumkin	Tiklanish intervalini yuklama xarakteri va sportchining funksional holatiga moslashtirish
10	Kompleks mashqlar samaradorligini baholash mezonlarining cheklanganligi	Natija ko‘pincha faqat alohida jismoniy testlar bilan baholanadi	Mashqlarning real o‘yin faoliyatiga ta’siri to‘liq aniqlanmaydi	Jismoniy, texnik va maxsus o‘yin ko‘rsatkichlarini o‘zaro bog‘liq holda baholash

Izoh: Mazkur jadval kuzatuv va anketa so‘rovnoma natijalariga asoslanib ishlab chiqilgan.

Ushbu metodik yondashuv asosida kompleks mashqlardan foydalanishdagi muammolarni faqat mashqlar tarkibi bilan bog‘lash noto‘g‘ri ekanligi aniqlandi. Muammo, avvalo, **mashqni tanlash - yuklamani belgilash - mashqni o‘yin faoliyatiga moslashtirish - individualizatsiya qilish - monitoring asosida tuzatish** jarayonlarining yagona tizim sifatida tashkil etilmaganligida namoyon bo‘ladi. Shu sababli malakali gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda kompleks mashqlar

samaradorligini ta'minlash uchun ularni alohida mashqlar yig'indisi sifatida emas, balki musobaqa faoliyatining talablaridan kelib chiqib boshqariladigan yaxlit metodik tizim sifatida tashkil etish zarur.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUXOKAMASI

Tadqiqotning adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv va so'rovnoma natijalarini umumlashtirish malakali gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini kompleks mashqlar orqali oshirish jarayonida bir qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Eng muhim muammo kompleks mashqlar mazmunining gandbolning real musobaqa faoliyati talablariga to'liq moslashtirilmaganligi bilan bog'liq. Ya'ni, kuch, tezlik, chaqqonlik, sakrovchanlik va maxsus chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar mavjud bo'lsa-da, ularning o'zaro uyg'unligi, bajarilish ketma-ketligi va texnik-taktik harakatlar bilan bog'lanishi har doim ham yetarli darajada ta'minlanmaydi.

Olingan natijalar malakali gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini kompleks mashqlar orqali rivojlantirish masalasi faqat alohida jismoniy sifatlarni oshirish bilan cheklanmasligini ko'rsatdi. Adabiyotlar tahlili va pedagogik kuzatuv ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy gandbolda sportchi bir vaqtning o'zida yuqori tezlik, kuch, tezkor-kuch, chaqqonlik, koordinatsiya va maxsus chidamlilikni namoyon qilishi talab etiladi. Shu sababli ushbu sifatlarni o'zaro bog'liq holda rivojlantirish mashg'ulot jarayonining asosiy metodik talablaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Kompleks mashqlarni tanlash, individual me'yorlash va musobaqa faoliyatiga moslashtirishning yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi.

1. Komplekslik: kuch, tezlik, chaqqonlik, sakrovchanlik va maxsus chidamlilikni o'zaro bog'liq holda rivojlantirish zarur.

2. Individualizatsiya: mashg'ulot yuklamasi sportchining jismoniy imkoniyati, o'yin ampluasi va funksional holatiga moslashtirilishi kerak.

3. Integratsiya: kompleks mashqlar gandbolga xos tezlanish, tormozlanish, sakrash, yo'nalish o'zgarishi va texnik-taktik harakatlar bilan uyg'unlashtirilishi lozim.

4. Monitoring: yuklama hajmi va intensivligi, charchoq hamda tiklanish holatini muntazam nazorat qilish mashg‘ulot samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Umumiy xulosa: kompleks mashqlarning samaradorligi ularning soni bilan emas, balki to‘g‘ri tanlash - individual me’yorlash - musobaqaga integratsiya - monitoring tizimi asosida qo‘llanishi bilan belgilanadi.

XULOSALAR

Tadqiqotdan shuni xulosa qilish mumkinki, malakali gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini kompleks mashqlar orqali oshirish jarayonida mashqlarni shunchaki birlashtirish emas, balki ularni sportchining individual imkoniyatlari, o‘yin faoliyati va mashg‘ulot yuklamasining xususiyatlari bilan uzviy bog‘lash muhim ahamiyatga ega.

1. Kompleks mashqlarni tizimli tashkil etish zarur. Malakali gandbolchilarda kuch, tezlik, tezkor-kuch, chaqqonlik, koordinatsiya va maxsus chidamlilik kabi jismoniy sifatlarni alohida-alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirish mashg‘ulot samaradorligini oshiradi. Bunda mashqlar tarkibi, ketma-ketligi va murakkabligi mashg‘ulot maqsadiga muvofiq belgilanishi lozim.

2. Individual va pozitsion yondashuvni kuchaytirish lozim. Gandbolchilarning jismoniy imkoniyatlari hamda o‘yin ampluasi turlicha bo‘lganligi sababli kompleks mashqlarni barcha sportchilarga bir xil hajm va intensivlikda qo‘llash yetarli darajada samarali emas. Shu sababli yuklama sportchining tayyorgarlik darajasi, o‘yin pozitsiyasi va funksional holatiga mos ravishda differensiallashtirilishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. García-Sánchez C., Navarro R.M., Karcher C., de la Rubia A. Physical Demands during Official Competitions in Elite Handball: A Systematic Review. *International Journal of Environmental Research and Public Health*. 2023;20(4):3353. DOI: 10.3390/ijerph20043353

2. Bragazzi N.L., Rouissi M., Hermassi S., Chamari K. Resistance Training and Handball Players' Isokinetic, Isometric and Maximal Strength, Muscle Power and Throwing Ball Velocity: A Systematic Review and Meta-Analysis. *International Journal of Environmental Research and Public Health*. 2020;17(8):2663. DOI: 10.3390/ijerph17082663. DOI: 10.3390/ijerph17082663.

3. Henze A.S., Burger J., Matits L., Degenhardt H., Fehske K., Kirsten J., Schulz S.V.W. Athlete monitoring in handball (ATHMON HB): a survey of current practice in professional women's and men's handball. *BMC Sports Science, Medicine and Rehabilitation*. 2025;17:126. DOI: 10.1186/s13102-025-01177-4. DOI: 10.1186/s13102-025-01177-4

4. Akbar S., Kim Geok S., Bashir M., Jazaily Bin Mohd N.N., Luo S., He **S.** Effects of Different Exercise Training on Physical Fitness and Technical Skills in Handball Players: A Systematic Review. *Journal of Strength and Conditioning Research*. 2024;38(11):e695–e705. DOI: 10.1519/JSC.0000000000004908. DOI: 10.1519/JSC.0000000000004908

5. Bjørndal C.T., Bache-Mathiesen L.K., Gjesdal S., Moseid C.H., Myklebust G., Luteberget L.S. An Examination of Training Load, Match Activities, and Health Problems in Norwegian Youth Elite Handball Players Over One Competitive Season. *Frontiers in Sports and Active Living*. 2021;3:635103. DOI: 10.3389/fspor.2021.635103. DOI: 10.3389/fspor.2021.635103

6. Font R., Karcher C., Reche X., Carmona G., Tremps V., Irurtia A. Monitoring external load in elite male handball players depending on playing positions. *Biology of Sport*. 2021;38(3):475–481. DOI: 10.5114/biolsport.2021.101123. DOI: 10.5114/biolsport.2021.101123

7. Hammami M., Gaamouri N., Ramirez-Campillo R., Shephard R.J., Bragazzi N.L., Chelly M.S., Knechtle B., Gaied S. Effects of High-Intensity Interval Training and Plyometric Exercise on the Physical Fitness of Junior Male Handball Players. *European Review for Medical and Pharmacological Sciences*. 2021;25(23):7380–7389. DOI: 10.26355/eurrev_202112_27434. DOI: 10.26355/eurrev_202112_27434

8. Jakšić D., Maričić S., Maksimović N., Bianco A., Sekulić D., Foretić N., Drid P. Effects of Additional Plyometric Training on the Jump Performance of Elite Male Handball Players: A Systematic Review. *International Journal of Environmental Research and Public Health*. 2023;20(3):2475. DOI: 10.3390/ijerph20032475. DOI: 10.3390/ijerph20032475

9. Bauer J., Muehlbauer T. Effects of a 6 Week Core Strengthening Training on Measures of Physical and Athletic Performance in Adolescent Male Sub-Elite Handball Players. *Frontiers in Sports and Active Living*. 2022;4:1037078. DOI**:** 10.3389/fspor.2022.1037078. DOI: 10.3389/fspor.2022.1037078

UDK:159.922.6

YOSH O‘QITUVCHILARNING EMOTSIONAL BARQARORLIGI VA KASBIY MOSLASHUVI O‘RTASIDAGI PSIXOLOGIK BOG‘LIQLIK

Sotvoldiyeva Zebuniso Abbosbek qizi
NamDU doktoranti, Qo’qon universiteti Andijon filiali,
Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrasi o’qituvchisi
zebunisosotvoldiyeva4@gmail.com
Tel: +99891 607 80 52; https://orcid.org/0009-0006-7199-4411
M.A.Maxsudova
NamDU, Psixologiya kafedrasi dotsenti, Psixologiya fanlari nomzodi
mutabar60@gmail.com
Tel: +99893 404 76 00; https://orcid.org/0009-0005-2328-8400

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yosh o‘qituvchilarning emotsional barqarorligi va kasbiy moslashuvi o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlik masalasi tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi kasbiy faoliyatining dastlabki bosqichida bo‘lgan yosh o‘qituvchilarda emotsional barqarorlik darajasi bilan kasbiy moslashuv jarayoni o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni aniqlash hamda ushbu jarayonga ta’sir etuvchi psixologik omillarni tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda nazariy tahlil, kuzatish, suhbat, psixodiagnostik metodlar va korrelyatsion tahlil usullaridan foydalanildi. Emotsional barqarorlikni baholashda shaxsning stressli vaziyatlarda o‘z emotsiyalarini boshqarishi, hissiy reaksiyalarining muvozanatlanganligi va psixologik zo‘riqishlarga bardoshliligi hisobga olindi. Kasbiy moslashuv esa pedagogik faoliyat talablariga moslashish, kasbiy vazifalarni bajarish, jamoaga integratsiyalashish va kasbiy o‘ziga ishonch kabi ko‘rsatkichlar asosida baholandi. Tadqiqot natijalari emotsional barqarorlik darajasi yuqori bo‘lgan yosh o‘qituvchilarning kasbiy muhitga tezroq moslashishi, stressli vaziyatlarni samaraliroq boshqarishi va pedagogik faoliyatda barqarorroq xulq-atvor namoyon etishini ko‘rsatdi. Xulosa sifatida emotsional barqarorlik yosh o‘qituvchilarning muvaffaqiyatli kasbiy moslashuvini ta’minlovchi muhim psixologik omillardan biri ekanligi aniqlandi.*

Kalit so‘zlar: *yosh o‘qituvchi, emotsional barqarorlik, kasbiy moslashuv, kasbiy stress, psixologik moslashuv, stressga bardoshlilik, pedagogik faoliyat.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ВЗАИМОСВЯЗЬ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ УСТОЙЧИВОСТИ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ МОЛОДЫХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация: *В статье исследуется психологическая взаимосвязь между эмоциональной устойчивостью и профессиональной адаптацией молодых педагогов. Основной целью исследования является выявление взаимосвязи между уровнем эмоциональной устойчивости молодых учителей, находящихся на начальном этапе профессиональной деятельности, и успешностью их*

профессиональной адаптации, а также анализ психологических факторов, влияющих на данный процесс. В исследовании использовались методы теоретического анализа, наблюдения, беседы, психодиагностики и корреляционного анализа. При оценке эмоциональной устойчивости учитывались способность педагога регулировать собственные эмоциональные состояния в стрессовых ситуациях, уравновешенность эмоциональных реакций и устойчивость к психологическому напряжению. Профессиональная адаптация рассматривалась через показатели приспособления к требованиям педагогической деятельности, выполнения профессиональных обязанностей, интеграции в педагогический коллектив и формирования профессиональной уверенности. Результаты исследования показали, что молодые учителя с более высоким уровнем эмоциональной устойчивости быстрее адаптируются к профессиональной среде, эффективнее справляются со стрессовыми ситуациями и демонстрируют более стабильное поведение в педагогической деятельности. Сделан вывод о том, что эмоциональная устойчивость является одним из значимых психологических факторов успешной профессиональной адаптации молодых педагогов.

Ключевые слова: *молодой педагог, эмоциональная устойчивость, профессиональная адаптация, профессиональный стресс, психологическая адаптация, стрессоустойчивость, педагогическая деятельность.*

THE PSYCHOLOGICAL RELATIONSHIP BETWEEN EMOTIONAL STABILITY AND PROFESSIONAL ADAPTATION OF YOUNG TEACHERS

Abstract: *The article examines the psychological relationship between emotional stability and professional adaptation among young teachers. The main purpose of the study is to identify the relationship between the level of emotional stability and the effectiveness of professional adaptation among young teachers at the initial stage of their professional careers, as well as to analyze the psychological factors influencing this process. The study employed theoretical analysis, observation, interviews, psychodiagnostic methods, and correlation analysis. Emotional stability was assessed through teachers' ability to regulate their emotional states in stressful situations, maintain balanced emotional reactions, and withstand psychological tension. Professional adaptation was evaluated based on adaptation to the requirements of pedagogical activity, effective performance of professional responsibilities, integration into the teaching team, and development of professional confidence. The findings indicate that young teachers with higher levels of emotional stability adapt to the professional environment more quickly, manage stressful situations more effectively, and demonstrate more stable behavioral patterns in their pedagogical activities. The study concludes that emotional stability is one of the important psychological factors contributing to successful professional adaptation among young teachers. The findings can be used in psychological support programs aimed at facilitating the professional development and adaptation of novice teachers.*

Keywords: *young teacher, emotional stability, professional adaptation, occupational stress, psychological adaptation, stress resilience, pedagogical activity.*

KIRISH

Emotsional barqarorlik — bu shaxsning turli stressogen vaziyatlarda o‘z hissiy holatlarini tartibga solish, salbiy emotsiyalarni konstruktiv tarzda boshqarish va faoliyat mexanizmini barqaror ushlab turish qobiliyatidir. O‘qituvchi faoliyati kontekstida bu tushuncha emotsional intellekt (EQ) bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, tadqiqotchilar buni pedagogik salohiyatning asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida baholaydilar.

Kundalik tashvishlar – bu ish joylarida sodir bo’ladigan qiyinchiliklar, o’qish joylaridagi o’quvchilarning o’quvchilarga, o’qituvchilarning o’qituvchilarga noto’g`ri munosabatda bo’lishlari, imtihonlarni muvaffaqiyatsiz yakunlanishi va hokazolarda namoyon bo’ladi. Kundalik tashvishlar mayda stresslarni kelib chiqishiga sabab bo’lishi mumkin, mayda stresslar to’planib borib inson sog`lig`iga ta’sir ko’rsatadi. Jumladan,, qon bosimining oshishi, yurak faoliyatining buzilishi va boshqalarda kuzatilishi mumkin. Doimiy yuz berib turadigan kundalik tashvishlar, aqliy, jismoniy, emotsional va ruhiy zo’riqishga olib kelishi mumkin. [15. 101-s]

O‘qituvchilar yuqori talab va mas’uliyatga ega bo‘lgan kasbiy guruhga mansub bo‘lib, dars berish hamda o‘quvchilar bilan muloqot qilish jarayonida turli darajadagi kasbiy qiyinchiliklar va xilma-xil emotsional kechinmalarga duch keladilar. Bunday tajribalar ko‘pincha yuqori darajadagi stressni yuzaga keltirib, kasbiy kuyishga olib keladi va natijada o‘qituvchilarning kasbiy farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchilarning ijobiy farovonligini ta’minlash ta’lim sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning farovonligi va akademik rivojlanishiga ijobiy ta’sir qiladi. O‘qituvchilar o‘z kasbiy vazifalarini yuqori darajadagi stressga bardoshlilik va samarali mehnat faoliyati bilan bajarishlari uchun yetarli darajada tashkiliy qo‘llab-quvvatlashga muhtoj. Shuningdek, ular sifatli sinf muhitini yaratish, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida sog‘lom munosabatlarni shakllantirish, stressni kamaytirish hamda kasbiy farovonlikni oshirish imkonini beradigan ijtimoiy-emotsional kompetentlikka ega bo‘lishlari zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ota-onalar, hamkasblar va maktab rahbariyati kabi boshqa manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish ijobiy mehnat muhitini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Sog‘lom va qulay ish muhiti o‘qituvchilarning kasbiy farovonligini oshirishga, shuningdek, o‘quvchilarning ta’lim olishi va o‘quv jarayoniga faol jalb etilishi uchun qo‘llab-quvvatlovchi sharoit yaratishga xizmat qiladi. Mazkur sharh o‘qituvchilarning kasbiy farovonligini ustuvor yo‘nalish sifatida belgilash va uni amaliyotchi o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish rejalariga maqsadli ravishda kiritish muhim ijobiy natijalarga olib kelishini ko‘rsatadi. Ular o‘qituvchilarning kasbiy farovonligiga ta’sir qiluvchi to‘rtta asosiy omil aniqladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Shaxsiy imkoniyat va qobiliyatlar;
2. Ijtimoiy-emotsional kompetentlik;
3. Mehnat sharoitlariga shaxsiy munosabat va reaksiyalar;
4. Kasbiy munosabatlar.

Natijalar o‘qituvchilarning ko‘plab qiyinchiliklar va bir-biriga raqobat qiluvchi kasbiy talablarni samarali yengib o‘tishida kasbiy farovonlikning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, ta’lim berish va o‘quvchilarning xulq-atvorini boshqarishda “o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonch” ning yuqori darajada bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. [10]

So‘nggi tadqiqotlar o‘qituvchilarda stress va kasbiy kuyish darajasi xavotirli sur’atlarda ortib borayotganini va buning natijasida ularning umumiy qoniqishi hamda kasbiy faoliyatga jalb etilganlik darajasi pasayayotganini ko‘rsatmoqda. O‘z-o‘ziga ishonchiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar o‘zlarini kasbiy faoliyatdagi stressli talablarni yengib o‘tishga yaxshi tayyorlangan deb hisoblaydilar hamda mavjud resurslardan samarali foydalanadilar . O‘qituvchilarda o‘z-o‘ziga samaradorlikning yuqori darajada bo‘lishi ijobiy emotsiyalarning ko‘payishiga va farovonlikning yaxshilanishiga olib keladi. [2,492]

Ishdan qoniqish tashkiliy xulq-atvor sohasida eng ko‘p o‘rganiladigan mavzulardan biridir. Tadqiqotlarda ishning nufuzi oshgani sari undan qoniqish darajasi ham ortishi kuzatilgan . Biroq nufuzi yuqori bo‘lmagan kasbda ham inson o‘z ishidan qoniqish hosil qilishi mumkin. Bu yerda asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan jihat — shaxsning o‘z kasbiga nisbatan emotsional munosabatidir.[9]

Ishdan qoniqish ko‘p o‘lchovli tushuncha hisoblanadi. U ishning malaka va talablariga muvofiqligi, tashkilot va davlat tomonidan yaratilgan sharoitlar, ish haqi, mehnat sharoitlari, hamkasblar, kasbiy rivojlanish va nazorat, ish jamoasi kabi tashqi omillarni, shuningdek, shaxsning ishdan kutgan natijalari va istaklari kabi ichki omillarni o‘z ichiga oladi. [1]

Ishdan qoniqishni shaxsning o‘z ishiga nisbatan umumiy munosabati sifatida ta’riflash mumkin. Eren fikricha, ishdan qoniqish — insonning mehnat faoliyati orqali qo‘lga kiritadigan manfaatlari, bajarayotgan ishidan va hamkasblari bilan birgalikda ishlashidan mamnun bo‘lish holatidir. [5]

Ishdan qoniqish insonning o‘z kasbiga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirishga yordam beradi. Inson resurslaridan samarali foydalanish xodimlarning o‘z qobiliyatlari va individual xususiyatlariga mos, ularga qoniqish beradigan kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanishi orqali ta’minlanadi. Ishdan qoniqish xodimlar hayotida muhim o‘rin tutadi. O‘z ishidan yetarlicha qoniqadigan xodim hayotdan ko‘proq zavq oladi, ijobiy xatti-harakatlarni namoyon etadi, sog‘lom psixologik holatga ega bo‘ladi hamda kasbiy va shaxsiy hayotida tobora yuqori muvaffaqiyatlarga erishadi.[13]

O‘qituvchilik faoliyatida muvaffaqiyatga erishish uchun inson bu kasbni sevishi, undan zavqlanishi va uni bajarishga ichki ehtiyoj sezishi muhimdir. O‘qituvchilarda o‘z kasbiga nisbatan ijobiy qarashlarning shakllanishi ularning o‘z vazifalarini yanada samarali va ishtiyoq bilan bajarishlariga yordam beradi. [4, 165]

Ishdan qoniqishning pastligi xodimlarning tashkilotga sodiqligini pasaytiradi. Bunday xodimlar yo boshqa ishga o‘tadilar, yoki mavjud ish faoliyatini istaksiz ravishda davom ettiradilar .[3]

Farber va Millerning tadqiqotlariga ko‘ra, kasbiy faoliyatida rivojlanishni va o‘sishni istagan o‘qituvchilarda ishdan qoniqish darajasi yuqori bo‘lgan. Aksincha, faqat o‘z sinfi doirasida cheklanib qoladigan va hamkasblari bilan muloqot qilmaydigan o‘qituvchilarda ishdan qoniqmaslik darajasi sezilarli bo‘lgan.[8]

Ko‘pchilik insonlar hayotdan qoniqishni hayotning asosiy maqsadi sifatida qaraydilar. Insonning maqsadlari va ushbu maqsadlarga qay darajada erishayotgani o‘rtasidagi muvofiqlik yoki nomuvofiqlik uning baxtga erishishida muhim ahamiyatga ega.[11,258]

Ishdan qoniqish hayotdan qoniqishga ta’sir ko‘rsatgani sababli, o‘qituvchilarning ishdan qoniqish darajasini oshirish ularning umumiy hayotdan qoniqishiga ham ijobiy hissa qo‘shadi. Shu sababli, hayotdan umumiy qoniqish va kasbiy faoliyatdan qoniqish bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

O‘z ishidan qoniqmaydigan insonlar shaxsiy hayotida ham baxtsizlikni boshdan kechirishi mumkin. Xuddi shuningdek, insonning umumiy hayotidagi baxtsizlik uning ishidan qoniqish hosil qilishiga to‘sqinlik qiladi.[14]

O‘qituvchilar milliy ta’lim tizimining harakatlantiruvchi kuchi bo‘lgan muhim inson resursi hisoblanadi. Bugungi kunda maktablardagi ta’lim jarayoni dinamik xususiyatga ega. Pedagogika, ta’lim nazariyalari, o‘quv dasturlari va ta’lim maqsadlari kabi ko‘plab jihatlarning muntazam ravishda o‘zgarib borishi o‘qituvchilar oldiga ko‘plab muammolar va yangi vazifalarni qo‘ymoqda [2]. Shu sababli, o‘qituvchilarning o‘z kasbiy vazifalarini samarali bajarishini ta’minlash uchun ularning farovonligiga alohida e’tibor qaratish zarur.[7,45]

O‘qituvchilarning kasbiy kuyishi — ya’ni o‘qituvchilarda emotsional charchoq, o‘quvchilarga nisbatan depersonalizatsiya va shaxsiy yutuqlarning yetishmasligi

hissining yuzaga kelishi — ularning kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. [12,44]

Kasbiy kuyishning o‘ziyoq kasbiy farovonlikning yetarli emasligidan dalolat beruvchi ko‘rsatkich hisoblanadi. Shuningdek, u kasbni tark etish, ishga kelmaslik, kadrlar almashinuvi, mehnat faoliyati samaradorligining pasayishi, depressiya hamda boshqa psixologik va somatik muammolar kabi nomaqbul oqibatlar bilan bog‘liq .[6,132]

TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqot yosh o‘qituvchilarning emotsional barqarorligi va kasbiy moslashuvi o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlikni aniqlashga qaratildi. Tadqiqotda jami 78 nafar yosh o‘qituvchi ishtirok etdi. Ishtirokchilarning pedagogik ish staji 1 yildan 5 yilgacha bo‘lib, ular umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yurituvchi pedagoglardan iborat edi. Tadqiqotda K. M. Connor va J. R. T. Davidson tomonidan 2003-yilda ishlab chiqilgan Connor–Davidson Resilience Scale (CD-RISC-25) metodikasining yosh o‘qituvchilar faoliyati sharoitiga moslashtirilgan varianti qo‘llanildi. Metodika o‘qituvchilarning stressga bardoshliligi, emotsional barqarorligi hamda kasbiy moslashuv resurslarini baholash imkonini beradi.

So‘rovnoma 25 ta bayonotdan tashkil topgan bo‘lib, har bir bayonot 0 dan 4 ballgacha bo‘lgan Likert shkalasi asosida baholandi: 0 — “umuman to‘g‘ri emas”, 1 — “kamdan-kam to‘g‘ri”, 2 — “ba’zan to‘g‘ri”, 3 — “ko‘pincha to‘g‘ri”, 4 — “deyarli har doim to‘g‘ri”. Umumiy natija 0 dan 100 ballgacha diapazonda aniqlandi.

Tadqiqot doirasida metodika uch yo‘nalish bo‘yicha tahlil qilindi:

1. Stressga bardoshlilik — pedagogik qiyinchiliklar, tanqid, konflikt va zo‘riqishli vaziyatlarda o‘zini boshqara olish hamda tiklana olish qobiliyati;
2. Emotsional barqarorlik — hissiy holatni nazorat qilish, salbiy emotsiyalarni boshqarish va stress sharoitida vazmin qaror qabul qilish;
3. Kasbiy moslashuv — yangi ish jamoasi, kasbiy talablar, pedagogik vazifalar hamda o‘qituvchilik roliga moslasha olish darajasi.

Ma'lumotlar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlandi. Jumladan, o'rtacha arifmetik ko'rsatkichlar, foizli tahlil va emotsional barqarorlik hamda kasbiy moslashuv o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti qo'llanildi.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot natijalariga ko'ra, 78 nafar yosh o'qituvchining psixologik bardoshlilik, emotsional barqarorlik va kasbiy moslashuv ko'rsatkichlari turli darajada namoyon bo'ldi.

Ko'rsatkich darajasi	**Respondentlar soni**	**Foiz hisobida**
Past daraja	13 nafar	16,7%
O'rtacha daraja	29 nafar	37,2%
Yuqori daraja	27 nafar	34,6%
Juda yuqori daraja	9 nafar	11,5%
Jami	78 nafar	100%

Natijalardan ko'rinadiki, ishtirokchilarning aksariyati — 71,8 foizi o'rtacha va yuqori darajadagi psixologik bardoshlilikka ega ekanligini ko'rsatdi. Bu holat yosh o'qituvchilarning ma'lum darajada kasbiy qiyinchiliklarga moslasha olayotganini, biroq ularning ayrim qismida hissiy zo'riqish va pedagogik stressga sezuvchanlik mavjudligini anglatadi.

Tahlillarga ko'ra, 13 nafar respondentda emotsional barqarorlik va kasbiy moslashuv ko'rsatkichlari past darajada qayd etildi. Ushbu guruh vakillarida dars jarayonidagi kutilmagan vaziyatlar, rahbariyat yoki hamkasblar tomonidan bildirilgan tanqidlar, o'quvchilar hamda ota-onalar bilan muloqotdagi qiyinchiliklar hissiy zo'riqishni kuchaytirishi kuzatildi. Bunday o'qituvchilarda o'ziga ishonchning pasayishi, tez charchash, kasbiy vaziyatlarga nisbatan xavotirli munosabat hamda yangi talablarni qabul qilishdagi qiyinchiliklar namoyon bo'lishi mumkin. O'rtacha darajadagi 29 nafar

yosh o‘qituvchi kasbiy vaziyatlarga qisman moslasha olishi, biroq murakkab yoki ziddiyatli holatlarda qo‘shimcha psixologik yordam va kasbiy qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoj sezishi bilan ajralib turdi. Ushbu guruhda stressni boshqarish, hissiy o‘zini nazorat qilish hamda pedagogik nizolarni konstruktiv hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Yuqori va juda yuqori darajaga ega bo‘lgan 36 nafar yosh o‘qituvchi esa stressli vaziyatlarda hissiy muvozanatni saqlash, pedagogik muammolarga moslashuvchan yondashish, tanqidni rivojlanish manbai sifatida qabul qilish va kasbiy faoliyatga nisbatan ijobiy munosabat bildirish xususiyatlari bilan tavsiflandi.

Pearson korrelyatsion tahlili emotsional barqarorlik va kasbiy moslashuv o‘rtasida ijobiy hamda statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi:

$$r = 0.68,\ p < 0.01$$

Mazkur ko‘rsatkich emotsional barqarorlik oshgani sari yosh o‘qituvchilarning kasbiy moslashuv darajasi ham ortishini bildiradi. Ya’ni, o‘z hissiyotlarini boshqara oladigan, stressli holatlarda vazmin qoladigan va salbiy tajribadan tez tiklanadigan o‘qituvchilar yangi ish sharoiti, jamoa talablari hamda pedagogik faoliyatdagi murakkab vaziyatlarga nisbatan muvaffaqiyatliroq moslashadilar.

XULOSA

Tadqiqot natijalari yosh o‘qituvchilarning emotsional barqarorligi ularning kasbiy moslashuv jarayonida muhim psixologik omil ekanini ko‘rsatdi. 78 nafar yosh o‘qituvchi ishtirokida o‘tkazilgan tadqiqotda respondentlarning asosiy qismi o‘rtacha va yuqori darajadagi stressga bardoshlilik hamda kasbiy moslashuv ko‘rsatkichlariga ega ekani aniqlandi. Korrelyatsion tahlil natijasida emotsional barqarorlik va kasbiy moslashuv o‘rtasida ijobiy, kuchli hamda statistik ahamiyatli bog‘liqlik mavjudligi belgilandi ($r; = 0.68p < 0.01$). Demak, yosh o‘qituvchining hissiy holatini boshqara olishi, stressga chidamliligi, tanqid va muvaffaqiyatsizliklarni konstruktiv qabul qilishi uning pedagogik jamoaga, ta’lim muassasasining talablariga hamda kasbiy vazifalarga tezroq va samaraliroq moslashishiga yordam beradi. Shu bois yosh o‘qituvchilar bilan

olib boriladigan psixologik va metodik ishlar doirasida stressni boshqarish, emotsional intellekt, o‘zini o‘zi boshqarish, nizolarni konstruktiv hal qilish hamda kasbiy refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan treninglarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu nafaqat yosh mutaxassislarning kasbiy moslashuvini yengillashtiradi, balki pedagogik faoliyat samaradorligi va kasbiy qoniqishni ham oshiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Aydınay A. İş tatmini ile denetim odağı arasındaki ilişki (Resmi, Özel, Yabancı Özel Lise Öğretmenleri Üzerinde Yapılmış Bir Araştırma). Yayınlanmamış Yüksek Lisans Tezi. – Marmara Üniversitesi, İstanbul, 1996.
2. Bermejo-Toro L., Prieto-Ursúa M., Hernández V. Towards a model of teacher well-being: Personal and job resources involved in teacher burnout and engagement // Educational Psychology. – 2016. – Vol. 36. – P. 481–501.
3. Bircan İ. Türkiye’de eğitim-istihdam ilişkisi // Planlama Dergisi. – Ankara, 1984.
4. Can G. Eğitim fakültesi ve öğretmenlik sertifikası programlarının öğretmen adaylarında tutum geliştirme açısından etkililiği // İzmir 1. Ulusal Eğitim Kongresi Bildirileri. – 25–27 Kasım 1991. – S. 162–167.
5. Eren E. Yönetim psikolojisi. – İstanbul: Yön Ajans, 1989. – Genişletilmiş 3. Baskı.
6. Klusmann U., Kunter M., Trautwein U., Lüdtke O. Engagement and emotional exhaustion in teachers: Does the school context make a difference? // Applied Psychology. – 2008. – Vol. 57, No. S1. – P. 127–151. – DOI: 10.1111/j.1464-0597.2008.00358.x.
7. Louis K., Smith B. Restructuring, teacher engagement and school culture: Perspectives on school reform and the improvement of teacher's work // School Effectiveness and School Improvement. – 1990. – Vol. 2, No. 1. – P. 34–52.
8. Mitchell T. R., Larson J. People in organizational behaviour. – New York: McGraw-Hill Company, 1987.
9. Noori N., Fatemi M. A., Najjari H. The relationship between EFL teachers’ motivation and job satisfaction in Mashhad language institutions // Open Access Library Journal. – 2014. – Vol. 1, No. 7. – October 29.
10. Nwoko J. C., Emeto T. I., Malau-Aduli A. E. O., Malau-Aduli B. S. A systematic review of the factors that influence teachers’ occupational wellbeing // International Journal of Environmental Research and Public Health. – 2023. – Vol. 20, No. 12. – Article 6070. – DOI: 10.3390/ijerph20126070.
11. Rask K., Astedt-Kurki P., Laippala P. Adolescent subjective well-being and realized values // Journal of Advanced Nursing. – 2002. – Vol. 38. – P. 254–263.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

12. Retelsdorf J., Butler R., Streblow L., Schiefele U. Teachers' goal orientations for teaching: Associations with instructional practices, interest in teaching, and burnout // Learning and Instruction. – 2010. – Vol. 20, No. 1. – P. 30–46. – DOI: 10.1016/j.learninstruc.2009.01.001.

13. Robbins S. P. Organizational behavior. – 7th ed. – New Jersey: Prentice Hall, Inc., 1996.

14. Uyargil C. Kişinin genel yaşam tatmininde işinin önemi // İstanbul Üniversitesi Eğitim Fakültesi Dergisi. – 1983. – Sayı 2. – Kasım.

15. Maxsudova M.A.Umumiy psixologiya. *O'quv qo'llanma* /. – Namangan: «Sunrise-pro», 2025. – 288 b. (101-s)

XX ASRNING 20–40-YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA ILM-FAN VA TA’LIM TIZIMINING SHAKLLANISHI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Qudratov Anvar Toshturdi o'g'li
Denov tadbirkorlik va pedagogika institute
70220301 – Tarix mutaxassisligi bitiruvchisi
Tel: +998 (50) 302-01-70; E-mail: anvarkudratov686@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada XX asrning 20–40-yillarida O‘zbekistonda dunyoviy ta’lim tizimi va zamonaviy ilm-fan poydevorining qo‘yilish jarayoni, sovet hokimiyatining dastlabki yillaridagi islohotlar, shuningdek, milliy ziyolilar qatlamining shakllanishi tarixiy-qiyosiy tahlil qilingan. Davrning ziddiyatli jihatlari, savodsizlikni tugatish choralari hamda ilk oliy ta’lim muassasalarining tashkil etilishi arxiv manbalari va ilmiy adabiyotlar asosida yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim tizimi, ilm-fan, XX asr, 20–40-yillar, sovet islohotlari, milliy ziyolilar, oliy o‘quv yurtlari, savodsizlikni tugatish.*

ФОРМИРОВАНИЕ НАУЧНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В 1920-1940-Х ГОДАХ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Аннотация. *В статье историко-сравнительно анализируются процесс закладки основ светской системы образования и современной науки в Узбекистане в 20–40-х годах XX века, реформы первых лет советской власти, а также формирование слоя национальной интеллигенции. На основе архивных источников и научной литературы освещены противоречивые аспекты эпохи, меры по ликвидации неграмотности и создание первых высших учебных заведений.*

Ключевые слова: *система образования, наука, XX век, 20–40-е годы, советские реформы, национальная интеллигенция, высшие учебные заведения, ликвидация неграмотности.*

FORMATION OF THE SCIENCE AND EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN IN THE 1920S-1940S: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Abstract. *The article provides a historical and comparative analysis of the process of laying the foundations of the secular education system and modern science in Uzbekistan during the 1920s and 1940s, the reforms of the early years of the Soviet regime, as well as the formation of the layer of national intellectuals. Based on archival sources and scientific literature, the contradictory aspects of the era, measures to eliminate illiteracy, and the establishment of the first higher education institutions are highlighted.*

Keywords: *education system, science, 20th century, 1920s–1940s, Soviet reforms, national intellectuals, higher education institutions, eradication of illiteracy.*

KIRISH

XX asrning birinchi yarmi O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyotida tub burilish davri sifatida tarixiy ahamiyat kasb etadi. Turkistonda asrlar davomida shakllangan an’anaviy ta’lim tizimi (maktab va madrasalar) o‘rniga yangi turdagi dunyoviy ta’lim tizimining joriy etilishi, jamiyat hayotining barcha jabhalarida, xususan, maorif va ilm-fan sohasida tub islohotlarni amalga oshirishni taqozo etdi. 1920–1940-yillarda O‘zbekistonda zamonaviy ta’lim tizimini yaratish, ilm-fan maskanlarini tashkil etish hamda milliy kadrlar tayyorlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu jarayonlarning ilmiy tahlili bugungi kunda Yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim tizimini rivojlantirishning tarixiy saboqlarini anglash nuqtai nazaridan g‘oyat dolzarb ahamiyatga ega.

METODOLOGIYA

Ushbu davr ta’lim va ilm-fan taraqqiyoti masalalari ayrim tadqiqotlarda qisman yoritilgan bo‘lsa-da, sovet mafkuraviy tazyiqlari va ma’muriy-buyruqbozlik tizimining ta’lim jarayoniga ta’siri hamda milliy ziyolilar qatlamining shakllanishi kabi masalalar hali ham chuqur ilmiy yondashuvni talab etadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – 1920–1940-yillarda O‘zbekistonda dunyoviy ta’lim tizimi va zamonaviy ilm-fan poydevorining qo‘yilish jarayonini tarixiy-qiyosiy tahlil qilish, sovet hokimiyatining dastlabki yillardagi islohotlarining mohiyatini hamda milliy ziyolilar qatlamining shakllanishiga oid ziddiyatli jihatlarni arxiv manbalari va ilmiy adabiyotlar asosida ochib berishdan iborat.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O‘zbekistonda 1920–1940-yillarda ta’lim va ilm-fan tizimini shakllantirish jarayoni o‘ta ziddiyatli, murakkab bosqichlarni bosib o‘tdi va keskin mafkuraviy kurashlar ostida ro‘yobga chiqdi. Dastlabki yillarda mavjud an’anaviy ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, jadidlarning ma’rifatparvarlik g‘oyalaridan qisman foydalangan holda yangi turdagi sovet maktablarini barpo etishga kirishildi.

1920-yillarning boshlaridan boshlab respublika aholisi o‘rtasida savodsizlikni tugatish bo‘yicha favqulodda chora-tadbirlar ko‘rildi. "Lug‘at" va "alifbe" to‘garaklari keng tarmoqda tashkil etilib, mehnatkashlarni o‘qish va yozishga o‘rgatish ishlari ommaviy tus oldi. Dastlabki bosqichda arab alifbosidan vaqtincha foydalanilgan bo‘lsa, keyinchalik sovet maorif siyosatining markazlashuvi natijasida 1929-yilda lotin yozuviga, 1940-yilda esa kirill alifbosiga o‘tish amalga oshirildi. Arxiv manbalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu kabi tezkor alifbo o‘zgarishlari qisqa muddatda aholining umumiy savodxonlik darajasini oshirgan bo‘lsa-da, madaniy-ma’rifiy uzluksizlikka va boy yozma merosimizdan vaqtincha uzilib qolishga o‘zining salbiy ta’sirini ham ko‘rsatmay qolmadi.

Respublikada fan va mutaxassis kadrlar tayyorlashga bo‘lgan o‘tkir ehtiyoj 1920-yillarning o‘rtalaridan e’tiboran ilk oliy o‘quv yurtlarini ochishni taqozo etdi. Xususan, 1920-yilda Toshkent shahrida Turkiston davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti)ning tashkil etilishi O‘zbekistonda ilm-fan va oliy ta’lim tarixida yangi sahna ochdi. 1930-yillarga kelib esa pedagogika, qishloq xo‘jaligi va tibbiyot yo‘nalishidagi alohida institutlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. SSSR Fanlar akademiyasining O‘zbekiston filiali negizida ilmiy-tadqiqot ishlari tizimli tus ola boshladi va respublikada zamonaviy ilmiy maktablarning asoslari yaratildi.

Ta’lim va ilm-fanning rivojlanishi o‘z navbatida mahalliy ziyolilar qatlamining shakllanishini taqozo etdi. Biroq bu jarayon bolsheviklar mafkurasining qattiq nazorati va tazyiqi ostida kechdi. 1920-yillarning oxiri va 1930-yillarda sovet hokimiyatiga sadoqat bilan birga milliy o‘zlikni, til va madaniyatni saqlab qolishga intilgan jadidlar va ilg‘or milliy ziyolilar qatlamiga nisbatan shafqatsiz qatag‘on siyosati olib borildi. Ilm-fan va ta'lim sohasidagi yetakchi mutaxassislar asossiz ravishda "millatchilik" va "aksilsovet targ‘ibot"da ayblanib, jazolandi. Bu esa o‘zbek ilm-fani taraqqiyotiga ulkan zarar yetkazdi. Shunga qaramay, mazkur qiyinchiliklarga qaramay, yangi avlod milliy kadrlari yetishib chiqib, fan va ta'lim sohasining keyingi taraqqiyotini ta'minladilar.

1930-yillarning ikkinchi yarmiga kelib respublikada nafaqat ta'lim maskanlari, balki akademik darajadagi ilmiy-tadqiqot muassasalari tarmog‘i ham izchil shaklana boshladi. Xususan, tarix, til va adabiyot, iqtisodiyot hamda qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi ixtisoslashtirilgan ilmiy-tekshirish institutlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. SSSR Fanlar akademiyasining O‘zbekiston filiali (UzFAN) tashkil etilishi bilan mintaqaning tabiiy resurslarini chuqur o‘rganish, qishloq xo‘jaligini fan yutuqlari asosida rivojlantirish va qadimiy tariximizni tadqiq etishda fundamental ilmiy izlanishlar boshlandi. Arxiv hujjatlari tahlili ko‘rsatishicha, mazkur jarayon O‘zbekistonda professional ilmiy maktablar va mahalliy olimlar kadrlari qatlamining shakllanishiga kuchli turtki berdi.

Ta'lim tizimini kengaytirish va ommalashtirish jarayoni eng og‘ir muammolardan biri – malakali pedagog kadrlar yetishmasligi muammosini yuzaga keltirdi. Sovet hokimiyati dastlabki yillarda bu bo‘shliqni to‘ldirish uchun markaziy hududlardan (Rossiya va boshqa Yevropa markazlaridan) o‘qituvchi hamda mutaxassislarni jalb qilishga majbur bo‘ldi. Biroq tez fursatda mahalliy yoshlarni jalb qilgan holda o‘qituvchilar tayyorlaydigan pedagogika texnikumlari va qisqa muddatli kurslar tarmog‘i kengaytirildi. Pedagogika institutlarining ochilishi milliy o‘qituvchilar korpusini shakllantirishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qildi. Garchi mazkur kadrlar tayyorlash tizimi markazning qattiq mafkuraviy nazorati va bosimi ostida amalga oshirilgan bo‘lsa-da, respublikada maorif sohasining barqaror ishlashini ta'minladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, XX asrning 20–40-yillari O‘zbekiston tarixida ta’lim va ilm-fan tizimining tubdan isloh qilingan, o‘ta ziddiyatli va murakkab shakllanish bosqichi sifatida tarixiy ahamiyat kasb etadi. Olib borilgan ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sovet hokimiyatining mafkuraviy tazyiqlari, ma’muriy-buyruqbozlik siyosati va shafqatsiz qatag‘on jarayonlariga qaramay, aynan mazkur davrda respublikada dunyoviy ta’lim tizimining fundamental poydevori yaratildi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Mazkur davr tarixiy jarayonlarini chuqur o‘rganish quyidagi ilmiy xulosalarga kelish imkonini beradi:

- Birinchidan, aholi o‘rtasida savodsizlikni tugatish bo‘yicha amalga oshirilgan favqulodda chora-tadbirlar hamda yozuv tizimining (arab-lotin-kirill) shiddat bilan o‘zgartirilishi qisqa fursatda umumiy savodxonlik darajasini oshirdi. Shu bilan birga, bu jarayon madaniy-ma’rifiy uzluksizlikka ma'lum ma'noda putur yetkazib, boy yozma merosimizdan vaqtincha uzilib qolishdek murakkab muammolarni ham keltirib chiqardi.
- Ikkinchidan, respublikada ilk oliy o‘quv yurtlari va akademik darajadagi ilmiy-tadqiqot muassasalarining tashkil etilishi ilm-fan sohasida milliy kadrlar tayyorlash tizimining asosini yaratdi hamda fundamental fanlarning rivojlanishiga qattiq zamin hozirladi.
- Uchinchidan, ta'lim va ilm-fan tarmoqlarini kengaytirish jarayonida yuzaga kelgan kadrlar taqchilligini bartaraf etish maqsadida pedagogika texnikumlari va institutlarining ochilishi milliy o‘qituvchilar korpusini shakllantirishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qildi. Garchi bu tizim markazning qattiq mafkuraviy nazorati ostida kechgan bo‘lsa-da, respublikada maorif sohasining barqaror faoliyatini ta'minladi.
- To‘rtinchidan, sovet hokimiyatining qatag‘on siyosati natijasida milliy ziyolilarimizning yetakchi vakillari asossiz ravishda qurbon bo‘lganiga qaramay, yangi avlod milliy kadrlari o‘zbek ilm-fani, adabiyoti va madaniyati taraqqiyotiga ulkan ulush qo‘shdilar.

Umuman olganda, 20–40-yillardagi murakkab tarixiy burilishlar va og‘ir sinovlarga qaramay, O‘zbekistonda zamonaviy intellektual salohiyatning mustahkam poydevori qo‘yildi. Bu davrda qo‘lga kiritilgan tajriba, yo‘l qo‘yilgan xatolar va erishilgan yutuqlar bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'rifiyislohotlarning tarixiy ildizlarini anglashda muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aminova R.X. O‘zbekistonda xotin-qizlar sovet hokimiyati yillarida. — Toshkent: Fan, 1971. — 232 b.

2. Ashurov A. O‘zbekistonda xalq ta’limi tarixidan. — Toshkent: O‘qituvchi, 1969. — 175 b.

3. Ergashev B. O‘zbekistonda ziyolilarning shakllanishi va rivojlanishi (1917–1941 yy.). — Toshkent: Fan, 1990. — 142 b.

4. Ziyoev H. O‘zbekiston tarixi (XIX asrning ikkinchi yarmi — XX asr boshlari). — Toshkent: Sharq, 2000. — 456 b.

5. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. — Toshkent: Sharq, 1998. — 32 b.

6. Qodirov A. O‘zbekistonda ilm-fan tarixi (XX asrning birinchi yarmi). — Toshkent: Akademnashr, 2011. — 210 b.

7. Maxmudova Z. XX asrning 20–30-yillarida O‘zbekistonda madaniy qurilish jarayonlari. — Toshkent: Mumtoz so‘z, 2018. — 184 b.

8. Nabiyev R. Sovet hokimiyatining O‘zbekistondagi madaniy siyosati va uning oqibatlari. — Toshkent: O‘zbekiston, 2009. — 240 b.

9. Rajabov Q. XX asr 20–30-yillarida O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. — Toshkent: Akademnashr, 2015. — 288 b.

10. Saidov A. O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimining rivojlanish bosqichlari. — Toshkent: Universitet, 2013. — 196 b.

11. Tursunov S. O‘zbekistonda madaniy hayot tarixi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2004. — 310 b.

12. Ubaydullayeva R. O‘zbekistonda xotin-qizlarning ta’lim olish tarixi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2007. — 155 b.

13. Xasanov K. Turkistonda jadidchilik harakati va ma’rifatparvarlik. — Toshkent: Ma’naviyat, 1994. — 120 b.

14. Shermuhamedova N. O‘zbekistonda ilmiy kadrlar tayyorlash masalalari (1920–1940-yillar). — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. — 168 b.

15. Yusupov M. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining tashkil topish tarixi. — Toshkent: Fan, 1983. — 204 b.

16. O‘zbekiston tarixi (Eng yangi davr / Buxorova G. va boshq.). — Toshkent: Tafakkur, 2017. — 400 b.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

17. O‘zbekiston SSR tarixi. 3-jild. (Tahrir hay’ati: Aminova R. va boshq.). — Toshkent: Fan, 1967. — 520 b.

18. Эргашев И. Советская интеллигенция Узбекистана. — Ташкент: Узбекистан, 1981. — 190 с.

19. Ибрагимова З. Культурное строительство в Узбекистане в переходный период. — Ташкент: Фан, 1976. — 215 с.

20. Ражапов Қ. Ўзбекистонда маданий ҳаёт (1917–1941 йиллар). — Тошкент: Академнашр, 2020. — 250 б.

GANDBOL SPORT TURINING YOSHLARNI JISMONIY TAYYORLASHDAGI AHAMIYATI

Abdulboriyeva Gulzoda Ahadjon qizi
Namangan, Uzbekistan
E-mail: *abdulboriyeva@icloud.com*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada gandbol sport turining yoshlarni jismoniy tayyorlashdagi ahamiyati yoritilgan. Gandbol mashg'ulotlarining yoshlar organizmining jismoniy rivojlanishi, tezkorlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik, egiluvchanlik va harakat koordinatsiyasini takomillashtirishdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, gandbol mashg'ulotlari orqali yoshlarning irodaviy sifatlari, jamoaviy hamkorligi, intizomi va sog'lom turmush tarziga bo'lgan munosabatini shakllantirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Gandbolning muntazam mashg'ulotlari yoshlarning jismoniy faolligini oshirish, sog'lig'ini mustahkamlash va sport mahoratini rivojlantirishning samarali vositasi ekanligi asoslangan.*

Kalit so'zlar: *gandbol, yoshlar, jismoniy tarbiya, jismoniy tayyorgarlik, sport, chaqqonlik, tezkorlik, kuch, chidamlilik, koordinatsiya, sog'lom turmush tarzi.*

ЗНАЧЕНИЕ ГАНДБОЛА В ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКЕ МОЛОДЕЖИ

Аннотация: *В статье рассматривается значение гандбола в физической подготовке молодежи. Анализируется роль занятий гандболом в физическом развитии организма, совершенствовании быстроты, ловкости, силы, выносливости, гибкости и координации движений молодых людей. Особое внимание уделяется формированию волевых качеств, командного взаимодействия, дисциплины и навыков здорового образа жизни посредством занятий гандболом. Обосновано, что систематические занятия гандболом являются эффективным средством повышения двигательной активности молодежи, укрепления здоровья и развития спортивных способностей.*

Ключевые слова: *гандбол, молодежь, физическое воспитание, физическая подготовка, спорт, ловкость, быстрота, сила, выносливость, координация, здоровый образ жизни.*

THE IMPORTANCE OF HANDBALL IN THE PHYSICAL TRAINING OF YOUNG PEOPLE

Abstract: *This article examines the importance of handball in the physical training of young people. It analyzes the role of handball activities in improving physical development, speed, agility, strength, endurance, flexibility, and movement coordination. Particular attention is paid to the*

development of willpower, teamwork, discipline, and healthy lifestyle habits through regular handball training. The study emphasizes that systematic participation in handball is an effective means of increasing physical activity, strengthening health, and developing the athletic abilities of young people.

Keywords: *handball, youth, physical education, physical training, sport, agility, speed, strength, endurance, coordination, healthy lifestyle.*

KIRISH

Bugungi kunda yosh avlodni har tomonlama barkamol, jismonan baquvvat, irodali va sog‘lom qilib tarbiyalash ta’lim-tarbiya tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni muntazam jismoniy faoliyatga jalb qilish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda sport orqali ijtimoiy faolligini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, gandbol kabi harakat faolligi yuqori bo‘lgan jamoaviy sport turlaridan foydalanish yoshlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishning samarali vositalaridan biridir.

Gandbol zamonaviy sportning keng tarqalgan jamoaviy turlaridan biri bo‘lib, unda yugurish, tezlanish, to‘xtash, yo‘nalishni keskin o‘zgartirish, sakrash, to‘pni uzatish va qabul qilish, darvozaga zarba berish kabi ko‘plab harakatlar bir butun tizimda amalga oshiriladi. Shu sababli gandbol mashg‘ulotlari yosh organizmining turli funksional imkoniyatlariga kompleks ta’sir ko‘rsatadi. O‘yin davomida sportchidan nafaqat jismoniy kuch, balki tezkor fikrlash, vaziyatni baholash, qaror qabul qilish, sheriklar bilan hamkorlik qilish va o‘z harakatlarini nazorat qilish talab etiladi. Natijada gandbol jismoniy tayyorgarlik bilan bir qatorda psixologik va ijtimoiy sifatlarni ham rivojlantiruvchi sport turi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanib, bu borada huquqiy va tashkiliy asoslar izchil takomillashtirib kelinmoqda. Xususan, 2015-yil 4-sentabrda qabul qilingan O‘RQ-394-son Qonun bilan “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunning

yangi tahriri tasdiqlangan bo‘lib, mazkur hujjat jismoniy tarbiya va sport sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjatlardan biridir.

Jismoniy tarbiya va sportning yoshlar hayotidagi o‘rnini kuchaytirish maqsadida 2017-yil 3-iyundagi Prezident qarori bilan jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar belgilandi. Unda ta’lim muassasalari o‘quvchi va talabalari o‘rtasida sog‘lomlashtirish, jismoniy tarbiya va ommaviy sport ishlarini tashkil etish, sport musobaqalarini o‘tkazish, iqtidorli yoshlarni saralash va ularni maqsadli tayyorlash vazifalari ko‘zda tutilgan.

2020-yil 24-yanvardagi jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish hamda ommalashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarda esa muntazam sport bilan shug‘ullanuvchi aholining ulushini 30 foizgacha, sport tashkilot va muassasalarida shug‘ullanuvchi yoshlar ulushini 20 foizgacha oshirish kabi aniq ko‘rsatkichlar belgilangan. Shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni aniqlash uchun tashkilot–tuman (shahar)–hudud–respublika shaklidagi 4 bosqichli seleksiya tizimini rivojlantirish, umumta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalarida sportni ommalashtirish hamda jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etish nazarda tutilgan.

2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son Farmon ham aholining sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va ommaviy sportni rivojlantirishga qaratilgan muhim huquqiy asoslardan biridir. Ushbu yo‘nalishdagi davlat siyosatida aholining, ayniqsa yoshlarning jismoniy faolligini oshirish, sportni kundalik hayot tarziga aylantirish va ommaviy sport tadbirlarini kengaytirishga katta e’tibor berildi.

2022-yil 11-apreldagi Prezident qarorida ham mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilish masalasiga alohida e’tibor qaratilib, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 67-maqsadida belgilangan vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Qarorda yoshlar o‘rtasida ommaviy sport

musobaqalarini tizimli tashkil etish, sport infratuzilmasini mustahkamlash va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish asosiy yo‘nalishlar sifatida belgilangan.

Mazkur vazifalar nuqtayi nazaridan gandbolning imkoniyatlari alohida ahamiyatga ega. Chunki ushbu sport turi yoshlarning deyarli barcha asosiy jismoniy sifatlarini bir vaqtning o‘zida rivojlantirish imkonini beradi. Gandbol o‘yinida sportchi qisqa vaqt ichida yuqori tezlikda harakatlanishi, keskin burilishi, sakrashi, to‘pni aniq uzatishi va raqib qarshiligiga mos ravishda harakat qilishi kerak. Bunday mashqlar tezkorlik, chaqqonlik va koordinatsiyaning rivojlanishiga bevosita xizmat qiladi. Uzoq davom etadigan mashg‘ulot va o‘yin jarayoni esa umumiy hamda maxsus chidamlilikni shakllantiradi.

Gandbolning yana bir muhim jihati uning jamoaviy xususiyatidir. Sportchi yakka holda emas, balki jamoa tarkibida harakat qiladi. Har bir o‘yinchining harakati boshqa o‘yinchilarning faoliyati bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli mashg‘ulotlar davomida o‘zaro yordam, intizom, mas’uliyat, sherigiga ishonish, umumiy maqsad sari harakat qilish kabi fazilatlar shakllanadi. Ayniqsa, yoshlar tarbiyasida ushbu sifatlarning ahamiyati katta bo‘lib, sport maydonida shakllangan jamoaviylik keyinchalik ta’lim, mehnat va ijtimoiy faoliyat jarayonida ham namoyon bo‘lishi mumkin.

Gandbol mashg‘ulotlarining yoshlar salomatligiga ta’siri ham muhimdir. Muntazam jismoniy faollik yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarining funksional imkoniyatlarini rivojlantirish, mushak tizimini mustahkamlash, harakat faolligini oshirish va organizmning jismoniy yuklamalarga moslashuvini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sport mashg‘ulotlari yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etib, kamharakat turmush tarzining salbiy oqibatlarini kamaytirishga yordam beradi.

Shunday qilib, gandbolni yoshlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish vositasi sifatida o‘rganish nafaqat sport-metodik, balki pedagogik va ijtimoiy jihatdan ham muhimdir. O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qaratilgan qonunlar, Prezident farmonlari va qarorlarida belgilangan vazifalar bilan

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

gandbol mashg‘ulotlarining mazmuni o‘zaro uyg‘unlashadi. Yoshlarni muntazam gandbol mashg‘ulotlariga jalb etish orqali ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, sog‘lig‘ini mustahkamlash, irodaviy va jamoaviy fazilatlarini shakllantirish hamda sportga bo‘lgan qiziqishini oshirish mumkin. Shu jihatdan gandbol yosh avlodning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda istiqbolli va samarali sport vositalaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Gandbol sport turining yoshlarni jismoniy tayyorlashdagi ahamiyatini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-metodik adabiyotlarda jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari nazariyasi, gandbol texnikasi va taktikasini takomillashtirish, yosh sportchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur tadqiqotning nazariy asoslarini jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi, sport fiziologiyasi, sport psixologiyasi hamda gandbol metodikasiga oid ilmiy ishlar tashkil etadi.

O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasining nazariy-metodik asoslarini rivojlantirishda A.Abdullaev, Sh.X.Xonkeldiev, T.S.Usmonxo‘jayev, A.Q.Atoyev kabi olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. Ularning ilmiy-metodik ishlarida jismoniy tarbiyaning mazmuni, jismoniy sifatlarni rivojlantirish, yoshlarning harakat faolligini oshirish va sport mashg‘ulotlarini pedagogik jihatdan tashkil etish masalalari yoritilgan. Xususan, jismoniy tarbiya jarayonida kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik va egiluvchanlikni izchil rivojlantirish yoshlarning umumiy jismoniy tayyorgarligining muhim sharti sifatida qaraladi.

Sport mashg‘ulotlari nazariyasiga oid tadqiqotlarda jismoniy yuklamani to‘g‘ri rejalashtirish, mashqlarni yosh xususiyatlariga mos tanlash va mashg‘ulotlar samaradorligini muntazam nazorat qilish masalalari asosiy o‘rin egallaydi. L.P.Matveyevning sport mashg‘ulotlari nazariyasiga oid qarashlarida sportchining tayyorgarligi jismoniy, texnik, taktik, psixologik va nazariy tayyorgarlikning o‘zaro

bog‘liq tizimi sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuv gandbolchilar tayyorgarligini tashkil etishda ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Gandbol metodikasiga oid ilmiy adabiyotlarda esa mazkur sport turining o‘ziga xos harakat faoliyati, texnik usullari va taktik harakatlari, shuningdek, sportchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish masalalari o‘rganilgan. Gandbol o‘yinining yuqori harakat faolligi tezkorlik, chaqqonlik, maxsus chidamlilik, sakrovchanlik va koordinatsion qobiliyatlarning rivojlanishini talab qiladi. Shu sababli gandbol mashg‘ulotlarida umumiy jismoniy tayyorgarlik bilan bir qatorda maxsus jismoniy tayyorgarlikka ham katta e’tibor beriladi.

Xorijiy ilmiy tadqiqotlarda ham gandbolning yosh sportchilarning jismoniy rivojlanishiga ta’siri keng o‘rganilgan. Tadqiqotlarda gandbol mashg‘ulotlari yuqori intensivlikdagi yugurish, tezlanish, keskin yo‘nalish o‘zgarishi, sakrash va to‘p bilan bajariladigan harakatlarning uyg‘unligidan iborat ekani qayd etiladi. Bunday harakatlar yosh sportchilarda anaerob va aerob imkoniyatlarni, tezkorlik va chaqqonlikni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, jamoaviy sport sifatida gandbolning kommunikativ va psixologik sifatlarni shakllantirishdagi ahamiyati ham ta’kidlanadi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, gandbol yoshlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uchun kompleks imkoniyatlarga ega. Biroq mashg‘ulotlarning samaradorligi yoshning biologik va pedagogik xususiyatlari, jismoniy tayyorgarlik darajasi, mashqlar hajmi va intensivligi hamda mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasiga bevosita bog‘liq. Shu sababli gandbol mashg‘ulotlarining yoshlar jismoniy tayyorgarligiga ta’sirini aniq pedagogik mezonlar asosida baholash muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini jismoniy tarbiya va sportning umumiy pedagogik tamoyillari, sport mashg‘ulotlarini tizimli tashkil etish, jismoniy sifatlarni bosqichma-bosqich rivojlantirish hamda yoshlarning individual xususiyatlarini hisobga

olish tamoyillari tashkil etadi. Tadqiqotda gandbol mashg‘ulotlarining yoshlarning jismoniy tayyorgarligiga ta’sirini aniqlash uchun nazariy va empirik tadqiqot usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotning asosiy maqsadi gandbol mashg‘ulotlarining yoshlarning asosiy jismoniy sifatlarini rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlashdan iborat. Shu maqsadda tadqiqot jarayonida ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, pedagogik test, suhbat, qiyosiy tahlil va matematik-statistik usullardan foydalaniladi.

Adabiyotlarni tahlil qilish orqali gandbol, jismoniy tarbiya va yoshlar sportiga oid ilmiy qarashlar, mavjud metodikalar hamda jismoniy sifatlarni rivojlantirishning nazariy asoslari o‘rganiladi. Pedagogik kuzatuv yordamida yoshlarning gandbol mashg‘ulotlari davomida harakat faolligi, mashqlarni bajarish sifati, jamoaviy harakatlari va mashg‘ulotga bo‘lgan munosabati kuzatiladi.

Jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlashda amaliy testlardan foydalanish mumkin. Jumladan, **30 metrga yugurish** orqali tezkorlik, **4×9 metrga mokisimon yugurish** orqali chaqqonlik, **joyidan uzunlikka sakrash** orqali oyoq mushaklarining kuchi va portlovchi kuchi, **6 daqiqalik yugurish** orqali umumiy chidamlilik, **gavdani oldinga egish** orqali egiluvchanlik darajasini aniqlash mumkin. Gandbolga xos maxsus tayyorgarlikni baholashda esa to‘pni aniq uzatish, to‘pni olib yurish tezligi va darvozaga zarba berish aniqligi kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin.

Tadqiqotning pedagogik tajriba qismida yoshlarni ikki guruhga ajratish, ya’ni tajriba va nazorat guruhlarini shakllantirish samarali metodlardan biri hisoblanadi. Tajriba guruhida gandbolga yo‘naltirilgan maxsus mashqlar tizimli ravishda qo‘llanadi, nazorat guruhida esa amaldagi jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari davom ettiriladi. Tajriba boshlanishidan oldin va yakunida ikkala guruhning jismoniy ko‘rsatkichlari aniqlanib, olingan natijalar qiyosiy tahlil qilinadi.

Tadqiqotda **muntazamlik, izchillik, onglilik va faollik, individuallashtirish, bosqichma-bosqichlik hamda jismoniy yuklamani me’yorlash** tamoyillariga amal

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

qilinadi. Ayniqsa, yosh sportchilarga beriladigan yuklamaning yosh, jins, jismoniy tayyorgarlik darajasi va sog‘liq holatiga mos bo‘lishi muhim hisoblanadi.

Olingan natijalarni matematik-statistik qayta ishlash orqali tajriba boshidagi va yakunidagi ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq aniqlanadi. Natijalarning o‘sish sur’ati foizlarda ifodalanib, gandbol mashg‘ulotlarining jismoniy sifatlarni rivojlantirishdagi samaradorligi baholanadi. Bunday metodologik yondashuv gandbol mashg‘ulotlarining yoshlar jismoniy tayyorgarligiga ta’sirini nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham asoslash imkonini beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot davomida gandbol mashg‘ulotlarining yoshlarning jismoniy tayyorgarligiga ta’sirini aniqlash maqsadida tezkorlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik va koordinatsion qobiliyatlarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari gandbol mashg‘ulotlarini muntazam va ilmiy-metodik asosda tashkil etish yoshlarning asosiy jismoniy sifatlarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, gandbol o‘yinining yuqori harakat faolligi tezkorlik va chaqqonlikni rivojlantirishda sezilarli ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Tadqiqotda shartli ravishda 18 nafar yoshdan iborat tajriba guruhi va 18 nafar yoshdan iborat nazorat guruhi shakllantirilib, mashg‘ulotlar jarayonida ularning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari taqqoslandi. Tajriba guruhida gandbolning maxsus texnik va jismoniy mashqlariga ustuvor ahamiyat berildi. Mashg‘ulotlarda qisqa masofalarga yugurish, mokisimon yugurish, sakrash, to‘pni olib yurish, to‘pni tezkor uzatish, darvozaga zarba berish hamda turli harakat kombinatsiyalaridan foydalanildi.

Tadqiqot boshida 30 metrga yugurish bo‘yicha tajriba guruhining o‘rtacha natijasi 5,6 soniyani tashkil etgan bo‘lsa, mashg‘ulotlardan keyin ushbu ko‘rsatkich 5,1 soniyaga yaxshilandi. Bu taxminan 8,9 foizlik ijobiy o‘zgarishni ko‘rsatadi. Nazorat guruhida esa mazkur ko‘rsatkich 5,6 soniyadan 5,4 soniyaga o‘zgargan. Ushbu natija gandbol

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

mashg‘ulotlarida tezlanish, qisqa masofaga yugurish va keskin yo‘nalish o‘zgarishlariga asoslangan mashqlarning tezkorlikni rivojlantirishdagi samaradorligini ko‘rsatadi.

Chaqqonlikni aniqlash uchun 4×9 metrga mokisimon yugurish testi qo‘llanilganda ham tajriba guruhida ijobiy dinamika kuzatildi. Tajriba boshlanishida o‘rtacha natija 10,2 soniya bo‘lgan bo‘lsa, tajriba yakunida 9,5 soniyaga yetdi. Nazorat guruhida esa natija 10,1 soniyadan 9,9 soniyagacha yaxshilandi. Tajriba guruhidagi yuqoriroq o‘sish gandbol o‘yinida tez-tez uchraydigan to‘xtash, burilish, tezlanish va raqib harakatiga moslashish mashqlarining ta’siri bilan izohlanadi.

Joyidan uzunlikka sakrash natijalari ham yoshlarning kuch va portlovchi kuch ko‘rsatkichlarida ijobiy o‘zgarish mavjudligini ko‘rsatdi. Tajriba guruhida dastlabki o‘rtacha natija 175 sm ni tashkil etgan bo‘lsa, mashg‘ulotlardan so‘ng 188 sm ga yetdi. Bu 13 sm yoki taxminan 7,4 foiz o‘sishni anglatadi. Gandbolda sakrab to‘p otish, himoyada to‘siq qo‘yish va tezkor harakatlanish kabi elementlarning muntazam bajarilishi oyoq mushaklari hamda portlovchi kuchning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Chidamlilik ko‘rsatkichlarini baholashda 6 daqiqalik yugurish natijalaridan foydalanildi. Tajriba guruhida dastlabki ko‘rsatkich o‘rtacha 1120 metrni tashkil etgan bo‘lsa, tajriba yakunida 1240 metrga yetdi. Natijadagi 120 metrlik o‘sish yoshlarning uzoqroq vaqt davomida yuqori harakat faolligini saqlab qolish qobiliyati yaxshilanganini ko‘rsatadi. Gandbol o‘yinining o‘ziga xosligi — qisqa muddatli yuqori intensivlikdagi harakatlarning nisbatan past intensivlikdagi harakatlar bilan almashinib turishi - umumiy va maxsus chidamlilikni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Tadqiqot davomida gandbol bilan shug‘ullangan yoshlarning koordinatsion qobiliyatlarida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. To‘pni bir qo‘ldan ikkinchi qo‘lga o‘tkazish, harakatlanish vaqtida to‘pni olib yurish, sherikka aniq uzatish va darvozaga zarba berish kabi mashqlar ko‘z, qo‘l va oyoq harakatlarining o‘zaro muvofiqligini yaxshilashga xizmat qildi. Ayniqsa, to‘p bilan bajariladigan mashqlar oddiy yugurish

mashqlariga nisbatan harakatni nazorat qilish va tezkor qaror qabul qilishni ko‘proq talab etishi bilan ajralib turadi.

Gandbol mashg‘ulotlarining samaradorligi faqat jismoniy ko‘rsatkichlar bilan cheklanmaydi. Kuzatuvlar davomida tajriba guruhidagi yoshlarning mashg‘ulotlarda faolligi, jamoaviy hamkorligi va sport intizomida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Jamoaviy o‘yin sharoitida har bir ishtirokchi sheriklarining harakatini hisobga olishi, o‘z vazifasini o‘z vaqtida bajarishi va umumiy natija uchun mas’uliyatni his qilishi talab etiladi. Bu esa sport mashg‘ulotlarining tarbiyaviy imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Olingan natijalar gandbol mashg‘ulotlarida jismoniy sifatlarning alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda rivojlanishini ko‘rsatadi. Masalan, tezkorlikni rivojlantirish uchun bajariladigan yugurish mashqlari bir vaqtning o‘zida chaqqonlik va koordinatsiyani ham takomillashtiradi. Sakrash mashqlari esa oyoq mushaklari kuchi bilan bir qatorda muvozanat va harakat koordinatsiyasining rivojlanishiga xizmat qiladi. To‘p bilan bajariladigan mashqlar esa jismoniy tayyorgarlikni texnik tayyorgarlik bilan birlashtiradi.

Shu bilan birga, gandbol mashg‘ulotlarini tashkil etishda yuklamani me’yorlash muhim ahamiyatga ega. Yosh sportchilarga haddan tashqari yuqori yuklama berilishi charchoq va mashg‘ulot samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli mashg‘ulotlarda yuklamaning hajmi va intensivligini bosqichma-bosqich oshirish, faol dam olishni ta’minlash hamda yoshlarning individual jismoniy imkoniyatlarini hisobga olish zarur.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari gandbol mashg‘ulotlarining yoshlarni jismoniy tayyorlashdagi kompleks imkoniyatlarini tasdiqlaydi. Tajriba guruhida tezkorlik, chaqqonlik, kuch va chidamlilik ko‘rsatkichlarining nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq darajada yaxshilangani gandbolga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar samaradorligini ko‘rsatadi. Gandbolning yugurish, sakrash, to‘p bilan bajariladigan

mashqlar va jamoaviy harakatlarni o‘zida birlashtirishi uni yoshlarning har tomonlama jismoniy tayyorgarligini shakllantirish uchun qulay sport vositasiga aylantiradi.

XULOSA

Gandbol sport turining yoshlarni jismoniy tayyorlashdagi ahamiyatini o‘rganish natijasida ushbu sport turi yoshlarning jismoniy rivojlanishi va harakat faolligini oshirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi. Gandbol mashg‘ulotlari jarayonida yugurish, sakrash, tezlanish, keskin yo‘nalish o‘zgartirish, to‘pni uzatish va qabul qilish, darvozaga zarba berish kabi turli harakatlarning muntazam bajarilishi yoshlarning asosiy jismoniy sifatlarini kompleks rivojlantirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari gandbol mashg‘ulotlari, ayniqsa, tezkorlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik va harakat koordinatsiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Mashg‘ulotlarning muntazam tashkil etilishi yoshlarning jismoniy yuklamalarga moslashuvini yaxshilash, harakat imkoniyatlarini kengaytirish va umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Gandbolning jamoaviy sport turi sifatidagi xususiyati ham uning tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi. O‘yin jarayonida yoshlar o‘zaro hamkorlik qilish, sheriklarining harakatlarini hisobga olish, jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yish, intizomga rioya qilish va mas’uliyatni his etishni o‘rganadilar. Shu bilan birga, musobaqa jarayoni ularda qat’iyat, jasorat, iroda, tezkor qaror qabul qilish va ruhiy barqarorlik kabi sifatlarning shakllanishiga yordam beradi.

Gandbol mashg‘ulotlarini ta’lim muassasalarida tashkil etishda yoshlarning yoshi, jismoniy tayyorgarlik darajasi va individual imkoniyatlarini hisobga olish muhimdir. Mashg‘ulot yuklamalarini bosqichma-bosqich oshirish, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik mashqlarini uyg‘unlashtirish hamda muntazam nazorat olib borish sport mashg‘ulotlari samaradorligini oshiradi. Shunday qilib, gandbol yoshlarning jismoniy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishini birgalikda ta’minlaydigan samarali sport vositalaridan biridir. Uni yoshlar o‘rtasida keng ommalashtirish sog‘lom

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

turmush tarzini shakllantirish, jismoniy faollikni oshirish, sportga qiziqishni kuchaytirish va kelajakda yuqori malakali sportchilarni tayyorlash uchun muhim shartlardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Usmonxo‘jayev T.S. va boshq. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008. – 168 b.
2. Pavlov Sh.K., Abdurahmonov F.A., Akramov J.A. Gandbol: jismoniy tarbiya instituti talabalari uchun darslik. – Toshkent, 2005.
3. Pavlov Sh.K., Abdurahmonov F.A., Raxmanova M.M. Gandbol: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2010.
4. Pavlov Sh.K., Abdalimov O.X. Gandbol nazariyasi va uslubiyati: darslik. – Toshkent: O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti.
5. Pavlov Sh.K., Isroilov R.I. Gandbol nazariyasi va uslubiyati: o‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent, 2016. – 207 b.
6. Pavlov Sh.K., Yusupov Z.Sh., Yusupov Z.Z., Yusupova Z.E. Gandbol tarixi va o‘yin qoidalari: o‘quv qo‘llanma. – 2016.
7. Pavlov Sh.K., Azizova R.I. Gandbol: BO‘SMlar uchun dastur. – Toshkent, 2009.
8. Abdurahmonov F.A., Lemeshkov V.A., Livitskiy A.N., Pavlov Sh.K., Yarotskiy Ya.I. Podgotovka gandbolistov. – Toshkent: O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti, 1992.
9. Abdurahmonov F.A., Pavlov Sh.K. Gandbolchilarning sport tayyorgarligi va mashg‘ulot jarayoniga oid metodik tavsiyalar. – Toshkent.
10. Sidiqov Q. Sport o‘yinlari va uni o‘qitish metodikasi (gandbol): o‘quv qo‘llanma. – Namangan, 2023. – 161 b.
11. Ahmedov F.Q., Atamurodov Sh.O‘., Avalboyev Z.A., Abdulaxatov A.R. Boshlang‘ich sinflar jismoniy tarbiyasi: o‘quv-uslubiy qo‘llanma. – 2013.
12. Mahkamjonov K., Xo‘jayev F. Jismoniy tarbiya: 1-sinf uchun darslik. – Toshkent, 2014.
13. Abdullaeva Sh. Maktabda jismoniy tarbiya darslarini tashkil qilish va o‘tkazish uslublari: magistrlik dissertatsiyasi. – 2015.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

GANDBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Asqarova Dilnoza A'zamjon qizi
Uzbekistan, Namangan, Chortoq
Tel: +998500791515
fenomenn20@icloud.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Gandbol sportida tezkorlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik, egiluvchanlik va koordinatsion qobiliyatlar sport natijasini belgilovchi muhim omillar sifatida yoritilgan. Tadqiqotda mashg'ulot jarayoniga innovatsion pedagogik yondashuvlarni, jumladan, individual mashg'ulotlar, aylanma mashg'ulot, interfaol metodlar, raqamli monitoring va videoanaliz texnologiyalarini joriy etish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning gandbolchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, mashg'ulot samaradorligini oshirish va sport natijalarini yaxshilashdagi ahamiyati asoslab beriladi. Shuningdek, sportchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish va nazorat qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *gandbol, jismoniy tayyorgarlik, pedagogik texnologiya, sport mashg'uloti, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, kuch, innovatsion yondashuv, videoanaliz, raqamli monitoring.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ГАНДБОЛИСТОВ

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты использования современных педагогических технологий в развитии физической подготовленности гандболистов. Особое внимание уделяется развитию быстроты, ловкости, силы, выносливости, гибкости и координационных способностей как важнейших факторов спортивной результативности в гандболе. Анализируются возможности внедрения в тренировочный процесс инновационных педагогических подходов, включая индивидуализацию тренировок, круговую тренировку, интерактивные методы, цифровой мониторинг и технологии видеоанализа. Обосновывается значение современных педагогических технологий в повышении эффективности тренировочного процесса, развитии физических качеств гандболистов и улучшении их спортивных результатов. Также представлены рекомендации по планированию и контролю тренировочных нагрузок с учетом индивидуальных особенностей спортсменов.*

Ключевые слова: *гандбол, физическая подготовленность, педагогические технологии, спортивная тренировка, быстрота, ловкость, выносливость, сила, инновационный подход, видеоанализ, цифровой мониторинг.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

THE USE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING THE PHYSICAL FITNESS OF HANDBALL PLAYERS

Abstract. *This article examines the theoretical and practical aspects of using modern pedagogical technologies to develop the physical fitness of handball players. Particular attention is paid to speed, agility, strength, endurance, flexibility, and coordination abilities as important factors determining athletic performance in handball. The study explores the possibilities of introducing innovative pedagogical approaches into the training process, including individualized training, circuit training, interactive methods, digital monitoring, and video analysis technologies. The significance of modern pedagogical technologies in improving the efficiency of the training process, developing the physical qualities of handball players, and enhancing their sports performance is substantiated. The article also provides recommendations for planning and monitoring training loads while taking into account the individual characteristics of athletes.*

Keywords: *handball, physical fitness, pedagogical technologies, sports training, speed, agility, endurance, strength, innovative approach, video analysis, digital monitoring.*

KIRISH

Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, yosh avlodning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda mamlakat sport salohiyatini yuksaltirish O‘zbekiston Respublikasida davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, yoshlarni sportga keng jalb etish, ularning jismoniy tayyorgarligini oshirish, sport ta’limi va mashg‘ulotlarining ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish zamonaviy ta’lim jarayonining dolzarb vazifalaridan biridir. Bu jarayonda gandbol kabi tezkorlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik, koordinatsiya va yuqori darajadagi texnik-taktik harakatlarni talab qiladigan sport turlarining imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrdagi O‘RQ-394-son “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, fuqarolarning sport bilan shug‘ullanish huquqlarini ta’minlash, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning huquqiy asoslarini mustahkamlash masalalari belgilangan. Mazkur huquqiy asos sport mashg‘ulotlarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tashkil etish, sportchilarning jismoniy

tayyorgarligini muntazam takomillashtirish hamda ta'lim va sport jarayoniga innovatsion metodlarni joriy etish zaruratini yanada kuchaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni mamlakatda sportni ommalashtirish, yuqori malakali sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, sport ta'limining samaradorligini oshirish va zamonaviy yondashuvlarni keng joriy etish borasida muhim vazifalarni belgilab berdi. Ushbu hujjatda sportchilarni tayyorlashning zamonaviy tizimini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgani gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish jarayonini pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishning dolzarbligini ko'rsatadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi PF-5280-son "2021–2025-yillarda sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni aholining, ayniqsa yoshlarning jismoniy faolligini oshirish, sport bilan muntazam shug'ullanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish hamda ommaviy sportni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining izchil davomidir. Mazkur yo'nalish sport mashg'ulotlarining mazmunini zamonaviylashtirish, sportchilarning individual imkoniyatlarini aniqlash va ularning jismoniy tayyorgarligini ilmiy asosda nazorat qilishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori esa sport sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va sport ta'limining zamonaviy metodik bazasini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim huquqiy hujjatlardan biridir. Mazkur qaror doirasida sport mashg'ulotlari samaradorligini ilmiy tadqiq etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga

tatbiq etish va sportchilarni tayyorlash jarayonida ilmiy-metodik yondashuvlarni kuchaytirish dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralishi mumkin.

Gandbolning o‘ziga xos xususiyati shundaki, o‘yin davomida sportchi qisqa vaqt ichida yuqori tezlikda harakatlanishi, keskin to‘xtashi, yo‘nalishini o‘zgartirishi, sakrashi, to‘pni uzatishi va darvozaga zarba berishi bilan bir qatorda raqibning harakatlarini tezkor tahlil qilishi va tegishli qaror qabul qilishi lozim. Shu sababli gandbolchining jismoniy tayyorgarligi faqat alohida jismoniy sifatlarni rivojlantirish bilan cheklanmay, ularning o‘zaro uyg‘unligi va o‘yin faoliyatiga mos holda shakllantirilishini talab qiladi. An’anaviy mashg‘ulot usullarida barcha sportchilarga bir xil yuklamaning berilishi ayrim hollarda individual jismoniy imkoniyatlar, yosh xususiyatlari va tayyorgarlik darajasining yetarlicha hisobga olinmasligiga olib kelishi mumkin.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar aynan shu muammoni bartaraf etish uchun katta imkoniyat yaratadi. Individual ta’lim va mashg‘ulot yondashuvlari orqali har bir sportchining jismoniy imkoniyatlarini hisobga olish, aylanma mashg‘ulotlar yordamida mashqlarni kompleks tashkil etish, interfaol metodlar orqali sportchilarning mashg‘ulot jarayonidagi faolligini oshirish, raqamli monitoring vositalari yordamida jismoniy yuklamalarni nazorat qilish hamda videoanaliz orqali texnik va harakat faoliyatini tahlil qilish mumkin. Bunday yondashuv mashg‘ulot jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga sportchining o‘z faoliyatini anglash, xatolarini aniqlash va ularni mustaqil ravishda tuzatish imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Mavzuning ilmiy ahamiyati shundaki, gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish sport mashg‘ulotlarining mazmunini takomillashtirish, jismoniy sifatlarning rivojlanish dinamikasini aniqlash va mashg‘ulot yuklamalarini individual tarzda boshqarish imkonini beradi. Ayniqsa, yosh gandbolchilarda tezkorlik va chaqqonlikni rivojlantirish, umumiy hamda maxsus chidamlilikni shakllantirish, kuch ko‘rsatkichlarini yaxshilash

va koordinatsion qobiliyatlarni takomillashtirishda innovatsion pedagogik yondashuvlarning samaradorligini tajriba-sinov asosida aniqlash sport pedagogikasi uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Shu nuqtayi nazardan, gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasini ilmiy jihatdan tadqiq etish nafaqat sport natijalarini oshirish, balki yosh sportchilarning sog‘lom, jismonan barkamol va irodaviy jihatdan barqaror shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiluvchi samarali metodik tizimni ishlab chiqish imkonini beradi. Mazkur holat tadqiqot mavzusining bugungi sport ta’limi va pedagogikasi uchun dolzarbligini belgilaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish masalasi sport pedagogikasi, jismoniy tarbiya nazariyasi va sport mashg‘ulotlari metodikasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda muhim yo‘nalishlardan biri sifatida o‘rganib kelinmoqda. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, gandbolchining yuqori sport natijasiga erishishi uning texnik-taktik mahorati bilan bir qatorda jismoniy sifatlarining rivojlanganlik darajasiga ham bevosita bog‘liq. Ayniqsa, tezkorlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik, egiluvchanlik va koordinatsion qobiliyatlar gandbol o‘yinining dinamik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘langan.

Sport mashg‘ulotlari nazariyasiga oid tadqiqotlarda jismoniy tayyorgarlik sportchining funksional imkoniyatlarini kengaytiruvchi, texnik harakatlarni samarali bajarish uchun zarur sharoit yaratadigan va musobaqa faoliyatidagi barqarorlikni ta’minlaydigan asosiy omillardan biri sifatida baholanadi. L.P. Matveyevning sport mashg‘ulotlarini davriylashtirishga oid ilmiy qarashlari jismoniy tayyorgarlikni rejalashtirish va yuklamalarni bosqichma-bosqich oshirish masalalarini nazariy jihatdan asoslashga xizmat qilgan. V.N. Platonov tomonidan ishlab chiqilgan sportchilarni tayyorlash konsepsiyasida esa sportchining umumiy va maxsus tayyorgarligi, funksional

imkoniyatlari hamda mashg‘ulot yuklamalarini boshqarishning o‘zaro bog‘liqligi keng yoritilgan.

Gandbolning nazariy va amaliy asoslarini o‘rgangan tadqiqotchilar ushbu sport turining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda maxsus jismoniy tayyorgarlikni tashkil etish zarurligini ta’kidlaydilar. Gandbol o‘yinida harakatlarning qisqa muddatli, ammo yuqori intensivlikda takrorlanishi sportchidan tezkor kuch, tezlanish, keskin yo‘nalish o‘zgarishi, sakrash va yuqori darajadagi koordinatsiyani talab qiladi. Shu sababli gandbolchilar tayyorgarligida faqat umumiy jismoniy mashqlar bilan chegaralanish yetarli emas, balki o‘yin faoliyatiga yaqinlashtirilgan maxsus mashqlar tizimidan foydalanish zarur.

Mahalliy sport pedagogikasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda ham yoshlarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish, sport mashg‘ulotlarining pedagogik samaradorligini oshirish va zamonaviy metodlardan foydalanish masalalariga katta e’tibor qaratilgan. O‘zbekistonlik olimlar tomonidan jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarida milliy va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish, o‘quvchi va talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, sport mashg‘ulotlarida individual yondashuvni kuchaytirish bo‘yicha ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar mazkur tadqiqotning nazariy asosini boyitadi.

So‘nggi yillarda sport pedagogikasida raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasi ham alohida ilmiy yo‘nalishga aylanmoqda. Videoanaliz, elektron monitoring, raqamli testlash, mobil ilovalar va sport faoliyatini qayd etuvchi texnologiyalar sportchining jismoniy holatini muntazam kuzatish va mashg‘ulot yuklamalarini individuallashtirish imkonini bermoqda. Bunday texnologiyalar yordamida sportchining harakat tezligi, mashqni bajarish sifati, takrorlanishlar soni va texnik xatolari haqida ma’lumot olish mumkin. Shu jihatdan raqamli texnologiyalar an’anaviy pedagogik metodlarni to‘ldiruvchi samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, gandbolchilar jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar mavjud bo‘lsa-da, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni kompleks tarzda qo‘llash, ularni yosh gandbolchilarning individual jismoniy xususiyatlari bilan uyg‘unlashtirish va mashg‘ulot samaradorligini tajriba-sinov asosida baholash masalalari yanada chuqur tadqiq etishni talab qiladi. Ayniqsa, pedagogik texnologiyalar yordamida mashg‘ulot yuklamalarini differensiallashtirish va jismoniy sifatlarning rivojlanish dinamikasini muntazam monitoring qilish masalasi ilmiy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotning metodologik asosini jismoniy tarbiya va sport pedagogikasining tizimli, faoliyatga yo‘naltirilgan, shaxsga yo‘naltirilgan hamda kompetensiyaviy yondashuvlari tashkil etadi. Tizimli yondashuv asosida gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligi bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan jismoniy sifatlar, texnik harakatlar, funksional imkoniyatlar va psixologik omillarning yaxlit tizimi sifatida ko‘rib chiqildi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv esa mashg‘ulot jarayonida sportchilarning yoshi, jismoniy tayyorgarlik darajasi va individual imkoniyatlarini hisobga olishga asoslandi.

Tadqiqotda nazariy tahlil, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, pedagogik tajriba-sinov, suhbat, qiyosiy tahlil va matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalanish nazarda tutiladi. Nazariy tahlil orqali gandbolchilar jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga oid ilmiy, o‘quv-metodik va pedagogik manbalar o‘rganildi. Pedagogik kuzatuv yordamida mashg‘ulot jarayonida sportchilarning harakat faolligi, mashqlarni bajarish sifati va jismoniy yuklamalarga moslashuvi tahlil qilindi.

Pedagogik testlash jarayonida gandbolchilarning asosiy jismoniy sifatlarini baholashga qaratilgan nazorat mashqlaridan foydalanish mumkin. Tezkorlikni aniqlash uchun qisqa masofaga yugurish, chaqqonlikni baholash uchun yo‘nalishni tez-tez o‘zgartirishni talab qiluvchi maxsus testlar, kuch ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun mos kuch mashqlari, chidamlilikni baholash uchun belgilangan vaqt yoki masofaga

asoslangan yugurish testlari hamda koordinatsion qobiliyatlarni aniqlash uchun maxsus harakat topshiriqlaridan foydalaniladi.

Pedagogik tajriba-sinov tadqiqotning asosiy metodlaridan biri sifatida tashkil etilib, unda an'anaviy mashg'ulotlar asosida shug'ullanuvchi nazorat guruhi bilan zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida mashg'ulot olib boruvchi tajriba guruhi natijalari taqqoslanadi. Tajriba guruhida individual yondashuv, aylanma mashg'ulot, interfaol metodlar, videoanaliz va raqamli monitoring elementlaridan foydalanish orqali mashg'ulotlarning mazmuni takomillashtiriladi. Tajriba boshida va yakunida o'tkazilgan test natijalarini qiyoslash orqali qo'llanilgan pedagogik texnologiyalarning samaradorligi aniqlanadi.

Tadqiqot natijalarini obyektiv baholash maqsadida matematik-statistik metodlardan foydalaniladi. Olingan ko'rsatkichlarning o'rtacha arifmetik qiymati, o'sish sur'ati va guruhlar o'rtasidagi farqlar aniqlanib, natijalarning statistik ishonchliligi baholanadi. Mazkur yondashuv zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan gandbol mashg'ulotlarining jismoniy tayyorgarlikka ta'sirini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish jarayonini nazariy va empirik jihatdan o'rganishga, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligini tajriba-sinov asosida aniqlashga hamda olingan natijalarni statistik tahlil qilishga yo'naltiriladi. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqotning ilmiy asoslanganligi, natijalarning ishonchliligi va amaliy tavsiyalarning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot davomida gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligini aniqlashga alohida e'tibor qaratildi. Tadqiqotning asosiy g'oyasi mashg'ulot jarayonini an'anaviy yondashuv asosida tashkil etish bilan bir qatorda individual yondashuv, aylanma

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

mashg‘ulot, interfaol metodlar, videoanaliz va raqamli monitoring elementlaridan foydalanish gandbolchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlashdan iborat bo‘ldi.

Tajriba-sinov jarayonida gandbolchilarning tezkorlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik va koordinatsion qobiliyatlari asosiy mezonlar sifatida belgilandi. Mashg‘ulotlarning dastlabki bosqichida o‘tkazilgan nazorat testlari sportchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi bir xil emasligini ko‘rsatdi. Ayrim sportchilarda tezkorlik va chaqqonlik ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori bo‘lgan bo‘lsa, boshqalarida chidamlilik yoki kuch sifatlari ustunlik qildi. Bu holat mashg‘ulot jarayonida barcha sportchilarga bir xil yuklama berishdan ko‘ra, ularning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda differensial yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatdi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda mashqlar ketma-ketligi va yuklama hajmi sportchilarning tayyorgarlik darajasiga moslashtirildi. Aylanma mashg‘ulot metodidan foydalanish orqali bir mashg‘ulot davomida bir nechta jismoniy sifatlarni kompleks rivojlantirish imkoniyati yaratildi. Masalan, qisqa masofaga tez yugurish, yo‘nalishni keskin o‘zgartirish, sakrash, to‘p bilan tezkor harakatlanish va kuch mashqlarining bir tizimda qo‘llanilishi gandbolning real o‘yin sharoitlariga yaqin harakat faoliyatini shakllantirishga xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida tezkorlikni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlarning samaradorligi alohida kuzatildi. Gandbol o‘yinida sportchining raqibdan oldin harakatlanishi, to‘p uchun kurashda tezkor qaror qabul qilishi va hujumdan himoyaga qisqa vaqt ichida o‘tishi yuqori darajadagi tezkorlikni talab qiladi. Shu sababli qisqa masofaga maksimal tezlikda yugurish, tezlanish va to‘xtash, yo‘nalishni o‘zgartirish hamda to‘p bilan bajariladigan tezkor mashqlar mashg‘ulotlarning mazmuniga kiritildi. Natijada sportchilarning qisqa muddatli yuqori intensivlikdagi harakatlarni bajarish qobiliyatida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi.

Chaqqonlikni rivojlantirishda ham zamonaviy pedagogik yondashuvlarning samaradorligi namoyon bo‘ldi. Gandbolchi doimiy ravishda raqib va jamoadoshlarining joylashuvini kuzatishi, o‘z harakat yo‘nalishini o‘zgartirishi va vaziyatga mos ravishda texnik harakatni tanlashi kerak. Shu bois mashg‘ulotlarda signal asosida yo‘nalishni o‘zgartirish, to‘p bilan va to‘psiz harakatlanish, qisqa vaqt ichida bir nechta harakatni bajarish kabi mashqlardan foydalanish chaqqonlikning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Videoanaliz texnologiyasidan foydalanish tadqiqotning muhim jihatlaridan biri bo‘ldi. Mashg‘ulot yoki nazorat mashqlarining videotasvirini sportchilarning o‘zlariga ko‘rsatish orqali texnik va jismoniy harakatlardagi xatolarni vizual tarzda aniqlash imkoniyati yaratildi. Sportchi o‘z harakatini bevosita ko‘rishi natijasida noto‘g‘ri bajarilgan harakatlarni anglash, ularni murabbiy tavsiyasi asosida tuzatish va takroriy mashg‘ulotlarda o‘z faoliyatini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu usul nafaqat texnik tayyorgarlikni, balki sportchining o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmasini ham rivojlantirishga xizmat qildi.

Raqamli monitoring vositalaridan foydalanish esa mashg‘ulot yuklamalarini nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytirdi. Sportchilarning mashq bajarish davomiyligi, takrorlanishlar soni, yuklama hajmi va mashg‘ulotdan keyingi holatini muntazam qayd etish orqali ortiqcha yoki yetarli bo‘lmagan yuklamalarni aniqlash mumkin bo‘ldi. Bunday monitoring sport mashg‘ulotlarini individuallashtirish va sportchilarning funksional imkoniyatlariga mos yuklama tanlash uchun metodik asos yaratdi.

Tajriba davomida individual yondashuvning samaradorligi ham yaqqol namoyon bo‘ldi. Bir xil mashqning turli sportchilar tomonidan turlicha bajarilishi ularning jismoniy imkoniyatlari va tayyorgarlik darajasidagi farqlar bilan izohlanadi. Shu sababli ayrim sportchilarda yuklama hajmini oshirish, boshqalarida esa mashqning bajarilish texnikasiga ko‘proq e’tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘ldi. Natijada

mashg‘ulotlarning sportchi imkoniyatlariga moslashuvi mashg‘ulot samaradorligini oshirishga yordam berdi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni gandbol mashg‘ulotlariga mexanik tarzda kiritish emas, balki ularni sport turining o‘ziga xos xususiyatlari bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Xususan, aylanma mashg‘ulot jismoniy sifatlarni kompleks rivojlantirishga, individual yondashuv yuklamalarni moslashtirishga, videoanaliz texnik xatolarni aniqlashga, raqamli monitoring esa mashg‘ulot jarayonini nazorat qilishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalarning o‘zaro uyg‘unlashuvi sport tayyorgarligining kompleksligini ta’minlaydi.

Natijalarni sport pedagogikasi nuqtayi nazaridan muhokama qilganda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar gandbol mashg‘ulotlarida murabbiy va sportchi o‘rtasidagi pedagogik hamkorlikni ham kuchaytirishi aniqlandi. An’anaviy mashg‘ulotlarda murabbiy asosiy axborot manbai sifatida namoyon bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanilganda sportchi ham o‘z natijalarini tahlil qilish, mashg‘ulot jarayonini baholash va individual maqsadlarini belgilashda faol ishtirok etadi. Bu esa sportchining mustaqilligi va mashg‘ulotga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda faqat mashqlar miqdorini oshirish emas, balki mashg‘ulotlarning mazmuni, metodikasi va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish muhimligini ko‘rsatdi. Yuqori hajmdagi mashg‘ulot har doim ham yuqori natijani ta’minlamaydi. Mashqlarni to‘g‘ri tanlash, yuklamani individual belgilash, tiklanish jarayonini hisobga olish va natijalarni muntazam monitoring qilish sport tayyorgarligining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardandir.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uchun samarali

metodik imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, individual yondashuv, aylanma mashg‘ulot, videoanaliz va raqamli monitoringni yagona pedagogik tizim sifatida qo‘llash sportchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, mashg‘ulot yuklamalarini samarali boshqarish va o‘yin faoliyatiga tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur yondashuvlarning samaradorligi sportchilarning yoshi, jinsiy xususiyatlari, sport malakasi, mashg‘ulot davomiyligi va dastlabki jismoniy tayyorgarlik darajasiga qarab farqlanishi mumkin. Shu sababli kelgusidagi tadqiqotlarda turli yosh guruhlari va sport malakasiga ega gandbolchilar ishtirokida keng qamrovli tajriba-sinovlar o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish zamonaviy sport pedagogikasining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, sportchilarning yuqori natijalarga erishishi, texnik-taktik harakatlarni samarali bajarishi va musobaqa faoliyatida barqaror ishtirok etishini ta’minlovchi asosiy omillardan hisoblanadi. Tadqiqot davomida gandbol mashg‘ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish jismoniy tayyorgarlik jarayonining mazmuni va samaradorligini oshirish uchun muhim metodik imkoniyat yaratishi aniqlandi.

Tahlillar gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda tezkorlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik va koordinatsion qobiliyatlarni kompleks ravishda shakllantirish zarurligini ko‘rsatdi. Gandbol o‘yinining yuqori harakatchanligi va vaziyatlarning tez o‘zgarishi sportchidan nafaqat yuqori darajadagi jismoniy imkoniyatlarni, balki qisqa vaqt ichida tezkor harakat va qaror qabul qilish qobiliyatini ham talab qiladi. Shu sababli mashg‘ulotlarda o‘yin faoliyatiga maksimal darajada yaqinlashtirilgan maxsus mashqlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalari individual yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar sportchilarning individual jismoniy imkoniyatlarini hisobga olish va yuklamalarni optimal darajada belgilash imkonini berishini ko‘rsatdi. Aylanma mashg‘ulot metodidan

foydalanish esa bir mashg‘ulot doirasida bir nechta jismoniy sifatlarni rivojlantirish, mashg‘ulot zichligini oshirish va sportchilarning harakat faolligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Videoanaliz va raqamli monitoring kabi zamonaviy texnologiyalar mashg‘ulot jarayonini nazorat qilish, sportchilarning xatolarini aniqlash, jismoniy yuklamalarni baholash va individual mashg‘ulot dasturlarini takomillashtirish uchun samarali vosita ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, sportchining o‘z harakatlarini video orqali ko‘rib, tahlil qilishi uning o‘z-o‘zini nazorat qilish va mashg‘ulot jarayoniga mas’uliyat bilan yondashish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligi ularni alohida metod sifatida qo‘llashdan ko‘ra, o‘zaro uyg‘unlashtirilgan pedagogik tizim sifatida tashkil etilganda yuqoriroq bo‘lishi mumkin. Individual yondashuv, aylanma mashg‘ulot, interfaol metodlar, videoanaliz va raqamli monitoringning birgalikda qo‘llanilishi gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini kompleks rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Umumiy xulosa sifatida aytganda, gandbolchilarni tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish, sportchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish va musobaqa faoliyatiga tayyorgarlik darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bois gandbol bo‘yicha sport maktablari, ta’lim muassasalari va sport klublarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ilmiy-metodik asosda joriy etish, murabbiylarning raqamli va innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirish hamda sportchilarning jismoniy tayyorgarligini muntazam monitoring qilish muhim amaliy vazifa sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi. Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, O‘RQ-394-son, 2015-yil 4-sentabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son Farmon.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2021–2025-yillarda sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: 2021-yil 5-noyabrdagi PF-5280-son Farmon.
4. Pavlov Sh.K., Abdalimov O.X., Yusupova Z.V. Gandbol nazariyasi va uslubiyati: darslik. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. — 450 b.
5. Sidiqov Q. Sport o‘yinlari va uni o‘qitish metodikasi (gandbol): o‘quv qo‘llanma. — Namangan, 2023. — 161 b.
6. Sidiqov Q. Sport o‘yinlari va uni o‘qitish metodikasi: darslik. — Namangan, 2023. — 378 b.
7. Isabekov Sh.M. Jismoniy tarbiya va sport: o‘quv qo‘llanma. — Namangan, 2021. — 507 b.
8. Azizov S.V. Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi: o‘quv-uslubiy material. — Namangan: Namangan davlat pedagogika instituti.
9. Qosimova R., Do‘sanov U. Qo‘l to‘pi va uni o‘qitish uslubiyati. — Samarqand, 2011.
10. Abduyeva S.S. Sport pedagogikasi fanlari va mutaxassislikka kirish. — Toshkent: Toshkent irrigatsiya universiteti, 2021.
11. Abduyeva S.S., Ibragimov A.K. Sport o‘yinlari va uni o‘qitish metodikasi. — Buxoro: Buxoro davlat universiteti, 2021.
12. Mahmudjonov A.A., Izatullayev A.M., Ergashaliyev D.N. The importance of general physical fitness in increasing the efficiency of sports training in private schools // International Journal of Science and Technology. — 2024. — P. 755–759.
13. Butabayev A.X., Ergashaliyev D.N. Gandbolchilarni hujum va himoyadagi shaxsiy taktik harakatlarini samaradorligini oshirish usullari // Экономика и социум. — 2024. — № 6-1 (121). — B. 160–166.
14. Boltaev S.A., Azizov S.V., Butaev Z.A. Rol fizicheskix uprajneniy v formirovanii zdorovogo obraza jizni molodogo pokoleniya // Teoreticheskie i prikladnye problemy sovremennoy nauki i obrazovaniya. — 2016. — B. 28–31.
15. Boltobaev S.A., Azizov S.V., Juraev T.J., Raxmanov M.U., Jaxangirov Sh.J., Muxtorjonova N. Vliyanie perejivaniy, trevogi i stressa na sorevnovatelnuyu uspeshnost u sportsmenov i ix preodolenie // Science and World. — 2013. — № 24. — B. 261–267.

INTEGRATING INNOVATIVE TECHNOLOGIES AND SIMULATION INTO CONTEMPORARY UROLOGY TRAINING

Sayfetdinov Sanjarbek Ikramiddin ugli
Independent Researcher at the Department of Urology,
Andijan State Medical Institute
E-mail: sayfiddinovoff@gmail.com
ORCID:0000-0002-8678-4532

Abstract. *Modern urology is increasingly dependent on advanced technologies, minimally invasive procedures, endoscopic techniques, laparoscopy, robotic surgery, and image-guided interventions. These developments have created new educational challenges because traditional observation-based training does not always provide sufficient opportunities for repeated and standardized skills practice. Simulation-based education offers a safe and structured environment in which learners can develop technical abilities, clinical reasoning, decision-making, teamwork, and procedural confidence before performing interventions on real patients. The aim of this study was to analyze the role of innovative technologies and simulation in contemporary urology education and to identify strategies for improving their practical integration into training programs. A qualitative literature-based review was performed using scientific publications related to urological simulation, virtual reality, robotic training, three-dimensional modeling, endoscopic and laparoscopic simulation, competency-based education, and skills assessment. The analysis demonstrates that simulation is most effective when combined with deliberate practice, structured feedback, objective performance criteria, and gradual transfer to supervised clinical practice. Low-cost task trainers remain useful for basic procedural skills, whereas virtual reality and robotic platforms are more suitable for advanced psychomotor training. Three-dimensional models and digital technologies can further enhance anatomical understanding and procedural planning. The study concludes that simulation should be regarded not as an optional addition but as an integrated component of modern urological education.*

Keywords: *urology, simulation-based education, innovative technology, virtual reality, robotic surgery, medical training, clinical skills, competency-based education.*

ИНТЕГРАЦИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И СИМУЛЯЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ В СОВРЕМЕННУЮ ПОДГОТОВКУ УРОЛОГОВ

Аннотация. *Современная урология всё в большей степени зависит от передовых технологий, малоинвазивных вмешательств, эндоскопических методов, лапароскопии, роботизированной хирургии и процедур, выполняемых под визуальным контролем. Развитие этих направлений сформировало новые задачи в медицинском образовании, поскольку традиционное обучение, основанное преимущественно на наблюдении, не всегда предоставляет достаточные возможности для многократной и стандартизированной отработки практических навыков. Симуляционное обучение создаёт безопасную и структурированную*

образовательную среду, в которой обучающиеся могут развивать технические навыки, клиническое мышление, способность принимать решения, работать в команде и повышать уверенность при выполнении процедур до проведения вмешательств на реальных пациентах. Целью данного исследования являлся анализ роли инновационных технологий и симуляции в современном обучении урологии, а также определение стратегий совершенствования их практической интеграции в образовательные программы. Был проведён качественный обзор научной литературы, посвящённой симуляционному обучению в урологии, виртуальной реальности, роботизированным тренировочным системам, трёхмерному моделированию, эндоскопическим и лапароскопическим симуляторам, компетентностно-ориентированному образованию и оценке практических навыков. Результаты анализа показывают, что симуляционное обучение наиболее эффективно при его сочетании с целенаправленной практикой, структурированной обратной связью, объективными критериями оценки и поэтапным переходом к клинической практике под контролем специалиста. Недорогие тренажёры остаются эффективными для освоения базовых процедурных навыков, тогда как системы виртуальной реальности и роботизированные платформы более целесообразны для совершенствования сложных психомоторных навыков. Трёхмерные модели и цифровые технологии также способствуют более глубокому пониманию анатомии и совершенствованию планирования медицинских вмешательств. Сделан вывод о том, что симуляционное обучение следует рассматривать не как дополнительный, а как интегрированный компонент современного урологического образования.

Ключевые слова: *урология, симуляционное обучение, инновационные технологии, виртуальная реальность, роботизированная хирургия, медицинское образование, клинические навыки, компетентностно-ориентированное обучение.*

ZAMONAVIY UROLOGIYA TA’LIMIGA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA SIMULYATSION O‘QITISHNI INTEGRATSIYA QILISH

Annotatsiya. *Zamonaviy urologiya ilg‘or texnologiyalar, kam invaziv muolajalar, endoskopik usullar, laparoskopiya, robotlashtirilgan jarrohlik va tasvir nazorati ostida bajariladigan intervensiyalarga tobora ko‘proq tayanmoqda. Ushbu yo‘nalishlarning rivojlanishi tibbiy ta’lim oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda, chunki an’anaviy kuzatuvga asoslangan o‘qitish usullari amaliy ko‘nikmalarni takroriy va standartlashtirilgan tarzda mashq qilish uchun har doim ham yetarli imkoniyat yaratmaydi. Simulyatsiyaga asoslangan ta’lim o‘rganuvchilarga real bemorlarda muolajalarni bajarishdan oldin texnik ko‘nikmalar, klinik fikrlash, qaror qabul qilish, jamoada ishlash va amaliy muolajalarni bajarishga bo‘lgan ishonchni rivojlantirish imkonini beradigan xavfsiz va tizimli ta’lim muhitini yaratadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi zamonaviy urologik ta’limda innovatsion texnologiyalar va simulyatsiyaning o‘rnini tahlil qilish hamda ularni ta’lim dasturlariga amaliy jihatdan samarali integratsiya qilish strategiyalarini aniqlashdan iborat. Urologik simulyatsiya, virtual reallik, robotlashtirilgan trening, uch o‘lchamli modellashtirish, endoskopik va laparoskopik simulyatorlar, kompetensiyaga asoslangan ta’lim hamda*

ko'nikmalarni baholashga bag'ishlangan ilmiy manbalar asosida sifatli adabiyotlar tahlili amalga oshirildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, simulyatsion ta'lim maqsadli va takroriy mashg'ulotlar, tizimli qayta aloqa, obyektiv baholash mezonlari hamda nazorat ostidagi klinik amaliyotga bosqichma-bosqich o'tish bilan uyg'unlashtirilganda eng yuqori samaradorlikni namoyon etadi. Arzon va sodda trening qurilmalari asosiy amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishda samarali bo'lib qolayotgan bo'lsa, virtual reallik va robotlashtirilgan platformalar murakkab psixomotor ko'nikmalarni rivojlantirish uchun ko'proq mos keladi. Uch o'lchamli modellar va raqamli texnologiyalar anatomik tuzilmalarni chuqurroq tushunish hamda muolajalarni oldindan rejalashtirish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Tadqiqot natijasida simulyatsion ta'lim zamonaviy urologik ta'limning ixtiyoriy qo'shimcha qismi emas, balki uning uzviy va integratsiyalashgan tarkibiy komponenti sifatida qaralishi lozim degan xulosaga kelindi.

Kalit so'zlar: *urologiya, simulyatsiyaga asoslangan ta'lim, innovatsion texnologiyalar, virtual reallik, robotlashtirilgan jarrohlik, tibbiy ta'lim, klinik ko'nikmalar, kompetensiyaga asoslangan ta'lim.*

INTRODUCTION

The educational requirements of urology have changed significantly with the rapid development of medical technology. Contemporary urologists are expected to master not only traditional diagnostic and surgical approaches but also a wide range of minimally invasive, endoscopic, laparoscopic, and robot-assisted procedures.

Such changes have increased the complexity of clinical training. In the traditional apprenticeship model, trainees gain experience by observing experienced surgeons and gradually participating in real procedures. Although this model remains fundamental, it may not provide all learners with equal opportunities for repeated practice.

Clinical exposure can vary depending on patient numbers, case complexity, institutional resources, and the availability of operating room time. In addition, educational practice must always be balanced against the need to ensure patient safety.

Simulation-based training has become an important response to these challenges. It allows learners to practice procedures repeatedly, make mistakes without direct patient harm, and receive immediate feedback [1].

Simulation is particularly valuable in urology because many procedures require fine psychomotor coordination and familiarity with specialized instruments. Cystoscopy,

ureteroscopy, transurethral surgery, laparoscopy, and robotic surgery all involve skills that can be developed outside the operating room before clinical application [2].

Innovative training technologies have also expanded beyond conventional simulators. Virtual reality, augmented reality, three-dimensional printed models, digital imaging, and interactive educational platforms are increasingly being used to improve procedural understanding and anatomical visualization [3].

The purpose of this study was to analyze modern simulation-based and technology-enhanced methods in urology education and to identify practical principles for their effective implementation.

MATERIALS AND METHODS

This study was conducted as a qualitative literature-based review.

Scientific publications related to simulation in urology, surgical education, virtual reality, robotic surgery training, endoscopic simulation, laparoscopy, three-dimensional anatomical modeling, competency-based training, and procedural assessment were reviewed.

The analysis focused on several educational outcomes, including improvement in technical performance, development of clinical confidence, procedural standardization, error reduction, opportunities for repeated practice, transfer of skills to clinical settings, and enhancement of non-technical competencies.

The educational technologies reviewed included task trainers, endoscopic simulators, laparoscopic box trainers, virtual reality platforms, robotic surgery simulators, three-dimensional anatomical models, standardized patient encounters, and integrated simulation programs.

Particular attention was also given to the role of instructor feedback, objective assessment, deliberate practice, and competency-based progression.

RESULTS

The review indicates that simulation-based education provides important advantages across different stages of urology training.

Basic task trainers are especially useful for undergraduate students and junior residents. These models can be used to teach urethral catheterization, suprapubic catheter insertion, instrument handling, basic cystoscopy, suturing, and guidewire manipulation.

Their main advantage is accessibility. Because they are relatively inexpensive and reusable, learners can repeat procedures many times until they become familiar with the correct sequence of steps.

Endoscopic simulation has a particularly important role because urology relies heavily on procedures performed through natural urinary pathways.

Learners must develop hand-eye coordination, instrument control, spatial orientation, and understanding of endoscopic anatomy. These skills are difficult to acquire through theoretical teaching alone.

Simulation allows trainees to practice cystoscopy, ureteroscopy, transurethral procedures, and stone management in a controlled environment [4].

Laparoscopic training is another area where simulation has demonstrated significant educational value. Laparoscopic surgery requires bimanual coordination, depth perception, precision, and the ability to work with reduced tactile feedback.

Box trainers allow trainees to practice fundamental skills such as object transfer, cutting, knot tying, and suturing. These methods are relatively affordable and can be used repeatedly.

Virtual reality provides more advanced training opportunities. Modern systems can reproduce procedures and record performance indicators such as movement efficiency, error frequency, completion time, and procedural accuracy.

One of the main benefits of virtual reality is standardization. Every learner can practice the same task under comparable conditions, which improves fairness and reproducibility of assessment [5].

Robotic surgery simulation has become increasingly relevant because robot-assisted procedures are widely used in urology.

Robotic platforms allow trainees to become familiar with console controls, camera movement, instrument coordination, clutching, suturing, and dissection without occupying operating room time.

This reduces the initial learning burden and may help learners enter real robotic procedures with greater confidence.

Three-dimensional modeling is another important educational innovation.

Patient-specific models produced from computed tomography or magnetic resonance imaging can help learners visualize complex anatomical structures and understand the relationship between tumors, vessels, collecting systems, and surrounding tissues [6].

These models can also be used for procedural planning and preoperative rehearsal.

The literature also demonstrates that simulation is useful for non-technical skills.

Urological care frequently requires rapid decision-making, communication with colleagues, teamwork, leadership, and management of complications.

Scenario-based simulation can reproduce conditions such as urosepsis, acute urinary obstruction, postoperative bleeding, or catheter-related emergencies.

Such exercises allow learners to practice both clinical reasoning and team communication [7].

Simulation boot camps provide a particularly effective model for integrating multiple educational approaches.

These intensive programs may combine lectures, procedural stations, emergency scenarios, instrument identification, endoscopic simulation, and structured evaluation.

Several studies have reported improvements in knowledge, procedural confidence, and technical skills after participation in urology boot camps [8,9].

Another major finding is the importance of feedback.

Simulation without feedback may lead learners to repeat the same mistakes.

Effective instruction should identify specific weaknesses, explain why they occur, and provide recommendations for correction.

For example, instead of simply stating that a trainee performed poorly, an instructor should indicate whether the problem involved instrument positioning, poor visualization, excessive force, inefficient movement, or incorrect procedural sequence.

Such targeted feedback supports deliberate practice.

DISCUSSION

The results suggest that simulation-based training should be considered an essential component of modern urology education.

Its primary educational advantage lies in providing a safe environment where learners can improve performance before encountering real clinical risk.

However, simulation should not be viewed as a replacement for clinical experience.

The most effective training model is one that connects simulation directly with supervised patient care.

A trainee should first learn the theoretical principles of a procedure, then observe a demonstration, perform the procedure in a simulated environment, receive feedback, repeat the task, and finally progress to clinical application under supervision.

This creates a continuous educational pathway.

Another important principle is competency-based progression.

Traditional education often measures progress by time spent in training or number of procedures observed. These indicators do not always demonstrate actual competence.

Simulation makes it possible to evaluate performance using more objective criteria.

These may include accuracy, procedural sequence, economy of movement, tissue handling, error rate, completion time, response to complications, and communication skills.

A trainee should progress when competence is demonstrated rather than after a predetermined number of repetitions.

This approach may reduce variation between learners.

Some trainees develop procedural skills rapidly, whereas others require more time and repeated practice. Simulation allows training to be adjusted to individual learning needs.

The role of technology should also be carefully considered.

Advanced virtual reality and robotic simulators offer impressive capabilities but can be expensive.

Institutions with limited resources should not assume that effective simulation requires the most technologically advanced equipment.

Many basic skills can be taught successfully using simple models and low-cost trainers.

A layered educational approach is therefore appropriate.

Low-cost methods can be used for basic tasks, while high-fidelity simulation can be reserved for complex procedures requiring advanced psychomotor skills.

The educational value of three-dimensional printing also deserves attention.

These models can improve spatial understanding, particularly in anatomically complex renal and oncological cases.

They may be especially useful for teaching students who find two-dimensional radiological images difficult to interpret.

Another major issue is faculty preparation.

Simulation-based education requires instructors who are able to design training scenarios, assess performance, provide constructive feedback, and identify competency thresholds.

Faculty development should therefore accompany investment in simulation technology.

Without trained educators, even advanced simulators may be underused or poorly integrated into teaching programs.

Future studies should also evaluate long-term outcomes.

Most simulation research focuses on immediate improvement in performance.

However, important questions remain regarding skill retention, transfer to real clinical procedures, reduction in complications, and impact on patient outcomes.

These areas should become priorities for future research.

Limitations

This study is based on existing scientific literature and does not include original experimental or clinical data.

The reviewed studies vary considerably in terms of simulation technology, learner experience, training duration, assessment methods, and educational outcomes.

This heterogeneity makes direct comparison difficult.

Another limitation is that improvement in simulator performance does not necessarily guarantee equivalent improvement in real clinical practice.

Economic limitations should also be considered because advanced simulation systems may not be available in all educational institutions.

Further research is needed to identify cost-effective simulation models suitable for different healthcare and educational environments.

CONCLUSION

Simulation and innovative technologies are playing an increasingly important role in contemporary urology education.

They provide learners with opportunities for repeated practice, technical skills development, objective assessment, and safe preparation before performing procedures on patients.

Task trainers, endoscopic simulators, laparoscopic models, virtual reality, robotic platforms, three-dimensional models, and scenario-based training each offer distinct educational benefits.

However, the effectiveness of these methods depends on how they are integrated into the curriculum.

Simulation should be combined with clear learning objectives, deliberate practice, structured feedback, objective competency assessment, and supervised clinical transfer.

A balanced educational model should combine low-cost and advanced technologies according to the complexity of the skill being taught.

The future of urology education should therefore focus on integrated, competency-based, and evidence-driven simulation programs that improve trainee preparedness while maintaining patient safety.

References

1. Aydin A, Ahmed K, Van Hemelrijck M, Ahmed HU, Khan MS, Dasgupta P, Shamim Khan M. Simulation-based education in urology – an update. *Therapeutic Advances in Urology*. 2023;15.
2. Kozan AA, Chan LH, Biyani CS, Current Simulation Training Collaborative. Current status of simulation training in urology: A non-systematic review. *Research and Reports in Urology*. 2020;12:111–128.
3. Wake N, Rosenkrantz AB, Huang R, et al. Patient-specific 3D printed and augmented reality kidney and prostate cancer models: Impact on patient education. *3D Printing in Medicine*. 2019;5:4.
4. Cumin J, Glémain P, et al. Simulation-based training in urology: A systematic literature review. *Progrès en Urologie*. 2019.
5. Khan MS, Ahmed K, Gavazzi A, et al. Development and implementation of centralized simulation training: Evaluation of feasibility, acceptability and construct validity. *BJU International*. 2013;111(3):518–523.
6. Checcucci E, De Cillis S, Granato S, et al. Applications of three-dimensional printing in urology: A systematic review. *Minerva Urology and Nephrology*. 2022;74(1):15–28.

7. Somasundram K, Spence H, Colquhoun AJ, McIlhenny C, Biyani CS, Jain S. Simulation in urology to train non-technical skills in ward rounds. *BJU International*. 2018;122(4):705–712.
8. Tabakin AL, Dave PJ, Srivastava A, Polotti CF, Sterling JA, Elsamra SE. The feasibility and efficacy of a multi-institutional urology boot camp for incoming urology residents. *Urology*. 2021;153:69–74.
9. Roberts G, Cheung DC, et al. Development, implementation, and evaluation of a competency-based didactic and simulation-focused boot camp for incoming urology residents. *Canadian Urological Association Journal*. 2020.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

SOHAGA YO'NALTIRILGAN O'QISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI

Dadabayev Zafar Zakirovich,
Namangan Davlat Pedagogika Instituti Xorijiy toillar kafedrasi mudiri,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, katta o'qituvchi,
E-manzil: zucker_ru@mail.ru
Tel: +99893 4935885
ORCID:0009-0000-4729-442X

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta'limda chet tilida o'qish kompetensiyasini rivojlantirishning ahamiyati va zarurati yoritilgan. Unda oliy ta'limda talabalarning kasbiy va ilmiy faoliyati uchun o'qish va yozish kompetensiyalarini rivojlantirish muhimligi asoslab berilgan. O'qishning ilmiy va kasbiy axborotni tezkor egallash, zamonaviy ilmiy yangiliklardan xabardor bo'lish, hamda mustaqil ta'lim olishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, vizual axborotni qabul qilishning samaradorligi, yozma matnni qayta o'qish va o'qish tezligini mustaqil boshqarish imkoniyati kabi omillar o'qish kompetensiyasining afzalliklari sifatida ko'rsatilgan. Maqolada o'qish kompetensiyasining leksik, grammatik, talaffuz va boshqa nutq faoliyati kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni ham ochib berilgan. Natijada chet tilida o'qish kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy mutaxassisning kasbiy rivojlanishi, raqobatbardoshligi va ilmiy axborotdan samarali foydalanishida muhim omil ekanligi asoslangan.*

Kalit so'zlar: *chet tili, o'qish kompetensiyasi, o'qib tushunish, oliy ta'lim, kasbiy faoliyat, ilmiy axborot, yozma matn, tinglab tushunish, kommunikativ kompetensiya, mustaqil ta'lim.*

SCIENTIFIC FOUNDATIONS FOR DEVELOPING FIELD-ORIENTED READING COMPETENCE

Abstract*. This article highlights the importance and necessity of developing foreign language reading competence in higher education. It substantiates the significance of cultivating reading and writing skills for students' professional and academic activities. The article analyzes the role of reading in rapidly acquiring scientific and professional information, staying informed about modern scientific developments, and facilitating independent learning. Furthermore, it identifies advantages of reading competence such as the efficiency of processing visual information, the ability to re-read written text, and the capacity to independently control reading speed. The article also explores the role of reading competence in developing lexical, grammatical, and pronunciation skills, as well as other speech-related competencies. Ultimately, it establishes that developing foreign language reading competence is a crucial factor in the professional growth and competitiveness of modern specialists, as well as in the effective utilization of scientific information.*

Keywords: *foreign language, reading competence, reading comprehension, higher education, professional activity, scientific information, written text, listening comprehension, communicative competence, independent learning.*

НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИИ В ОБЛАСТИ ЧТЕНИЯ ТЕКСТОВ ПО СПЕЦИАЛЬНОСТИ

Аннотация. *В статье рассматриваются важность и необходимость формирования компетенции в чтении на иностранном языке в системе высшего образования. Обосновывается значимость развития навыков чтения и письма для профессиональной и учебной деятельности студентов. Анализируется роль чтения в оперативном получении научной и профессиональной информации, отслеживании современных научных достижений и обеспечении самостоятельного обучения. Кроме того, выделяются такие преимущества компетенции в чтении, как эффективность обработки визуальной информации, возможность повторного обращения к письменному тексту и способность самостоятельно регулировать скорость чтения. Также исследуется роль данной компетенции в развитии лексических, грамматических и произносительных навыков, а также других речевых компетенций. В заключение делается вывод о том, что формирование компетенции в чтении на иностранном языке является ключевым фактором профессионального роста и конкурентоспособности современных специалистов, а также эффективного использования научной информации.*

Ключевые слова: *иностранный язык, компетенция в чтении, понимание прочитанного, высшее образование, профессиональная деятельность, научная информация, письменный текст, понимание на слух, коммуникативная компетенция, самостоятельное обучение.*

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan sharoitda chet tillarini, ayniqsa, ingliz tilini o‘rganish zamonaviy mutaxassisning muhim kompetensiyalaridan biriga aylanmoqda. Oliy ta’lim jarayonida talabalarning chet tilidagi axborotni mustaqil izlash, tushunish, tahlil qilish va undan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, chet tilida o‘qish kompetensiyasini shakllantirish ta’limning muhim vazifalaridan biridir.

Ilmiy, texnik va kasbiy axborotlarning katta qismi xorijiy tillarda, xususan, ingliz tilida e’lon qilinayotganligi talabalardan yozma manbalarni mustaqil o‘qish va tushunishni talab etmoqda. Chet tilidagi ilmiy maqolalar, darsliklar, elektron resurslar

va boshqa autentik materiallardan foydalanish talabaning nafaqat til kompetensiyasini, balki kasbiy bilim va ilmiy dunyoqarashini ham rivojlantiradi.

Globallashuv, raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi oliy ta'lim tizimi oldiga tarix fanini o'qitishning mazmuni va metodikasini zamonaviy talablar asosida qayta ko'rib chiqish vazifasini qo'ymoqda. XXI asr kompetensiyalari qatorida tanqidiy fikrlash, murakkab muammolarni tahlil qilish, dalillarga asoslangan qaror qabul qilish hamda axborotning ishonchliligini baholash kabi ko'nikmalar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur kompetensiyalar orasida tarix ta'limi nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega bo'lgan tanqidiy tarixiy tafakkur talabalarning tarixiy voqea va jarayonlarni ilmiy asosda anglash, tarixiy manbalarni tahlil qilish, turli qarashlarni qiyoslash va asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyatini shakllantiradi.

Bugungi axborot makonida tarixga oid ma'lumotlarning ko'payishi, ularning turli mafkuraviy va siyosiy talqinlarda taqdim etilishi talabalardan tarixiy axborotni tanqidiy tahlil qilishni, tarixiy fakt bilan subyektiv talqinni farqlashni hamda tarixiy haqiqatni ishonchli manbalar asosida aniqlashni talab etmoqda. Shu jihatdan tarix ta'limining asosiy maqsadi tarixiy bilimlarni uzatish bilangina cheklanmay, balki talabalarda tarixiy manbalar bilan ishlash, dalillarni baholash, sabab–oqibat bog'liqliklarini aniqlash, tarixiy qarorlarning oqibatlarini tahlil qilish va tarixiy hodisalarga ilmiy yondashuvni shakllantirishdan iboratdir. An'anaviy tarix darslarida ma'ruza, matn va tasviriy materiallardan foydalanish tarixiy tafakkurning ayrim komponentlarini rivojlantirish imkonini bersa-da, tarixiy voqealarni real makon va zamon kontekstida tasavvur qilish,

tarixiy muhitni his etish hamda murakkab tarixiy vaziyatlarni ko‘p qirrali tahlil qilish imkoniyatlari cheklangan.

Natijada talabalarning o‘quv faoliyatida reproduktiv o‘zlashtirish ustunlik qilishi, tarixiy voqea va hodisalarning mazmunini chuqur anglash hamda ularga nisbatan tanqidiy munosabat bildirish darajasi yetarlicha shakllanmasligi kuzatiladi. Bu esa tarix ta’limida innovatsion pedagogik yondashuvlar va zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo‘llash zaruratini kuchaytiradi. So‘nggi yillarda Virtual Reality (VR), Augmented Reality (AR) va Mixed Reality (MR) kabi immersiv texnologiyalar ta’lim jarayonini tashkil etishda samarali vosita sifatida e’tirof etilmoqda. Mazkur texnologiyalar o‘quvchini sun’iy yaratilgan yoki real muhit bilan integratsiyalashgan interaktiv makonga olib kirish orqali uning bilish faoliyatini faollashtiradi, murakkab hodisalarni vizual idrok etish imkoniyatini kengaytiradi hamda tajribaga asoslangan o‘qitish modelini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tarix ta’limida immersiv texnologiyalar tarixiy obidalar, arxeologik yodgorliklar, qadimiy shaharlar, muzeylar va tarixiy voqealarni uch o‘lchamli formatda rekonstruksiya qilish, virtual ekskursiyalar tashkil etish hamda tarixiy jarayonlarni interaktiv tarzda modellashtirish imkonini yaratadi. Natijada talabalar tarixiy voqea va hodisalarni faqat matn orqali emas, balki vizual, emotsional va interaktiv tajriba orqali o‘zlashtiradilar. Immersiv o‘quv muhiti konstruktivistik, tajribaviy (experiential learning), situatsion va inquiry-based learning yondashuvlari bilan uyg‘unlashgan holda talabalarning faol bilish faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi. Talaba virtual tarixiy muhitda turli tarixiy manbalarni o‘rganadi, ularni o‘zaro taqqoslaydi, tarixiy vaziyatni tahlil qiladi, muqobil qarorlar ishlab chiqadi va o‘z xulosalarini ilmiy dalillar asosida himoya qiladi. Bunday faoliyat tarixiy tafakkurning muhim tarkibiy qismlari bo‘lgan tarixiy dalillardan foydalanish, sabab–oqibat bog‘liqliklarini aniqlash, tarixiy ahamiyatni baholash, davomiylik va o‘zgarishlarni tahlil qilish, tarixiy empatiya hamda tarixiy interpretatsiya ko‘nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.Jahon pedagogik

tadqiqotlarida immersiv texnologiyalarning ta’lim samaradorligiga ta’siri, talabalarning motivatsiyasi, fazoviy tasavvuri va o‘quv faolligini oshirishdagi imkoniyatlari keng o‘rganilgan. Shuningdek, tarixiy tafakkur konsepsiyasi ham tarix didaktikasining muhim ilmiy yo‘nalishlaridan biri sifatida rivojlanmoqda. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyati immersiv texnologiyalarning texnik imkoniyatlari yoki umumiy pedagogik samaradorligiga qaratilgan bo‘lib, ularni aynan talabalarning tanqidiy tarixiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etish yetarli darajada yoritilmagan. Ayniqsa, tarixiy manbalarni tanqidiy tahlil qilish, tarixiy argumentatsiyani shakllantirish va immersiv ta’lim muhiti o‘rtasidagi metodik bog‘liqlikni ochib beruvchi ilmiy ishlanmalar cheklangan.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida raqamli ta’limni rivojlantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va bo‘lajak pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, tarix ta’limida immersiv texnologiyalarni qo‘llash nafaqat o‘qitish samaradorligini oshirish, balki talabalarning tarixiy tafakkuri, tanqidiy fikrlashi va ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning muhim pedagogik omili sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi tarix ta’limida immersiv texnologiyalarning didaktik imkoniyatlarini ilmiy asoslash, ularning talabalarning tanqidiy tarixiy tafakkurini rivojlantirishdagi pedagogik mexanizmlarini aniqlash hamda ushbu jarayonni samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi metodikani ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari tarix fanlarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish, raqamli tarix ta’limini rivojlantirish va bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini yuksaltirishga ilmiy-amaliy hissa qo‘shishi kutiladi

ADABIYOTLAR TAHLILI

Immersiv texnologiyalar vositasida talabalarning tanqidiy tarixiy tafakkurini rivojlantirish muammosi pedagogika, tarix didaktikasi, kognitiv psixologiya hamda raqamli ta'lim yo‘nalishlarining kesishgan nuqtasida shakllangan kompleks ilmiy

yo‘nalish hisoblanadi. Mazkur muammoning nazariy va metodologik asoslari xorijiy hamda o‘zbek olimlarining tadqiqotlarida turli nuqtayi nazardan yoritilgan. Tarixiy tafakkur nazariyasining shakllanishida Sam Wineburg alohida o‘rin tutadi. Olim tarixiy tafakkurni oddiy tarixiy bilimlardan farqlab, tarixiy manbalarni ilmiy tahlil qilish jarayoni sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, tarixni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar va talabalar uchta asosiy intellektual amaliyotni egallashlari zarur: manbaning kelib chiqishini aniqlash (sourcing), tarixiy kontekstni hisobga olish (contextualization) va turli manbalarni o‘zaro taqqoslash (corroboration)**.** Ushbu yondashuv tarixiy ma'lumotlarni tanqidiy baholash, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish hamda tarixiy manipulyatsiyalarni aniqlash imkonini beradi. Peter Seixas va Tom Morton tomonidan ishlab chiqilgan “The Big Six Historical Thinking Concepts” konsepsiyasi zamonaviy tarix ta'limining eng muhim nazariy asoslaridan biri hisoblanadi. Mualliflar tarixiy tafakkurni oltita tarkibiy komponent: tarixiy ahamiyat (Historical Significance), dalillardan foydalanish (Evidence), davomiylik va o‘zgarish (Continuity and Change), sabab va oqibat (Cause and Consequence), tarixiy istiqbollar (Historical Perspectives) hamda tarixning axloqiy o‘lchovi (Ethical Dimension) orqali tavsiflaydilar. Mazkur model tarix fanini faktlarni yodlash emas, balki tarixiy muammolarni ilmiy tahlil qilish vositasi sifatida o‘qitishni nazarda tutadi.Tarixiy tafakkurning psixologik mexanizmlari hamda tarixiy bilimni shakllantirish jarayonlari Peter Stearns**,** Sam Wineburg **va** Peter Seixas tahriri ostida chop etilgan. *Knowing, Teaching and Learning History* asarida keng yoritilgan. Unda tarixiy tafakkurning shakllanishi konstruktivistik ta'lim nazariyasi bilan uzviy bog‘liq ekani hamda tarixiy bilim o‘quvchining faol intellektual faoliyati mahsuli sifatida qaralishi asoslab berilgan.Immersiv texnologiyalarni ta'limga integratsiyalash masalalari bo‘yicha Makransky va Petersen tomonidan ishlab chiqilgan Cognitive Affective Model of Immersive Learning (CAMIL) modeli alohida ahamiyatga ega.Ushbu modelga ko‘ra, VR va AR muhitlari talabalarning kognitiv faolligi, motivatsiyasi, emotsional ishtiroki va bilimlarni uzoq muddatli o‘zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Biroq immersiv muhitdan samarali foydalanish pedagogik loyihalash, refleksiya va o‘quv topshiriqlarining ilmiy asoslangan tashkil etilishiga bog‘liq.Merchant, Goetz, Cifuentes va hammualliflar tomonidan amalga oshirilgan meta-tahlil natijalari virtual reallik texnologiyalaridan foydalanish an'anaviy o‘qitishga nisbatan yuqori o‘quv natijalarini ta'minlashini ko‘rsatadi. Tadqiqotchilar VR texnologiyalari ayniqsa fazoviy tasavvur, murakkab jarayonlarni tushunish va talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshirishda samarali ekanligini ta'kidlaydilar. So‘nggi yillarda tarix ta'limida immersiv texnologiyalardan foydalanishga bag‘ishlangan tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Jumladan, Athina Papadopoulou Extended Reality (XR) texnologiyalarini tarixshunoslikning yangi epistemologik modeli sifatida baholab, immersiv muhit tarixiy bilimni passiv qabul qilish emas, balki tarixiy haqiqatni tanqidiy qayta qurish jarayoniga aylantirishini asoslaydi. Muallif immersiv muhit tarixiy empatiyani rivojlantirishi bilan birga, tarixiy fakt va virtual rekonstruksiya o‘rtasidagi chegarani anglashni ham talab etishini ta'kidlaydi.

Rossiyalik olim D.A. Gorskov VR va AR texnologiyalarining tarixiy tafakkurni rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlarini tadqiq etib, tarixiy tafakkur komponentlari bilan immersiv texnologiyalar funksiyalarini bog‘lovchi didaktik matritsani ishlab chiqqan. Muallif tarixiy manbalar bilan ishlash, tarixiy empatiya va sabab–oqibat aloqalarini tushuntirish immersiv muhitda ancha samarali shakllanishini qayd etadi.

O‘zbekiston olimlari orasida tarix ta'limining metodologik asoslarini rivojlantirish bo‘yicha Tulanboy Xakimovning tadqiqotlari e'tiborga loyiqdir. Muallif tarix ta'limida narrativ pedagogika, germenevtik yondashuv va aksiologik tamoyillarni uyg‘unlashtirish orqali tarixiy ong, tarixiy empatiya va ko‘p nuqtayi nazardan fikrlashni rivojlantirish zarurligini asoslaydi. Uning tadqiqotlarida Wineburg, Seixas va Rüsen nazariyalari tarix ta'limiga moslashtirilgan. Immersiv texnologiyalarni O‘zbekiston oliy ta'lim tizimida qo‘llash masalalari G.S. Ergasheva tomonidan biologiya ta'limi misolida tadqiq etilgan. Muallif VR, AR va MR texnologiyalarini konstruktivistik

yondashuv asosida o‘quv jarayoniga integratsiyalash metodikasini ishlab chiqib, immersiv ta'limning bosqichlari sifatida tayyorgarlik, immersiv tajriba, hamkorlikdagi tahlil va refleksiya bosqichlarini taklif etgan. Mazkur metodik model tarix ta'limiga ham moslashtirilishi mumkin.

Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha Lobar Xujanova innovatsion metodlar, loyiha asosida o‘qitish, raqamli simulyatsiyalar va immersiv vositalar tarix o‘qituvchilarining didaktik kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantirishini ilmiy asoslagan.Tarixiy tafakkurni birlamchi manbalar asosida rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan eksperimental tadqiqotlarda ham Wineburg va Seixas konsepsiyalarining samaradorligi tasdiqlangan. Tadqiqot natijalari tarixiy manbalar bilan tizimli ishlash o‘quvchilarning tanqidiy tahlil, tarixiy argumentatsiya va tarixiy interpretatsiya ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarda immersiv texnologiyalar, tarixiy tafakkur va tanqidiy fikrlashning nazariy asoslari yetarlicha ishlab chiqilgan. O‘zbekiston olimlari tomonidan esa tarix ta'limini modernizatsiya qilish, narrativ pedagogika, innovatsion metodlar va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha muhim ilmiy natijalarga erishilgan.

Biroq mavjud tadqiqotlarda immersiv texnologiyalar vositasida aynan oliy ta'lim talabalari tanqidiy tarixiy tafakkurini rivojlantirishning yaxlit metodik modeli, uning didaktik shart-sharoitlari, bosqichlari, mezonlari va baholash mexanizmlari kompleks tarzda ishlab chiqilmagan**.** Shu bois mazkur tadqiqot ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga hamda tarix ta'limi metodikasini immersiv texnologiyalar asosida takomillashtirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot talabalarning tanqidiy tarixiy tafakkurini immersiv texnologiyalar vositasida rivojlantirishning nazariy asoslarini aniqlash, mavjud pedagogik yondashuvlarni tahlil qilish hamda amaliyotga yo‘naltirilgan metodikani

ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi kompetensiyaviy, konstruktivistik, faoliyatga yo‘naltirilgan (activity-based learning), inquiry-based learning (izlanishga asoslangan ta'lim), tajribaviy o‘qitish (experiential learning) hamda raqamli pedagogika tamoyillariga tayangan holda ishlab chiqildi.Tadqiqotning metodologik asosini tarixiy tafakkur nazariyasi (S. Wineburg, P. Seixas, T. Morton), tanqidiy fikrlash nazariyasi (J. Dewey, R. Ennis, P. Facione), immersiv ta'limning kognitiv-affektiv modeli (G. Makransky va G. Petersen), shuningdek, konstruktivistik ta'lim konsepsiyasi tashkil etdi.

Ushbu nazariyalar asosida immersiv texnologiyalar talabalarning tarixiy bilimlarni faol o‘zlashtirishi, tarixiy manbalarni tahlil qilishi, tarixiy dalillarni baholashi hamda dalillarga asoslangan xulosalar chiqarishini ta'minlovchi pedagogik vosita sifatida qaraldi.Tadqiqotda umumilmiy va maxsus pedagogik tadqiqot metodlarining o‘zaro integratsiyasidan foydalanildi.

Xususan, ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish orqali immersiv texnologiyalar, tarixiy tafakkur va tanqidiy fikrlash bo‘yicha xorijiy hamda mahalliy ilmiy ishlanmalar o‘rganildi. Qiyosiy-tahliliy metod yordamida tarix ta'limida qo‘llanilayotgan an'anaviy va raqamli yondashuvlarning afzallik hamda cheklovlari aniqlashtirildi. Tadqiqot jarayonida pedagogik modellashtirish metodidan foydalanilib, immersiv texnologiyalar asosida talabalarning tanqidiy tarixiy tafakkurini rivojlantirishning metodik modeli ishlab chiqildi. Mazkur modelning tarkibiy qismlari sifatida maqsad, pedagogik shart-sharoitlar, metodlar, o‘qitish vositalari, o‘quv faoliyati bosqichlari va kutilayotgan natijalar belgilandi.Empirik ma'lumotlarni to‘plash maqsadida pedagogik kuzatish, suhbat, anketa so‘rovi va diagnostik topshiriqlardan foydalanildi. Pedagogik kuzatish davomida talabalarning tarixiy manbalar bilan ishlash, tarixiy voqealarni tahlil qilish, sabab–oqibat bog‘liqliklarini aniqlash hamda tarixiy argumentlarni shakllantirish jarayonidagi faolligi o‘rganildi. So‘rovnoma orqali talabalarning immersiv texnologiyalarga munosabati, ulardan foydalanish tajribasi va tarix faniga bo‘lgan qiziqish darajasi aniqlandi. Tadqiqotning asosiy empirik metodi sifatida pedagogik

tajriba tashkil etildi. Tajriba davomida talabalar nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Nazorat guruhida tarix fanlari an'anaviy metodlar asosida o‘qitilgan bo‘lsa, tajriba guruhida virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR), 360° virtual ekskursiyalar, uch o‘lchamli tarixiy rekonstruksiyalar hamda interaktiv raqamli tarixiy platformalar asosida ishlab chiqilgan metodika qo‘llanildi. O‘quv jarayonida talabalar tarixiy voqealarni virtual muhitda kuzatish, tarixiy manbalarni qiyoslash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va dalillarga asoslangan qarorlar ishlab chiqish kabi topshiriqlarni bajardilar.

Talabalarning tanqidiy tarixiy tafakkurini baholash uchun quyidagi mezonlar ishlab chiqildi:

- tarixiy manbalarni tanqidiy tahlil qilish qobiliyati;
- tarixiy dalillardan foydalanish darajasi;
- sabab–oqibat munosabatlarini aniqlash ko‘nikmasi;
- tarixiy argumentatsiyani shakllantirish sifati;
- tarixiy empatiya va tarixiy interpretatsiya darajasi;
- mustaqil va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish kompetensiyasi.

Olingan natijalar miqdoriy va sifat jihatidan tahlil qilindi. Miqdoriy ma'lumotlar foizli taqsimot, o‘rtacha qiymatlar va qiyosiy tahlil usullari asosida umumlashtirildi, sifat ko‘rsatkichlari esa pedagogik kuzatish natijalari, ekspert baholari hamda talabalarning ijodiy ishlari asosida interpretatsiya qilindi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi turli metodlardan kompleks foydalanish (metodologik triangulyatsiya), ekspert baholash va tajriba natijalarini o‘zaro taqqoslash orqali ta'minlandi. Shunday qilib, qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar immersiv texnologiyalar vositasida talabalarning tanqidiy tarixiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy asoslarini aniqlash, metodik modelini ishlab chiqish va uning pedagogik samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

XULOSA

Raqamli transformatsiya sharoitida tarix ta'limining mazmun va metodlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy

vazifalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari immersiv texnologiyalar (Virtual Reality – VR, Augmented Reality – AR va Mixed Reality – MR) tarix fanini o‘qitishda nafaqat ta'limning ko‘rgazmaliligini oshirishi, balki talabalarning tanqidiy tarixiy tafakkurini rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi ekanligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot davomida tarixiy tafakkur, tanqidiy fikrlash va immersiv ta'limga oid xorijiy hamda mahalliy ilmiy manbalar tahlil qilinib, immersiv texnologiyalarni tarix ta'limiga integratsiyalashning nazariy asoslari tizimlashtirildi. Shuningdek, tarixiy manbalarni tahlil qilish, tarixiy dalillarni baholash, sabab–oqibat bog‘liqliklarini aniqlash, tarixiy argumentatsiyani shakllantirish va tarixiy empatiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik model ishlab chiqildi. Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi immersiv texnologiyalar vositasida talabalarning tanqidiy tarixiy tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik modelning ishlab chiqilgani, uning tarkibiy komponentlari, pedagogik shart-sharoitlari, bosqichlari va baholash mezonlarining tizimli asoslanganligida namoyon bo‘ladi. Amaliy jihatdan esa ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar tarix yo‘nalishidagi oliy ta'lim dasturlarini takomillashtirish, tarix fanlarini o‘qitishda VR, AR va MR texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda qo‘llanishi mumkin.

Kelgusidagi tadqiqotlarda sun'iy intellekt, raqamli egizak (Digital Twin), metaverse va adaptiv immersiv ta'lim platformalarining tarixiy tafakkur, tarixiy empatiya hamda tarixiy qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga ta'sirini eksperimental asosda o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, immersiv texnologiyalarni tarix fanining turli bo‘limlari va pedagogik ta'lim yo‘nalishlariga moslashtirish bo‘yicha yangi metodik yondashuvlarni ishlab chiqish tarix ta'limining sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wineburg S. Historical Thinking and Other Unnatural Acts: Charting the Future of Teaching the Past. Philadelphia: Temple University Press, 2001.

2. Seixas P., Morton T. The Big Six Historical Thinking Concepts. Toronto: Nelson Education, 2013.
3. Stearns P., Seixas P., Wineburg S. (Eds.). Knowing, Teaching and Learning History. New York: New York University Press, 2000.
4. Makransky G., Petersen G.B. The Cognitive Affective Model of Immersive Learning (CAMIL). Educational Psychology Review. 2021. Vol. 33(3). P. 937–958.
5. Merchant Z., Goetz E.T., Cifuentes L., Keeney-Kennicutt W., Davis T.J. Effectiveness of Virtual Reality-Based Instruction on Students' Learning Outcomes in K–12 and Higher Education: A Meta-analysis. Computers & Education. 2014. Vol. 70. P. 29–40.
6. Papadopoulou A. Extended Reality Technologies and Historical Learning. Proceedings of iLRN. 2023. Gorskov D.A. Virtual and Augmented Reality Technologies in the Development of Historical Thinking. Modern Problems of Science and Education. 2022. No. 6.
7. Xakimov T. Tarix ta'limida narrativ pedagogika va germenevtik yondashuv. Toshkent: Fan, 2023.
8. Ergasheva G.S. Biologiya ta'limida immersiv texnologiyalarni qo‘llash metodikasi. International Journal of Pedagogics. 2024. №4.
9. Xujanova L. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion metodlardan foydalanish. Pedagogik mahorat. 2024. №2.
10. Javohir Yuldashev: Yuldashev, J. (2024). BO ‘LAJAK TARIX O ‘QITUVCHILARINI TAYYORLASH JARAYONIGA AKSIOLOGIK YONDASHUVNI JORIY ETISHNING METODIK XUSUSIYATLARI. Farg'ona davlat universiteti, (5), 6-
11. Javohir Yuldashev: Yuldashev, J. (2024). BO‘LAJAK TARIX O‘QITUVCHILARIDA AKSIOLOGIK POZITSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. " ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал, 1(9).
12. Javohir Yuldashev: Yuldashev, J. BO ‘LAJAK TARIX O ‘QITUVCHILARINING AKSIOLOGIK POZITSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. DENE TÁRBIYASÍ HÁM SPORT, 251.
13. Javohir Yuldashev: Ogli, Y. J. A. The Content of the Introduction of the Development of the Axiological Approach in Future History Teachers. JournalNX, 10(10), 34-38.
14. Javohir Yuldashev: Yuldashev, J. (2024). DEVELOPING THE AXIOLOGICAL POSITION OF FUTURE HISTORY TEACHERS–AS AN IMPORTANT DIRECTION OF HISTORY EDUCATION. Академические исследования в современной науке, 3(50), 33-36.
15. Javohir Yuldashev: Abdurakhimovich, Y. J. (2024, December). THE MAIN CRITERIA FOR DEVELOPING A SYSTEM OF VALUES IN THE TRAINING OF FUTURE HISTORY TEACHERS. In International Conference on Economics, Finance, Banking and Management (pp. 201-205).

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIDA TA'LIM-TARBIYA VA AXLOQIY KAMOLOT MASALALARI

Eshmurodova Navbahor Orol qizi
O'zDJTU Yoshlar bilan ishlash
ma'naviyat va ma'rifat bo'limi uslubchisi
E-mail: eshmurodovanavbahor11@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida ta'lim-tarbiya, ma'rifat, axloqiy kamolot va komil inson masalalarining badiiy-falsafiy talqini tahlil qilinadi. Boburning "Boburnoma", "Mubayyin", "Aruz risolasi" hamda devonidagi qarashlar asosida ilmga intilish, ustoz va ota-onaga hurmat, halollik, adolat, sabr, shukr, vafo, jasorat, o'zini tarbiyalash kabi fazilatlarning didaktik mazmuni ochib beriladi. Tadqiqotda Bobur ijodining faqat tarixiy-memuar yoki lirik manba sifatidagi emas, balki shaxs tarbiyasiga xizmat qiluvchi ma'naviy-ma'rifiy meros sifatidagi ahamiyati asoslanadi. Shuningdek, uning hayotiy kuzatuvlari va axloqiy xulosalari zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan pedagogik g'oyalar sifatida umumlashtiriladi.*

Kalit so'zlar*: Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma, ta'lim, tarbiya, axloq, ma'rifat, axloqiy kamolot, komil inson, didaktika, vatanparvarlik, adolat, sabr, shukr, ilm, ma'naviyat.*

ВОПРОСЫ ОБРАЗОВАНИЯ И МОРАЛЬНОГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ В ТВОРЧЕСТВЕ ЗАХИРИДДИНА МУХАММЕДА БАБУРА

Аннотация. *В статье анализируется художественно-философская интерпретация вопросов образования, воспитания, просвещения и нравственного совершенствования в творчестве Захириддина Мухаммада Бабура. На материале "Бабур-наме", "Мубайййин", трактата об арузе и лирического наследия Бабура раскрывается дидактическое содержание таких качеств, как стремление к знаниям, уважение к наставнику и родителям, честность, справедливость, терпение, благодарность, верность, мужество и самовоспитание. Обосновывается значение наследия Бабура не только как историко-мемуарного и литературного источника, но и как важного духовно-просветительского материала, направленного на формирование личности. Жизненные наблюдения и нравственные выводы писателя обобщаются как идеи, которые могут быть использованы в современном образовательном и воспитательном процессе.*

Ключевые слова*: Захириддин Мухаммад Бабур, Бабурнаме, образование, воспитание, просвещение, нравственность, нравственное совершенствование, совершенный человек, дидактика, патриотизм, справедливость, терпение, благодарность, знания, духовность.*

ISSUES OF EDUCATION AND MORAL IMPROVEMENT IN THE WORK OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Annotation. *This article examines the artistic and philosophical interpretation of education, upbringing, enlightenment, and moral self-improvement in the works of Zahiriddin Muhammad Babur. Based on Babur-nama, Mubayyin, his treatise on aruz, and his lyrical heritage, the study identifies the didactic meaning of such qualities as the pursuit of knowledge, respect for teachers and parents, honesty, justice, patience, gratitude, loyalty, courage, and self-education. The article substantiates the significance of Babur's legacy not only as a historical-memoir and literary source, but also as an important spiritual and educational heritage contributing to personality formation. His life observations and moral conclusions are generalized as ideas that can be effectively applied to contemporary educational and upbringing practices.*

Keywords*: Zahiriddin Muhammad Babur, Baburnama, education, upbringing, enlightenment, morality, moral self-improvement, perfect person, didactics, patriotism, justice, patience, gratitude, knowledge, spirituality.*

KIRISH

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) o‘zbek mumtoz adabiyoti, tarixnavisligi va ilmiy tafakkuri taraqqiyotida alohida o‘rin tutadigan siymolardan biridir. U hukmdor va sarkarda sifatida murakkab siyosiy jarayonlarda faoliyat yuritgan bo‘lsa-da, uning ma’naviy merosida inson, uning ichki dunyosi, axloqiy qiyofasi va kamolotga intilishi muhim o‘rin egallaydi. Bobur qalamiga mansub asarlar, xususan, “Boburnoma”, “Mubayyin”, “Aruz risolasi” va devoni uning kuzatuvchan, ilmga hurmat bilan qaraydigan, hayot hodisalaridan xulosa chiqarishga intiladigan ijodkor bo‘lganini ko‘rsatadi.

Bobur ijodidagi ta’lim-tarbiya masalasini o‘rganish bugungi kunda ham dolzarbdir. Chunki ta’lim faqat bilim berish jarayoni emas, balki shaxsning axloqiy, estetik, ijtimoiy va ma’naviy sifatlarini shakllantirishni ham nazarda tutadi. Shu jihatdan Boburning ilm, odob, adolat, sabr, shukr, vafo, jasorat va o‘zini tarbiyalash haqidagi fikrlari tarixiy davr doirasidan chiqib, umuminsoniy qadriyatlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Bobur merosidagi didaktik qarashlar ko‘pincha uning tarixiy faoliyati yoki lirik mahorati bilan bog‘liq holda o‘rganilgan bo‘lsa-da, ta’lim-tarbiya va axloqiy kamolotning yaxlit tizim sifatidagi ko‘rinishini alohida tadqiq etish Bobur shunoslikning muhim

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur maqolada Bobur asarlaridagi tarbiyaviy mazmun tizimlashtirilib, uning axloqiy qarashlari shaxs kamoloti nuqtayi nazaridan talqin qilinadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida ta’lim-tarbiya va axloqiy kamolot masalalarining ifodalanish xususiyatlarini aniqlash hamda ularning didaktik mohiyatini ochib berish. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, Bobur asarlaridagi ilm-ma’rifat, axloq, insoniy fazilatlar, o‘z-o‘zini tarbiyalash va ijtimoiy mas’uliyatga oid qarashlarni tahlil qilish vazifalari belgilandi.

Bobur shaxsiyatining muhim jihatlaridan biri uning ilm-fan va adabiyotga bo‘lgan qiziqishidir. “Boburnoma”dagi ko‘plab kuzatuvlar tabiat, geografiya, tarix, etnografiya, harbiy ish va madaniyatga oid ma’lumotlarni qamrab oladi. Bu holat muallifning borliqni kuzatish, ma’lumotni qayd etish va undan xulosa chiqarish madaniyatini namoyon etadi. Ta’lim nuqtayi nazaridan bunday yondashuv o‘quvchida kuzatuvchanlik, tahliliy fikrlash va dalilga tayanish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bobur ijodida ilm shaxsning mavqeyini bezaydigan vosita sifatida emas, balki insonni kamolga yetkazuvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Uning ilmiy-adabiy meros yaratishga bo‘lgan intilishi ham bilimni egallash va uni boshqalarga yetkazish mas’uliyati bilan bog‘liq. “Aruz risolasi”ning yaratilishi adabiyot nazariyasiga oid bilimlarni tizimlashtirishga bo‘lgan ehtiyojni ko‘rsatadi. “Mubayyin” esa diniy-axloqiy mazmunni tartibli bayon etishga intilish bilan ajralib turadi.

Boburning ilmga munosabatida amaliy jihat ham kuchli. U voqea va hodisalarni shunchaki qayd etmaydi, balki ularning sabab va oqibatlarini ko‘rsatishga harakat qiladi. Shu ma’noda uning ijodida “bilish — anglash — xulosa chiqarish” ketma-ketligi kuzatiladi. Mazkur tamoyil zamonaviy pedagogikada tanqidiy va tahliliy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladigan yondashuvlar bilan hamohangdir.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Bobur merosidagi ma'rifatparvarlik mazmunini baholashda tarixiy davr xususiyatini hisobga olish zarur. XVI asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy sharoit, hukmdorlik mas'uliyati va diniy-madaniy muhit uning qarashlariga ta'sir ko'rsatgan. Shunga qaramay, ilmga hurmat, kitob va ijodga e'tibor, tajribani yozib qoldirish kabi jihatlar umuminsoniy ma'rifiy qadriyat sifatida ahamiyatini saqlab qoladi.

Bobur ijodida ta'lim va tarbiya bir-biridan ajralgan hodisalar sifatida emas, balki shaxs kamolotining o'zaro bog'liq ikki tomoni sifatida talqin qilinadi. Bilimga ega bo'lishning o'zi yetarli emas; inson o'z bilimini axloqiy mas'uliyat, adolat va odob bilan uyg'unlashtirishi lozim. Shu jihatdan Bobur merosida bilimli shaxs bilan fazilatli shaxs tushunchalari bir-birini to'ldiradi.

"Boburnoma"dagi shaxslar tavsifi mazkur fikrni kuzatish imkonini beradi. Muallif insonlarning kuchli va zaif jihatlarini, yaxshi va nomaqbul xatti-harakatlarini ko'rsatadi. Ayrim holatlarda u voqeaning o'zidan saboq chiqaradi. Bu usul didaktik adabiyotning muhim xususiyatlaridan biri — hayotiy misol orqali tarbiyaviy xulosa berish tamoyiliga yaqinlashadi.

TAHLILLAR VA MUHOKAMA

Tarbiya masalasida Bobur uchun shaxsning amaliy xulqi muhim. Insonning so'zi va amali o'rtasidagi uyg'unlik, bergan va'dasiga sodiqligi, yaqinlariga va jamoaga munosabati uning axloqiy qiyofasini belgilaydi. Demak, tarbiya abstrakt nasihatlar yig'indisi emas, balki kundalik xatti-harakatlarda namoyon bo'ladigan qadriyatlar tizimidir.

Shuningdek, Bobur hayotining o'zi ham tarbiyaviy jihatdan muhim manbadir. U yoshligidan siyosiy va harbiy sinovlarga duch kelgan, muvaffaqiyat va mag'lubiyatlarni boshdan kechirgan. Bunday tajriba uning dunyoqarashida sabr, qat'iyat va vaziyatdan xulosa chiqarish kabi sifatlarning shakllanishiga ta'sir qilgan. Uning xotiralarida hayotiy tajribaning tahlil qilinishi o'quvchini o'z faoliyatiga tanqidiy nazar bilan qarashga undaydi.

Bobur ijodidagi axloqiy kamolot tushunchasi ko‘p qirrali mazmunga ega. Uning asarlarida insonning o‘z nafsini boshqarishi, qiyinchiliklarga bardosh berishi, yaxshilikni qadrlashi va boshqalarga nisbatan adolatli munosabatda bo‘lishi muhim fazilatlar sifatida ko‘rinadi. Ayniqsa, hayotdagi o‘zgaruvchan vaziyatlarga munosabat masalasi Bobur tafakkurida alohida o‘rin tutadi.

Sabr Bobur hayoti va ijodini tushunishda muhim kalitlardan biridir. Siyosiy beqarorlik, yurishlar, yo‘qotishlar va yangi hududlarda davlat barpo etish jarayonlari insondan matonat talab qilgan. Bobur bu tajribalarni tasvirlar ekan, insonning sinovlar oldida o‘zligini yo‘qotmasligi, oqilona qaror qabul qilishi va kelajakka intilishi g‘oyasini ilgari suradi. Pedagogik nuqtayi nazardan bu jihat yoshlarni qiyinchiliklarni yengib o‘tishga, mas’uliyatli va qat’iyatli bo‘lishga o‘rgatish bilan bog‘lanadi.

Shukr tushunchasi ham Bobur dunyoqarashining axloqiy qatlamini boyitadi. Inson o‘zida mavjud ne’matlarni anglash, yaxshilikni qadrlash va hayot tajribasidan ma’naviy xulosa chiqarish orqali ichki barqarorlikka erishadi. Bunday qarash shaxsning ijobiy tafakkurini, minnatdorlik hissini va ruhiy yetukligini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Adolat esa Bobur ijodida shaxsiy fazilat bilan birga ijtimoiy mas’uliyat mezoni sifatida ham namoyon bo‘ladi. Hukmdor sifatida Bobur adolat masalasini davlat boshqaruvi va insonlar o‘rtasidagi munosabatlar bilan bog‘laydi. Bu holat tarbiyaning faqat shaxsiy odob bilan chegaralanmasligini, balki insonning jamiyat oldidagi mas’uliyatini ham qamrab olishini ko‘rsatadi.

Vafo, sadoqat va insoniy munosabatlar masalasi ham Bobur lirikasida va memuarlarida sezilarli o‘rin egallaydi. Insonning do‘stlik va qarindoshlik munosabatlariga sodiqligi uning ma’naviy qiyofasini belgilovchi omillardan biri sifatida talqin qilinadi. Shu sababli Bobur merosini o‘rganishda axloqiy tarbiyaning kommunikativ va ijtimoiy jihatlariga ham e’tibor qaratish lozim.

Bobur ijodining didaktik qiymatini oshiradigan jihatlardan biri — insonning o‘zini o‘zi tarbiyalashi masalasidir. “Boburnoma”da muallif o‘z faoliyatini ham kuzatuv

obyekti sifatida koʻradi. U voqealarni qayd etish bilan cheklanmay, ayrim qarorlarning oqibatlarini anglashga intiladi. Bu esa refleksiya, ya'ni shaxsning oʻz faoliyati va tajribasini qayta koʻrib chiqish koʻnikmasiga yaqin tushunchadir.

Oʻz-oʻzini tarbiyalash insonning kamchiliklarini tan olish, tajribadan saboq chiqarish va oʻz ustida ishlashni talab qiladi. Boburning hayot yoʻli bu jarayonning murakkabligini koʻrsatadi. U turli vaziyatlarda oʻz qarorlarini sinovdan oʻtkazgan, muvaffaqiyat va xatolarni boshdan kechirgan. Uning xotiralaridagi samimiylik shaxsiy tajribani yashirmasdan, uni tarixiy va ma'naviy saboq darajasiga koʻtarish imkonini beradi.

Zamonaviy ta'limda oʻz-oʻzini tarbiyalash kompetensiyasi mustaqil fikrlash, maqsad qoʻyish, oʻz faoliyatini baholash va xatolardan toʻgʻri xulosa chiqarish bilan bogʻlanadi. Shu nuqtayi nazardan Bobur merosidagi refleksiv ruh ta'lim-tarbiya jarayonida katta metodik imkoniyatlarga ega. Oʻquvchi Bobur hayotidagi muayyan voqealarni tahlil qilish orqali "Men bu vaziyatda qanday yoʻl tutgan boʻlardim?" yoki "Qaysi qaror qanday oqibatga olib keladi?" kabi savollar ustida fikr yuritishi mumkin.

Bobur ijodida vatan va yurt tushunchalari alohida hissiy-ma'naviy mazmun kasb etadi. Andijon, Fargʻona, Samarqand kabi makonlar tasviri uning xotiralarida oddiy geografik ma'lumot sifatida emas, balki muallifning shaxsiy xotirasi va ruhiy kechinmalari bilan bogʻlangan holda beriladi. Shu jihatdan uning asarlaridagi yurt tasviri vatanparvarlik tarbiyasining muhim manbalaridan biri boʻla oladi.

Bobur Hindistonda yangi siyosiy va madaniy muhitga duch kelganida ham Movarounnahr va Fargʻona bilan bogʻliq xotiralarini saqlab qoladi. Bu holat insonning tarixiy xotirasi va madaniy ildizlariga sodiqligi masalasini koʻrsatadi. Vatanparvarlikni tarbiyalashda aynan shu jihat — oʻz tarixini, tilini, adabiyotini va madaniy merosini bilish — muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Biroq Bobur merosidagi vatanparvarlikni faqat hududiy sogʻinch bilan cheklash toʻgʻri emas. Unda insonning oʻz faoliyati uchun javobgarligi, jamiyatga foyda keltirish,

tartib va adolatni qaror toptirish kabi masalalar ham mavjud. Demak, vatanparvarlik shaxsning kundalik mas'uliyatli xatti-harakati bilan uyg'unlashadi.

Bobur merosidagi didaktik g'oyalarni bugungi ta'lim jarayoniga tatbiq etishda tarixiy manbani zamonaviy pedagogik ehtiyojlarga mexanik tarzda moslashtirishdan ko'ra, uning umuminsoniy mazmunini ajratib olish muhim. Ilmga intilish, mustaqil fikrlash, odob, adolat, sabr, shukr, vatanparvarlik va o'z-o'zini tarbiyalash kabi qadriyatlar zamonaviy yoshlar tarbiyasida ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Adabiyot darslarida "Boburnoma"dan foydalanish o'quvchilarning badiiy matnni tarixiy kontekst bilan bog'lab o'rganishiga imkon beradi. Masalan, muayyan voqea yoki shaxs tavsifi asosida axloqiy muammo qo'yish, muallif pozitsiyasini aniqlash va o'quvchining shaxsiy xulosasini asoslash mumkin. Bunday yondashuv reproduktiv o'qishdan ko'ra faol va tahliliy o'rganishni kuchaytiradi.

Tarbiya mashg'ulotlarida esa Boburning hayotiy tajribasi asosida mas'uliyat, matonat va maqsadga intilish mavzularini muhokama qilish mumkin. Bunda Boburni ideallashtirish emas, balki tarixiy shaxsning murakkab hayot yo'lini xolis tahlil qilish maqsadga muvofiq. Uning muvaffaqiyatlari bilan bir qatorda, qiyinchiliklari va qarorlarining oqibatlarini ham ko'rib chiqish o'quvchida tarixiy tafakkur va mustaqil baholash ko'nikmasini rivojlantiradi.

Bobur ijodining yana bir muhim pedagogik imkoniyati fanlararo yondashuv bilan bog'liq. "Boburnoma" geografiya, tarix, biologiya, adabiyot va madaniyat tarixi bilan bog'liq ko'plab ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtiradi. Shu bois Bobur merosi asosida integrativ darslar tashkil etish mumkin. Bu esa ta'lim mazmunini hayotiy tajriba va milliy madaniy meros bilan bog'lashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Bobur ijodidagi ta'lim-tarbiya g'oyalari alohida, tizimlashtirilgan pedagogik risola shaklida emas, balki badiiy, tarixiy, diniy-axloqiy va shaxsiy kuzatuvlar tarkibida namoyon bo'ladi. Shuning uchun uning didaktik qarashlarini aniqlashda matnning janriy xususiyatlarini hisobga olish zarur.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

“Boburnoma”dagi didaktika ko‘proq hayotiy voqea va muallif xulosasi orqali, she’riyatdagi didaktik mazmun esa lirik kechinma va hikmatli umumlashma orqali ifodalanadi.

Bobur merosini boshqa mumtoz adiblar ijodi bilan qiyoslash ham uning didaktik qarashlarining o‘ziga xos tomonlarini ko‘rsatishi mumkin. Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi siymolar ijodida komil inson, ilm, adolat va odob masalalari turli badiiy shakllarda yoritilgan. Boburning o‘ziga xosligi esa tarixiy shaxsning bevosita hayotiy tajribasi bilan badiiy va ilmiy kuzatuvni birlashtira olganidadir.

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi ta’lim-tarbiya va axloqiy kamolot masalalarini o‘rganish uchun muhim ma’naviy manba hisoblanadi. Uning asarlarida ilm va ma’rifatga intilish, insoniy fazilatlarni shakllantirish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, adolat va mas’uliyat, sabr va shukr, vafo va vatanparvarlik kabi qadriyatlar turli badiiy shakllarda ifodalangan.

Bobur ijodidagi didaktik mazmunning muhim xususiyati — nasihatning hayotiy tajriba bilan bog‘langanidadir. Muallif ko‘rgan voqealar, uchratgan insonlar va boshdan kechirgan sinovlar orqali xulosa chiqaradi. Shu sababli uning asarlari o‘quvchini tayyor qoidani yodlashga emas, voqea va xatti-harakatlarni tahlil qilishga, ularning oqibatini anglashga va mustaqil xulosa chiqarishga undaydi.

XULOSA

Shu bilan birga, Bobur merosidan zamonaviy ta’limda foydalanishda tarixiylik va ilmiy xolislik tamoyillariga rioya qilish zarur. Asarlarni o‘z davri ijtimoiy-madaniy sharoitidan uzib talqin qilmaslik, tarixiy shaxsni biryoqlama ideallashtirmaslik hamda badiiy obraz bilan tarixiy faktni farqlash ilmiy yondashuvning asosiy shartlaridir. Mazkur prinsiplar asosida Bobur ijodi yosh avlodda ilmga hurmat, axloqiy mas’uliyat, mustaqil fikrlash va milliy-madaniy merosga e’tibor kabi sifatlarni rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
2. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Devon. – Toshkent: Fan, 1994.
3. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Mubayyin. – Toshkent: Fan, 1981.
4. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Muxtasar (Aruz risolasi). – Toshkent: Fan, 1971.
5. Hayitmetov, A. Bobur lirikasining janr tarkibi. – Toshkent: Fan, 1975.
6. Mallayev, N. M. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1976.
7. Valixo‘jayev, B. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1993.
8. Hasanov, S. Bobur ijodiyoti. – Toshkent: Fan, 1983.
9. Qosimov, B. va boshqalar. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004.
10. Abdug‘afurov, A. Bobur shunoslikka oid tadqiqotlar. – Toshkent: Fan, 2000.

MAOT MODELI (MEDIAART O'QITISH TIZIMI) ASOSIDA MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARIDA MEDIAVOSITALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdiyev Rustam Oltiboyevich
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti mustaqil tadqiqotchisi
abdiyev@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada musiqa va san'at maktablarida mediavositalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirishning ilmiy-nazariy va metodik jihatlari tahlil qilinadi. Muallif tomonidan mediavositalar integratsiyasining ixtisoslashtirilgan pedagogik modeli — MAOT-modeli (MediaArt O'qitish Tizimi) ishlab chiqilgan bo'lib, u faoliyat nazariyasi, konstruktivistik yondashuv va kompetensiyaviy paradigma birligiga asoslanadi. Model besh komponent (maqsad, mazmun, metodlar, vositalar, baholash) hamda to'rt bosqichli amalga oshirish mexanizmidan iborat. Mavjud umumta'lim modellaridan (TPACK, SAMR) farqli ravishda MAOT-modeli san'at ta'limining o'ziga xosligini — multimodal idrok, hissiy-estetik komponent va motor-ijrochilik ko'nikmalarini hisobga oladi. O'quvchilarning mediavosita, musiqiy-ijodiy, hamkorlik va refleksiv kompetensiyalarini shakllantirish uchun baholash indikatorlari tizimi taklif etilgan. Model samaradorligi kvazieksperimental dizayn asosida tekshirilgan.*

Kalit so'zlar: *mediavositalar, musiqa va san'at ta'limi, mediata'lim, MAOT-modeli, kompetensiyaviy yondashuv, multimodal o'qitish, raqamli pedagogika.*

IMPROVING THE PEDAGOGICAL METHODOLOGY OF USING MEDIA IN MUSIC AND ART SCHOOLS BASED ON THE MAOT MODEL (MEDIAART EDUCATION SYSTEM)

Abstract. *The article examines the scientific-theoretical and methodological aspects of improving the methodology of teaching through media tools in children's music and art schools. The author has developed a specialised pedagogical model for the integration of media tools — the MAOT model (MediaArt Teaching System) — grounded in the unity of activity theory, the constructivist approach and the competence paradigm. The model comprises five components (aim, content, methods, tools, assessment) and a four-stage implementation mechanism. Unlike general-education models (TPACK, SAMR), the MAOT model accounts for the specificity of arts education — multimodal perception, the emotional-aesthetic component and motor-performance skills. A system of assessment indicators is proposed for forming students' media, musical-creative, collaborative and reflective competences. The model's effectiveness was verified through a quasi-experimental design.*

Keywords: *media tools, music and art education, media education, MAOT model, competence-based approach, multimodal teaching, digital pedagogy.*

УЛУЧШЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ МЕТОДОЛОГИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕДИА В МУЗЫКАЛЬНЫХ И ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ШКОЛАХ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ MAOT (СИСТЕМА ОБУЧЕНИЯ МЕДИАИСКУССТВУ)

Аннотация. *В данной статье анализируются научные, теоретические и методологические аспекты совершенствования методики обучения с использованием медиа в музыкальных и художественных школах. Автор разработал специализированную педагогическую модель интеграции медиа — модель MAOT (Система обучения медиаискусству), основанную на единстве теории деятельности, конструктивистского подхода и парадигмы компетенций. Модель состоит из пяти компонентов (цель, содержание, методы, инструменты, оценка) и четырехэтапного механизма реализации. В отличие от существующих общеобразовательных моделей (TPAK, CAMP), модель MAOT учитывает специфику художественного образования — мультимодальное восприятие, эмоционально-эстетический компонент и моторно-исполнительские навыки. Предложена система оценочных показателей для формирования у учащихся медиа-, музыкально-творческих, коллаборативных и рефлексивных компетенций. Эффективность модели проверяется на основе квазиэкспериментального дизайна.*

Ключевые слова: *медиа, музыкальное и художественное образование, медиаобразование, модель MAOT, компетентностный подход, мультимодальное обучение, цифровая педагогика.*

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimi taraqqiyotining muhim yo‘nalishlaridan biri o‘quv jarayonini raqamli texnologiyalar va mediavositalar asosida modernizatsiya qilishdan iborat. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’limning sifati hamda samaradorligini oshirish, ayniqsa, san’at va madaniyat sohasidagi ta’lim muassasalari faoliyatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Musiqa va san’at maktablarida ta’lim jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, unda eshitish, ko‘rish va amaliy ijro faoliyati asosiy o‘rin egallaydi. Shu bois mazkur yo‘nalishda mediavositalardan foydalanish nafaqat bilim yetkazish vositasi, balki o‘quvchilarning estetik didini shakllantirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish hamda mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini takomillashtirishning samarali omili hisoblanadi.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini raqamlashtirish davlat siyosati darajasidagi ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni (O‘RQ-637), «Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasi (PF-6079)

hamda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi (PF-60) ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, elektron ta’lim resurslarini yaratish va pedagoglarning raqamli-pedagogik kompetensiyasini oshirishni ustuvor yo‘nalish sifatida mustahkamlaydi. Xalqaro miqyosda ham musiqa va san’at ta’limini zamonaviy mediavositalar asosida rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda: Xalqaro musiqa ta’limi jamiyati (ISME), YUNESKOning «Seul kun tartibi» (2010) hujjati, Yevropa konservatoriyalari assotsiatsiyasi (AEC) hamda «El Sistema» dasturi bu boradagi ustuvor xalqaro tendensiyalarni belgilaydi.

Shu bilan birga, amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, ta’lim muassasalarida texnik infratuzilma bosqichma-bosqich rivojlanayotgan bo‘lsa-da, mediavositalardan foydalanishning metodik ta’minoti jihatidan tizimli bo‘shliqlar saqlanib qolmoqda. Ko‘pincha mediavositalar faqat ko‘rgazmali material sifatida ishlatilib, ularning didaktik va ijodiy salohiyati to‘liq amalga oshirilmaydi. Ushbu maqolaning maqsadi — musiqa va san’at maktablarida mediavositalar orqali o‘qitish metodikasini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslarini yoritish hamda muallif tomonidan ishlab chiqilgan ixtisoslashtirilgan pedagogik modelni (MAOT-modeli) asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Musiqa va san’at ta’limida mediavositalardan foydalanish muammosi xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda turli qirralari bilan o‘rganilgan. Xalqaro miqyosda raqamli texnologiyalarning musiqa ta’limiga ta’sirini W. Bauer, P. Burnard, M. Biasutti, E. Concina va J. Dorfman kabi olimlar tadqiq etganlar. W. Bauer texnologiyalarning ta’lim vositasi va muhiti sifatidagi rollarini tahlil qilsa, P. Burnard raqamli muhitda ijodkorlikni rivojlantirish metodologiyasini ishlab chiqqan. M. Biasutti va E. Concina texnologiyalarning o‘quv motivatsiyasi hamda baholash tizimiga ta’sirini meta-tahlil usulida o‘rganganlar. So‘nggi yillarda Y. Shi virtual reallik texnologiyalari orqali multimodal o‘qitish samaradorligini eksperimental asoslagan, J. Savage esa musiqa

ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning didaktik jihatlarini tadqiq etgan.

Texnologiyalar integratsiyasining umumnazariy asoslari P. Mishra va M. Koehlerning TPACK (texnologik-pedagogik-kontent bilimi) hamda R. Puentedurning SAMR modellarida ishlab chiqilgan. R. Mayerning multimediyali o'rganish nazariyasi axborotni bir necha idrok kanali orqali qabul qilish o'zlashtirish darajasini oshirishini asoslaydi. Faoliyat va ijtimoiy-madaniy yondashuvlarning metodologik negizini L. Vygotskiy va P. Galperin g'oyalari tashkil etadi. Mediata'lim nazariyasi doirasida mediavositalar shaxsda tanqidiy fikrlash, estetik did va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish omili sifatida qaraladi; bu yondashuv YUNESKOning media-axborot savodxonligi konsepsiyasida (Gryunvald deklaratsiyasi, 1982; Aleksandriya deklaratsiyasi, 2005) o'z aksini topgan.

O'zbekistonda mediata'lim va ta'limni axborotlashtirish masalalari U. Begimqulov, N. Rustamova, Ya. Mamatova, S. Sulaymonova hamda B. Yusupov va boshqalarning ishlarida o'rganilgan. Xususan, N. Rustamova umumiy o'rta ta'lim o'quvchilari mediamadaniyatini rivojlantirish texnologiyasini va «Mediaquest+» interaktiv metodini ishlab chiqqan. Shunga qaramay, o'tkazilgan tahlil mavjud modellarning asosan umumta'lim yo'nalishiga qaratilganini, san'at ta'limining o'ziga xosligi — multimodallik, hissiy-estetik komponent va motor-ijrochilik ko'nikmalari — yetarlicha nazariylashtirilmaganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, baholash mezonlari ko'pincha faqat yakuniy natijaga yo'naltirilgan bo'lib, o'qitish jarayonining to'liq natijaviyligini qamrab olmaydi. Ushbu holat san'at ta'limiga ixtisoslashtirilgan pedagogik modelni ishlab chiqishni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun bir-birini to'ldiruvchi metodlar majmuasidan foydalanildi. Nazariy metodlar — pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, xorijiy hamda mahalliy tajribani qiyosiy o'rganish,

tizimlashtirish va umumlashtirish — modelning strukturaviy komponentlarini ishlab chiqishga xizmat qildi. Empirik metodlar sifatida Toshkent shahridagi uchta musiqa va san'at maktabida pedagogik kuzatuv olib borildi; 12 nafar pedagog va 87 nafar o'quvchi ishtirokida suhbat va so'rovnoma o'tkazildi; modelning samaradorligini o'lchash uchun nazorat va eksperimental guruhlar asosida kvazieksperimental dizayn qo'llanildi.

Miqdoriy ma'lumotlarni qayta ishlashda SPSS statistik dasturidan foydalanildi; asosiy ko'rsatkichlar o'rtacha qiymat (M), standart og'ish (SD), t-test va Cohen d effekt hajmi orqali hisoblandi, ahamiyatlilik darajasi $p < 0,05$ qabul qilindi. Tadqiqotning nazariy-metodologik negizini faoliyat nazariyasi, konstruktivistik yondashuv va kompetensiyaviy paradigma birligi tashkil etdi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Mediavositalar deganda axborotni audiovizual, interaktiv va multimodal shaklda uzatishga xizmat qiluvchi texnologik vositalar — audioyozuvlar, videomateriallar, multimedia taqdimotlari, raqamli notatsiya dasturlari, virtual platformalar va onlayn ta'lim resurslari tushuniladi. Musiqa va san'at ta'limi multimodal xarakterga ega bo'lib, u bir vaqtning o'zida eshitish, ko'rish va kinestetik idrok kanallari orqali amalga oshiriladi. Aynan shu xususiyat mediavositalarning bu sohadagi didaktik salohiyatini belgilaydi. Tadqiqotda mediavositalar asosida o'qitishning ilmiy asoslari uch yondashuv birligida asoslandi. Faoliyat nazariyasiga ko'ra, o'quvchi o'z ijrosini audio yoki video yozuv orqali tahlil qilganida faqat tinglovchi emas, balki o'z faoliyatining sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi va bu refleksiv fikrlashni rivojlantiradi. Konstruktivistik yondashuv o'quvchining bilimni mustaqil qurishini nazarda tutadi: u turli ijro maktablarini qiyoslaydi, kompozitsion tuzilmani vizual ko'radi, notalarni raqamli tahlil qiladi. Kompetensiyaviy paradigma esa ta'lim natijasini aniq shakllanadigan kompetensiyalar tizimi sifatida belgilaydi. Mazkur nazariy asoslar negizida mediavositalar integratsiyasining ixtisoslashtirilgan pedagogik modeli — MAOT-modeli

(MediaArt O‘qitish Tizimi) ishlab chiqildi. Model o‘zaro bog‘liq besh komponentdan iborat

1-rasm. MAOT-modelining strukturaviy komponentlari

MAOT-modelining ilmiy yangiligi shundaki, u mavjud umumta’lim modellaridan mazmunan farq qiladi. TPACK modeli o‘qituvchining texnologik, pedagogik va kontent bilimlari kesishuvini tavsiflaydi, biroq san’at ta’limiga xos operatsional mexanizmni



bermaydi; SAMR modeli integratsiya darajalarini ko‘rsatadi, ammo fan xususiyatidan xoli, umumiy xarakterga ega. MAOT-modeli esa san’at ta’limining spetsifikasiga (multimodal idrok, hissiy-estetik komponent, motor-ijrochilik ko‘nikmalari) moslashtirilgan, adaptiv o‘rganish va sun’iy intellekt imkoniyatlarini integratsiya qiladi hamda kompetensiyaviy yondashuv bilan tizimli bog‘lanadi.

Model to‘rt bosqichli amalga oshirish mexanizmiga ega. Birinchi — diagnostik-motivatsion bosqichda o‘quvchi profili va mediasavodxonlik darajasi aniqlanib, individual ta’lim traektoriyasi belgilanadi. Ikkinchi — mediavosita-integratsion bosqichda mediavositalar dars kontentiga organik tarzda kiritiladi va pedagog metodik

tayyorgarlikdan o‘tadi. Uchinchi — faol-ijodiy bosqichda PBL, case-study va digital storytelling loyihalari hamda kollaborativ vazifalar orqali o‘quvchilarning ijodiy portfolyosi shakllantiriladi. To‘rtinchi — refleksiv-baholash bosqichida formativ monitoring va summativ baholash asosida natijalar tahlil qilinadi va keyingi o‘quv sikliga o‘tiladi.

Model doirasida o‘quvchilarning beshta asosiy kompetensiyasini shakllantirish uchun baholash indikatorlari va o‘lchov mezonlari tizimi ishlab chiqildi (2-jadval). Bu tizim baholashni faqat yakuniy mahsulotga emas, balki o‘quv jarayoniga ham yo‘naltirishga imkon beradi.

2-jadval. Kompetensiyalar va baholash indikatorlari

Kompetensiya	Baholash indikatori	Maqsad daraja
Mediavosita	Mustaqil ravishda 3+ vositadan foydalanish	≥ 80% o‘quvchi
Musiqiy-ijodiy	Raqamli asar yaratish va taqdim etish	≥ 75% o‘quvchi
Hamkorlik	Onlayn loyihada faol ishtirok	≥ 85% o‘quvchi
Refleksiv	O‘z ishini tahlil qilish hisoboti	≥ 70% o‘quvchi
Madaniy-estetik	Dunyo va milliy musiqa merosi bilimi	≥ 80% o‘quvchi

Modelning samaradorligi uch darajali tizim orqali baholandi: o‘quvchi darajasi (akademik o‘zlashtirishning kamida 15% o‘sishi, kompetensiyalarga kamida 80% erishish, motivatsiyaning kamida 20% o‘sishi), pedagogik jarayon darajasi (maqsad va natija muvofiqligining kamida 85%i) hamda muassasa darajasi (infratuzilma qamrovining kamida 90%i). Modelning samarali ishlashi to‘rtta pedagogik shart-sharoit majmuining o‘zaro muvofiqlashtirilgan holda ta’minlanishini talab etadi: yetarli texnologik infratuzilma (tashkiliy-texnik shart), pedagogning maxsus metodik tayyorgarligi (didaktik shart), o‘quvchilarning asosiy mediasavodxonlik ko‘nikmalari

(psixologik shart) hamda o‘quv reja va standartlarning mediavosita-integratsiyasini qo‘llab-quvvatlashi (kommunikativ-tashkiliy shart).

Modelning amaliy samaradorligini tekshirish maqsadida kvazieksperimental dizayn asosida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Eksperimental guruhda MAOT-modeli to‘liq joriy qilindi — mediavositalar integratsiyalashgan darslar, PBL loyihalari va raqamli portfolyo baholash amalga oshirildi; nazorat guruhida esa an’anaviy metodika davom ettirildi. Pre-test va post-test ko‘rsatkichlarini qiyoslash hamda kompetensiya rubrikasi asosida portfolyoni baholash orqali model samaradorligi yuqorida keltirilgan indikatorlar bo‘yicha miqdoriy jihatdan o‘lchandi. Olingan ma’lumotlar SPSS dasturida qayta ishlanib, natijalarning ishonchliligi t-test va Cohen d effekt hajmi orqali tasdiqlandi.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot musiqa va san’at maktablarida mediavositalar orqali o‘qitish metodikasini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslarini faoliyat nazariyasi, konstruktivistik yondashuv va kompetensiyaviy paradigma birligida asoslashga imkon berdi. Tadqiqotning asosiy natijasi — san’at ta’limining o‘ziga xosligini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan MAOT-modeli bo‘lib, u besh komponent va to‘rt bosqichli amalga oshirish mexanizmiga tayanadi hamda mavjud umumta’lim modellaridan (TPACK, SAMR) mazmunan farq qiladi.

Model doirasida o‘quvchilarning mediavosita, musiqiy-ijodiy, hamkorlik va refleksiv kompetensiyalarini shakllantirishning baholash indikatorlari tizim sifatida belgilandi. MAOT-modeli mediapedagogika va san’at pedagogikasi fanlarining nazariy bazasini boyitibgina qolmay, musiqa va san’at maktablarining o‘quv jarayonini tashkil etishda, pedagoglar malakasini oshirishda hamda o‘quv reja va standartlarni yangilashda amaliy metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Keyingi tadqiqotlar model samaradorligini kengaytirilgan tajriba-sinov asosida chuqurroq tekshirish, sun’iy intellekt va adaptiv o‘rganish imkoniyatlarini modelga integratsiya qilish yo‘nalishida davom ettirilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni (O‘RQ-637). 2020-yil 23-sentabr // Lex.uz — O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son «Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoni // Lex.uz.
3. Bauer W.I. Music Learning and Technology. — Oxford: Oxford University Press, 2014. — 240 p.
4. Burnard P. Musical Creativities in Practice. — Oxford: Oxford University Press, 2012. — 384 p.
5. Biasutti M., Concina E. The Role of Technology in Music Education: A Review of Literature // Journal of Music, Technology & Education. — 2018. — Vol. 11, № 2. — P. 115–130.
6. Shi Y. Multimodal Learning Through Virtual Reality in Music Education: An Experimental Study // Journal of Music, Technology & Education. — 2022. — Vol. 15, № 1. — P. 23–41.
7. Savage J. Teaching Music with Technology. — London: Bloomsbury, 2012. — 224 p.
8. Dorfman J. Theory and Practice of Technology-Based Music Instruction. — New York: Oxford University Press, 2013. — 256 p.
9. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. — 2006. — Vol. 108, № 6. — P. 1017–1054.
10. Puentedura R.R. Transformation, Technology, and Education. — 2010. — URL: http://hippasus.com/resources/tte/
11. Mayer R.E. Multimedia Learning. — Cambridge: Cambridge University Press, 2001. — 210 p.
12. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge: Harvard University Press, 1978. — 159 p.
13. Boud D., Falchikov N. Rethinking Assessment in Higher Education. — London: Routledge, 2007. — 240 p.
14. Krajcik J., Shin N. Project-Based Learning // The Cambridge Handbook of the Learning Sciences. — Cambridge: Cambridge University Press, 2014. — P. 275–297.
15. Mamatova Ya.M., Sulaymonova S.R. O‘zbekiston mediata’lim taraqqiyoti yo‘lida. O‘quv qo‘llanma. — Toshkent: Extremum-press, 2015. — 168 b.
16. Rustamova N.R. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari mediamadaniyatini rivojlantirish texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. — Toshkent: TDPU, 2019. — 165 b.
17. Begimqulov U. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirish. — Toshkent: Fan, 2007. — 232 b.
18. Yusupov B.A., Xolmatov D.R., Nazarova G.T. Musiqa va san’at ta’limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish holati tahlili // Zamonaviy ta’lim. — Toshkent, 2023. — № 4. — B. 78–83.

BO'LAJAK PEDAGOGLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING RAQAMLI PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Ismoilova Gulnoza Olimboy qizi
UrDPI Pedagogika fakulteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi
gulnozaismoilova758@gmail.com
https://orcid.org/0009-0008-9311-3990

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo'lajak pedagoglarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning raqamli pedagogik imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim muhitida bo'lajak pedagogning axborotni izlash, saralash, ishonchliligini baholash, turli nuqtayi nazarlarni taqqoslash, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish hamda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida qaraladi. Tadqiqotda raqamli ta'lim platformalari, multimedia resurslari, interaktiv topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, virtual muhitlar va sun'iy intellekt vositalaridan tanqidiy fikrlashni rivojlantirish maqsadida foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi texnologiyaning mavjudligi bilan emas, balki uning didaktik maqsadga muvofiq loyihalashtirilishi bilan belgilanashi asoslanadi. Maqolada bo'lajak pedagoglarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi raqamli pedagogik yondashuvlarning mazmuni va pedagogik shart-sharoitlari ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *bo'lajak pedagog, tanqidiy fikrlash, raqamli pedagogika, raqamli ta'lim muhiti, raqamli texnologiyalar, axborot savodxonligi, interaktiv ta'lim, sun'iy intellekt, muammoli ta'lim, refleksiya.*

ЦИФРОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация. *В статье рассматриваются научно-теоретические возможности развития критического мышления будущих педагогов средствами цифровой педагогики. Особое внимание уделяется формированию у будущих педагогов навыков анализа, оценки достоверности информации, сравнения различных точек зрения, аргументированного вывода и принятия самостоятельных решений. Анализируются дидактические возможности цифровых образовательных платформ, мультимедийных ресурсов, интерактивных заданий, проблемных ситуаций, виртуальных образовательных сред и инструментов искусственного интеллекта. Обосновывается, что эффективность цифровых технологий определяется не самим фактом их использования, а целенаправленным педагогическим проектированием учебной деятельности. Раскрываются педагогические условия и направления применения цифровых средств для развития критического мышления будущих педагогов.*

Ключевые слова: *будущий педагог, критическое мышление, цифровая педагогика, цифровая образовательная среда, цифровые технологии, информационная грамотность, интерактивное обучение, искусственный интеллект, проблемное обучение, рефлексия.*

DIGITAL PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING CRITICAL THINKING IN FUTURE TEACHERS

Abstract.*This article examines the theoretical and pedagogical possibilities of developing critical thinking among future teachers through digital pedagogy. Particular attention is paid to developing students' abilities to analyse information, evaluate its credibility, compare different perspectives, formulate evidence-based conclusions and make independent decisions. The article analyses the didactic potential of digital learning platforms, multimedia resources, interactive tasks, problem-based situations, virtual learning environments and artificial intelligence tools. It is argued that the effectiveness of digital technologies depends not merely on their availability, but on purposeful pedagogical design and meaningful integration into the learning process. The article also identifies pedagogical conditions and directions for using digital tools to foster critical thinking among future teachers.*

Keywords: *future teacher, critical thinking, digital pedagogy, digital learning environment, digital technologies, information literacy, interactive learning, artificial intelligence, problem-based learning, reflection.*

KIRISH

Bugungi ta'lim jarayonida bo'lajak pedagogni faqat tayyor bilimlarni o'zlashtirgan mutaxassis sifatida tayyorlash yetarli emas. Pedagog kasbiy faoliyat davomida katta hajmdagi axborot bilan ishlashi, uning mazmuni va ishonchliligini baholashi, turli pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishi, muqobil yechimlarni solishtirishi hamda asoslangan qaror qabul qilishi talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan, tanqidiy fikrlash bo'lajak pedagogning kasbiy tayyorgarligini belgilovchi muhim kompetensiyalardan biri hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlash shaxsning ma'lumotni shunchaki qabul qilishi emas, balki uni tahlil qilishi, dalillarni aniqlashi, sabab-oqibat munosabatlarini ochib berishi, qarama-qarshi fikrlarni taqqoslashi va asoslangan xulosaga kelishini nazarda tutadi. OECD tadqiqotlarida kreativlik va tanqidiy fikrlash murakkab hamda tobora raqamlashtirilayotgan jamiyat sharoitida muhim ko'nikmalar sifatida e'tirof etiladi.

Raqamli ta'lim muhitining kengayishi mazkur kompetensiyani rivojlantirish uchun yangi pedagogik imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Elektron ta'lim platformalari, raqamli kutubxonalar, multimedia materiallari, interaktiv simulyatsiyalar, onlayn

munozaralar va sun'iy intellekt vositalari talabaning axborot bilan faol ishlashiga sharoit yaratadi. UNESCOning o'qituvchilarning AKT kompetensiyalari bo'yicha yondashuvida ham raqamli texnologiyalarni pedagogik faoliyatga integratsiya qilish bilan bir qatorda, ta'lim oluvchilarda tanqidiy va innovatsion fikrlashni rivojlantirish zarurligi qayd etilgan.

Biroq bu yerda muhim metodik muammo mavjud: raqamli texnologiyaning o'zi tanqidiy fikrlashni avtomatik ravishda shakllantirmaydi. Masalan, talaba internetdan katta hajmdagi ma'lumotni topishi mumkin, biroq uning ishonchliligini tekshirmasa, turli manbalarni taqqoslamasa va dalillarga asoslangan xulosa chiqarmasa, mazkur faoliyat tanqidiy fikrlashning to'laqonli rivojlanishini anglatmaydi. OECD ma'lumotlarida ham onlayn axborotning sifati, ishonchliligi va aniqligini tekshirish tanqidiy fikrlash bilan chambarchas bog'liqligi ko'rsatilgan.

Shuning uchun raqamli pedagogikaning asosiy vazifasi talabaning texnologiyadan foydalanish tezligini oshirish emas, balki raqamli vositalar yordamida yuqori darajadagi kognitiv faoliyatni tashkil etishdan iborat bo'lishi lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tanqidiy fikrlash muammosi zamonaviy pedagogika va ta'lim psixologiyasining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biridir. Xususan, S. Vincent-Lancrin va hamkorlarining tadqiqotlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmasligi, balki maxsus pedagogik strategiyalar, topshiriqlar va baholash mezonlari orqali izchil tashkil etilishi zarurligi ko'rsatilgan. Tadqiqotchilar tanqidiy fikrlashni ta'lim jarayonida kuzatish va rivojlanish dinamikasini baholash imkonini beruvchi yondashuvlarni ham ishlab chiqqan.

Raqamli ta'lim sharoitida ushbu masala yanada dolzarb tus olmoqda. OECDning oliy ta'limda onlayn muhit orqali yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga bag'ishlangan tahlilida raqamli va aralash ta'lim muhiti kreativlik hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatiga ega ekanligi ko'rsatiladi. Biroq natija

qo‘llanilayotgan texnologiyaning o‘zidan ko‘ra, uning pedagogik maqsad bilan qanday integratsiya qilinganiga bog‘liq.

UNESCO ham raqamli va sun’iy intellekt texnologiyalari sharoitida insonning mustaqil fikrlashi, tanqidiy yondashuvi va axloqiy mulohazasini saqlab qolishni ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan axborotni tayyor haqiqat sifatida qabul qilmasdan, uning asoslari, cheklovlari va ehtimoliy xatolarini tahlil qilish zarurligi ta’kidlanmoqda.

Shuningdek, 2026-yilgi OECD Digital Education Outlook ma’lumotlarida generativ sun’iy intellektdan maqsadsiz foydalanish kognitiv faoliyatning texnologiyaga topshirib qo‘yilishi va metakognitiv faollikning pasayishi xavfini yuzaga keltirishi mumkinligi qayd etilgan. Shu bilan birga, pedagogik maqsad asosida ishlab chiqilgan yoki maqsadli qo‘llanilgan sun’iy intellekt vositalari tanqidiy fikrlash, kreativlik va hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Bo‘lajak pedagoglarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki pedagogning kasbiy faoliyati faqat mavjud bilimlarni o‘zlashtirish va ularni ta’lim oluvchilarga yetkazish bilan chegaralanmaydi. Pedagog turli manbalardan kelayotgan axborotni tahlil qilishi, uning ishonchliligini baholashi, muammoli pedagogik vaziyatlarning sabablarini aniqlashi, muqobil yechimlarni ishlab chiqishi va eng maqbul qarorni asoslay olishi zarur. Shu jihatdan tanqidiy fikrlash bo‘lajak pedagogning kasbiy kompetentligini ta’minlovchi muhim intellektual sifat sifatida namoyon bo‘ladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Raqamli ta’lim muhitining rivojlanishi bo‘lajak pedagoglarda mazkur sifatlarni shakllantirish uchun yangi didaktik imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. An’anaviy ta’limda axborotning asosiy manbai darslik, o‘qituvchi bayoni va bosma adabiyotlar bilan chegaralangan bo‘lsa, raqamli muhitda ta’lim oluvchi turli elektron manbalar, ilmiy ma’lumotlar bazalari, videomateriallar, interaktiv platformalar, virtual modellar va

sun'iy intellekt vositalari bilan ishlash imkoniyatiga ega. Biroq axborot manbalarining ko'payishi avtomatik ravishda tanqidiy fikrlashning shakllanishiga olib kelmaydi. Aksincha, raqamli muhitda noto'g'ri, tekshirilmagan yoki manipulyativ axborotlarning mavjudligi bo'lajak pedagogdan yanada yuqori darajadagi tahliliy va baholovchi faoliyatni talab qiladi.

Shu sababli raqamli pedagogik yondashuvning mazmuni bo'lajak pedagogni tayyor axborot bilan ta'minlashdan ko'ra, uni axborotni mustaqil izlash, saralash, tekshirish va baholashga yo'naltirishdan iborat bo'lishi lozim. Bunda ta'lim jarayonida "axborotni qabul qilish" modelidan "axborotni tahlil qilish va baholash" modeliga o'tish muhim metodik shart sifatida belgilanadi. Masalan, talabaga muayyan pedagogik mavzu bo'yicha bir nechta raqamli manbalarni taqdim etish va ulardan qaysi biri ishonchli ekanligini aniqlash topshirig'i berilishi mumkin. Bunda talaba manbaning muallifi, nashr etilgan vaqti, dalillarning mavjudligi, foydalanilgan adabiyotlar va mazmunning boshqa ilmiy manbalar bilan muvofiqligini tahlil qiladi. Mazkur faoliyat tanqidiy fikrlashning axborotni baholash komponentini rivojlantiradi.

Raqamli pedagogik imkoniyatlarning yana bir muhim jihati muammoli va interaktiv ta'limni tashkil etish bilan bog'liq. Elektron ta'lim platformalari yordamida bo'lajak pedagoglarga tayyor savollardan tashqari, muammoli vaziyatlar, ochiq savollar, taqqoslash va tahlil qilishga yo'naltirilgan topshiriqlar berish mumkin. Bunday topshiriqlarda yagona tayyor javobning mavjud emasligi talabani mustaqil fikrlashga undaydi. Masalan, "Raqamli ta'lim muhitida o'qituvchining an'anaviy vazifalari qaysi jihatdan o'zgaradi?" kabi savol bo'yicha talaba turli manbalarni o'rganib, mavjud qarashlarni taqqoslaydi va o'z nuqtayi nazarini dalillar asosida asoslaydi. Natijada tahlil, sintez, baholash va xulosa chiqarish jarayonlari birgalikda faollashadi.

Multimedia texnologiyalaridan foydalanish ham tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun muhim didaktik imkoniyatga ega. Video, infografika, diagramma, animatsiya va interaktiv taqdimotlar orqali murakkab pedagogik hodisalarni turli shakllarda ifodalash

mumkin. Biroq multimedia materialining o‘zi yetarli emas. Uning pedagogik qiymati ta’lim oluvchiga qanday fikrlash topshirig‘i berilishi bilan belgilanadi. Masalan, pedagogik jarayon aks etgan videoni namoyish qilish bilan cheklanib qolmasdan, talabadan undagi muammoli holatlarni aniqlash, o‘qituvchi faoliyatining ijobiy va salbiy jihatlarini ajratish, muqobil pedagogik harakatlarni taklif etish va o‘z qarorini asoslash talab qilinsa, multimedia vositasi tanqidiy fikrlashni rivojlantirish vositasiga aylanadi.

Onlayn munozaralar va raqamli forumlar ham bo‘lajak pedagoglarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita sifatida qaraladi. Mazkur muhitda talaba o‘z fikrini bayon qilish bilan birga, boshqa ishtirokchilarning qarashlarini o‘rganadi, ularning dalillarini tahlil qiladi va zarur hollarda o‘z pozitsiyasini qayta ko‘rib chiqadi. Bu jarayonda fikrni asoslash, dalil va qarshi dalillarni aniqlash, turli nuqtayi nazarlarni taqqoslash hamda mantiqiy xulosaga kelish ko‘nikmalari shakllanadi. Shu jihatdan raqamli munozara faqat kommunikativ faoliyat emas, balki kognitiv va refleksiv faoliyatni ham ta’minlovchi pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Bo‘lajak pedagoglarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda raqamli keys texnologiyasidan foydalanish ham alohida ahamiyatga ega. Pedagogik keys real yoki modellashtirilgan kasbiy vaziyatni tahlil qilishga asoslanadi. Raqamli formatda berilgan keys talabaga vaziyat haqidagi ma’lumotlarni mustaqil o‘rganish, muammoning asosiy sabablarini aniqlash, bir nechta yechim variantlarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini baholash imkonini beradi. Bunda talaba nafaqat “to‘g‘ri javob”ni topishga, balki o‘z qarorining mantiqiy asoslarini ko‘rsatishga majbur bo‘ladi. Natijada muammoni aniqlash, sabab-oqibat munosabatlarini o‘rnatish, muqobil variantlarni baholash va qaror qabul qilish kabi tanqidiy fikrlash operatsiyalari rivojlanadi.

Virtual simulyatsiyalar va raqamli modellashtirish vositalari bo‘lajak pedagoglarga pedagogik jarayonlarni shartli raqamli muhitda sinab ko‘rish imkonini beradi. Masalan, sinfdagi muammoli vaziyat, o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqot yoki ta’lim jarayonidagi muayyan muammoni modellashtirish orqali talaba turli pedagogik

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

qarorlarning ehtimoliy natijalarini kuzatishi mumkin. Bunday faoliyat sabab-oqibat munosabatlarini anglash, oldindan bashorat qilish va muqobil yechimlarni taqqoslash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, virtual modellashtirish nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlar bilan bog‘lash imkonini beradi.

Raqamli pedagogikada sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning yangi yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Biroq bu vositalardan foydalanishda metodik jihatdan ehtiyotkor yondashuv talab etiladi. Agar talaba sun’iy intellekt tomonidan ishlab chiqilgan javobni tekshirmasdan tayyor bilim sifatida qabul qilsa, bu uning mustaqil fikrlash faolligini pasaytirishi mumkin. Aksincha, AI tomonidan yaratilgan javobni tahlil qilish, undagi xatolarni aniqlash, dalillarni boshqa ilmiy manbalar bilan solishtirish va takomillashtirilgan variantni ishlab chiqish topshirig‘i berilsa, sun’iy intellekt tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi pedagogik vositaga aylanadi.

Shu asosda sun’iy intellektdan foydalanishning “tayyor javobni olish” emas, balki “javobni tekshirish, tahlil qilish va takomillashtirish” modeli bo‘yicha tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Bunda bo‘lajak pedagog AI tomonidan taqdim etilgan axborotning manbasi, mantiqiy izchilligi, ilmiy asoslanganligi va amaliy qiymatini baholaydi. Mazkur jarayon raqamli axborot savodxonligi bilan tanqidiy fikrlashning o‘zaro integratsiyasini ta’minlaydi. Raqamli pedagogik muhitda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun topshiriqlarni murakkablik darajasiga ko‘ra bosqichma-bosqich tashkil etish ham muhim. Dastlab talaba axborotni aniqlaydi va tasniflaydi. Keyingi bosqichda ma’lumotlarni taqqoslaydi va sabab-oqibat munosabatlarini aniqlaydi. Undan keyin mavjud qarashlarni baholaydi, muqobil yechimlarni ishlab chiqadi va yakunda o‘z qarorini dalillar bilan himoya qiladi. Bunday ketma-ketlik tanqidiy fikrlashning oddiydan murakkabga tomon rivojlanishini ta’minlaydi.

XULOSA

Umuman olganda, bo‘lajak pedagoglarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning raqamli pedagogik imkoniyatlarini uchta o‘zaro bog‘liq bosqich asosida tavsiflash mumkin. Birinchi bosqichda talaba raqamli axborotni izlaydi va saralaydi; ikkinchi bosqichda uning mazmuni, ishonchliligi va dalillanganligini tahlil qiladi; uchinchi bosqichda esa o‘z xulosasini shakllantirib, uni dalillar asosida himoya qiladi. Mazkur jarayonni **“izlash – saralash – tekshirish – tahlil qilish – baholash – xulosa chiqarish – refleksiya”** ketma-ketligida tashkil etish bo‘lajak pedagogning tanqidiy fikrlash faoliyatini tizimli ravishda rivojlantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Anderson L.W., Krathwohl D.R.** A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 2001. – 352 p.
2. **Facione P.A.** Critical Thinking: What It Is and Why It Counts. – Millbrae, CA: Insight Assessment, 2015. – 30 p.
3. **Halpern D.F.** Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking. 5th ed. – New York: Psychology Press, 2014. – 640 p.
4. **OECD.** Fostering Students’ Creativity and Critical Thinking: What It Means in School. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 274 p.
5. **Redecker C.** European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – 95 p.
6. **UNESCO.** Guidance for Generative AI in Education and Research. – Paris: UNESCO, 2023. – 44 p.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA ZARURIY RAQAMLI INFRATUZILMA VA TEXNIK QO‘LLAB-QUVVATLASH OMILLARI

Ziyamova Gulbaxor Tulabayevna
Namangan davlat pedagogika instituti Intellektual fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi.
ziyamovag@gmail.com Tel:+998950782582
ORCID: 0009-0005-5140-7112

Annotatsiya: *Ushbu maqolada texnologik ta‘limda texnologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning metakognitiv faoliyatlarini takomillashtirish omillari, o‘qituvchining metodik tayyorgarligi, raqamli ta‘lim resurslari, video darslarni loyihalashning nazariy asoslari, sun‘iy intellekt va raqamli ishlab chiqarish texnologiyalarining integratsiyasi masalalari chiqiladi. Maqolada STEM ta‘limi, robototexnika va innovatsion ta‘lim muhitlari kontekstida zamonaviy raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etishning nazariy asoslari, xalqaro tajribalari va amaliy yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ta‘lim muassasalarida raqamli ta‘lim resurslaridan samarali foydalanish o‘quvchilarning texnik kompetentligini, muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini va ijodiy tafakkurini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *sun‘iy intellekt, raqamli ishlab chiqarish, STEM ta‘limi, innovatsion muhit, texnologik ta‘lim, ijodiy tafakkur, o‘rganish.*

ФАКТОРЫ, КАСАЮЩИЕСЯ НЕОБХОДИМОЙ ЦИФРОВОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ И ТЕХНИЧЕСКОЙ ПОДДЕРЖКИ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ

Зиямова Гулбахор Тулабаевна
Преподаватель кафедры интеллектуальных наук и информационных технологий Наманганского государственного педагогического института
ziyamovag@gmail.com Tel: +998950782582,
ORCID: 0009-0005-5140-7112

Аннотация: *В статье рассматриваются факторы, способствующие активизации метакогнитивной деятельности учащихся в процессе обучения технологиям; при этом затрагиваются такие аспекты, как методическая подготовленность педагога, цифровые образовательные ресурсы, теоретические основы создания видеоуроков, а также интеграция искусственного интеллекта и технологий цифрового производства. Анализируются*

теоретические основы, международный опыт и практические подходы к внедрению современных цифровых технологий в образовательный процесс в контексте STEM-образования, робототехники и инновационных образовательных сред. Результаты исследования свидетельствуют о том, что эффективное использование цифровых образовательных ресурсов в учебных заведениях существенно повышает уровень технической компетентности, навыки решения проблем и творческое мышление учащихся.

***Ключевые слова**: искусственный интеллект, цифровое производство, STEM-образование, инновационная среда, технологическое образование, творческое мышление, обучение.*

NECESSARY DIGITAL INFRASTRUCTURE AND TECHNICAL SUPPORT FACTORS IN TECHNOLOGY LESSONS

Ziyamova Gulbaxor Tulabayevna
Teacher of the Department of Intellectual Sciences and
Information Technologies, Namangan State Pedagogical Institute
ziyamovag@gmail.com Tel: +998950782582_ORCID: 0009-0005-5140-7112

***Abstract:** This article examines factors that enhance students‘ metacognitive activity during technology learning. This article addresses aspects such as teacher training, digital educational resources, the theoretical foundations of video lesson creation, and the integration of artificial intelligence and digital production technologies. It analyzes the theoretical foundations, international experience, and practical approaches to integrating modern digital technologies into the educational process in the context of STEM education, robotics, and innovative educational environments. The study‘s findings demonstrate that the effective use of digital educational resources in educational institutions significantly improves students‘ technical competence, problem-solving skills, and creative thinking.*

***Keywords:** artificial intelligence, digital production, STEM education, innovative environment, technological education, creative thinking, learning.*

KIRISH

Jahon miqyosida metakognitiv faoliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar keng ko‘lamda olib borilmoqda. Xalqaro tashkilotlar tomonidan ta‘lim jarayoniga metakognitiv yondashuvlarni joriy etish orqali ta‘lim sifatini oshirish, o‘quvchilarni XXI asr ko‘nikmalariga tayyorlash bo‘yicha samarali strategiyalar ishlab chiqilgan. UNESCO ta‘limda differensiallashtirilgan yondashuv va sifatni ta‘minlash uchun metakognitiv va reflektiv o‘rganish yondashuvlarini targ‘ib qilmoqda. OECD

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

tomonidan har uch yilda tashkil etiladigan PISA baholashida ham o‘quvchilarning faqat bilim darajasi emas, balki muammoli vaziyatlarda qanday fikrlashi, o‘z faoliyatini qanday tashkil etishi ham inobatga olinadi. Bundan tashqari, Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan “XXI-asr ko‘nikmalari” kontseptsiyasida metakognitiv kompetensiyalar o‘zining alohida o‘rniga ega. Umumiy ta‘lim maktablarida texnologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning metakognitiv faoliyatlarini takomillashtirish, zamonaviy ta‘lim tizimining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bunday yondashuvlar, ta‘lim faoliyatini yaxshilash va samaradorligini oshirish uchun muhimdir, chunki ular o‘quvchilarga o‘z fikr-mulohazalarini aniqlash va qayta qurishda yordam beradi. Germaniya va boshqa Yevropa mamlakatlarining kasb-hunar ta‘limidagi tajribasi texnologik ta‘lim uchun alohida qiziqish uyg‘otadi. Germaniyaning dual ta‘lim tizimida nazariy tayyorgarlik va amaliy mehnat uzviy bog‘langan bo‘lib, teskari sinf modeli bu uyg‘unlikni yanada kuchaytirish vositasi sifatida qaraladi: nazariy qism raqamli formatda o‘zlashtiriladi, ustaxonadagi vaqt esa to‘liq amaliy ko‘nikma shakllantirishga ajratiladi. Bu yondashuv O‘zbekistonda texnologiya fani va kasbga yo‘naltirilgan ta‘limni tashkil etishda namuna bo‘lishi mumkin.

Yaponiya va Singapur kabi yuqori natijali ta‘lim tizimiga ega mamlakatlarda ham model raqamli ta‘lim strategiyasining bir qismi sifatida o‘rganilmoqda. Singapur o‘qituvchilarni tayyorlash va texnologik infratuzilmaga sezilarli sarmoya kiritib, modelni tizimli joriy etmoqda. Bu mamlakatlar tajribasi yana bir bor tasdiqlaydiki, teskari sinf modeli muvaffaqiyatining kaliti texnologiyaning o‘zida emas, balki o‘qituvchining metodik tayyorgarligi va sinfdagi faoliyat sifatida yotadi.

Turli mamlakatlar tajribasini umumlashtirib, modelni muvaffaqiyatli joriy etishning bir necha umumiy omilini ajratish mumkin. Birinchidan, sifatli va o‘quv dasturiga mos keluvchi raqamli kontentning mavjudligi. Ikkinchidan, o‘qituvchilarning model metodikasi bo‘yicha tizimli tayyorgarligi. Uchinchidan, sinfdagi vaqtni faqat faol va hamkorlikdagi faoliyatga bag‘ishlash. To‘rtinchidan, darsdan oldingi tayyorgarlikni

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

rag‘batlantiruvchi baholash tizimi. Beshinchidan, zaruriy raqamli infratuzilma va texnik qo‘llab-quvvatlash. Ushbu omillarning birgalikda ta‘minlanishi modelning samaradorligini kafolatlaydi.

Shu bilan birga, turli mamlakatlar tajribasi modelni joriy etishda uchraydigan umumiy qiyinchiliklarni ham ochib beradi. Bularga o‘qituvchilar va o‘quvchilarning yangi formatga dastlabki qarshiligi, sifatli video material tayyorlashning katta vaqt talab qilishi, darsdan oldingi tayyorgarlikni ta‘minlash muammosi hamda baholash tizimini moslashtirish zarurati kiradi. Ko‘pchilik tadqiqotlar bu qiyinchiliklarni bartaraf etishda o‘qituvchilarni tayyorlash va metodik qo‘llab-quvvatlash hal qiluvchi omil ekanligini ta‘kidlaydi. O‘zbekiston bu tajribadan kelib chiqib, modelni joriy etishdan oldin tegishli tayyorgarlik ishlarini amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavjud adabiyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, teskari sinf modeli bo‘yicha tadqiqotlarning aksariyati oliy ta‘lim va tabiiy-aniq fanlarga qaratilgan bo‘lib, umumta‘lim maktablarining texnologiya fani kontekstida model nisbatan kam o‘rganilgan. Bu ilmiy bo‘shliq mazkur tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi. O‘zbekiston sharoitida, milliy o‘quv dasturi, o‘zbek tilidagi resurslar va texnologiya fanining amaliy mazmunini hisobga olgan holda modelni o‘rganish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega yo‘nalishdir.

Teskari sinf modelining muvaffaqiyati birinchi navbatda darsdan oldin o‘quvchilarga taqdim etiladigan raqamli ta‘lim resurslarining sifatiga bog‘liqdir. Agar nazariy material sifatsiz yoki o‘quvchining o‘zlashtirish darajasiga mos bo‘lmasa, modelning butun mantig‘i buziladi: o‘quvchi sinfga tayyorgarliksiz keladi va amaliy faoliyatdan bahramand bo‘la olmaydi. Shu sababli raqamli resurslarni — ayniqsa video darslar va elektron qo‘llanmalarni — ilmiy asoslangan tamoyillar asosida yaratish modelni loyihalashning markaziy vazifasidir.

Raqamli ta‘lim resurslari teskari sinf modelining “nazariy yadrosini” tashkil etadi. An‘anaviy darsda o‘qituvchi nazariy materialni jonli bayon qiladi va uning sifatini o‘z mahorati bilan ta‘minlaydi; teskari sinfda esa bu vazifa raqamli resursga yuklanadi. Demak, resurs o‘qituvchining metodik mahoratini, fan mazmunini va o‘quvchining o‘zlashtirish xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirishi kerak. Bu vazifaning murakkabligi raqamli resurs yaratishni puxta ilmiy-metodik tayyorgarlik talab qiladigan jiddiy pedagogik faoliyatga aylantiradi. Quyida bu jarayonning nazariy asoslari va amaliy texnologiyasi ko‘rib chiqiladi.

Video darslarni loyihalashning nazariy asosini R.Mayerning multimediali ta‘limning kognitiv nazariyasi (cognitive theory of multimedia learning) tashkil etadi. Bu nazariyaga ko‘ra, inson axborotni ikki kanal — vizual (tasvir) va auditiv (so‘z/ovoz) kanallari orqali qayta ishlaydi; har bir kanalning sig‘imi cheklangan, axborotni o‘zlashtirish esa faol jarayon hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, samarali video so‘z va tasvirni uyg‘unlashtirib, ikkala kanalni ortiqcha yuklamasdan, o‘quvchining faol fikrlashini rag‘batlantiradigan tarzda loyihalanishi kerak.

C.Brame ta‘limiy videolarni yaratishning uch tamoyilini ajratib ko‘rsatadi: kognitiv yuklamani tashkil etish, o‘quvchi e‘tiborini (jalb etilganligini) maksimallashtirish va videodan faol o‘rganishni ta‘minlash. Birinchi tamoyilni amalga oshirish uchun video qisqa va bo‘laklarga bo‘lingan (segmentlangan) bo‘lishi, ortiqcha bezak va chalg‘ituvchi unsurlardan xoli bo‘lishi, muhim ma‘lumot esa belgilash (signalling) orqali ajratib ko‘rsatilishi lozim. Ikkinchi tamoyil suhbatona ohang, o‘qituvchining shaxsiy ishtiroki va mavzuga qiziqish uyg‘otishni talab qiladi. Uchinchi tamoyil video ichiga yoki yoniga nazorat savollari, vazifalar va refleksiya elementlarini joylashtirishni nazarda tutadi.

P.Guo va hammualliflarining keng ko‘lamli tadqiqotida video uzunligi o‘quvchi e‘tibori bilan bevosita bog‘liqligi aniqlangan: olti daqiqadan oshmagan qisqa videolar eng yuqori jalb etilganlikni ta‘minlaydi, video uzaygan sari o‘quvchilarning diqqati

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

keskin pasayadi. Shuningdek, o‘qituvchining yuzi ko‘rinib turadigan, qo‘lda chiziladigan (“Xon uslubi”) yoki shaxsiy ohangdagi videolar rasmiy studiya yozuvlariga nisbatan samaraliroq ekani ko‘rsatilgan. Bu xulosalar texnologiya darsi uchun video tayyorlashda har bir mavzuni bir nechta qisqa bo‘lakka ajratish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

R.Mayer, L.Fiorella va A.Stull instruksion videolar samaradorligini oshirishning amaliy usullarini umumlashtirib, bo‘laklarga ajratish (segmenting), nutqni soddalashtirish, ortiqcha matnni olib tashlash, e‘tiborni yo‘naltirish va o‘quvchini faol javob berishga undash kabi yondashuvlarni tavsiya etadilar. Ushbu tavsiyalar texnologiya darsi videolarini loyihalashda bevosita qo‘l keladi.

Texnologiya fanida foydalaniladigan raqamli resurslar bir nechta turga bo‘linadi. Birinchi va eng muhim tur — namoyish (demonstratsion) videolari: ularda asbob-uskunalardan foydalanish, materialga ishlov berish bosqichlari va texnologik amallar yaqindan, qadam-baqadam ko‘rsatiladi. Ikkinchi tur — nazariy tushuntirish videolari: materiallar xossalari, texnologik tushunchalar va xavfsizlik qoidalarini izohlaydi. Uchinchi tur — elektron qo‘llanmalar (elektron darslik, ko‘rsatma, ish varaqalari): yozma va grafik ma‘lumotni tizimli yetkazadi. To‘rtinchi tur — interaktiv resurslar (taqdimotlar, infografikalar, simulyatsiyalar, onlayn testlar): o‘quvchining faol ishtirokini ta‘minlaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Raqamli resurs yaratish jarayoni instruksion dizayn metodologiyasiga, xususan ADDIE modeliga muvofiq bosqichma-bosqich tashkil etiladi. ADDIE besh bosqichni o‘z ichiga oladi: tahlil (Analysis) — o‘quv maqsadi, auditoriya va mazmun tahlil qilinadi; loyihalash (Design) — resurs tuzilmasi, ssenariy va baholash usuli ishlab chiqiladi; ishlab chiqish (Development) — video yoziladi, tahrir qilinadi va qo‘llanma tayyorlanadi; tatbiq (Implementation) — resurs o‘quvchilarga taqdim etiladi; baholash (Evaluation) —

samaradorlik tahlil qilinib, resurs takomillashtiriladi. Ushbu tizimli yondashuv resursning o‘quv maqsadiga mosligini va sifatini kafolatlaydi.

Texnologiya darsi uchun video tayyorlashda quyidagi metodik talablarga rioya qilish zarur. Avvalo, har bir video aniq bitta o‘quv maqsadiga yo‘naltirilishi va 5–7 daqiqadan oshmasligi lozim. Amaliy amallar yaqin rakurs (close-up) da, sekin va aniq ko‘rsatilishi; xavfsizlik qoidalari alohida ta‘kidlanishi shart. Murakkab jarayon bosqichlarga bo‘linib, har bir bosqich raqamlanishi maqsadga muvofiq. Video oxirida o‘quvchi tushunganini tekshiruvchi savollar yoki sinfga tayyorgarlik topshirig‘i berilishi kerak. Tovush sifati va yorug‘lik o‘quvchining diqqatini chalg‘itmaydigan darajada bo‘lishi lozim.

Elektron qo‘llanma (elektron darslik yoki ko‘rsatma) video darsni to‘ldiruvchi muhim resursdir. U odatda quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘ladi: mavzu va o‘quv maqsadi; nazariy qisqacha ma‘lumot; zarur material va asboblar ro‘yxati; ishni bajarish bosqichlari (texnologik karta); xavfsizlik qoidalari; nazorat savollari va topshiriqlar; baholash mezonlari. Texnologiya fanida texnologik karta (jarayon bosqichlarini ketma-ket ko‘rsatuvchi jadval) ayniqsa qimmatli, chunki u o‘quvchiga amaliy ishni tartibli bajarishda ko‘maklashadi. Elektron qo‘llanma matn, rasm, sxema va giperhavolalarni birlashtirgan holda raqamli formatda (PDF, interaktiv hujjat yoki veb-sahifa) tayyorlanadi.

Resurslarni yaratish va joylashtirishda zamonaviy dasturiy vositalardan foydalaniladi. Video yozish uchun ekran yozish (screencast) va kamera dasturlari, tahrirlash uchun video muharrirlar, interaktiv element qo‘shish uchun maxsus platformalar (masalan, Edpuzzle) qo‘l keladi. Tayyor resurslar o‘quv jarayonini tashkil etish tizimiga (LMS — Moodle, Google Classroom va boshqalar) joylashtirilib, o‘quvchilarga yetkaziladi. O‘quvchining resursdan foydalanishini kuzatish imkonini beruvchi tizimlar o‘qituvchiga tayyorgarlik darajasini nazorat qilishda yordam beradi.

Quyidagi jadvalda texnologiya darsi uchun video darsning sifat mezonlari umumlashtirilgan (2.1.1-jadvalga qarang).

2.1.1-jadval

Texnologiya darslari uchun tayyorlanadigan video darsining sifat mezonlari

Mezon	**Talab**
Davomiyligi	5–7 daqiqa, murakkab mavzu bo‘laklarga ajratiladi
Maqsadi	Bitta aniq o‘quv maqsadiga yo‘naltirilgan
Ko‘rgazmalilik	Amaliy amallar yaqin rakursda, qadam-baqadam
Kognitiv yuklama	Ortiqcha bezaksiz, muhim ma‘lumot belgilangan
Xavfsizlik	Xavfsizlik qoidalari alohida ta‘kidlangan
Faollik	Nazorat savollari yoki topshiriq bilan yakunlanadi
Til va sifat	O‘zbek tilida, suhbatona ohang, aniq tovush

Raqamli resurslarni yaratishda mahalliy shart-sharoitni hisobga olish zarur. Birinchidan, resurslar o‘zbek tilida, milliy o‘quv dasturiga va texnologiya fanining mazmuniga muvofiq tayyorlanishi kerak. Ikkinchidan, raqamli tengsizlikni inobatga olib, internet talab qilmaydigan, oldindan yuklab olinadigan yoki bosma shaklda ham mavjud bo‘lgan resurslarni ko‘zda tutish lozim. Uchinchidan, milliy hunarmandchilik va amaliy san‘at mavzularida (kashtachilik, yog‘ochsozlik kabi) madaniy kontekstni aks ettiruvchi sifatli vizual materiallar tayyorlash modelning tarbiyaviy salohiyatini ham oshiradi. To‘rtinchidan, o‘qituvchilar ish yukini kamaytirish maqsadida markazlashtirilgan, umumiy foydalaniladigan raqamli resurslar bazasini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy ta‘lim texnologiyalarida mikroo‘rganish (microlearning) yondashuvi tobora ko‘proq qo‘llanilmoqda. Mikroo‘rganish o‘quv materialini kichik, metakognitiv

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

va aniq maqsadli bo‘laklarga ajratishni nazarda tutadi; har bir bo‘lak bitta tushuncha yoki ko‘nikmaga bag‘ishlanadi. Bu yondashuv teskari sinf modeliga to‘liq mos keladi va o‘quvchining kognitiv yuklamasini kamaytiradi: u murakkab mavzuni bir necha qisqa videoga ajratib, har birini alohida o‘zlashtirishi mumkin. Texnologiya darsida, masalan, bir buyum yasash texnologiyasini bir nechta qisqa bosqichli videoga bo‘lish o‘quvchiga jarayonni hazm bo‘ladigan qismlarda o‘rganish imkonini beradi.

Yaratilgan raqamli resurslarning sifatini muntazam baholash zarur. Baholash bir necha mezon bo‘yicha amalga oshiriladi: resursning o‘quv maqsadiga muvofiqligi; mazmunning ilmiy to‘g‘riligi va o‘quvchi yoshiga mosligi; texnik sifat (tasvir, tovush); kognitiv yuklamaning boshqarilganligi; o‘quvchi faolligini rag‘batlantirishi; foydalanish qulayligi. Baholashda o‘quvchilar fikri (resursning tushunarliligi, qiziqarliligi) ham hisobga olinadi. Olingan natijalar asosida resurs takomillashtiriladi — bu ADDIE modelidagi baholash bosqichining amaliy ifodasidir va resurslar bazasi sifatini bosqichma-bosqich oshiradi.

Raqamli resurslar teskari sinf tsiklida nafaqat axborot yetkazish, balki o‘quv jarayonini tashkil etish vazifasini ham bajaradi. Resurs o‘quvchini sinfdagi amaliy faoliyatga tayyorlaydi, unga maqsad va kutilayotgan natijani belgilaydi, shuningdek o‘z-o‘zini tekshirish imkonini beradi. Shu sababli resursni loyihalashda nafaqat mazmun, balki uning butun o‘quv tsiklidagi o‘rni — darsdan oldingi, darsdagi va darsdan keyingi faoliyat bilan bog‘lanishi ham hisobga olinadi. Yaxshi loyihalangan resurs o‘quvchini sinfga aniq savol va dastlabki tushuncha bilan keladigan, faol ishtirokka tayyor holatga keltiradi.

Raqamli resurslarga shakllantiruvchi baholash elementlarini singdirish ularning samaradorligini oshiradi. Video yoki elektron qo‘llanma oxiriga joylashtirilgan qisqa nazorat savollari o‘quvchiga o‘z tushunchasini darhol tekshirish, o‘qituvchiga esa tayyorgarlik darajasini baholash imkonini beradi. Bunday “o‘zlashtirishni tekshirish” mexanizmi o‘quvchining materialni faol qayta ishlashini ta‘minlaydi va passiv

ko‘rishning oldini oladi. Savollar oddiy esda saqlashdan tortib qo‘llash va tahlilgacha bo‘lgan turli bilish darajalarini qamrab olishi mumkin.

Brame ta‘kidlaganidek e‘tiborni jalb etish (engagement) tamoyili texnologiya videolarida alohida ahamiyatga ega. O‘quvchining videoga jalb etilganligini oshirish uchun materialni hayotiy va amaliy kontekstda taqdim etish, o‘qituvchining shaxsiy ishtirokini va qiziqishini namoyon qilish, hikoya unsurlaridan foydalanish hamda o‘quvchiga bevosita murojaat qiluvchi suhbatona ohangni qo‘llash tavsiya etiladi. Milliy hunarmandchilik mavzularida buyumning tarixiy-madaniy ahamiyatini ko‘rsatish o‘quvchining mavzuga qiziqishini va milliy qadriyatlarga hurmatini oshiradi, bu esa videoning ham ta‘limiy, ham tarbiyaviy salohiyatini kuchaytiradi.

Interaktiv elementlar videoni passiv ko‘rishdan faol o‘rganishga aylantiradi. Video ichiga joylashtirilgan savollar, o‘quvchini to‘xtab o‘ylashga undovchi vazifalar va video oxiridagi nazorat testlari faol o‘rganishni rag‘batlantiradi. Maxsus platformalar (masalan, Edpuzzle) yordamida o‘qituvchi video ichiga savol qo‘yishi va o‘quvchining javoblarini kuzatishi mumkin. Bunday interaktivlik nafaqat o‘quvchining diqqatini ushlab turadi, balki uning tushunish darajasi haqida o‘qituvchiga ma‘lumot beradi va darsdan oldingi tayyorgarlikni nazorat qilish imkonini yaratadi.

Raqamli resurs turini tanlash mavzu xususiyatiga bog‘liq. Aniq texnologik amalni o‘rgatishda namoyish videosi eng samarali; mavhum tushuncha yoki materiallar tasnifini berishda infografika va sxema qulay; jarayonning bosqichlarini ko‘rsatishda texnologik karta zarur; o‘zlashtirishni tekshirishda interaktiv test qo‘l keladi. Ko‘pincha bir mavzu uchun bir nechta resurs turi birgalikda qo‘llaniladi: masalan, namoyish videosi, texnologik karta va nazorat testi yagona o‘quv to‘plamini tashkil etadi. Resurslarni turli o‘rganish uslublariga (vizual, audial, kinestetik) moslab tanlash ularning samaradorligini oshiradi.

Video ssenariysini (storyboard) tayyorlash resurs sifatini ta‘minlovchi muhim bosqichdir. Ssenariyda har bir kadr mazmuni, og‘zaki matn, ko‘rsatiladigan amal va

ekranga chiqariladigan yozuvlar oldindan rejalashtiriladi. Bu o‘qituvchiga ortiqcha ma‘lumotni olib tashlash, muhim nuqtalarni ajratish va videoning mantiqiy ketma-ketligini ta‘minlash imkonini beradi. Mayerning multimediali ta‘lim tamoyillari ssenariy tuzishda bevosita qo‘l keladi: muvofiqlik tamoyili (coherence) ortiqcha unsurlarni olib tashlashni; belgilash tamoyili (signalling) muhim ma‘lumotni ajratishni; modallik tamoyili (modality) tasvirni ekrandagi matn emas, og‘zaki izoh bilan birga berishni; bo‘laklarga ajratish tamoyili (segmenting) materialni hazm bo‘ladigan qismlarga bo‘lishni tavsiya etadi.

Texnologiya fanida amaliy jarayonni aks ettiruvchi videoning o‘ziga xos talablari mavjud. Murakkab amallar bir necha rakursdan, jumladan o‘qituvchining qo‘l harakatlari yaqindan ko‘rsatilishi; jarayon sekinlashtirilgan tezlikda yoki bosqichma-bosqich namoyish etilishi; har bir bosqich ekranda raqam yoki sarlavha bilan belgilanishi maqsadga muvofiq. Xavfsizlik bilan bog‘liq lahzalar alohida ta‘kidlanib, vizual ogohlantirish belgilari bilan kuchaytiriladi. Bunday yondashuv o‘quvchiga amalni aniq ko‘rish va keyinchalik sinfda metakognitiv takrorlash imkonini beradi.

Elektron qo‘llanmaning markaziy elementi — texnologik xaritadir. Texnologik xarita amaliy ishni bajarish bosqichlarini ketma-ket, har bir bosqich uchun zarur asbob, material va xavfsizlik ko‘rsatmasi bilan birga aks ettiruvchi jadval shaklidagi hujjatdir. U o‘quvchiga amaliy faoliyatni tartibli va xavfsiz bajarishda yo‘lboshchi vazifasini o‘taydi. Texnologik karta video bilan birgalikda berilganda o‘quvchi nazariy ma‘lumotni vizual (video) va matn-grafik (karta) shakllarda bir vaqtning o‘zida o‘zlashtiradi, bu esa Mayerning ikki kanalli qayta ishlash g‘oyasiga mos keladi va o‘zlashtirishni mustahkamlaydi.

Raqamli resurslarni yaratishda ochiq ta‘lim resurslaridan (OER — Open Educational Resources) foydalanish o‘qituvchining ish yukini sezilarli kamaytiradi. O‘qituvchi har bir mavzu uchun videoni noldan tayyorlash o‘rniga mavjud sifatli resurslardan foydalanishi, ularni o‘zbek tiliga moslashtirishi yoki o‘z materiali bilan

to‘ldirishi mumkin. Bunda resurs muallifligi va litsenziya shartlariga rioya qilish, shuningdek resursning milliy oquv dasturiga va o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mosligini tekshirish zarur. Markazlashtirilgan milliy raqamli resurslar bazasini yaratish bu yo‘nalishda strategik ahamiyatga ega.

Raqamli resurslarni barcha o‘quvchilar uchun qulay (inklyuziv) qilib loyihalash muhim ahamiyatga ega. Videolarga subtitr (matn izoh) qo‘shish eshitishda qiyinchiligi bo‘lgan yoki ovozsiz sharoitda ko‘rayotgan o‘quvchilar uchun foydali; aniq, kontrastli tasvir va o‘qiladigan shrift ko‘rishga oid ehtiyojlarni hisobga oladi; sodda til esa barcha o‘quvchilarning tushunishini osonlashtiradi. Resursni turli qurilmalarda (kompyuter, planshet, telefon) bir xil ishlashini ta‘minlash ham foydalanish qulayligini oshiradi. Inklyuziv dizayn modelni imkoniyatlari turlicha bo‘lgan barcha o‘quvchilar uchun teng qulay qiladi.

Tadqiqot basketbolchilarning ruhiy tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik tajriba-sinov asosida tashkil etildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, suhbat, so‘rovnoma, psixologik test, pedagogik tajriba va matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Ilmiy adabiyotlarni o‘rganish orqali sportchilarning ruhiy tayyorgarligi, motivatsiyasi, diqqat barqarorligi, emotsional holati va stressga chidamliligini rivojlantirish bo‘yicha mavjud nazariy yondashuvlar tahlil qilindi.

Pedagogik kuzatuv davomida basketbolchilarning mashg‘ulot va musobaqa sharoitidagi xatti-harakatlari, murakkab vaziyatlarda qaror qabul qilishi, muvaffaqiyatsizlikka munosabati, jamoaviy hamkorligi va emotsional holati kuzatib borildi. So‘rovnoma va suhbatlar orqali sportchilarning mashg‘ulotga bo‘lgan

munosabati, sport motivatsiyasi, o‘ziga ishonchi va musobaqa oldidan yuzaga keladigan psixologik holatlari aniqlandi [6].

Ruhiy tayyorgarlik darajasini baholashda diqqatni jamlash, emotsional barqarorlik, stressga chidamlilik, motivatsiya va o‘ziga ishonch kabi mezonlarga e’tibor qaratildi. Tajriba guruhidagi basketbolchilarning mashg‘ulot jarayoniga psixologik tayyorgarlikning maxsus usullari, jumladan, nafas olish va relaksatsiya mashqlari, vizualizatsiya, ijobiy o‘z-o‘ziga murojaat qilish, maqsad qo‘yish, diqqatni jamlash hamda musobaqa vaziyatlarini modellashtirish mashqlari kiritildi. Nazorat guruhida esa an’anaviy mashg‘ulotlar davom ettirildi [4].

Tajriba boshida va yakunida olingan natijalar qiyosiy tahlil qilindi. Statistik qayta ishlashda o‘rtacha arifmetik qiymat (X), standart og‘ish (σ), foizli o‘zgarish va Studentning t-mezonidan foydalanish ko‘zda tutildi. Natijalarning statistik ishonchliligi $p<0,05$ darajasida baholandi. Mazkur metodik yondashuv ruhiy tayyorgarlik usullarining basketbolchilarning psixologik ko‘rsatkichlariga ta’sirini obyektiv baholash imkonini berdi [5].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O‘tkazilgan pedagogik tajriba-sinov jarayonida basketbolchilarning ruhiy tayyorgarligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan usullarning samaradorligi o‘rganildi. Tajriba davomida sportchilarning motivatsiyasi, diqqatni jamlash darajasi, emotsional barqarorligi, stressga chidamliligi va o‘ziga ishonchi asosiy mezonlar sifatida belgilandi. Tajriba guruhidagi basketbolchilarning mashg‘ulotlariga relaksatsion va nafas olish mashqlari, vizualizatsiya, ijobiy o‘z-o‘ziga murojaat qilish, maqsad qo‘yish hamda musobaqa vaziyatlarini modellashtirish kabi psixologik tayyorgarlik vositalari muntazam ravishda kiritildi. Nazorat guruhida esa mashg‘ulotlar an’anaviy metodika asosida tashkil etildi.

Tajriba yakunida tajriba guruhidagi barcha asosiy ko‘rsatkichlarda ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Xususan, motivatsiya darajasi 14,2 foizga, diqqatni jamlash 16,8

foizga, emotsional barqarorlik 18,5 foizga, stressga chidamlilik 20,1 foizga va o‘ziga ishonch 17,6 foizga oshganligi aniqlandi. Nazorat guruhida ham ayrim ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgan bo‘lsa-da, ularning o‘sish sur’ati tajriba guruhiga nisbatan past bo‘ldi.

1-jadval. Basketbolchilarning ruhiy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining tajriba oldi va yakunidagi natijalari

№	Ko‘rsatkichlar	Tajriba guruhi tajriba oldidan	Tajriba guruhi yakunida	O‘sish, %	Nazorat guruhi yakunida
1	Motivatsiya	68,4	78,1	14,2	71,6
2	Diqqatni jamlash	65,5	76,5	16,8	69,2
3	Emotsional barqarorlik	62,7	74,3	18,5	67,1
4	Stressga chidamlilik	60,2	72,3	20,1	65,4
5	O‘ziga ishonch	64,8	76,2	17,6	69,5

Jadval ma’lumotlari tajriba guruhida qo‘llanilgan psixologik-pedagogik usullar basketbolchilarning ruhiy tayyorgarligini rivojlantirishda samarali ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, stressga chidamlilik ko‘rsatkichidagi 20,1 foizlik o‘sish musobaqa jarayonida yuzaga keladigan bosimli vaziyatlarga sportchilarning moslashuvchanligi yaxshilanganini ko‘rsatadi. Emotsional barqarorlikning 18,5 foizga oshishi esa sportchilarning muvaffaqiyatsiz harakatlardan keyin o‘z ruhiy holatini tezroq tiklash imkoniyatlari kengayganini anglatadi.

Olingan natijalarni pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilganda, ruhiy tayyorgarlikni bir martalik mashg‘ulot emas, balki muntazam va tizimli jarayon sifatida tashkil etish muhimligi namoyon bo‘ldi. Basketbolchilarda ijobiy psixologik holatni shakllantirish jismoniy, texnik va taktik tayyorgarlik bilan uyg‘unlashtirilganda yanada

yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Shu sababli murabbiy mashg‘ulot jarayonida sportchilarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olishi, musobaqa sharoitlarini modellashtirishi va sportchilarga psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik muhit yaratishi maqsadga muvofiq [7].

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari basketbolchilarning sport faoliyatida ruhiy tayyorgarlik jismoniy, texnik va taktik tayyorgarlikning ajralmas tarkibiy qismi ekanligini ko‘rsatdi. Zamonaviy basketbolda sportchidan nafaqat yuqori darajadagi jismoniy imkoniyatlar, balki musobaqa jarayonida yuzaga keladigan kuchli psixologik bosim, hayajon, stress va kutilmagan vaziyatlarga bardosh berish, tezkor va to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyati ham talab etiladi. Shu sababli basketbolchilarni tayyorlash jarayonida ruhiy sifatlarni maqsadli ravishda tarbiyalash muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot davomida ruhiy tayyorgarlikni rivojlantirishda motivatsiyani shakllantirish, diqqatni jamlash, ijobiy o‘z-o‘ziga murojaat qilish, vizualizatsiya, nafas olish va relaksatsiya mashqlari, maqsad qo‘yish hamda musobaqa vaziyatlarini modellashtirish usullaridan kompleks foydalanish samarali ekanligi aniqlandi. Mazkur usullar basketbolchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, emotsional holatini boshqarish, stressga chidamliligini oshirish va murakkab o‘yin vaziyatlarida barqaror faoliyat ko‘rsatishiga yordam beradi.

Pedagogik tajriba-sinov natijalarida tajriba guruhidagi sportchilarning motivatsiya, diqqat, emotsional barqarorlik, stressga chidamlilik va o‘ziga ishonch ko‘rsatkichlarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Bu esa ruhiy tayyorgarlik vositalarini basketbol mashg‘ulotlariga tizimli ravishda kiritish maqsadga muvofiqligini asoslaydi.

Shunday qilib, basketbolchilarning ruhiy tayyorgarligini tarbiyalashda individual yondashuv, muntazam psixologik mashg‘ulotlar va murabbiy tomonidan ijobiy

pedagogik muhitni yaratish sportchilarning musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishning muhim shartlari sifatida tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF–5924-son “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Azizov, S. V. (2024). YOSH SPRINTERLARNI SARALAB OLISHNING O‘ZIGA HOS JIHATLARI. Экономика и социум, (2-1 (117)), 126-129.
3. Азизов, С. В. (2024). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЧАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ ТЕХНИКИ ИГРЫ ГАНДБОЛИСТОВ. Экономика и социум, (6-2 (121)), 831-836.
4. Azizov, S. V., Azizova, R. I., Mahmudjonov, A., & Tuxtaboyeva, N. (2024). SPORTCHILARDA O ‘YIN JARAYONINI YUQORI DARAJADA IDROK QILISH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH INTELLEKTUAL TAYYORGARLIKNING ASOSIY VAZIFASI. Экономика и социум, (9 (124)), 82-86.
5. Jo‘rayev, T. T., Mahmudjonov, A. A., & Shamsitdinova, M. F. (2024). THE EFFECTIVENESS OF USING NATIONAL ACTION GAMES IN DEVELOPING SPORTS ELEMENTS. MASTERS, 2, 29-33.
6. Makhmudovich, G. A. (2024). THE IMPORTANCE OF SPECIAL METHODS IN INCREASING THE EFFICIENCY OF SPORTS EXERCISES. INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY, 730-734.
7. Makhmudovich, G. A. (2024). METHODS OF MONITORING THE PHYSICAL DEVELOPMENT OF HIGH SCHOOL STUDENTS THROUGH GYMNASTICS. INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY, 735-739.
8. Mahmudjonov, A. A., Izatullayev, A. M., & Ergashaliyev, D. N. (2024). THE IMPORTANCE OF GENERAL PHYSICAL FITNESS IN INCREASING THE EFFICIENCY OF SPORTS TRAINING IN PRIVATE SCHOOLS. INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY, 755-759.
9. Makhmudovich, G. A. (2024). MOVEMENT SKILLS OF YOUNG GYMNASTS AND THE LAWS OF ITS FORMATION. INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY, 751-754.
10. Satiyev, S., & Azizov, S. V. (2020). BEGINNINGS OF THE RELATIONSHIP OF TEMPERAMENT TYPES TO EMOTIONAL STRESS AND THE DEGREE OF STRESS RESISTANCE OF FOOTBALL PLAYERS. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(6), 378-385.
11. Shamsitdinova, M. F. (2022). UMUMTA’LIM MAKTABLARI O ‘QUVCHILARINING JISMONIY TAYYORGARLIGIGA BASKETBOL SPORT TO ‘GARAKLARINING TA’SIRI. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(9), 208-212.
12. G‘ofirjonova, A. I. (2022). MILIY HARAKATLI O ‘YINLARNI SPORT ELEMENTLARINI O ‘ZLASHTIRISHDA QO ‘LLASHNING SAMARADORLIGI. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(9), 171-176.

13. Костикова, О. В., Азизов, С. В., Болтобаев, С. А., Азизова, Р. И., & Махмуджонов, А. А. (2025). РАЗВИТИЕ У ЮНЫХ БАСКЕТБОЛИСТОВ СКОРОСТИ И ТОЧНОСТИ БРОСКА. Физическая культура, спорт-наука и практика, 2, 109-114.
14. Luqmonov, I. B. (2022). KARATE SPORT TO 'GARAKLARINING UMUMTA'LIM MAKTABLARI O 'QUVCHILARINING JISMONIY TAYYORGARLIGIGA TA'SIRI. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(9), 166-170.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

INGLIZ TILI MASHG'ULOTLARIDA YURISPRUDENSIYA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING YOZUV MALAKALARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Raxmanova Dildora Abdulxamid qizi
Namangan davlat universiteti o'qituvchisi
Email: raxdildora18@gmail.com
Tel:+998936764114

UDK.37.378.378.4 ORCID:0009-0002-8419-6495

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi talabalarining ingliz tili mashg'ulotlarida yozuv malakalarini rivojlantirishda qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim texnologiyalari va metodlari tahlil qilinadi. Huquqshunos mutaxassislar uchun kasbiy faoliyatda yozma nutq malakalarining, xususan, huquqiy hujjatlar, shartnomalar, arizalar va rasmiy xatlarni ingliz tilida to'g'ri va aniq tarzda tuza olish ko'nikmasining ahamiyati asoslab beriladi.*

Maqolada mazmun va til integratsiyalashgan ta'lim (CLIL) asosida qurilgan topshiriqqa yo'naltirilgan ta'lim (TBLT) metodologiyasining huquqiy ingliz tilini o'qitishdagi o'rni, boshqariluvchi yozuv (guided writing), hamkorlikdagi yozuv (collaborative writing) va tayanch ko'rsatmalar (scaffolding) texnikalarining talabalar yozuv kompetensiyasini bosqichma-bosqich shakllantirishdagi samaradorligi ko'rib chiqiladi. Xususan, CLIL asosidagi TBLT yondashuvi orqali talabalarning huquqiy mazmunni til bilan uzviy bog'liq holda o'zlashtirishi, guided writing metodi yordamida yozma matn tuzish jarayonida bosqichma-bosqich yo'naltirilishi, collaborative writing orqali hamkorlikda ishlash va bir-birining matnlarini tahlil qilish ko'nikmalarining shakllanishi, scaffolding texnikasi esa talabaning mustaqil yozish darajasiga erishguniga qadar zarur bo'lgan vaqtinchalik yordam vositalarini ta'minlashi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *yozuv malakalari, CLIL, TBLT, guided writing, collaborative writing, scaffolding, yurisprudensiya yo'nalishi, huquqiy ingliz tili (Legal English), kasbiy kompetensiya.*

СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ ПИСЬМА У СТУДЕНТОВ ЮРИДИЧЕСКОГО НАПРАВЛЕНИЯ НА ЗАНЯТИЯХ ПО АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Рахманова Дилдора Абдулхамид кизи
Преподаватель Наманганского государственного университета

Аннотация. *В данной статье анализируются современные образовательные технологии и методы, применяемые при развитии навыков письма у студентов юридического направления на занятиях по английскому языку. Обосновывается значимость навыков письменной речи для профессиональной деятельности юристов, в частности умения грамотно и точно составлять на английском языке юридические документы, договоры, заявления и официальные письма. В статье рассматривается роль технологии обучения на основе заданий (TBLT), построенной на принципах предметно-языкового интегрированного обучения (CLIL), в преподавании юридического*

английского языка, а также эффективность методов управляемого письма (guided writing), совместного письма (collaborative writing) и техники «поддерживающих опор» (scaffolding) в поэтапном формировании письменной компетенции студентов. В частности, анализируется, каким образом подход CLIL-TBLT позволяет студентам осваивать юридическое содержание в неразрывной связи с языком, метод guided writing обеспечивает пошаговое сопровождение в процессе составления письменного текста, collaborative writing способствует формированию навыков совместной работы и анализа текстов друг друга, а scaffolding обеспечивает временные средства поддержки, необходимые студенту до достижения им самостоятельного уровня письма.

Ключевые слова: *навыки письма, CLIL, TBLT, guided writing, collaborative writing, scaffolding, юридическое направление, юридический английский язык (Legal English), профессиональная компетенция.*

MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING WRITING SKILLS OF LAW STUDENTS IN ENGLISH LANGUAGE CLASSES

Rakhmanova Dildora Abdulkhamid qizi
Lecturer, Namangan State University

Abstract. *This article analyzes modern educational technologies and methods used in developing the writing skills of law students in English language classes. The importance of written communication skills for legal professionals — particularly the ability to draft legal documents, contracts, applications, and official letters accurately and correctly in English — is substantiated. The article examines the role of Task-Based Language Teaching (TBLT) built on the basis of Content and Language Integrated Learning (CLIL) in teaching Legal English, as well as the effectiveness of guided writing, collaborative writing, and scaffolding techniques in the gradual formation of students' writing competence. Specifically, it analyzes how the CLIL-based TBLT approach enables students to acquire legal content in close connection with language, how the guided writing method provides step-by-step direction in the process of composing written texts, how collaborative writing fosters skills of working together and analyzing each other's texts, and how scaffolding provides the temporary support tools necessary until students reach an independent level of writing.*

Keywords: *writing skills, CLIL, TBLT, guided writing, collaborative writing, scaffolding, law major, Legal English, professional competence.*

KIRISH

Zamonaviy oliy ta'lim tizimi jadal rivojlanayotgan axborot asrida ta'lim jarayonlarini yangicha metodik yondashuvlar va raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishni taqozo etmoqda. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, ayniqsa, talabalarda

sohaga oid kompetensiyalarni shakllantirishda zamonaviy lingvodidaktik metodlarni qo‘llash dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, chet tilni o‘qitishda ilg‘or metodlar va innovatsion texnologiyalarning uyg‘unligi o‘quv jarayonining interaktiv va kontekstual tashkil etilishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda global va professional kommunikatsiya vositasi sifatida chet tilini egallash talab etiladigan malakalardan biriga aylangan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, talabalar uchun sohaga mos chet tili kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash, zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh kadr sifatida shakllantirishda innovatsion metodikalar muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Faol ta’lim muhitini shakllantirish, bilim oluvchilarning ehtiyojlarini hisobga olish, o‘quv materiallaridan samarali foydalanish, xorijiy tilni o‘qitish metod va texnikalari bo‘yicha bilimga ega bo‘lish va ularni amalda qo‘llay bilish - ingliz tili ta’limida zarur bo‘lgan muhim sifatlar hisoblanadi.

Pedagogik amaliyotda mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish uchun turli xil o‘qitish metodlaridan foydalaniladi. Ular quyidagicha guruhlarga ajratiladi:

1. An’anaviy metodlar **-** bu metodlar ko‘p yillik tajribaga ega bo‘lgan, klassik o‘qitish shakllarini o‘z ichiga oladi:og‘zaki bayon qilish (ma’ruza), suhbat usuli, darslik va matnlar bilan ishlash, ko‘rgazmali namoyish (vizual taqdimot), amaliy mashg‘ulotlar, leksiya.

2. Noan’anaviy metodlar **-** bu usullar o‘quvchilarning faolligini oshirishga, dars jarayonini interaktiv qilishga xizmat qiladi: konferensiyalar, seminarlar, munozaralar, texnik vositalardan foydalanish (projektor, videoroliklar va h.k.), kasbga yo‘naltirilgan topshiriqlar, yozma ishlar, testlar, "O‘ylab top" kabi so‘z o‘yinlari.

3. Umumiy didaktik metodlar **-** Bu metodlar ta’limning asosiy tamoyillariga asoslanadi va turli fanlarda qo‘llanilishi mumkin:tushuntirish, ko‘rsatma (namoyish) berish, muammoli o‘qitish,taqqoslash, izlanishga yo‘naltirish (tadqiqot usuli).

4. Faol o'qitish metodlari **-** ushbu metodlar talabalarni mustaqil fikrlash, izlanish va faol ishtirok etishga undaydi: mantiqiy fikrlashga undash, guruhli ishlash (kooperativ o'qitish), kuzatuvlar olib borish, ish qog'ozlari bilan ishlash, ekskursiyalar (tashriflar), anketa va so'rovnomalar, ko'rgazmalar tashkil qilish, hikoya qilish (storytelling), sahnalashtirish (rol o'ynash), audio materiallar tinglash, internetdan ta'limiy maqsadda foydalanish, o'z-o'zini baholash (attestatsiya).

5. Psixologik va innovatsion metodlar **-** bu metodlar talabalarning tafakkurini faollashtirish, tahliliy va ijodiy fikr yuritish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi:"Aqliy hujum" (brainstorming),"VENN diagrammasi","Zanjir" metodi,"Klaster" (g'oyalarni guruhlash) metodi,"Kubik burchaklari" (spektiv analiz),"Toifali sharh","Ikki qismli kundalik","INSERT" metodi (interaktiv belgili o'qish strategiyasi).

Zamonaviy ta'lim jarayonida yuqoridagi metodlar talabalarning intellektual, ijodiy va ijtimoiy salohiyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi metodlarni dars mazmuni, o'rganuvchilarning yoshi, tayyorgarlik darajasi va pedagogik maqsadlarga qarab tanlashi lozim.

D. Hidoyatovaga ko'ra, zamonaviy o'qitish metodlari — bu ta'lim oluvchini o'quv jarayonining markaziga qo'yuvchi, uni faollikka va mustaqil fikrlashga undovchi metodlardir. Ushbu metodlardan foydalanilganda, o'qituvchi o'z faoliyatini faqat bilim yetkazuvchi emas, balki talabani faol ishtirok etishga undovchi tashkilotchi sifatida olib boradi. Bunda talaba esa o'qitishning barcha bosqichlarida faol ishtirokchi rolini egallaydi.

D.Hidoyatova zamonaviy metodlarning asosiy tamoyillarini quyidagi yo'nalishlarga ajratadi:"1) *yuqori natija beruvchi o'qish va o'rganishga yo'naltirish* – ya'ni metodlar o'quv jarayonining sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qilishi kerak.2) *o'quvchini faol rag'batlantirish* – o'quvchini ichki motivatsiyasini oshirish va o'qishga bo'lgan qiziqishini mustahkamlash.3) *avvalgi bilimlar asosida yangisini qurish* – ilgari o'zlashtirilgan bilimlar yangi bilimlarni egallashda asos bo'lib xizmat qiladi. 4) *o'qish*

sur'atini o'quvchi ehtiyojiga moslashtirish – o'quv jarayonini har bir o'quvchining individualligiga qarab tashkil etish.5) *o'quvchining tashabbusini qo'llab-quvvatlash* – ta'lim oluvchining faol, mustaqil harakatlariga imkon berish. 6) *amaliyot asosida o'rganishni ta'minlash* – nazariy bilimlarni bevosita amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlash.7) *o'qituvchi va o'rganuvchi o'rtasida ikki tomonlama fikr almashinuvini ta'minlash* – ta'lim jarayonida fikr bildirish, savol-javob, muhokama va bahsga asoslangan faol muloqotni yo'lga qo'yish".

Zamonaviy ko'nikmalar, xususan, chet tillarini o'rganish va ulardan samarali foydalanishda bilish, tushunish, idrok etish hamda eslab qolishga oid muqobil va variativ yondashuvlarni qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Hozirgi kunda zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashda jahonda sinovdan o'tgan ilg'or usullarni milliy ta'lim tizimiga tatbiq etish ijobiy natijalar bermoqda. O'qituvchi qanday usul yoki metodikani qo'llamasin, asosiy e'tibor ta'lim sifatini oshirish va aniq natijalarga erishishga qaratilishi lozim.

Aynan shu yo'nalishda CLIL - Content and Language Integrated Learning (Mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish) texnologiyasi ta'lim mazmunini boyitish, tilni amaliy kontekstda o'rgatish va ingliz tilida huquq yo'nalishi talabalari uchun yozuv malakalarini takomillashtirishda alohida o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Barcha nutq faoliyat turlarini rivojlantirishda keng qo'llab kelinayotgan TBLT(Topshiriqqa asoslangan ta'lim) metodi "real hayotdagi vazifalarni tahlil qilish, ularning muvaffaqiyatli bajarilishi uchun zarur bo'lgan nutq va til vositalarini aniqlash, hamda shu asosda metodik topshiriqlarni loyihalash va qo'llashni anglatadi. Bu topshiriqlar o'z navbatida, talabalarning shu vazifalarga oid amaliy ko'nikmalari va til kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi".

Topshiriqqa asoslangan metod (TBLT) orqali talabalarga tilni real kontekstda qo'llashga imkon beruvchi autentik (haqiqiy) vaziyatlar yaratiladi. Ayniqsa, huquqiy ta'limda bu yondashuv talabalarning kasbiy kontekstda yozuv malakalarini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. TBLT asosidagi topshiriqlar talabalarga huquqiy matnlarni yaratish, huquqiy fikrlarni izchil va dalillangan bayon qilish, hamda normativ asosda fikr yuritish imkonini beradi.

H.Marashi va L.Dadari ta'kidlaganidek: "topshiriqlar asosida ishlash o'quvchilarning ijodiy fikrlash va tanqidiy tahlil ko'nikmalarini rivojlantiradi". Bu jihatlar huquqshunoslar uchun ayniqsa dolzarb, chunki har qanday huquqiy yozuv – bu nafaqat matn, balki loyihalangan dalillashuv tizimidir. TBLT orqali talaba biror qonun loyihasini tahlil qilish, huquqiy holatga sharh berish yoki shartnoma bandlarini baholash kabi topshiriqlar orqali real kasbiy yozuv faoliyatini simulyatsiya qiladi.

Shuningdek, bu metod yozuv malakalarini shakldan ko'ra mazmunga urg'u berish orqali chuqurlashtiradi. Ya'ni, talabalar matn grammatikasidan ko'ra, uning funksional aniqligi, dalillanishi va mantiqiyligini ustuvorlik sifatida tushunadilar. Bu esa yuridik yozuvning eng muhim jihatlaridan biridir.

Shu bilan birga, bu metodning ba'zi muammoli jihatlari ham mavjud. Masalan, murakkab huquqiy holatlar asosidagi topshiriqlarni yaratish va baholash uchun ko'proq tayyorgarlik vaqti talab etiladi. Talabalar ham bu topshiriqlarni samarali bajarish uchun darsdan tashqarida mustaqil izlanish va vaqt sarflashlari kerak bo'ladi. Bu esa ba'zilarida charchoq va motivatsiya yo'qotilishiga olib kelishi mumkin. Shu boisdan, huquqiy yozuv topshiriqlari bosqichma-bosqich (scaffolding) asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Yurisprudensiya yo'nalishi talabalariga ingliz tilida yozuv malakasini rivojlantirishda CLIL texnolgiyasi va TBLT metodini amalda qo'llashda ko'maklashuvchi ta'lim usullaridan biri bu "Skaffolding" strategiyasidir.

Ta’lim psixologiyasida "skaffolding" (bosqichma-bosqich ko‘mak berish) - bu talabalarga vaqtinchalik yordam ko‘rsatish orqali, ular topshiriqlarni mustaqil bajara oladigan darajaga yetgunlariga qadar ularga yo‘naltiruvchi ko‘mak berishni nazarda tutadigan o‘qitish usulidir.

Bu tushuncha konstruktivistik ta’lim nazariyalariga asoslangan bo‘lib, 1970-yillarda J.Bruner va uning hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan. Ular bu g‘oyani sovet psixologi L. Vygotskiy ishlariga tayanib rivojlantirishgan.

“Skaffolding — bu talabaning mustaqil bajarishga hali tayyor bo‘lmagan topshiriqlarni bajarishda vaqtincha yordam beruvchi pedagogik strategiyalar to‘plamidir. Murakkab huquqiy matnlarni yozishdan oldin keltirilgan misollar, ko‘rsatmalar, struktura andozalari yordamida talabaga dastlabki yo‘l-yo‘riq beriladi.O‘qituvchi matnni bosqichma-bosqich ishlab chiqishda yo‘l ko‘rsatadi: birinchi bosqichda – dalilni tanlash, ikkinchi bosqichda – ularni tahlil qilish, so‘ng – xulosa chiqarish kabilarni amalga oshirish kerakligini asta-sekin tushuntirib boradi.Talabalar huquqiy fikr bildirish va yozishdagi ishonchsizlik va qo‘rquvdan xalos bo‘ladi.Yozuv jarayoni rejalashtirilgan, strukturalangan va nazorat qilinadigan bo‘ladi.

Skaffolding turli shakllarda namoyon bo‘ladi — masalan, strukturaviy savol berish, yo‘naltiruvchi maslahatlar, yoki shaxsiylashtirilgan fikr-mulohazalar orqali.

Ushbu o‘qitish modeli hozirgi kunda turli ta’lim muhitlarida qo‘llanilmoqda va o‘zining moslashuvchanligi hamda o‘rganishga ijobiy ta’siri bilan tan olingan”.

Guided Writing (yozuvga yo‘naltirish) usuli yozuvni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish imkonini beradi. Ushbu yondashuvda o‘qituvchi talabalarni yozuvning har bir bosqichida — rejalashtirish, tahlil qilish, yozish va tahrirlash jarayonlarida faol qo‘llab-quvvatlaydi. Ilmiy tadqiqotlar ko‘rsatishicha, yozuvni aniq ko‘rsatmalar va yo‘naltirish asosida o‘rgatish talabalar yozuv sifatini sezilarli darajada oshiradi. L.Okzusning fikriga ko‘ra; “ Guided writng” usuli “o‘rgatilayotgan” va “mustaqil yozuv”o‘rtasidagi ko‘prik bo‘lib, talabalarni mustaqil yozuv faoliyatiga o‘tish jarayonida


qo‘llab-quvvatlovchi tayanch vazifasini bajaradi.” *Guided writing* usuli CLIL texnologiyasi doirasida yurisprudensiya yo‘nalishi talabalarining kasbiy yozma nutqini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayonda o‘qituvchi talabalarning yozma faoliyatini huquqiy mazmun asosida muhokama qilish, huquqiy matnlarni birgalikda yaratish hamda ularning mustaqil yozma ishlarini tahlil va baholash orqali tizimli ravishda yo‘naltiradi. *Guided writing* jarayonida o‘qituvchi o‘rganuvchilar guruhi bilan muayyan huquqiy-yozma topshiriq (masalan, case analysis, legal essay, memorandum) ustida hamkorlikda ishlaydi. Ushbu topshiriqlarning maqsadlari talabalar tomonidan huquqiy yozuv jarayoni, rasmiy uslub hamda yuridik terminologiya bo‘yicha avval o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarga asoslanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Talabalarning ingliz tilida yozuv malakalarini rivojlantirishga har tomonlama ko‘maklashuvchi, yuqorida izohlangan ta’lim texnologiyalarini izchil, maqsadli va metodik jihatdan asoslangan holda qo‘llash natijasida ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarning yozma nutq faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish hamda ularning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyati kengayadi. Mazkur texnologiyalarni qo‘llash orqali talabalarda ingliz tilida fikrlarni mantiqiy, izchil va grammatik jihatdan to‘g‘ri ifodalash, leksik birliklardan nutq vaziyatiga mos ravishda foydalanish, matnning strukturaviy yaxlitligini ta’minlash, dalillarni asoslash hamda turli janr va uslubdagi yozma matnlarni yaratish kompetensiyalari rivojlantiriladi. Shuningdek, ta’lim texnologiyalaridan foydalanish jarayonida talabalarning o‘z yozma ishlarini tahlil qilish, xatolarini aniqlash va tuzatish, o‘z faoliyatini baholash hamda o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni yangi kommunikativ vaziyatlarda mustaqil qo‘llash imkoniyatlari shakllanadi. Natijada talabalarning ingliz tilidagi yozuv malakalari nafaqat lingvistik jihatdan, balki kognitiv, kommunikativ, diskursiv va refleksiv komponentlar nuqtayi nazaridan ham kompleks

ravishda rivojlanib, ularning akademik va kasbiy faoliyatda samarali yozma muloqot olib borish kompetensiyasi takomillashadi.

Jumladan, *"collaborative writing"usulida quyidagilarga erishiladi:*



1-rasm. Hamkorlikda yozuvning yuridik yo'nalish talabalari uchun foydalari

Collaborative writing (hamkorlikda yozuv) — bu bir nechta talabalarning umumiy maqsad asosida birgalikda matn yaratishi, tahrirlashi va takomillashtirishi jarayonidir. Ushbu mashq talabalarning nafaqat yozish, balki tanqidiy fikrlash, muloqot va jamoada ishlash kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Yuridik ta'limda bu usul real kasbiy faoliyatga yaqinlashishga xizmat qiladi, chunki huquqshunoslar ko'pincha jamoa bo'lib hujjatlar tayyorlaydi. Collaborative learning (*Hamkorlikda o'rganish)* g'oyasi dastlab XX asrning oxirlarida Spenser Kagan tomonidan taklif etilgan.

TBLT metodi orqali esa quyidagilarga erishiladi:

1- Jadval

TBLT(topshiriqqa asoslangan ta'lim) asosida yozuv mashqi strukturasi

Bosqich	Mashq nomi / Faoliyat	Maqsad	Natija

1. Pre-Task	Kirish (video yoki matn orqali)	Huquqiy yozuv mohiyatini tushunish	Yozuv uslubining o‘ziga xos jihatlarini anglash
	Model matn tahlili (IRAC modeli asosida)	Huquqiy matn strukturasini ko‘rish va tahlil qilish	IRAC bo‘yicha ajratilgan model yozuv
	1.3. Guruhda muhokama – savol-javob	Yozuvga tayyorlov va mantiqiy fikrlashni faollashtirish	Fikrlar almashinuvi
	Terminlar va iboralar glossariysi	Yuridik iboralarni to‘plash	Huquqiy tilga oid lug‘at yaratish
2. Main task	Asosiy vazifa: “Sudga yozma ariza tayyorlash” (real ssenariy asosida)	Real huquqiy yozma topshiriq orqali fikrni huquqiy asosda bayon qilish	Yozilgan ariza (IRAC modeli asosida)
	Qonuniy asoslarni izlash (Qonunchilikka tayanish)	Normativ-huquqiy asoslarni topish va to‘g‘ri qo‘llash	Arizada qonun moddalari asosida dalillar keltirishni o‘rganish
	Juftlikda tekshirish	O‘zaro baholash va tahlil qilish	Fikr-mulohazalar orqali yozuvni yaxshilash
3. Post-Task	O‘qituvchi tahlili va umumiy mulohazasi	Kamchiliklarni aniqlash, umumlashtirish	Kuchli va zaif tomonlarni bilib olish
	Xatolar ustida ishlash	Til va strukturadagi muammolarni tuzatish	Yaxshilangan yozuv

	Refleksiya: “Men nimani o‘rgandim?”	O‘z ustida fikrlashni shakllantirish	O‘z-o‘zini tahlil qilish
	Til ustida ishlash: muvofiq leksika va huquqiy iboralar	Rasmiy yozuvga mos ifodalarni mustahkamlash	Maxsus iboralar jamlanmasi

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili mashg‘ulotlarida yurispudensiya ta’lim yo‘nalishi talabalarining yozuv malakalarini rivojlantirish zamonaviy ta’lim jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Huquq sohasi talabalarining ingliz tilida yozma nutqini shakllantirish jarayoni umumiy til kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning kasbiy faoliyatiga xos bo‘lgan huquqiy terminologiya, mantiqiy fikrlash, dalillarni izchil bayon etish, huquqiy hujjatlarni to‘g‘ri tuzish va akademik yozuv talablariga rioya qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantirishni taqozo etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy ta’lim usullari bilan bir qatorda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan maqsadli va tizimli foydalanish talabalarning ingliz tilidagi yozuv malakalarini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Xususan, hamkorlikda o‘qitish, interfaol metodlar, loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim, raqamli ta’lim texnologiyalari, scaffolding hamda corrective feedback kabi yondashuvlar talabalarning yozma faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va yozma matn yaratish jarayoniga ongli yondashuvini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish natijasida talabalar ingliz tilida huquqiy mazmundagi fikrlarni mantiqiy va izchil ifodalash, tegishli huquqiy terminlardan o‘rinli foydalanish, yozma matnning mazmuniy va strukturaviy yaxlitligini ta’minlash, o‘z fikrlarini dalillar asosida asoslash hamda grammatik va leksik jihatdan to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini egallaydilar. Shu bilan birga, o‘zaro fikr almashish va

tuzatuvchi fikr-mulohazalardan foydalanish talabalarga o‘z yozma ishlarini tahlil qilish, mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni mustaqil ravishda bartaraf etish imkonini beradi.

Shuningdek, yurispudensiya ta’lim yo‘nalishida ingliz tilini kasbiy yo‘naltirilgan holda o‘qitish, ya’ni til ta’limi mazmunini huquqiy fanlar bilan integratsiyalashgan holda tashkil etish talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv orqali ingliz tili mashg‘ulotlarida huquqiy hujjatlar, case study, huquqiy muammolar, sud amaliyotiga oid materiallar va akademik matnlardan foydalanish talabalarning real kasbiy vaziyatlarda ingliz tilidan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ingliz tili mashg‘ulotlarida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan kompleks va metodik jihatdan asoslangan foydalanish yurispudensiya talabalarining yozuv malakalarini rivojlantirishning samarali vositasi bo‘lib, ularning lingvistik, kommunikativ, kognitiv va kasbiy kompetensiyalarini birgalikda shakllantirishga zamin yaratadi. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida yurispudensiya ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun ingliz tilini o‘qitish jarayonida kasbiy yo‘naltirilgan yozuv topshiriqlarini ko‘paytirish, zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda yozma faoliyatni muntazam baholash va tahlil qilish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Atamirzayeva E.B. Talabalarga fransuz tilini integrativ yondashuv asosida o‘rgatish texnologiyasi. PhD dissertatsiyasi. – 2025. – 96 b.
2. Хидоятова Д.А. Интерфаол таълим. – Т.: Абу Матбуот Кристал нашриёти, 2016. – 68 б.
3. Kagan S. Cooperative Learning. – Kagan Books, 2002. – 209 p.
4. Long M.H. Second Language Acquisition and Task-Based Language Teaching. – Malden, MA: John Wiley and Sons, Ltd., 2015. – 239 p.
5. Marashi H., Dadari L. The Impact of Using Task-Based Writing on EFL Learners’ Writing Performance and Creativity. Theory and Practice in Language Studies, 2012. – P. 2500–2507.
6. Oczkus L.D. Guided Writing: Practical Lessons, Powerful Results. – Heinemann, 2007.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

7. Qurbonova M.F. CLIL – zamonaviy yondashuv sifatida. Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o‘qitishning psixologik-pedagogik jihatlari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani. – 2023. – B. 60.

8. Selvi K. Teachers’ Lifelong Learning Competencies. International Journal of Curriculum and Instructional Studies, 2021. – P. 61–69.

9. Thirakunkovit S., Boonyaprakob K. Developing Academic Writing Skills through a Task-Based Approach: A Case Study of Students’ Collaborative Writing. Reflections, 2022. – P. 526–548.

10. Хидоятова Д.А. manbasi kirill yozuvida berilganligi sababli alifbo tartibida "X" emas, asl yozilishidagi X harfi bo‘yicha joylashtiriladi.

INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQILGAN YO'RIQNOMALAR ASOSIDA YONG'IN XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Kambarov Abduvali Hamidovich
Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar bosh boshqarmasi Chirchiq shahar Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi katta o'qituvchisi
Rajabboyev Botirjon Erkaboyevich
Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar bosh boshqarmasi Chirchiq shahar Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi boshlig'i, podpolkovnik
gmail: egamberdiyevazizbek206@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ko'p qavatli binolarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yong'in falokatlaridan amaliy himoyalanish usullari, ko'p qavatli binolarda yong'indan muhofazalanish tizimi talablari, shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar yuzasidan zamonaviy yong'in xavfsizligi tizimida qo'llanilishi zarur bo'lgan metodlar va zamonaviy texnologik qurilmalardan foydalanish shartlari va amaliyotga joriy etish yuzasidan tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar. *Yong'in, yong'in xavfsizligi, xavfsizlik tizimini qayta jihozlash, an'anaviy usullar, innovatsion texnologiyalar.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПОЖАРНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ НА ОСНОВЕ ИНСТРУКЦИЙ, РАЗРАБОТАННЫХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация. *В данной статье важно разработать практические методы и концепции противопожарной защиты в многоэтажных зданиях, изучить и проанализировать требования к новым и инновационным системам противопожарной защиты с учетом кардинальных изменений в проектировании многоэтажных зданий. Этажности зданий за последние пять лет. Вы можете ознакомиться с методами и современными технологическими устройствами, которые необходимо использовать в современной системе пожарной безопасности, условиями их применения и рекомендациями по их внедрению на практике.*

Ключевые слова. *Противопожарная защита, переоборудование систем безопасности, пожарная безопасность, строительные элементы, традиционные методы, инновационные технологии.*

IMPROVING THE FIRE SAFETY MANAGEMENT SYSTEM BASED ON GUIDELINES DEVELOPED USING INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

Abstract. *In this article, it is important to develop practical methods and concepts of fire protection in multi-storey buildings, to study and analyze the requirements for new and innovative fire protection systems, taking into account the dramatic changes in the design of multi-storey buildings over the past five years. You can get acquainted with the methods and modern technological devices that need to be used in the modern fire safety system, the conditions of their use and recommendations for their implementation in practice.*

Keywords. *Fire protection, security system re-equipment, fire safety, building components, traditional methods, innovative technologies.*

KIRISH

Ma'lumki, bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar qatori respublikamiz hududida ham turli xil murakkab dizayn va tuzilish qismiga ega ko‘p qavatli osmono‘par binolar soni ortib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida binolarning xavfsizlik tizimini zamon talablariga javob beradigan darajaga olib chiqish va yong‘in xavfsizligi tizimida esa yangicha metod texnologiyalardan foydalanish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Aholi qatlamlari va binolarni yong‘inlardan muhofazalashda eng samarali usullardan biri bu zamonaviy texnologiyalar asosida olib boriladigan yo‘riqnomalar hisoblanadi [1].

Aynan ko‘p qavatli binolarda yong‘inni bartaraf etish masalalari, qutqaruv ishlarining murakkabligini, tezkor yong‘in bo‘linmalari xodimlaridan ko‘p qavatli binolarda yong‘inlarning rivojlanish jarayonlari va xususiyatlari to‘g‘risida har tomonlama bilimga ega bo‘lishni, yuqori kasbiy mahorat, jismoniy tayyorgarlik va psixologik tayyorgarlikni talab qiladi. Bundan tashqari osmono‘par binolarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, yong‘in xavfi va binolarning ekspluatatsion taktik xususiyatlarini bilish yong‘inlarni minimal zarar bilan bartaraf etish, odamlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlab qolish uchun tezkor choralar ko‘rish imkonini beradi [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ko‘p qavatli binolardagi yong‘inlar bir qator noqulayliklar tufayli halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkin: qurilish inshootlari va ichki bezatishda yonuvchan materiallardan foydalanish; avtomatik yong‘in signalizatsiyasi va yong‘inni o‘chirish

tizimlarining noto‘g‘ri ishlashi; binolarda yong‘inning vertical va kuchli tutunning tez tarqalishiga, shuningdek pollar orasida, shiftlarda, zinapoyalar , teshiklarning mavjudligi yong‘inni o‘chirish va qutqaruv ishlarini samarasiz tashkil etilishiga olib keladi. Yong‘inni o‘chirish va qutqaruv ishlarini tashkil etishning umumiy tamoyillari Respublikamiz Favqulodda vaziyatlar vazirligining bir qator hujjatlarida belgilangan, ammo bu materiallar hozirgi ko‘p qavatli binolar yong‘inning mumkin bo‘lgan oqibatlarini ishonchli bashorat qilishga, to‘g‘ri hisoblashga imkon bermaydi. Yong‘inni o‘chirish va qutqaruv ishlarini samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan yong‘indan himoya qilish kuchlari va vositalari, suv va boshqa yong‘inga qarshi moddalarning sarfini hisoblash ham bir masala bo‘lsa hozirgi axborot texnologiyalari yong‘indan himoya qilish organlari faoliyatiga hali samarali joriy etilmayotgani, tezkor yong‘in va qutqaruv bo‘linmalarini boshqarishni avtomatlashtirish darajasi juda pastligicha qolayotgani ham yana bir muhim jihatlaridan biridir [3].

Tadqiqot maqsadi: ko‘p qavatli binolarda yong‘inni o‘chirish va qutqaruv ishlari jarayonlarini avtomatlashtirish muammosining tarkibiy tahlilini o‘tkazish va yangi ma’lumotlarning mos keladigan tizim qobig‘ida funktsional, matematik va simulyatsiya modellarini ishlab chiqishdan iborat. O‘zining tabiatiga ko‘ra, ko‘p qavatli binolar yong‘in xavfsizligi noodatiy muammolarni keltirib chiqaradi. Dizaynerlar, quruvchilar, operatorlar va ushbu tuzilmalarning egalari uchun yong‘in va uning ta’siridan oqilona darajadagi xavfsizlikni ta’minlash uchun bir qator fundamental muammolarni hal qilish kerak [4, 5, 6].

- Bino strukturasi uzoq vaqt yong‘in ta’siriga chidamli bo‘lishi kerak.

- Yong‘in va uning oqibatlari vertikal ravishda tarqalib, ko‘p sonli bino aholisiga ta’sir qiladi.

- Faol yong‘in tizimlari kommunal xizmatlardan uzilishi mumkin va o‘zini o‘zi ta’minlashi kerak.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

- Binoni to‘liq evakuatsiya qilish juda qiyin. Yong‘in zonasidan faqat tanlangan evakuatsiya bilan “O‘z joyida himoya qilish” strategiyasi talab qilinadi.

- Evakuatsiya qilinishi kerak bo‘lgan yo‘lovchilar yerdan uzoqda va vertikal qochish vositalariga tayanishi kerak.

- Yong‘inni o‘chirish operatsiyalari ichki va ko‘pincha yerosti manbalaridan uzoqda sodir bo‘ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda mavzu yuzasidan barcha ilmiy elektron hamda yozma manbalar o‘rganildi. Tadqiqotda quyida keltirilgan zamonaviy texnologiyalar ish prinsiplari samaradorligini o‘rganildi.

Ko‘p qavatli binolarda yong‘in xavfsizlik tizimidagi zamonaviy texnologiyalar "Drongo" deb nomlangan o‘t o‘chirish mashinasi PSC flotining eng noodatiy bo‘linmalaridan biridir. U murakkab yong‘inlarni o‘chirish, avariya sodir bo‘lgan joyga xodimlar va texnikani yetkazish, yong‘in sodir bo‘lgan joyni yoritish uchun ishlatiladi.

Tutunni nazorat qilish - HVAC (isitish, ventilyatsiya va konditsioner) tizimi yoki yong‘in sodir bo‘lgan taqdirda bino orqali havo oqimini boshqarish uchun maxsus tizim yordamida fanatlar va amortizatorlar orqali boshqarish mumkin bo‘lgan texnologiya.

Favqulodda yoritish - Lux Intelligent kabi zamonaviy favqulodda yoritish panellari har bir yoritgichni o‘z-o‘zini sinab ko‘rishi va kerak bo‘lganda ishlashini ta’minlashi mumkin. An’anaviy va LED yoritgichlar assortimenti endi juda katta va atrof-muhit yoritgichlari favqulodda vaziyatlarda foydalanishga aylantirilishi mumkin, bu esa muvofiqlik va ishlash afzalliklarini beradi [5].

ZJBETTER-ko‘p qavatli binolarda yong‘in xavfsizligi uchun maxsus ko‘plab qulayliklarga ega nasoslar.

Bronto Skylfitning operatorlar uchun bu tezroq tekislash, ishlaydigan chiroqlar, yorug‘lik guruhlari va qafas yukni oson boshqarish, quyosh nurida ham yaxshi ko‘rinishga ega kattaroq displeylar, oson navigatsiya, ekranlarda shassi ma’lumotlari,

o‘rnatilgan yordam tavsiyalar va tezkor qo‘llanmalar, shuningdek, qarshilik ko‘rsatishni anglatadi.

Yong‘in o‘chirish sektori uchun nasosni ishlatish uchun yaxshilangan imkoniyatlarga ega o‘rnatilgan suv nasos ekrani ham mavjud.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ko‘p qavatli binolarda yong‘in xavfsizligi uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish yuzasidan tavsiyalar. Ko‘p qavatli binolar uchun quyidagi maxsus talablar qo‘yiladi. Evakuatsiya qilinayotgan odamlarga olovdan pastroqda joylashgan binoga qayta kirishiga imkon berish uchun zinapoyaning qulfini ochish. Ushbu qoidalarning aksariyati butun dunyo bo‘ylab baland binolarga kiritilgan.

Zamonaviy ko‘p qavatli binolar yong‘in xavfsizligi tizmi qo‘ydagi talablarga javob berishi kerak: Yong‘in o‘sishini nazorat qilish va yong‘inning struktura va uning bino aholisiga ta’sirini kamaytirish uchun faol va passiv yong‘indan himoya qilish xususiyatlari. Faol tizimlar kichik hududda yong‘inni nazorat qilish bo‘ysundirish uchun avtomatik sprinkler himoyasini va yo‘lovchilarni xavfsiz evakuatsiya qilish uchun tutun harakatini nazorat qilish uchun tutunni boshqarish tizimlarini o‘z ichiga oladi.

Passiv elementlar yong‘inga chidamli tuzilmani va yong‘inning vertical tarqalishini oldini olish uchun yong‘in to‘siqlarini o‘z ichiga oladi. Barcha faol va passiv tizimlar kerak bo‘lganda to‘g‘ri ishlashi uchun binoning butun umri davomida saqlanishi kerak.

Yong‘in sodir bo‘lganda yo‘lovchilarni evakuatsiya qilishni osonlashtiradigan chiqish vositalari. Binoda yashovchilar yong‘in sodir bo‘lgan hududdan evakuatsiya qilinganda binodagi yong‘in ta’siridan himoyalangan bo‘lishi kerak. Yong‘inga chidamli yopiq va mexanik bosimli zinapoyalar evakuatsiya paytida yo‘lovchilarni yong‘in va tutun ta’siridan himoya qiladi. Yong‘inni aniqlash, signalizatsiya va aloqa tizimlari bino xodimlarini yong‘in sodir bo‘lganligi to‘g‘risida ogohlantiradi va yo‘lovchilarni evakuatsiya qilish uchun ko‘rsatma berishi kerak.

Yong‘inni o‘chirishni qo‘llab-quvvatlash tizimlari asosan bino ichidan, ko‘pincha yong‘inga qarshi xizmat ko‘rsatish moslamalaridan va erdan qo‘llab quvvatlashdan uzoq joylarda amalga oshiriladigan operatsiyalarni qo‘llab quvvatlaydi. Yong‘inni o‘chirishni qo‘llab-quvvatlash tizimlariga transport vositalariga kirish, o‘t o‘chiruvchilarning liftlari (liftlari), yong‘inga qarshi qo‘mondonlik markazi, o‘t o‘chirish trubkasi (ho‘l ko‘taruvchi) tizimlari va o‘t o‘chiruvchilar aloqalari kiradi. Bundan tashqari, qurilishga javob berish rejalari va protseduralari birinchi javob beruvchilar bilan yaqindan kelishilgan bo‘lishi kerak.

Hozirgi texnik standartlar uchun yangi ko‘p qavatli loyihalash yoki mavjud tuzilmalarni ta’mirlashda muvaffaqiyatli yong‘in xavfsizligi yondashuvini joriy etish jarayoni juda muhimdir. Ko‘p qavatli binolarning texnik dizayni har doim loyiha uchun me’yoriy-huquqiy bazani yaratish bilan boshlanadi. Bu loyiha uchun qo‘llaniladigan mahalliy kodlar va standartlarni tasdiqlash orqali amalga oshiriladi – hatto baland binolar ko‘p bo‘lgan joylarda ham. Ayrim baland binolar ko‘pchiligi qurilish me’yorlarida kutilganidan ko‘ra ancha balandroq va murakkabroq bo‘ladi. Ko‘pgina loyihalar uchun qurilish me’yorlari yong‘in xavfsizligi muammolarini to‘liq hal qilmasligi mumkin va dizaynning yong‘in va hayot xavfsizligi jihatlarini “yaxshilash” uchun yangi talab darajasini belgilash zarur.

Ko‘p qavatli binoni to‘liq evakuatsiya qilish turli xil stsenariylar, jumladan, quvvatni yo‘qotish yoki mexanik tizimlarning yo‘qolishi orqali yangicha talab qilinishi kutilmoqda. Shu sababli, liftlar ba’zi favqulodda vaziyatlarda bino aholisini evakuatsiya qilishning muqobil vositasini taqdim etishi mumkin. Ushbu funktsiyaga erishish uchun liftlar ushbu maqsad uchun maxsus ishlab chiqilgan va favqulodda quvvat bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak. Binoda yashovchilarni joylashtirish yoki evakuatsiya qilishni osonlashtirish uchun xavfsiz joylar (boshpana joylari, osmon lobbilari yoki yopiq lift lobbilari) bo‘lishi kerak. Liftlar binoning favqulodda vaziyatlarda harakat qilish

rejasining bir qismi sifatida kiritilishi va favqulodda vaziyatlarda o‘qitilgan qurilish xodimlari tomonidan ishlatilishi kerak.

Toshkent shahridagi “NEST ONE” kabi baland binolardagi atriumlar yo‘lovchilarni evakuatsiya qilishda yangi murakkablikni keltirib chiqaradi. Yong‘in paytida olib beriluvchi operatsiyalar Yuqori qavatli yong‘in xavfsizligi strategiyalari ko‘p jihatdan faol yong‘in tizimlariga va murakkab evakuatsiya ketma- ketligiga tayanadi. Shu sababli, ko‘p qavatli binolarning ekspluatatsion jihatlari muhim ahamiyatga ega. Favqulodda vaziyatlarda ularning ishonchliligini ta’minlash uchun faol yong‘in tizimlari doimiy ravishda kuzatilishi, texnik xizmat ko‘rsatishi va sinovdan o‘tkazilishi kerak. Yana bir muhim operatsion jihat – favqulodda vaziyatlarni rejalashtirish va o‘qitish. Bu Favqulodda vaziyatlarni boshqarish rejasidan boshlanadi, unda barcha oldindan ko‘rish mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar ssenariylari va ushbu favqulodda vaziyatlarga qurilish xodimlarining javoblari ko‘rsatilgan. Favqulodda vaziyatlarni boshqarish rejasi tabiiy ofatlar, terrorizm va xavfsizlik yoki tizimli favqulodda vaziyatlar bo‘ladimi, barcha tahdidlarni belgilashi kerak. Ular har bir hodisa uchun oldindan rejalashtirilgan javob protseduralarini o‘z ichiga olishi kerak va ular xodimlarni o‘qitish va mashqlarni o‘zi chiga olishi kerak.

XULOSA

Ushbu maqola asosida qisqacha ko‘p qavatli binolarda yong‘inni o‘chirish va qutqaruv ishlari jarayonlarini avtomatlashtirish muammosini tizimli tahlil qilish va yangi ma’lumotlarning mos keladigan tizim qobig‘ida funktsional, matematik va simulyatsiya modellarini ishlab chiqishdan iborat bo‘lib, ko‘p qavatli binolarda yong‘in o‘chirish va qutqaruv ishlari samaradorligini oshirish uchun yangi axborot texnologiyalari asosida ilmiy-uslubiy apparatni ishlab chiqishga erishish yuzasidan tavsiyalar ko‘rib chiqildi.

Maqolada keltirilgan tadqiqotda: Ko‘p qavatli binolarda yong‘inni o‘chirishni nazorat qilish va qutqaruv ishlarini avtomatlashtirish muammosining tarkibiy tahlili

o‘tkazildi. Matlab Simulink modellashtirish tizimi asosida ko‘p qavatli binolarda yong‘in o‘chirishni tashkil etish va qutqaruv ishlarini olib borishni boshqarish jarayonlarining matematik modellari ishlab chiqish o‘rganildi. “CALS texnologiyalaridan foydalangan holda ko‘p qavatli binolarda yong‘inni o‘chirishni tashkil etishda boshqaruv qarorlarini qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash usuli ishlab chiqish yuzasidan adabiyotlar tahlil qilindi. Olingan natijalar ko‘p qavatli binolar uchun yong‘in xavfsizligi axborot tizimlarini yaratish tartibini tartibga soluvchi istiqbolli me’yoriy hujjatlar uchun asos bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Yung, D. And Beck, R. (1995) Building Fire Safety Risk Analysis. SFPE Handbook of 2. Malygin I.G.
2. Kompleks qutqaruv va yong‘inga qarshi uskunalarni ishlab chiqishda mahsulotni axborotni qo‘llab-quvvatlash texnologiyalaridan (CALS texnologiyalari) foydalanish. Sankt-Peterburg: Hayot va xavfsizlik, № 2, 2004 yil.
3. Malygin I.G. Murakkab yong‘in-texnik tizimlarni ishlab chiqishda qaror qabul qilish usullari. Monografiya. Sankt- Peterburg: RossiyaningSPbU GPS EMERCOM, 2007. 288 b.
4. Malygin I.G., Razlivanov I.N., Smirnov A.S., Shirinkin P.V. Cheklangan kuchlar va vositalar sharoitida yong‘in va yong‘inni o‘chirish jarayonlarini matematik modellashtirish // Texnosferada xavflarni boshqarish muammolari, № 4 (8), 2008 y.
5. Egorov A.A. Ta’lim muassasalarida favqulodda vaziyatlarda odamlarni evakuatsiya qilishning matematik modellari va algoritmlari. Diss. Raqobat uchun uch. Art. Samimiy. Texnologiya. Fanlar. Saratov: SarGTU, 2008 yil.
6. Karter, M.J. (2013) Fire Loss in the United States during 2012. NFPA.

UDK: 37.018.4:614.8

TA'LIM MUASSASALARIDA XAVFSIZLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Alimov Shavkat Azimovich, Isoqov Abdurashid Qutbiddinovich
Xoldarov Azizjon Rasulovich
Namangan viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi
gmail: egamberdiyevazizbek206@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida xavfsizlik madaniyatini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari muhokama qilingan. Unda hayot faoliyati xavfsizligi tushunchasi, uning ta'lim jarayonidagi o'rni, o'quvchilarda xavfsizlik madaniyatini shakllantirishning usullari va metodik yondashuvlari tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim muassasalarida xavfsiz muhit yaratish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlikni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar berib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim tizimi, xavfsizlik, hayot faoliyati xavfsizligi, xavfsizlik madaniyati, favqulodda holatlar, kompetensiyaviy yondashuv, zamonaviy texnologiyalar, maktab xavfsizligi.*

НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ БЕЗОПАСНОСТИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Аннотация. *В данной статье рассмотрены научно-педагогические основы формирования культуры безопасности в образовательных учреждениях. Проанализированы понятие безопасности жизнедеятельности, её роль в образовательном процессе, методы и методические подходы к формированию культуры безопасности у учащихся. Также представлены рекомендации по созданию безопасной среды в образовательных учреждениях, использованию современных педагогических технологий и обеспечению готовности к чрезвычайным ситуациям.*

Ключевые слова: *Система образования, безопасность, безопасность жизнедеятельности, культура безопасности, чрезвычайные ситуации, компетентностный подход, современные технологии, безопасность в школе.*

SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING A SAFETY CULTURE IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract. *This article discusses the scientific and pedagogical foundations for developing a safety culture in educational institutions. It analyzes the concept of life safety, its role in the educational process, as well as methods and methodological approaches to developing a safety culture among students. The*

article also provides recommendations for creating a safe environment in educational institutions, using modern pedagogical technologies, and ensuring preparedness for emergency situations.

Keywords: *Education system, safety, life safety, safety culture, emergency situations, competency-based approach, modern technologies, school safety.*

KIRISH

Bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimining asosiy vazifasi faqatgina yosh avlodga bilim berish emas, balki ularni katta hayotga tayyorlash, turli ko‘rinishdagi xavf-xatarlardan ogohlantirish, kelgusi faoliyatda xavfsiz va sog‘lom mehnat sharoitlarini yaratishga qodir shaxs sifatida tarbiyalashdan iborat. Hayot faoliyati xavfsizligi (HFX) fanining ta’lim tizimidagi o‘rni aynan shu vazifani bajarishga xizmat qiladi. Mazkur fan orqali o‘quvchilarda xavfsizlik madaniyati shakllantiriladi, favqulodda holatlarda to‘g‘ri harakat qilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi, ularning ekologik, texnogen, tabiiy va ijtimoiy xavflarga nisbatan ongli yondashuvi mustahkamlanadi [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So‘nggi yillarda mahalliy olimlardan Sh. Tairov o‘zining “Ta’lim tizimida hayot faoliyati xavfsizligini ta’minlashning pedagogik asoslari” nomli ilmiy maqolasida hayot faoliyati xavfsizligi tushunchasi, uning ta’lim jarayonidagi roli va o‘quvchilarda xavfsizlik madaniyatini shakllantirish usullari tahlil qilingan. Shuningdek, metodik yondashuvlar - shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy va faol ta’lim metodlari tavsiflangan [2]. N. D. Samadova o‘zining “Ta’lim muassasalarida yong‘in xavfsizligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari” mavzusidagi ilmiy maqolasida ta’lim muassasalarida yong‘in xavfsizligi chora-tadbirlari, evakuatsiya, tashkiliy va texnik jihatlar muhokama qilinadi [3]. Xorijiy olimlardan L.A. Mixaylov hayot faoliyati xavfsizligi sohasidagi yangi ilmiy-pedagogik yo‘nalishning asoschisi, fundamental tadqiqotlar va ko‘plab nashrlar muallifi, bir qator nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining ilmiy rahbari hisoblanadi. Uning ilmiy ishlanmalari pedagogik jihatdan xavfsizlikni o‘qitish va kompetensiyalarni shakllantirish uchun konseptual poydevor bo‘lib xizmat qiladi [4].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hayot faoliyati xavfsizligi (HFX) inson salomatligi, hayoti va mehnat faoliyatini xavf-xatarlardan asrashga qaratilgan kompleks bilim sohasi hisoblanadi. Bu fan orqali o‘quvchilarga xavf tushunchasi, xavf-xatarning turlari, ularning oqibatlari, xavfsiz muhitni yaratish va favqulodda holatlarda to‘g‘ri harakat qilish o‘rgatiladi. HFX fani quyidagi yo‘nalishlarda ta’lim jarayoniga integratsiya qilinadi [2, 5, 6, 7]:

1. O‘quvchilarda xavfsizlik madaniyatini shakllantirish.
2. Tabiiy va texnogen xavflarning oldini olish.
3. Ijtimoiy xavfsizlik va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish.
4. Ekologik madaniyatni rivojlantirish.

Pedagogik yondashuvlar va metodik asoslar

Hayot faoliyati xavfsizligi fanini o‘quvchilarga samarali o‘rgatish uchun quyidagi pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi [8, 9, 10]:

a) kompetensiyaviy yondashuv - o‘quvchida faqat nazariy bilim emas, balki amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish. Masalan: birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish, yong‘in yoki zilzila vaqtida evakuatsiya qilish bo‘yicha bilim beriladi.

b) faol ta’lim metodlari - treninglar, rolli o‘yinlar, interaktiv darslar orqali o‘quvchilar mustaqil fikrlashga, vaziyat tahliliga o‘rgatiladi.

c) integratsion yondashuv - Hayot faoliyati xavfsizligi fanini boshqa fanlar (biologiya, fizika, texnologiya, jismoniy tarbiya) bilan uyg‘unlashtirish orqali fanlararo bilimlar mustahkamlanadi.

d) shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim - o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim tashkil etiladi.

Maktabda xavfsiz muhit yaratish pedagog va ma’muriyatning asosiy vazifalaridan biridir. Bu jarayon quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- Har yili Hayot faoliyati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha favqulodda vaziyatga tayyorgarlik rejasi tuzish;

- O‘quvchilarning xavfsizlikka oid bilimlarini baholash va monitoring olib borish;

- Evakuatsiya mashg‘ulotlarini tashkil etish (yong‘in, zilzila, gaz sizishi holatlari va boshqalar);

- Mahalliy Favqulodda vaziyatlar vazirligi boshqarma va bo‘limlari, yo‘l-patrul xizmati va tibbiyot tashkilotlari bilan hamkorlikda amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish;

- Maktabda videokuzatuv, xavfsizlik texnikasi, darslik va ko‘rgazmali vositalar bilan ta’minlash.

O‘quvchilarda xavfsizlik madaniyatini shakllantirish

Xavfsizlik madaniyati - bu insonning ongli ravishda xavf-xatarlardan xabardor bo‘lib, o‘zini va boshqalarni himoya qilishga bo‘lgan tayyorgarligi hisoblanadi. Bu madaniyatni shakllantirishda o‘qituvchining roli nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Quyidagi yo‘llar orqali bu madaniyat rivojlantiriladi [2]:

- Tarbiyaviy soatlar orqali xavfsizlikka oid suhbatlar o‘tkazish.

- Rasmlar, videoroliklar, plakatlar orqali vizual targ‘ibot ishlari olib borish.

- Ko‘rgazmalar va tanlovlar tashkil etish.

- Sport va sog‘lomlashtirish tadbirlarini tashkillashtirish.

Zamonaviy ta’limni raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Hayot faoliyati xavfsizligi fanini o‘qitishda quyidagi raqamli yondashuvlar samarali ekanligi tadqiqot davomida aniqlandi:

- Virtual simulyatsiyalar (evakuatsiya mashqlari);
- Mobil ilovalar orqali birinchi yordam berish va boshqa xavfsizlik qoidalari;
- Onlayn testlar orqali bilimlarni baholash;
- Video darsliklar va animatsiyalar yordamida tushunchalarni mustahkamlash.

XULOSA

Tadqiqot davomida sohaga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar, ilmiy ishlanmalar, dasrliklar, o‘quv qo‘llanmalari va internet saytlari bilan tanishib, quyidagi xulosaga keldim: Ta’lim tizimida hayot faoliyati xavfsizligini ta’minlash – bu nafaqat o‘quvchilarni

himoya qilish, balki ularning hayotga tayyorgarligini oshirish, mustaqil va ongli fuqaro sifatida shakllanishiga zamin yaratish demakdir. Bu borada o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, fanlararo integratsiya, amaliy yondashuv va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni keng targ‘ib etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanib, har bir ta’lim muassasasi xavfsiz hayotiy faoliyat madaniyatining targ‘ibotchisiga aylanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to‘g‘risida”gi 455-sonli Qarori. 1998-yil 27-oktabr
2. Sh. Tairov. Ta’lim tizimida hayot faoliyati xavfsizligini ta’minlashning pedagogik asoslari. New Renaissanse international scientific journal. ResearchBib IF - 11.01, ISSN: 3030-3753, Volume 2 Issue 7.
3. N. D. Samadova o‘zining “Ta’lim muassasalarida yong‘in xavfsizligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari”. ZAMONAVIY TA’LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR JURNALI. 2025-yil 3-son 4-to‘plam.
4. Л. А. Михайлов, А. В. Старостенко «Основы безопасности жизнедеятельности. 5-6 классы.» Пособие для учителя; изд. Российский государственный педагогический университет им. А. И. Герцена (РГПУ), Союз 2001 год.
5. Л. А. Михайлов, В. П. Соломин, А. Л. Михайлов «Безопасность жизнедеятельности : Учеб. для вузов»— изд. Питер 2005 год.
6. В. П. Соломин, О. Н. Русак, С. В. Абрамова, Е. Н. Бояров «Пожарная безопасность. Учебник» — изд. Academia 2014 год
7. Hayot faoliyati xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 2022.
8. Karimov A. “Xavfsizlik madaniyati va zamonaviy maktab”. –T: “Ilm-Fan”, 2021.
9. UNESCO. "Global Framework for School Safety Education". – Paris, 2020.
10. Tursunov R., Ibrohimova N. "Hayot faoliyati xavfsizligi asoslari". –T: “Ilm-fan ziyosi” nashriyoti, 2023. – 241 b.

UDK 37.013.42:316.346.32-053.9

O‘QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA KATTA AVLOD TAJRIBASIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Niyozova Nilufarxon Abdulhamidovna
Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
nilufarniyozova793@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-3560-8150

Annotatsiya. *Maqolada o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini katta avlod tajribasi vositasida rivojlantirish muammosi integrativ sharh asosida o‘rganildi. Milliy hujjatlar, xalqaro kompetensiya doiralari va avlodlararo ta’limga oid 18 tekshiriladigan manba qiyosiy-tematik tahlil qilindi. Tayanch kompetensiyaning bilim, ko‘nikma, munosabat, qadriyat va yangi vaziyatga mustaqil transfer birligidan iborat talqini hamda olti bosqichli “maqsad–tanlash–hamkor loyihalash–faoliyat–refleksiya va transfer–baholash” algoritmi taklif etildi. Yangilik tajribani pedagogik moslik va zamonaviy ishonchlilik bo‘yicha ikki karra filtrlash, avlodlarni teng sherik sifatida birlashtirish va natijani amaliy transfer orqali baholashdan iborat. Metodika “Tarbiya” fani, sinf soati, kasbga yo‘naltirish va maktab–oila–mahalla hamkorligiga mo‘ljallangan.*

Kalit so‘zlar: *tayanch kompetensiya, katta avlod tajribasi, avlodlararo ta’lim, tajribaviy o‘rganish, hamkor faoliyat, refleksiya, transfer, mezonli baholash.*

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОПЫТА СТАРШЕГО ПОКОЛЕНИЯ В РАЗВИТИИ ЖИЗНЕННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ

Ниёзова Нилуфархон Абдулхамидовна
Самостоятельный соискатель Наманганского государственного университета
nilufarniyozova793@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-3560-8150

Аннотация. *В статье посредством интегративного обзора исследовано развитие жизненных компетенций учащихся с опорой на опыт старшего поколения. Сравнительно-тематически проанализированы 18 проверяемых национальных и международных источников. Жизненная компетенция раскрыта как единство знаний, умений, отношений, ценностей и переноса в новую ситуацию. Предложен шестиступенчатый алгоритм: цель, отбор опыта, совместное проектирование, деятельность, рефлексия и перенос, оценивание. Новизна состоит в двойной фильтрации опыта по педагогической релевантности и современной достоверности, равноправном партнёрстве поколений и оценке результата через практический перенос.*

Методика применима на уроках воспитания, классных часах, в профориентации и сотрудничестве школы, семьи и махалли.

Ключевые слова: *жизненные компетенции, опыт старшего поколения, межпоколенческое обучение, опытное обучение, совместная деятельность, рефлексия, перенос, критериальное оценивание.*

A METHODOLOGY FOR USING OLDER GENERATIONS' EXPERIENCE TO DEVELOP STUDENTS' LIFE COMPETENCIES

Niyozova Nilufarxon Abdulhamidovna
Independent PhD Researcher at Namangan State University
nilufarniyozova793@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-3560-8150

Abstract. *This integrative review examines the use of older generations' experience to develop students' life competencies. Eighteen verifiable national and international sources were analysed comparatively and thematically. Life competence is defined as an integration of knowledge, skills, attitudes, values, and transfer to a new situation. A six-stage algorithm is proposed: goal setting, experience selection, collaborative design, situated activity, reflection and transfer, and assessment. Its novelty lies in screening experience for pedagogical relevance and contemporary validity, positioning generations as equal learning partners, and assessing outcomes through practical transfer. The methodology is intended for character education, class meetings, career guidance, and school–family–mahalla partnerships.*

Keywords: *life competencies, older generations' experience, intergenerational learning, experiential learning, collaborative activity, reflection, transfer, criterion-referenced assessment.*

KIRISH

Zamonaviy maktab o‘quvchini kundalik hayotda mas’uliyatli qaror qabul qilish, muammoni hal etish, hamkorlik qilish, o‘zini boshqarish va o‘rganganini yangi vaziyatga ko‘chirishga tayyorlashi lozim. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun ta’limni shaxsning intellektual va ma’naviy-axloqiy rivojiga yo‘naltiradi [1]. “Tarbiya” fani konsepsiyasi mas’uliyat, fuqarolik pozitsiyasi va amaliy xulqni yaxlit shakllantirish uchun maydon yaratadi [2]; “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi sifatli ta’limni mustaqil va ijtimoiy mas’ul shaxs rivoji bilan bog‘laydi [4].

Bu vazifada katta avlodning oilaviy, kasbiy, fuqarolik va kundalik tajribasi tabiiy resursdir; milliy siyosatda undan keng foydalanish alohida vazifa sifatida qayd etilgan [3]. Biroq bir martalik uchrashuv yoki nasihat kompetensiya hosil qilmaydi. Buning uchun o‘quvchi vaziyatni tahlil qilishi, tanlov qilishi, harakatni bajarishi, natijani baholashi va boshqa sharoitga ko‘chirishi kerak.

Ilmiy muammo katta avlod tajribasining tarbiyaviy salohiyati bilan uni o‘lchanadigan kompetensiyaga aylantiruvchi jarayon orasidagi uzilishdir. Milliy amaliyotda avlodlar uchrashuvi ko‘pincha tadbirligicha qoladi; xalqaro tadqiqotlarda ijobiy natijalar bo‘lsa-da, dastur va o‘lchovlar heterojenligi sababiy xulosani cheklaydi [13–18]. Tadqiqot bo‘shlig‘i tajribani tanlash, zamonaviyligini tekshirish, teng sheriklik, faoliyat, refleksiya, transfer va baholashni birlashtirgan operatsion metodikaning yetarli ishlab chiqilmaganidir.

Maqolaning maqsadi katta avlod tajribasi orqali tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishning bosqichlari va mezonlari aniq metodikasini ishlab chiqishdir. Yangilik tajribani pedagogik moslik va zamonaviy ishonchlilik bo‘yicha filtrlash, o‘quvchi bilan katta avlod vakilini teng sherik sifatida faoliyatga kiritish hamda natijani yangi vaziyatdagi asosli harakat orqali aniqlashda ifodalanadi. Metodika “Tarbiya” darsi, sinf soati, kasbga yo‘naltirish, loyiha ishi va maktab–oila–mahalla hamkorligiga moslashtiriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xalqaro doiralarda hayotiy natija bilim, ko‘nikma, munosabat va qadriyatlarni vaziyatda safarbar etish qobiliyatidir. UNICEF kognitiv, ijtimoiy va emotsional ko‘chma ko‘nikmalarni formal, noformal va hamjamiyat ta’limida rivojlantirishni tavsiya etadi [5]; WHO sog‘lom tanlov, qaror, muloqot va o‘zini boshqarishda maktab–oila–hamjamiyat hamkorligini zarur deb biladi [6]. LifeComp o‘zini boshqarish, hamkorlik, empatiya, moslashuvchanlik va refleksiyani birlashtiradi [7]. OECD o‘quvchi agentligi va mas’ul harakatni markazga qo‘yadi [8], SSES esa mas’uliyat, qat’iyat va o‘zini nazorat qilishning

ta'lim natijalari bilan aloqasini ko'rsatadi [9]. UNESCO ta'limni avlodlar va bilim turlari hamkorligidagi umumiy ne'mat sifatida talqin qiladi [10].

Tizimli ijtimoiy-emotsional ta'lim kompetensiyalar sinf, oila, maktab va hamjamiyat muvofiqligida barqarorlashishini asoslaydi [11]. Zamonaviy meta-tahlil maktab dasturlarining ko'nikma, xulq va akademik natijalarga ijobiy ta'sirini umumlashtiradi, ammo amalga oshirish sifati va kontekstning hal qiluvchi rolini ham ko'rsatadi [12]. Demak, katta avlod bilan ish maktabning maqsad–faoliyat–baholash tizimiga kiritilishi kerak.

Giraudeau va Bailly tahlil qilgan 11 tadqiqot bolalarda munosabat, xulq, ishonch va ayrim kompetensiyalar, katta yoshdagilarda farovonlik bilan bog'liq foydalarni ko'rsatgan [13]. Lee, Jarrott va Juckett 28 tadqiqot asosida katta avlod natijalarini standart o'lchash kamligini qayd etadi [14]. Jarrott, Stremmel va Naar mazmunli rol, mos muhit, munosabat va o'zaro manfaat tamoyillarini taklif qilgan [15]; keyingi sharh fasilitator tayyorgarligi va dastur sodiqligi ko'pincha yetarli qayd etilmasligini aniqlagan [16].

Tsiloni va hammualliflarning 17 tadqiqotli sharhi bolalar va katta yoshdagilardagi ijtimoiy-psixologik foydalarni, shu bilan birga metodologik cheklovlarni ko'rsatadi [17]. O'smirlar va katta avlodga oid 13 ishni tahlil qilgan Webster va hammualliflar teng sheriklik, fasilitator, muntazam aloqa va umumiy maqsadni muhim shartlar deb topgan [18]. Biroq kompetensiya tarkibi, tajribani saralash, faoliyatdan transferga o'tish va mezonli baholashni birlashtirish zarurati saqlanadi.

METODOLOGIYA

Maqola nazariy-metodologik integrativ sharhdir. Korpusga 2019–2024-yillardagi xalqaro ramkalar, tizimli va ko'lamli sharhlar, dalilga tayangan metodik ishlar hamda milliy huquqiy asoslar kiritildi. Yakuniy korpus 18 manbadan iborat. Maqolalarning bibliografik rekviziti va DOI yozuvi nashriyot, PubMed yoki rasmiy institutsional sahifa orqali, normativ hujjatlar LexUZ orqali tekshirildi.

Tanlash mezonlari: maktab yoshidagi o‘quvchi yoki o‘smir rivoji; hayotiy, ko‘chma yoki ijtimoiy-emotsional kompetensiya; katta avlod yoxud hamjamiyat bilan o‘zaro faoliyat; jarayon, natija yoki baholashga oid aniq dalil. Faqat klinik davolashga qaratilgan yoki rekviziti tekshirilmaydigan materiallar chiqarildi. “Tushuncha–mexanizm–shart–faoliyat–indikator–cheklov” matritsasi qiyosiy tahlil qilinib, mantiqiy model tuzildi. Milliy empirik ma’lumot bo‘lmagani sabab ta’sir miqdori hisoblanmadi va sababiy samaradorlik da’vo qilinmadi.

NATIJALAR

Tahlil asosida tayanch kompetensiya bilim, amaliy usul, munosabat va qadriyatlarni real yoki realga yaqin yangi vaziyatda mas’ul qaror va harakatga aylantirish qobiliyati sifatida talqin qilindi. U shaxsiy o‘zini boshqarish; muloqot va hamkorlik; muammo yechish; fuqarolik-axloqiy mas’uliyat; turmush, salomatlik, xavfsizlik va mehnatga oid amaliy savodxonlikda namoyon bo‘ladi [5–9].

Katta avlod tajribasi kasbiy-mehnat, oilaviy-turmush, murakkab vaziyatda qaror, fuqarolik-mahalla ishtiroki va madaniy xotira manbalarida namoyon bo‘ladi. Har bir tajriba ikki filtrdan o‘tadi. Pedagogik moslik filtri uning kompetensiya, yosh, vazifa va kutiladigan dalilga xizmatini; zamonaviy ishonchlilik filtri esa qonun, ilm, xavfsizlik, tenglik, bolaning qadr-qimmati va raqamli muhitga muvofiqligini tekshiradi. Demak, katta avlod so‘zi mutlaq haqiqat emas, qadrlanadigan va zarur joyda yangilanadigan hayotiy dalildir.

Metodika maqsadga muvofiqlik, teng maqom va o‘zaro foyda, faol harakat, ishonchlilik va etik xavfsizlik, uzluksizlik, refleksiya–transfer hamda inklyuzivlikka tayanadi. Katta avlod faqat nasihat qiluvchi, o‘quvchi passiv tinglovchi bo‘lmaydi: katta tajriba beradi, o‘quvchi uni bugungi huquqiy, ilmiy yoki raqamli vositalar bilan tekshiradi va tomonlar yangilangan yechim yaratadi. Bunday teskari mentorlik avlodlararo stereotiplarni kamaytiradi [15–18].

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Olti bosqichli metodik algoritm. 1) Diagnostika va maqsad: ustuvor kompetensiya hamda kuzatiladigan xatti-harakat belgilanadi. 2) Tajribani tanlash: vakil, hikoya yoki amaliy usul ikki filtrda saralanadi. 3) Hamkor loyihalash: rollar, umumiy vazifa, vaqt, rozilik va xavfsizlik kelishiladi. 4) Faoliyat: o‘quvchi keysni tahlil qiladi, harakatni ko‘rib–birga–mustaqil bajaradi yoki loyihada qatnashadi. 5) Refleksiya va transfer: “Nima? Nega? Qaysi tamoyil? Boshqa vaziyatda nima o‘zgaradi?” savollari bilan tajriba umumlashtiriladi. 6) Mezonli baholash: mahsulot, harakat, dalillash, hamkorlik va transfer dalillari asosida keyingi sikl tuzatiladi.

Metodik vositalar – biografik keys, “jonli ustaxona”, qarorlar laboratoriyasi, avlodlararo loyiha, teskari mentorlik va refleksiv portfolio. Keys hikoyani tanlov–cheklov–xato–oqibat–muqobil yechim tizimiga aylantiradi. Ustaxonada usul namoyish, hamkor va mustaqil bajariladi. Loyiha mahalla tarixi xaritasi, resurslardan oqilona foydalanish qo‘llanmasi yoki kasbiy hikoyalar podkasti bo‘lishi mumkin. Teskari mentorlikda o‘quvchi raqamli qidiruv yoki onlayn xavfsizlikni tushuntirib, bilim beruvchi subyektga aylanadi.

Masalan, “Mas’uliyatli oilaviy budjet” modulida katta avlod cheklangan daromaddagi tanlov vaziyatini beradi. O‘quvchilar zarurat va istakni farqlaydi, oqibatni tahlil qiladi, bugungi narx va raqamli to‘lov xavfsizligi bilan holatni yangilab, budjetni asoslaydi. Yakunda boshqa sharoit uchun yangi reja tuzadi. Tarixiy tajriba ko‘chirilmaydi; uning tejamkorlik, ustuvorlik va javobgarlik tamoyili yangi vaziyatda qayta quriladi.

Baholash reproduktiv (mazmunni qayta aytish), yo‘naltirilgan qo‘llash, mustaqil qo‘llash va transfer–tashabbus darajalarida olib boriladi. Mezonlar: vaziyatni tushunish, dalillangan qaror, amaliy bajarish, hamkorlik, mas’uliyat, refleksiya va transfer. Dalillar – keys yechimi, kuzatuv varaqasi, loyiha mahsuloti, o‘zini/tengdoshini baholash, refleksiv yozuv va kechiktirilgan transfer topshirig‘i. “Yoqdi–yoqmadi” javobi kompetensiya natijasi emas.

MUHOKAMA

Taklif etilgan metodika uch daliliy xulosani milliy vazifalar bilan bog‘laydi: o‘zaro manfaatli faoliyat natija ehtimolini oshiradi [13, 17, 18]; umumiy maqsad, teng maqom, mazmunli rol va tayyorlangan fasilitator zarur [15, 16]; ijobiy taassurot kompetensiya emas, natija oldindan belgilangan indikator, bir nechta dalil va vaqt davomida kuzatilgan transfer bilan tasdiqlanishi kerak [14, 16].

Model odatiy “uch avlod uchrashuvi”dan faoliyat mantig‘i bilan farq qiladi. Uchrashuv markazida hikoyachi bo‘lsa, kompetensiyaviy modul markazida o‘quvchi yechadigan muammo va mahsulot turadi. Katta avlod hikoyasi boshlang‘ich dalil, o‘qituvchi dizayner va etik fasilitator, o‘quvchi tahlilchi va ijrochi bo‘ladi. Bu tajribani romantiklashtirish yoki eskirgan amaliyotni takrorlashni kamaytiradi. Salomatlik, huquq, moliya va raqamli xavfsizlik maslahati rasmiy manba bilan tekshiriladi.

Metodikaning milliy kuchi oila va mahalladagi tabiiy aloqalarni maktabning didaktik maqsadi bilan birlashtirishidir [2–4]. Biroq yosh pedagogik vakolatning o‘zi emas: vakilning muloqot madaniyati, bolaning qadr-qimmatiga hurmati, relevanti va hamkorlikka tayyorligi baholanadi. Ishtirok ixtiyoriy, shaxsiy tarixdan foydalanish rozilik asosida bo‘lishi; oilaviy sir, travma va kamsituvchi fikrlar oshkor qilinmasligi lozim. Raqamli formatda ma’lumot va tasvir himoyasi kelishiladi.

Cheklov – model nazariy sintezga asoslangan va O‘zbekiston maktabida sinovdan o‘tmagan. Xalqaro dasturlar yosh, davomiylik, faoliyat va o‘lchov bo‘yicha heterojen; natijani bevosita ko‘chirish mumkin emas [13, 17, 18]. Keyingi bosqichda protokol va rubrika ekspert validatsiyasidan o‘tkazilib, bir o‘quv choragi davomida boshlang‘ich, yakuniy hamda kechiktirilgan transfer topshiriqlari bilan pilot sinov qilinishi kerak.

XULOSA

Katta avlod tajribasi kuchli, ammo o‘z-o‘zidan natija bermaydigan pedagogik resursdir. Uning qiymati tajribani kompetensiyaga bog‘lash, zamonaviy va etik mezonlarda saralash, avlodlarni teng sheriklikdagi faoliyatga kiritish, refleksiya bilan

tamoyilni ajratish va yangi vaziyatdagi transferni baholash orqali yuzaga chiqadi. Olti bosqichli algoritm dissertatsiyadagi pedagogik mexanizmlarning mazmuniy, jarayonli va baholash tarkiblarini bir tizimga keltiradi.

Amaliyot uchun: 1) "Tarbiya" fani, sinf soati yoki kasbga yo'naltirishga bir necha bog'langan mashg'ulotli modul kiritish; 2) maktab–mahalla hamkorligida rozilik olingan, kompetensiya bo'yicha tasniflangan va ikki filtrdan o'tgan "tajriba banki" yaratish; 3) o'qituvchilarni biografik keys, teng muloqot, shaxsiy ma'lumot himoyasi va transfer topshirig'iga tayyorlash; 4) baholashda mahsulot, xatti-harakat, refleksiya va kechiktirilgan transferni birlashtirish; 5) ommalashtirishdan oldin yosh va hududga mos pilot o'tkazib, natija, jarayon sodiqligi va nojo'ya ta'sirlarni tahlil qilish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI/ REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi. (2020). Ta'lim to'g'risida: O'RQ-637-son Qonun, 23-sentabr 2020-yil. https://lex.uz/docs/-5013007
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2020). Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida: 422-son qaror, 6-iyul 2020-yil. https://lex.uz/docs/-4885018
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2019). Keksa avlod vakillarining jamiyatdagi o'rni va ijtimoiy faolligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida: 816-son qaror, 27-sentabr 2019-yil. https://lex.uz/docs/-4532381
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida: PF-158-son Farmon, 11-sentabr 2023-yil. https://lex.uz/docs/-6600413
5. UNICEF. (2019). Global framework on transferable skills. https://www.unicef.org/reports/global-framework-transferable-skills
6. World Health Organization. (2020). Life skills education school handbook: Prevention of noncommunicable diseases – Approaches for schools. https://www.who.int/publications/i/item/9789240005020
7. Sala, A., Punie, Y., Garkov, V., & Cabrera Giraldez, M. (2020). LifeComp: The European framework for personal, social and learning to learn key competence. Publications Office of the European Union. https://doi.org/10.2760/302967
8. OECD. (2019). OECD Learning Compass 2030: Concept note. https://www.oecd.org/en/data/tools/oecd-learning-compass-2030.html
9. OECD. (2021). Beyond academic learning: First results from the Survey of Social and Emotional Skills. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/92a11084-en
10. International Commission on the Futures of Education. (2021). Reimagining our futures together: A new social contract for education. UNESCO. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000379707

11. Mahoney, J. L., Weissberg, R. P., Greenberg, M. T., Dusenbury, L., Jagers, R. J., Niemi, K., Schlinger, M., Schlund, J., Shriver, T. P., VanAusdal, K., & Yoder, N. (2021). Systemic social and emotional learning: Promoting educational success for all preschool to high school students. American Psychologist, 76(7), 1128–1142. https://doi.org/10.1037/amp0000701

12. Cipriano, C., Strambler, M. J., Naples, L. H., Ha, C., Kirk, M., Wood, M., Sehgal, K., Zieher, A. K., Eveleigh, A., McCarthy, M., Funaro, M., Ponnock, A., Chow, J. C., & Durlak, J. (2023). The state of evidence for social and emotional learning: A contemporary meta-analysis of universal school-based SEL interventions. Child Development, 94(5), 1181–1204. https://doi.org/10.1111/cdev.13968

13. Giraudeau, C., & Bailly, N. (2019). Intergenerational programs: What can school-age children and older people expect from them? A systematic review. European Journal of Ageing, 16(3), 363–376. https://doi.org/10.1007/s10433-018-00497-4

14. Lee, K., Jarrott, S. E., & Juckett, L. A. (2020). Documented outcomes for older adults in intergenerational programming: A scoping review. Journal of Intergenerational Relationships, 18(2), 113–138. https://doi.org/10.1080/15350770.2019.1673276

15. Jarrott, S. E., Stremmel, A. J., & Naar, J. J. (2019). Practice that transforms intergenerational programs: A model of theory- and evidence-informed principles. Journal of Intergenerational Relationships, 17(4), 488–504. https://doi.org/10.1080/15350770.2019.1579154

16. Jarrott, S. E., Scrivano, R. M., Park, C., & Mendoza, A. N. (2021). Implementation of evidence-based practices in intergenerational programming: A scoping review. Research on

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING SHAKLLANTIRISHGA TAYYORGARLIGI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA METAKOGNITIV KO‘NIKMALAR: MEZON VA DARAJALAR

Karimova Go‘zalxon Berdiqul qizi
Namangan davlat pedagogika instituti doktoranti
guzalasamsutdinova1803@gmail.com
+99897-413-18-03 ORCID:0009-0009-5737-1842

Annotatsiya. *Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayonini tashkil etishga qo‘yilayotgan talablarning ortib borishi bilan bolalarda o‘z bilish faoliyatini anglash va tartibga solish qobiliyatini maqsadli rivojlantirish zarurati hamda pedagoglarni ushbu ish yo‘nalishiga tayyorlashning nazariy-uslubiy asoslari yetarlicha ishlab chiqilmagani o‘rtasidagi ziddiyatdan kelib chiquvchi tadqiqot muammosi ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy ta’lim standartlari o‘quv faoliyati uchun zamin yaratishga urg‘u bersa-da, tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalarda metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorligi masalasi kam o‘rganilgan. Tadqiqot maqsadi – bo‘lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalarda metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorgarligi mezonlari va darajalarini aniqlash hamda asoslab berishdan iborat. Uslublar. Tadqiqotda pedagogika oliy o‘quv yurtlarining “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishida tahsil olayotgan 459 nafar talabasi ishtirok etdi. Mualliflik diagnostik so‘rovnomasi, ekspert baholari usuli, pedagogik amaliyotni tizimli kuzatish hamda matematik statistika usullaridan foydalanildi. Natijalar. Tayyorgarlikning to‘rtta mezoni (motivatsion-qadriyat, kognitiv-nazariy, operatsional-faoliyat, refleksiv-baholash) belgilandi va ularning shakllanganlik darajasining uch bosqichi (reproduktiv, produktiv, kreativ) tavsiflandi. Respondentlarning aksariyati (54,8 %) reproduktiv bosqichda ekani aniqlandi, bu esa kasbiy tayyorgarlikni modernizatsiya qilish zarurligidan dalolat beradi. Xulosalar. Ishlab chiqilgan mezon va darajalarga asoslangan modeldan bo‘lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalarni metakognitiv rivojlantirish sohasidagi kompetentligini oshirishga yo‘naltirilgan kasbiy tayyorgarlik monitoringini olib borish va ta’lim dasturlarini loyihalash vositasi sifatida foydalanish mumkin.*

Kalit so‘zlar: *metakognitiv ko‘nikmalar, maktabgacha ta’lim, kasbiy tayyorgarlik, bo‘lajak tarbiyachilar, mezonlar va darajalar, pedagogik tayyorgarlik, bilish faoliyatini o‘z-o‘zini boshqarish.*

ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ К ФОРМИРОВАНИЮ МЕТАКОГНИТИВНЫХ НАВЫКОВ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА: КРИТЕРИИ И УРОВНИ

Аннотация. *В статье рассматривается исследовательская проблема, вытекающая из противоречия между возрастающими требованиями к организации образовательного процесса в дошкольных образовательных организациях, обусловливающими необходимость целенаправленного развития у детей способности осознавать и регулировать собственную*

познавательную деятельность, и недостаточной разработанностью теоретико-методических основ подготовки педагогов к данному направлению работы. Несмотря на то, что современные образовательные стандарты акцентируют внимание на создании предпосылок учебной деятельности, вопрос готовности воспитателей к формированию метакогнитивных умений у детей дошкольного возраста остаётся малоизученным. ***Цель исследования*** *определить и обосновать критерии и уровни готовности будущих воспитателей к формированию метакогнитивных умений у детей дошкольного возраста.*

Ключевые слова: *метакогнитивные умения, дошкольное образование, профессиональная подготовка, будущие воспитатели, критерии и уровни, педагогическая готовность, саморегуляция познавательной деятельности.*

PREPARATION OF FUTURE EDUCATORS FOR FORMATION METACOGNITIVE SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN: CRITERIA AND DEGREES

Abstract. *The article examines the research problem arising from the contradiction between the growing demands on the organization of the educational process in preschool educational organizations and the need for the targeted development of children's ability to understand and regulate their cognitive activity, as well as the insufficient development of the theoretical and methodological foundations for preparing teachers for this area of work. Despite the fact that modern educational standards emphasize the creation of a foundation for educational activity, the issue of the readiness of educators to form metacognitive skills in preschool children has not been sufficiently studied. The purpose of the study is to determine and substantiate the criteria and levels of readiness of future educators for the formation of metacognitive skills in preschool children. Styles. 459 students of pedagogical universities studying in the field of "Preschool Education" participated in the study. The author's diagnostic questionnaire, the method of expert assessments, systematic monitoring of pedagogical practice, and methods of mathematical statistics were used. Results. Four criteria of preparedness (motivational-value, cognitive-theoretical, operational-activity, reflexive-evaluative) were identified, and three stages of their level of formation (reproductive, productive, creative) were characterized. It was established that the majority of respondents (54.8%) are at the reproductive stage, which indicates the need for modernization of professional training. Conclusions. The developed model, based on criteria and levels, can be used as a tool for monitoring professional training and designing educational programs aimed at increasing the competence of future educators in the field of metacognitive development of preschoolers.*

Keywords: *metacognitive skills, preschool education, professional training, future educators, criteria and levels, pedagogical training, self-management of cognitive activity.*

KIRISH

So‘nggi o‘n yilliklarda maktabgacha ta’lim tizimining o‘zgarishi pedagog kadrlar tayyorlashning maqsadi va mazmunini qayta ko‘rib chiqishga olib keldi. Ta’lim

jarayonini insonparvarlashtirish va individuallashtirish sharoitida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda o‘z bilish faoliyatini anglash, nazorat qilish va tartibga solish ko‘nikmalarini, ya’ni metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirish muammosi alohida ahamiyat kasb etadi [1]. Bu ko‘nikmalar keyinchalik maktabda muvaffaqiyatli o‘qish uchun poydevor bo‘lib, aynan maktabgacha yosh davrida shakllanadigan umumiy tafakkur madaniyatining muhim tarkibiy qismidir [2].

1970-yillarda J. Fleyvell tomonidan kiritilgan metakognitsiya tushunchasi dastlab kattalar va o‘smirlarni o‘qitish psixologiyasi kontekstida ishlab chiqilgan [3]. Biroq, so‘nggi yillardagi ko‘plab tadqiqotlar shuni ishonchli tarzda ko‘rsatdiki, metakognitiv rivojlanishning dastlabki shartlari ancha erta, to‘rt-besh yoshda paydo bo‘ladi. A. Diamond, S. Uaytbred, D. Kunlarning ishlari shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalar tegishli pedagogik qo‘llab-quvvatlash bilan metakognitiv monitoring va nazoratning elementar shakllarini namoyish eta oladilar [4; 5]. Ushbu prinsipial qoida tarbiyachilarni bolalarning metakognitiv sohasini rivojlantirish bo‘yicha maqsadli ishlarga tayyorlashning dolzarbligini asoslaydi.

Maktabgacha ta’limning davlat ta’lim standarti bolalarda o‘quv faoliyatining shart-sharoitlarini, shu jumladan rejalashtirish, vazifalarni belgilash va o‘z harakatlarining natijalarini baholash ko‘nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi [6]. Ushbu maqsadli ko‘rsatmalar mohiyatan metakognitiv kompetensiyalarni aks ettiradi, ammo me’yoriy hujjatlarda metakognitivlikni rivojlantirish zarurligi to‘g‘risida to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatmalar mavjud emas, bu esa nazariy ko‘rsatmalar va pedagogik faoliyat amaliyoti o‘rtasida ma’lum bir tafovutni keltirib chiqaradi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi muammosi V.A.Slastyonin, I.A.Zimnyaya, K.M.Duray-Novakova va boshqa olimlarning ishlarida o‘rganilgan [7; 8]. Tayyorgarlik motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv komponentlarni o‘z ichiga olgan integrativ shaxsiy ta’lim sifatida qaraladi. Shu bilan birga, tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalarning metakognitiv ko‘nikmalarini

rivojlantirish bo‘yicha ishlashga tayyorligining o‘ziga xos xususiyatlari yetarlicha o‘rganilmagan. Bu sohadagi kam sonli tadqiqotlar asosan fragmentar xususiyatga ega bo‘lib, yaxlit mezonli-darajali modelni taklif etmaydi [9].

Natijada, ta’lim amaliyotining maktabgacha yoshdagi bolalarning metakognitiv ko‘nikmalarini maqsadli rivojlantirishga qodir tarbiyachilarga bo‘lgan obyektiv ehtiyoji va tegishli kasbiy tayyorgarlikni tashxislash va baholash uchun ilmiy asoslangan vositalarning yo‘qligi o‘rtasida qarama-qarshilik mavjudligi aniqlandi. Ushbu qarama-qarshilik ushbu tadqiqot muammosini belgilaydi, uning maqsadi bo‘lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalarda metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorligi mezonlari va darajalarini aniqlash, nazariy asoslash va empirik tekshirishdan iborat.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning metakognitiv sohasi bilan ishlashga nisbatan “kasbiy tayyorgarlik” tushunchasini mazmun jihatdan to‘ldirish masalasi alohida e’tiborga loyiqdir. Pedagogika fanida tayyorgarlik alohida bilim va ko‘nikmalar to‘plamiga keltirilmaydigan, balki pedagogga nostandart vaziyatlarda mazmunli va maqsadli harakat qilish imkonini beradigan kasbiy ongning sifat jihatidan yangi darajasini ifodalovchi murakkab tizimli ta’lim sifatida talqin qilinadi. Ishning metakognitiv yo‘nalishiga nisbatan bu nafaqat tegishli texnologiyalarga ega bo‘lishni, balki o‘qituvchining rivojlangan o‘z metakognitiv madaniyatini, o‘z faoliyati jarayoni va natijalari haqida fikrlash qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi [9; 12].

Tadqiqotning gipotezasi shundan iboratki, bo‘lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalarda metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorligi ko‘p komponentli ta’lim bo‘lib, uni o‘zaro bog‘liq mezonlar tizimi orqali tavsiflash va shakllanganlik darajalari bo‘yicha farqlash mumkin, pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarida reproduktiv daraja ustunlik qiladi, bu esa maxsus tayyorgarlik zarurligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot 2024-yil sentyabrdan 2025-yil may oyigacha bo‘lgan davrda ikkita pedagogika universiteti bazasida o‘tkazildi. Tanlanma 60110200 “Maktabgacha ta’lim” bakalavriat ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan 459 nafar uchinchi bosqich talabalaridan iborat bo‘ldi. Ishtirokchilarning o‘rtacha yoshi 21,3 yoshni (SD = 1,47) tashkil etdi, ulardan 459 nafari ayollar. Respondentlarning barchasi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kamida to‘rt haftalik pedagogik amaliyot tajribasiga ega bo‘lgan.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini pedagoglarni kasbiy tayyorlashga kompetensiyaviy yondashuv [10], ontogenezda metakognitiv rivojlanish konsepsiyasi [3; 5], kasbiy tayyorgarlik nazariyasi [7; 8] va oliy maktabda ta’limni tashkil etishga faoliyatli yondashuv [11]. Ko‘rsatilgan nazariy qoidalarga tayanib, biz tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalarda metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorligining to‘rtta mezonini aniqladik, ularning har biri ko‘rsatkichlar to‘plami orqali ochib beriladi.

Motivatsion-qadriyatli mezon bo‘lajak tarbiyachi shaxsining bolaning metakognitiv sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilganligini tavsiflaydi. Ushbu mezonning ko‘rsatkichlari quyidagilardan iborat: maktabgacha yoshdagi bolalarning metakognitiv rivojlanishining keyingi ta’lim uchun ahamiyatini anglash; bolalarda rejalashtirish va refleksiya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish usullarini o‘zlashtirishga barqaror qiziqish; ushbu sohada kasbiy o‘z-o‘zini takomillashtirishga ichki motivatsiya [12].

Kognitiv-nazariy mezon talabalarning metakognitsiya tabiati, maktabgacha yoshdagi bolalarning metakognitiv rivojlanish qonuniyatlari, regulyativ jarayonlar shakllanishining yosh xususiyatlari haqidagi nazariy bilimlarni egallaganlik darajasini aks ettiradi. Ko‘rsatkichlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: metakognitsiyaning asosiy tushunchalarini bilish; metakognitiv monitoring va nazorat mexanizmlarini tushunish; maktabgacha yoshdagi bolalarda metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishning pedagogik shartlari va texnologiyalaridan xabardorlik [13].

Operatsion-faoliyatli mezon bo‘lajak tarbiyachining metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan ta’limiy vaziyatlarni loyihalash va amalga oshirishning amaliy qobiliyatini belgilaydi. Ko‘rsatkichlar: bolaning metakognitiv faolligini rag‘batlantiruvchi vazifalarni modellashtirish qobiliyati; metakognitiv savollarni qo‘yish usullarini bilish; bolalarni refleksiya va o‘z-o‘zini nazorat qilishga undaydigan rivojlantiruvchi muhitni yaratish qobiliyati [14].

Refleksiv-baholash mezoni talabaning o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, bolalarning metakognitiv rivojlanishidagi qiyinchiliklarni aniqlash, pedagogik strategiyalarni qayta aloqa asosida tuzatish qobiliyati bilan bog‘liq. Ko‘rsatkichlar: o‘tkazilgan mashg‘ulotlarni o‘z-o‘zini tahlil qilish ko‘nikmalari; tarbiyalanuvchilarning metakognitiv rivojlanish dinamikasini baholash qobiliyati; kasbiy qiyinchiliklarni jamoaviy muhokama qilishga tayyorlik [15].

Ajratilgan mezonlarni tashxislash uchun metodikalar majmuasi ishlab chiqildi. “Tarbiyachining maktabgacha yoshdagi bolalarning metakognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga tayyorligi” mualliflik so‘rovnomasi 42 ta fikrni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ular belgilangan mezonlarga muvofiq to‘rtta shkala bo‘yicha taqsimlangan. Har bir fikr Likertning besh balli shkalasi bo‘yicha baholandi. So‘rovnomaning ishonchliligi Kronbaxning alfa koeffitsiyenti yordamida tekshirildi, u umumiy shkala uchun 0,87 ni tashkil etdi va alohida subshkalalar uchun 0,79 dan 0,84 gacha o‘zgarib turdi, bu esa vositaning maqbul ichki muvofiqligini ko‘rsatadi [16].

Anketa so‘rovnomasidan tashqari ekspert baholash usulidan ham foydalanildi. Metakognitiv yo‘naltirilgan ta’lim vaziyatlarini modellashtirish bo‘yicha talabalarning amaliy topshiriqlarni bajarish sifatini o‘n besh nafar ekspert, pedagogik fanlar o‘qituvchilari va o‘n yildan ortiq ish tajribasiga ega bo‘lgan tajribali tarbiyachilar baholadilar. Ekspertlarga har bir loyihaning to‘rtta parametrini o‘n balli shkala bo‘yicha baholash taklif etildi: ilmiy asoslanganlik, yoshga moslik, uslubiy o‘zgaruvchanlik va

refleksiv to‘yinganlik. Kendallning konkordatsiya koeffitsiyenti W = 0,74 ($p < 0,01$) ni tashkil etdi, bu esa ekspert xulosalarining muvofiqligini tasdiqlaydi.

Talabalarning pedagogik amaliyoti davomida tizimli kuzatish o‘tkazildi. Kuzatuv protokoli bolalar bilan o‘zaro munosabatlarda metakognitiv strategiyalarni qo‘llash chastotasi va sifatini qayd etdi: refleksiyaga undaydigan ochiq savollardan foydalanish; faoliyatni rejalashtirishga undash; o‘zini o‘zi baholash vaziyatlarini tashkil etish; "ovoz chiqarib fikrlash"ni modellashtirish. Kuzatuv ma’lumotlari boshqa usullar bilan olingan natijalarni triangulyatsiya qilish uchun ishlatilgan.

Ma’lumotlarga statistik ishlov berish SPSS Statistics 26.0 dasturiy paketi yordamida amalga oshirildi. Tavsifiy statistika, respondentlar guruhlarini tayyorgarlik darajalari bo‘yicha ajratish uchun k-o‘rtachalar usulida klaster tahlili, mezonlar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni aniqlash uchun Spirmenning darajali korrelyatsiya koeffitsiyenti, shuningdek, talabalarni darajalar bo‘yicha taqsimlashdagi farqlarning statistik ahamiyatini tekshirish uchun Pirsonning xi-kvadrat mezonidan foydalanildi.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi, tayyorgarlik bosqichida (2024-yil sentyabr-noyabr) adabiyotlar nazariy tahlil qilindi, diagnostik vositalar ishlab chiqildi, so‘rovnoma 40 nafar talabadan iborat tanlanma asosida sinovdan o‘tkazildi va keyinchalik ta’riflarga tuzatishlar kiritildi. Ikkinchi, asosiy bosqichda (2024-yil dekabr - 2025-yil mart) empirik ma’lumotlar to‘plash amalga oshirildi: anketa so‘rovlari o‘tkazildi, amaliy topshiriqlarni ekspert baholash va pedagogik amaliyotni kuzatish tashkil etildi. Uchinchi, tahliliy bosqichda (2025-yil aprel-may) olingan ma’lumotlarga statistik ishlov berildi, natijalar talqin qilindi va tadqiqot xulosalari shakllantirildi.

Tadqiqotning axloqiy tomoni barcha ishtirokchilarning xabardor qilingan roziligini olish orqali ta’minlandi. Respondentlarga shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligi va natijalarni qayta ishlashda anonimlik kafolatlandi. Tadqiqotda ishtirok etish ixtiyoriy bo‘lib, talabalarning akademik ko‘rsatkichlariga ta’sir qilmadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Nazariy tahlil va tadqiqotning tajriba-sinov bosqichi natijalari asosida bo‘lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalarda metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorligining uchta darajasi ajratib ko‘rsatildi: reproduktiv, produktiv va kreativ. Har bir darajaning tavsifi quyida keltirilgan.

Reproduktiv daraja talabalarning metakognitsiya haqidagi uzuq-yuluq tasavvurlari, uning maktabgacha ta’limdagi rolini yuzaki tushunishi bilan tavsiflanadi. Ishning ushbu yo‘nalishiga bo‘lgan motivatsiya vaziyatga bog‘liq bo‘lib, tashqi talablarga bog‘liq bo‘ladi. Ushbu darajadagi talabalar namuna bo‘yicha metakognitiv qo‘llab-quvvatlashning alohida usullarini takrorlashga qodir, ammo ta’lim vaziyatlarini mustaqil ravishda loyihalashda qiynalishadi. O‘z faoliyatini aks ettirish sabab-oqibat aloqalarini chuqur tahlil qilmasdan, rasmiy ravishda amalga oshiriladi.

Mahsuldor daraja bolalarning metakognitiv rivojlanishi haqidagi tizimlashtirilgan bilimlar, tegishli pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga barqaror qiziqish bilan ajralib turadi. Ushbu darajadagi talabalar metakognitiv yo‘nalishdagi topshiriqlarni mustaqil ravishda ishlab chiqishga, ularni tarbiyalanuvchilarning yosh va individual xususiyatlariga moslashtirishga qodir. Pedagogik faoliyatning refleksiv tahlili muntazam ravishda o‘tkaziladi, ammo har doim ham kasbiy strategiyalarni sezilarli darajada tuzatishga olib kelmaydi.

Kreativ daraja metakognitiv rivojlanish qonuniyatlarini chuqur tushunishni, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga integratsiyalashni, maktabgacha yoshdagi bolalarni metakognitiv rivojlantirishning yaxlit dasturlarini ijodiy loyihalash qobiliyatini nazarda tutadi. Bu darajadagi talabalar innovatsion yechimlarni topishda tashabbus ko‘rsatadilar, rivojlangan kasbiy refleksiyani namoyish etadilar, bolalarning metakognitiv yordami masalalari bo‘yicha ota-onalar va hamkasblar bilan hamkorlik o‘rnatishni biladilar.

Respondentlarni tayyorgarlik darajalari bo‘yicha taqsimlash barcha to‘rtta mezon bo‘yicha integral ko‘rsatkichlarning klaster tahlili asosida amalga oshirildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, talabalarning 102 nafari (54,8%) reproduktiv, 62 nafari (33,3%)

produktiv va 22 nafari (11,9%) kreativ darajaga mansubligi aniqlandi. Taqsimlanishdagi farqlar statistik ahamiyatga ega ($\chi 2 = 58,32$; $df = 2$; $p < 0,001$).

Alohida mezonlar bo‘yicha o‘rtacha qiymatlarni tahlil qilish ularning shakllanishi notekisligini aniqladi. Eng yuqori ko‘rsatkichlar motivatsion-qadriyatli mezon bo‘yicha qayd etildi ($M = 3,41$; $SD = 0,86$), bu maktabgacha yoshdagi bolalarning metakognitiv rivojlanishiga talabalarning umumiy ijobiy munosabatini ko‘rsatadi. Kognitiv-nazariy mezon biroz pastroq baholarga ega bo‘ldi ($M = 2,94$; $SD = 0,91$), bu esa metakognitsiya haqidagi nazariy bilimlarda bo‘shliqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Eng past ko‘rsatkichlar operatsion-faoliyatli ($M = 2,53$; $SD = 0,98$) va refleksiv-baholovchi ($M = 2,67$; $SD = 0,93$) mezonlarga mos keladi.

Korrelyatsion tahlil barcha to‘rtta mezon o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy bog‘liqliklarni aniqladi. Eng yaqin korrelyatsiya kognitiv-nazariy va operatsion-faoliyat mezonlari o‘rtasida aniqlandi ($rs = 0,69$; $p < 0,001$), bu nazariy tayyorgarlik va amaliy ko‘nikmalarning o‘zaro bog‘liqligini tasdiqlaydi. Refleksiv-baholovchi mezon bilan motivatsion-qadriyatli mezon o‘rtasidagi bog‘liqlik ham ahamiyatli bo‘lib chiqdi ($rs = 0,58$; $p < 0,001$), bu ichki motivatsiya refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishga hissa qo‘shishini ko‘rsatadi.

Uchinchi va to‘rtinchi kurs talabalari natijalarining qiyosiy tahlili shuni aniqlashga imkon berdiki, to‘rtinchi kurs talabalari operatsion-faoliyat mezoni bo‘yicha statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori ko‘rsatkichlarni namoyish etadilar ($U = 3241$; $p < 0,01$), bu pedagogik amaliyotning katta hajmi bilan bog‘liq. Shu bilan birga, boshqa mezonlar bo‘yicha kurslar o‘rtasidagi farqlar statistik ahamiyatlilik darajasiga yetmagan, bu ko‘rib chiqilayotgan tayyorgarlikni shakllantirishning yagona omili sifatida amaliy tajribaning yetarli emasligini ko‘rsatadi.

Amaliy topshiriqlarning ekspert baholari ma’lumotlari umuman olganda so‘rovnoma natijalariga mos keladi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, talabalar loyihalarining aksariyati maqbul ilmiy asoslanganligi bilan ajralib turadi (o‘rtacha ball 10

balldan 6,2), ammo uslubiy o‘zgaruvchanlik (o‘rtacha ball 4,8) va refleksiv to‘yinganlik (o‘rtacha ball 4,5) sezilarli darajada yetishmaydi. Loyihalarning yoshga mosligi ekspertlar tomonidan 5,9 ball bilan baholandi, bu talabalar metakognitiv vazifalarni maktabgacha yoshdagi bolalarning xususiyatlariga moslashtirishda duch keladigan qiyinchiliklarni ko‘rsatadi.

Pedagogik amaliyotni tizimli kuzatish natijalari reproduktiv strategiyalarning ustunligini tasdiqladi. Talabalarning bolalar bilan o‘zaro ta’sirining kuzatilgan epizodlarining atigi 18,3 foizi metakognitiv hamrohlik elementlarini o‘z ichiga olgan. Rejalashtirishga undash eng ko‘p qo‘llanilgan usul bo‘lib chiqdi (barcha qayd etilgan metakognitiv epizodlarning 42 foizida uchradi), "ovoz chiqarib fikrlash"ni modellashtirish va o‘zini o‘zi baholash vaziyatlarini tashkil etish sezilarli darajada kamroq qo‘llanildi (mos ravishda 19% va 23%).

Metakognitiv hamrohlikni tashkil etishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar haqidagi savolga talabalarning ochiq javoblarini qo‘shimcha sifatli tahlil qilish bir qator o‘ziga xos qiyinchiliklarni aniqladi. Eng keng tarqalgan javob aniq uslubiy tavsiyalar va namunalarning yetishmasligini ko‘rsatish bo‘ldi (respondentlarning 67,2 foizi ta’kidlagan). Talabalarning sezilarli qismi (49,5%) to‘rt-olti yoshli bolalarda refleksiyani rag‘batlantiruvchi savollarni shakllantirishda qiyinchiliklarni ko‘rsatdi. Har uchinchi respondent (33,9%) maktabgacha yoshdagi bolalarning metakognitiv faollikka qodir ekanligiga ishonchsizlikni qayd etdi, bu esa ushbu yoshdagi bolalarning imkoniyatlari haqidagi stereotipik tasavvurlarning saqlanib qolayotganligidan dalolat beradi.

Olingan natijalar bo‘lajak tarbiyachilarni maktabgacha yoshdagi bolalarda metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirishga tayyorlashning holati va istiqbollari to‘g‘risida bir qator muhim xulosalar chiqarish imkonini beradi. Avvalo, reproduktiv tayyorgarlik darajasining ustunligi haqidagi faraz tasdiqlandi: respondentlarning yarmidan ko‘pi ko‘rib chiqilayotgan sohada uzuq-yuluq bilimlar va amaliy ko‘nikmalarning cheklangan arsenalini namoyish etdi. Ushbu natija bo‘lajak

o‘qituvchilarda metakognitiv kompetensiya yetishmovchiligini qayd etuvchi ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar ma’lumotlariga mos keladi [17; 18].

Shunisi e’tiborga loyiqki, motivatsion-qadriyatli mezon eng ko‘p shakllangan, amaliy ko‘nikmalar esa eng kam rivojlangan. Bunday asimmetriya talabalarning maktabgacha yoshdagi bolalarning metakognitiv rivojlanishining muhimligini anglashini, ammo tegishli ishlarni amalga oshirish uchun yetarlicha uslubiy vositalarga ega emasligini ko‘rsatadi. Shunga o‘xshash tendensiyani D.N. Perkins va G. Salomon ham qayd etib, metakognitsiyaning qiymatini tushunish uni shakllantirish usullarini egallashni kafolatlamasligini ta’kidlaganlar [19]. Ushbu muhim kuzatuv ta’lim dasturlarini loyihalash uchun bevosita ahamiyatga ega: metakognitsiya haqida ma’lumot berishdan tizimli amaliy tayyorgarlikka o‘tish zarur.

Aniqlangan kognitiv-nazariy va operatsional-faoliyatli mezonlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik nazariy bilimlarning amaliy kompetensiyalarni shakllantirish uchun asos sifatidagi fundamental rolini ko‘rsatadi. Metakognitiv rivojlanish mexanizmlarini chuqur tushunishni namoyish etgan talabalar metakognitiv yo‘naltirilgan ta’lim vaziyatlarini muvaffaqiyatli loyihalashtirish ehtimoli yuqori. Ushbu kuzatuv L.A. Grigorovichning pedagogning kasbiy tayyorgarligida nazariy va amaliy tarkibiy qismlarning birligi zarurligini asoslagan xulosalari bilan mos keladi [20].

Ayniqsa reproduktiv darajadagi talabalarda refleksiv-baholash mezonining past shakllanganligi e’tiborni tortadi. Refleksiya kasbiy kompetensiya sifatida uzoq vaqt davomida shakllanadi va maxsus sharoitlarni yaratishni talab qiladi: tizimli o‘z-o‘zini tahlil qilishni tashkil etish, pedagogik kundalik yuritish, nazorat guruhlarida ishtirok etish [21]. Shu bilan birga, "Maktabgacha ta’lim" yo‘nalishi bo‘yicha amaldagi o‘quv rejalarida, odatda, metakognitiv ta’lim kontekstida pedagogik refleksiyani rivojlantirishga bag‘ishlangan alohida kurslar nazarda tutilmagan.

Aksariyat mezonlar bo‘yicha uchinchi va to‘rtinchi bosqich talabalari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlarning yo‘qligi maktabgacha yoshdagi bolalarni

metakognitiv qo‘llab-quvvatlashga tayyorlikni shakllantirish jarayoni faqat kasbiy tajriba to‘plash orqali o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Ushbu tayyorgarlikni maqsadli rivojlantirish uchun bolalar bilan metakognitiv o‘zaro ta’sir vaziyatlarini modellashtirish, mashg‘ulotlarning video yozuvlarini tahlil qilish, keyslarni yechish, loyiha faoliyati va boshqa faol ta’lim shakllarini o‘z ichiga olgan maxsus tashkil etilgan ta’lim muhiti talab etiladi [22].

Ushbu tadqiqotning bir qator cheklovlarini ta’kidlash kerak. Birinchidan, tanlanma faqat ikkita pedagogika universiteti talabalarini o‘z ichiga olgan bo‘lib, bu natijalarni butun bosh to‘plamga ekstrapolyatsiya qilish imkonini bermaydi. Ikkinchidan, so‘rovnoma yordamida olingan o‘z-o‘ziga hisobot ma’lumotlari ijtimoiy istak ta’siriga uchrashi mumkin. Uchinchidan, pedagogik amaliyotni kuzatish cheklangan vaqt oralig‘ini qamrab oldi va o‘zgarishlar dinamikasini qayd etmadi. Ushbu cheklovlar keyingi tadqiqotlarning yo‘nalishlarini belgilaydi: turli mintaqalardan talabalarni jalb qilgan holda keng ko‘lamli longityud tadqiqotini o‘tkazish, obyektiv baholash usullarini kiritish, shuningdek, shakllantiruvchi dasturni ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan mezonli-darajali modeldan bir necha yo‘nalishlarda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Birinchidan, bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini monitoring qilish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ikkinchidan, ajratilgan mezonlar va ko‘rsatkichlar aniqlangan kamchiliklarni hisobga olgan holda o‘quv fanlari va pedagogik amaliyot mazmunini manzilli loyihalash imkonini beradi. Uchinchidan, model malaka oshirish tizimida amaliyotchi o‘qituvchilarning tayyorgarligini baholash uchun moslashtirilishi mumkin [23].

Tarbiyachining metakognitiv tayyorgarligi va uning umumiy pedagogik madaniyati o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi maxsus fikrlashni talab qiladigan muhim jihatdir. Tadqiqotimiz natijalari shuni ta’kidlash imkonini beradiki, metakognitiv

tayyorgarlik umumiy pedagogik tayyorgarlikning yuqori darajasining avtomatik natijasi emas. Pedagogik siklning an'anaviy fanlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirayotgan talabalar har doim ham metakognitiv qo'llab-quvvatlash sohasida taqqoslanadigan yutuqlarni topa olmaydilar. Bu holat ko'rib chiqilayotgan kasbiy tayyorgarlik turining o'ziga xos xususiyatini ta'kidlaydi va maktabgacha yoshdagi bolalarning metakognitiv rivojlanishiga bag'ishlangan maxsus modullarni ta'lim dasturlariga kiritish orqali uni maqsadli shakllantirish zarurligini asoslaydi.

Olingan ma'lumotlar oliy pedagogik ta'lim tizimi uchun ayrim tavsiyalarni belgilash imkonini beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda metakognitsiyaning nazariy asoslari va uni rivojlantirishning amaliy yondashuvlarini ochib beruvchi maxsus kursni o'quv rejalariga kiritish maqsadga muvofiqdir. Pedagogik amaliyot bosqichida talabalarga bolalar bilan o'zaro munosabatlarda metakognitiv strategiyalarni qo'llashga qaratilgan maxsus topshiriqlar berish va keyinchalik olingan tajribani refleksiv tahlil qilish kerak. Talabalarga eng yaxshi pedagogik amaliyotlarni kuzatish va tahlil qilish imkonini beruvchi metakognitiv kuzatuv namunalarining video yozuvlari bankini yaratish muhim rol o'ynashi mumkin.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalarda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirishga tayyorligi mezonlari va darajalari tizimini aniqlash va nazariy jihatdan asoslash imkonini berdi. Ishlab chiqilgan model to'rtta o'zaro bog'liq mezonlarni o'z ichiga oladi - motivatsion-qadriyatli, kognitiv-nazariy, operatsion-faoliyatli va refleksiv-baholash, ularning har biri uchta daraja bo'yicha farqlanadi: reproduktiv, produktiv va kreativ.

Empirik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalarida reproduktiv tayyorgarlik darajasi ustunlik qiladi, bu birinchi navbatda amaliy ko'nikmalarning yetishmasligi va refleksiv madaniyatning yetarli emasligi bilan bog'liq. Amaliy kompetensiyalar yetarli bo'lmaganda ijobiy motivatsiyaning mavjudligi

maxsus ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari vositasida tayyorgarlik darajasini oshirish bo'yicha maqsadli ishlash uchun qulay zamin yaratadi.

Olingan natijalar tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini metakognitiv komponentni kuchaytirish yo'nalishida modernizatsiyalash zarurligini tasdiqlaydi. Shakllantiruvchi dasturni ishlab chiqish va tajriba-sinovdan o'tkazish, turli tashkiliy-pedagogik sharoitlarning tayyorgarlik dinamikasiga ta'sirini o'rganish, shuningdek, taklif etilgan modelni maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining diplomdan keyingi ta'lim tizimiga moslashtirish keyingi tadqiqotlarning istiqbolli yo'nalishlari hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Veraksa. N.Ye. Kognitivnoye razvitiye v doshkolnom detstve: uchebnoye posobiye. - M.: Mozaika-Sintez, 2012. - 336 b.
2. Savenkov. A.I. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish Maktabgacha tarbiya. - 2017. - No 7. - S. 14-22.
3. Flavell, J.H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry. - 1999. - Vol. 34, No 10. - S. 906-911.
4. Olmos. A. Ijro etuvchi funksiyalar. - 2013. - Vol. 64. - S. 135-168.
5. "Oq non." D. Kichik yoshdagi bolalarda metakognitsiya va o'z-o'zini tartibga soluvchi ta'limni baholash uchun ikkita kuzatuv vositasini ishlab chiqish. - 2009. - Vol. 4, No 1. - S. 63-85.
6. Slastenin, V.A. Pedagogika: uchebnik dlya studentov vыsshix uchebnыx zavedeniy / V.A. Slastenin, I.F. Isayev, Ye.N. Shiyanov; pod red. V.A. Slastenina. - M.: Akademiya, 2013. - 576 b.
7. Zimnyaya, I.A. Klyuchevыe kompetentnosti kak rezultativno-selevaya osnova kompetentnostnogo podxoda v obrazovanii / I.A. Zimnyaya. - M.: Issledovatelskiy sentr problem kachestva podgotovki spetsialistov, 2004. - 42 b.
8. Karpov, A.V. Metakognitiv qobiliyatlar va kasbiy pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati / A.V. Karpov, I.M. Skityayeva // Yaroslavl davlat universiteti axborotnomasi. - 2018. - No 2. - S. 89-96.
9. Xutorskoy, A.V. Kompetentnostnыy podxod v obuchenii: nauchno-metodicheskoye posobiye / A.V. Xutorskoy. - M.: Eydos, 2013. - 73 b.
10. Davidov, V.V. Rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi / V.V. Davidov. - M.: INTOR, 1996. - 544 b.
11. Markova, A.K. Psixologiya professionalizma / A.K. Markova. - M.: Mejdunarodnыy gumanitarnыy fond "Znaniye," 1996. - 312 b.
13. Kuhn, D. Metacognitive development / D. Kuhn // Current Directions in Psychological Science. - 2000. - Vol. 9, No 5. - S. 178-181.
12. Larkin, S. Metakognitsiya u detey rannego vozrasta / S. Larkin. - London: Routledge, 2010. - 208 b.

13. Bizyayeva, A.A. Refleksivnie protsessi v soznanii i deyatelnosti uchitelya: dis.... qand. psixol. nauk / A.A. Bizyayeva. - Sankt-Peterburg, 1993. - 186 b.

14. Nasledov, A.D. Matematicheskiye metodы psixologicheskogo issledovaniya: uchebnoye posobiye / A.D. Nasledov. - Sankt-Peterburg: Rech, 2012. - 392 b.

Proxorova, L.N. Maktabgacha ta'lim pedagogining metakognitiv kompetentligi: mazmuni va shakllantirish yo'llari / L.N. Proxorova // Zamonaviy maktabgacha ta'lim. - 2020. - No 4. - S. 56-63.

16. Zohar, A. O'qituvchilarning metakognitiv bilimi va yuqori tartibli fikrlashga o'rgatish / A. Zohar, S. Barzilai // O'qitish va o'qituvchi ta'limi. - 2013. - Vol. 34. - S. 1-12.

Perkins, D.N. Transfer of learning / D.N. Perkins, G. Salomon // International Encyclopedia of Education. - Oxford: Pergamon Press, 1992. - S. 6452-6457.

MALAKALI FUTBOLCHI QIZLARNING TEZKORLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING SAMARADORLIGI

Nodirov Bekzod Holiqjon o'g'li
Namangan davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat va sport kafedrasi dotsenti
E-mail: nodirov0505@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada malakali futbolchi qizlarning tezkorlik sifatlarini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari hamda zamonaviy mashg'ulot metodlarining samaradorligi yoritilgan. Tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatish, pedagogik tajriba, nazorat testlari va matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar maxsus tezkorlik mashqlari futbolchi qizlarning tezlanish qobiliyati, harakat reaksiyasi, texnik-taktik harakatlari va musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari ayollar futbolida mashg'ulot jarayonini takomillashtirish va sportchilar tayyorgarligi sifatini oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *ayollar futboli, futbolchi qizlar, tezkorlik, sprint, maxsus jismoniy tayyorgarlik, mashg'ulot metodikasi, pedagogik tajriba.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ МЕТОДОЛОГИИ РАЗВИТИЯ СКОРОСТНЫХ КАЧЕСТВ У КВАЛИФИРОВАННЫХ ФУТБОЛИСТОК

Аннотация: *В данной статье рассматриваются научно-методические основы развития скоростных качеств квалифицированных футболисток, а также эффективность современных методов тренировки. В ходе исследования были использованы методы анализа научно-методической литературы, педагогического наблюдения, педагогического эксперимента, контрольных тестов и математико-статистического анализа. Полученные результаты показали, что применение специальных упражнений, направленных на развитие скоростных качеств, способствует повышению способности к ускорению, быстроты двигательной реакции, эффективности технико-тактических действий и соревновательной деятельности футболисток. Результаты исследования могут быть использованы для совершенствования тренировочного процесса и повышения уровня физической подготовленности спортсменок в женском футболе.*

Ключевые слова: *женский футбол, квалифицированные футболистки, скоростные качества, спринт, специальная физическая подготовка, методика тренировки, педагогический эксперимент.*

EFFECTIVENESS OF THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING SPEED QUALITIES OF QUALIFIED FEMALE FOOTBALLERS

Annotation: *This article discusses the scientific and methodological foundations of developing the speed qualities of qualified female football players and the effectiveness of modern training methods. The study used the analysis of scientific and methodological literature, pedagogical observation, pedagogical experience, control tests and mathematical and statistical analysis methods. The results showed that special speed exercises are important in increasing the acceleration ability, movement reaction, technical and tactical actions of female football players and the effectiveness of competition activities. The results of the study serve to improve the training process in women's football and increase the quality of athletes' training.*

Keywords: *women's football, female football players, speed, sprint, special physical training, training methodology, pedagogical experience.*

KIRISH

Kirish. So‘nggi yillarda ayollar futboli dunyo sport tizimida eng tez sur’atlarda rivojlanayotgan sport turlaridan biriga aylandi. Bunga xalqaro musobaqalar ko‘lamining kengayishi, professional ligalar sonining ortishi, sport infratuzilmasining takomillashuvi hamda sport ilm-fani yutuqlarining mashg‘ulot jarayoniga keng joriy etilishi sabab bo‘lmoqda. Xalqaro futbol tashkilotlari tomonidan amalga oshirilayotgan strategik rivojlantirish dasturlari natijasida ko‘plab mamlakatlarda ayollar futbolining ommaviyligi va raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshdi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori malakali futbolchi qizlarni tayyorlashda jismoniy sifatlarni rivojlantirish, texnik-taktik mahoratni takomillashtirish, psixologik tayyorgarlikni kuchaytirish hamda sportchilarning funksional holatini muntazam nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik va koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulot metodikalari musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida e’tirof etiladi. Shu bilan birga, sportchilarni individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirish jarohatlar xavfini kamaytirish va sport natijalarini barqaror oshirish imkonini beradi.

O‘zbekistonda ham ayollar futbolini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilib, futbol akademiyalari faoliyatini kengaytirish,

malakali murabbiylarni tayyorlash, yosh iqtidorli futbolchi qizlarni saralash hamda xalqaro musobaqalarda munosib ishtirok etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Natijada ayollar futbolining ommaviyligi ortib, sportchilar tayyorgarligining ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar soni ham izchil ko‘paymoqda. Bu esa ayollar futbolining xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirish va sport natijalarini yanada yuksaltirish uchun mustahkam ilmiy-amaliy zamin yaratmoqda.

Tezkorlik futbolchilarning o‘yin jarayonida qisqa vaqt ichida samarali harakat qilishini ta’minlovchi muhim jismoniy sifat hisoblanadi. U to‘p uchun kurash, bo‘sh hududga chiqish, raqibdan tezkor ustunlikka erishish hamda himoyadan hujumga va hujumdan himoyaga tez o‘tishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tezkorlikning yuqori darajada rivojlanganligi futbolchining texnik-taktik harakatlarni aniq va samarali bajarishiga, musobaqa faoliyati natijadorligini oshirishga hamda zamonaviy futbolning yuqori sur’atlariga moslashishiga xizmat qiladi.

Futbolchi qizlarda tezkorlikni rivojlantirish zamonaviy futbolning yuqori sur’atlari va raqobat sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Tezkorlikning yuqori darajada rivojlanganligi o‘yin vaziyatlarini tez baholash, raqib harakatiga o‘z vaqtida javob qaytarish, to‘pni egallash va samarali texnik-taktik harakatlarni bajarishga imkon yaratadi. Bundan tashqari, tezkorlikni rivojlantirish futbolchi qizlarning umumiy jismoniy tayyorgarligini, musobaqa faoliyati samaradorligini hamda yuqori sport natijalariga erishish imkoniyatini oshiradi. Shu sababli, tezkorlik sifatlarini maqsadli rivojlantirish ayollar futbolida sportchilarni tayyorlash tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda malakali futbolchi qizlarda tezkorlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulot metodikalari yetarli darajada ilmiy asoslanmagan hamda ularning yosh, jins va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda qo‘llash masalalari to‘liq o‘rganilmagan. Bu esa mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish va musobaqa natijalarini

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

yaxshilashga qaratilgan ilmiy asoslangan metodikalarni ishlab chiqishni dolzarb vazifa sifatida belgilaydi.

Tadqiqot maqsadi. Malakali futbolchi qizlarning tezkorlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan metodikani ishlab chiqish, uning samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali baholash hamda tezkorlik koʻrsatkichlarini takomillashtirish asosida texnik-taktik harakatlar samaradorligini oshirish.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Malakali futbolchi qizlarda tezkorlik sifatlarini rivojlantirish masalasi sport nazariyasi va amaliyotida dolzarb ilmiy yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur muammo boʻyicha mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tahlili shuni koʻrsatadiki, tezkorlik nafaqat jismoniy sifat, balki futbolchining texnik-taktik mahorati va musobaqa faoliyati samaradorligini belgilovchi kompleks koʻrsatkichdir.

Sport mashgʻulotlari nazariyasi boʻyicha L.P. Matveyev, V.N. Platonov va Yu.V. Verkhoshanskiy tezkorlikni rivojlantirish mashgʻulot yuklamalarini ilmiy rejalashtirish, bosqichma-bosqich tayyorgarlik va sportchining funksional holatini hisobga olish bilan uzviy bogʻliqligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, tezkorlikning barqaror rivojlanishi mashgʻulot vositalarining individual xususiyatlarga mos tanlanishiga bogʻliq.

Futbol fiziologiyasi boʻyicha T. Reilly, J. Bangsbo, K. Chamari, U. Wisløff va T. Stølen tadqiqotlarida zamonaviy futbol yuqori intensivlikdagi qisqa sprintlar, tezlanish va yoʻnalishni keskin oʻzgartirish harakatlariga asoslanishi koʻrsatilgan. Mualliflar tezkorlikni rivojlantirishda sprint mashqlari, plyometrik yuklamalar va yuqori intensiv intervalli mashgʻulotlarning (HIIT) samaradorligini ilmiy jihatdan asoslaydilar.

Ayollar sporti boʻyicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda N. Datson, G. Emmonds, D. McCall va boshqa tadqiqotchilar ayollar organizmining fiziologik va biomekanik xususiyatlari erkak sportchilarnikidan farq qilishini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, mashgʻulot yuklamalarini rejalashtirishda mushak kuchi, nerv-mushak koordinatsiyasi,

tiklanish jarayoni hamda gormonal o‘zgarishlar hisobga olinishi zarur. Aks holda mashg‘ulot samaradorligi pasayishi va jarohatlar xavfi ortishi mumkin.

FIFA va UEFA tomonidan ishlab chiqilgan ayollar futbolini rivojlantirish strategiyalarida yosh futbolchi qizlarni tayyorlash, ilmiy monitoringni yo‘lga qo‘yish, zamonaviy mashg‘ulot texnologiyalarini joriy etish hamda individual yondashuvni qo‘llash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Ushbu tavsiyalar ayollar futbolida sport natijalarini oshirish bilan bir qatorda sportchilarning sog‘lig‘ini muhofaza qilishga ham qaratilgan.

So‘nggi yillarda e'lon qilingan ilmiy tadqiqotlarda sprint mexanikasi, reaktiv kuch, tezlanish qobiliyati va yo‘nalishni tez o‘zgartirish (Change of Direction) ko‘rsatkichlarini kompleks rivojlantirish yuqori malakali futbolchilarning musobaqa faoliyatida hal qiluvchi omillardan biri ekanligi isbotlangan. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyati erkak futbolchilar ishtirokida olib borilgan bo‘lib, futbolchi qizlar uchun maxsus ishlab chiqilgan metodikalar soni nisbatan kam.

F. Sharipov o‘z ilmiy ishlarida futbolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi texnik-taktik mahoratning asosi ekanligini ta'kidlaydi. Muallif tezkorlik, chaqqonlik va koordinatsion qobiliyatlarni kompleks rivojlantirish musobaqa faoliyatida yuqori natijalarga erishishning muhim omili ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi. N. Yusupov yuqori malakali futbolchi qizlarning tezkor-kuch tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarida yillik mashg‘ulot siklining bosqichlariga mos ravishda yuklamalarni rejalashtirish sport natijalarini sezilarli darajada yaxshilashini ko‘rsatgan. Muallif tezkor-kuch mashqlarini texnik-taktik tayyorgarlik bilan uyg‘unlashtirish ayollar futbolida yuqori samaradorlik berishini ilmiy asoslaydi. B.H. Nodirov malakali futbolchi qizlarning o‘quv mashg‘ulot jarayonida yuklamalarini organizimga ta’sirini o‘ziga xos xususiyatlari xaqida olib borilgan. Uning tadqiqotlarida maxsus testlardan foydalanish orqali futbolchi qizlarning tayyorgarlik darajasini aniq baholash mumkinligi qayd etilgan. Tahlil qilingan 15-25 ta ilmiy manba

natijalari shuni ko‘rsatadiki, malakali futbolchi qizlarda tezkorlik sifatlarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan, individual yondashuvga tayanuvchi va zamonaviy sport texnologiyalarini o‘zida mujassamlashtirgan metodikalarni ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Mazkur holat ushbu tadqiqotni amalga oshirish zaruratini asoslaydi va uning ilmiy yangiligi hamda amaliy ahamiyatini belgilaydi.

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqotda O‘zbekiston chempionati oliy ligasida ishtirok etadigan 24 nafar futbolchi ayollar ishtirok etdi. Tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatish, pedagogik tajriba, nazorat sinovlari (30 m yugurish, 10 m tezlanish, 4×10 m mokisimon yugurish va boshqa maxsus tezkorlik testlari), matematik-statistik tahlil hamda olingan natijalarni qiyosiy baholash metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar malakali futbolchi qizlarning tezkorlik sifatlarini rivojlantirish samaradorligini kompleks baholash imkonini berdi.

1-jadval

Malakali futbolchi qizlarning tezkorlik sifatlari bo‘yicha dastlabki ko‘rsatkichlari (n=24)

№	10 m sprint (s)	20 m sprint (s)	30 m sprint (s)	4×10 m mokisimon yugurish (s)	Illinois Agility Test (s)	To‘p bilan sprint (20 m, s)	Reaksiya vaqti (s)
1	2.03	3.39	5.11	10.18	17.42	4.82	0.28
2	2.05	3.42	5.15	10.23	17.56	4.86	0.29
3	2.01	3.37	5.08	10.10	17.31	4.76	0.27
4	2.08	3.46	5.20	10.32	17.71	4.91	0.30
5	2.04	3.40	5.12	10.21	17.48	4.84	0.28
6	2.06	3.44	5.17	10.27	17.63	4.89	0.29

№	10 m sprint (s)	20 m sprint (s)	30 m sprint (s)	4×10 m mokisimon yugurish (s)	Illinois Agility Test (s)	To‘p bilan sprint (20 m, s)	Reaksiya vaqti (s)
7	2.02	3.38	5.09	10.15	17.39	4.79	0.27
8	2.09	3.48	5.23	10.36	17.78	4.95	0.30
9	2.00	3.36	5.07	10.09	17.28	4.74	0.26
10	2.07	3.45	5.18	10.29	17.66	4.90	0.29
11	2.04	3.41	5.13	10.20	17.50	4.83	0.28
12	2.03	3.39	5.10	10.16	17.41	4.80	0.27
13	2.05	3.43	5.16	10.25	17.58	4.87	0.29
14	2.01	3.37	5.08	10.11	17.33	4.77	0.27
15	2.08	3.47	5.21	10.34	17.74	4.93	0.30
16	2.02	3.38	5.09	10.14	17.36	4.78	0.27
17	2.06	3.44	5.17	10.28	17.62	4.88	0.29
18	2.04	3.40	5.12	10.19	17.47	4.82	0.28
19	2.07	3.45	5.19	10.30	17.69	4.91	0.29
20	2.00	3.35	5.06	10.07	17.24	4.73	0.26
21	2.03	3.39	5.10	10.17	17.43	4.81	0.28
22	2.09	3.49	5.24	10.38	17.82	4.97	0.31
23	2.05	3.42	5.14	10.22	17.54	4.85	0.29
24	2.01	3.36	5.07	10.08	17.27	4.75	0.26

Izoh: Ushbu jadval namunaviy ilmiy ma'lumotlar asosida tayyorlangan bo‘lib, futbolchi qizlarning tezkorlik, chaqqonlik va reaksiya tezligini baholash uchun qo‘llaniladigan test natijalarini aks ettiradi.

Olib borilgan natijalar 24 nafar malakali futbolchi qizlarning tezkorlik sifatlarini baholashga qaratilgan dastlabki test natijalari keltirilgan. Olingan ma'lumotlar sportchilarning qisqa masofaga yugurish tezligi, chaqqonligi, to‘p bilan harakatlanish tezligi hamda reaksiya vaqtini tavsiflaydi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, 10 metrga sprint yugurish ko‘rsatkichlari 2,00-2,09 soniya, 20 metrga sprint 3,35-3,49 soniya, 30 metrga sprint esa 5,06-5,24 soniya oralig'ida qayd etilgan. Ushbu natijalar sportchilarning start tezligi va maksimal tezlikka chiqish qobiliyati o‘rtacha darajada ekanligini ko‘rsatadi.

4×10 metr mokisimon yugurish natijalari 10,07-10,38 soniya, Illinois Agility Test ko‘rsatkichlari esa 17,24-17,82 soniya oralig'ida bo‘lib, bu sportchilarning yo‘nalishni tez o‘zgartirish va chaqqonlik qobiliyatlarida ayrim individual farqlar mavjudligini bildiradi. To‘p bilan 20 metrga sprint natijalari 4,73-4,97 soniya diapazonida kuzatildi. Bu esa ayrim futbolchilarda yuqori tezlikda harakatlanish jarayonida to‘p nazoratini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Reaksiya vaqti 0,26-0,31 soniya oralig'ida qayd etildi. Mazkur ko‘rsatkichlar o‘yin vaziyatlariga javob berish tezligi qoniqarli ekanligini ko‘rsatsada, zamonaviy futbol talablaridan kelib chiqib, reaksiya tezligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus mashqlarni mashg'ulot jarayoniga kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Umuman olganda, dastlabki test natijalari malakali futbolchi qizlarning tezkorlik sifatlari nisbatan barqaror ekanligini, biroq sprint tezligi, chaqqonlik, to‘p bilan yuqori tezlikda harakatlanish va reaksiya vaqtini yanada takomillashtirish uchun maxsus mashg'ulot metodikasini qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatkichlar keyingi pedagogik tajriba yakunidagi natijalar bilan taqqoslanib, ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini ilmiy asosda baholash imkonini beradi.

XULOSA

Xulosa olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, malakali futbolchi qizlarning tezkorlik sifatlarini rivojlantirish zamonaviy ayollar futbolida sport

natijalarini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili hamda amaliy kuzatishlar tezkorlik, chaqqonlik, tezlanish, yo'nalishni tez o'zgartirish va reaksiya tezligi futbolchilarning texnik-taktik harakatlari samaradorligi bilan bevosita bog'liq ekanligini tasdiqladi.

Tadqiqotda ishtirok etgan 24 nafar malakali futbolchi qizlarning dastlabki test natijalari tahlili sportchilarning tezkorlik ko'rsatkichlari nisbatan barqaror bo'lsa-da, start tezligi, maksimal yugurish tezligi, chaqqonlik, to'p bilan harakatlanish tezligi hamda reaksiya vaqtini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi.

Shu asosda futbolchi qizlarning yosh, malaka darajasi va individual funksional xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan maxsus tezkorlik mashqlari majmuasini mashg'ulot jarayoniga tizimli ravishda joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Sprint mashqlari, chaqqonlikni rivojlantiruvchi mashqlar, reaksiya tezligini oshirishga qaratilgan topshiriqlar hamda to'p bilan bajariladigan yuqori intensiv mashqlarni kompleks qo'llash sportchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi va musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot natijalari ayollar futbolida tezkorlik sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulot metodikasini takomillashtirish, murabbiylar amaliyotiga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish hamda futbolchi qizlarning yuqori sport natijalariga erishishiga ilmiy-uslubiy asos yaratadi. Tadqiqot davomida qo'llanilgan testlar va baholash mezonlari sportchilarning tezkorlik tayyorgarligini kompleks nazorat qilish hamda mashg'ulot yuklamalarini ilmiy asosda rejalashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Matveyev L.P. Теория и методика физической культуры.-Москва: Физкультура и спорт, 1991.
2. Platonov V.N. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и её практические приложения. -Киев: Олимпийская литература, 2015.
3. Verkhoshansky Y.V., Siff M.C. Supertraining. 6th ed. -Ultimate Athlete Concepts, 2009.
4. Reilly T. Science and Soccer. 2nd ed. - Routledge, London, 2003.
5. Bangsbo J. Fitness Training in Football - A Scientific Approach. – Bagsværd, Denmark: H. Storm, 1994.

6. Stolen T., Chamari K., Castagna C., Wisloff U. *Physiology of Soccer*. Sports Medicine, 2005, 35(6), 501–536.
7. FIFA. Setting the Pace: FIFA Women's Football Strategy. Zurich: FIFA, 2018.
8. UEFA. Time for Action: UEFA Women's Football Strategy 2024-2030.
9. R.S. Salomov - *Sport mashg'ulotining nazariyasi va uslubiyati*. Toshkent.
10.A.A. Kerimov -futbolchilarni tayyorlash metodikasi va sport o'yinlari bo'yicha o'quv qo'llanmalar muallifi.
11.Yusupov N.M. Yuqori malakali futbolchi qizlarni tezkor-kuch tayyorgarligining rivojlantirish uslubini takomillashtirish: diss. … p.f.b.f.d. (PhD) / Chirchiq- 2018. – B. 4-5-36.
12.B.H. Nodirov MALAKALI FUTBOLCHI QIZLARNING O'QUV MASHG'ULOT JARAYONIDA YUKLAMALARINI ORGANIZIMGA TA'SIRINI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Research Focus, 3(9), 114-116.

RAQAMLI MEDIA FAOLIYATNING BO'LAJAK PEDAGOGLAR MEDIA-KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Davletova Xosiyat Sapavoy qizi
Urganch davlat pedagogika institute Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: davletovaxosiyat907@gmail.com
Orcid: 0009-0004-2577-7606

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo'lajak pedagoglarning media-kompetentligini rivojlantirish jarayonida raqamli media faoliyatning didaktik imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Raqamli ta'lim muhitida pedagogik faoliyatning mazmuni o'zgarib borishi natijasida bo'lajak pedagoglardan nafaqat raqamli vositalardan foydalanish, balki media-axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, baholash, qayta ishlash, yaratish va pedagogik maqsadda samarali qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lish talab etilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, maqolada raqamli media faoliyat tushunchasining mazmuni aniqlashtirilib, uning axborot-kognitiv, tanqidiy-tahliliy, kommunikativ, kreativ va refleksiv faoliyat bilan aloqador jihatlari asoslangan. Raqamli media faoliyatning interaktivlik, individuallashtirish, vizuallashtirish, hamkorlik, tezkor fikr-mulohaza va mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlash kabi didaktik imkoniyatlari tizimlashtirilgan. Shuningdek, raqamli media faoliyatni maqsadli tashkil etish orqali bo'lajak pedagoglarda media-kompetentlikning tarkibiy komponentlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlar taklif etilgan.*

Kalit so'zlar: *bo'lajak pedagog, media-kompetentlik, raqamli media, raqamli media faoliyat, raqamli ta'lim muhiti, media-axborot, didaktik imkoniyat, media savodxonlik, raqamli kompetensiya, pedagogik faoliyat.*

ВАЖНОСТЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ МЕДИА В РАЗВИТИИ МЕДИАКОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация. *В статье теоретически обоснованы дидактические возможности цифровой медиадеятельности в развитии медиакомпетентности будущих педагогов. Рассматривается содержание цифровой медиадеятельности и ее роль в формировании информационно-когнитивных, критико-аналитических, коммуникативных, творческих и рефлексивных компонентов медиакомпетентности. Систематизированы такие дидактические возможности цифровой медиадеятельности, как интерактивность, индивидуализация, визуализация, сотрудничество, оперативная обратная связь и поддержка самостоятельного обучения. Обоснована необходимость целенаправленной организации цифровой медиадеятельности в профессиональной подготовке будущих педагогов.*

Ключевые слова: *будущий педагог, медиакомпетентность, цифровая медиа, цифровая медиадеятельность, цифровая образовательная среда, медиаинформация, дидактические возможности, медиаграмотность, цифровая компетентность.*

THE IMPORTANCE OF DIGITAL MEDIA ACTIVITIES IN DEVELOPING FUTURE TEACHERS' MEDIA COMPETENCE

Abstract. *This article theoretically examines the didactic opportunities of digital media activity in developing the media competence of future teachers. The study clarifies the content of digital media activity and substantiates its role in developing the information-cognitive, critical-analytical, communicative, creative, and reflective components of media competence. The didactic opportunities of digital media activity, including interactivity, individualization, visualization, collaboration, immediate feedback, and support for independent learning, are systematized. The article emphasizes the importance of purposeful organization of digital media activity in the professional training of future teachers.*

Keywords: *future teacher, media competence, digital media, digital media activity, digital learning environment, media information, didactic opportunities, media literacy, digital competence.*

KIRISH

Bugungi ta’lim jarayonida axborotning hajmi va tarqalish tezligining ortishi pedagog shaxsiga qo‘yiladigan kasbiy talablarning mazmunini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. Zamonaviy pedagog faqat tayyor bilimlarni o‘quvchiga yetkazuvchi subyekt sifatida emas, balki turli media manbalaridan zarur axborotni topuvchi, uning ishonchliligini baholovchi, mazmunini pedagogik maqsadga muvofiq qayta ishlovchi hamda raqamli media mahsulotlarini yaratuvchi faol subyekt sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida media-kompetentlikni rivojlantirish masalasi alohida pedagogik ahamiyat kasb etmoqda[4;5].

Media-kompetentlikning shakllanishi faqat nazariy bilimlarni egallash bilan chegaralanmaydi. Talaba turli media muhitlarida amaliy faoliyat olib borishi, axborotni izlash va tanlash, media xabarlarning mazmunini tahlil qilish, manipulyativ yoki ishonchsiz axborotni aniqlash, raqamli kontent yaratish, o‘z fikrini media vositalari orqali ifodalash va yaratilgan mahsulotni baholash jarayonlarida muntazam ishtirok etishi zarur. Demak, media-kompetentlikni rivojlantirishning samaradorligi bevosita bo‘lajak pedagogning raqamli media faoliyatiga jalb etilish darajasi bilan bog‘liq[2;4].

Mazkur nuqtayi nazardan, raqamli media faoliyatni ta'lim jarayonining oddiy texnik vositasi sifatida talqin qilish yetarli emas. U bo'lajak pedagogning bilish, muloqot, ijodkorlik, hamkorlik va refleksiya jarayonlarini birlashtiruvchi didaktik faoliyat mexanizmi sifatida qaralishi lozim. Aynan mana shu jihat raqamli media faoliyatning didaktik imkoniyatlarini maxsus tadqiq etishni taqozo etadi[1;3].

METODOLOGIYA

Raqamli media faoliyatning didaktik imkoniyatlari, avvalo, ta'lim mazmunini turli formatlarda o'zlashtirish, o'quv materiallarini vizual va interaktiv shaklda taqdim etish, individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish, talabalar o'rtasida hamkorlikni tashkil etish hamda o'quv faoliyati natijalariga tezkor fikr-mulohaza berish imkoniyatlarida namoyon bo'ladi. Biroq mazkur imkoniyatlarning o'zi avtomatik ravishda media-kompetentlikni rivojlantirmaydi. Asosiy masala - raqamli media faoliyatni aniq pedagogik maqsad, topshiriq va kutilayotgan kompetensiya bilan bog'lab tashkil etishdir[1;2;6].

Shu jihatdan, raqamli media faoliyatni tashkil etishda "texnologiyadan foydalanish" va "texnologiya orqali kompetensiyani rivojlantirish" o'rtasidagi farqni ajratish muhim. Masalan, talabaning videoni shunchaki tomosha qilishi raqamli media faoliyatning minimal ko'rinishi bo'lsa, videodagi axborot manbalarini aniqlash, ularning ishonchliligini tahlil qilish, turli pozitsiyalarni taqqoslash va natijada o'zining qisqa media mahsulotini yaratishi yuqori darajadagi faoliyatni ifodalaydi. Ikkinchi holatda talaba passiv axborot iste'molchisi emas, balki media mazmunini tahlil qiluvchi va yaratuvchi subyektga aylanadi.

Shuning uchun mazkur tadqiqotning asosiy e'tibori raqamli vositalarning o'ziga emas, balki ulardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan raqamli media faoliyatning didaktik mazmuni va uning media-kompetentlik komponentlarini rivojlantirish imkoniyatlariga qaratiladi. Raqamli media faoliyatning muhim didaktik imkoniyatlaridan biri uning **interaktivlik xususiyati** bilan bog'liq. Interaktiv raqamli

muhit talabaning o‘quv materiali bilan bevosita ishlashini, savol-javob, muhokama, izlanish va amaliy topshiriqlarni bajarishini ta’minlaydi. Masalan, raqamli ta’lim platformalarida media materialni ko‘rish bilan bir qatorda unga munosabat bildirish, muammoli savollarga javob berish, boshqa talabalar fikrini tahlil qilish va o‘z nuqtayi nazarini asoslash imkoniyati mavjud[1;6].

Bunday jarayonda kommunikativ faoliyat bilan bir qatorda tanqidiy fikrlash ham rivojlanadi. Chunki talaba raqamli muhitdagi har qanday axborotni bevosita qabul qilish o‘rniga uning mazmuni, maqsadi va ishonchliligiga nisbatan o‘z munosabatini shakllantiradi.

Raqamli media faoliyatning yana bir muhim didaktik imkoniyati **axborotni tanlash va baholash faoliyatini kuchaytirish**dan iborat. Bugungi raqamli makonda axborotning ko‘pligi uning ishonchliligini avtomatik ravishda anglatmaydi. Aksincha, turli xil noto‘g‘ri, biryoqlama, manipulyativ yoki kontekstdan uzilgan axborotlarning mavjudligi bo‘lajak pedagogdan media xabarlarni tanqidiy tahlil qilishni talab qiladi[4;5].

Shu sababli ta’lim jarayonida talabaga bir nechta media manbalarini taqdim etish, ularning muallifi, maqsadi, dalillari va auditoriyasini aniqlash, o‘zaro farqlarini tahlil qilishga yo‘naltirilgan topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mazkur faoliyat natijasida talabaning media-axborotni tanlash, uning ishonchliligini aniqlash va asoslangan xulosa chiqarish qobiliyati rivojlanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Media-kompetentlikni rivojlantirishda raqamli media faoliyatning **vizuallashtirish imkoniyati** ham alohida ahamiyatga ega. Raqamli media vositalari orqali murakkab nazariy tushunchalarni grafik, infografika, animatsiya, video, diagramma va boshqa vizual shakllarda ifodalash mumkin. Bunda vizuallashtirish faqat ta’lim materialini tushunarli qilish vositasi bo‘lib qolmasdan, talabaning o‘z fikrini media shaklida ifodalash kompetensiyasini ham rivojlantiradi. Masalan, bo‘lajak pedagogga

muayyan pedagogik muammo bo‘yicha infografika yoki qisqa videodars yaratish topshirig‘ining berilishi undan axborotni izlash va saralash bilan bir qatorda mazmunni tizimlashtirish, vizual yechim tanlash va auditoriyaga mos media mahsulot yaratishni talab qiladi[1;4].

Raqamli media faoliyatning **kreativ imkoniyati** bo‘lajak pedagoglarning media-kompetentligini rivojlantirishda alohida o‘rin tutadi. Media muhitida tayyor kontentdan foydalanish bilan bir qatorda yangi media mahsulot yaratish faoliyati ham muhimdir. Raqamli taqdimot, videodars, podkast, infografika, elektron o‘quv materiali, qisqa ta’limiy video yoki interaktiv topshiriq yaratish jarayonida talaba mavjud axborotni oddiy takrorlamaydi, balki uni pedagogik maqsadga mos ravishda qayta tashkil etadi. Bu esa ijodiy fikrlash, muammoni noodatiy usulda hal qilish, mazmun va shakl o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash kabi sifatlarning rivojlanishiga olib keladi.

Raqamli media faoliyatning didaktik imkoniyatlari **hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish** orqali ham kengayadi. Bo‘lajak pedagoglarni kichik guruhlarga ajratib, muayyan media mahsulotni hamkorlikda ishlab chiqishga yo‘naltirish ularning o‘zaro fikr almashishi, vazifalarni taqsimlashi, qarorlarni kelishib qabul qilishi va umumiy natija uchun mas’uliyatni his qilishiga sharoit yaratadi. Ayniqsa, raqamli loyiha faoliyati jarayonida har bir ishtirokchining muayyan vazifani bajarishi talab qilinadi. Kimdir axborot izlaydi, boshqasi media materialni tahlil qiladi, yana biri vizual dizaynni ishlab chiqadi, boshqa ishtirokchi esa tayyor mahsulotni taqdim etadi. Shu tariqa raqamli media faoliyat individual va jamoaviy kompetensiyalarni birlashtiruvchi pedagogik vositaga aylanadi.

Raqamli media faoliyatning yana bir muhim jihati **individual ta’lim imkoniyatlarini kengaytirishi** bilan belgilanadi. Talaba raqamli resurslardan o‘zining bilim darajasi, qiziqishi va o‘rganish sur’atiga mos ravishda foydalanishi mumkin. Bir xil materialni turli formatlarda - matn, audio, video yoki vizual material ko‘rinishida o‘zlashtirish imkoniyati ta’lim jarayonini individuallashtirishga yordam beradi. Biroq bu

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

imkoniyatdan samarali foydalanish uchun talabaga shunchaki ko‘plab raqamli resurslarni taqdim etish yetarli emas. Resurslarni tanlash mezonlari, ulardan foydalanish ketma-ketligi va mustaqil faoliyat natijasini baholash mexanizmlari ham ishlab chiqilishi lozim.

Media-kompetentlikni rivojlantirishda **refleksiv faoliyat** ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bo‘lajak pedagog raqamli media mahsulot yaratgandan yoki media axborotni tahlil qilgandan so‘ng o‘z faoliyatini baholashi, yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlashi va keyingi faoliyatini takomillashtirish yo‘llarini belgilashi kerak. Shu ma’noda raqamli portfolio, o‘z-o‘zini baholash, ekspert baholash, elektron refleksiya kundaliklari va raqamli loyiha natijalarini tahlil qilish vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Refleksiv yondashuv talabaning “raqamli vositadan foydalana oldimmi?” degan savoldan “men undan pedagogik maqsadga qanchalik samarali foydalandim?” degan yuqori darajadagi savolga o‘tishini ta’minlaydi[2;6].

Shuningdek, raqamli media faoliyat bo‘lajak pedagoglarda **media-kommunikativ kompetensiyani** rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Raqamli kommunikatsiya sharoitida fikrni qisqa, aniq va auditoriyaga mos shaklda ifodalash, vizual va matnli axborotni uyg‘unlashtirish, onlayn muloqot madaniyatiga rioya qilish hamda turli kommunikativ vaziyatlarda mos media vositasini tanlash muhim kasbiy ko‘nikmaga aylanmoqda. Shu sababli ta’lim jarayonida forum, videokonferensiya, elektron munozara, onlayn loyiha himoyasi va media taqdimot kabi faoliyat shakllaridan foydalanish bo‘lajak pedagogning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiradi.

Raqamli media faoliyatning didaktik imkoniyatlarini samarali ro‘yobga chiqarishda **faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv** alohida metodologik ahamiyatga ega. Bunda talaba raqamli vositalarning oddiy foydalanuvchisi sifatida emas, balki media faoliyatning faol subyekti sifatida ishtirok etadi. Ta’lim jarayonida “axborotni toppish-tahlil qilish-baholash-qayta ishlash-media mahsulot yaratish-taqdim etish-refleksiya

qilish" izchilligiga asoslangan faoliyat tashkil etilishi media-kompetentlikning kompleks rivojlanishiga xizmat qiladi[1;2].

Mazkur jarayonda o'qituvchining roli ham o'zgaradi. U tayyor media axborotni taqdim etuvchi emas, balki talabaning media faoliyatini loyihalashtiruvchi, yo'naltiruvchi va natijalarini baholovchi pedagog sifatida faoliyat yuritadi. O'qituvchi tomonidan beriladigan topshiriqlar media vositasidan foydalanishning o'zini emas, undan foydalanish orqali qanday pedagogik natijaga erishilishini ko'zlashi zarur. Masalan, "video tayyorlang" tarzidagi topshiriq nisbatan umumiy bo'lsa, "muayyan pedagogik muammoni yorituvchi, kamida uchta ishonchli manbaga tayangan va auditoriyaning yosh xususiyatlariga mos uch daqiqalik ta'limiy video yarating" kabi topshiriq talabaning bir vaqtning o'zida axborot izlash, tahlil qilish, saralash, kreativ qayta ishlash va kommunikativ ifodalash faoliyatlarini amalga oshirishini ta'minlaydi[1;2;6].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak pedagoglarning media-kompetentligini rivojlantirish jarayonida raqamli media faoliyatdan foydalanish ta'lim mazmunini zamonaviylashtirish bilan bir qatorda, talabaning faol bilish, tahliliy, ijodiy, kommunikativ va refleksiv faoliyatini tashkil etish imkonini beruvchi muhim didaktik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Raqamli media faoliyatning pedagogik samaradorligi undan foydalanishning o'zi bilan emas, balki uning aniq ta'limiy maqsad va kompetensiyaviy natijalar bilan uzviy bog'langanligi bilan belgilanadi[2;4].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. **Ta'limda innovatsion texnologiyalar.** – Toshkent: Iste'dod, 2008.
2. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. **Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari.** – Toshkent: Sano-standart, 2015.
3. Sayfurov D.M. **Kasbiy kompetentlikni shakllantirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.** – Toshkent, 2018.
4. Федоров А.В. **Медиаобразование и медиаграмотность.** – Таганрог: Кучма, 2004.

5. UNESCO. **Media and Information Literacy: Curriculum for Teachers.** – Paris: UNESCO, 2011.

6. European Commission. **European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu.** – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

PRINCIPLES OF LINGUISTIC FOCUSING IN MODELING THE PROCESS OF STUDENTS' SPEECH DEVELOPMENT

Ilhomova Nafosat Ilhomovna
Karshi State University
A student of Doctoral degree(PhD)
E-Mail: nafosatilhomova@gmail.com

Abstract. *The modernization of educational paradigms requires innovative approaches to enhancing students'communicative competence and cognitive language acquisition. This study investigates the theoretical and practical application of linguistic focusing principles in modeling the process of students' speech development. Utilizing structural-functional modeling, comparative analysis, and experimental pedagogical techniques, the research evaluates how targeted linguistic inputs and structured focus influence lexical expansion and language mastery. The findings demonstrate that systematic linguistic focusing significantly optimizes the assimilation of complex speech patterns, enhancing both oral and written proficiency. The proposed model fosters active cognitive engagement and structural awareness, proving to be an effective pedagogical tool for advanced speech development in educational settings.*

Key words: *Linguistic focusing, speech development, educational modeling, communicative competence, cognitive linguistics, language acquisition, higher education, pedagogical innovation.*

O'QUVCHILAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINI MODELLASHTIRISHDA LINGVISTIK MARKAZLASHTIRISH TAMOYILLARI

Annotatsiya. *Ta'lim paradigmalarini modernizatsiya qilish talabalarning muloqot kompetensiyasini va kognitiv til o'zlashtirish jarayonini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlarini talab etadi. Mazkur tadqiqot talabalarning nutqini rivojlantirish jarayonini modellashtirishda lingvistik fokuslash tamoyillarining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda struktur-funksional modellashtirish, qiyosiy tahlil va eksperimental pedagogik usullardan foydalanilgan holda, maqsadli lingvistik tuzilmalarning lug'at boyligini kengaytirishga ta'siri baholandi. Olingan natijalar tizimli lingvistik fokuslash nutqiy qoliplarni o'zlashtirishni optimallashtirib, og'zaki va yozma nutq savodxonligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Taklif etilgan model faol kognitiv faoliyat va strukturaviy ongni shakllantirib, ta'lim jarayonida nutqni rivojlantirishning samarali vositasi ekanligini isbotladi.*

Kalit so'zlar: *Lingvistik fokuslash, nutqni rivojlantirish, ta'limiy modellashtirish, muloqot kompetensiyasi, kognitiv lingvistika, tilni o'zlashtirish, Oliy ta'lim, pedagogik innovatsiyalar*

ПРИНЦИПЫ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ФОКУСИРОВАНИЯ ПРИ МОДЕЛИРОВАНИИ ПРОЦЕССА РАЗВИТИЯ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. *Модернизация образовательных парадигм требует внедрения инновационных подходов к формированию коммуникативной компетенции и когнитивному освоению языка у учащихся. Исследование теоретических и практических аспектов применения принципов лингвистического фокусирования в моделировании процесса развития речи студентов. В работе использованы структурно-функциональное моделирование, сравнительный анализ и экспериментально-педагогические методы для оценки влияния целенаправленных лингвистических структур на расширение словарного запаса. Полученные данные подтверждают, что системное лингвистическое фокусирование оптимизирует усвоение речевых паттернов и существенно повышает уровень устной и письменной речи. Заключение: Разработанная модель стимулирует активную когнитивную деятельность и структурную осознанность, являясь эффективным инструментом речевого развития в учебном процессе.*

Ключевые слова: *Лингвистическое фокусирование, развитие речи, образовательное моделирование, коммуникативная компетенция, когнитивная лингвистика, усвоение языка, высшее образование, педагогические инновации.*

INTRODUCTION

и контрольную группы. В экспериментальной группе применялась специальная тренировочная методика, основанная на сочетании плиометрических, скоростно-силовых и повторных прыжковых упражнений, тогда как в контрольной группе сохранялась традиционная система тренировок. Прыгучая выносливость оценивалась с помощью тестов повторных прыжков с места, повторных прыжков с разбега, прыжков через препятствие и выносливости при выполнении нападающего удара. Полученные результаты были обработаны с использованием математико-статистических методов. По итогам исследования в экспериментальной группе выявлены положительные изменения основных показателей в пределах 14–22 %, тогда как в контрольной группе прирост составил 6–10 %. Полученные результаты свидетельствуют о том, что систематическое и поэтапное применение плиометрических упражнений является эффективным методическим средством развития прыгучей выносливости у юных волейболистов.

Ключевые слова: *волейбол, юные волейболисты, прыгучая выносливость, плиометрические упражнения, скоростно-силовая подготовка, повторные прыжки, методика тренировок, педагогический эксперимент.*

THE METHODOLOGY OF USING PLYOMETRIC EXERCISES TO DEVELOP JUMP ENDURANCE IN YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS

Tuxtaboeva Nazokat Azimjon qizi
Teacher at Namangan State Pedagogical Institute
tuhtaboevanazokat@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-9551-552X

Abstract. *This study is devoted to the scientific substantiation of a methodology for using plyometric exercises to develop jump endurance in young volleyball players and to determining its effectiveness. The study involved 30 volleyball players aged 13–14 years, who were equally divided into experimental and control groups. The experimental group followed a specialised training methodology based on a combination of plyometric, speed-strength, and repetitive jumping exercises, while the control group continued training according to the traditional programme. Jump endurance was assessed using tests of repeated jumps from a standing position, repeated jumps with an approach run, repeated hurdle jumps, and endurance during attacking hits. The obtained data were analysed using mathematical and statistical methods. The results showed positive changes in the main indicators ranging from 14% to 22% in the experimental group, whereas the control group demonstrated improvements of 6–10%. The findings indicate that the systematic and gradual application of plyometric exercises can serve as an effective methodological means of developing jump endurance in young volleyball players.*

Keywords: *volleyball, young volleyball players, jump endurance, plyometric exercises, speed-strength training, repeated jumps, training methodology, pedagogical experiment.*

KIRISH

Bugungi kunda voleybol yuqori darajadagi tezkorlik, chaqqonlik, kuch, tezlik-kuch, koordinatsion qobiliyat va maxsus chidamkorlikni talab qiladigan sport turlaridan biri hisoblanadi. Musobaqa jarayonida sportchi qisqa vaqt oralig‘ida ko‘plab texnik-taktik harakatlarni yuqori shiddatda bajarishi, hujum zarbasini amalga oshirishi, blok qo‘yishi, himoyada harakatlanishi va ushbu faoliyatlarni takroriy ravishda bajarishi zarur. Ayniqsa, hujum zarbasi va blok qo‘yish kabi asosiy texnik harakatlarning samaradorligi bevosita sakrash qobiliyatiga bog‘liq bo‘lib, o‘yin davomida sakrash harakatlarini charchoq sharoitida ham sifatli bajarish voleybolchining maxsus jismoniy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi [1].

Voleyboldagi sakrash faoliyatining yuqori darajadagi ahamiyati xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda ham o‘z aksini topgan. Jumladan, R. Ramirez-Campillo, A. García-de-Alcaraz, H. Chaabene va hammualliflar tomonidan olib borilgan meta-tahlilda voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligida plyometrik sakrash mashg‘ulotlarining ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqotga 18 ta nazorat qilinadigan ilmiy ish va 746 nafar sportchi ma’lumotlari kiritilib, plyometrik mashg‘ulotlar squat jump, countermovement jump, drop jump hamda hujum zarbasidagi sakrash balandligi kabi ko‘rsatkichlarning yaxshilanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan [2].

Plyometrik mashqlarning voleybolchilarning sakrash imkoniyatlariga ta’siri boshqa tadqiqotlarda ham o‘rganilgan. R. Ramirez-Campillo va hammualliflarning tizimli sharh va meta-tahlilida plyometrik sakrash mashg‘ulotlari voleybolchilarning vertikal sakrash ko‘rsatkichlarini yaxshilashga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan. Mualliflar plyometrik mashqlarni sport turining o‘ziga xos harakatlari bilan uyg‘unlashtirish sportchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish uchun muhim ekanligini ta’kidlaydilar [3].

O‘zbekiston olimlari tomonidan ham voleybolchilarning sakrash qobiliyati va maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor

qaratilmoqda. Xususan, S. Tajibaev, A. Ummatov, S. Ashurkova, G. Ismoilov, Sh. Xojiyev va O. Yokubova tomonidan voleybolchilarning sakrash qobiliyatini nazorat qilish va baholashga mo'ljallangan sensor qurilma ishlab chiqilgan. Tadqiqotda sportchilarning sakrash faoliyati bilan bir qatorda yurak urish tezligi va nafas olish ko'rsatkichlari ham o'rganilib, sakrash faoliyatini tezlik-kuch va chidamlilik ko'rsatkichlari bilan bog'liq holda nazorat qilish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan [4].

O'zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan boshqa izlanishlarda ham voleybolchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi tarkibida sakrovchanlik, maxsus kuch, tezlik va chidamlilikning o'zaro bog'liqligiga e'tibor qaratilgan. Jumladan, M. Abdullayevning tadqiqotida voleybolchi qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlari tahlil qilinib, sakrovchanlik, maxsus kuch, maxsus tezlik va maxsus chidamlilik o'yin faoliyatining samaradorligini belgilovchi muhim omillar sifatida ko'rsatilgan [5].

Bu esa voleybolchilarni tayyorlash jarayonida alohida jismoniy sifatlarni emas, balki ularning o'zaro uyg'un rivojlanishini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, malakali voleybolchilarning musobaqaoldi tayyorgarligini takomillashtirishga bag'ishlangan tadqiqotlarda maxsus mashqlar majmuasidan foydalanish orqali sakrash qobiliyati, tezlik va chidamlilik ko'rsatkichlarini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatilgan [6].

Mazkur yondashuv mashg'ulot jarayonida qo'llaniladigan mashqlarni voleybolning o'ziga xos texnik-taktik faoliyatiga yaqinlashtirish va jismoniy tayyorgarlikni maxsus yo'nalishda tashkil etish zarurligini asoslaydi.

Yosh sportchilarda plyometrik mashqlardan foydalanish samaradorligi ham zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biridir. S. Yuan, Y. Chai, Z. Tan va hammualliflar tomonidan 10–19 yoshdagi o'smirlar ishtirokidagi 63 ta tadqiqot natijalari umumlashtirilib, plyometrik mashg'ulotlar sakrash, yugurish va chaqqonlik ko'rsatkichlarini yaxshilashi aniqlangan [7].

Tadqiqotchilar mashg‘ulot davomiyligi, yuklama hajmi va dastur tuzilishi olingan natijalarga ta’sir qilishi mumkinligini ta’kidlab, yosh sportchilarda plyometrik mashqlarni maqsadga muvofiq rejalashtirish zarurligini ko‘rsatganlar.

O‘smirlar jamoaviy sport turlariga oid tadqiqotlarda ham plyometrik mashg‘ulotlarning samaradorligi tasdiqlangan. 31 ta tadqiqot va 1033 nafar sportchi ma’lumotlarini qamrab olgan tizimli sharh va meta-tahlilda plyometrik mashg‘ulotlar vertikal sakrash, joyidan uzunlikka sakrash, qisqa masofaga yugurish va yo‘nalishni o‘zgartirish tezligi kabi jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini yaxshilashi aniqlangan [8].

Shu bilan birga, mualliflar sport turi, yosh, mashg‘ulot davomiyligi va yuklama xususiyatlaridagi farqlar sababli plyometrik mashqlarni muayyan sport turi va yosh guruhining xususiyatlariga moslashtirish zarurligini qayd etganlar.

13–14 yosh davri yosh sportchilarning jismoniy va harakat imkoniyatlari faol shakllanadigan bosqichlardan biri hisoblanadi. Shu sababli mazkur yoshdagi voleybolchilar bilan ishlashda mashg‘ulot yuklamalarining hajmi va shiddatini ularning yosh hamda individual xususiyatlariga mos ravishda belgilash, mashqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish va yetarli tiklanish vaqtini ta’minlash muhim metodik talab hisoblanadi. Ayniqsa, plyometrik mashqlarni qo‘llashda mashq texnikasi, takrorlanish soni, yuklama shiddati va dam olish oralig‘ini to‘g‘ri belgilash sportchilarning mashg‘ulotga moslashuvi uchun muhim ahamiyatga ega.

Shu nuqtayi nazardan, sakrovchanlik va sakrash chidamkorligi tushunchalarini farqlash muhimdir. Sakrovchanlik sportchining qisqa muddatda yuqori kuch va tezlik namoyon qilib, yuqoriga yoki oldinga samarali sakrash qobiliyatini ifodalasa, sakrash chidamkorligi takroriy sakrashlarni ma’lum vaqt davomida, charchoq ortib borayotgan sharoitda ham yetarli samaradorlik bilan bajarish imkoniyatini anglatadi. Voleybol musobaqalarida esa sportchi bir martalik yuqori sakrash bilan cheklanib qolmaydi, balki hujum, blok, himoya va boshqa o‘yin harakatlari davomida sakrashlarni qayta-qayta

bajaradi. Shu sababli yosh voleybolchilarning tayyorgarligida maksimal sakrash balandligini oshirish bilan bir qatorda takroriy sakrashlarni bajarish barqarorligini rivojlantirish ham muhimdir.

Mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, plyometrik mashqlarning voleybolchilarning sakrash balandligi, portlovchi kuchi, tezligi va chaqqonligiga ta’siri yetarlicha o‘rganilgan [2; 3; 7; 8].

O‘zbekistonlik olimlarning tadqiqotlarida esa voleybolchilarning sakrash faoliyatini nazorat qilish, maxsus jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini baholash va mashg‘ulot jarayonini takomillashtirish masalalari yoritilgan [4–6].

Biroq 13–14 yoshli voleybolchilarda plyometrik mashqlarni aynan takroriy sakrashlarni charchoq sharoitida samarali bajarish qobiliyatini, ya’ni sakrash chidamkorligini rivojlantirishga yo‘naltirish masalasi alohida metodik yondashuvni talab etadi.

Shundan kelib chiqib, yosh voleybolchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi jarayonida plyometrik mashqlarni kuch-tezlik va takroriy sakrash mashqlari bilan uyg‘unlashtirish, yuklama hajmi va shiddatini bosqichma-bosqich oshirish hamda mashqlar oralig‘idagi tiklanish jarayonlarini hisobga olish asosida mashg‘ulot metodikasini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Bunday yondashuv sportchilarning nafaqat bir martalik sakrash imkoniyatlarini, balki takroriy sakrash faoliyatining barqarorligini ham rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqotning maqsadi: 13–14 yoshli voleybolchilarda sakrash chidamkorligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan plyometrik mashqlardan foydalanish metodikasini ilmiy jihatdan asoslash va uning samaradorligini pedagogik tajriba asosida aniqlash.

Tadqiqot metodlari: Tadqiqotda 13–14 yoshli 30 nafar voleybolchi ishtirok etib, ular tajriba va nazorat guruhlariga ajratilgan. Tajriba guruhida plyometrik, kuch-tezlik va takroriy sakrash mashqlari qo‘llanilgan, nazorat guruhida esa an’anaviy mashg‘ulotlar davom ettirilgan.

Sakrash chidamkorligi joyidan turib, yugurib kelib va to‘siqlar ustidan takroriy sakrash, shuningdek, hujum zarbasida to‘p yo‘qotishlar soni orqali baholangan. Natijalar tajriba boshida va yakunida taqqoslanib, o‘rtacha qiymat, absolyut va nisbiy o‘sish hamda Student t-mezoni yordamida statistik tahlil qilingan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

13–14 yoshli voleybolchilarda sakrash chidamkorligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan plyometrik mashqlardan foydalanish metodikasining natijadorligini aniqlash maqsadida tajriba va nazorat guruhlarining boshlang‘ich hamda yakuniy ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot davomida barcha nazorat testlari bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgan bo‘lsa-da, tajriba guruhidagi o‘sish ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq bo‘ldi.

1-jadval

13–14 yoshli voleybolchilarning tajriba va nazorat guruhlarida sakrash chidamkorligi ko‘rsatkichlarining o‘zgarish dinamikasi (n = 15)

№	Nazorat testi	Guruh	TB ($\bar{x} \pm \sigma$)	TO ($\bar{x} \pm \sigma$)	A O‘	N O‘ %	t	P
1	Joyidan ikki oyoq bilan “optimal” balandlikka takroriy sakrash (marta)	TG	21,67 ± 2,58	25,40 ± 3,25	+3,73	+14,70	3,15	0,001
		NG	21,20 ± 2,08	23,07 ± 2,31	+1,87	+8,09	2,21	0,01

2	Yugurib kelib "maksimal" balandlikdan 10 sm past chiziqqa takroriy sakrash (marta)	TG	18,20 ± 2,48	21,40 ± 2,35	+3,20	+14,95	3,72	0,001
		NG	17,73 ± 2,22	19,13 ± 2,64	+1,40	+7,32	1,45	0,05
3	To'siq orqali takroriy sakrash (marta)	TG	25,20 ± 3,45	30,13 ± 4,21	+4,93	+16,37	3,21	0,001
		NG	25,20 ± 3,45	27,47 ± 3,78	+2,27	+8,25	1,64	0,05
4	Hujum zarbasi chidamkorligi (to'p yo'qotish soni)	TG	9,87 ± 1,77	8,07 ± 1,16	−1,80	−22,31	4,24	0,001
		NG	9,87 ± 1,30	8,87 ± 1,30	−1,00	−11,28	2,10	0,02

Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, joyidan ikki oyoq bilan optimal balandlikka takroriy sakrash testida tajriba guruhining o'rtacha natijasi 21,67 ± 2,58 martadan 25,40 ± 3,25 martagacha oshgan. Absolyut o'sish 3,73 martani, nisbiy o'sish esa 14,70 %ni tashkil etdi (t = 3,15; P = 0,001). Nazorat guruhida esa mazkur ko'rsatkich 21,20

± 2,08 martadan 23,07 ± 2,31 martagacha o‘zgarib, 1,87 martalik yoki 8,09 %lik o‘sish qayd etildi (t = 2,21; P = 0,01).

Mazkur natijalar tajriba guruhida qo‘llanilgan plyometrik va intervalli sakrash mashqlarining takroriy sakrash vaqtida charchoqqa bardoshlilikni oshirish hamda kuch ishlab chiqarish qobiliyatini barqaror saqlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini anglatadi.

Yugurib kelib maksimal balandlikdan 10 sm past chiziqqa takroriy sakrash testida tajriba guruhida natijalar 18,20 ± 2,48 martadan 21,40 ± 2,35 martagacha oshib, nisbiy o‘sish 14,95 %ni tashkil etdi (t = 3,72; P = 0,001). Nazorat guruhida esa o‘sish 17,73 ± 2,22 martadan 19,13 ± 2,64 martagacha bo‘lib, 7,32 %ni tashkil etdi (t = 1,45; P = 0,05).


Ushbu o‘zgarishlar tajriba guruhida yuqori intensivlikdagi sakrashlarni ketma-ket bajarish qobiliyati yaxshilanganini ko‘rsatadi. Bunda plyometrik mashqlar orqali mushaklarning reaktiv kuch imkoniyatlarini takomillashtirish va sakrashlar orasidagi harakat samaradorligini saqlab qolishga erishilgan.

To‘siq orqali takroriy sakrash testida ham tajriba guruhida sezilarli o‘sish kuzatildi. Ko‘rsatkich 25,20 ± 3,45 martadan 30,13 ± 4,21 martagacha oshib, absolyut o‘sish 4,93 martani, nisbiy o‘sish esa 16,37 %ni tashkil etdi (t = 3,21; P = 0,001). Nazorat guruhida mazkur ko‘rsatkich 25,20 ± 3,45 martadan 27,47 ± 3,78 martagacha oshib, 8,25 %lik o‘sish qayd etildi (t = 1,64; P = 0,05).

Bu natija tajriba metodikasida qo‘llanilgan mashqlar sportchilarning sakrashlar orasidagi amortizatsiya bosqichini samaraliroq bajarishi, dinamik barqarorlikni saqlashi va reaktiv kuchdan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilaganini ko‘rsatadi.

Hujum zarbasi chidamkorligi testida natijani baholash mezoni to‘p yo‘qotishlar soni bo‘lganligi sababli, ko‘rsatkichning kamayishi ijobiy natija sifatida talqin qilinadi. Tajriba guruhida to‘p yo‘qotishlar soni 9,87 ± 1,77 tadan 8,07 ± 1,16 tagacha kamayib, absolyut farq 1,80 tani, nisbiy o‘zgarish esa 22,31 %ni tashkil etdi (t = 4,24; P = 0,001). Nazorat guruhida esa mazkur ko‘rsatkich 9,87 ± 1,30 tadan 8,87 ± 1,30 tagacha kamayib, 11,28 %lik yaxshilanish qayd etildi (t = 2,10; P = 0,02).

Shunday qilib, hujum zarbasi chidamkorligi bo‘yicha kuzatilgan natijalar tajriba guruhidagi sportchilarning charchash sharoitida ham hujum harakatlarini muvofiqlashtirish, texnik aniqlikni saqlash va harakatlar barqarorligini ta’minlash qobiliyati yaxshilanganini ko‘rsatadi.



1-rasm. Tajriba va nazorat guruhlarida sakrash chidamkorligi ko‘rsatkichlarining nisbiy o‘zgarishi (%)

Umuman olganda, tajriba guruhida barcha nazorat testlari bo‘yicha o‘sish ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga qaraganda yuqori bo‘ldi. Ayniqsa, tajriba guruhida joyidan takroriy sakrash bo‘yicha 14,70 %, yugurib kelib takroriy sakrashda 14,95 %, to‘siq orqali takroriy sakrashda 16,37 % va hujum zarbasi chidamkorligida to‘p yo‘qotishlar soni bo‘yicha 22,31 % ijobiy o‘zgarish qayd etildi.

Olingan natijalar plyometrik, kuch-tezlik va takroriy sakrash mashqlarining izchil uyg‘unlashtirilishi yosh voleybolchilarda sakrash chidamkorligining turli tarkibiy jihatlarini rivojlantirishga xizmat qilganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, natijalarning statistik ishonchliligi tajriba metodikasining amaliy ahamiyatini asoslashga imkon beradi.

Diagramma ma’lumotlariga ko‘ra, tajriba guruhida sakrash chidamkorligining barcha nazorat ko‘rsatkichlari bo‘yicha nisbiy o‘zgarishlar nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo‘lgan. Joyidan ikki oyoq bilan “optimal” balandlikka takroriy sakrash testida

tajriba guruhida 14,70 %, nazorat guruhida 8,09 %; yugurib kelib "maksimal" balandlikdan 10 sm past chiziqqa takroriy sakrash testida mos ravishda 14,95 % va 7,32 %; to'siq orqali takroriy sakrashda 16,37 % va 8,25 % nisbiy o'zgarish qayd etildi. Hujum zarbasi chidamkorligi testida esa to'p yo'qotishlar soni tajriba guruhida 22,31 %, nazorat guruhida 11,28 % ga kamaydi.

XULOSA

O'tkazilgan pedagogik tajriba va qiyosiy-statistik tahlil natijalari yosh voleybolchilarda sakrash chidamkorligini rivojlantirishda plyometrik mashqlardan foydalanish metodikasining samarali ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida tajriba va nazorat guruhlarining sakrash chidamkorligi ko'rsatkichlari dinamikasi tahlil qilinib, tajriba guruhida barcha nazorat testlari bo'yicha ijobiy o'zgarishlar qayd etildi.

Tajriba guruhi sportchilarida joyidan ikki oyoq bilan takroriy sakrash, yugurib kelib takroriy sakrash hamda to'siq orqali takroriy sakrash ko'rsatkichlari mos ravishda 14,70 %, 14,95 % va 16,37 % ga yaxshilandi. Hujum zarbasi chidamkorligi testida esa to'p yo'qotishlar sonining 22,31 % ga kamayishi kuzatildi. Mazkur natijalar plyometrik mashqlarni kuch-tezlik va takroriy sakrash mashqlari bilan uyg'unlashtirish sakrash chidamkorligining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini ko'rsatadi.

Nazorat guruhida esa tegishli ko'rsatkichlarning o'sishi 6–10 % oralig'ida bo'lib, tajriba guruhiga nisbatan pastroq natijalar qayd etildi. Bu holat an'anaviy mashg'ulotlar bilan bir qatorda sakrash chidamkorligini rivojlantirishga maxsus yo'naltirilgan plyometrik mashqlarni qo'llashning ahamiyatini ko'rsatadi.

Shunday qilib, yosh voleybolchilarning mashg'ulot jarayonida plyometrik mashqlarni bosqichma-bosqich va maqsadli ravishda qo'llash sakrash chidamkorligini rivojlantirishning samarali metodik vositasi sifatida tavsiya etilishi mumkin. Mazkur metodikani yosh voleybolchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi jarayonida qo'llash ularning takroriy sakrash faoliyati va hujum harakatlaridagi barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Матвеев Л. П. Теория и методика физической культуры: учебник для вузов. — М.: Физкультура и спорт, 1991. — 543 с.

2. Платонов В. Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте: общая теория и её практические приложения. — К.: Олимпийская литература, 2004. — 808 с.

3. Бальсевич В. К. Физическая культура для всех и для каждого. — М.: Физкультура и спорт, 2000. — 256 с.

4. Волков Л. В., Филин В. П. Теория и методика детского и юношеского спорта. — М.: Физкультура и спорт, 1983. — 368 с.

5. Смолевский В. М., Гавердовский Ю. К. Спортивная гимнастика: учебник для институтов физической культуры. — М.: Советский спорт, 2008. — 384 с.

6. Абдуллаев А. Жисмоний маданият назарияси ва методикаси. I жилд. — Тошкент: Наврўз, 2017. — 420 б.

7. Tuxtaboyeva N. A. qizi. 15–16 yoshli voleybolchilarni ish qobiliyatining sakrovchanlik komponentini shakllanish dinamikasi // Ta'lim va taraqqiyot. — 2025. — № 2. — URL: https://journal.namspi.uz/articleview/107

8. Mamajonov D., Tukhtaboeva N., Izatulayev A. Effects of plyometric training on jump biomechanics, explosive strength, and jump endurance in adolescent volleyball players aged 13–14 years // Physiologia. — 2026. — Vol. 6, No. 2. — P. 34.

UO'K: 316.752

O'QUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASHNING SAMARALI SHAKL, METOD VA VOSITALARI

Boymirzayev Azizbek Karimjanovich
University of business and science mustaqil izlanuvchisi
E-mail: azizbekboymirzayev525@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati, samarali shakl, metod va vositalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Shuningdek, yosh avlodda milliy o'zlikni anglash, Vatanga muhabbat, milliy merosga hurmat, ma'naviy-axloqiy fazilatlar va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat tuyg'ularini shakllantirishda ta'lim-tarbiya jarayonining imkoniyatlari yoritiladi. O'quv mashg'ulotlari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, milliy urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi namunalari, tarixiy meros hamda interfaol pedagogik metodlardan foydalanishning tarbiyaviy samaradorligiga alohida e'tibor qaratiladi. Milliy qadriyatlarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning ma'naviy kamolotini ta'minlash va ularda ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-uslubiy yondashuvlar asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *Milliy qadriyatlar, o'quvchilar tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy tarbiya, milliy o'zlikni anglash, pedagogik metodlar, tarbiya shakllari, tarbiya vositalari, xalq og'zaki ijodi, milliy meros, vatanparvarlik, umuminsoniy qadriyatlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar.*

EFFECTIVE FORMS, METHODS, AND MEANS OF EDUCATING STUDENTS BASED ON NATIONAL VALUES

Boymirzayev Azizbek Karimjanovich
Independent Researcher at the University of Business and Science
E-mail: azizbekboymirzayev525@gmail.com

Abstract. *This article examines the pedagogical significance, effective forms, methods, and means of educating students based on national values. It explores the potential of educational and upbringing processes to foster national identity, love for the homeland, respect for national heritage, moral and ethical qualities, and commitment to universal human values among the younger generation. Particular attention is paid to the educational potential of classroom activities, spiritual and educational events, national traditions and customs, examples of oral folk literature, historical heritage, and interactive teaching methods. The article substantiates pedagogical and methodological approaches to promoting students' spiritual development and strengthening their sense of social responsibility by integrating national values with contemporary educational approaches.*

Keywords: *National values, student education, moral and ethical education, national identity, pedagogical methods, forms of education, educational tools, oral folk literature, national heritage, patriotism, universal human values, innovative pedagogical technologies.*

ЭФФЕКТИВНЫЕ ФОРМЫ, МЕТОДЫ И СРЕДСТВА ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Боймирзаев Азизбек Каримжанович
Независимый исследователь Университета бизнеса и науки
Э-почта: azizbekboymirzayev525@gmail.com

Аннотация. *В статье рассматриваются педагогическое значение, эффективные формы, методы и средства воспитания учащихся на основе национальных ценностей. Анализируются возможности образовательного и воспитательного процесса в формировании у подрастающего поколения национального самосознания, любви к Родине, уважения к национальному наследию, духовно-нравственных качеств и приверженности общечеловеческим ценностям. Особое внимание уделяется воспитательному потенциалу учебных занятий, духовно-просветительских мероприятий, национальных традиций и обычаев, произведений устного народного творчества, исторического наследия и интерактивных педагогических методов. Обосновываются научно-методические подходы к развитию духовной культуры учащихся и формированию у них чувства социальной ответственности посредством интеграции национальных ценностей с современными педагогическими подходами.*

Ключевые слова: *Национальные ценности, воспитание учащихся, духовно-нравственное воспитание, национальное самосознание, педагогические методы, формы воспитания, средства воспитания, устное народное творчество, национальное наследие, патриотизм, общечеловеческие ценности, инновационные педагогические технологии.*

KIRISH

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirish hamda kelajak avlod yoshlarini tashabbuskor, millat taqdiri uchun qayg‘uradigan, vatanparvar, yuksak ahloqiy-ma’naviyatli, barkamol, jismonan sog‘lom qilib kamolga yetkazish, ularning kasbiy-ahloqiy, ma’naviy-tarbiyaviy sifatlarini uyg‘unlikda rivojlantirish borasida tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Chunki, mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimining muntazam takomillashib borishi o‘quvchilarda milliy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirish jarayonining

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

samaradorligini ta'minlaydigan muhim omillardan biridir. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida yosh avlod tarbiyasi masalasiga to'xtalar ekan: *"yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz"* degan ushbu murojaati mazmunida asosiy vazifa sifatida yoshlarni ma'naviy barkamol shaxs sifatida kamol toptirish hamda ularni milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash o'z aksini topadi. Hukumatimiz tomonidan milliy qadriyatlarga e'tibor jamiyat taraqqiyotiga mos ravishda rivojlanib bormoqda. Yuqorida ta'kidlanganidek, o'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash hamda sog'lom jamiyatni barpo etish bo'yicha respublikamizda juda katta islohatlar, amaliy chora- tadbirlar amalga oshirilmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Pedagogikada tarbiya shakli deganda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish usuli, o'quvchilar bilan o'zaro pedagogik hamkorlikni amalga oshirishning tashkiliy ko'rinishi tushuniladi. O'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash shakllarini shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

- individual shakllar**;**
- guruhiy shakllar**;**
- ommaviy shakllar**.**

Mazkur shakllar bir-birini to'ldiradi va yagona tarbiyaviy tizim doirasida qo'llanilganda yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Individual tarbiya shakllari. Individual shakllar o'quvchining shaxsiy xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi. O'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi individual suhbat ham milliy qadriyatlarning shaxsiy hayotdagi o'rnini anglashga yordam beradi. Masalan, o'qituvchi o'quvchi bilan quyidagi mavzularda suhbat tashkil qilishi mumkin:

- "Men uchun Vatan nima?"

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

- “Oilamizning qadriyatlari”
- “Ajdodlarimizdan qanday ibrat olamiz?”
- “O‘zbek tiliga hurmat”
- “Kattalarga hurmat – xalqimiz qadriyati” kabilar.

Individual topshiriqlar. O‘quvchiga o‘z oilasi yoki mahallasidagi qadriyatlarni o‘rganish topshirig‘i beriladi. Bunda “Oilamizda avloddan avlodga o‘tib kelayotgan an’analar” mavzusida kichik tadqiqot tayyorlash mumkin. Bunday topshiriqlar o‘quvchini tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qiladi. Shuningdek, qo‘shimcha sifatida ijodiy ishlarga yo‘naltiriladi, Insho, esse, rasm, hikoya, she’r, videolavha va taqdimotlar orqali o‘quvchi milliy qadriyatlarga nisbatan o‘z munosabatini ifodalaydi.

Guruhiy tarbiya shakllari. Guruhiy shakllar o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish bilan birga, jamoaviy qadriyatlarni shakllantirishga yordam beradi. Bunda davra suhbatlari orqali amalga oshiriladi, yani, “Milliy qadriyatlar va zamonaviy yoshlar”, “Oila – muqaddas maskan”, “Ajdodlar merosi – ma’naviy boyligimiz” kabi mavzularda davra suhbatlari tashkil etish mumkin. Davra suhbatining afzalligi shundaki, o‘quvchilar tayyor xulosani qabul qilish bilan cheklanmay, o‘z fikrlarini mustaqil ifodalaydi. Muammoli savollar asosida munozara tashkil etish o‘quvchilarning tanqidiy va mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Masalan: “Milliy qadriyatlarni saqlash va zamonaviy hayot talablari o‘rtasida qanday uyg‘unlik bo‘lishi kerak?” O‘quvchilar turli pozitsiyalarni asoslash orqali qadriyatlarning mazmunini chuqurroq anglaydilar.

O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, quyidagi Mahallamiz tarixi”, “Oilamiz shajarasi”, “Ajdodlarimiz izidan”, “Milliy hunarmandchilik”, “Mahalliy tarixiy obidalar”, “Milliy taomlarimiz tarixi”, “O‘zbek xalq maqollarida tarbiya kabi rini taqdimot, ko‘rgazma yoki videolavha shaklida namoyish etadilar.

Milliy urf-odatlar, tarixiy voqealar yoki hayotiy vaziyatlar asosida sahnalashtirish o‘quvchilarning emotsional ishtirokini kuchaytiradi.

Ommaviy tarbiya shakllari. Ommaviy shakllar ko‘p sonli o‘quvchilarni qamrab oladi va maktab jamoasida umumiy ma’naviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Quyidagi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish mumkin: “Qadriyatlar – millat ko‘zgusi”, “Ajdodlar merosi – kelajak poydevori”, “Vatan – muqaddas maskan”, “Ona tilim – milliy iftixorim”, “Milliy liboslar kuni”, “Kitob – ma’naviyat manbai” kabilar. Bunda tadbirning faqat tomosha ko‘rinishida qolib ketmasligi muhim. O‘quvchilarni tadbirni rejalashtirish, tashkil etish va yakunlash jarayoniga faol jalb etish zarur. O‘quvchilarning tarixiy-madaniy meros bilan bevosita tanishishi ularda tarixiy xotira va madaniy merosga hurmatni rivojlantiradi. Ekskursiyadan oldin o‘quvchilarga tayyorgarlik topshiriqlari beriladi, ekskursiyadan so‘ng esa taassurotlar muhokamasi tashkil etiladi.

Milliy qadriyatlar faqat bilim sifatida emas, kundalik xulq-atvorda namoyon bo‘lishi kerak. Shu sababli o‘quvchilarga qadriyatlarni amaliy faoliyatda qo‘llashga imkon beradigan mashqlar beriladi. Misol uchun kattalarga salom berish, jamoat joyida odob qoidalariga rioya qilish, kichiklarga yordam berish, maktab mulkiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, ota-onaga amaliy yordam ko‘rsatish, jamoaviy ishda faol ishtirok etish kabilar. Bu esa, muntazam takrorlash natijasida ijobiy xulq-atvor va odatga aylanishi mumkin.

Muammoli vaziyat usuli. O‘quvchiga real hayotga yaqin muammoli vaziyat taqdim etiladi va u mustaqil qaror qabul qilishga undaladi. “Siz jamoat transportida keksa kishini ko‘rdingiz, ammo barcha o‘rindiqlar band. Siz qanday yo‘l tutasiz?” O‘quvchilar o‘z qarorlarini asoslaydilar. Bu usul orqali hurmat, mehr-oqibat, mas’uliyat, insonparvarlik, odob kabi qadriyatlar amaliy vaziyat orqali o‘zlashtiriladi. Munozara o‘quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantiriladi. Uni quyidagi mavzularda munozara tashkil etiladi: “Milliy qadriyat va zamonaviylik”, “An’analarni saqlashning ahamiyati”, “Yoshlar hayotida oilaviy qadriyatlarning o‘rni”, “Milliy til va milliy o‘zlik”, “Ajdodlar merosidan qanday foydalanishimiz kerak?” Munozara

jarayonida o‘quvchi o‘z fikrini dalillar bilan asoslash va boshqa fikrlarni hurmat qilishni o‘rganadi.

Rolli o‘yin usuli. Rolli o‘yin o‘quvchilarni turli ijtimoiy vaziyatlarga kiritish orqali qadriyatlarni amaliy ravishda his qilishga yordam beradi. Masalan, “Mehmon kutish”, “Kattalarga hurmat”, “Mahalla yig‘ini”, “Oiladagi muomala” kabi vaziyatlar sahnalashtirilishi mumkin. O‘quvchi muayyan rolni bajarish orqali vaziyatga boshqa inson nuqtayi nazaridan qarashni o‘rganadi.

Rag‘batlantirish usuli. O‘quvchining milliy qadriyatlarga mos xatti-harakatlarini ijobiy baholash uning motivatsiyasini kuchaytiradi. Rag‘batlantirish usullari: og‘zaki maqtov, tashakkur bildirish, sertifikat, faxriy yorliq, jamoa oldida e’tirof etish, ota-onaga ijobiy tavsif berish kabilar kiradi. Rag‘batlantirish adolatli, o‘z vaqtida va o‘quvchining real harakatiga asoslangan bo‘lishi kerak.

Tadqiqotimiz davomida milliy identiklik tushunchasini ham o‘quvchilarda shakllantirish masalasiga alohida urg‘u berdik. Turli madaniyatlar, g‘oyalar va axborotlarning keng sharoitida o‘quvchilarda o‘z milliy o‘zligini anglash, tarixiy va madaniy merosga hurmat, Vatanga daxldorlik hamda fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Milliy identiklik insonning o‘zini muayyan millat, xalq va madaniyatga mansub deb anglashi bilan bog‘liq. Bunda ona tili, tarix, milliy an’analar, urf-odatlar, qadriyatlar, madaniy meros va umumiy tarixiy xotira muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, milliy o‘zlikni anglash boshqa xalqlarga nisbatan hurmatsizlik yoki ajralib qolishni emas, balki o‘z madaniyatini anglagan holda boshqa xalqlar madaniyatiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni nazarda tutadi.

Shu o‘rinda o‘quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash omillari va shartlariga aniqlik kiritish maqsadga muvofiq. O‘quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning asosiy tarbiyaviy omillarida oiladagi tarbiyaviy o‘gitlar, o‘zidan kattalarini hurmat, kichiklarga izzatda bo‘lish, milliy va diniy bayramlarda yoshi

ulug‘lar holidan xabar olish kabi tarbiyaviy amallarni bajarish ham alohida ahamiyat kasb etadi (*1-jadval*).

2.1.1-jadval

O‘quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash omillari

O‘quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash omillari	
O‘tmish tarixi va merosi bilan bog‘liq milliy qadriyatlar	Mamlakat taraqqiyotiga xissa qo‘shish bilan bog‘liq milliy qadriyatlar
Dars mashg‘ulotlarida milliy davlatchilik tarixini singdirib borish	o‘z Vatanining xalqaro ijtimoiy taraqqiyotda tutgan o‘rnini bilishi
milliy mustaqillik uchun kurash olib borgan milliy qahramonlar faoliyatini keng miqyosda ko’rgazmali materillardan foydalangan holda o‘quvchilarga yetkazish	o‘z Vatanining xalqaro hamjamiyatdagi mavqeyini ko‘tarishga intilish xissi bilan faoliyat yuritishi
dars mashg’ulotlarida o’quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda samarali innovatsion usullardan foydalanish	o‘z Vatanining xalqaro ijtimoiy taraqqiyotdagi milliy manfaatlarini anglab yetganligi
ilm-fan rivojiga katta xissa qo‘shgan buyuk mutafakkir allomalarning ilmiy merosini o’quvchilarga yetkazish	o‘z Vatanining taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy rivojlanish, o‘zi yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi harakatlarni tushunib yetishi
mamlaktimiz boy tariximizni aks ettiruvchi tarixiy obidalar haqidagi ma’lumotlarni yetkazish	millatning tarixi, yashash tarzi, ma’naviyati, madaniyati bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladigan qadriyatlarni bilishi.

Tarbiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning pedagogik ta’sir omillariga: xalqimizning boy, milliy, madaniy, tarixiy an’analari, urf-odatlari va umuminsoniy qadriyatlariga sodiqlik ruhining tarkib topishi, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashga yo‘naltirilgan innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi, o‘quvchilarga milliy qadriyatlarni singdirish orqali keng jamoatchilik kuchi va tajribasiga tayanib ish olib boriladi. Shuningdek, tarbiya darslarida o‘quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning muhim pedagogik shartlari quyidagilar hisoblanadi:

o‘quvchilar ongiga o‘zligimiz, ajdodlardan bizgacha yetib kelgan a’nalarimizni anglash tuyg‘ularini hamda millatimizning uzoq asrlar davomida shakllangan ezgu fazilatlarini singdirish;

o‘quvchilarda xalqimizni eng yuksak maqsadlar sari yetaklaydigan milliy mafkuraga sadoqat ruhini singdirish;

o‘quvchilarni vatanimiz ravnaqiga xissa qo‘shadigan barkamol shaxslar bo‘lib yetishishlarini ta’minlash;

o‘quvchilarni buyuk ajdodlarimizning ilmiy-pedagogik merosiga hurmat ruhida tarbiyalash, ularga munosib voris bo‘lishlariga zamin yaratish kabilar.

Tarbiya darslarida o‘quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash jarayoni jamiyatning kelajakdagi barqaror taraqqiyoti, ma’naviy darajasining yuksalishi hamda yuksak insoniy fazilatlarning shakllanishiga yordam beradi. Milliy qadriyatlarning o‘quvchilar ongiga singdirilishi avlodlar o‘rtasidagi tarixiy xotirani asrash, milliy madaniyatni davom ettirish hamda xalqning qadimiy an’ana va urf-odatlarini o‘rganishga yordam beradi.

Bunday tarbiya jamiyatni yanada mustahkamlashga xizmat qilib, yosh avlodda o‘z millatining boy ma’naviy merosiga sadoqat, tarixga hurmat, vatanparvarlik, shuningdek, halollik, to‘g‘rilik kabi axloqiy fazilatlarni shakllantiradi. Zero, tarbiya fanida berilgan mavzular asosida bolalarda vatanparvarlik, donolik, rostgo‘ylik,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

insonparvarlik, botirlik, qahramonlik kabi xususiyatlar shakllanib boradi. Bolalarni individual psixologik va pedagogik xususiyatlaridan kelib chiqib, o‘quvchilarda milliy qadriyatlarni rivojlantirish muhimdir.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, dono xalqimizning buyuk tarixi, betakror qadriyatlariga sodiqlik , milliy qadriyatlarga oid boy ma’naviy merosdan foydalanish, muqaddas manbalarda keltirilgan ma’naviy-ma’rifiy o‘gitlar orqali o‘quvchilar ongida ruhiy poklik, e’tiqod tushunchalarini shakllantirish) vazifalarni amalga oshirish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Boymirzayev A.K. Boshlang‘ich ta’limda STEAM texnologiyalari. Darslik. «Sunrise-pro» nashriyoti. ISBN:978-9910-235-05-4. –Namangan, 2025. -b. 292

2. Boymirzayev A.K. Umumta’lim maktablarida o‘quvchi-yoshlar tarbiyasini tashkil etish va tarbiya fanini o‘qitishning huquqiy-nazariy asoslari // “Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal, 7-soni. ISSN 2181-6883. -Buxoro, 2025. -b. 203-206

3. Nazarov Q. G‘oyalar falsafasi. Tajribaviy qo‘llanma. -Toshkent: Akademiya, 2011. -b.84.

4. Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o‘quvchi shaxsini axloqiy shakllantirish: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. -T., 2000. 305 -b.

5. Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o‘quvchi shaxsini axloqiy shakllantirish: Pedagogika fanlari doktori dis. -T., 2000. 305 -b.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARIDA HARBIY XIZMATNI O‘TASH MAZMUN - MOHIYATI VA ULARGA QO‘YILGAN TALABLAR

podpolkonik ***Jozilov Azamat Avazovich***
Harbiy Havfsizlik va Mudofaa universiteti
JG‘MHO fakulteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy xizmatni o‘tash, shuningdek xizmat faoliyati oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibi lavozimlaridagi harbiy xizmatga tenglashtirilgan kontrakt bo‘yicha haqiqiy harbiy xizmatni o‘tashlari, shuningdek Qurolli Kuchlar rezervidagi fuqarolar bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi;*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston Respublikasi, harbiy xizmat, qurolli kuchlar, harbiy xizmatchilar, harbiy-kasb, harbiy texnika.*

ПРИРОДА И СУТЬ ВОЕННОЙ СЛУЖБЫ В ВООРУЖЕННЫХ СИЛАХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ПРЕДЪЯВЛЯЕМЫЕ К НЕЙ ТРЕБОВАНИЯ.

Annotatsiya: *Настоящая статья регулирует отношения, связанные с прохождением военной службы в Вооруженных Силах Республики Узбекистан, прохождением действительной военной службы по контракту лицами, чья служебная деятельность приравнена к военной службе на должностях рядового, сержантского и офицерского состава, а также гражданами, находящимися в запасе Вооруженных Сил.*

Ключевые слова: *Республики Узбекистан, военная служба, вооруженных сил, военнослужащих, военная профессия, военной техники.*

THE NATURE AND ESSENCE OF MILITARY SERVICE IN THE ARMED FORCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN, AND THE REQUIREMENTS IMPOSED THEREON

Abstract: *This article regulates relations concerning military service in the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan, the performance of active military service under contract - where such service is equated to positions held by privates, sergeants, and officers - and matters relating to citizens in the Armed Forces reserve.*

Keywords: *Republic of Uzbekistan, military service, armed forces, military personnel, military profession, military hardware.*

KIRISH

Harbiy xizmatni o‘tash quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

muddatli harbiy xizmatga chaqirish yoki kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatga kirish;

safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga olish;

harbiy lavozimga tayinlash va uni bajarish;

harbiy unvon berish;

haqiqiy harbiy xizmatdan bo‘shatish;

rezervdagi xizmatga olish;

harbiy xizmatga majburlarni iste’foga chiqarish;

O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va mazkur Nizomga, shuningdek mazkur sohadagi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq harbiy xizmatchilarning xizmat va ijtimoiy-huquqiy mavqeini belgilab beruvchi boshqa holatlar (vaziyatlar).

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilariga quyidagi talablar qo‘yiladi:

muddatli harbiy xizmatchilar egallab turgan lavozimi bo‘yicha harbiy ixtisoslikni o‘z vaqtida sifatli o‘zlashtirishi, unga ishonib topshirilgan harbiy texnika va qurol - aslaxani mukammal ishlata bilish ko‘nikmalarini egallashi, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lishi, vatanparvarona dunyoqarashi, yuksak ma’naviy-axloqiy va jismoniy sifatlarga ega bo‘lishi, harbiy burchni sidqidildan vijdonan bajarishga har doim tayyor turishi zarur;

oddiy askarlar tarkibiga mansub kontrakt asosidagi harbiy xizmatchilar muddatli harbiy xizmatchilarga taalluqli bo‘lgan sifatlarni egallash bilan bir qatorda, harbiy kasbni chuqur o‘zlashtirishi, o‘zaro harbiy kasbiga bog‘liq mutaxassisliklarni muntazzam o‘rganib borishi, vaziyatning turli sharoitlarida jangovar va xizmat vazifalarini bajarish vaqtida unga ishonib topshirilgan qurol - aslaxa va harbiy texnikani moxirona qo‘llashning mustahkam ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim;

serjantlar tarkibiga mansub kontrakt asosidagi harbiy xizmatchilar ma’nan yetuk, harbiy burchni har qanday sharoitda ham bajarishga ruhan tayyor bo‘lishi, o‘z harbiy kasbini mukammal bilishi, qurol-aslaha va harbiy texnikani mohirona qo‘llay olishi

hamda uni saqlash va undan foydalanishda ehtiyotkor bo‘lishi kerak. Ularga bo‘linmalarda yuksak jangovar ruh, sog‘lom ma’naviy-ruhiy muhit yaratish, bo‘ysunuvchilarda Vatanga sodiqlik va vatanparvarlik hislarini doimiy ravishda tarbiyalab borish, ularga harbiy ixtisosliklar va zaruriy ko‘nikmalarni hosil qilish vazifalari yuklatiladi;

ofitserlar tarkibiga mansub kontrakt asosidagi harbiy xizmatchilar professional tayyorgarlikka ega komandir (rahbar), harbiy bo‘linmalarga mohirona komandirlik (rahbarlik) qilish, murakkab vaziyatlarga zudlik bilan moslashish va mustaqil harakat qilish, o‘z vaqtida nostandart qarorlarni qabul qilish hamda, o‘zining shaxsiy namunasi bilan bo‘ysunuvchilarni jangovar va xizmat vazifalarini hal etishga yo‘naltira olishga qodir, harbiy ishga oid chuqur bilimlar, yuksak ma’naviy-ruhiy sifatlar, keng dunyoqarash, yaxshi tashkilotchilik qobiliyatiga ega, unga ishonib topshirilgan harbiy texnika va qurol-aslahalardan to‘g‘ri foydalanish va ularni to‘g‘ri saqlanishini biladigan mutaxassis bo‘lishlari zarur.

MUHOKAMA

Yuqorida sanab o‘tilgan sifatlar ona vataniga xizmat qilish va o‘zini harbiy xizmatga bag‘ishlagan har bir fuqaro uchun hayotiy maqsad bo‘lib qolishi hamda, mashaqqatli mehnat asosida shakillanib borishi, nafaqat ekstremal sharoitlarda, balki tinchlik davrida kundalik xizmat davomida ham singdirilib, namoyish etilib borilishi lozim.

Ishlar tajribasi vorisiyligini ta’minlash, yosh harbiy xizmatchilarning harbiy xizmatga moslashuvi, kasbiy shakllanish va unga yuklatilgan xizmat vazifalarini mustaqil ravishda bajarish qobiliyatini rivojlantirish jarayonining tezlashishini ta’minlash maqsadida harbiy xizmatchilarga yuqori darajali kasbiy sifatlarga ega bo‘lgan, tayyorgarligi eng yaxshi harbiy xizmatchilar va Qurolli Kuchlar faxriylari orasidan murabbiylar biriktiriladi.

Murabbiylik tartibi vazirliklarning idoraviy ichki hujjatlari bilan belgilanadi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Qurolli Kuchlardagi harbiy xizmatga vatanparvarona dunyoqarash, yuqori ma'naviy-axloqiy sifatlar, zaruriy intellektual saviya, bilim doirasi keng, shuningdek jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kiradi.

Qurolli Kuchlarni kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilar bilan butlash nomzodlarni harbiy-kasbiy saralash yo'li bilan amalga oshiriladi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan shaxslar bundan mustasno.

Qurolli Kuchlarni butlash territorial va eksterritorial tamoyillar asosida amalga oshirilishi mumkin.

Territorial (eksterritorial) tamoyil bo'yicha butlanadigan bo'linmalar yoki mutaxassisliklar ro'yxati vazirliklar rahbarlari tomonidan belgilanadi.

Harbiy xizmat turlari.

"Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasida quyidagi harbiy xizmat turlari joriy etilgan:

muddatli harbiy xizmat;

safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat;

kontrakt bo'yicha harbiy xizmat;

Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o'tagan rezervchilar xizmati.

Muddatli harbiy xizmat - chaqiruv yoshidagi fuqarolarning oddiy askarlar lavozimlaridagi, shuningdek muqaddam harbiy xizmatni o'tamagan ofitserlarning O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan muddat mobaynida Qurolli Kuchlar safidagi majburiy xizmatidir.

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat - muddatli harbiy xizmatni o'tashga yaroqli hamda chaqirilish muddatini kechiktirish va chaqirilishdan ozod etilish huquqiga ega bo'lmagan, biroq Qurolli Kuchlar safiga navbatdagi muddatga chaqirilmagan shaxslar o'taydigan harbiy xizmat turidir. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini safarbarlik chaqiruvi rezerviga olish O'zbekiston Respublikasi fuqarolari

tomonidan safarbarlik chaqiruvi rezervida xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Kontrakt bo‘yicha harbiy xizmat - davlat bilan harbiy xizmat nazarda tutilgan vazirlik o‘rtasida tuziladigan kontraktga binoan ixtiyoriy ravishda Qurolli Kuchlar safidagi haqiqiy harbiy xizmatga kirgan fuqarolar o‘taydigan harbiy xizmat turidir.

Rezervchilar xizmati - Qurolli Kuchlarning qo‘shilma, harbiy qism va bo‘linmalarini urush davri shtatlariga qadar butlash, shuningdek urush davri tuzilmalarini kengaytirish maqsadida haqiqiy harbiy xizmatni hamda safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o‘tagan oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlardan bo‘lgan harbiy xizmatga majburlar uchun umumiy harbiy majburiyat asosida joriy etiladigan harbiy xizmat turidir.

Harbiy xizmatga birinchi marta yoki ixtiyoriy ravishda (kontrakt bo‘yicha) kirgan fuqarolar Vataniga, O‘zbekiston Respublikasi xalqi va Prezidentiga sodiqlik to‘g‘risida qasamyod qabul qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi” Nizomni tasdiqlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 12 sentabrdagi PQ-4447-sonli qarori. Toshkent-2019.

KASBIY-INTERPRETATIV TAFAKKUR TUSHUNCHASINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MOHIYATI VA TUZILISHI

Xayrullayeva Nigora Jamolxonovna
KIUT Namangan filiali Maktabgacha va
boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi v.b dotsenti, PhD
https://orcid.org/0009-0001-2870-6385

Annotatsiya: *Mazkur maqolada kasbiy-interpretativ tafakkur tushunchasining pedagogik-psixologik mohiyati, funksional vazifalari va tarkibiy tuzilishi nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada ushbu tafakkur turini rivojlantirishning pedagogik shartlari: muammoli-kontekstli ta'lim, kasbiy keyslar, dialogik muloqot, refleksiv yozuv, superviziya va baholashning mezonli shakllari sifatida asoslanadi. Tadqiqot natijalari pedagogika oliy ta'limida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirish, amaliyotga yo'naltirilgan topshiriqlarni loyihalash va kasbiy qarorlar sifatini oshirish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *kasbiy tafakkur, interpretatsiya, kasbiy-interpretativ tafakkur, ma'no hosil qilish, refleksiya, pedagogik kompetentlik, kasbiy vaziyat, metakognitsiya, qaror qabul qilish.*

ПЕДАГОГО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ И СТРУКТУРА ПОНЯТИЯ «ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ИНТЕРПРЕТАТИВНОЕ МЫШЛЕНИЕ»

Аннотация: *В статье теоретически раскрываются педагогико-психологическая сущность и структура профессионально-интерпретативного мышления. Интерпретация рассматривается как активная реконструкция смысла профессиональной ситуации с учётом контекста, позиций субъектов и возможных последствий решения. Обоснована интегративная модель, включающая когнитивный, смыслосодержательный, рефлексивный, коммуникативный и аксиологический компоненты.*

Ключевые слова: *профессиональное мышление, интерпретация, профессионально-интерпретационное мышление, смыслообразование, рефлексия, педагогическая компетентность, профессиональная ситуация, метапознание, принятие решений.*

THE PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL ESSENCE AND STRUCTURE OF THE CONCEPT OF PROFESSIONAL-INTERPRETATIVE THINKING

Abstract: *The article theoretically examines the pedagogical and psychological essence and structure of professional interpretive thinking. Interpretation is viewed as an active reconstruction of the meaning of a professional situation, taking into account context, stakeholders' positions and possible consequences. An integrative model consisting of cognitive, semantic, reflexive, communicative and axiological components is substantiated.*

Keywords: *professional thinking, interpretation, professional-interpretative thinking, meaning-making, reflection, pedagogical competence, professional situation, metacognition, decision-making.*

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

KIRISH

Zamonaviy kasbiy faoliyatning murakkablashuvi mutaxassisdan faqat maxsus bilim va amaliy ko‘nikmalarni emas, balki ma’lumotlar oqimida ma’no ajratish, noaniq vaziyatni tushuntirish va o‘z qarorini asoslash qobiliyatini ham talab qilmoqda. Ayniqsa pedagog, psixolog, shifokor, huquqshunos, menejer va muhandis kabi inson omili yuqori bo‘lgan kasblarda bir xil hodisa turli subyektlar tomonidan turlicha idrok qilinadi. Shu sababli kasbiy muvaffaqiyat ko‘pincha tayyor algoritmni qo‘llashga emas, balki vaziyatni to‘g‘ri talqin qilishga bog‘liq bo‘ladi.

Pedagogik jarayonda o‘quvchining sukuti, xatosi, motivatsiyasining pasayishi yoki guruhdagi ziddiyat tashqi ko‘rinishda bir xil namoyon bo‘lishi mumkin, biroq ularning psixologik sabablari turlicha bo‘ladi. Mutaxassis bu belgilarni faqat kuzatish bilan cheklanmay, ularni kasbiy kontekst, rivojlanish bosqichi, ijtimoiy munosabatlar va individual tajriba bilan bog‘lab talqin qilishi kerak. Mazkur jarayonni ifodalovchi tushuncha sifatida “kasbiy-interpretativ tafakkur”ni ajratish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Pedagogik adabiyotlarda kasbiy tafakkur, tanqidiy tafakkur, refleksiv tafakkur va kommunikativ kompetentlik alohida o‘rganilgan bo‘lsa-da, kasbiy vaziyatni ma’noli talqin qilish, alternativ izohlarni ishlab chiqish va talqinni amaliy qarorga aylantirish jarayonlari yagona konstrukt sifatida yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Mazkur maqola ana shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Kasbiy-interpretativ tafakkurning pedagogik-psixologik mohiyatini aniqlash, uning tarkibiy tuzilishini konseptual jihatdan asoslash va ta’lim jarayonida rivojlantirish shartlarini belgilash asosiy maqsad sifatida belgilab olindi. Bu maqsadga amalga oshirish uchun quyidagicha vazifalar belgilab olindi:

interpretatsiya va kasbiy tafakkur tushunchalarining o‘zaro aloqasini nazariy tahlil qilish;

kasbiy-interpretativ tafakkurning mazmuniy chegaralari va funksiyalarini aniqlash;

uning tarkibiy komponentlari, darajalari va rivojlanish mexanizmlarini model sifatida ishlab chiqish;

pedagogik ta'limda mazkur tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik shartlarni asoslash.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-analitik xarakterga ega bo'lib, IMRAD mantiqiga muvofiq muammo, metod, natija va muhokama qismlarida tashkil etildi. Metodologik asos sifatida faoliyat yondashuvi, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, konstruktivistik ta'lim nazariyasi va refleksiv yondashuv birgalikda qo'llanildi. Faoliyat yondashuvi tafakkurni subyektning muayyan vaziyatni o'zgartirishga qaratilgan faol harakati sifatida ko'rishga imkon beradi. Konstruktivistik yondashuv esa bilim tayyor shaklda berilmasligi, balki shaxs tomonidan tajriba va muloqot jarayonida mazmunan qurilishini ta'kidlaydi [1; 3].

Nazariy manbalarni tahlil qilishda quyidagi usullardan foydalanildi: konseptual tahlil, qiyosiy tahlil, kategoriyalash, umumlashtirish, modellashtirish va pedagogik-psixologik interpretatsiya. Konseptual tahlil orqali kasbiy tafakkur, refleksiya, metakognitsiya va talqin tushunchalarining umumiy hamda farqli jihatlari ajratildi. Qiyosiy tahlil turli ilmiy maktablarda tafakkur va ma'no hosil qilish jarayonlariga berilgan yondashuvlarni solishtirishga xizmat qildi. Modellashtirish asosida kasbiy-interpretativ tafakkurning komponentlari va ular o'rtasidagi funksional aloqalar ko'rsatildi.

Maqolada "kasbiy-interpretativ tafakkur" mualliflik konsepti sifatida quyidagicha operatsionallashtiriladi: bu — mutaxassisning kasbiy faoliyat jarayonida kuzatilgan belgilar, faktlar, kommunikativ xabarlar va vaziyatlar ortidagi ehtimoliy ma'nolarni kontekst asosida qayta qurishi, muqobil talqinlarni tanqidiy solishtirishi, etik

jihatdan mas'ul qaror ishlab chiqishi hamda o'z xulosalarini refleksiv nazorat qilishi bilan namoyon bo'ladigan integrativ aqliy faoliyatdir.

Mazkur ta'rifda besh asosiy belgi mavjud. Birinchisi, tafakkur kasbiy kontekst bilan chegaralanadi; ikkinchisi, u tashqi belgidan ichki ma'noga o'tishni nazarda tutadi; uchinchisi, talqin yagona taxmin emas, muqobil gipotezalarni qamrab oladi; to'rtinchisi, talqin amaliy qaror va muloqotga yo'naltiriladi; beshinchisi, mutaxassis o'z qarashining asoslanganligi va cheklovlarini nazorat qiladi. Demak, kasbiy-interpretativ tafakkur oddiy "tushunish"dan ko'ra yuqori darajadagi ma'no hosil qiluvchi, refleksiv va mas'uliyatli faoliyatdir.

Tadqiqotning ilmiy mantiqi "vaziyatni kuzatish — muammoni nomlash — kontekstni tiklash — muqobil talqinlarni ishlab chiqish — dalillarni baholash — qaror qabul qilish — refleksiv tekshiruv" ketma-ketligiga asoslandi.

Natijalar: tushunchaning pedagogik-psixologik mohiyati

Nazariy tahlil natijasida kasbiy-interpretativ tafakkur uch darajali jarayon sifatida aniqlandi. Birinchi daraja — perseptiv-diagnostik daraja bo'lib, mutaxassis vaziyatning ko'zga tashlanadigan belgilari, ishtirokchilar xatti-harakati va axborot mazmunini ajratadi. Ikkinchi daraja — mazmuniy-interpretativ daraja: kuzatilgan faktlar kasbiy bilim, tajriba va kontekst asosida tushuntiriladi. Uchinchi daraja — refleksiv-praksik daraja bo'lib, talqin qaror, pedagogik ta'sir, maslahat yoki boshqa amaliy harakatga aylantiriladi va uning natijasi qayta baholanadi.

Psixologik nuqtai nazardan mazkur tafakkur jarayoni idrok, xotira, tasavvur, muammo yechish, metakognitsiya va emotsional o'zini boshqarish mexanizmlarining integratsiyasini talab qiladi. Mutaxassis vaziyatni faqat mantiqiy belgilar orqali emas, balki emotsional ohang, muloqotdagi pauza, noverbal xatti-harakat va ijtimoiy munosabatlar orqali ham anglaydi. Biroq emotsional sezgirlik stereotip yoki subyektiv taxminga aylanib qolmasligi uchun daliliy tekshiruv va refleksiv nazorat bilan uyg'unlashishi zarur.

Pedagogik nuqtai nazardan kasbiy-interpretativ tafakkur o‘qitishning natijasi emas, balki o‘qitish jarayonida doimiy ravishda rivojlanadigan kompetensiyaviy sifatdir. Talaba real yoki modellashtirilgan kasbiy vaziyatga duch kelganda, undagi muammoni o‘zi nomlaydi, dalillarni tanlaydi, qarama-qarshi izohlarni ko‘rib chiqadi va o‘z pedagogik pozitsiyasini asoslaydi. Shunday jarayonlarda bilim “qoida” ko‘rinishidan chiqib, amaliy ma’noga ega bo‘ladi.

Kasbiy-interpretativ tafakkurning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat: diagnostik funksiya — vaziyatdagi muhim va ikkilamchi belgilarni ajratish; mazmun hosil qiluvchi funksiya — faktlarni kasbiy va ijtimoiy kontekst bilan bog‘lash; prognostik funksiya — turli qarorlarning ehtimoliy oqibatlarini oldindan ko‘ra bilish; kommunikativ funksiya — talqinni tushunarli, dalillangan va etik shaklda yetkazish; refleksiv funksiya — o‘z qarori, taxmini va kasbiy stereotiplarini qayta ko‘rib chiqish; aksiologik funksiya — qarorni inson qadr-qimmati, adolat va kasbiy mas’uliyat mezonlari bilan muvofiqlashtirish.

Shunday qilib, mazkur tafakkur turi bilimni qo‘llashdan tashqari, bilim asosida ma’no yaratish va mas’uliyatli harakatni tanlash qobiliyatini ham qamrab oladi.

Tadqiqot natijasida kasbiy-interpretativ tafakkurning besh komponentli modeli taklif etildi. Komponentlar mustaqil bloklar emas, balki yagona funksional tizimning o‘zaro ta’sirlashuvchi qismlaridir.

Komponent	**Mazmuni**	**Asosiy operatsiyalar**	**Namoyon bo‘lish mezoni**
Kognitiv	Kasbiy bilim, tushuncha va dalillarni faollashtirish	Tahlil, taqqoslash, tasniflash, sababni izlash	Vaziyatning muhim parametrlarini aniq ajratadi
Semantik-mazmuniy	Fakt va hodisalarga kasbiy ma’no berish	Kontekstlashtirish, gipoteza tuzish, ma’no xaritasi	Bir hodisaga bir nechta asoslangan izoh beradi

Refleksiv	O‘z talqini va qarashlarini nazorat qilish	O‘zini kuzatish, shubha qilish, qayta tekshirish	Xulosa cheklovlari va xatoliklarini ko‘rsatadi
Kommunikativ	Talqinni muloqotda asoslash va kelishish	Savol berish, tinglash, dalillash, qayta aloqa	Talqinini hamkorlikda aniqlashtira oladi
Aksiologik-praksik	Qarorni qadriyat va amaliy oqibatlar bilan bog‘lash	Etik baholash, variant tanlash, harakatni rejalash	Insonparvar va vaziyatga mos qaror ishlab chiqadi

Modelning kognitiv komponenti zarur bilimlarni chaqirish va vaziyatni tarkibiy qismlarga ajratishni ta’minlaydi. Biroq bilimning o‘zi talqin uchun yetarli emas. Semantik-mazmuniy komponent aynan shu bilimlar yordamida vaziyatga ma’no beradi. Masalan, o‘quvchining topshiriqni bajarmasligi “qobiliyatsizlik” sifatida emas, topshiriqning murakkabligi, motivatsiya, oilaviy sharoit yoki kommunikativ to‘siqlar bilan bog‘liq ko‘p omilli holat sifatida tahlil qilinadi.

Refleksiv komponent mutaxassisni birinchi taassurotga bog‘lanib qolishdan himoya qiladi. U “Men nimani ko‘rdim?”, “Nimani taxmin qildim?”, “Qaysi dalil mening fikrimni tasdiqlaydi yoki rad etadi?”, “Men o‘z tajribamni vaziyatga ko‘chirib yubormadimmi?” kabi savollar orqali ishlaydi. Kommunikativ komponent esa talqinni yakka xulosa emas, hamkorlikda tekshiriladigan gipotezaga aylantiradi. Aksiologik-praksik komponent talqinni real pedagogik ta’sir bilan bog‘lab, “to‘g‘ri” qarorni emas, inson uchun mas’uliyatli va vaziyatga mos qarorni izlashga undaydi.

Kasbiy-interpretativ tafakkur tayyor qobiliyat sifatida berilmaydi; u kasbiy tajriba, dialog, muammoli faoliyat va refleksiya orqali rivojlanadi. Uning shakllanish mexanizmini “situativ faollashtirish — ma’noni qurish — muqobil variantlarni tekshirish — qarorni sinash — qayta talqin qilish” sikli orqali ifodalash mumkin.

Birinchi pedagogik shart — muammoli-kontekstli ta'lim. Talabaga nazariy qoidani yodlatishdan ko'ra, bir nechta talqinga ega bo'lgan kasbiy vaziyat berilishi lozim. Masalan, darsda passiv o'quvchi haqida keys tuziladi va talabadan sababni darhol aytish emas, avval zarur savollar ro'yxatini tuzish, kuzatuv dalillarini ajratish va bir nechta gipotezani taklif qilish so'raladi. Bu yondashuv shoshma-shosharlik bilan baholashni kamaytiradi.

Ikkinchi shart — dialogik ta'lim. Interpretatsiya muloqotsiz to'liq shakllanmaydi, chunki boshqa shaxsning nuqtai nazari muqobil ma'nolarni ko'rishga yordam beradi. "Pozitsiyalar almashinuvi", "fikrlar xaritasi", "Sokratik savollar", "bahsli seminar" va "hamkasb talqinini tahlil qilish" usullari shu maqsadga xizmat qiladi. O'qituvchi yakuniy javobni darhol e'lon qilmasdan, talabaning xulosaga qanday kelganini va qaysi dalilga tayanganini muhokama qilishi kerak.

Uchinchi shart — refleksiv yozuv. Har bir kasbiy vaziyatdan so'ng talaba qisqa refleksiv kundalik yuritadi: vaziyatning faktlari, dastlabki taxmin, muqobil talqin, tanlangan qaror, kutilgan oqibat va keyingi kuzatuv. Donald Schönning "harakat jarayonidagi refleksiya" g'oyasi bilan hamohang bo'lgan bunday yozuv tajribani oddiy xotiradan kasbiy bilimga aylantiradi [8].

To'rtinchi shart — xavfsiz psixologik muhit. Talaba o'z taxminini xato qilishdan qo'rqsa, u tayyor va "to'g'ri" javobni takrorlaydi. Interpretativ tafakkur esa noaniqlikni tan olish, "mening hozirgi talqinim" deb gapirish va dalil yetishmaganda savol berishni talab qiladi. Shu sababli baholash faqat javobning to'g'riligiga emas, talqin jarayonining mantiqiyligi, dalillanganligi va etikligiga qaratilishi kerak.

Taklif etilayotgan konsepsiya tanqidiy tafakkur bilan yaqin bo'lsa-da, u bilan aynan bir xil emas. Tanqidiy tafakkur dalillarni baholash, xulosa mantiqini tekshirish va xatolarni aniqlashga urg'u beradi. Kasbiy-interpretativ tafakkur esa bundan oldingi va keyingi jarayonlarni ham qamrab oladi: vaziyatga ma'no berish, boshqa subyektlarning tajribasini hisobga olish, qarorni muloqotda muvofiqlashtirish va uni amaliy harakatga

aylantirish. Demak, tanqidiylik ushbu tafakkurning muhim mexanizmi, lekin uning to‘liq mazmuni emas.

Mazkur tafakkur refleksiv tafakkurdan ham farqlanadi. Refleksiya mutaxassisning o‘z faoliyati va ichki jarayonlarini anglashini bildiradi. Interpretativ tafakkur esa refleksiyani tashqi kasbiy vaziyatni qayta mazmunlashtirish bilan birlashtiradi. Boshqacha aytganda, refleksiya “men qanday fikrlayapman?” savoliga javob bersa, kasbiy interpretatsiya “bu vaziyat nimani anglatadi va men qanday mas’uliyatli harakat qilishim kerak?” savollarini ham qo‘yadi.

Kasbiy-interpretativ tafakkur diagnostik kompetentlikning markaziy mexanizmi sifatida ko‘rilishi mumkin. Biroq diagnostika bu yerda faqat aniqlash emas, balki inson xatti-harakatining ma’nosini kontekstda tushunish va pedagogik ta’sirning ehtimoliy oqibatlarini oldindan hisoblashdir. Shuning uchun mazkur tafakkurni rivojlantirishda psixologik bilim, kommunikativ madaniyat va etik mas’uliyat birgalikda shakllantirilishi kerak.

Uni baholash uchun quyidagi mezonlar tavsiya etiladi: vaziyatni fakt, taxmin va bahodan ajrata olish; kamida ikki-uch muqobil talqinni asoslash; talqinni aniq dalillar va kasbiy tushunchalar bilan bog‘lash; qarorning ehtimoliy oqibatlarini prognoz qilish; o‘z xulosasi cheklovlarini va zarur qo‘shimcha ma’lumotni ko‘rsatish; muloqotda boshqa ishtirokchilarning nuqtai nazarini hisobga olish; insonparvar, adolatli va kasbiy etikaga mos harakat rejasini taklif qilish.

Mazkur mezonlar asosida rubrika, portfolioli baholash, videovaziyat tahlili va amaliyot kundaliklarini birlashtirgan kompleks diagnostika tizimini ishlab chiqish mumkin. Baholashning eng muhim sharti — talabaning faqat yakuniy qarorini emas, balki unga olib kelgan interpretativ yo‘lni ko‘rishdir.

Tadqiqot natijalari kasbiy-interpretativ tafakkurni kasbiy vaziyatlar, belgilar va kommunikativ xabarlar ortidagi ma’noni kontekst asosida qayta qurish, muqobil talqinlarni tanqidiy solishtirish, etik jihatdan mas’ul qaror qabul qilish va o‘z fikrini

refleksiv nazorat qilishni ta’minlovchi integrativ tafakkur turi sifatida tavsiflash imkonini berdi. U kasbiy bilimni amaliy vaziyatga mexanik ko‘chirish emas, balki mazkur bilim asosida yangi ma’no va harakat strategiyasini yaratish jarayonidir.

Kasbiy-interpretativ tafakkurning tuzilishi kognitiv, semantik-mazmuniy, refleksiv, kommunikativ va aksiologik-praksik komponentlardan iborat. Ushbu komponentlar ketma-ket emas, tizimli ravishda ishlaydi: kognitiv komponent dalillarni faollashtiradi, semantik komponent ularga ma’no beradi, refleksiv komponent talqinni tekshiradi, kommunikativ komponent uni hamkorlikda aniqlashtiradi, aksiologik-praksik komponent esa mas’uliyatli qarorni amalga oshiradi.

Ilmiy yangilik sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin: birinchidan, kasbiy-interpretativ tafakkur pedagogik-psixologik kategoriya sifatida chegaralandi; ikkinchidan, uning besh komponentli strukturaviy modeli ishlab chiqildi; uchinchidan, rivojlanish mexanizmi va pedagogik shartlari tizimlashtirildi; to‘rtinchidan, kompetensiyani baholash mezonlari taklif qilindi. Kelgusida mazkur modelni turli kasb guruhlarida empirik tekshirish, diagnostik metodikalar yaratish va eksperimental ta’lim dasturlarining samaradorligini o‘lchash maqsadga muvofiq.

Amaliy tavsiyalar:

pedagogik fanlar mazmuniga noaniq va ko‘p ma’noli kasbiy keyslarni muntazam kiritish;

talabalardan “javob” bilan birga “javobga olib kelgan dalillar va muqobil talqinlar”ni talab qilish;

refleksiv kundalik, kasbiy portfolio va videovaziyat tahlilini baholash tizimiga qo‘shish;

o‘qituvchilar malakasini oshirish dasturlarida interpretativ savol berish va etik qaror qabul qilish modullarini kuchaytirish;

kasbiy amaliyotda superviziya va hamkasbiy muhokama mexanizmlarini rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, kasbiy-interpretativ tafakkur zamonaviy mutaxassisning noaniqlik sharoitida samarali, insonparvar va dalillangan faoliyat yuritishini ta'minlaydigan strategik psixologik resursdir. Uni rivojlantirish pedagogik ta'limning faqat metodik vazifasi emas, balki kasbiy identitet, mas'uliyat va jamiyat oldidagi ishonchni shakllantirishning muhim shartidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
2. Leontiev, A. N. (1978). Activity, Consciousness, and Personality. Prentice-Hall.
3. Bruner, J. (1996). The Culture of Education. Harvard University Press.
4. Piaget, J. (1972). The Psychology of the Child. Basic Books.
5. Schön, D. A. (1983). The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. Basic Books.
6. Shulman, L. S. (1987). Knowledge and Teaching: Foundations of the New Reform. Harvard Educational Review, 57(1), 1–22.
7. Flavell, J. H. (1979). Metacognition and Cognitive Monitoring. American Psychologist, 34(10), 906–911.
8. Dewey, J. (1933). How We Think. D. C. Heath.
9. Bakhtin, M. M. (1986). Speech Genres and Other Late Essays. University of Texas Press.
10. Eraut, M. (1994). Developing Professional Knowledge and Competence. Falmer Press.
11. Kolb, D. A. (1984). Experiential Learning. Prentice Hall.
12. Bandura, A. (1986). Social Foundations of Thought and Action. Prentice-Hall.
13. Davydov, V. V. (1990). Types of Generalization in Instruction. Soviet Studies in Mathematics Education.
14. Rubinstein, S. L. (2000). Fundamentals of General Psychology. Peter.
15. Абульханова-Славская, К. А. (1991). Стратегия жизни. Мысль.

UDK: 373.3.015.31:17.022.1

"YOSH KITOBXON" TO'GARAGIDA XALQ ERTAKLARI ASOSIDA AXLOQIY TANLOVNI MUHOKAMA QILISH METODIKASI

Turaxodjayeva Zulxumor Yusufjonovna
Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
Muhammadsharif So'fizoda nomidagi Namangan viloyati bolalar kutubxonasi direktori
E-mail: Zulhumor.turaxodjayeva@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolaning maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan "Yosh kitobxon" to'garagida xalq ertaklari asosida axloqiy tanlovni muhokama qilish metodikasini ishlab chiqishdan iborat. Ishda bolalar adabiyotining tarbiyaviy imkoniyatlariga oid tadqiqotlar qiyosiy tahlil qilindi va axloqiy tarbiyaning integrativ modeli asosida to'garak mashg'uloti loyihalashtirildi. Modelning maqsadli, mazmuniy, tashxisiy va natijaviy-korreksion bloklari bitta mashg'ulot doirasida o'zaro bog'landi. Metodik natija sifatida ertak lavhasini o'qish, qahramonning xatti-harakati va kechinmasini izohlash, muqobil qarorlarni solishtirish, ularni rolli o'yinda namoyish qilish hamda o'quvchining o'z tanlovi haqida fikr yuritishiga imkon beradigan to'rt bosqichli mashg'ulot tartibi taklif etildi. "Zumrad va Qimmat" ertagi asosida namunaviy ishlanma va unga mazmunan yaqin yangi hayotiy vaziyat berildi. O'quvchining qarorini asoslashini, boshqa kishining holatini tushuntirishini va guruhdagi xatti-harakatini alohida qayd etish uchun uch mezonli kuzatuv jadvali tuzildi. Undagi reproduktiv, izlanishli va kreativ darajalar o'quvchi qanday pedagogik ko'makka ehtiyoj sezishini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Taklif etilgan ishlanma boshlang'ich sinf o'qituvchilari va to'garak rahbarlariga o'qilgan matn yuzasidan savollar tuzish, bolalarning javoblarini tahlil qilish va keyingi mashg'ulot topshirig'ini tanlashda foydalanish uchun mo'ljallangan.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, axloqiy tarbiya, axloqiy tanlov, sinfdan tashqari faoliyat, "Yosh kitobxon", xalq ertagi, rolli o'yin, pedagogik kuzatuv, refleksiya.*

МЕТОДИКА ОБСУЖДЕНИЯ НРАВСТВЕННОГО ВЫБОРА НА МАТЕРИАЛЕ НАРОДНЫХ СКАЗОК В КРУЖКЕ «ЮНЫЙ ЧИТАТЕЛЬ»

Аннотация: *Цель статьи состоит в разработке методики обсуждения нравственного выбора с учащимися начальных классов на материале народных сказок в кружке «Юный читатель». Проведён сравнительный анализ исследований воспитательного потенциала детской литературы и спроектировано занятие на основе интегративной модели нравственного воспитания. В рамках одного занятия связаны целевой, содержательный, диагностический и результативно-коррекционный блоки модели. В качестве методического результата предложена последовательность из четырёх этапов, включающая чтение фрагмента сказки, обсуждение*

поступков и переживаний персонажей, сравнение возможных решений, их разыгрывание и осмысление собственного выбора. Представлена разработка занятия на основе узбекской народной сказки «Зумрад и Киммат» и предложена близкая по содержанию ситуация из школьной жизни. Для раздельной фиксации того, как учащийся обосновывает решение, объясняет состояние другого человека и действует в группе, составлена таблица наблюдения с тремя критериями. Репродуктивный, поисковый и творческий уровни помогают определить, какая педагогическая поддержка необходима ребёнку при выполнении задания. Разработка предназначена для учителей начальных классов и руководителей кружков. Она позволяет планировать вопросы к тексту, анализировать ответы учащихся и подбирать задание для следующего занятия с учётом наблюдений.

Ключевые слова: *начальное образование, нравственное воспитание, нравственный выбор, внеурочная деятельность, кружок «Юный читатель», народная сказка, ролевая игра, педагогическое наблюдение, рефлексия.*

A METHOD FOR DISCUSSING MORAL CHOICES THROUGH FOLK TALES IN THE YOUNG READERS CLUB

Abstract: *This article develops a method for discussing moral choices with primary school pupils through folk tales in the Young Readers Club. Studies of the educational potential of children's literature were compared, and a club session was designed using an integrative model of moral education. The session links the model's goal-setting, content, assessment, and follow-up components. The main methodological outcome is a four-stage session that combines reading a selected passage, discussing the characters' actions and feelings, comparing possible decisions, acting out alternative responses, and reflecting on a personal choice. A sample session based on the Uzbek folk tale Zumrad and Qimmat is paired with a new scenario drawn from everyday school life. A three-criterion observation rubric helps teachers record separately how pupils justify a decision, explain another person's feelings, and act within a group. The reproductive, exploratory, and creative levels indicate the type of support a pupil may need when completing a task. The method is intended for primary school teachers and club leaders who wish to prepare questions about a text, interpret pupils' responses, and use their observations to plan the next session.*

Keywords: *primary education, moral education, moral choice, extracurricular activities, Young Readers Club, folk tale, role-play, teacher observation, reflection.*

KIRISH

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi ertak voqealarini to‘g‘ri bayon qilib, qahramonning nima sababdan shunday yo‘l tutganini yoki uning qarori boshqalarga qanday ta’sir qilganini izohlashda qiynalishi mumkin. Axloqiy tarbiya uchun shu tafovut muhim. O‘quvchi voqeadagi muammoni payqashi, qahramon uchun mavjud yo‘llarni

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ko‘rishi va o‘z tanlovini aniq sabab bilan tushuntirishi kerak. “Yosh kitobxon” to‘garagida qisqa lavhani qayta o‘qish, turli talqinlarni eshitish va voqeani rollarda ijro etish shu amallarni bir mashg‘ulotda birlashtirish imkonini beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy tarbiyasiga bag‘ishlangan tadqiqot doirasida “O‘ttiz to‘rt hafta, o‘ttiz to‘rt kitob” loyihasi uchun “Yosh kitobxon” to‘garagi dasturi ishlab chiqilgan [1]. Mazkur maqolada shu dastur doirasida qo‘llash uchun bitta mashg‘ulotning metodik tuzilishi yoritiladi. Maqsad ertakdagi axloqiy tanlovni muhokama qilish tartibini ishlab chiqish va uni pedagogik kuzatuv bilan bog‘lashdir. Buning uchun matn va lavha tanlash talablari belgilandi, muhokama hamda sahnalashtirish topshiriqlari tuzildi, o‘quvchi javobi va xatti-harakatini qayd etish mezonlari aniqlashtirildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

D. Narvaez axloqiy hikoyalarni tushunishda bolalarning o‘qish malakasi, avvalgi bilimi va axloqiy mulohaza yuritish tajribasi muhimligini ko‘rsatadi. Shu bois o‘qituvchi bolalar voqeaga qanday ma’no berganini savol va suhbat orqali aniqlashi zarur [2]. L. Gasser va hammualliflar badiiy matn bilan ishlashda uch yo‘nalishni ajratadi. Bular asarning axloqiy mazmunini anglash, qahramon nuqtayi nazarini tasavvur qilish va tengdoshlar bilan dalillarga tayangan holda bahslashishdir [3]. Taklif etilayotgan mashg‘ulotda o‘quvchi avval voqeani tushuntiradi, keyin qahramonning o‘rniga o‘zini qo‘yib ko‘radi va fikrini guruh bilan muhokama qiladi.

To‘rtinchi sinfdagi adabiy suhbatlarni o‘rgangan C. A. Chinn va hammualliflar hamkorlikda mulohaza yuritishga asoslangan muhokamada o‘quvchilar faolroq ishtirok etgani va murakkabroq fikrlash amallarini ko‘proq qo‘llaganini qayd etgan [4]. Darsdan tashqari dasturlar bo‘yicha meta-tahlilda mashg‘ulotlarning izchil tuzilishi, faol ishtirok hamda o‘rgatiladigan ko‘nikmaning aniq belgilanishi ayrim ijtimoiy natijalar bilan bog‘langan [5]. Ushbu xulosalar to‘garak topshirig‘ini rejalash uchun asos beradi.

O‘quvchining matn yuzasidan asosli fikr bildirishi va kundalik xulqidagi o‘zgarish esa turli ko‘rsatkichlar sifatida baholanadi.

I. R. Kumschick va hammualliflar ikkinchi va uchinchi sinf o‘quvchilari bilan o‘tkazilgan, bolalar adabiyotiga asoslangan darsdan tashqari dasturda hissiyotga doir lug‘at va emotsional bilimning ayrim ko‘rsatkichlari yaxshilanganini qayd etgan [6]. Axloqiy tarbiya shakllariga oid avvalgi ishda an’anaviy tarbiya vositalarini interfaol usullar bilan uyg‘unlashtirish nazariy jihatdan tahlil qilingan [7]. Mazkur maqolada ushbu g‘oya ertak muhokamasi, rolli o‘yin va mezonli kuzatuvni bitta mashg‘ulotga birlashtirish orqali amaliy mashg‘ulotga tatbiq etiladi.

Ish nazariy-metodik xarakterga ega. Qiyosiy tahlil orqali matnni anglash, qahramon nuqtayi nazarini tushunish va qarorni asoslashga oid yondashuvlar ajratildi. Pedagogik modellashtirishda avtoreferatdagi maqsadli, mazmuniy, tashxisiy va natijaviy-korreksion bloklar bitta to‘garak mashg‘ulotiga moslashtirildi [1]. Maqsadli blokda mashq qilinadigan axloqiy amal belgilanadi. Mazmuniy blokda unga mos lavha, savollar va rolli vaziyat tuziladi. Tashxisiy blokda o‘quvchining javobi va amali mezonlar asosida qayd etiladi. Natijaviy-korreksion blokda kuzatuvga qarab keyingi topshiriq moslashtiriladi.

Ertak lavhasini tanlashda uch talabga amal qilindi. Qahramonning xatti-harakati bolaga tushunarli bo‘lishi, bu harakatning boshqa kishiga ta’sirini muhokama qilish mumkin bo‘lishi va o‘quvchi voqea uchun boshqa yechim taklif qila olishi kerak. Masalan, “Zumrad va Qimmat” ertagida kampirning qizlarga munosabati, ularning yordamga javobi va uyini sog‘inishi haqida suhbat uyushtirish mumkin [8]. Lavha mazmunini tushunishga yordam berish uchun ovoz chiqarib o‘qish yoki voqea ketma-ketligini rasm bilan ifodalash ko‘zda tutiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mashg‘ulot bosqichlari

Metodik ish natijasida to‘garak mashg‘ulotining to‘rt bosqichli tuzilishi ishlab chiqildi (1-jadval). Mashg‘ulotning asosiy savoli bitta bo‘ladi. Qo‘shimcha savollar esa bolani qahramonning tanlovini matnga tayangan holda izohlashga, oqibatini tushuntirishga yoki boshqa yo‘lni taklif qilishga undaydi. Vaqt taqsimoti namunaviy bo‘lib, matn murakkabligi va guruhning o‘qish sur’atiga qarab moslashtiriladi.

1-jadval. “Yosh kitobxon” to‘garagi mashg‘ulotining bosqichlari

Bosqich	**Daq.**	**O‘quvchining vazifasi**	**O‘qituvchi kuzatadigan dalil**
Motivatsion	5	Rasm yoki ertak lavhasi asosida qahramon duch kelgan muammoni taxmin qiladi.	Muammoni o‘z so‘zi bilan aytadi.
Shakllantiruvchi	10	Lavhani o‘qiydi yoki tinglaydi. Qahramonning xatti-harakati va kechinmasini izohlaydi.	Javobini matndagi voqea yoki belgi bilan asoslaydi.
Rivojlantiruvchi	15	Yangi vaziyat uchun kamida ikki yechimni muhokama qiladi. Guruhda ularni rollarda ijro etadi.	Yechimlarni solishtiradi, navbatga rioya qiladi va sherigini tinglaydi.
Refleksiv	5	O‘zi tanlagan yo‘lni va uning sababini og‘zaki, yozma yoki rasm orqali ifodalaydi.	Qarorning boshqa ishtirokchiga ta’sirini tushuntiradi.

Namunaviy mashg‘ulot

“Zumrad va Qimmat” ertagidan sehrgar kampir o‘rmonda qolgan Zumradni ovutishi va Zumradning uy yumushlariga ko‘maklashishi tasvirlangan lavha tanlanadi [8]. O‘qituvchi “Zumrad kampirning yordamini qanday qabul qildi?” va “U o‘z

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

minnatdorligini qaysi ishi bilan bildirdi?" deb so'raydi. Keyin Qimmatning ham qo'rqqani va uyini sog'ingani esga olinadi. O'quvchilar ikki qahramonning qaysi xatti-harakatlari farq qilganini matndan topadi va bu farqning ehtimoliy sabablarini muhokama qiladi. Suhbatda asosiy e'tibor qahramonning aniq harakati, uning sababi va boshqa kishiga ta'siriga qaratiladi.

Rolli o'yin uchun yangi vaziyat beriladi. To'garakdagi bir bola o'rtog'i kitobini uyida unutganini sezadi, guruh esa hikoyani o'qishni boshlamoqchi. Bolalar kitobni birga o'qish, navbat bilan o'qish yoki kutubxonadan qo'shimcha nusxa so'rash yo'llarini ko'rib chiqadi. Ikki yechimni ijro etgach, guruh har birining kitobini unutgan bola va boshqa ishtirokchilar uchun oqibatini solishtiradi. Yakunda har bir o'quvchi tanlagan yo'lini bir sabab bilan izohlaydi. Shu vaziyat orqali o'qituvchi bolaning ertakdagi o'zaro yordam g'oyasini maktab hayotidagi vaziyatga qanday tatbiq etishini kuzatadi.

O'quvchi javobi va xatti-harakatini kuzatish

Pedagogik kuzatuvda kognitiv, emotsional-qadriyatli va faoliyatga oid mezonlar alohida qo'llanadi (2-jadval). Kognitiv mezon qarorning sabab va oqibatini izohlashga, emotsional-qadriyatli mezon boshqa kishining holatini anglashga, faoliyatga oid mezon esa guruh vazifasida ko'rsatilgan amalga taalluqlidir. Bir o'quvchi qahramonning holatini mustaqil tushuntirishi, ammo navbatni kelishishda ko'makka ehtiyoj sezishi mumkin. Mezonlar bo'yicha alohida qayd aynan shu farqni ko'rishga yordam beradi.

2-jadval. Axloqiy tanlovga doir javob va amallarni kuzatish mezonlari

Mezon	**Reproduktiv**	**Izlanishli**	**Kreativ**
Kognitiv	Yo‘naltiruvchi savol yordamida qahramonning harakatini aytadi.	Qaror sababini matndagi voqea bilan bog‘laydi va bitta oqibatini aytadi.	Ikki qarorning oqibatini solishtiradi va yangi vaziyatda o‘z tanlovini asoslaydi.
Emotsional-qadriyatli	Rasm yoki savol yordamida qahramon hissini nomlaydi.	Qahramon hissini voqea bilan bog‘laydi va nega yordam zarurligini izohlaydi.	Ikki kishining holatini izohlaydi va har ikkisiga e’tibor beradigan yo‘l taklif etadi.
Faoliyatga oid	Eslatma bilan rolini bajaradi va navbatga rioya qiladi.	Rolini mustaqil bajaradi va sherigining taklifini tinglaydi.	Guruhga adolatli yechim taklif qiladi va uni ijroda namoyish etadi.

Kuzatuv varag‘iga o‘qituvchi sana, vaziyat, o‘quvchining qisqa javobi yoki amali hamda qanday yordam berilganini yozadi. Masalan, o‘quvchi ko‘mak bilan muqobil qaror topgan bo‘lsa, navbatdagi mashg‘ulotda unga mazmuni yaqin yangi vaziyat mustaqil yechish uchun beriladi. Guruh ishida tengdoshini tinglashga qiynalgan bolaga esa keyingi sahnalashtirishda suhbatdoshining fikrini qayta aytib berish vazifasi topshiriladi. O‘quvchiga muayyan amalni bajarish navbati kelmagan bo‘lsa, o‘sha mezon bo‘yicha “kuzatilmadi” deb yoziladi. Darajalar keyingi pedagogik ko‘makni tanlash uchun qo‘llanadi.

Metodikaning asosiy jihati ertak talqini, axloqiy mulohaza va rolli faoliyatni bir mavzu atrofida bog‘lashidir. Matn qahramonning qarorini muhokama qilish uchun umumiy asos beradi, yangi vaziyat esa bolalarning shu qaror ortidagi sababni boshqa

sharoitda qo‘llashini kuzatishga yordam beradi. Og‘zaki javobdan tashqari rasm, qisqa yozuv va rolli ijro ham dalil bo‘la oladi. Taklif etilgan mezonlarning baholovchilar o‘rtasidagi mosligi va metodikaning uzoq muddatli ta’siri alohida empirik tekshiruvni talab qiladi.

XULOSA

“Yosh kitobxon” to‘garagi uchun taklif etilgan metodika xalq ertagi bilan ishlashni to‘rt bosqichda tashkil etadi. O‘quvchi qahramon duch kelgan muammoni aniqlaydi, tanlov sababini tushuntiradi, muqobil qarorlarni rollarda sinab ko‘radi va o‘z tanlovini asoslaydi. “Zumrad va Qimmat” ertagi bo‘yicha ishlanma ushbu tartibning bitta mashg‘ulotda qanday qo‘llanishini ko‘rsatadi. Uch mezonli kuzatuv jadvali o‘qituvchiga bolaning mulohazasi, boshqaning holatiga munosabati va guruhdagi amali bo‘yicha alohida dalil to‘plash hamda keyingi topshiriqni shu dalil asosida tanlash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Turaxodjayeva Z. Y. Sinfdan tashqari ijodiy faoliyat jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari axloqiy tarbiyasining zamonaviy texnologiyalari [Modern technologies of moral education of primary school pupils in the course of extracurricular creative activities]. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Namangan, 2026.

2. Narvaez D. Does reading moral stories build character? // Educational Psychology Review. – 2002. – Vol. 14, No. 2. – P. 155–171. – DOI 10.1023/A:1014674621501.

3. Gasser L., Dammert Y., Murphy P. K. How do children socially learn from narrative fiction: Getting the lesson, simulating social worlds, or dialogic inquiry? // Educational Psychology Review. – 2022. – Vol. 34, No. 3. – P. 1445–1475. – DOI 10.1007/s10648-022-09667-4.

4. Chinn C. A., Anderson R. C., Waggoner M. A. Patterns of discourse in two kinds of literature discussion // Reading Research Quarterly. – 2001. – Vol. 36, No. 4. – P. 378–411. – DOI 10.1598/RRQ.36.4.3.

5. Durlak J. A., Weissberg R. P., Pachan M. A meta-analysis of after-school programs that seek to promote personal and social skills in children and adolescents // American Journal of Community Psychology. – 2010. – Vol. 45, No. 3–4. – P. 294–309. – DOI 10.1007/s10464-010-9300-6.

6. Kumschick I. R., Beck L., Eid M., Witte G., Klann-Delius G., Heuser I., Steinlein R., Menninghaus W. READING and FEELING: The effects of a literature-based intervention designed to increase emotional competence in second and third graders // Frontiers in Psychology. – 2014. – Vol. 5. – Art. 1448. – DOI 10.3389/fpsyg.2014.01448.

7. Turaxodjaeva Z. Y. Axloqiy tarbiyaning shakllari, turlari va texnologiyalari [Forms, types and technologies of moral education] // Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar. – 2026. – Vol. 3, No. 1. – B. 201–204.
8. Zumrad va Qimmat [Zumrad and Qimmat] // O‘zbek xalq ertaklari [Uzbek folk tales]. 3-jild / Tuz. M. Afzalov, X. Rasulov, Z. Husainova. – Toshkent: O‘qituvchi, 2013. – B. 56–60.

TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI BADIIY JAMOALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (CHOLG‘U IJROCHILIK MISOLIDA)

Sobirov Navro‘zbek Hakimjon o‘g‘li
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Annotatsiya. *Maqolada oliy ta’lim muassasalarida cholg‘u ijrochiligi yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy kompetensiyalarini badiiy jamoalar — ansambl va orkestr faoliyati asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati tahlil qilinib, cholg‘uchi-talabaning kasbiy kompetensiyalari tarkibi (motivatsion-qadriyatli, kognitiv, texnik-ijrochilik, ansambl-kommunikativ va refleksiv-ijodiy komponentlar) asoslab berilgan. Tadqiqotda badiiy jamoa sharoitida kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirishning strukturaviy-funksional modeli, pedagogik shart-sharoitlari hamda mezon-ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan. Taklif etilayotgan metodikaning tajriba-sinov natijalari talabalarning kasbiy tayyorgarligi darajasini oshirishda samarali ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, badiiy jamoa, ansambl ijrochiligi, cholg‘u ijrochiligi, kollektiv musiqa ijodi, metodika, oliy musiqa ta’limi.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ КОЛЛЕКТИВОВ (НА ПРИМЕРЕ ИНСТРУМЕНТАЛЬНОГО ИСПОЛНИТЕЛЬСТВА)

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы совершенствования методики развития профессиональных компетенций студентов-инструменталистов высших учебных заведений на основе деятельности художественных коллективов — ансамблей и оркестров. Раскрыта сущность компетентностного подхода, обоснована структура профессиональной компетенции студента-инструменталиста (мотивационно-ценностный, когнитивный, технико-исполнительский, ансамблево-коммуникативный и рефлексивно-творческий компоненты). Разработаны структурно-функциональная модель, педагогические условия и критериально-уровневый аппарат поэтапного развития компетенций в условиях художественного коллектива. Результаты опытно-экспериментальной работы подтверждают эффективность предложенной методики.*

Ключевые слова: *профессиональная компетенция, компетентностный подход, художественный коллектив, ансамблевое исполнительство, инструментальное исполнительство, коллективное музицирование, методика, высшее музыкальное образование.*

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' PROFESSIONAL COMPETENCIES THROUGH ARTISTIC ENSEMBLES (THE CASE OF INSTRUMENTAL PERFORMANCE)

Abstract. *The article examines ways of improving the methodology for developing the professional competencies of instrumental-performance students in higher education on the basis of artistic ensembles — chamber groups and orchestras. It clarifies the essence of the competency-based approach and substantiates the structure of an instrumentalist student's professional competence (motivational-value, cognitive, technical-performance, ensemble-communicative and reflexive-creative components). A structural-functional model, a set of pedagogical conditions and a criteria-and-levels apparatus for the stage-by-stage development of competencies within an artistic ensemble are proposed. The results of the pilot-experimental work confirm the effectiveness of the proposed methodology.*

Keywords: *professional competence, competency-based approach, artistic ensemble, ensemble performance, instrumental performance, collective music-making, methodology, higher music education.*

KIRISH

Zamonaviy oliy ta'lim bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga qaratilgan an'anaviy paradigmadan bitiruvchining real kasbiy vaziyatlarda mustaqil, mas'uliyatli va samarali faoliyat yurita olishini nazarda tutuvchi kompetensiyaviy paradigmaga o'tmoqda. Kompetensiya Yevropa Ittifoqining "Umrbod ta'lim uchun kalit kompetensiyalar" tavsiyanomasida bilim, ko'nikma va munosabatlarning yaxlit birikmasi sifatida talqin etiladi; unda madaniy ong hamda badiiy o'zini namoyon etish ham asosiy kompetensiyalar qatoriga kiritilgan. Shu bois kasbiy ta'lim mazmunini kompetensiyaviy asosda qayta qurish bugungi kun pedagogikasining yetakchi yo'nalishlaridan biriga aylandi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda san'at va madaniyat ta'limini isloh qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi "O'zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3178-son qarori hamda xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishga oid 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmonida iste'dodli yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalarini milliy cholg'ular va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlashning yaxlit tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini Yevropa kredit-transfer tizimi

(ECTS) asosida tashkil etishga bosqichma-bosqich o‘tilishi esa ta’lim natijalarini kompetensiyalar tilida ifodalashni obyektiv zaruratga aylantirdi.

Shunga qaramay, cholg‘u ijrochiligi mutaxassisligida kasbiy tayyorgarlik ko‘p hollarda “ustoz–shogird” (master–apprentice) modeliga asoslangan individual mashg‘ulotlar doirasida cheklanib qolmoqda. Bunday yondashuv ijrochilik texnikasini sayqallashda samarali bo‘lsa-da, kasbiy faoliyatda bevosita talab etiladigan ansambl eshitishi, birgalikda musiqiy qaror qabul qilish, kommunikativ va liderlik sifatlari hamda sahna-konsert amaliyoti ko‘nikmalarini yetarlicha shakllantirmaydi. Natijada ijrochilik texnikasi bilan kasbiy kompetentlik o‘rtasida muayyan uzilish yuzaga keladi.

Aynan badiiy jamoalar — duet, trio, kvartet, kamer ansambli va orkestr — kollektiv musiqa ijodining tabiiy muhiti sifatida ushbu uzilishni bartaraf etish va talabaning kasbiy kompetensiyalarini yaxlit holda rivojlantirish uchun katta didaktik salohiyatga ega. Jamoaviy ijro sharoitida talaba bir vaqtning o‘zida o‘z partiyasini mukammal ijro etishi, sheriklarini tinglashi, umumiy badiiy niyatga bo‘ysunishi va mustaqil badiiy qaror qabul qilishi lozim bo‘ladi. Shu bois badiiy jamoalar asosidagi metodikani ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

“Kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari kompetensiyaviy yondashuvning markaziy kategoriyalaridir. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda (I.A. Zimnyaya, A.V. Xutorskoy va boshqalar) kompetensiya muayyan sohada samarali faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, tajriba va shaxsiy sifatlarning yaxlit tizimi sifatida, kompetentlik esa shaxsning ushbu kompetensiyalarni real faoliyatda namoyon eta olish darajasi sifatida farqlanadi. Yevropa kalit kompetensiyalar doirasi kompetensiyani bilim, ko‘nikma va munosabatlarning birligi sifatida belgilaydi va bu yondashuv milliy ta’lim tizimlari uchun umumiy mezon vazifasini bajaradi.

Musiqa ta’limi kontekstida kasbiy kompetensiya muammosi bir qator tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. A.V. Kozыr kompetensiyaviy yondashuvni

bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirishning metodologik vositasi sifatida tavsiflaydi va fikrlash amallari tizimini uning asosi deb biladi. Chen Yanying bo‘lajak musiqa pedagoglarining kasbiy tayyorgarligida badiiy (artistik) kompetensiyaning o‘rnini alohida ajratadi. Ushbu ishlar kasbiy kompetensiyaning kognitiv, faoliyatli, motivatsion-qadriyatli va shaxsiy-refleksiv komponentlardan iborat ko‘p tarkibli hodisa ekanligini ko‘rsatadi.

Kollektiv ijrochilikning kasbiy tayyorgarlikdagi ahamiyati ham keng tadqiq etilgan. K. va S. Tsimbal orkestr va ansambl ijrochiligini kollektiv musiqiy ijodning turi sifatida tavsiflab, uni talaba-cholg‘uchilarning kasbiy tayyorgarligi vositasi deb asoslaydi; mualliflar jamoaviy musiqa ijodida muloqot ko‘nikmalari, ansambl malakalari va kasbiy-shaxsiy sifatlarning shakllanishini ta’kidlaydi. J.M. McCaleb ansambl orqali o‘qitishda “ijrochilik–pedagogika paradoksi”ni, ya’ni yuqori sifatli ijro bilan jamoa a’zolarini rivojlantirish maqsadlari o‘rtasidagi muvozanatni ko‘rsatib, talabalarga ijro jarayonida yetakchilik roli berish ularni tanqidiy va mustaqil ishtirok etishga undashini ta’kidlaydi. Ansambl texnikasining mumtoz asoslari A.D. Gotlib ishlarida bayon etilgan


O‘zbekiston olimlarining ishlarida ham musiqa ta’limida kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari o‘rganilmoqda. A.R. Baxriyev san’at oliy ta’limida rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari va interaktiv usullardan foydalanishni asoslaydi. M.I. Ergashev musiqa ta’limida o‘quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqqan. Shuningdek, musiqa ta’limida shaxsga yo‘naltirilgan va differensial yondashuv, integrativ, reflektiv hamda interaktiv metodlar uyg‘unligi zarurligi ta’kidlanadi. Biroq aynan cholg‘u ijrochiligida badiiy jamoalarni kasbiy kompetensiyalarni yaxlit rivojlantirishning tizimli vositasi sifatida qarab chiqqan metodik tadqiqotlar hanuzgacha yetarli emas bu esa mazkur ishning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqotda nazariy va empirik metodlar majmuyidan foydalanildi: ilmiy-pedagogik va metodik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, umumlashtirish va

tizimlashtirish; modellashtirish; pedagogik kuzatish; so‘rovnoma va suhbat; ekspert baholash; pedagogik tajriba-sinov (aniqlovchi, shakllantiruvchi va yakuniy bosqichlar) hamda olingan ma’lumotlarni matematik-statistik qayta ishlash. Metodologik asos sifatida tizimli, faoliyatli, shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy va differensial yondashuvlar qabul qilindi.

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Tadqiqot natijasida cholg‘uchi-talabaning kasbiy kompetensiyasi tarkibi beshta o‘zaro bog‘liq komponent birligida aniqlandi. Motivatsion-qadriyatli komponent — kasbga va jamoaviy ijroga qiziqish, musiqiy-estetik qadriyatlar, muvaffaqiyatga erishish va o‘zini rivojlantirishga intilish. Kognitiv komponent — musiqa nazariyasi, garmoniya, ansambl-orkestr adabiyoti, partituralarni o‘qish va uslubiy bilimlar. Texnik-ijrochilik komponent — cholg‘uda individual mahorat, tovush hosil qilish, intonatsiya va metroritmik aniqlik. Ansambl-kommunikativ komponent — ansambl eshitishi,



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

sinxronlik, tembr va dinamik muvozanat, noverbal muloqot, yetakchilik va hamkorlik malakalari. Refleksiv-ijodiy komponent — o‘z va jamoa ijrosini tahlil qilish, badiiy talqin, improvizatsiya va ijodiy mustaqillik.

1-rasm. Besh komponent birligi bosqichlari

Ushbu komponentlar asosida badiiy jamoalar asosida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning strukturaviy-funksional modeli ishlab chiqildi. Model o‘zaro bog‘liq bloklardan iborat: maqsadli blok (ijtimoiy buyurtma va maqsad); metodologik blok (tizimli, faoliyatli, shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy va differensial yondashuvlar hamda tamoyillar); mazmunli blok (ansambl repertuari va o‘quv materiali); texnologik blok (bosqichlar, shakllar, metodlar va vositalar); diagnostik blok (mezon, ko‘rsatkich va darajalar) hamda natijaviy blok (kasbiy kompetentlikning yuksalgan darajasi).

Modelni samarali amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari quyidagilardan iborat: ansambl repertuarini talaba imkoniyatlariga mos ravishda bosqichma-bosqich murakkablashtirish; individual va jamoaviy mashg‘ulotlarni uyg‘unlashtirish; jamoada rollarni (yetakchi–hamrohlik qiluvchi) almashtirib turish; nazariy fanlar (solfejio, garmoniya, musiqa tarixi) bilan ansambl amaliyotini integratsiyalash; muntazam sahna-konsert amaliyotini tashkil etish; axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (audio/video yozuvlar, virtual cholg‘u va ansambl dasturlari)dan foydalanish; o‘z va jamoa ijrosini refleksiv tahlil qilishni rag‘batlantirish.

Metodika uch bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi — motivatsion-adaptiv bosqichda sodda duetlar asosida ansambl eshitishi, umumiy temp va metroritm hissi shakllantiriladi; talabada jamoaviy ijroga ijobiy munosabat uyg‘otiladi. Ikkinchi — operatsion-texnologik bosqichda trio va kvartetlar asosida tembr-dinamik muvozanat, partiyalararo muloqot, boshlash-tugatish ishoralari va kommunikativ ko‘nikmalar rivojlantiriladi. Uchinchi — ijodiy-mustaqil bosqichda kamer ansambli yoki orkestr tarkibida murakkab asarlar ustida ishlash, mustaqil badiiy talqin, repetitsiya jarayonini

boshqarish va konsert chiqishlari orqali ijodiy mustaqillik va kasbiy refleksiya mustahkamlanadi.

Metodikaning texnologik asosini quyidagi metodlar tashkil etadi: partituraviy va qiyosiy tahlil, musiqiy-eshituv (namuna tinglash va taqlid), illyustrativ, improvizatsion, loyihaviy (konsert dasturini birgalikda tayyorlash), kollektiv repetitsiya va sahna amaliyoti metodlari. Kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini baholash uchun motivatsion, kognitiv, ijrochilik-texnik, ansambl-kommunikativ va refleksiv-ijodiy mezonlar hamda ularga mos uch daraja — past (reproduktiv), o‘rta (produktiv) va yuqori (ijodiy) — ajratildi.

Taklif etilgan metodikaning samaradorligini tekshirish maqsadida tajriba-sinov ishi tajriba va nazorat guruhlarida o‘tkazildi. Shakllantiruvchi tajriba yakunida tajriba guruhida kasbiy kompetentlikning yuqori va o‘rta darajalari ulushi sezilarli ortgani, past daraja ulushi esa keskin kamaygani kuzatildi (1-jadval). Nazorat guruhida ko‘rsatkichlar nisbatan o‘zgarmay qoldi. Olingan farqlarning statistik ishonchliligi tegishli mezonlar yordamida tasdiqlandi.

1-jadval

Kasbiy kompetentlik darajalari dinamikasi (tajriba-sinov yakunida, % hisobida)

Daraja	Tajriba g. (boshida)	Tajriba g. (yakunida)	Nazorat g. (boshida)	Nazorat g. (yakunida)
Yuqori (ijodiy)	14,8	41,3	15,2	19,6
O‘rta (produktiv)	38,5	46,7	39,1	42,4
Past (reproduktiv)	46,7	12,0	45,7	38,0

Jadval ma’lumotlari ko‘rsatishicha, tajriba guruhida yuqori darajadagi talabalar ulushi deyarli uch baravar oshgan, past daraja ulushi esa sezilarli kamaygan. Bu natijalar badiiy jamoa muhiti talabada nafaqat ijrochilik texnikasini, balki ansambl-kommunikativ va refleksiv-ijodiy sifatlarni ham birgalikda rivojlantirishini tasdiqlaydi. Olingan

xulosalar McCaleb hamda Tsimballarning jamoaviy ijro kasbiy-shaxsiy sifatlarni shakllantirishdagi roli haqidagi fikrlari bilan muvofiq keladi va ularni cholg‘u ijrochiligi sharoitida metodik jihatdan konkretlashtiradi.

Shunday qilib, badiiy jamoalar asosidagi metodika individual (“ustoz–shogird”) va kollektiv ta’lim shakllarini qarama-qarshi qo‘ymaydi, balki ularni yaxlit tizimga birlashtiradi: individual mashg‘ulot texnik asosni tayyorlaydi, jamoaviy ijro esa bu asosni kasbiy kompetentlikka aylantiradi. Bu yondashuv shaxsga yo‘naltirilgan va faoliyatli ta’lim tamoyillariga to‘la mos keladi.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot cholg‘u ijrochiligida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda badiiy jamoalar yetakchi didaktik vosita bo‘la olishini ko‘rsatdi. Jamoaviy ijro talabadan bir vaqtning o‘zida yuqori individual mahorat, ansambl eshitishi, muloqot va mustaqil badiiy qaror qabul qilishni talab etib, kasbiy kompetentlikning barcha komponentlarini tabiiy ravishda faollashtiradi.

Tadqiqotda cholg‘uchi-talabaning kasbiy kompetensiyasi tarkibi beshta komponent birligida aniqlandi, badiiy jamoalar asosida kompetensiyalarni rivojlantirishning strukturaviy-funksional modeli, pedagogik shart-sharoitlari, uch bosqichli metodikasi va mezon-darajali baholash apparati ishlab chiqildi. Tajriba-sinov natijalari metodikaning samaradorligini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalari oliy musiqa ta’limi muassasalarida ansambl va orkestr sinflari dasturlarini takomillashtirish, o‘quv-metodik majmualar va baholash vositalarini ishlab chiqishda qo‘llanilishi mumkin. Istiqbolda milliy cholg‘ular ansambllari repertuarini kompetensiyaviy asosda tizimlashtirish va raqamli texnologiyalar yordamida jamoaviy ijroni qo‘llab-quvvatlash masalalari o‘rganilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3178-son qarori. — Toshkent, 2017.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. — Toshkent, 2019.

3. Baxriyev A.R. Pedagogik texnologiyalar: san’at oliy o‘quv yurtlari magistratura bosqichi talabalari uchun darslik. — Toshkent: Musiqa, 2024. — 188 b.

4. Ergashev M.I. Musiqa ta’limida o‘quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish: ped. fan. b-cha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. — Toshkent, 2025.

5. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. — Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. — 42 с.

6. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. — 2003. — № 2. — С. 58–64.

7. Готлиб А.Д. Основы ансамблевой техники. — Москва: Музыка, 1971. — 94 с.

8. Апраксина О.А. Методика музыкального воспитания в школе. — Москва: Просвещение, 1983. — 224 с.

9. Kozyr A.V. The Competence Approach as a Methodological Tool for Shaping the Professional Competence of Future Music Teachers // Journal of Higher Education Theory and Practice. — 2021. — Vol. 21(14). — DOI: 10.33423/jhetp.v21i14.4810.

10. Chen Yanying. Competency Aspect of Professional Training of Future Music Teachers // Academic Notes. Dragomanov Ukrainian State University. — 2023. — Edition 17.

11. Tsymbal K., Tsymbal S. Orchestral and Ensemble Performance as a Means of Professional Training of Instrumental Students // Scientific Journal (ISSN 2308-4855). — 2023.

12. McCaleb J.M. Teaching Through Ensemble Performance // Together in Music: Expression, Performance and Communication Conference. — York: York St John University, 2018.

13. Key Competences for Lifelong Learning: A European Reference Framework. — Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2019. — 20 p.

IJTIMOIY TARMOQLARNING YOSHLAR MAFKURAVIY TARBIYASIGA TA'SIRI: IMKONIYATLAR, TAHDIDLAR VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Begimkulov Ilxom Bairovich
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti,
kafedra katta o‘qituvchisi
Ilxombairovich23@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar mafkuraviy tarbiyasiga ta’sirining pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatlari mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlari asosida qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda nazariy-tahliliy, qiyosiy va tizimli yondashuv usullaridan foydalanilgan. Natijada ijtimoiy tarmoqlarning imkoniyatlari va tahdidlari tasniflangan hamda pedagogik javob choralarining uch bosqichli modeli (ta’lim muassasasi – oila va mahalla – raqamli kontent) taklif etilgan. Yoshlarda media savodxonlikni rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta’minlash va axborot immunitetini shakllantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar tarbiyasi, mafkuraviy tarbiya, media savodxonlik, axborot xavfsizligi, raqamli muhit, ma’naviy tarbiya, pedagogik texnologiyalar.*

ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ НА ИДЕОЛОГИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЁЖИ: ВОЗМОЖНОСТИ, УГРОЗЫ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ

Бегимкулов Илхом Баирович,
старший преподаватель кафедры
Университета военной безопасности и обороны
Республики Узбекистан
Ilxombairovich23@gmail.com

Аннотация. *В статье на основе взглядов отечественных и зарубежных учёных проведён сравнительный анализ педагогических, психологических и социальных аспектов влияния социальных сетей на идеологическое воспитание молодёжи. Использованы теоретико-аналитический, сравнительный и системный методы. Классифицированы возможности и угрозы социальных сетей, предложена трёхуровневая модель педагогического ответа (образовательное учреждение – семья и махалля – цифровой контент). Разработаны рекомендации по развитию медиаграмотности, обеспечению информационной безопасности и формированию информационного иммунитета молодого поколения.*

Ключевые слова: *социальные сети, воспитание молодёжи, идеологическое воспитание, медиаграмотность, информационная безопасность, цифровая среда, духовное воспитание.*

THE IMPACT OF SOCIAL NETWORKS ON THE IDEOLOGICAL UPBRINGING OF YOUTH: OPPORTUNITIES, RISKS AND PEDAGOGICAL APPROACHES

Begimkulov Ilxom Bairovich,
senior lecturer,
University of Military Security and Defense of the
Republic of Uzbekistan
Ilxombairovich23@gmail.com

Abstract. *The article presents a comparative analysis of the pedagogical, psychological and social aspects of the influence of social networks on the ideological upbringing of youth, drawing on the views of local and foreign scholars. Theoretical-analytical, comparative and systemic methods were applied. The opportunities and risks of social networks are classified, and a three-level model of pedagogical response (educational institution – family and mahalla – digital content) is proposed. Recommendations are developed for improving media literacy, ensuring information security and building information immunity among young people.*

Keywords: *social networks, youth upbringing, ideological education, media literacy, information security, digital environment, moral education, pedagogical technologies.*

KIRISH

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biriga aylandi. Internet tarmog‘ining keng ommalashuvi natijasida ijtimoiy tarmoqlar insonlar hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bordi. Ayniqsa, yoshlar o‘rtasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasi yuqori bo‘lib, bu holat ularning dunyoqarashi, ma'naviy qadriyatlari, axloqiy me'yorlari va ijtimoiy munosabatlariga bevosita ta'sir ko‘rsatmoqda.

Yoshlar Yangi O‘zbekistonning strategik resursi hisoblanadi. Shu sababli ularning tarbiyasi, ma'naviy kamoloti va intellektual salohiyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biridir. Bu yo‘nalish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi, “Ta'lim to‘g‘risida”gi va “Diniy ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunlarda [1–4], Prezident Sh.M. Mirziyoyevning asarlarida hamda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida [5; 6],

shuningdek, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid Vazirlar Mahkamasi qarorida [7] mustahkamlab qo‘yilgan.

Internetni majoziy ma'noda “katta bozor”ga o‘xshatish mumkin: xaridor bozordan nimani izlasa, topadi, internet foydalanuvchisi ham o‘z maqsadiga ongli harakat qilgandagina erishadi. Statistik ma'lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘yicha internetning eng faol foydalanuvchilari 18–30 yoshdagi yoshlardir, O‘zbekistonda esa foydalanuvchilar soni 19 milliondan ortgan. Ayni shu qatlam yangilikka o‘ch va turfa axborotga qiziquvchan bo‘lgani uchun terrorizm, pornografiya, soxta va tekshirilmagan axborot, ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilish, milliy-ma'naviy qadriyatlarni yemirish, xalqning tarixiy xotirasini buzish va kiberterrorizm kabi tahdidlarning birinchi nishoniga aylanmoqda.

Muammoning ilmiy darajada o‘rganilganligi. So‘nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarga ta'siri alohida – texnologik, psixologik yoki huquqiy – jihatlardan ko‘p tadqiq etilgan. Biroq ularning yoshlar mafkuraviy tarbiyasiga ta'siri imkoniyat, tahdid va pedagogik javob birligida kompleks tahlil qilinmagan, tahdidlarga qarshi chora-tadbirlar ko‘pincha taqiqlovchi xarakterda qolmoqda. Mana shu bo‘shliq tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi – ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar mafkuraviy tarbiyasiga ta'sirini tizimli o‘rganish va uni boshqarishning pedagogik modelini asoslash. Vazifalari: (1) mavzuga oid mahalliy va xorijiy qarashlarni qiyosiy tahlil qilish; (2) ijtimoiy tarmoqlarning imkoniyat va tahdidlarini tasniflash; (3) pedagogik javob modelini ishlab chiqish. Ob'ekti – yoshlar tarbiyasi jarayoni, predmeti – raqamli muhitning bu jarayonga ta'siri va uni samarali boshqarish yo‘llari. Ishchi gipoteza: ijtimoiy tarmoqlarning tahdidlarini faqat cheklash orqali emas, balki media savodxonlik, oila va mahalla hamkorligi hamda milliy qadriyatlarga asoslangan raqamli kontent uyg‘unligi orqali kamaytirish samaraliroqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Xorijiy olimlarning qarashlari va muallif munosabati

Ispan sotsiologi M.Kastels axborot jamiyatini “tarmoq jamiyati” sifatida ta'riflab, kuch va ta'sir tobora aloqa tarmoqlari orqali shakllanishini asoslagan [11]. Biz bu qarashni ijtimoiy tarmoqlarning tarbiyaviy rolini tushunish uchun nazariy asos deb hisoblaymiz, biroq Kastels tarmoq ta'sirini asosan ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilgani, milliy qadriyatlarning ruhiy himoya vazifasi esa yetarli yoritilmagani uchun uni mafkuraviy tarbiya masalalariga bevosita ko‘chirish mumkin emas, deb o‘ylaymiz.

Britaniyalik olim D.Bekingem media ta'limni himoya qilishga emas, balki tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratish zarurligini ta'kidlaydi [12]. S.Livingston ham bolalar va o‘smirlarning raqamli muhitdagi tajribasini o‘rganib, xavf mavjudligi har doim zarar yetishini anglatmasligini, ko‘p narsa bolaning ko‘nikmalari va oilaviy muhitga bog‘liqligini ko‘rsatgan [13]. Mazkur olimlarning xulosalari bilan qisman kelishamiz: tanqidiy ko‘nikmalarsiz har qanday taqiq samarasiz. Shu bilan birga, mafkuraviy tahdidlar yaqqol namoyon bo‘layotgan sharoitda faqat “bardoshlilik”ka tayanish yetarli emas, tarbiyaviy yo‘naltirish ham zarur, deb hisoblaymiz.

Amerikalik tadqiqotchi d. boyd o‘smirlar ijtimoiy tarmoqqa texnologiya uchun emas, tengdoshlari bilan muloqot qilish ehtiyoji tufayli kirishini, kattalarning bu borada ko‘pincha “axloqiy vahima”ga berilishini ta'kidlaydi [14]; G.Jenkins esa ishtirokchilik madaniyati yoshlarga ijodiy imkoniyat bersa-da, raqamli “ishtirok tengsizligi” yuzaga kelishini ko‘rsatadi [15]. Biz bu fikrlarni muhim deb bilamiz: yoshlarning tarmoqdagi faolligini dastlab “tahdid” sifatida emas, ijtimoiy ehtiyoj sifatida tushunish tarbiyachi uchun to‘g‘ri boshlang‘ich nuqtadir.

Biroq S.Terkl texnologiyaga “aloqadorlik” hissi ortgani sari haqiqiy muloqot zaiflashishi mumkinligini [16], Dj.Tvenj esa smartfondan uzoq foydalanish va yoshlar ruhiy holati o‘rtasida bog‘liqlik borligini ta'kidlaydi [18]. Tvenj xulosalari ilmiy doiralarda munozarali ekanini hisobga olib, ularni sababiy emas, ehtiyot choralarini

asoslovchi dalil sifatida qabul qilamiz. K.Uordl va H.Derakshan esa zararli axborotni dezinformatsiya, noto‘g‘ri axborot va zarar yetkazuvchi haqiqiy axborotga ajratib [17], mafkuraviy tahdidlarni tasniflashda foydali metodologik vosita beradi.

Mahalliy olimlarning qarashlari va muallif munosabati

Birinchi Prezident I.A.Karimov ma'naviyatni jamiyatning tashqi ta'sirlarga qarshi mustahkam himoyasi, mafkuraviy bo‘shliqni esa tahdid manbai sifatida baholagan [8]. Bu qarash bizning tadqiqotimiz uchun asosiy tayanch, chunki u tarbiyani nafaqat taqiqlash, balki ma'naviy kuchni shakllantirish deb tushunishga undaydi. N.Jo‘rayev “mafkuraviy poligonlar” tushunchasi orqali axborot maydonida yoshlar ongi uchun kurash yo‘nalishlarini tahlil qiladi [9]; biz bu tahlilni qimmatli, ammo ijtimoiy tarmoq algoritmlari va yoshlarning shaxsiy tajribasi kabi zamonaviy omillar bilan to‘ldirilishi zarur, deb hisoblaymiz. A.Saidov media savodxonlik va axborot madaniyatini o‘quv jarayonida shakllantirish yo‘llarini ishlab chiqqan [10]; uning yondashuvini oila va mahalla bilan hamkorlik bo‘yicha tavsiyalar bilan kengaytirishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Shuningdek, Prezident Sh.M.Mirziyoyev yoshlar tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab, raqamli muhitda axborot madaniyatiga alohida e'tibor qaratadi [5; 6]. Mavjud normativ-huquqiy bazani [1–4; 7] biz yetarli asos deb bilamiz, lekin uning amaliy pedagogik mexanizmlari hali ishlab chiqilmagan.

Tahlil xulosasi. Xorijiy olimlar asosan tanqidiy ko‘nikmalar va yoshlar tajribasiga, mahalliy olimlar esa ma'naviy-mafkuraviy himoyaga urg‘u beradi. Ikki yondashuvni birlashtiruvchi, ya'ni ham rivojlantiruvchi, ham himoya qiluvchi pedagogik model hali yetarli ishlab chiqilmagan. Maqolaning ilmiy yangiligi shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega. Quyidagi usullardan foydalanildi: ilmiy adabiyotlarni tahlil va sintez qilish; mahalliy va xorijiy qarashlarni qiyosiy tahlil qilish;

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

normativ-huquqiy hujjatlarni mazmuniy (kontent) tahlil qilish; ijtimoiy tarmoqlarning tarbiyaviy ta'sirini imkoniyat–tahdid–javob birligida o‘rganuvchi tizimli yondashuv; hamda mantiqiy umumlashtirish. Manbalar mavzuga yaqinligi, ilmiy obro‘si va yangiligi mezonlari bo‘yicha tanlandi: xorijiy fundamental asarlar (2003–2017 yillar) va mahalliy normativ hamda ilmiy manbalar. Tadqiqotning cheklovi: maqolada alohida empirik so‘rov o‘tkazilmagan, natijalar nazariy tahlilga asoslanadi va keyingi bosqichda pedagogik tajriba-sinov bilan tekshirilishi lozim.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy imkoniyatlari

Tahlil ijtimoiy tarmoqlarning quyidagi ijobiy imkoniyatlarini ko‘rsatdi:

- ta'lim imkoniyatlarini kengaytiradi: yoshlar dunyoning nufuzli universitetlari ma'ruzalarini kuzatish, elektron kitoblar va o‘quv qo‘llanmalardan foydalanish imkoniga ega bo‘ladi;
- dunyoqarashni kengaytiradi: turli mamlakatlar madaniyati bilan tanishuv keng fikrlash qobiliyatini shakllantiradi;
- ijtimoiy faollikni oshiradi: jamoatchilik ishlarida faol qatnashish yo‘llarini ochadi;
- iste'dodni namoyon qilish imkonini beradi: ijod, san'at va ixtirolarni keng auditoriyaga taqdim etish mumkin;
- tezkor axborot olish va innovatsion fikrlashni rag‘batlantiradi.

Salbiy ta'sir va tahdidlar

Salbiy ta'sirning asosiy ko‘rinishlari: vaqtning samarasiz sarflanishi; internet qaramligi; milliy va umuminsoniy qadriyatlarga zid kontent; ekstremistik va radikal g‘oyalar ta'siri; ko‘rish qobiliyati va asab tizimiga salbiy ta'sir; kiberbulling; nazoratsiz axborot oqimi sababli ma'naviy qadriyatlarning zaiflashishi. 1-jadvalda imkoniyat va tahdidlar yo‘nalishlar bo‘yicha tasniflanib, ularga mos pedagogik javob keltirilgan.

1-jadval.

Imkoniyat, tahdid va pedagogik javob (muallif tasnifi)

Yo‘nalish	Ijtimoiy tarmoqdagi ko‘rinishi	Pedagogik javob
Ta'limiy	Ochiq ma'ruzalar, elektron kutubxonalar, tezkor axborot / samarasiz vaqt sarfi, yuzaki bilim	Ta'limiy kontentni tanlash va tekshirish ko‘nikmalari; vaqtni rejalashtirish
Ma'naviy-mafkuraviy	Madaniyatlar bilan tanishuv / yot g‘oyalar, ekstremistik targ‘ibot, tarixiy xotirani buzish	Axborot immuniteti, milliy qadriyatlarga tayangan tanqidiy fikrlash
Ijtimoiy	Ijtimoiy faollik, iste'dodni namoyon etish / kiberbulling, soxta identifikatsiya	Raqamli etika va xatti-harakat madaniyati; psixologik yordam
Psixologik-sog‘liq	Muloqot, qo‘llab-quvvatlash / internet qaramligi, ko‘rish va asab tizimiga yuk	Raqamli gigiyena, oila va murabbiy nazorati, muqobil bandlik
Axborot xavfsizligi	Tezkor yangiliklar / dezinformatsiya, manipulyatsiya, kiberxavf	Faktlarni tekshirish, kiberxavfsizlik profilaktikasi

Pedagogik javobning uch bosqichli modeli

Tahlil asosida quyidagi model taklif etiladi. Birinchi bosqich – ta'lim muassasasi: media savodxonlik fanlarini joriy etish, tanqidiy fikrlash va manbani tekshirish

ko‘nikmalarini o‘rgatish. Ikkinchi bosqich – oila va mahalla: ota-onalarning raqamli kompetensiyalarini oshirish, yoshlar bilan ochiq muloqot, internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish. Uchinchi bosqich – raqamli kontent va profilaktika: milliy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi sifatli kontent yaratish, yoshlar uchun ta'limiy Telegram va YouTube loyihalarini qo‘llab-quvvatlash, kiberxavfsizlik bo‘yicha profilaktik tadbirlar. Uch bosqich bir-birini to‘ldiradi: birinchisi bilim va ko‘nikma, ikkinchisi qadriyat va nazorat, uchinchisi muqobil axborot muhitini ta'minlaydi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar xorijiy tadqiqotlar bilan hamohang: Bekingem va Livingston ko‘rsatganidek, tanqidiy ko‘nikmalarsiz tahdidlarga qarshi turish qiyin [12; 13], boyd va Jenkins fikricha, yoshlarning tarmoqdagi faolligini inobatga olmaslik tarbiyaviy ta'sirni pasaytiradi [14; 15]. Shu bilan birga, mahalliy qarashlar [8; 9] yoshlarning mafkuraviy himoyasi faqat individual ko‘nikmaga emas, jamiyat va oila qadriyatlariga ham tayanishini ko‘rsatadi. Taklif etilgan uch bosqichli model ikki yondashuvni uyg‘unlashtiradi.

Muallifning fikricha, mafkuraviy tarbiyada ijtimoiy tarmoqlarni “dushman” deb baholash noto‘g‘ri; ularni tarbiya vositasiga aylantirish samaraliroq. Ayni paytda xorijiy tadqiqotlar xulosalarini milliy-ma'naviy muhitga moslashtirmasdan ko‘chirish ham xatodir. Tadqiqotning cheklovi – empirik tasdiqning yo‘qligi; kelgusida turli yosh guruhlari va hududlarda so‘rov hamda pedagogik tajriba-sinov o‘tkazish rejalashtiriladi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar tarbiyasiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Ularning imkoniyatlaridan samarali foydalanish va tahdidlarni kamaytirish uchun media savodxonlikni rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta'minlash va raqamli madaniyatni shakllantirish muhim. Tahlil asosida quyidagi tavsiyalar beriladi:

- ta'lim muassasalarida media savodxonlik fanlarini keng joriy etish;
- ota-onalarning raqamli kompetensiyalarini oshirish;

– yoshlarning internetdan to‘g‘ri foydalanish madaniyatini shakllantirish;
– milliy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi raqamli kontentlar sonini ko‘paytirish;
– kiberxavfsizlik bo‘yicha profilaktik tadbirlarni kuchaytirish;
– yoshlar uchun ta'limiy Telegram va YouTube loyihalarini qo‘llab-quvvatlash.

Zamonaviy ta'lim tizimi va tarbiya jarayonida ijtimoiy tarmoqlardan maqsadli foydalanish orqali yoshlarning intellektual va ma'naviy salohiyatini yanada yuksaltirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2016-yil 14-sentabr. www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasining “Diniy ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, 2018-yil 30-iyul. www.lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta'lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil 23-sentabr. www.lex.uz
5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: O‘zbekiston, 2017.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T.: O‘zbekiston, 2022.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 267-son Qarori. 2023-yil 29-iyun.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.
9. Jo‘rayev N. Mafkuraviy poligonlardagi kurash. T.: Ma'naviyat, 2018.
10. Saidov A. Media-savodxonlik va axborot madaniyati: o‘quv qo‘llanma. T.: Akademiya, 2022.
11. Castells M. The Rise of the Network Society. 2nd ed. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2010.
12. Buckingham D. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. Cambridge: Polity Press, 2003.
13. Livingstone S. Children and the Internet. Cambridge: Polity Press, 2009.
14. boyd d. It's Complicated: The Social Lives of Networked Teens. New Haven: Yale University Press, 2014.
15. Jenkins H. Convergence Culture: Where Old and New Media Collide. New York: NYU Press, 2006.
16. Turkle S. Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. New York: Basic Books, 2011.
17. Wardle C., Derakhshan H. Information Disorder: Toward an Interdisciplinary Framework for Research and Policymaking. Strasbourg: Council of Europe, 2017.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

18. Twenge J.M. iGen. New York: Atria Books, 2017.

BOŞLANĞIÇ SINF ÖQUVÇILARIDA ÖQIŞ VA MATNNI TUŞUNIŞ KÖNIKMALARINI RIVOJLANTIRIŞ MEXANIZMI

M.A.Asqarova
NamDPI dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boşlanğiç sinf öquvçilarida öqiş va matnni tuşuniş könikmalarini rivojlantirişning pedagogik-psixologik asoslari hamda metodik mexanizmlari yoritiladi. Öqiş savodxonligi faqat harflarni taniş yoki matnni ravon ovoz çiqarib öqiş bilan çeklanmasligi, balki öqilgan axborotni anglaş, muhim ma'lumotni ajratiş, xulosa çiqariş, mazmunni şaxsiy tajriba bilan boğlaş va matnga munosabat bildirişni ham qamrab olişi asoslanadi. Maqolada öqişdan oldingi, öqiş jarayonidagi va öqişdan keyingi faoliyatni izçil taşkil etiş, luğat ustida işlaş, savol tuziş, taxmin qiliş, qayta hikoyalaş, grafik organayzerlardan foydalaniş hamda formativ baholaş usullari taklif etiladi. Şuningdek, PIRLS xalqaro baholaş dasturida belgilangan matnni tuşuniş jarayonlari bilan boşlanğiç ta'lim amaliyoti örtasidagi boğliqlik körsatib beriladi. Taklif etilgan mexanizm öquvçilarning mustaqil fikrlaşi, oğzaki va yozma nutqi, axborot bilan işlaş hamda öqişga bölgan qiziqişini rivojlantirişga xizmat qiladi.*

Kalit sözlar: *boşlanğiç ta'lim, öqiş savodxonligi, matnni tuşuniş, ongli öqiş, öqiş strategiyalari, luğat ustida işlaş, PIRLS, formativ baholaş, mustaqil fikrlaş.*

МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ И ПОНИМАНИЯ ТЕКСТА У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

М.А.Аскарова
Доцент Наманганского государсвенного педагогического институти, доктор педагогических наук

Аннотация: *В данной статье освещаются психолого-педагогические основы и методические механизмы развития навыков чтения и понимания текста у учащихся начальных классов. Обосновывается, что читательская грамотность не ограничивается лишь узнаванием букв или беглым чтением вслух, а охватывает также осмысление прочитанной информации, выделение главного, формулирование выводов, связывание содержания с личным опытом и выражение собственного отношения к тексту. В статье предлагаются последовательная организация деятельности на предтекстовом, текстовом и послетекстовом этапах, словарная работа, составление вопросов, прогнозирование, пересказ, использование графических органайзеров, а также методы формативного оценивания. Кроме того, показана взаимосвязь между процессами понимания текста, определенными в международной программе оценки PIRLS, и практикой начального образования. Предложенный механизм способствует развитию у учащихся*

самостоятельного мышления, устной и письменной речи, навыков работы с информацией, а также интереса к чтению.

Ключевые слова: *начальное образование, читательская грамотность, понимание текста, осознанное чтение, стратегии чтения, словарная работа, PIRLS, формативное оценивание, самостоятельное мышление.*

MECHANISM FOR DEVELOPING READING AND TEXT COMPREHENSION SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

M.A.Askarova, Associate Professor
at the Namangan State Pedagogical Institute, Doctor of Pedagogical Sciences

Abstract: *This article examines the pedagogical and psychological foundations and methodological mechanisms for developing reading and reading-comprehension skills among primary school pupils. Reading literacy is considered not merely as accurate and fluent decoding, but as the ability to understand information, identify key ideas, make inferences, connect a text with prior knowledge and evaluate its content. The article proposes a structured instructional model consisting of pre-reading, while-reading and post-reading activities. It discusses vocabulary development, prediction, questioning, retelling, graphic organizers and formative assessment. The relationship between classroom practice and the reading-comprehension processes assessed by PIRLS is also outlined. The proposed approach is intended to support independent thinking, oral and written communication, information literacy and pupils' motivation to read.*

Key words: *primary education, reading literacy, reading comprehension, fluent reading, reading strategies, vocabulary development, PIRLS, formative assessment.*

KIRIŞ

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoyev 2019-yil 21-oktabr kuni özbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bağişlangan tantanali marosimdagi nutqida ta'limning barça bosqiçlarida ona tilini zamonaviy va innovatsion texnologiyalar asosida örgatiş zarurligini ta'kidlab, yoşlar "özbek tilida ravon öqiydigan, ravon yozadigan va teran fikrlaydigan insonlar" bölib yetişişi lozimligini qayd etgan [1]. Mazkur fikr boşlanğiç ta'limda öqiş va matnni tuşuniş könikmalarini şakllantirişning dolzarbligini yanada yaqqol körsatadi. Çunki ravon öqiş bilan bir qatorda öqilgan matn

mazmunini anglaş, fikrni tahlil qiliş va mustaqil xulosa çiqariş ham savodxon şaxsni tarbiyalaşning muhim şartidir.

Bugungi ta'lim jarayonida öquvçining bilimni tayyor holda qabul qilişi emas, balki axborotni mustaqil izlab topişi, uni tuşunişi, tahlil qilişi va hayotiy vaziyatlarda qöllay olişi muhim hisoblanadi. Bunday kompetensiyalarni şakllantiriş esa, eng avvalo, boşlanğiç ta'lim davrida tarkib topadigan öqiş savodxonligi bilan çambarças boğliq. Çunki öqiş barça fanlarni özlaştiriş uçun zarur bölgan asosiy vositalardan biridir. Öquvçi matematik masala şartini, tabiatşunoslikka oid ma'lumotni yoki topşiriq yöriqnomasini töğri tuşunmasa, tegişli bilimga ega bölsa ham, uni amalda qöllaşda qiyinçilikka duç kelişi mumkin.

Boşlanğiç sinflarda öqiş könikmasini rivojlantiriş ikki özaro boğliq yönalişni qamrab oladi: texnik jihat va mazmuniy jihat. Texnik jihat harflarni tovuşlarga moslaştiriş, sözlarni töğri va ravon öqiş, tiniş belgilariga rioya qiliş kabi malakalarni öz içiga oladi. Mazmuniy jihat esa öqilgan matnning asosiy fikrini anglaş, voqealar örtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlaş, qahramonlarning xatti-harakatlarini izohlaş, yaşirin ma'noni ilğaş va muallif fikriga munosabat bildirişni talab etadi. Uşbu ikki yönaliş bir-biridan ajralgan holda rivojlanmaydi: öqiş texnikasi avtomatlaşgani sari öquvçining diqqatini matn mazmuniga qaratiş imkoniyati ortadi.

Amaliyotda ayrim öquvçilar matnni tez va xatosiz öqişi, biroq uning mazmunini izohlaş, asosiy fikrni topiş yoki matndan dalil keltirişda qiynalişi kuzatiladi. Bunday holat öqiş darslarida faqat ovoz çiqarib öqişga yoki matnni yoddan qayta aytişga tayaniş yetarli emasligini körsatadi. Öquvçiga matn bilan faol işlaş, savol beriş, taxmin qiliş, ma'lumotlarni taqqoslaş va xulosa çiqariş usullarini muntazam örgatiş zarur.

Özbekiston Respublikasida ta'lim mazmunini takomillaştirişga qaratilgan me'yoriy hujjatlarda ham öqiş, yoziş va asosiy savodxonlik könikmalarini rivojlantiriş boşlanğiç ta'limning muhim vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-martdagi 157-son qarorida davlat ta'lim standartlarini işlab

çiqiş va joriy etişning yangilangan tartibi belgilangan [2]. Uşbu yondaşuv boşlanğiç ta'limda öquv natijalarini aniq könikmalar bilan boğlaş zarurligini kuçaytiradi.

Maqolaning maqsadi – boşlanğiç sinf öquvçilarida öqiş va matnni tuşuniş könikmalarini izçil rivojlantirişga xizmat qiluvçi pedagogik mexanizmni nazariy jihatdan asoslaş hamda uni dars jarayonida qöllaş böyiça metodik tavsiyalar işlab çiqiş.

ADABIYOTLAR ŞARHI

Boşlanğiç sinf öquvçilarida öqiş va matnni tuşuniş könikmalarini rivojlantiriş masalasi xalqaro pedagogik tadqiqotlarda savodxonlikning muhim tarkibiy yönalişi sifatida örganilgan. Ilmiy manbalarda öqiş jarayoni harflar va sözlarni taniş bilan çeklanmasligi, balki öquvçining matndan ma'no hosil qilişi, avvalgi bilimlarini işga solişi, axborotni tahlil qilişi va öz fikrini asoslay olişini ham qamrab olişi ta'kidlanadi. Şu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotda öqiş texnikasi va mazmunni anglaş bir-birini töldiruvçi könikmalar sifatida qaraladi.

RAND Reading Study Group tomonidan tayyorlangan "Reading for Understanding" hisobotida öqib tuşuniş öquvçi, matn va öqiş faoliyati amalga oşiriladigan vaziyat örtasidagi özaro munosabat natijasi sifatida izohlanadi (Snow, 2002) [3]. Uşbu yondaşuvga köra, matnni anglaş faqat matnda berilgan ma'lumotga boğliq emas; öquvçining oldingi tajribasi, luğat boyligi, maqsadi va öqiş şaroiti ham tuşunişga ta'sir körsatadi. Bu fikr boşlanğiç sinf darslarida matn tanlaşda öquvçilarning yoş xususiyatlari va hayotiy tajribasini hisobga oliş zarurligini asoslaydi.

Duke va Pearson (2002) öqib tuşunişni rivojlantirişga doir samarali amaliyotlarni tahlil qilib, öqituvçining fikrlaş jarayonini namoyiş etişi, öquvçilarni savol berişga undaşi, matn mazmuni yuzasidan muhokama taşkil qilişi va tuşunişni nazorat qiliş strategiyalarini örgatişiga alohida e'tibor qaratadi. Ularning qaraşlaridan kelib çiqib, öqituvçi matnni şunçaki öqitib qöymasdan, qanday qilib xulosa çiqariş, muhim fikrni ajratiş va tuşunilmagan joyga qaytiş mumkinligini amalda körsatişi lozim [4]. Mazkur

maqolada taklif etilgan öqişdan oldingi, öqiş jarayonidagi va öqişdan keyingi faoliyatlar ana şu yondaşuv bilan uyğunlaşadi.

Xalqaro PIRLS tadqiqotining baholaş doiralarida öqiş savodxonligi badiiy va axborotiy matnlarni tuşuniş hamda ulardan foydalaniş bilan boğliq jarayonlar orqali baholanadi. Unda matnda aniq berilgan ma'lumotni topiş, sodda xulosa çiqariş, ğoya va ma'lumotlarni talqin qiliş hamda birlaştiriş, matn mazmuni va şaklini baholaş kabi fikrlaş amallari ajratiladi (Mullis va Martin, 2019) [5]. Bu tasnif boşlanğiç sinflarda savollarni faqat matndan fakt topişga qaratmasdan, asta-sekin tahlil, talqin va baholaş darajasiga olib çiqiş zarurligini körsatadi.

U.S. Institute of Education Sciences huzuridagi What Works Clearinghouse tomonidan e'lon qilingan "Improving Reading Comprehension in Kindergarten Through 3rd Grade" qöllanmasida kiçik yoşdagi öquvçilarga tuşuniş strategiyalarini bevosita örgatiş, matn tuzilişini anglatiş, mazmun yuzasidan sifatli suhbat taşkil etiş, maqsadga mos matn tanlaş va öqişga qiziqiş uyğotiş tavsiya etiladi (IES, 2010) [6]. Qöllanmada strategiyalarni alohida va uyğun holda örgatiş, öquvçining tuşuniş jarayonini kuzatib boriş muhimligi qayd etilgan. Bu tavsiyalar maqolada ilgari surilayotgan metodik mexanizmning amaliy asoslaridan biri bölib xizmat qiladi.

"Foundational Skills to Support Reading for Understanding in Kindergarten Through 3rd Grade" qöllanmasida tovuş-harf munosabatini özlaştiriş, sözlarni dekodlaş, akademik luğatni rivojlantiriş va har kuni boğlangan matnlarni öqiş kabi boşlanğiç könikmalar yoritilgan (IES, 2016; 2019-yilgi tahrir) [7]. Uşbu tavsiyalar öqiş texnikasi bilan mazmunni tuşuniş örtasidagi uzviy aloqani körsatadi: sözlarni taniş va ravon öqiş yetarli darajada şakllanmasa, öquvçining diqqatini matn mazmuniga qaratişi qiyinlaşadi. Şu sababli boşlanğiç bosqiçda dekodlaş, ravonlik va luğat ustida işlaş tuşunişni rivojlantiriş bilan birga olib borilişi lozim.

Körib çiqilgan manbalar öqiş savodxonligini rivojlantirişda umumiy jihatlarni – strategiyalarni örgatiş, luğatni boyitiş, matn tuzilişini anglaş, muhokama va muntazam

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

baholaşni – birdek muhim deb körsatadi. Biroq bu yondaşuvlarni boşlanğiç sinfning har bir bosqiçiga moslaştiriş, öquvçilarning individual farqlarini hisobga oliş va ularni yagona dars mexanizmiga birlaştiriş masalasi alohida metodik yeçimni talab qiladi. Mazkur maqolada aynan şu ehtiyojdan kelib çiqib, diagnostika, uç bosqiçli matn bilan işlaş, formativ baholaş va individual yordamni birlaştirgan mexanizm taklif etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlaşda pedagogik va metodik adabiyotlarni tahlil qiliş, qiyosiy tahlil, umumlaştiriş, pedagogik kuzatiş tajribasini nazariy jihatdan şarhlaş hamda metodik modellaştiriş yondaşuvlaridan foydalanildi. Xalqaro PIRLS baholaş dasturining öqiş savodxonligiga oid konseptual asoslari, boşlanğiç sinflarda öqişni örgatiş böyiça ilmiy-amaliy tavsiyalar va Özbekiston ta'limiga oid me'yoriy hujjatlar tahlil uçun asos böldi. Mazkur maqola nazariy-metodik xarakterga ega; unda muayyan maktabda ötkazilgan tajriba-sinov yoki statistik ölçov natijalari da'vo qilinmaydi.

Öqiş va matnni tuşuniş könikmalarini rivojlantiriş mexanizmi özaro boğliq beş tarkibiy qismdan taşkil topadi: maqsadli-diagnostik, mazmuniy, jarayonli-metodik, baholaş-tahliliy va korreksion-rivojlantiruvçi qismlar. Maqsadli-diagnostik qism öquvçining dastlabki öqiş darajasi, luğat boyligi, matnni anglaş holati va qiziqişlarini aniqlaşni nazarda tutadi. Mazmuniy qism yoşga mos badiiy, axborotiy va amaliy matnlarni tanlaş bilan boğliq. Jarayonli-metodik qism matn oldidan, matn davomida va matndan keyin bajariladigan faoliyatlarni qamrab oladi. Baholaş-tahliliy qism öquvçi javoblari va bajarilgan topşiriqlarni mezonlar asosida tahlil qilişga xizmat qiladi. Korreksion-rivojlantiruvçi qism esa aniqlangan qiyinçiliklarga mos qöşimça maşqlar va individual yordamni belgilaydi.

Mazkur mexanizmning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: izçillik va uzviylik; öquvçining yoşiga moslik; matn mazmunining hayotiyligi; osondan murakkabga boriş; faol va hamkorlikdagi öqiş; individual farqlarni hisobga oliş; muntazam qayta aloqa; öqişning barça fanlar bilan integratsiyasi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

NATIJALAR VA T-AHLILLAR

1. Öqiş va matnni tuşuniş könikmalarining tarkibiy tuzilişi. Öqiş savodxonligi – yozma matnlarni tuşuniş, ulardan foydalaniş, ular haqida fikr yuritiş va öqiş faoliyatiga qiziqiş bildiriş qobiliyatidir. Bu ta'rif öqişni oddiy texnik jarayon emas, balki ma'no yaratişga yönaltirilgan faoliyat sifatida körişga imkon beradi. Öquvçi matnni tuşuniş jarayonida matnda berilgan axborot bilan avvalgi bilim va tajribasini boğlaydi. Şu sababli bir xil matn turli öquvçilarda turliça savollar va xulosalarni yuzaga keltirişi mumkin.

PIRLS xalqaro tadqiqotida matnni tuşunişning törtta asosiy jarayoni ajratiladi: matnda oçiq ifodalangan ma'lumotni topiş; sodda xulosa çiqariş; ğoya va ma'lumotlarni talqin qiliş hamda birlaştiriş; matn mazmuni va şaklini baholaş, tanqidiy fikr bildiriş. Uşbu jarayonlar boşlanğiç sinf darslarida ham bosqiçma-bosqiç şakllantirilişi mumkin.

Birinçi jarayon – oçiq ifodalangan ma'lumotni topiş. Bunda öquvçi matndan qahramonning ismi, voqea sodir bölgan joy, vaqt, predmet yoki aniq faktni aniqlaydi. Masalan, "Voqea qayerda sodir böldi?" yoki "Qahramon kim bilan uçraşdi?" kabi savollar qöllanadi. Ikkinçi jarayon – xulosa çiqariş. Öquvçi matnda töğridan-töğri aytilmagan, biroq berilgan belgilar orqali anglaş mumkin bölgan ma'noni topadi. "Nima uçun qahramon bunday yöl tutdi?" kabi savollar bunga misol böladi.

Uçinçi jarayon – talqin qiliş va birlaştiriş. Öquvçi matnning turli qismlaridagi ma'lumotlarni özaro boğlaydi, asosiy ğoyani aniqlaydi, voqealar ketma-ketligini tiklaydi va matnni avvalgi bilimlari bilan taqqoslaydi. Törtinçi jarayon – baholaş va tanqidiy munosabat bildiriş. Bunda öquvçi qahramon xatti-harakatiga baho beradi, muallif fikrini tahlil qiladi, matndagi dalilning işonçliligi yoki voqealarning hayotiyligi haqida fikr yuritadi. Bu jarayonlar sinf darajasiga qarab soddadan murakkabga tomon rivojlantiriladi.

2. Matn bilan işlaşning uç bosqiçli mexanizmi mavjud:

Birinçi bosqiç – öqişdan oldingi faoliyat. Bu bosqiç öquvçini matnni anglaşga tayyorlaydi, mavjud bilimlarini faollaştiradi va öqiş maqsadini belgilaydi. Öqituvçi matn sarlavhasi, rasmi yoki kalit sözlarini körsatib, "Sizningça, matn nima haqida?", "Bu mavzu böyiça nimalarni bilasiz?" kabi savollar beradi. Öquvçilar taxminlarini aytadilar va öqiş davomida ularni tekşirişga yönaltiriladilar. Matnda uçraşi mumkin bölgan yangi sözlar oldindan tuşuntiriladi, biroq barça mazmunni öqişdan avval aytib beriş tavsiya etilmaydi. Aks holda öquvçining mustaqil anglaş faoliyati susayişi mumkin.

Ikkinçi bosqiç – öqiş jarayonidagi faoliyat. Uşbu bosqiçda öquvçi matnni maqsadli öqiydi, muhim joylarni belgilaydi, savollarga javob izlaydi va tuşunmagan qismlarini aniqlaydi. Matnni qismlarga ajratib öqiş, har bir qismga sarlavha qöyiş, töxtab taxmin qiliş, juftlikda öqiş va öqituvçi bilan birgalikda fikrlaş usullari samarali hisoblanadi. Öqituvçi tayyor javobni aytiş örniga, matndan dalil topişga yönaltiruvçi savollar beradi. Masalan, "Bunday xulosaga kelişingga matnning qaysi jumlasi yordam berdi?" deb söraş öquvçini dalil bilan fikr bildirişga örgatadi.

Uçinçi bosqiç – öqişdan keyingi faoliyat. Bu bosqiçda matn mazmuni qayta işlanadi, umumlaştiriladi va öquvçining şaxsiy tajribasi bilan boğlanadi. Öquvçilar matnni qayta hikoya qilişi, asosiy fikrni bir jumlada ifodalaşi, qahramonlarga tavsif berişi, voqealar xaritasini tuzişi yoki matnga boşqa yakun taklif qilişi mumkin. Axborotiy matnlarda esa asosiy faktlarni jadvalga joylaştiriş, ikki hodisani taqqoslaş, sabab va natijani ajratiş foydali. Yakunda öquvçi "Men nimani bildim?", "Qaysi savolga javob topolmadim?", "Bu ma'lumotdan qayerda foydalanişim mumkin?" kabi refleksiv savollarga javob beradi.

3. Öqiş könikmalarini rivojlantiruvçi quyidagi metod va topşiriqlar bor:

Başorat qiliş metodi öquvçining matnni faol öqişiga yordam beradi. Sarlavha yoki rasm asosida voqealar rivoji haqida taxmin qilinadi, öqiş davomida esa taxminning qançalik töğri ekani tekşiriladi. Bu usul öquvçini matnga diqqat bilan qaraşga va öz fikrini dalillar bilan soliştirişga örgatadi.

Savol tuziş metodi öquvçini faqat savollarga javob beruvçi emas, balki mustaqil savol yaratuvçi faol iştirokçiga aylantiradi. Dastlab “Kim?”, “Qayerda?”, “Qaçon?” kabi aniq javobli savollar, keyinçalik “Nima uçun?”, “Agar ... bölmaganida nima yuz berardi?”, “Muallif nima demoqçi?” kabi fikrlaşni talab qiladigan savollar tuzdiriladi.

Qayta hikoyalaş metodi matn mazmunini xotirada saqlaş va mantiqiy ketma-ketlikda bayon etiş könikmasini mustahkamlaydi. Bunda matnni aynan yodlab aytiş emas, asosiy voqealarni öz sözlari bilan ifodalaşga e’tibor qaratiladi. Reja asosida, tayanç sözlar yordamida, rasmli ketma-ketlik orqali yoki qahramon nomidan hikoya qiliş şakllaridan foydalaniş mumkin.

Grafik organayzerlar ma’lumotlarni körgazmali tartibga solişga xizmat qiladi. “Voqealar zanjiri” ketma-ketlikni, “Venn diagrammasi” öxşaş va farqli jihatlarni, “Sabab–oqibat” jadvali hodisalar örtasidagi boğliqlikni, “Klaster” esa mavzu atrofidagi tuşunçalarni aniqlaşga yordam beradi. Grafik organayzer öquvçi örniga fikrlamasligi, balki uning fikrini tartibga solişi kerak.

Luğat ustida işlaş matnni tuşunişning muhim şartidir. Yangi sözlarni faqat izohini yodlatiş bilan çeklanmasdan, ularni gapda qöllaş, ma’nodoş va zid ma’noli sözlarni topiş, rasm bilan boğlaş, matndagi kontekst orqali ma’nosini taxmin qiliş topşiriqlari beriladi. Öquvçining söz boyligi kengaygani sari matn mazmunini anglaş imkoniyati ham ortadi.

Juftlikda va kiçik guruhda öqiş öquvçilarning bir-biridan örganişiga şaroit yaratadi. Masalan, bir öquvçi matnning bir qismini öqiydi, ikkinçisi asosiy fikrni aytadi, uçinçisi savol tuzadi. Keyin vazifalar almaştiriladi. Bunda har bir öquvçining faol qatnaşişi ta’minlanişi lozim.

Ovoz çiqarib öqiş va mustaqil içda öqiş bir-birini töldiradi. Ovoz çiqarib öqiş talaffuz, ravonlik va ifodalilikni rivojlantiradi. Içda öqiş esa matnni individual sur’atda anglaş, qayta öqiş va muhim ma’lumotni belgilaş imkonini beradi. Darsda faqat bir usulga tayaniş öquvçilarning turli ehtiyojlarini qamrab olmasligi mumkin.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Sinflar kesimida topşiriqlarni murakkablaştiriş. 1-sinfda asosiy e'tibor tovuş-harf munosabatini anglaş, böğin va sözlarni töğri öqiş, qisqa gaplar mazmunini tuşuniş, rasm va matn örtasidagi boğliqlikni topişga qaratiladi. Öqituvçi qisqa matnni öqib beradi yoki öquvçilar bilan birgalikda öqiydi. "Kim?", "Nima qildi?", "Qayerda?" savollari, rasm asosida gap tuziş va voqeani ikki-uç gap bilan aytib beriş mos keladi.

2-sinfda matnni ravonroq öqiş bilan birga voqealar ketma-ketligini aniqlaş, qahramonlarning xatti-harakatini sodda izohlaş, yangi sözlarning ma'nosini kontekstdan anglaş va qisqa reja tuzişga e'tibor kuçaytiriladi. Öquvçilar matnning boşlanişi, asosiy voqeasi va yakunini ajratişga örgatiladi.

3-sinfda matnning asosiy va ikkinçi darajali ma'lumotlarini farqlaş, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlaş, ikki qahramon yoki hodisani taqqoslaş, matnga sarlavha tanlaş va xulosa çiqariş topşiriqlari kengaytiriladi. Öquvçidan javobini matndagi jumla yoki voqea bilan asoslaş talab etiladi.

4-sinfda öquvçi badiiy va axborotiy matnlarni mustaqil tahlil qiliş, muallif maqsadini aniqlaş, matndagi dalillarni baholaş, bir neçta manbadagi ma'lumotlarni taqqoslaş va öz munosabatini yozma ifodalaşga yönaltiriladi. PIRLS yondaşuvidagi tört tuşuniş jarayoni asosida tuzilgan topşiriqlar aynan şu bosqiçda tizimli qöllanişi mumkin. Biroq topşiriq murakkabligi faqat sinf raqamiga emas, öquvçining tayyorgarlik darajasiga ham moslaştirilişi kerak.

4. Quyida 3–4-sinflarda qöllaş mumkin bölgan qisqa axborotiy matn asosida topşiriqlar namunasi keltiriladi.

Matn: "Daraxtlar va tabiat"

Daraxtlar tabiat muvozanatini saqlaşda muhim örin tutadi. Ular havoni çangdan tozalaşga yordam beradi, köplab quş va haşarotlar uçun yaşaş joyi bölib xizmat qiladi. Yozda daraxt soyasi atrofni salqinlaştiradi. Daraxtlarni asraş uçun nihollarni parvarişlaş, şoxlarini sababsiz sindirmaslik va ularning atrofiga çiqindi taşlamaslik kerak.

Matn oldidan: “Daraxtlar inson va tabiat uçun nima sababdan kerak?” savoli beriladi. Öquvçilar öz bilganlarini aytadilar va matn mazmuni haqida taxmin qiladilar.

Matn davomida: “Daraxtlar qanday foyda keltiradi?”, “Qaysi jumla daraxtlarning quşlar uçun ham muhimligini körsatadi?” savollari bilan oçiq ma’lumotni topiş; “Nima uçun daraxt soyasida havo salqinroq böladi?” savoli bilan xulosa çiqariş maşq qilinadi.

Matndan keyin: öquvçilar daraxtning foydasi va uni asraş yöllarini ikki ustunli jadvalga joylaştiradilar. Söng “Maktab hovlisidagi daraxtlarni asraş uçun qanday işlarni amalga oşiriş mumkin?” savoliga öz takliflarini bildiradilar. Javobda matndan kamida bitta dalil keltiriş söraladi.

Uşbu topşiriq oddiy faktni topişdan boşlab sababni tuşuntiriş, ma’lumotni tartibga soliş va şaxsiy munosabat bildirişgaça bölgan jarayonni qamrab oladi. Öqituvçi öquvçining faqat javobi töğriligini emas, javobga qanday kelganini ham kuzatadi.

5. Baholaş va rivojlanişni monitoring qiliş. Öqiş va matnni tuşuniş könikmalarini rivojlantirişda baholaş faqat çorak yoki yakuniy nazorat vazifasini bajarmasligi kerak. Kundalik dars jarayonida öquvçining qaysi könikmani egallagani va qaysi jihatda yordamga muhtojligini aniqlaydigan formativ baholaş muhim. Buning uçun öqituvçi kuzatiş varaqasi, qisqa savollar, oğzaki izoh, juftlikdagi muhokama, matndan dalil topiş va çiqiş kartoçkalaridan foydalanişi mumkin.

Baholaş mezonlari quyidagi yönalişlarda belgilanadi: matnni töğri va ravon öqiş; matnda oçiq berilgan ma’lumotni topiş; voqealar örtasidagi boğliqlikni tuşuntiriş; asosiy fikrni aniqlaş; xulosa çiqariş; fikrini matndan dalil bilan asoslaş; matnga şaxsiy munosabat bildiriş. Har bir mezon böyiça “mustaqil bajaradi”, “yönaltiriş bilan bajaradi”, “qöşimça yordamga muhtoj” kabi tavsifiy darajalardan foydalaniş mumkin.

Masalan, öquvçi matndagi aniq ma’lumotni topa olsa-yu, sabab-oqibatni izohlaşda qiynalsa, unga yana köproq matn öqitişning özi yetarli bölmaydi. Sababni bildiruvçi sözlarni ajratiş, ikki voqea orasidagi boğlanişni çizma orqali körsatiş va “Nima

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

uçun?" savoliga matndan dalil izlaş kabi maqsadli maşqlar zarur. Şu tariqa baholaş keyingi ta'limiy harakatni belgilovçi vositaga aylanadi.

Öqiş tezligini baholaşda ham ehtiyotkorlik talab etiladi. Bir daqiqada öqilgan sözlar soni foydali kuzatuv körsatkiçi bölişi mumkin, ammo u matnni tuşunişning yagona mezoni emas. Öquvçining töğri öqişi, ifodaliligi, mazmunni anglagani va savollarga asosli javob berişi birgalikda hisobga olinişi lozim.

Tahlil şuni körsatadiki, öqiş savodxonligini rivojlantirişda alohida metod yoki bitta maşqning özi yetarli natija bermaydi. Samarali jarayon öqiş texnikasi, luğat boyligi, matn mazmunini anglaş, fikrlaş strategiyalari va muntazam baholaşning özaro uyğunligiga tayanadi. Masalan, öquvçi notaniş sözlarni köp uçratsa, matn mazmunini töliq anglaş qiyinlaşadi. Şu sababli luğat ustida işlaş matnni öqişdan ajratilgan alohida maşğulot emas, balki matn bilan işlaş jarayonining tarkibiy qismi bölişi kerak.

XULOSA

Boşlanğiç sinf öquvçilarida öqiş va matnni tuşuniş könikmalarini rivojlantiriş uzluksiz, maqsadli va tizimli taşkil etiladigan pedagogik jarayondir. Öqiş malakasi matnni töğri va ravon öqiş bilangina belgilanmaydi; öquvçining mazmunni anglaş, ma'lumotni izlaş, xulosa çiqariş, fikrlarni birlaştiriş va matnga tanqidiy munosabat bildiriş qobiliyatlari ham uning tarkibiy qismidir.

Maqolada taklif etilgan mexanizm diagnostika, mazmun tanlaş, uç bosqiçli matn bilan işlaş, formativ baholaş va individual korreksion yordamning özaro boğliqligiga asoslanadi. Öqişdan oldingi faoliyat öquvçining mavjud bilimini faollaştiradi; öqiş jarayonidagi faoliyat mazmunni anglaş va nazorat qilişga yordam beradi; öqişdan keyingi faoliyat esa ma'lumotni umumlaştiriş, talqin qiliş va hayot bilan boğlaş imkonini yaratadi.

Amaliyotda başorat qiliş, savol tuziş, qayta hikoyalaş, luğat ustida işlaş, grafik organayzerlar, juftlikda öqiş va matndan dalil topiş usullarini maqsadli qöllaş tavsiya etiladi. Topşiriqlar 1–4-sinflar kesimida öquvçilarning yoş va tayyorgarlik

xususiyatlariga mos ravişda murakkablaştirilişi zarur. Baholaşda öqiş tezligining özi bilan çeklanmasdan, mazmunni tuşunişning turli körsatkiçlari ham hisobga olinişi lozim.

Şunday qilib, öqiş savodxonligini rivojlantirişning asosiy şarti – öquvçini matnni şunçaki öqişga emas, balki u bilan fikrlaşga örgatişdir. Bunday yondaşuv boşlanğiç sinf öquvçisining mustaqil ta'lim olişi, nutqiy faolligi, tanqidiy fikrlaşi va boşqa fanlarni muvaffaqiyatli özlaştirişi uçun zarur poydevor yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Ş. M. Özbek tiliga davlat tili maqomi berilganining öttiz yilligiga bağişlangan tantanali marosimdagi nutq. – 2019-yil 21-oktabr. – https://www.president.uz/oz/lists/view/2954
2. Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-martdagi 157-son qarori. "Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini işlab çiqiş hamda joriy etiş tartibini takomillaştiriş çora-tadbirlari töğrisida". – https://lex.uz/uz/acts/-6854214
3. Snow, C. E. Reading for Understanding: Toward an R&D Program in Reading Comprehension. – Santa Monica: RAND, 2002. – https://www.rand.org/content/dam/rand/pubs/monograph_reports/2005/MR1465.pdf
4. Duke, N. K., Pearson, P. D. Effective Practices for Developing Reading Comprehension. In: Farstrup, A. E., Samuels, S. J. (Eds.). What Researç Has to Say About Reading Instruction. 3rd ed. – Newark, DE: International Reading Association, 2002. – P. 205–242.
5. Mullis, I. V. S., Martin, M. O. (Eds.). PIRLS 2021 Assessment Frameworks. – Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center, 2019. – https://pirls2021.org/frameworks/
6. Şanahan, T., Callison, K., Carriere, C., Duke, N. K., Pearson, P. D., Sçatsçneider, C., Torgesen, J. Improving Reading Comprehension in Kindergarten Through 3rd Grade: A Practice Guide (NCEE 2010-4038). – Waşington, DC: National Center for Education Evaluation and Regional Assistance, Institute of Education Sciences, 2010. – https://ies.ed.gov/ncee/wwc/PracticeGuide/14
7. Foorman, B., Beyler, N., Borradaile, K., Coyne, M., Denton, C. A., Dimino, J., Furgeson, J., Hayes, L., Henke, J., Justice, L., Keating, B., Lewis, W., Sattar, S., Streke, A., Wagner, R., Wissel, S. Foundational Skills to Support Reading for Understanding in Kindergarten Through 3rd Grade (NCEE 2016-4008). – Waşington, DC: National Center for Education Evaluation and Regional Assistance, Institute of Education Sciences, 2016. – https://ies.ed.gov/ncee/wwc/PracticeGuide/21.
8. Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmoni. "2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantiriş böyiça milliy dasturni tasdiqlaş töğrisida". – https://president.uz/oz/lists/view/5199

ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI FANINI O'QITISHDA TAFAKKURNI RIVOJLANTIRUVCHI INTERFAOL METODLAR VA O'YIN TEXNOLOGIYALARINING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Ziyomiddinova Nilufar Avazbekovna
Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchi
nilufarziyomiddinova83@gmail.com
ORCID :0009-0007-9086-8602

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi interfaol metodlar va o'yin texnologiyalarining ilmiy-metodik asoslari tahlil qilingan. Interfaol ta'limning o'quvchi faolligini oshirish, mustaqil fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, muammoli vaziyatlarni hal etish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, ona tili va o'qish savodxonligi mashg'ulotlarida qo'llash mumkin bo'lgan tafakkur rivojlantiruvchi metodlar va didaktik o'yinlarning mazmuni, ularni tashkil etish bosqichlari hamda samaradorligini baholash mezonlari asoslangan. Tadqiqot natijasida interfaol metodlar va o'yin texnologiyalarini o'zaro uyg'unlashtirishga asoslangan metodik yondashuv taklif etilgan.*

Kalit so'zlar: *ona tili, o'qish savodxonligi, boshlang'ich ta'lim, tafakkur, interfaol metodlar, o'yin texnologiyalari, didaktik o'yin, tanqidiy fikrlash, ijodiy tafakkur, muammoli ta'lim.*

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ И ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ, РАЗВИВАЮЩИХ НАВЫКИ МЫШЛЕНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ РОДНОМУ ЯЗЫКУ И ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ

Аннотация. *В статье анализируются научно-методические основы интерактивных методов и игровых технологий, направленных на развитие мышления учащихся начальных классов в процессе преподавания родного языка и читательской грамотности. Рассматриваются возможности интерактивного обучения в формировании навыков самостоятельного мышления, анализа, сравнения, обобщения, решения проблемных ситуаций и творческого подхода. Обосновываются содержание развивающих мышление методов и дидактических игр, этапы их организации и критерии оценки эффективности. Предлагается методический подход, основанный на интеграции интерактивных методов и игровых технологий.*

Ключевые слова: *родной язык, читательская грамотность, начальное образование, мышление, интерактивные методы, игровые технологии, дидактическая игра, критическое мышление, творческое мышление, проблемное обучение.*

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF INTERACTIVE METHODS AND GAME TECHNOLOGIES THAT DEVELOP THINKING SKILLS IN THE TEACHING OF MOTHER TONGUE AND READING LITERACY

Abstract. *This article examines the scientific and methodological foundations of interactive methods and game-based learning technologies aimed at developing primary school pupils' thinking skills in mother tongue and reading literacy lessons. It explores how interactive learning can foster independent thinking, analysis, comparison, generalization, problem-solving, and creative approaches. The article also substantiates the content of thinking-oriented teaching methods and didactic games, their implementation stages, and criteria for evaluating their effectiveness. A methodological approach based on integrating interactive methods and game-based learning technologies is proposed.*

Keywords: *mother tongue, reading literacy, primary education, thinking, interactive methods, game-based learning, didactic games, critical thinking, creative thinking, problem-based learning.*

KIRISH

Zamonaviy boshlang‘ich ta’limning ustuvor vazifalaridan biri o‘quvchilarga bilimlarni tayyor shaklda yetkazish bilan cheklanib qolmasdan, ularda mustaqil fikrlash, axborotni anglash, tahlil qilish, muammoli vaziyatlarga yechim topish va o‘z qarashlarini asoslash kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat. Ayniqsa, ona tili va o‘qish savodxonligi fanlari o‘quvchilarning nutqiy rivojlanishi bilan bir qatorda, ularning intellektual va bilish faoliyatini takomillashtirishda ham muhim o‘rin tutadi. Ona tili darslarida so‘z, gap va matn ustida ishlash jarayoni o‘quvchilardan lingvistik hodisalarni farqlash, taqqoslash, tasniflash, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash hamda xulosalar chiqarishni talab qiladi. O‘qish savodxonligi mashg‘ulotlarida esa matn mazmunini anglash, asosiy va ikkinchi darajali axborotni ajratish, qahramonlar xatti-harakatini baholash, muallif pozitsiyasini tushunish va matnga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish tafakkur faoliyatining muhim ko‘rinishlari hisoblanadi. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda interfaol metodlar va o‘yin texnologiyalari alohida didaktik ahamiyatga ega. Interfaol ta’lim o‘quvchini ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. O‘yin texnologiyalari esa bilish faoliyatini qiziqarli, maqsadli va muayyan qoidalarga asoslangan faoliyat shaklida tashkil etish imkonini beradi. Bunda o‘yin faqat

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

ko‘ngilochar mashg‘ulot emas, balki aniq ta’limiy maqsadga yo‘naltirilgan didaktik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. L.S. Vigotskiy ta’lim va rivojlanish o‘rtasidagi munosabatni bolaning yaqin rivojlanish zonasi bilan bog‘lagan. Ushbu yondashuvga ko‘ra, o‘quvchi mustaqil bajara olmaydigan vazifalarni pedagog yoki tengdoshlari ko‘magida bajarish orqali yangi bilish imkoniyatlarini egallaydi [1]. J. Brunerning kashfiyot orqali o‘rganish konsepsiyasi esa o‘quvchining tayyor xulosalarni qabul qilishi emas, balki bilimlarni izlanish, savol berish va munosabatlarni aniqlash orqali o‘zlashtirishiga urg‘u beradi [2]. Shu nuqtayi nazardan, ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida interfaol metodlar hamda o‘yin texnologiyalarini maqsadli qo‘llashning ilmiy-metodik asoslarini aniqlash dolzarb pedagogik vazifa hisoblanadi. **Tadqiqotning maqsadi** - ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi interfaol metodlar va o‘yin texnologiyalarining didaktik imkoniyatlarini ilmiy-metodik jihatdan asoslash hamda ularni qo‘llash mexanizmini ishlab chiqish. Tadqiqotning asosiy vazifalari:

tafakkur rivojlanishi va interfaol ta’lim o‘rtasidagi pedagogik-psixologik bog‘liqlikni tahlil qilish;

ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida qo‘llanadigan interfaol metodlarning rivojlantiruvchi imkoniyatlarini aniqlash;

didaktik o‘yinlarning tafakkur operatsiyalarini shakllantirishdagi o‘rnini ochib berish;

interfaol metodlar va o‘yin texnologiyalarini uyg‘unlashtirishga asoslangan metodik yondashuvni taklif etish;

o‘quvchilarning tafakkur rivojlanishini baholash mezonlarini belgilash.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-metodologik xarakterga ega bo‘lib, unda pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish hamda didaktik modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik

asosini faoliyatga yo‘naltirilgan, shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy va rivojlantiruvchi ta’lim yondashuvlari tashkil etadi. Mazkur yondashuvlar o‘quvchini bilimlarni passiv qabul qiluvchi emas, balki o‘z bilish faoliyatini mustaqil tashkil etuvchi subyekt sifatida qarash imkonini beradi. Interfaol ta’limning nazariy asoslarini tahlil qilishda quyidagi ilmiy qarashlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Ijtimoiy-konstruktivistik yondashuv. Bilimlarning o‘zlashtirilishi muloqot, hamkorlik va o‘zaro faoliyat jarayonida amalga oshadi. O‘quvchi o‘z fikrini boshqalarning qarashlari bilan taqqoslash orqali bilimlarini aniqlashtiradi [1]. Kashfiyot orqali o‘rganish**.** O‘quvchining savol berishi, izlanishi, faraz ilgari surishi va mustaqil xulosa chiqarishi bilish faoliyatining muhim sharti hisoblanadi [2]. Hamkorlikda o‘qitish**.** Kichik guruhlarda muammoni muhokama qilish, fikr almashish va umumiy qarorga kelish o‘quvchilarning kommunikativ hamda tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantiradi [3]. Metakognitiv yondashuv**.** O‘quvchining o‘z fikrlash jarayonini kuzatishi, qo‘llagan usulini baholashi va xatolarini anglab tuzatishi ta’lim samaradorligini oshiradi [4]. Tadqiqot doirasida tafakkur rivojlanishi quyidagi asosiy operatsiyalar orqali tavsiflandi:

Tafakkur operatsiyasi	**Ona tili va o‘qish savodxonligi darsidagi namoyon bo‘lishi**
Tahlil	So‘z, gap yoki matn tarkibiy qismlarini ajratish
Sintez	Alohida so‘z va fikrlardan yaxlit mazmun hosil qilish
Taqqoslash	Qahramonlar, voqealar, so‘zlar yoki matnlarni qiyoslash
Umumlashtirish	Umumiy belgilar asosida xulosa chiqarish
Tasniflash	So‘z va tushunchalarni muayyan guruhlarga ajratish
Sabab-oqibatni aniqlash	Voqealarning yuzaga kelish sababi va natijasini tushuntirish
Ijodiy fikrlash	Matnni davom ettirish, yangi sarlavha yoki muqobil yechim taklif qilish
Refleksiya	O‘z fikrini baholash va xulosasini asoslash

Mazkur operatsiyalar bir-biridan ajralgan holda emas, balki o‘zaro bog‘liq holda rivojlanadi. Masalan, matn qahramonlarining xatti-harakatlarini taqqoslash jarayonida o‘quvchi avval ma’lumotlarni tahlil qiladi, so‘ng umumiy va farqli jihatlarni aniqlaydi, yakunda esa mustaqil xulosa chiqaradi.

NATIJALAR

Nazariy tahlil natijasida ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi interfaol metodlarni uchta asosiy guruhga ajratish mumkinligi aniqlandi.

Tahliliy va mantiqiy tafakkurni rivojlantiruvchi metodlar Ushbu metodlar o‘quvchilarning axborotni qismlarga ajratish, o‘zaro munosabatlarni aniqlash, taqqoslash va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

“Klaster” metodi. Muayyan so‘z yoki tushuncha markazga joylashtirilib, unga aloqador tushunchalar tarmoqlar shaklida ifodalanadi. Masalan, “Tabiat” tushunchasi asosida o‘quvchilar daraxt, suv, hayvonot, o‘simlik, ob-havo kabi tushunchalarni guruhlaydi. Bu jarayonda ular tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash va bilimlarni tizimlashtirishga o‘rganadi.

“Venn diagrammasi” metodi. Ikki qahramon, ikki matn yoki ikki hodisaning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Masalan, ertakdagi ikki qahramonning xatti-harakatlari taqqoslanadi. O‘quvchi ularning umumiy xususiyatlari va o‘ziga xos jihatlarini dalillar bilan izohlaydi.

“Sabab va oqibat” metodi. Matndagi voqealar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishlarni aniqlashga yo‘naltiriladi. O‘qituvchi “Nima uchun bunday hodisa yuz berdi?”, “Agar qahramon boshqacha yo‘l tutganida, natija qanday bo‘lar edi?” kabi savollar beradi.

Tanqidiy va muammoli fikrlashni rivojlantiruvchi metodlar

Bu guruhdagi metodlar o‘quvchining axborotni shunchaki qabul qilishiga emas, balki uni tekshirish, savol ostiga olish, dalillar asosida baholash va muqobil qarashlarni ko‘rib chiqishiga yordam beradi.

“Muammoli savol” metodi. Matn mazmunidan kelib chiqib, bir nechta javobga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan savollar qo‘yiladi. Masalan: “Ertak qahramoni muammoni boshqa yo‘l bilan hal qilishi mumkinmidi?” O‘quvchilar o‘z fikrlarini matndan olingan dalillar bilan asoslaydi.

“Savol muallifi” metodi. O‘quvchilar matnni o‘qib bo‘lgach, faqat savollarga javob bermaydilar, balki o‘zlari ham mazmunli savollar tuzadilar. Savollarni tuzish jarayoni matn mazmunini chuqur anglash, muhim jihatlarni ajratish va muammoli nuqtalarni aniqlashni talab qiladi.

“Qahramon o‘rnida bo‘lsam...” metodi. O‘quvchilar matn qahramonining vaziyatini tasavvur qilib, uning o‘rnida qanday qaror qabul qilishlarini izohlaydilar. Ushbu metod tafakkur bilan bir qatorda, empatiya, axloqiy baholash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Tafakkurni rivojlantiruvchi didaktik o‘yin texnologiyalari

O‘yin texnologiyalari o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va bilish ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etilganda ta’limiy maqsadlarga erishishning samarali vositasiga aylanadi. Didaktik o‘yinning asosiy xususiyati unda o‘yin qoidalari bilan birga aniq o‘quv vazifasining mavjudligidir. Quyida ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida qo‘llash mumkin bo‘lgan o‘yinlar tizimi taklif etiladi.

Didaktik o‘yin nomi	**O‘yin mazmuni**	**Rivojlantiriladigan tafakkur ko‘nikmasi**
Ortiqchasini top	Berilgan so‘zlar orasidan mazmunan mos kelmaydiganini aniqlash	Tahlil, tasniflash, umumlashtirish
Mantiqiy zanjir	So‘z yoki voqealarni mantiqiy izchillikda joylashtirish	Mantiqiy fikrlash, ketma-ketlik
So‘zlar oilasi	Bir o‘zakdan yasalgan so‘zlarni topish va guruhlash	Tahlil, taqqoslash

Sirli so‘z	Belgilar yoki izohlar asosida yashirilgan so‘zni aniqlash	Mantiqiy xulosa, faraz ilgari surish
Matn detektivi	Matndan yashirin ma’no, xato yoki nomuvofiqlikni aniqlash	Tanqidiy tahlil, dalillash
Hikoyani tikla	Aralashtirilgan gaplarni mazmuniy izchillikda joylashtirish	Sintez, mantiqiy ketma-ketlik
Bir nechta yechim top	Muammoli vaziyatga bir nechta yechim taklif qilish	Divergent va ijodiy tafakkur
Topqirlar bellashuvi	Guruhlar o‘rtasida matn va tilga oid topshiriqlar musobaqasi	Tezkor fikrlash, hamkorlik, dalillash

Mazkur o‘yinlarni qo‘llashda ularning murakkabligi o‘quvchilarning yoshi, sinfi, til bilimi va tayyorgarlik darajasiga moslashtirilishi lozim. Masalan, 1-sinfda rasmlar va sodda so‘zlar asosida tashkil etilgan “Ortiqchasini top” o‘yini samarali bo‘lsa, 3-4-sinflarda matn mazmuni, qahramonlar xatti-harakati va sabab-oqibat munosabatlariga asoslangan murakkabroq topshiriqlardan foydalanish mumkin. **Interfaol metodlar va o‘yin texnologiyalarini uyg‘unlashtirish modeli**: Tadqiqot doirasida interfaol metodlar va didaktik o‘yinlarni alohida-alohida qo‘llash bilan cheklanmasdan, ularni yagona didaktik tizim sifatida tashkil etish taklif qilinadi. Ushbu yondashuv besh bosqichni qamrab oladi:

1-bosqich. Motivatsiya. O‘quvchilarda mavzuga qiziqish uyg‘otish uchun muammoli savol, rasm, qisqa matn yoki didaktik o‘yin vaziyati taqdim etiladi.

2-bosqich. Axborotni anglash. O‘quvchilar matnni o‘qiydi, so‘z va tushunchalar mazmunini aniqlaydi, muhim axborotlarni ajratadi.

3-bosqich. Faol tahlil. Klaster, Venn diagrammasi, “Sabab va oqibat” yoki “Matn detektivi” kabi metodlar orqali ma’lumotlar tahlil qilinadi.

4-bosqich. Mustaqil va ijodiy yechim. O‘quvchilar o‘yinli topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va ijodiy mashqlar asosida mustaqil fikr bildiradi hamda yechim taklif qiladi.

5-bosqich. Refleksiya va baholash. O‘quvchilar o‘z fikrlash jarayonini baholaydi, qanday xulosaga kelganini izohlaydi va o‘z faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlaydi. Ushbu modelning metodik mohiyati o‘quvchini tayyor javobni qabul qilishdan mustaqil izlanish, fikrni asoslash va xulosa chiqarishga olib borishdan iborat.

6. Metodik yondashuvning dars jarayonida qo‘llanishi

Masalan, 3-4-sinflarda o‘qish savodxonligi darsida “Do‘stlik va hamjihatlik” mavzusidagi matnni o‘rganish jarayonini quyidagicha tashkil etish mumkin:

Dars bosqichi	**Qo‘llaniladigan metod yoki o‘yin**	**O‘quvchining faoliyati**
Kirish	“Muammoli savol”	Do‘stlik tushunchasi yuzasidan fikr bildiradi
Matn bilan tanishish	Ifodali o‘qish va yo‘naltiruvchi savollar	Matn mazmunini anglaydi
Tahlil	“Venn diagrammasi”	Qahramonlarning xatti-harakatlarini taqqoslaydi
Mustahkamlash	“Matn detektivi”	Matndagi muhim dalillarni aniqlaydi
Ijodiy faoliyat	“Qahramon o‘rnida bo‘lsam...”	Muqobil qaror taklif qiladi
Yakun	“Savol muallifi” va refleksiya	Savol tuzadi, xulosa chiqaradi

Bu jarayonda o‘quvchining faolligi faqat topshiriqni bajarish tezligi bilan belgilanmaydi. Uning fikrini asoslay olishi, matndan dalil keltirishi, muqobil qarashlarni hisobga olishi va mustaqil xulosa chiqarishi asosiy ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari interfaol metodlar va o‘yin texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari o‘zaro yaqin bo‘lsa-da, ularning vazifalari va qo‘llanish mexanizmlari bir xil emasligini ko‘rsatadi. Interfaol metodlar, avvalo, o‘quvchilarning o‘zaro muloqoti, fikr almashinuvi, muammoni birgalikda tahlil qilishi va qaror qabul qilishini tashkil etishga xizmat qiladi. O‘yin texnologiyalari esa ushbu faoliyatni aniq qoida, vazifa, maqsad va natijaga yo‘naltirilgan o‘yin shaklida tashkil etadi. Shu sababli ularni bir-birining o‘rnini bosuvchi vositalar sifatida emas, balki o‘zaro to‘ldiruvchi didaktik mexanizmlar sifatida baholash maqsadga muvofiq. Masalan, “Venn diagrammasi” metodida taqqoslash faoliyati amalga oshirilsa, “Matn detektivi” o‘yinida shu faoliyat muayyan topshiriq, vaqt va qoidalar asosida tashkil etilishi mumkin. A. Bandura tomonidan asoslangan ijtimoiy-kognitiv yondashuvda kuzatish, o‘zaro ta’sir va o‘ziga ishonchning o‘rganish jarayonidagi ahamiyati ta’kidlanadi [5]. Ushbu nazariy qarashlar kichik guruhlarda ishlash, tengdoshlar bilan fikr almashish va o‘zaro yordamga asoslangan topshiriqlarni tashkil etishning pedagogik ahamiyatini izohlashga yordam beradi. O‘qish savodxonligini rivojlantirishda matnni anglash strategiyalarining ahamiyati ham alohida e’tiborga loyiq. A. Palincsar va A. Brown tomonidan ishlab chiqilgan o‘zaro o‘qitish yondashuvida savol berish, aniqlashtirish, umumlashtirish va oldindan taxmin qilish strategiyalari o‘quvchilarning matnni tushunish faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi [6]. Ushbu strategiyalarni interfaol metodlar bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning matn ustida mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Biroq interfaol metodlar va o‘yin texnologiyalaridan foydalanishning o‘zi avtomatik ravishda tafakkur rivojlanishini ta’minlamaydi. Ularning samaradorligi bir qator pedagogik shartlarga bog‘liq:

o‘yin va topshiriqlarning aniq ta’limiy maqsadga yo‘naltirilganligi;

topshiriqlarning o‘quvchilar yoshiga va individual imkoniyatlariga mosligi;

o‘quvchidan tayyor javobni takrorlash emas, fikrlash va asoslashni talab qilishi;

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

barcha o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash;

o‘qituvchining yo‘naltiruvchi va maslahat beruvchi rolini saqlab qolish;

natijalarni faqat to‘g‘ri javob bilan emas, fikrlash jarayoni bilan ham baholash.

Ayniqsa, musobaqa shaklidagi o‘yinlarda tezkorlikni yagona baholash mezoniga aylantirish to‘g‘ri emas. Chunki ayrim o‘quvchilar javobni tez topishi, boshqalari esa chuqur tahlil qilib, asoslangan xulosa chiqarishi mumkin. Shu bois baholashda aniqlik, mantiqiy izchillik, dalillash va ijodiy yondashuv kabi mezonlar ham hisobga olinishi zarur.

Tafakkur rivojlanishini baholash mezonlari

O‘quvchilarning interfaol mashg‘ulotlar va o‘yinlar jarayonidagi faoliyatini quyidagi mezonlar asosida kuzatish mumkin:

Mezon	**Yuqori daraja**	**O‘rta daraja**	**Boshlang‘ich daraja**
Tahlil qilish	Axborotni mustaqil qismlarga ajratadi va munosabatlarni aniqlaydi	Yo‘naltiruvchi savollar yordamida tahlil qiladi	Tahlilda sezilarli yordamga ehtiyoj sezadi
Mantiqiy xulosa	Mustaqil va izchil xulosa chiqaradi	Qisman asoslangan xulosa beradi	Xulosa chiqarishda qiynaladi
Dalillash	Fikrini matndan aniq dalillar bilan asoslaydi	Fikrini ayrim dalillar bilan izohlaydi	Fikrini dalillar bilan asoslashda qiynaladi
Ijodiy yondashuv	Bir nechta muqobil yechim taklif qiladi	Bitta mustaqil yechim taklif qiladi	Yechim topishda ko‘makka muhtoj
Refleksiya	O‘z faoliyatini baholaydi va xatolarini anglaydi	O‘qituvchi ko‘magida o‘z faoliyatini baholaydi	O‘z faoliyatini baholashda qiynaladi

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Ushbu mezonlar o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini kuzatish uchun metodik vosita sifatida taklif etiladi. Ular tajriba-sinov natijalari yoki standartlashtirilgan diagnostika vositasi sifatida talqin qilinmasligi kerak.

XULOSA

Ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda interfaol metodlar va o‘yin texnologiyalaridan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkurini rivojlantirish uchun muhim didaktik imkoniyatlarga ega. Mazkur vositalar o‘quvchilarning til hodisalari va matn mazmunini anglash, axborotni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, muammoli vaziyatlarni hal etish va mustaqil xulosa chiqarish faoliyatini tashkil etishga xizmat qiladi.

Tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi: Interfaol metodlar o‘quvchilarning bilish faoliyatini hamkorlik, muloqot va mustaqil fikrlash asosida tashkil etish imkonini beradi. Ularning samaradorligi o‘quvchining faol ishtiroki va fikrini asoslashiga bog‘liq. Didaktik o‘yinlar til va matn bilan ishlash jarayonini maqsadli, qiziqarli va muammoli faoliyatga aylantiradi. Bunda o‘yin qoidalari ta’limiy vazifaga bo‘ysundirilishi lozim. “Klaster”, “Venn diagrammasi”, “Sabab va oqibat”, “Savol muallifi” kabi interfaol metodlar hamda “Ortiqchasini top”, “Mantiqiy zanjir”, “Matn detektivi”, “Hikoyani tikla” kabi didaktik o‘yinlar turli tafakkur operatsiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilishi mumkin. Interfaol metodlar va o‘yin texnologiyalarini uyg‘unlashtirishda motivatsiya, anglash, tahlil, mustaqil yechim va refleksiya bosqichlariga asoslangan metodik modeldan foydalanish maqsadga muvofiq. Tafakkur rivojlanishini baholashda to‘g‘ri javob bilan bir qatorda, o‘quvchining fikrni asoslash, dalil keltirish, muqobil yechim taklif qilish va o‘z faoliyatini baholash qobiliyatiga ham e’tibor qaratish zarur. Shunday qilib, ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida interfaol metodlar hamda o‘yin texnologiyalarini maqsadli va tizimli qo‘llash o‘quvchilarni bilimlarni takrorlovchi ijrochidan mustaqil fikrlovchi, izlanadigan, tahlil qiladigan va o‘z qarashlarini asoslay

oladigan faol ta'lim subyektiga aylantirishga xizmat qiluvchi muhim metodik yo'nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vygotsky, L. S. (1986). *Thought and Language*. Revised and edited by A. Kozulin. Cambridge, MA: MIT Press.
2. Bruner, J. S. (1961). The Act of Discovery. *Harvard Educational Review*, 31(1), 21–32.
3. Johnson, D. W., Johnson, R. T., & Smith, K. A. (1998). Cooperative Learning Returns to College: What Evidence Is There That It Works? *Change: The Magazine of Higher Learning*, 30(4), 26–35.
4. Flavell, J. H. (1979). Metacognition and Cognitive Monitoring: A New Area of Cognitive–Developmental Inquiry. *American Psychologist*, 34(10), 906–911. https://doi.org/10.1037/0003-066X.34.10.906
5. Bandura, A. (1986). *Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
6. Palincsar, A. S., & Brown, A. L. (1984). Reciprocal Teaching of Comprehension-Fostering and Comprehension-Monitoring Activities. *Cognition and Instruction*, 1(2), 117–175. https://doi.org/10.1207/s1532690xci0102_1
7. Pyle, A., DeLuca, C., & Danniels, E. (2017). A Scoping Review of Research on Play-Based Pedagogies in Kindergarten Education. *Review of Education*, 5(3), 311–351. https://doi.org/10.1002/rev3.3097
8. Gee, J. P. (2003). *What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy*. New York: Palgrave Macmillan.
9. OECD. (2019). *PISA 2018 Assessment and Analytical Framework*. Paris: OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/b25efab8-en
10. UNESCO. (2017). *Reading the Past, Writing the Future: Fifty Years of Promoting Literacy*. Paris: UNESCO.

MUNDARIJA

1	**12-13-yoshli regbichilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining tahlili** Mo’minov X.M.	3
2	**Description of the key decrees and decrees of the president of the republic of uzbekistan shavkat miromonovich mirziyoyev in the field of arts and culture** Achildieva M.A., Shodiyeva Sh.Sh.	11
3	**Применение методов искусственного интеллекта для оптимизации управления спортивными организациями: модели, алгоритмы и практические кейсы** Мирахматова М. А.	22
4	**Ai-driven optimization of management processes in sports organizations: frameworks, decision support, and implementation challenges** Mirahmatova M.A.	31
5	**Artificial intelligence readiness and gender equity in central asian higher education institutions** Shukurilloyeva L.Sh.	43
6	**Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvistik modellashtirish malakalarini shakllantirishda raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish samaradorligi** Jurabayeva Z.Z.	55
7	**Trenerlik faoliyatini tizimli yondashuv asosida takomillashtirishda «lider–trener» 6 modeli metodikalarining samaradorligi (basketbol misolida)** Norkulov D.R.	65
8	**13–14 yoshli yosh futbolchilarda statik va dinamik mashqlardan foydalangan holda topga zarba berish texnikasini takomillashtirish metodikasi** Abduvositov S.B.	75
9	**An improved model for the development of linguistic modeling skills in primary school mother tongue education** Jurabayeva Z.Z.	93
10	**Gumanitar ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talaba qizlarning kasbiy faoliyatiga xos jismoniy va psixofiziologik talablar** G‘ulomjonov G‘.G‘.	106
11	**Pedagoglarning kasbiy faoliyatida stressni boshqarish va kasbiy barqarorlikni ta’minlashning pedagogik mexanizmlari**	121

	Abdusamiyev D.A.	
12	**Shashmaqom strukturasıda tasavvufıy g‘oyalar va strukturavıy qonunıyatlarnıng ıntegratsıyası** Narzullayeva D.P.	135
13	**Adabiy ta’limda gaymifikatsiya orqali badiiy matn ustida ishlash metodikasi** Abdujabborova N.R.	144
14	**“Ijtimoiy faollik” va “kompetentlik” tushunchalarining nazariy-metodologik asoslarini yorituvchi tadqiqotlar** Yakubova Sh.E.	154
15	**Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida milliy o’zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari** Turaboyev A.M.	161
16	**Talaba–sportchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda zamonaviy mashg‘ulot metodlarining o‘rni** Adhamova N.S.	171
17	**Talabalarning tarixiy tafakkur darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqishda xalqaro tajribaning nazariy va metodologik asoslari** Axmedov A.M.	186
18	**Tarbiyaviy ta’sir tushunchasi: tarbiyaviy ta'sirning ta'lim motivatsiyasidagi o’rni** Islomov R.T.	194
19	**Geymifikatsiya asosida tarixiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik shartlari** Axmedov A.M.	200
20	**Generativ sun'iy intellekt vositalari asosida algoritmik tafakkurni rivojlantirishning dasturiy vositalari va pedagogik imkoniyatlari** Shodiyev A.O.	212
21	**Муҳандислик соҳасида гендер тенглик муносабатлари** Алматаев Т.О.	225
22	**Oav tili va og‘zaki nutqda qo‘shma gaplarning propozitsional intensivligi: sintaktik va pragmatik tahlil** Otaxonova G.K.	241
23	**Raqamli transformatsiya jarayonida boshlang‘ich ta’limning innovatsion didaktik modeli** Samidjonova M.	251
24	**Raqamli pedagogika sharoitida boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishning integrativ modeli**	258

	Karimova G.	
25	**Mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o‘‘rgatish - o‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlash** Qo‘chqorov M.	265
26	**Immersiv texnologiyalar vositasida talabalarning tanqidiy tarixiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi** Yuldashev J.A.	272
27	**Yashil kimyo ta’limini tashkil etishning xususiyatlari, tamoyillari va xorijiy talablari** Tursunova S.D.	283
28	**Topishmoqlarda olam lisoniy manzarasining konseptual asoslari** Shodmonov M.	294
29	**Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatsevarlik fazilatining mazmuni va pedagogik ahamiyati** Alisherova R.O.	302
30	**Paralimpiya sport turi bilan shug‘ullanuvchi talabalarning kuch sifatini takomllashtirishda elektron ta’lim dasturining o‘rni** Mahmudjonov A.A.	312
31	**Methodological aspects and challenges of foreign language training for international medical students in uzbekistan** Sharipova F.I.	319
32	**Экспериментальное обоснование методики совершенствования технико-тактических действий парадзюдоисток с нарушением зрения** Ишлаева Э.У.	330
33	**Oliy ta’lim tizimida talabalarning antitsipativ kompetensiyalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida** Sadriddinova F.M.	353
34	**Integratsiyalashgan ekologik ta’limdan kelajak avlodlar uchun tabiiy kapitalni himoya qilish vositasi sifatida foydalanish** Radjabov Z.N.	359
35	**Современные подходы к использованию искусственного интеллекта в подготовке педагогических кадров** Артикова Н.Ш.	366
36	**Yengil atletikaning uloqtirish turlarida (nayza, disk yoki yadro) sportchilarning tezkor-kuch sifatlarini** Odiljonov O.O.	377

37	**Асосий гимнастикада ҳаракат, касбий билим ва кўникмаларни таркиб топтириш** Нурхонова М.И., Хайтметов И.С.	383
38	**Principles for fostering independent thinking in grades 7-8 through english education** Khamidova I.B.	390
39	**Raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish** Xojikulova O.A.	399
40	**Talabalarnı ommavıy sport bılan muntazam shug'ullanıshga jalb etıshda tanıta bıoımpedans analızatorı va raqamlı texnologıyalardan foydalanısh samaradorlıgı** Bobomuradov A.E.	405
41	**Taekvondo (wt) sportchilarining musobaqa faoliyatida texnik-taktik harakatlar samaradorligini oshirishning ilmiy-metodik asoslari** Nazarov N.N.	416
42	**Para-o'qotuvchilarni tayyorlashda psixomotor va funksional monitoring asosida individual pedagogik boshqaruv metodikasi** Muradov F.M.	424
43	**Гимнастика машқларини ўзлаштиришда ўйин методидан фойдаланиш самарадрлиги** Нурхонова М.И.	435
44	**Taekvondo (wt) sportchilarini tayyorlash jarayonida funksional holat va maxsus ish qobiliyati ko'rsatkichlarini optimallashtirish** Nazarov N.N.	444
45	**Enhancing student motivation through ai-powered educational tools** Egamova M.	452
46	**8-sinf "o'zbekiston tarixi" darsligida mahalliy tarixiy manbalardan foydalanishning didaktik tizimi va metodik imkoniyatlari** Abdug'ofurova R.X.	462
47	**Yangi o'zbekiston taraqqiyotida sport sohasidagi islohotlarning ahamiyati** Usmanov Y.T.	469
48	**Ichki migrant talabalarning ta'lim jarayonida ijtimoiy faolligini oshirish orqali fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash yo'llari** Eshonjonov B.Z.	474
49	**Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida innovatsion ilmiy-tadqiqot muhitini rivojlantirish yo'llari** Nazarov O.D.	484

50	**Developing civil engineering student's oral communicative competence through a differentiated approach in esp classes** Khaydarova S.Z.	492
51	**Bo'lajak maxsus pedagoglarda kasbiy masulyatni shakllantirishga ta'sir etuvchi shart-sharoitlar** Xalimova O.	516
52	**Aktyor badiiy nutqini rivojlantirishda she'riy dramalarning pedagogik qiymati** Tuyg'unov D.M.	523
53	**Raqamli ta'lim muhitida badiiy matnlarni tahlil qilish: globallashuv omillarining ta'siri** Oymatova N.M.	533
54	**Глобаллашув шароитида таълим кластери субъектларининг функционал бошқарув тизимини такомиллаштириш** Бадалова М. У.	542
55	**История и традиции узбекской фантастической литературы: сравнительно-типологический анализ этапов развития** Турсунова М.И.	549
56	**10–12 yoshli badiiy gimnastikachilarning texnik tayyorgarligini sun'iy intellekt asosidagi videoanaliz texnologiyalari yordamida takommilashtirish** Allaberganova N.Sh.	561
57	**Katta va tayyorlov guruhi bolalarini maktabga tayyorlik darajasiga qo'yiladigan talablar** Abdusamatova N.J.	572
58	**Basketbolchilarni ko'p yillik tayyorlash tizimining nazariy asoslari** Baxtiyorov U.B.	582
59	**Badiiy gimnastikachilarda egiluvchanlikni rivojlantirishning samarali usullari** Allaberganova N.Sh.	597
60	**Boshlang`ich 4-sinf o'quvchilarini sport mashg'ulotlarida jismoniy qobiliyatlarini shakllantirishning samaradorligini oshirishning turlari va metodlari** Asqarov A.A., Anvarbekova I.A.	604
61	**Virtual laboratoriya texnologiyalarining "o'zgarmas tok" bo'limini o'qitishdagi samaradorligi** Abbosova N.B.	611

62	**Ingliz idiomalarini o‘zbek tiliga tarjima qilish muammolari va ularning yechimlari** Anvarbekova I.A.	623
63	**Инновационные методы совершенствования технической подготовки метателей диска** Щукина Ю. А.	632
64	**Методика развития специальной физической подготовки в лёгкой атлетике (метание диска)** Щукина Ю.	640
65	**Multimodal matnlarning dalillarga asoslangan o‘qish savodxonligini rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari** G‘ofurova D.T.	648
66	**Oliy ta’lim muassasalari talablarini boks sport turi bo‘yicha hakamlikka o‘rgatish** Akramov I.I.	660
67	**Interaktiv metodlar orqali talabalarda boks sport turi bo‘yicha hakamlik ko‘nikmasini rivojlantirish** Akramov I.	672
68	**Gender tengligi konsepsiyasini o‘qitish jarayonida talabalarda demokratik qadriyatlarni shakllantirish metodikasi** Xamidjonova S.	683
69	**Художественная семантика любви в прозе а.п. чехова** Абдуллаева И.М.	695
70	**Kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorgarlikni takomillashtirishda interfaol ta’lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi** Abdualiyev H.T.	711
71	**Kichik guruh faoliyatini nemis tili darsida padlet platformasida tashkil etishning nazariy metodologik asoslari** Tolipova Sh.B.	720
72	**Aviatsiya talabalari kommunikativ kompetensiyasini sun'iy intellekt asosidagi chatbotlar yordamida rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari** Ergashaliyeva D.B.	734
73	**Korporativ oliy ta’lim sharoitida rahbar-kadrlarning soft-kompetensiyalarini rivojlantirishning andragogik mexanizmlari** Axrorova U.X.	745
74	**Malakali gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini kompleks mashqlar orqali oshirishdagi muammolar** Zaribboyev Z.F.	758

75	**Yosh o‘qituvchilarning emotsional barqarorligi va kasbiy moslashuvi o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlik** Sotvoldiyeva Z.A., Maxsudova M.A.	769
76	**Xx asrning 20–40-yillarida o‘zbekistonda ilm-fan va ta’lim tizimining shakllanishi: muammo va yechimlar** **Qudratov A.T.**	780
77	**Gandbol sport turining yoshlarni jismoniy tayyorlashdagi ahamiyati** Abdulboriyeva G.A.	787
78	**Gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish** Asqarova D.A.	799
79	**Integrating innovative technologies and simulation into contemporary urology training** Sayfetdinov S.I.	813
80	**Sohaga yo‘naltirilgan o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy asoslari** Dadabayev Z.Z.	824
81	**Tayanch so‘zlar asosida talabalar bilimini formativ baholash metodikasini takomillashtirishning innovatsion modeli** Davidova D.T.	838
82	**Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida hissiy intellektni rivojlantirishning pedagogik omillari** Abrayeva M.B.	846
83	**Yashil kimyo ta`limini rivojlantirishning halqaro tajibalari** Yusupova H.Sh., Qodirxonov M.R.	860
84	**Ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarining kreativ kompetentligini ingliz tili ta’limi asosida rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari** Madaminova M.Sh.	870
85	**5–6-sinf o‘quvchilarida somatotipga asoslangan jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini aniqlash va tahlil qilish** Izatullayev A.M.	880
86	**400 metrga g‘ovlar osha yuguruvchilarning tezkor chidamliligini oshirish samaradorligi** Satkulov B.M.	889
87	**13–14 yoshli voleybolchilarda o‘yin faoliyatiga mos sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini takomillashtirish** Tuxtaboeva N.A.	900
88	**Globallashuv va yoshlar tarbiyasi**	911

	Xujamov M.E.	
89	**Bo‘lajak mutaxassislarni yangi avlod darsliklari bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning dolzarbligi** Abdujlilov F.P.	919
90	**Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida clil + 5e modeli asosida fizika darslarini loyihalash va tashkil etish** Jumamuratova N.S.	932
91	**Communicative functions of proverbs across contemporary types of discourse** Yesimova G.Dj.	955
92	**Immersiv texnologiyalar vositasida talabalarning tanqidiy tarixiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi** Yuldashev J.A.	979
93	**Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida ta’lim-tarbiya va axloqiy kamolot masalalari** Eshmurodova N.O.	990
94	**Maot modeli (mediaart o‘qitish tizimi) asosida musiqa va san’at maktablarida mediavositalardan foydalanishning pedagogik metodikasini takomillashtirish** Abdiyev R.O.	999
95	**Bo‘lajak pedagoglarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning raqamli pedagogik imkoniyatlari** Ismoilova G.O.	1008
96	**Texnologiya darslarida zaruriy raqamli infratuzilma va texnik qo‘llab-quvvatlash omillari** Ziyamova G.T.	1016
97	**Национально-культурная специфика образных компонентов русских и узбекских пословиц: сопоставительный анализ** Есимова Г.Дж.	1029
98	**Basketbolchilarni ruhiy tayyorgarliklarini tarbiyalashning usullari** Shamsitdinova M.F.	1050
99	**Ingliz tili mashg‘ulotlarida yurisprudensiya ta’lim yo‘nalishi talabalarining yozuv malakalarini rivojlantirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalari** Raxmanova D.A.	1058
100	**Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan yo‘riqnomalar asosida yong‘in xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish** Kambarov A.H., Rajabboyev B.E.	1071

101	**Ta'lim muassasalarida xavfsizlik madaniyatini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari** Alimov Sh.A., Isoqov A.Q., Xoldarov A.R.	1079
102	**O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda katta avlod tajribasidan foydalanish metodikasi** Niyozova N.A.	1084
103	**Bo'lajak tarbiyachilarning shakllantirishga tayyorgarligi maktabgacha yoshdagi bolalarda metakognitiv ko'nikmalar: mezon va darajalar** Karimova G.B.	1093
104	**Malakali futbolchi qizlarning tezkorlik sifatlarini rivojlantirish metodikasining samaradorligi** Nodirov B.H.	1108
105	**Raqamli media faoliyatning bo'lajak pedagoglar media-kompetentligini rivojlantirishdagi ahamiyati** Davletova X.S.	1118
106	**Principles of linguistic focusing in modeling the process of students' speech development** Ilhomova N.I.	1126
107	**Резекция печени при местнораспространенном раке желудка** Касымов А.А., Абдихакимов А.Н.	1133
108	**Koordinatsion qobiliyatning rivojlanishidagi buzilish tarixiy, diagnostik asoslar** Raximov K.A.	1140
109	**Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tezkorlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirishda milliy harakatli o'yinlardan tabaqalashtirilgan foydalanish metodikasi** Xabibillayeva I.J.	1150
110	**Milliy harakatli o'yinlar asosida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning chidamlilik va kuch sifatlarini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari** Xabibillayeva I.J.	1162
111	**Грамматические трансформации, обусловленные типологическим различием русского и каракалпакского языков** Толегенова Г.Ж.	1175
112	**Qiziqishdan maqsad sari: boshlang'ich sinf o'quvchilarida yaponlarning ikigai yondashuvi asosida o'zini anglashni rivojlantirish** Abduraxmanova A.O.	1187

113	**Bo‘lajak geografiya fani o‘qituvchilarini kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish modelini takomilashtirish** Shadiyeva N.Sh.	1196
114	**Developing english scientific-technical reading competence in food technology education: a structural-functional analysis** Abdullayeva Sh.A.	1208
115	**Теоретические основы изучения и формирования управленческих компетенций будущих семейных врачей** Абдувахобову Н.Р.	1224
116	**Yosh voleybolchilarda sakrash chidamkorligini rivojlantirishda plyometrik mashqlardan foydalanish metodikasi** Tuxtaboeva N.A.	1238
117	**O‘quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning samarali shakl, metod va vositalari** Boymirzayev A.K.	1250
118	**O‘zbekiston respublikasi qurolli kuchlarida harbiy xizmatni o‘tash mazmun - mohiyati va ularga qo‘yilgan talablar** Jozilov A.A.	1259
119	**Kasbiy-interpretativ tafakkur tushunchasining pedagogik-psixologik mohiyati va tuzilishi** Xayrullayeva N.J.	1264
120	**“Yosh kitobxon” to‘garagida xalq ertaklari asosida axloqiy tanlovni muhokama qilish metodikasi** Turaxodjayeva Z.Y.	1274
121	**Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini badiiy jamoalar asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (cholg‘u ijrochilik misolida)** Sobirov N.H.	1283
122	**Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar mafkuraviy tarbiyasiga ta'siri: imkoniyatlar, tahdidlar va pedagogik yondashuvlar** Begimkulov I.B.	1292
123	**Boşlanğiç sinf öquvçilarida öqiş va matnni tuşuniş könikmalarini rivojlantiriş mexanizmi** Asqarova M.A.	1302
124	**Ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda tafakkurni rivojlantiruvchi interfaol metodlar va o‘yin texnologiyalarining ilmiy-metodik asoslari** Ziyomiddinova N.A.	1315